

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA AGROTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
IJTIMOIIY VA GUMANITAR FANLAR KAFEDRASI



DINSHUNOSLIK
FANIDAN O'QUV- USLUBIIY MAJMUA
(barcha ta'lim yo'nalishlari uchun)

TERMIZ - 2024

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti tomonidan tasdiqlangan (2023-yil 8-avgust №_____) dastur asosida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: _____**Maxmud Abdimo'min o'g'li Majitov**, PhD falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:_____ **Ulash Utayevich Mustafayev**,dotsent, falsafa fanlari nomzodi

_____ **Hakim Mamanovich Rasulov**,dotsent,siyosiy fanlar nomzodi

Ushbu o'quv-uslubiy majmua «Ijtimoiy va gumanitar fanlar» kafedrasining 2024 yil "_____" yig'ilishida muhokama qilindi va fakultet Kengashida ko'rib chiqish uchun tavsiya qilindi.

kafedra mudiri: _____ (PhD) T.Xoliyarov

Ushbu o'quv-uslubiy majmua Qurilish va irrigatsiya fakulteti Kengashida ko'rib chiqildi va TerDMAU o'quv-metodik Kengashiga tasdiqlash uchun tavsiya qilindi. (2024 yil "_____" Bayonnoma №_____)

Fakultet dekani,

Kengash raisi: _____ (PhD) dots.A.Butayarov

Ushbu o'quv-uslubiy majmua TerDMAU o'quv-metodik Kengashida muhokama etilgan va o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya etilgan.(2024 yil "_____" №_____)

I. O‘quv materiallari:	3
1.1 Ma’ruza matnlari.....	4
1.2 Seminar mashg‘ulotlari.....	227
II. Mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari	253
III. Glossariy	269
IV. Ilovalar:	276
4.1 Fan o‘quv dasturi..... (alohida sahifalangan)	
4.2 Sillabus.....(alohida sahifalangan)	
4.3 Tarqatma materiallar	277
4.4 Testlar.....	289
4.5 Baholash mezonlari.....	307
4.6 O‘UMning elektron varianti	308

1-MAVZU. DINSHUNOSLIK FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI

Reja:

1. Dinshunoslikning fan sifatida shakllanishi, predmeti, funksiyalari, kategoriyalari. Dinshunoslikning boshqa ijtimoiy fanlar bilan o'zaro aloqasi.
2. Din, dinshunoslik, din falsafasi, teologiya, teosofiya, xudojo'ylik, diniy e'tiqod, aqida, ilohiyot tushunchalarining mohiyati.
3. Dinning funksiyalari va ijtimoiy ahamiyati.
4. Din dunyoqarash shakli va uning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri.
5. Dinlarning tasnifi. Ibtidoiy e'tiqodlar.

Tayanch so'z va iboralar: *Dinshunoslik, din, e'tiqod, transsendent, immanent, kult, teologiya, teosofiya, xudojo'ylik, totemizm, animizm, fetishizm, shomonizm, din fenomenologiyasi, din sotsiologiyasi, din psixologiyasi va din falsafasi.*

1-reja bayoni. Dinshunoslikning fan sifatida shakllanishi, predmeti, funksiyalari, kategoriyalari. Dinshunoslikning boshqa ijtimoiy fanlar bilan o'zaro aloqasi.

«Dinshunoslik» dinning paydo bo'lishi va rivojlanishi tarixini, uning ijtimoiy, gnesologik psixologik ildizlarini, turli xil dinlar ta'limotining vujudga kelishi va shakllanishini o'rgatuvchi fandir, ta'limot va o'kuv predmetidir, u dastlabki diniy tasavvurlarning paydo bulishidan urug'-qabila, milliy va jahon dinlari paydo bo'lgan barcha ijtimoiy xodisalarni, ma'naviy omillarni – mafkura va aqidalar, urfodat va marosimlar, masjid va diniy tashkilotlarning talab va tartiblarini o'rganish, tahlil qilishni ko'zda tutadi.

Din muammolariga xos dastlabki g'oyalar Markaziy Osiyoda – deizm, panteizm va boshqalar, bu o'lkada yashagan, ijod qilgan ulug' allomalar Muhammad Muso Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyomning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida, Ibn Rushdning «Ikki haqiqat» ta'limotida olg'a surilgan edi. XVII asrda Boburning nabirasi Shox Akbar, so'ngra XVII asrda fransuz faylasuflarining dinga, diniy tashkilotlarga munosabatlari XIX asrda ilmiy dinshunoslik doirasida yangi oqim, yunalish va nazariyalar yuzaga kelishiga katta turtki bo'lgan.

Dinshunoslik kursini o'qitishdan **1-maqсад** talabalarni din va diniy ta'limotlarning diniy talqinidan tashqari ilmiy tushuncha, ta'limot, nazariya, falsafiy xulosalar bilan qurollantirishdan iborat. Buning uchun hozirgi zamon fani yutuqlari asosida dinning kelib chiqishi, evolyusiyasi, hozirgi xolati, insoniyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayotida tutgan o'rni haqida ilmiy-nazariy ta'limotlar bilan qurollantirish ko'zda tutiladi.

2-maqсад O'rta Osiyoda, shu jumladan O'zbekistonda IX asrdan boshlab islom yagona hukmron dinga aylanganligi, xalqimiz turmush tarziga chuqur kirib borganligini hisobga olib, uning shaxs, oila, jamiyat hayotida tutgan o'rni, madaniyat va ma'naviyat, san'at va adabiyotni boyitishga qo'shgan xissasi xususida talabalarni ilmiy-falsafiy bilimlar asosida fikr yuritishga o'rgatishidan iborat.

3-maqсад talabalarda ibtidoiy dinlardan tortib to jahon dinlarigacha bo'lgan dinlarning shakllari, ta'limotlari, yo'nalish va oqimlari mazhab va sektalari haqida umumiy ilmiy tasavvur hosil qilish orqali o'zlari mustaqil falsafiy xulosalar chiqara olish malakasini hosil qilishdan iborat.

«Dinshunoslik» kursining **vazifalari** quyidagilardan iborat:

Birinchidan, Oliy o'quv yurti talabalariga shu soxada chuqur bilim berish orqali kurs doirasiga kirgan masalalarni taxlil etishda ilmiylik va ob'yektivlik uslubini qo'llanib, ularga diniy qarashlar taraqqiyotiga, inson kamolotiga xizmat qiladigan jihatlarni ajratib olish, mustaqil fikr yuritish orqali ilmiy-falsafiy dunyoqarashga asoslangan dunyoviy iymon va e'tiqodni shakllantirish.

Ikkinchidan, ibtidoiy din shakllaridan tortib to urug'-qabila va milliy dinlargacha, ularda jahon dinlarining paydo bo'lishi va rivojlanishining ijtimoiy, gnoseologik va psixologik ildizlarini tarixiy dalillar asosida har tomonlama ilmiy taxlil qilish va umumlashtirish.

Uchinchidan, kursni o'rganish jarayonida dinning ta'rifi, tavsifi, diniy va ilmiy kategoriya (asosiy tushunchalar), dinning mohiyati va uning kishilik jamiyati taraqqiyotidagi turli bosqichlarda tutgan o'rni; jamiyatni, shaxsni ma'naviy kamol toptirishda milliy va diniy qadriyatlarning ahamiyati; Islomning Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekiston xalqlari madaniyati va ma'naviyatiga ta'siri kabi masalalarni falsafiy taxlil qilish.

Turtinchidan, talabalarga islom manbalari – Qur'oni Karim, Hadis, shariat haqida umumiy ilmiy tushunchalar berish, uni rivojlantirishga ulkan xissa qo'shgan vatandosh bobokalonlarimiz hayoti va ijodi bilan tanishtirish; hadislarning tarbiyaviy ahamiyatini keng yoritish; tasavvuf ta'limotini takomillashtirishda xamyurtlarimiz ijodini bayon etish.

Beshinchidan, hozirgi davrda mustaqil mamlakatimizda vijdon erkinligining to'liq kafolatlanganligini isbotlab berish, islomdagi real qadriyatlarni tiklash yo'lida qilinayotgan sa'y-xarakatlarni tavsiflash, nixoyat, milliy va diniy qadriyatlarning bugungi kundagi ahamiyatini ochib berishdan iboratdir.

Dinshunoslik fanining predmeti. «Dinshunoslik» dinning paydo bo'lishi va rivojlanishi tarixini, uning ijtimoiy, gnoseologik, psixologik ildizlarini, turli xnl dinlar ta'limotining vujudga kelishi va shakllanishini o'rgatuvchi fan, ta'limot va o'kuv predmetidir. U dastlabki diniy tasavvurlarning paydo bo'lishidan urug'-qabila, milliy va jahon dinlari paydo bo'lgan davrda yuz bergan jarayonni hamda jamiyat taraqqiyotida din bilan bog'liq bo'lgan barcha ijtimoiy, hodisalarni, ma'naviy omillarni - mafkura va aqidalar, urf-odat va marosimlar, diniy tashkilotlarning talab va tartiblarini o'rganish, taxlil qilishni ko'zda tutadi.

Din muammolariga xos dastlabki g'oyalar Markaziy Osiyoda -deizm, panteizm va boshkalar, bu o'lkada yashagan, ijod qilgan ulug' allomalar Muhammad Muso Xorazmiy, Axmad Farg'oniy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyomning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida, Ibn Rushdning "Ikki haqiqat" ta'limotida olg'a surilgan edi. XVII asrda Boburning nabirasi Shoh Akbar, so'ngra XVIII asrda fransuz faylasuflarining dinga, diniy tashkilotlarga munosabatlari XIX asrda ilmiy dinshunoslik doirasida yangi oqim, yo'nalish va nazariyalar yuzaga kelishiga katta turtki bo'lgan. Binobarin, XIX asrda mifologik maktab (aka-uka Ya. va V. Grimm, M.Myuller); antropologik maktab (L.Feyerbax) va boshqa maktablar paydo bo'lgan. XX asrda dinshunoslik yanada yangi nazariyalar bilan boyigan. Bu haqda shveysariyalik psixolog K.Yung va ayniqsa, fransuz sotsiologi E.Dyurkgeymning "kollektiv ong" haqidagi ta'limoti diqqatga sazovordir.

Ammo o'sha davr dinshunosligi dinga o'z ijtimoiy-siyosiy qarashlarini bayon etar ekan, bu qarashlari diniy tashkilotlar manfaatlari bilan bog'lanmagan, mafkuraviy jihatdan betaraf qilib ko'rsatmoqchi bo'lgan. Bu urinishlarni "asoslash" da turli falsafiy hamda ijtimoiy nazariyalardan foydalanilgan. Amalda esa ilohiyotga ko'proq yondashilgan.

Olimlarning dinshunoslik sohasidagi izlanishlari muhim xulosalar chiqarishga olib kelgan: birinchidan, har kanday din ijtimoiy hodisa fenomen hisoblanib, diniy ong ijtimoiy ong shakllaridan biridir; ikkinchidan, diniy tasavvur va e'tikodlar jamiyat taraqqiyotining muayyan

ijtimoiy sharoitlari ta'sirida turli-tuman shakl kasb etgan; uchinchi, ibtidoiy diniy tasavvurlardan tortib jahon dinlarigacha bo'lgan dinlar evolyusiyasini e'tirof etish dinshunoslik haqida to'g'ri ilmiy xulosa chiqarish imkoniyatini beradi.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, "Dinshunoslik" predmetini quyidagicha ta'riflash mumkin: *Dinshunoslik kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyotining muayyan bosqichida paydo bo'lgan barcha din shakllarining ma'naviy, ijtimoiy, gnoseologik va psixologik ildizlarini, ularning ta'limoti va marosimchiligi, ijtimoiy hayotdagi mavqei va ijtimoiy funksiyalarini ilmiy jihatdan o'rganuvchi fandir.*

«Dinshunoslik» kursining falsafa, tarix etika, psixologiya fanlari bilan bog'liqligidan tahqari bu kurs din sosiologiyasi bilan ham bog'liq bo'lib, uning natijalari muqim amaliy ahamiyatga ega.

Din va sosiologiyada muayyan aholi o'rtasida dinga, uning qadriyatlariga hamda ijtimoiy rolini aniqlash maqsadida sosiologik tadqiqotlar o'tkaziladi. Bu tadbir sosiologik tadqiqot metodikasi, so'rov varaqalari ishlab chiqilgandan so'ng ishga solinadi. Olingan natijalar muayyan hududda diniy vaziyatni, diniy ong darajasini, ijtimoiy hayotdagi rolini aniqlashda yordam beradi.

Bulardan tashqari «Dinshunoslik» din antropologiyasi, din fenomenologiyasi, din aksiologiyasi kabi fan tarmoqlari yutqlaridan ham foydalanishning muayyan amaliy ahamiyati mavjuddir.

2-reja bayoni. Din, dinshunoslik, din falsafasi, teologiya, teosofiya, xudojo'ylik, diniy e'tiqod, aqida, ilohiyot tushunchalarining mohiyati.

Din azaldan inson va jamiyat hayotining ma'naviy asosi, poydevori bo'lib kelgan. Din vositasida insonning biologik tabiati, hayvonot olami bilan umumiy jihatga ega bo'lgan fiziologik mayllari, ehtiyoj va instinktlari jilovlandi, ularga insoniy qiyofa berildi. Hozirgi kunga kelib, din ijtimoiy hayotning muhim omiliga aylandi, u ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'rnini saqlab qoldi. Lekin uning ahamiyati turli ijtimoiy-siyosiy tuzumlarda turlichadir. Din yetakchi mafkura hisoblangan davlatlar ham talaygina. Dunyoning qator davlatlarida din o'zining siyosiy mavqeini mustahkamlash uchun harakat qilmoqda.

Hozirgi kunga kelib, din ijtimoiy hayotning muhim omiliga aylandi, u ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'rnini saqlab qoldi. Lekin uning ahamiyati turli ijtimoiy-siyosiy tuzumlarda turlichadir. Din yetakchi mafkura hisoblangan davlatlar ham talaygina. Dunyoning qator davlatlarida din o'zining siyosiy mavqeini mustahkamlash uchun harakat qilmoqda.

Din- Arab tilidagi manbalarda qayd etilishicha, din so'zi دان ("dâna") fe'ildan yasalgan bo'lib, "kimgadir bo'ysunmoq, bo'yin egmoq, itoat etmoq, kimdandir qarzdor bo'lmoq, e'tiqod qilmoq, qilgan ishiga yarasha mukofotlamoq"; "diynun" so'zi esa, "din, imon, ajr-mukofot, qilingan ishga yarasha berilgan haq" kabi ma'nolarni bildiradi.

O'zbek tili lug'at adabiyotlarida "din" – ishonch, ishonmoq, e'tiqod, mulk, hukm, hisob, jazo, tadbir, bo'ysunish, itoat qilish, ibodat, parhez, yo'l tutish, odat qilish, e'tiqod qilish ma'nolarini bildirishi keltirib o'tiladi.

Islomdan avval turkiy xalqlarning din tushunchasini ifodalash uchun turli davrlarda "drm", "darm", "nom" va "den" kabi so'zlarni ishlatganlari ma'lum. Ulardan "drm", "darm" din, aqida ma'nosida sanskritcha (qadim hind tili) "dharma"dan (Pali tilida dhamma); "nom" din ishonch, qonun ma'nosida sug'd tilidan kirib kelganligi aytiladi.

O'zbek tilidagi "din" ma'nosini beruvchi atamalar barcha tillarda mavjud. Jumladan, zardushtiylarning manbasi "Avesto"da "din" sifatida "daena", qadimgi fors pahlaviy tilida "den",

“din”, “dena”, “daena” so‘zi ishlatilib, «yo‘l», «mazhab», «marosim», «uslub», «tarz» kabi ma’nolarni bildirgan. Ibroniyl tilida istifoda qilinadigan «dath» so‘zi «din» tushunchasini ifodalash uchun umumiy termin bo‘lib, «hukm», «amr» va «qonun» ma’nolarini anglatgan.

Rus tilida din ma’nosini anglatadigan «religiya» so‘zining kelib chiqishi borasida lug‘atlarda bir qancha yondashuvlar keltirib o‘tilgan. Ulardan ba’zilariga ko‘ra mazkur atama lotincha «religio» so‘zidan kelib chiqib, «diyonat, dindorlik, taqvodorlik, xudojo‘ylik, mo‘minlik, taqvo, muqaddas narsa yoki joy, qadamjo, ziyoratgoh, ibodat–topinish–sig‘inish va u bilan bog‘liq diniy marosimlar» degan ma’nolarni anglatadi.

Ikkinchi guruh tilshunoslar «religio» so‘zi semantik, ma’no va morfologik jihatdan «relegere» so‘zi bilan bog‘liq bo‘lib, «yangidan to‘plamoq, yangidan tanlashga kirishmoq, qayta ishlab chiqish uchun oldingi sintezga qaytish» kabi ma’nolarni anglatadi, deb ta’kidlaydilar.

Olimlar muayyan e’tiqod din deb atalishi uchun **uch** asosiy xususiyatga ega bo‘lishi lozimligini ta’kidlaydilar. Bulardan:

Birinchisi, g‘ayritabiiy iloh (yoki ilohlar) haqidagi tasavvurning mavjudligi. Har bir dinda topinish **ob’ekti** – **Xudo** bo‘lishi shart hisoblanadi.

Mavjud dinlardagi Xudo haqidagi tasavvurlarni shartli ravishda ikkiga – *transsendent va immanent* ilohlarga bo‘lish mumkin. Transsendent ilohlarga insonlar olamidan tashqarida, insonlarga hech qanday aloqasi bo‘lmagan, qusur va nuqsonlardan xoli Xudolar kiradi. Bunga misol sifatida tom ma’noda islom dinidagi Alloh taolo va qisman xristianlikdagi Ota Xudo, yahudiylikdagi Yaxvelarni keltirish mumkin.

Immanent ilohlar deganda esa tabiatning bir bo‘lagi sifatida tasavvur qilingan, insonlarga o‘xshab ketadigan, biroq g‘ayrioddiy yaratuvchilik, buzg‘unchilik, rizqlantiruvchilik kabi kuchlarga ega bo‘lgan Xudolar kiradi. Bunday turdagi ilohlar ko‘pincha yo antropomorf (inson qiyofasida) yo zooantropomorf (yarim odam yarim hayvon) yoki zoomorf (hayvon) shaklda tasavvur qilinadi. Bunga misol sifatida Qadimgi Misr, Yunon, Rim sivilizatsiyalari, zamonaviy Hindiston, Xitoy, Yaponiya dinlarini sanash mumkin.

Ikkinchisi, Xudo bilan insonlarni bog‘lab turuvchi **kult** yoki **kultlar majmuasi**. Yuqorida aytilganidek har bir dinda topinish ob’ekti – Xudo bo‘lishi lozim. Yaratuvchi bilan insonni bog‘lab turadigan ibodat va marosimlar majmui (qurbonlik, ro‘za, bayramlar) kult deb ataladi. Kultlar kundalik yoki mavsumiy, yakka tartibdagi yoki jamoaviy kabi ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin. Jumladan, islom dinida “Namoz mo‘minning me’roji” (ya’ni Alloh taoloning xuzuriga ko‘tarilishi) hisoblansa xristianlikdagi “sirli marosimlar”da Muqaddas Ruhning o‘zi ishtirok etadi deb hisoblanadi. SHu tariqa, mavjud barcha dinlarda kultlar vositasida e’tiqodchilar o‘z ilohlari bilan bog‘lanadilar.

Uchinchisi esa e’tiqodchilarni o‘zida jamlaydigan **diniy tashkilotlarning** mavjudligi. Diniy tashkilot – bu bir din izdoshlarining jamoaviy ravishda o‘z diniy rasm–rusum, ibodat marosimlarini o‘tkazadigan, diniy ta’lim oladigan muassasalaridir. Bu, islomda – masjid, madrasa, xristianlikda – cherkov, seminariya, yahudiylikda – sinagoga va hokazo.

Dinlar tarixi, ular bilan bog‘liq jarayonlar, dinning inson hayotining turli jabhalari bilan o‘zaro ta’sirlashuvini o‘rganuvchi fan “Dinshunoslik” deb ataladi.

Dinshunoslik barcha ijtimoiy fanlar qatori ham o‘zining o‘rganish ob’ektiga ega. U dinning paydo bo‘lishi, ijtimoiy mohiyati va jamiyatdagi rolini tadqiq qilish bilan birga diniy e’tiqodlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi, ularning jamiyat taraqqiyotidagi evolyusiyasini ilmiy jihatdan o‘rganadi.

Teologiya (yun. theos — xudo va logiya – ta’limot) — xudoning mohiyati va irodasi

haqidagi diniy talimotlar majmui. Xudo shaxsan o'zini vahiy orqali kishilarga ma'lum qiladi degan konsepsiyaga asoslanadi. Muqaddas kitoblar va muqaddaslashtirilgan yozuvlar teologiyaning asosiy manbalari qisoblanadi. Teologiya turli diniy o'quv yurtlari — seminariyalar, akademiyalar, madrasalar va boshqalarda o'qitiladi. Teologiya tushunchasi avvalo iudaizm va xristianlikka nisbatan qo'llangan. Teologiya islomda ilohiyot, kalom atamalar bilan ham ataladi. Diniy ideologiya ayrim manbalarda teologiya deb yuritiladi. Teologiyaning asosini odatda diniy ideologiyaning muntazam va muayyan tizimli ko'rinishi bo'lmish muqaddas kitoblar (Tavrot, Zabur, Injil, Qur'on kabilar) tashkil qiladi. Diniy ideologiya quyidagi tarkibiy qismlarga bo'linadi:

- 1) dogmatika (grekcha *dogmatos* – fikr, ta'limot, yechim degan ma'nolarni anglatadi) diniy ta'limotning barqaror, kam o'zgaruvchan qoidalari tizimi;
- 2) apologetika (grekcha *apologeomai* – himoya qilaman degan ma'no-ni anglatadi) ilohiyot sohasi va diniy ta'limotni insoniyat tafakkuri hamda tajribasiga asoslanib himoya qilish;
- 3) ilohiyot va axloqning o'zaro aloqadorligi (din axloq qoidalariga ilohiy mazmun beradi);
- 4) amaliy ilohiyot – cherkov va machitlarning faoliyati va xudoga sig'inish tartiblarini ishlab chiqish.

Teosofiya (yun. theos — xudo va sophia — donishmandlik, bilim) — keng ma'noda - eng zo'r ilohiy sirlarni ochishga da'vo qiluvchi har qanday diniy ta'limot. Shaklsiz, yagona, hamma narsani qamrab oluvchi xudo haqidagi, barcha narsalarning ilohiy mohiyati haqidagi tasavvurlar teosofiyaning nazariy asosini tashkil etadi. G'ayritabiiy va narigi dunyodagi kuchlar bilan bevosita aloqa bog'lash mumkinligini tan olish teosofiyaning spiritizm va okkultizma olib boradi. Tor ma'noda- rus yozuvchisi Ye.P. Blavatskaya (1831—91) va uning tarafdorlarining diniy ta'limoti bo'lib, unda buddizm va boshqa sharq ta'limotlaridagi mistika okkultizm va noortodoksal xristianlik elementlari bilan qo'shib ketgan.

Diniy e'tiqod—insonning dinga bo'lgan munosabatini belgilashda qo'llaniladigan tushuncha. Diniy e'tiqod erkinligi O'zR Konstitutsiyasining 35-moddasida mustahkamlangan. Unda quyidagi qoida bayon etilgan: «Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi». Shuningdek, 2021 yil 5iyulda yangi tahriri tasdiqlangan «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonunda ushbu konstitutsiyaviy qoida rivojlantirilgan. Chunonchi, Qonunning 6-moddasida shunday deyiladi: O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, dinga munosabatidan qat'i nazar, qonun oldida tengdir. Bir dinga yoki diniy e'tiqodga boshqalariga nisbatan biror-bir ustunliklar yoki cheklovlar belgilashga yo'l qo'yilmaydi».

Aqida (arab.) — dindorlar uchun majburiy hisoblangan, shak keltirmasdan, muhokama yuritmasdan e'tiqod qilinishi lozim bo'lgan diniy talablar. Barcha dinlarda o'ziga xos aqida talablari ishlab chiqilgan.

Islom aqidalarining asosi Qur'onda berilgan, hadislardagi ko'rsatmalar negizida ishlab chiqilib, tartibga solingan. Masalan islomning sunniylik yo'nalishi ilohiyotida e'tirof etiladigan aqidalar yoki imon talablari mavjud bo'lib, ular 7 tadir: Allohning yagonaligiga, farishtalarga, muqaddas bitiklarga, payg'ambarlarga, oxiratga, taqdirga, inson qazo qilganidan so'ng qayta tirilishiga ishonish.

Xristianlikda aqidalar birinchi marta 2-jahon sobori tomonidan qabul qilingan va u e'tiqod timsoli deb atalgan. U xudoning muqaddas uchlikda (Ota, O'g'il va Muqaddas ruhda) namoyon

bo'lishi, Isoning xaloskorlik missiyasi, uning tirilib osmonga ko'tarilib ketishi va oxiratda yana qaytib tushishi, jami 12 asosiy aqidadan iborat. Keyinchalik jahon soborlari e'tiqod timsolini Isoning ham ilohiy, ham insoniy tabiatga egaligi, ikonaga sig'inish shartligi haqidagi aqidalar bilan boyitgan. Xristian cherkovi bo'linib ketgandan keyin har bir konfessiya, diniy oqim o'z ta'limotiga boshqa xristian cherkovlar e'tirof qilmagan aqidalarni kiritgan.

Ilohiyot (arab. — xudo to'g'risidagi ta'limot) — diniy aqidalar va ular haqidagi ilohiy ko'rsatmalarni o'z ichiga olgan asosiy diniy ta'limot. Islomda Ilohiyat ilk shakllanish davridan boshlab kalom deb nom olgan.

3-reja bayoni. Dinning funksiyalari va ijtimoiy ahamiyati.

Dinning ijtimoiy vazifalari haqidagi ta'limotni funksionizm rivojlantiradi. Funksionizm jamiyatga ijtimoiy tizim sifatida qaraydi. Unda jamiyatdagi har bir element muayyan funktsiyani bajaradi. Dinning jamiyatda bajaradigan ijtimoiy, ma'naviy, ruhiy vazifalari quyidagilardan iboratdir: kompensatorlik integrativ, regulativlik, kommunikativ va legitimlovchilik funksiyalar kiradi.

Dinning yuqorida qayd qilingan besh funksiyasining qisqacha ta'rifi va tavsiflari quyidagilardan iborat:

birinchidan, har qanday din o'z dinidagilar uchun **to'ldiruvchi, ovutuvchi (kompensatorlik)** vazifasini bajaradi. Masalan, insonda diniy ehtiyoj hosil bo'lishini olib qaraylik. U o'z hayoti, turmush tarzi, tabiat va jamiyat bilan bo'lgan munosabatlari jarayonida shaxsiy va ijtimoiy ehtiyoj, maqsadlarga yetishishi qiyin, ilojisiz bo'lib ko'ringanda bunday ma'naviy ehtiyoj vujudga kelgan. Chunki inson hayotida quvonchli yoki tashvishli onlarda, orzular ro'yobga chiqishi ilojisiz bo'lgan paytda insoniyatning dinga ehtiyoji jamiyat bo'lib yashash talablarida boshlangan; din bu o'rinda ma'naviy ehtiyojni qondiruvchi, tasalli beruvchilik vazifasini bajargan.

ikkinchidan, dinlar o'z ta'limot tizimini vujudga keltirib, unga e'tiqod qiluvchi shaxs, jamoani shu ta'limot doirasida saqlashga harakat qiladi. Buni dinlarning **birlashtiruvchilik (integrativlik)** funksiyasi deyiladi. Bunda din muayyan ijtimoiy, etnik va ma'naviy hayotning o'z ta'siri doirasida bo'lishini ko'zda tutadi. Masalan, islom o'tmishda Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy hayoti, ahloqiy munosabatlari, hattoki adabiyot va san'atiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Bular orqali elat va xalqlarda turli xil birlashtiruvchi munosabatlar qaror topadi.

uchinchidan, din dindorlar hayotini **tartibga solish, nazorat qilish (regulativlik)** funksiyasini ham bajaradi. Har qanday dinlarning muayyan urf-odat, marosim va bayramlari bo'lib, ularni o'z vaqtida, diniy ta'lim va talab asosida bajarilishi shart qilib qo'yiladi.

to'rtinchidan, din dindorlarning birligini, jamiyat bilan shaxsning o'zaro aloqasini ta'minlovchi xususiyat – **aloqa bog'lashlik (kommunikativ)** vazifasiga ham egadir. Bunda konkret bir dinga e'tiqod qiluvchi kishi shu dindagi boshqa kishilar bilan bog'liq bo'lishi, urf-odat va ibodatlarni jamoa bo'lib ado etish ko'zda tutiladi. Cherkov, masjid va diniy tashkilotlar dinning bu funksiyasini amalga oshirishga ko'maklashadi, ayni paytda, bu holatni nazorat qiladi.

beshinchidan, har qanday din ijtimoiy tizim sifatida muayyan cheklovlersiz bo'la olmaydi. Shuning uchun u qonun darajasiga ko'tarilgan axloq normalarini ishlab chiqadi. Bu bilan u **legitimlovchilik-qonunlashtiruvchilik** funksiyasini bajaradi

Har qanday dinning muayyan tarixiy sharoitda bajaradigan funksiyalari yig'indisi uning ijtimoiy rolini belgilaydi. Dinning ijtimoiy hayotga ta'siri hamma vaqt ham bir hil bo'lgan emas. U vaqtga, sharoitga qarab sezilarli darajada o'zgarib boradi.

Din tarixida dinshunoslar dinning paydo bulishini turlicha izohlab kelganlar. Uning paydo bo'lish sabablari qadimgi dunyo dinshunoslarini qiziqtirgan, binobarin, unga javob topishga harakat qilishgan. Xitoy, Hindiston va xususan, qadimgi grek faylasuflari borliq to'risidagi fikr yuritganlarida din, uning kelib chiqishi va mohiyati to'g'risida ham ayrim g'oyalarini olg'a surganlar.

Dinning paydo bulishi va rivojlanishini ilmiy asoslarda o'rganish quyidagi: a) ob'yektivlik; b) muayyan tarixiy sharoitni hisobga olish; v) ilmiylik; g) qiyosiylik; d) umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'liqlik; e) din mavjudligini, umuman gnoseologik, ijtimoiy-iqtisodiy va psixologik sabablarni hisobga olishni taqozo etadi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar tadqiqotchini jamiyatga xos bulgan asosiy hodisalar xususiyatlarini, ularning paydo bulishi, o'zgarishi va rivojlanishini aniqlashga undaydi va anglashga yordam beradi. Tarixiy, ijtimoiy usul deb atalmish bunday yondashuv tarixiy etnografik tadqiqotlarni olib borishda va ularning natijalaridan talabalarni xabardor qilishda ayniqsa yaxshi samara beradi. U yosh avlodda, jumladan talabalarda diniy e'tiqod va an'analarning saqlanishi va takrorlanishiga sabab bo'ladigan ijtimoiy-psixologik omillarni tadqiq etishda to'g'ri yo'nalishni belgilab olish imkonini beradi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek ijtimoiy-psixologik hodisalarning xususiyatlarini hisobga olmay turib dinni tushunish, izohlash, tavsiflash mumkin emas. Din ma'naviy, aniqrog'i, g'oyaviy-madaniy omil bo'libgina qolmay, ayni vaqtda, ko'pgina jihatlardan ijtimoiy-ruhiy hodisa hamdir.

Din ijtimoiy birliklar va guruhlar mafkurasi va psixologiyasining tarkibiy qismi, bayram, urf-odat va marosimlarning manbai bo'lib, jamoa va guruhlar fikrini shakllantiradi, shaxs va ijtimoiy guruhlarining dasturlarini, qadriyat yo'nalishlarini belgilaydi. Shu bilan birga, dinning paydo bo'lishi va evolyusiyasi, muayyan jamiyatdagi shart-sharoitni va uning dastlabki shakllari – totemizm, fetishizm, animizm, sehrgarliq zardushtiyliklarni o'rganish turli ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlarda dinning paydo bulish, mavjud bo'lib turish sabablari va ildizlarini o'rganishni ham taqozo etadi.

4- reja bayoni. Din dunyoqarash shakli va uning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri.

«Din» tushunchasi ifoda etgan ijtimoiy hodisa ko'p qirrali, murakkab va ziddiyatli jarayon ifodasidir. Undan o'tmishdagi g'oyat og'ir va hozirgi murakkab sharoitlarda har xil ijtimoiy-siyosiy harakatlar turli maqsadlar yo'lida foydalanishga intilganlar.

Din tushunchasi o'zbek tiliga arab tilidan kirib kelgan bo'lib, ishonch, inonmoq ma'nosini bildiradi. Bizning fikrimizcha, din real voqelikdagi, ijtimoiy hayotdagi narsa va hodisalarni tabiatdan, jamiyatdan tashqarida mavjud deb hisoblaydigan, ularni o'ziga xos tarzda aks ettiradigan ma'naviy e'tiqod va amalning bir turidir. **E'tiqod** so'zi ham arab tilidan kirib kelgan bo'lib, chuqur, mustahkam ishonch ma'nosini anglatadi. Demak diniy e'tiqod deganda mustahkam, chuqur ishonch, maslaq ishonish tushuniladi. Ilooiyot, ya'ni diniy ta'limot nuqtai nazardan «din», «diniy e'tiqod» tushunchalari jamiyat, inson, uning ongi hayotning ma'nosi, maqsadi va taqdiri uni bevosita qurshab olgan moddiy olamdan tashqarida bo'lgan, uni go'yo yaratgan, ayni zamonda insonlarga birdan-bir «tug'ri», «haqiqiy», «odil» hayot yullarini ko'rsatadigan va o'rgatadigan ilohiy kuchga ishonch va ishonishni ifoda etadigan maslaq karashlar, ta'limotlar majmuidan iboratdir.

Islomgacha «din» so'zining o'rniga «tangri yo'li», «unga ishonch» iboralari qo'llanilgan bo'lsa kerak. Turkiy elatlarning islomgacha bo'lgan diniy e'tiqodlariga binoan «tangri» butun

olamni, insonni yaratgan, «yuksaklik», «eng baland», «bahaybat» degan ma'nolarni ham anglatgan.

Ilmiy bilimlarga asoslangan dunyoviy ishonchli, haqiqiy ta'limot olamning mavjudlik sabablari masalasida diniy qarashlar bilan kelishmasa-da, ammo insonni, uning ijtimoiy faoliyati, ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini o'rganishda minglab yillar mobaynida uning bag'rida qo'lga kiritilgan bilim, tajriba, ularning hozirgi kundagi ijobiy ahamiyatini aslo rad qilmaydi. qolaversa, din bag'rida shakllangan ma'naviy, jumladan axloqiy qadriyatlarning vujudga kelish sabablari, ularning kishilarga ijobiy ta'sirchanlik masalalari ilmiy jihatdan o'rganish va bu ma'naviy-ahloqiy qadriyatlardan foydalanish ko'proq ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Ma'lumki, diniy ong ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, uning mavjudligi ham ijtimoiy borliq bilan belgilanadi. Kishilarning ijtimoiy, ma'naviy hayoti moddiy asosga (bazisga) bog'liq. Ijtimoiy xayot jamiyat bilan tabiat orasidagi birlikning muayyan ko'rinishi bo'lgan hukmron ishlab chiqarish usulining taraqqiyot darajasiga asoslanadi. Demaq ijtimoiy borliq, bir tomondan, jamiyat bilan tabiat orasidagi birlikni, ikkinchi jihatdan, jamiyat a'zolari orasidagi o'zaro munosabatni qamrab oladi. Diniy ong ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida ana shu munosabatning muayyan shakllarining in'ikosidir.

Dindor o'z tasavvurida o'zining toat-ibodatga oid harakatlari orqali ilohiy kuch bilan bevosita aloqa bog'lanish o'rnatadi. Din muayyan ta'limotlar, his-tuyg'ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlarning faoliyatlari orqali namoyon bo'lganligi uchun ular dinning elementlari (qismlari) deb ataladi. Bu tarkibiy qismlar bir-birlari bilan uzviy bog'liqdir; dinning mavjudligi bu tarkibiy qismlarning hammasini taqozo qiladi. Dinning tarkibiy qismlari orasida diniy ong, diniy tasavvurlar yetakchi o'rin egallaydi. Binobarin, diniy marosimlar, diniy psixologiya, diniy birlashmalar esa diniy tasavvurlarni mustahkamlaydi va uzoq davrlarda yashashi uchun xizmat qiladi.

Diniy ong bir-biri bilan bog'liq, o'zaro muayyan darajada ijobiy mustaqil bo'lgan diniy mafkura va diniy psixikadan iborat. Diniy mafkuraning vujudga kelishi va shakllanishi sinfiy jamiyatda ro'y bergan aqliy meo'natning jismoniy mehnatdan ajralishi va buning natijasida vujudga kelgan dastlabki qohinlar, keyinchalik ruhoniylar faoliyatlari bilan bog'liq. Ular o'z g'oyaviy faoliyatlarida diniy mafkurani yaratadilar va buni asoslash, targ'ib qilish bilan shug'ullanadilar.

Diniy psixologiya – ruhiy holat bo'lib diniy mafkuradan ancha oldin vujudga kelgan. U oddiy dindorlarning his-tuyg'ulari bilan boghliq odatlari, kayfiyatlaridan tashkil topadi. Diniy mafkura diniy psixik holatni g'oyalar bilan mustahkamlasa, bunisi diniy mafkurani his-tuyg'ular, odatlar vositasida chuqurlashtiradi. Hozirgi davrda oddiy dindorlarning xatti-harakatlaridagi islomga xos bo'lmagan ibtidoiy dinlarning qoldiqlari bunga misol bo'la oladi. Bularga pol ochirish, kinna soldirish, issiq-sovuq qildirish, va h.k.lar kiradi.

Dinning ta'rifi, uning tarkibiy qismlari, diniy ong darajalarini bilishning ilmiy, amaliy ahamiyati shundaki, u kishilar hayotidagi diniy va diniy bulmagan xarakatlarni bir-biridan farqlash, ularga alohidaalohida yondashish imkonini beradi.

Jamiyat moddiy hayot sharoitlarining ta'siri ostida vujudga kelgan din tarixiy va ijtimoiy shodisadir. U ijtimoiy taraqqiyotning muayyan bosqichida, ma'lum bir sabablarga binoan vujudga kelgan.

Diniy munosabatlar, birinchidan, har bir diniy jamoa, uyushma, tashkilotlar orasidagi, ikkinchidan, diniy tashkilotlar o'rtasidagi va uchinchidan, tashqi munosabatlar doirasidagi aloqalarga bo'linadi. Bu aloqalarning ob'yekti va sub'yekti diniy jamoalardir, ular diniy e'tiqodga

asoslangan kishilar birligining muayyan shakli va diniy uyushmaning boshlang'ich elementidir. Bu birlikning asosiy belgilari quyidagicha:

1) diniy e'tiqod. Maqsad va vazifalar birligi; 2) diniy marosimlar va undan tashqaridagi faoliyatlarning birligi; 3) etnik birlik tuyg'usi; 4) jamoa a'zolari orasidagi o'zaro taqsimlangan mavqei va vazifalarning birligi.

Diniy jamoalarning to'zilishi an'analar va urf-odatlar, huquq yoki umumiy dasturlar, qoida, fatvolar bilan belgilanadi. Bular maxsus mezonlar asosida rasmiy va norasmiy guruhlariga: «Jamoa kengashi», «ruhoniylar», «qavmlar» va «va'xlonlar»ga, diniy va xujaliq moliya ishlari bilan shug'ullanuvchi guruhlariga bo'linadi.

O'rta Osiyo xalqlari msloimgacha e'tiqod qilgan zardushtiylikda diniy qarash va tasavvurlar dunyoviy ishlarga faol munosabatda bo'lishga chaqirilgan. Xususan, bu dinda chorva mollarini boqish, dehqonchilik bilan shug'ullanish dindorlikning asosiy belgisi, vazifasi darajasiga kutarilgan. Taqvodorlikning asosiy belgisi chorvaga, oilaga ega bulish va don ekishdir. Dan ekkan kishi taqvodorlik urug'ini ekadi. Bunga ixlos kuyish 10 ming marta ibodat qilish bilan barobar, yuzlab qurbonlik g'ilishga teng deb hisoblangan. Bu zardushtiylikning muhim ijobiy tomoni edi.

Bu dinda mehnat juda ulug'langanyu u faqatgina moddiy ne'matlar manbai bulmay, balki birinchi navbatda, ahloqiy sog'lom va ezgulik manbai bo'lgani uchun ham yuksak qadrlangan. Bu vaziyat muayyan shaklda boshqa dinlarda ham bor. Chunonchi, hadislarda bayon qilingan ota-ona va farzandlar, boshqa millat vakillari bilan bog'liq fikrlar, qarashlar ham bunga yorqin misol bo'la oladi.

5-reja bayoni. Dinlarning tasnifi. Ibtidoiy e'tiqodlar.

Dinlar tasnifi. Kishilar turmush tarzidagi va jamiyat hayotidagi o'zgarishlar insoniyatning diniy ishonch, e'tiqod haqida ham ma'lum evolyusiyaning yuz berishiga sabab bo'lgan. Ana shu asosda turli din shakllari yuzaga kelgan. Bular urug'-qabilachilik (ibtidoiy) dinlari, milliy dinlar va jahon dinlari. Shu bilan birga dinlar mazmun va mohiyatiga ko'ra politeistik (ko'p xudolik) va monoteistik (yakka xudolik) dinlariga ham bo'linishini qayd etish lozim. Xozirda jaxon dinlari bo'lmish Zardo'shtiylikka sayyoramiz axolisining 130 mingga yaqini, Buddaviylikka 800 million, Xristianlikka 2 milliard, Islomga 2 milliarga yaqin e'tiqod qilishi rasmiy ma'lumotnomalarda qayd etilgan. Dinshunoslik nuqtai nazaridan din shakllarini quyidagicha tasniflash va ularni shu tartib asosida o'rganish maqsadga muvofiq.

Hozirgi kunda din tipologiyasida dinlarning quyidagi tasniflari (klassifikatsiyasi) mavjud:

- 1) Tarixiy geografik jihatga ko'ra turlari
- 2) Etnik jihatga ko'ra turlari
- 3) E'tiqod qiluvchilar soniga ko'ra turlari
- 4) Hozirgi davrda mavjudligi jihatidan (tirik va o'lik diniy tizimlar) va h.k.

Ularning har birini izohlab chiqamiz.

Tarixiy geografik jihatga ko'ra turlari O'rta Yer dengizi havzasi dinlari: Yunon Rim Illinistik Qadimiy Yaqin va O'rta Sharq dinlari. Misr Shumer Akkat G'arbiy Somiy Islomgacha Arablar dinlari Yaqin va O'rta Sharqning payg'ambarlik dinlari: Zardushtiylik Yaxudiylik Xristianlik Islom Hindiston dinlari Vedalar Braxmanizm Hinduizm Xind Buddizmi Jaynizm Sharqiy va JANubiy Sharqiy Osiyo dinlari Shirilanka Tibbet Janubiy Sharqiy Osiyo havzasi Buddizmi Xitoy dinlari (daosizm, konfutsiylik, buddizm maktablari) Koreya va Yaponiya dinlari Amerika xindulari dinlari Toltek va Astekla dinlari Inklar dinlari Mayalar dinlari.

Etnik tasnifga ko'ra turlari Urug' qabila dinlari: Totemizm, Fitishizm, Animizm,

Shomanizm, Sehrgarlik. Milliy dinlar: Ma'lum bir xalq millat, e'tiqod qiladigan boshqa xalqlar o'rtasida keng tarqalmagan dinlarga aytiladi, Yahudiylik, Vedalar, Braxmanizm, Xinduizm, Sintoizm, Daosizm, Konfutsiylik va boshqalar.

E'tiqod qiluvchilar soniga ko'ra turlari Jahon dinlari: Jahon xalqlari ichida keng tarqalgan dinlarga aytiladi, Buddaviylik, Zardushtiylik, Xristianlik, Islom. Rasmiy ma'lumotga ko'ra hozirda Buddaviylikka 80 mamlakatda 700 mln; Xristianlikka 254 mamlakatda 2 mlrd.dan oshiq; Islom diniga 172 mamlakatda 1.6 mlrd kishi e'tiqod qiladi.

Ta'limotiga ko'ra tasnif (klassifatsiyasi) Dunyoviy dinlar – odamlar tomonidan yaratilgan ta'limotlarga asoslanadi. Vedalar, Braxmanizm, Xinduizm, Sintoizm, Daosizm, Konfutsiylik va boshqalar. Ilohiy dinlar –Alloh tomonidan berilgan ilohiy kitoblarga asoslanadi. Iudaizm, Xristianlik, Islom.

Monoteistik dinlar – yakka xudolikka asoslangan dinlar.Iudaizm, Zardushtiylik, Xristianlik, Islom.

Politeistik dinlar – ko'p xudolikka asoslangan aytiladi. Buddaviylik, Vedalar, Braxmanizm, Xinduizm, Sintoizm, Daosizm, Konfutsiylik.

Ibtidoiy dinlar. Ibtidoiy odamlar hozirgi davrdagi singari to'la shakllangan diniy sistemaga ega bulmagan. Ularda boshlang'ich diniy tasavvurlargina bulgan, xolos. Dinning ana shunday ibtidoiy shakllari urug'chilik tuzumi shakllanayotgan davrda paydo bulgan.

Ibtidoiy odamlarning diniy e'tiqodlari totemizm, animizm, fetishizm, shomonliq magiya(sehrgarlik) shakllarida tarqalgan; ularning elementlarim hozirgi zamon dinlarida ham uchraydi.

Animizm (lotincha – jon, ruh) jon va ruhlarga sig'inish bo'lib, hali qabila jamoalari shakllanmagan davrlarda paydo bo'lgan. Ingliz etnologi E.Teylor 1871 yilda animizmni ilk diniy tasavvurlarning dastlabki bosqichi sifatida e'tirof etgan. Ruhlarning borligiga ishonish, tabiat kuchlari, hayvonlar, o'simliklar va jonsiz narsalarni jonli deb tasavvur qilish, ajdodlar ruhini ilohiylashtirish animizmning mohiyatini tashkil etadi. E.Teylor fikriga ko'ra, ibtidoiy odamlar odam o'lgandan keyin uning joni tanasidan ajraladi va abadiy yashaydi, deb hisoblaganlar. SHu sababli qabrga marhumning qullari, uy hayvonlari, taomlar, kiyim–kechaklar, uy-ro'zg'or buyumlari va boshqa anjomlarini ko'mishgan. G'ayritabiyy kuch haqidagi tasavvurlar insonning har qanday muvaffaqiyati – ovdagi omadi, dengizda qo'lga kiritgan o'ljasi, urushdagi o'rmonlarni ilohiylashtirib, ularni “ruhlar makoni” deb o'ylaganlar. Ba'zi antropologlar animizmdan oldin ham diniy qarashlar mavjud bo'lganini da'vo qilib, ular uni “animatizm” deb nomlaydilar. Animatizm bir tomondan narsalarning o'ziga xos g'ayritabiyy kuchga ega ekanligiga, boshqa bir tomondan esa ruhlarning mavjudligiga ishonishdan iborat. Bu nazariyaga ko'ra “ibtidoiy inson” boshqa–boshqa mavjudotlarni shaxs sifatida tanishdan avval, butun bir olamga yoyilgan hayot bag'ishlovchi yakka “Kuch”ni tasavvuriga keltirgan bo'lishi mumkin. Bunday bir tushuncha “mana” fikri bilan qo'llab-quvvatlangan bo'lishi ham ehtimol. “Mana” so'zi g'ayritabiyy, ko'z bilan ko'rinmas kuchni ifodalash uchun ishlatiluvchi so'z bo'lib, uni ibtidoiy diniy tasavvurga ko'ra kuchli, ta'sirchan yoki jamiyat tomonidan e'tibor bilan qaraluvchi narsalar (hayvonlar, o'simliklar, toshlar) yoki kishilar (qabila raisi, sehrgar, donishmand) da mavjudligiga ishonilgan maxfiy kuchni ifodalash uchun ishlatilgan. Ibtidoiy qabila a'zolari o'zlarini ko'z bilan ko'rinmas kuchlar bilan o'rab olinganliklariga ishonganlar. Bu e'tiqod har bir qabilada o'zgacha nomlar bilan nomlangan. Teylorning shogirdi bo'lgan R.Marettning 1909 yilda nashr qilgan “Dinning ibtidosi” nomli kitobida birinchi marta izohlangan bu nazariyada dinning kelib chiqishini shaxsiyati mavjud bo'lmagan umumiy dinamik kuchdan qidirish, izlash kerakligini bildiradi.

Animistik qarashlarning ko'plari tarix qa'rida qolgan bo'lsa ham, ba'zi unsurlari hozirgi kungacha urf-odat va an'analarda saqlanib qolgan. Masalan, vafot etgan ajdodlar ruhiga bag'ishlab qurbonlik qilish, xudoyi qilish, sadaqa berish, o'lgan kishilarning arvohini yo'qlash, chiroq yoqish animistik marosim ko'rinishlaridir. Animizm har qanday dinning zaruriy elementi – ajdodlarning ruhlari, tirik kishilarning jonlari, tabiat kuchlarining jonli ko'rinishi sifatida jahon dinlarida ham o'z ifodasini topgan.

Totemizmning asosi bo'lgan “totem” (Shimoliy Amerika hindularining “Ojibve” qabilasi lahjasidagi “ot-otem” so'zidan olingan – “uning urug'i”) atamasini birinchi marta 1791 yilda Jon Long “insonning hayvon va o'simliklar bilan qon-qarindoshligi haqidagi ishonch”ni anglatuvchi so'z sifatida qo'llagan. Uning fikriga ko'ra, har bir qabila yoki urug' o'zlarini biror o'simlik yoki hayvon bilan atagan va ularga aloqador hisoblagan. Bu aloqadorlik o'ziga xos qarindoshlik sifatida anglangan. Bunday hayvon, o'simlik yoki buyum muqaddaslashtirilib, unga sig'inilgan. Qabila boshliqlari o'z “hokimiyati” ramzi sifatida bo'ri, ayiq, ilon, ajdaho, qisqichbaqa, ot, burgut, suvsar, baliq, quyosh, oy, yulduz turkumi ramzi tushirilgan belgilar taqib yurganlar. Har bir urug'ning shajara daraxti bo'lgan. SHuningdek, “totem” hayvonlarning tishi, suyagi, tirnog'i tumor qilib taqilgan, kallasini himoya vositasi sifatida osib qo'yilgan. Ilon ibodatxonalar homiysi sifatida talqin etilsa, ot bor uyga ins-jinslar yaqinlashmaydi, baliq bor joyda yovuz ruhlar chekinadi, deb qaralgan. Qondosh jamoa a'zolari insonlar va ularning “totem”lari –yarmi odam–yarmi hayvon, yarmi odam–yarmi o'simlik, turli xayoliy jonzotlarning xususiyatlariga ega bo'lgan ajdodlaridan tarqalganiga ishongan. “Totem”ning zooantropomorf ko'rinishi bilan aralashgan holda odam inson bilan uning totemi qarindoshligi orasida oilaviy munosabatlar, ya'ni kishi vafot etgach, uning o'z totemiga aylanishi yoki qayta tug'ilishi haqida tasavvur paydo bo'lgan. Bu esa ajdodlar ruhiga sig'inishning kuchayishi, ilohiy kuchlarga ishonchning ortishiga zamin bo'lgan. Totemizm bilan birga taqiq (tabu) odati ham mavjud edi. Masalan, jins va yoshga xos taqiq jamoani qat'iy belgilab qo'yilgan nikoh tabaqalariga ajratib qo'ygan. Qabila a'zosi bilan yaqin qarindoshlar o'rtasida jinsiy aloqa o'rnatish yoki nikoh qilish taqiqlangan. Totemistik tasavvurlarni tabiat va insonni bog'lab turadigan tasavvurlar mevasi deyish mumkin. Jumladan, qadimgi asotirlarda ilon odamlar haqidagi afsonalar etakchi o'rinni egallaydi. Ilonlar olam yaralishining sababchilari, o'ziga xos qiyofa va so'zlarga, g'aroyib bilimlarga ega donishmand sifatida tasvirlangan. Ilonlar insonga olovdan foydalanish, ovqat pishirish, musiqa asboblari yasash, tabiatga oqilona munosabatda bo'lish kabi bilimlardan voqif etgan, deb ishonilgan. Ilonlar ilohiylashtirilib, koin va ruhoniylarning madadkori sifatida sig'inilgan. Markaziy Osiyoda qadimdan bo'ri, it, xo'roz, kiyik, ot, tog' echkisi totem hisoblanib, ularni inson o'lgandan keyin narigi dunyo bilan bu dunyo o'rtasida vositachilik vazifasini o'taydi, deb tasavvur qilganlar. SHuningdek, kabutar, qaldirg'och, burgut, turna, oqqush, bedana kabi qushlar ham ilohiylashtirilgan. Totem hayvonlarga bag'ishlab maxsus marosimlar o'tkazilib, ularning qiyofasiga kirib, o'yinga tushishgan. Totemizm unsurlari hozirda ham ko'plab xalqlar urf-odatlarini, e'tiqodlarini, an'ana va marosimlarida (Sibir xalqlari ayiq, hindlar sigir, qirg'izlar oq bug'u, xitoyliklar mushuk, avstraliyaliklar kenguru, o'zbeklar semurg'ni afsonaviy baxt keltiradi, deb ulug'laydilar) saqlanib qolgan.

Fetishizm – eng qadimiy diniy tasavvurlardan biri bo'lib, “fetish” (portugalcha – sehirli buyum, narsa, tumor) terminini ilk bor Golland sayyohi V.Botsman qo'llagan bo'lsa ham, fransuz olimi Sharl de Brosning 1760 yilda yozilgan “Fetishizm haqida” asaridan so'ng ommalashib ketdi. Uning fikriga ko'ra, ibtidoiy odam uchun uning atrofini o'rab turgan narsalar fetish bo'lib xizmat qilgan. Keyinchalik “fetish”larga xos bo'lgan ilohiy obrazlar – sanam, but,

haykalchalar yaratilgan. But va tumorlar g'ayritabiiy dunyodan keladigan ilohiy qudrat timsoli sifatida tasavvur qilingan. SHomonlar afsungarlik yo'li bilan buyumlarga "jon ato etib", ulardan yong'inlarni to'xtatish, yomg'ir yog'dirish, fol ochish uchun foydalanganlar. Ibtidoiy odamlar hayvon tishlari, suyaklari, toshlar, o'simlik urug'laridan tumor sifatida foydalanganlar, quloqlariga mayda toshlardan sirg'a taqib, ularning turli ofat va dardlardan xalos etishiga, ovlari baroridan kelishiga, erlari unumdor, hosillari mo'l bo'lishiga ishonganlar. Markaziy Osiyo xalqlari hayotida "fetish" o'ziga xos tarzda namoyon bo'lgan. Ajdodlarimiz tosh qurollar, tayoq, to'qmoq, yog'och nayzalar bilan olishuvlar, urushlar va ovda g'olib chiqishib, ularning ilohiyligiga ishonishgan. SHu bois qurollarni ehtiyot qilishgan, qadrlashgan, doimo o'zlari bilan olib yurishgan. Qadimgi "fetish" odatlaridan biri isiriq tutatish bo'lib, undan yovuz ruhlarni haydash, inson ruhiyatiga ijobiy ta'sir etish, ko'z tegishidan saqlash maqsadida qo'llanilgan. Ko'zmunchiq, tumor ham "fetish" sifatida taqib yurilgan. Ibtidoiy odamlarning ilk diniy e'tiqodlari shakllanishi jarayonida fetishizm yakunlovchi bosqich bo'ldi.

Fetishizm unsurlari hozirgi davrda ham turli xalqlar urf-odat va e'tiqodlari (haykal, surat, tumor, ko'zmunchiq va har xil ramzlar)da saqlanib qolgan. SHuningdek, muqaddas joylarga sig'inish, daraxtlarga latta bog'lash, is chiqarish, qabrlarni ilohiylashtirish, ularning mo'jizaviy kuchiga ishonish fetishizmning o'ziga xos ko'rinishidir.

Shamanizm ("shaman"so'zi tungus-manchjur tilidagi "sa" – bilmoq fe'li bilan bog'liq, "saman" – biluvchi kishi). Shamanizm animizm, totemizm va fetishizm natijasida yuzaga kelib, u orqali kishilar o'z totemlari, ota-bobolarining ruhlari bilan xayolan bog'lanishni amalga oshirib kelganlar. O'tmishda ko'proq ayollar shamanlik bilan shug'ullanganlar. Shamanlar jazavali, tez junbushga keladigan kishilar bo'lib, odamlar ularning ruhlari bilan muloqotda bo'lishi, jamoaning umid va niyatlarini etkazish, ularning irodasini talqin qilish qobiliyatiga ega ekanligiga juda ishonganlar. Shamanlar ritual harakatlari orqali – ovoz chiqarish, ashula aytish, raqsga tushish, sakrash yo'li bilan nog'oralari va qo'ng'iroqlar ovozlari ostida o'zlarini jazavaga solib, o'zini yo'qotish, jazavani yuqori natijaga etkazish bilan afsungarlik qilishgan. Shaman marosim oxirida bir holatga kelib hech narsani eshitmay, ko'rmay qolar edi. Shuning uchun uning ruhlari dunyosi bilan muloqoti xuddi shu holatda amalga oshadi deb hisoblanardi. Bu odamlarning fikr yuritishi, ongining mustahkamlanishida katta rol o'ynadi va diniy ongning shakllanishida muhim o'rin tutdi. Kadimgi turkiy xalqlar dev, jin, pari, ruhlari borligiga ishonib, ular bilan shomonlar orqali bog'lanish mumkin, deb hisoblaganlar. Shomonlar homiy ruhlarga atab qurbonliklar qilganlar, yovuz ruhlardan saqlanish maqsadida afsunlar o'qib, poklanish uchun "chilla" o'tirganlar. Shomonlik asrlar davomida saqlanib kelgan va muntazam rivojlangan. Hozirda ham shomonlik turli xalqlar e'tiqodida saqlanib qolgan. Ular "baxshi", "parixon" deb ataladi.

Sehrgarlik (Magiya). Sehrgarlik (afsun) – odam, hayvon va tabiatga g'ayritabiiy yo'li bilan ta'sir o'tkazish maqsadida bajariladigan ritual urf-odatlar majmuasidir. Afsungarlik urf-odatlari bilan maxsus kishilar –shamanlar, afsungarlar shug'ullanganlar. Sehrgarlik marosimlari yakka holda yoki jamoa bo'lib amalga oshirilishi mumkin edi. Sehrgarlik maqsadiga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:

- "Yaxshi niyatda" amalga oshiriladigan – "oq sehrgarlik" ("belaya magiya")
- "Yovuz niyatda" amalga oshiriladigan – "qora sehrgarlik" ("chyornaya magiya");
- Harbiy sehrgarlik (qurol aslahani sehrlash);
- Sevgi sehrgarligi ("issiq", "sovuq" qilish)
- Tibbiy sehrgarlik (davolash maqsadida)
- Ob-havo sehrgarligi (yomg'ir chaqirish)

Sehrgarlik zamonaviy dinlarda va turli xalqlar urf–odatlarida saqlanib qolgan. Afsungarlar osmon jismlarining harakatiga qarab, hayvonlarning suyaklari, ichak–chavoqlari, qushlarning uchishi va ovozi, odamlarning kaft chiziqlari tuzilishi, raqamlar, ierogliflarning joylashish tartibi, ilonlar harakatiga, o‘lgan odamlar ruhi bilan ruhiy muloqotga kirishganda, tushlarni ta’bir qilish hamda boshqa narsalarga qarab kelajakni bashorat qilganlar, bo‘lajak ofatdan ogohlantirganlar. Sehrgarlik bilan shug‘ullanuvchilar xalq orasida afsungar, sehrgar, azayimxon, suqchi, emchi, baxshi, parixon, duoxon nomlari bilan atalgan. Sehrgarlik kuchini qaytarish uchun olov, kul, non, pichoq, piyoz, hayvon shoxi, duolar yozilgan tumorlar ishlatilgan. Ilk afsungarlik kitoblari milodning I–II asrida Aleksandriyada vujudga kelgan. Unda seyr–jodu insonning irodaviy xatti–harakatlariga to‘g‘ridan–to‘g‘ri ta’sir eta olishi mumkin bo‘lgan o‘ziga xos g‘ayritabiiy kuchlar sifatida e’tirof etilgan. Sehrgarlikka oid tushuncha va e’tiqodlar maxsus marosim va bayramlarda o‘z aksini topgan. Masalan hozirgi O‘zbekiston hududida qurg‘oqchilik davrida yomg‘ir tilash (“Sust xotin”), shamol zarar keltirganda uni to‘xtatish (“Choy momo”) va kerak bo‘lganda chaqirish, ofat yuz berganda qurbonlik qilish marosimlari o‘tkazilgan. Shu tariqa ilohiy kuchlarga ishonishga bag‘ishlangan marosimlar asosida keyinchalik diniy marosimlar shakllana boshlagan. Sehrgarlik hozirda ham turli xalqlar urf–odatlarida mavjud. Ko‘pincha kishilarning irodasizligi, ijtimoiy hodisalar oldida ojizligi, tabiat kuchlari oldidagi qo‘rquv, mavjud muammolarni to‘g‘ri tahlil eta olmaslik oqibatida sehrgarlikdan najot topishga ishoniladi. Seyr–jodu elementlari barcha dinlarda qarg‘ish va duolar shaklida saqlanib qolgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Dinshunoslikning fan sifatida shakllanishi, predmeti va funksiyalarini izohlang?
2. Dinshunoslik fan qaysi ijtimoiy fanlar bilan o‘zaro aloqador?
3. Din, dinshunoslik, din falsafasi, teologiya, teosofiya, xudojo‘ylik, diniy e’tiqod, aqida, ilohiyot tushunchalarining mohiyatini tushuntirib bering?
4. Dinning funksiyalarini sanab bering?
5. Dinning jamiyat taraqqiyotiga ta’sirini izohlang?
6. Dinlarning tasniflab bering?
7. Ibtidoiy e’tiqodlarga nimalar kiradi?

2-MAVZU. MILLIY DINLAR.

Reja:

1. Yahudiylik dinining yuzaga kelishi. Tavrot yahudiylik dinining muqaddas kitobi. Yahudiylik ta'limoti, an'ana va marosimlari. Markaziy Osiyoda yahudiylik.
2. Hinduizm dinining mazmun mohiyati. Vedalar. Braxmanlik. Hinduistik ta'limoti va xudolar panteoni.
3. Jayniylik. Sikhiylik ta'limoti va manbalari.
4. Konfutsiylik ta'limoti va uning Xitoy milliy diniga aylanish jarayonlari. Konfutsiylik ta'limotida ijtimoiy-axloqiy masalalar. Daovichilik – falsafiy ta'limot. “Dao” tushunchasi tahlili.
5. Sintoistik. Yapon xalqi an'analari. Kami kulti.

Tayanch soʻz va iboralar: *Yahudiylik, Yaxve, Tavrot sionizm, massonizm, farziylar, saduqiylar, yesseylar, vedalar, braxmanlik, hinduistik, konfutsiylik, “Dao”, daosizm, sintoizm, Krishna, karma, kasta, dxarma.*

1-reja bayoni. Yahudiylik dinining yuzaga kelishi. Tavrot yahudiylik dinining muqaddas kitobi. Yahudiylik ta'limoti, an'ana va marosimlari.

Markaziy Osiyoda yahudiylik.

Milliy dinlar deb, odatda bir millatga mansub xalqlar e'tiqod qiladigan dinlar tushuniladi. Bunday dinlar shakllanishining dastlabki va eng sunggi davrlarini bir-biridan farqlash lozim.. dastlabki milliy dinlar quldorlik jamiyatida vujudga kelgan bo'lib, odatda, politeistik ya'ni kup xudolik dinlari bo'lgan. Masalan, qadimgi grek dini ko'p xudolikning o'zginasidir. Zevs-pantion (qadimgi grek tilida – bosh xudo) hisoblanib, bir ukasi dengiz xudosi, ikkinchi ukasi - yer osti podsholigining xudosi hisoblanar edi. Shuningdeq muhabbat va go'zallik ma'budasi, urush xudosi, quyosh xudosi va san'at homiysi va boshqa yana bir qancha xudolar bo'lgan. Xuddi shunga o'xshash qadimgi yaxudiylar dinning xudosi – Yaxve ham ko'p xudolilikning yaqqol namunasidir. Quldorlik jamiyatidagi dastlabki milliy dinlarning o'ziga xos yana bir xususiyati oxirat to'g'risidagi tasavvurning paydo bo'lishi va unga ishonishdir. Ammo bu davrda bunday tasavvurlar hali to'la shakllanmagan edi. Ular keyingi davrlarda rivojlangan. Bu davrda qurbonlik qilish keng rasm bo'lib hatto majburiy marosimlardan biri hisoblanar edi. Xudolar yo'lida meva-cheva, noz-ne'matlardan tortib, uy hayvonlarining barcha turlarigacha, qadim zamonlarda esa hatto odamlar ham qurbon qilinardi. Milliy dinlar rivojlanishining sunggi davrlariga kelib odamlar o'rniga hayvonlar qurbon qilina boshlangan. Shu bilan birga oxirat haqidagi tasavvurlar keng targ'ib qilinardi.

Milliy dinlar elat-millat dinlari deb ham yuritiladi. Chunki ular urug'-qabila dinlaridan farqli ravishda sinfiy jamiyat qaror topishi va shakllanishi davrida vujudga kelgan va rivojlangan. Binobarin, ular avvalo elatning, sungra millatning shakllanishini uzlarida aks ettirgan.

Milliy dinlarda tasavvur qilingan xudolar milliy xudolar hisoblanib, ibodat-marosimlar asosan muayyan elat yoki millatnikigagina mos tushar edi. Binobarin, bu xildagi qadimgi dinlar milliy davlat xarakterida bo'lishi bilan boshqa din shakllaridan ajralib turgan.

Eng sunggi davrning milliy dinlariga quyidagilar kiradi: yahudiylik (iudaizm) (hinduizm, sikhizm, daosizm, konfutsiychilik, sintoizm).

Yahudiylik- Yahudiylik dini eramizdan avvalgi 2000 yillarning oxirlarida Falastinda vujudga kelib, yakkaxudolik g'oyasini targ'ib qilgan dindir. Yahudiylik millat dini bo'lib, faqatgina yahudiy xalqiga xos. Yahudiylikning kitobiy asoslari er. av. IV-III asrlarda shakllandi.

Bu dinning ta'limotiga ko'ra olamlarni yaratuvchi yagona xudo Yahve mavjud. U Tavrotni yahudiylarga berish bilan ular bilan ahd tuzgan. Go'yoki yahudiylar Yahvening yer yuzidagi xalqlarning «eng mumtozi» va keyingi dunyoda berilajak in'omlarning eng haqlisi, Muso Yahvening elchisi, Tora (Tavrot) Yahve tomonidan Musoga Tur tog'ida berilgan muqaddas kitob. Yahve olamlarni yaratishni yakshanbada boshlab, juma kuni tugatdi, shanba kuni esa dam oldi va yahudiylarga ham shu kuni dam olishni buyurdi. Shuning uchun yahudiylik diniga ko'ra shanba kuni ulug' kun hisoblanib, hych qanday mehnatga qo'l urilmaydi.

Bundan tashqari yahudiylikda **messiya** - **xaloskorning** kelishi haqidagi ta'limot ham keng o'rin olgan. Unga ko'ra oxirzamonda Yahve yahudiylar orasidan bir xaloskorni chiqaradi va u quyidagi vazifalarni bajaradi: 1) dunyoni qaytadan, isloh qilgan holda qurish; 2) butun yahudiylarni Sinion (Quddus yaqinidagi tepalik) atrofida to'plash; 3) ularning barcha dushmanlarini jazolash.

Muso Tur tog'ida Yahve bilan uchrashganda unga 10 ta lavhani tushirdi. Ularda ushbu din asosini tashkil qilgan 10 ta nasihat bor edi:

1. Yahvedan boshqani iloh deb ushlamaslik;
2. But, sanam va rasmlarga sig'inmaslik;
3. Bekordan-bekorga Xudo nomi bilan qasam ichmaslik;
4. Shanba kunini hurmat qilish va uni Xudo uchun bag'ishlash;
5. Ota-onani hurmat qilish;
6. Nohaq odam o'ldirmaslik;
7. Zino qilmaslik;
8. O'g'irlik qilmaslik;
9. Yolg'on guvohlik bermaslik;
10. Yaqinlarning narsalariga ko'z olaytirmaslik.

Yahudiylikdagi oqimlar. Yahudiylikdagi oqimlar haqida gapirganda ularni qadimiy oqimlar va zamonaviy oqimlarga bo'lishimiz mumkin. Qadimiy oqimlarga: *Saduiylar*, *Farziylar*, *yesseylar* kiradi.

Saduiy nomi podshoh Dovud payg'ambar davrida yashagan ruhoniylar Saduq nomi bilan bog'liq. Ko'plab mansabdor ruhoniylar saduiy bo'lganlar. Ular diniy ishlarda faqat Qonun (Musoning besh kitobi)ni tan olganlar. Qonunda ruhoniylar, qurbonliklar, ibodatlar haqida so'z boradi, lekin oxirat va qiyomat haqida hych narsa deyilmagan. Shuning uchun saduiylar qiyomatda o'lganlarning qayta tirilishini tan olmaganlar.

Farziy nomi qadimiy yahudiy tilidagi «tushuntirish», «ajratib ko'rsatish» so'zidan olingan bo'lib, ular Musoning qonunini sharhlaganlar va oddiy odamlarga o'rgatganlar. Farziylar Musoning zamonidan beri og'zaki an'ana davom etib kelyapti deb hisoblaydilar. Ular har bir avlod o'z ehtiyojlarini qondirish uchun Qonunni sharhlay oladi deb bilganlar.

Ular muqaddas manba sifatida nafaqat Musoning qonunini, balki boshqa payg'ambarlarning ham muqaddas yozuvlarini, hatto o'zlarining urf-odatlarini ham qabul qilganlar va bularning hammasiga sinchkovlik bilan amal qilganlar. Shuning uchun ular ovqatga, kiyimga va boshqa narsalarga juda ehtiyot bo'lganlar. Qo'llari va badanlarining ozodaligiga katta e'tibor berganlar. Farziylar juda ko'p payg'ambarlar ta'kidlagan qiyomatga, o'lganlarning qayta tirilishiga ishonganlar.

Yesseylar. Quddusdagi ko'pgina ruhoniylar Xudo ulardan talab qilganidek yashamas edilar. Undan tashqari rimliklar ba'zi diniy mansablarga Musoning Qonuniga muvofiq munosib bo'lmagan shaxslarni tayinlagan edilar. Buni ko'rgan bir guruh ruhoniylar Quddusda ibodat qilish

va qurbonlik qilish Qonunga to'g'ri kelmay qoldi, deb hisobladilar. Ular Quddusni tashlab, yahudiy sahrolariga chiqib ketdilar va o'sha yerda o'z jamoalarini tashkil qildilar. Ularni *yesseylar* deb atashdi. *yesseylar* Xudo tomonidan yuboriladigan xaloskor - Messiyaning kelishi va Quddusni tozalashini kutib, ibodat qilib yashar edilar.

Massonizmning ma'nosi «ozod quruvchilar» bo'lib, yahudiylikdagi yashirin tashkilotdir. U milodiy 44 yili Rim imperatorlaridan Irod Akriba tomonidan o'zining ikki yahudiy maslahatchisi: rais o'rinbosari Hyeron Abyud va birinchi sekretar Muob Lomiy yordamida tashkil etilgan. Maqsadi – dunyoda yahudiylar hukmronligini o'rnatishga erishish. U tashkil topgan davrda «maxfiy qudrat» deb atalardi. Keyinchalik massonizm deb ataldi.

Sionizm nomi Quddusdagi Sion tog'i bilan bog'liq. Bu oqim avstraliyalik yahudiy jurnalist T. Gerlsning «Yahudiylar davlati» risolasi asosida tuzilgan. Bu oqimning o'z oldiga qo'ygan maqsadi – yahudiylar o'zlari yashab turgan turli o'lkalardan chiqib, Falastinda «milliy birlashish»ga erishish. Sionizm «jahon yahudiy millati» - «oliy millat» kabi g'oyalarni ilgari suradi. O'z g'oyasiga ko'ra sionizm siyosiy oqim bo'lib, maqsadiga erishish yo'lida yahudiy dinidan foydalanadi.

Yahudiylik manbalari. Yahudiy dini boshqa dinlar kabi o'zining muqaddas yozuvlariga ega. Uning asosan ikkita manbasi bo'lib, biri er. av. XIII asrda yashagan va Isroil xalqini Misrdan olib chiqib ketishga boshchilik qilgan Muso payg'ambarga Tur tog'ida berilgan Tora (Tavrot). Bu manba xristianlar uchun ham muqaddas hisoblanganligi uchun u haqida xristianlik mavzusida kengroq to'xtalamiz.

Talmud. Talmud (qad. yahud. tilida *lameyd* - *o'rganish*) miloddan avvalgi IV asrlarda vujudga kelgan va yozma Toradan farqli o'laroq, avloddan-avlodga og'zaki ravishda o'tib borgan. Shuning uchun Torani yozma qonun, Talmudni esa og'zaki qonun deb yuritilgan. Talmud Mishna va Gemara kitoblari majmuasi bo'lib, Mishna ravvinlar tomonidan Tavrotga yozilgan sharhlar, Gemara esa Mishnaga yozilgan sharhlardan iborat. Talmudning Falastin (O'rshalim) va Vavilon (Bavliy) nusxalari mavjud. O'rshalim Talmudi eramizning III asrlarida Bavliy talmudi eramizning V asrida tahrir qilingan.

Unda ilgari yahudiylar uchun noma'lum bo'lgan o'ziga xos esxatologik (ya'ni oxirat, qiyomat, marhumlarning tirilishi, u dunyodagi ajr va jazo) tasavvurlar o'z aksini topgan. Talmudda yahudiylikning marosimlari, urf-odatlarini aniq bayon etilgan bo'lib, ular 248 ta vasiyat va 365 ta taqiqni o'z ichiga oladi. Shuningdek, unda qadimiy yahudiylar orasida din, partiya, guruhlar (saduqiylar, farziylar, yesseylar)ning kelib chiqishi haqida tarixiy ma'lumotlar keltirilgan. Unda bayon etilgan diniy qonun-qoidalar, aqidalar, ko'rsatmalar yahudiy dinining asosini tashkil etadi.

Yahudiy marosimlari va bayramlari. Yahudiylar o'zlarining Yahvega nisbatan sodiq ekanliklarini isbotlash uchun bir necha rasm-rusumlarni ijro etadilar. Ular yillik va kunlik ibodatlardan, bayramlardan, marosimlardan iborat. Ibodat uyda ham sinagogada ham birday olib boriladi. Yahudiylar sinagogasining sharqiy tomonida Toraning nusxalari saqlanadigan sandiq va Ravvin uchun minbar qo'yilgan. Ayollar erkaklardan alohida ibodat qilishadi. Sinagogada ibodat xor shaklida olib boriladi.

Yangi tug'ilgan o'g'il bolalar sakkizinchi kuni xatna qilinadi. Yahudiylikda bir necha tur oziq-ovqatlar, asosan cho'chqa, quyon, qo'shoyoq, tuya, yaxlit tuyuqlilar, o'laksaxo'r qushlar kabi ba'zi hayvon go'shtlarini yeyish taqiqlanadi.

Yahudiylarning yillik bayramlari ichida eng e'tiborlisi Peysax (Pasxa) bayramidir. Bu bayram xristianlarning pasxasidan farqli o'laroq, yahudiylarning Misrdagi qullikdan qutulib

chiqqanlari munosabati bilan nishonlanadi. Qadimiy yahudiylarda Pasxa deb qo'zichoq go'shti va vinodan iborat kechki ovqatga aytilgan. Xudo Misrdagi yahudiy bo'lmagan go'daklarni qirib tashlashga qaror qilganda ular o'z uylarining peshtoqini o'sha qoni bilan bo'yab o'zlarini yahudiy ekanliklarini bildirganlar.

Yahudiylar pasxa bayramidan keyingi yetti kun davomida tuzsiz, hamirturushsiz patir – **matsa** yeydilar. Matsani yeyish bilan har bir yahudiy Muso boshchiligidagi o'z ota-bobolarining chekkan mashaqqatlarini his etadi. Bu bayram yahudiylarning quyosh-oy kalendarining *Nison* oyining 14 kuni (aprel oyining o'rtalariga to'g'ri keladi) nishonlanadi.

Pasxadan keyingi 50-kuni yahudiylar **Shabuot (Shevuot)** bayramini nishonlaydilar. Bu bayram dastlab dehqonchilik bayrami bo'lgan, keyinchalik Sinay tog'ida Musoga Xudo tomonidan Toraning berilishini nishonlab o'tkaziladigan bayramga aylangan. U yahudiylarning kalendari bo'yicha **Sivona** oyining 6-,7-kunlari nishonlanadi.

Kuzda yahudiy kalendaridagi **Tishri** oyining 1-2-kunlari (sentyabr oxiri, oktyabr boshlari) yangi yil bayrami - **Rosh-Ashona** nishonlanadi. Bu bayram yahudiylar uchun poklanish bayrami hisoblanib, ular qurbonlik qilingan qo'chqor shoxidan yasalgan surnaylarni chaladilar, gunohlari qolmasligi uchun cho'ntaklarini to'ntarib yaxshilab qoqadilar.

Tishri oyining 9-kuni gunohlardan poklanish bayrami - **Yom-Kipur** nishonlanadi. **Rosh-Ashona** va **Yom-Kipur** bayramlari o'rtasida yahudiylar ro'za tutadilar. Ro'za kunlari ular yuvinmaydilar, yalangoyoq, eski-tuski kiyimlarga o'ranib yuradilar. Sinagogada nadomatlar bilan yig'lab tavba qiladilar.

Purim (qur'a) bayrami yahudiy bayramlarining ichida eng quvnoq hisoblanadi. Bu bayram yahudiylarning ularni qirib tashlamoqchi bo'lgan Fors podshohi Homon zulmidan qutilganliklari sharafiga bahorda nishonlanadi. Ularni Homondan o'z amakisi Mordexay qo'lida tarbiyalangan yesfir ismli qizcha qutqargan. Shuning uchun bu kuni yahudiylar «Homonga la'natlar bo'lsin», «Mordexayga Xudoning rahmatlari yog'ilsin», deb qichqiradilar.

Yahudiylar O'rta Osiyoda. Ma'lumki, yahudiylar O'rta Osiyoga qadim zamonlardan ko'chib kelganlar. Ularning bu kelishlari haqida turli xil rivoyatlar mavjud. Ularning ichida umum e'tirof etilganlaridan biri shuki, yahudiylar bu mintaqaga Eron orqali kirib kelganlar. Bu xalqning O'rta Osiyoga hijrati ko'p asrlar mobaynida davom etdi. Taxminlarga ko'ra, ular Assuriya quvg'inlari paytida – er. av. VII-VI asrlarda Eronga ko'chib kela boshlaganlar. Hatto e.r. av. VIII asrlarda ba'zi yahudiylar Isroilni tark etib, Misr, Eron kabi o'lkalarda boshpana topganliklari haqida ham xabarlar bor. Fors davlati ma'lum muddat O'rta Osiyoni o'z hukmlari ostida tutib turgan va xuddi shu davrda yahudiylarning ko'chib kelishi amalga oshgan. Bu fikrni mahalliy yahudiylarning fors lahjalaridan birida gaplashishlari ham quvvatlaydi. Ularning hayot tarzlari, urf-odatlar qadimiy yahudiy, fors va mahalliy - O'rta Osiyo madaniyatlarining qorishmasidan iborat. Tarixning turli jarayonlarida bu uch madaniyatdan ba'zilarining ta'siri kuchayishi yoki aksincha susayishi kuzatilgan. XVIII asrning boshlarida O'rta Osiyoda yuz bergan siyosiy jarayonlar tufayli yahudiylar Eron, Afg'oniston, Xiva, Qo'qon va Buxoro jamoalariga bo'linib ketdi. O'tgan asrning ikkinchi yarmida Rossiya tomonidan O'rta Osiyoning ma'lum bir qismining bosib olinishi yana yahudiylarning Turkiston Muxtoriyati va Buxoro Amirliги jamoalariga bo'linib ketishiga olib keldi. Yahudiylik millat dini bo'lganligi uchun yahudiylar qaerda bo'lmasin, biri-ikkinchisidan qancha uzoq bo'lmasin, o'qiydigan kitobi – Tavrot, e'tiqod qiladigan dini yagona bo'lib qolaverdi. XVIII asrda O'rta Osiyo yahudiylari tushkunlik davrini boshdan kechirdilar. 1793 yili o'zi Farbiy Afriqadan bo'lib, Falastinning Sfat shahrida yashovchi Iosif Mamon Mag'ribiy o'z shahri yahudiylar uchun moddiy yordam to'plash

maqsadida Buxoroga keladi. U bu yerlik yahudiylarning o'z dinlaridan uzoqlasha boshlaganliklarini ko'rib, shu yerda qolishga va millatdoshlariga diniy ta'lim berishga ahd qiladi. Yahudiylar doimo tinch, kam aholili joylarda yashashni afzal ko'rganlar. Agarchi O'rta Osiyolik yahudiylarni *Buxoro yahudiylari* deyilsa ham, ular ko'proq Samarqandda yashaganlar. XVIII asrning o'rtalarida Nodir-shoh Samarqandni bosib olganida uning lashkarlari orasida turklar, lazginlar, afg'onlar, eroniylar, shuningdek, yahudiylar bo'lganlar. Ular Samarqandning Shoh-Kash, Chor-Raga, Novadon, Qo'shhovuz kabi guzarlarida yashab qolganlar. Buxoro hukumati Nodir-shoh davrida yahudiylarga nisbatan yumshoq muomalada bo'lgan.

Son jihatdan ko'paygan yahudiylarning barchalari bir mavzega jam bo'lib yashashni xohlashardi. Biroq, Buxoroda ham, uning Shahrisabz, Kattaqo'rg'on, Karmana kabi viloyatlarida ham yahudiylarni musulmonlardan ajralgan holda alohida yashashga majbur edilar. 1843 yilning bahorida mahalliy yahudiylarga Samarqandning sharqiy qismidan 2,5 gektar joyni 10000 kumush tangaga sotish haqidagi shartnoma tuzildi. Bu shartnomani yahudilardan 32 kishi imzoladi, davlat uning haqiqiyligini to'rt muhr bilan tasdiqladi. Shunday qilib, yahudiylar o'zlarining birinchi mahallalariga ega bo'ldilar.

2-reja bayoni. Hinduizm dinining mazmun mohiyati. Vedalar. Braxmanlik. Hinduiylik ta'limoti va xudolar panteoni.

Eramizdan avvalgi 2-ming yilliklar o'rtalarida Hindistonga Shimoldan yerlik aholidan tillari va ranglari farq qilgan xalqlar kirib kela boshladilar. Ular yevropa tillariga o'xshash bo'lgan *sanskrit* tilida gaplashar edilar, o'zlarini esa **oriylar** (aslzodalar) deb atar edilar. Ular o'zlari bilan muqaddas yozuvlarini ham olib keldilar. Ular *Vedalar* (sanskrit tilida - Bashorat) edi. Uning tarkibiga turli davrlarda yozilgan bir necha kitoblar kirgan bo'lib, ular ibodat, marosimlar, falsafiy ta'limotlar, tarixiy axborotlarni o'z ichiga olgan edi. Vedalarning boshqa muqaddas (mas. Bibliya) yozuvlardan farqli tomoni shunda ediki, ular nihoyasiga yetkazilmagan va oxiri ochiq edi. Unga keyingi ruhoniylar tomonidan ham qo'shimchalar qo'shish imkoni bor edi. Shuning uchun keyinchalik bu yozuvlar juda ham kengayib ketdi. Vedalarda 33 ta, ba'zi manbalarga ko'ra 333 yoki 3339 ta afsonaviy xudolar haqida madhiyalar bitilgan. Bu xudolarning eng mashhurlari - Indra, Varuna, Mitra, Dyaus, Adita, Agnyu, Vishnu, Krishna.

Vedalar (Sanskritcha) "muqaddas bilim" degan ma'noni bildiradi.

Eramizdan taxmiman bir yarim, ikki ming yillar avval Hindistonga bizga noma'lum sabablarga ko'ra Shimoldan yerlik aholidan tillari va ranglari bilan farq qiluvchi xalqlar kirib kela boshladilar. Ular Yevropa tillariga o'xshash bo'lgan *sanskrit* tilida so'zlashar, o'zlarini *oriylar*, ya'ni aslzodalar deb atar edilar. Ular o'zlari bilan birga muqaddas bitiklari-yozuvlarini ham olib keldilar. U bitiklar *sanskrit* tilida "muqaddas bilim", "muqaddas bashorat" degan ma'noni bildiruvchi "Vedalar" deb atalar edi. Bu so'z ayni mahalda "muqaddas kitob", "oliy donishmandlik" degan ma'nolarga ham ega bo'lgan.

Vedalar tarkibiga turli davrlarda yozilgan bir qancha kitoblar kirgan bo'lib, ular ibodat, marosimlar, falsafiy ta'limotlar, tarixiy axborotlarni o'z ichiga olgan. Vedalarning boshqa muqaddas kitoblardan farqli tomoni shunda bo'lganki, ular nihoyasiga yetkazilmagan va oxiri ochiq-tamomlanmagan holda qolgan. Unga keyinchalik ruhoniylar tomonidan ham qo'shimchalar qo'shish imkoni bo'lgan. Shuning uchun keyinchalik bu yozuv-bitiklar juda ham kengayib ketdi. Ammo bu muqaddas bitiklarning asosiylari to'rtta-"Rig" veda, "Yajur" veda, "Sama" veda va "Atxarba" veda bo'lgan.

Upanishad (sanskritcha) ustozning yonida haqiqatni bilish uchun o'tirmoq degan ma'noga ega bo'lib, Vedalarga yozilgan diniy-falsafiy izohlardir. Upanishadlar miloddan avvalgi VII-III asrlardan boshlab, milodiy XIV-XV asrlargacha tuzib borilgan, 250 ga yaqin asarlar kiritilgan. Upanishadlar nasriy va she'riy uslubda yozilgan dastlabki va so'nggi izohlarga bo'linadi.

Upanishadlarning asosiy vazifasi brahmanlik va buddaviylikka asos bo'lgan bir qancha g'oyalar, xususan, insonlarga yomonlikni ravo ko'rmaslik, chunki hayotning o'zi azoblardan iborat ekanligi haqidagi ta'limotni asoslab berishdir. Bunda inson umrining o'zi qurbonlikdir degan tasavvur olg'a suriladi. Yakka jon va ilohiy jonning qo'shilishi to'g'risidagi ta'limot, yakka tug'ilishlar zanjiridan xalos bo'lish aqidasini vujudga keltiradi.

Upanishadlarda Brahma oliy ibtido, jism va hodisalar asosi va sababi, barcha borliqning boshi va oxiri deb talqin qilinadi (Brahma-qiyofasiz xudo, mutlaq kuch). Barcha narsalar o'shandan paydo bo'lgan, o'sha bilan yashaydi va o'lgach, yana o'shanga qaytadi. Barcha narsalar Brahmadir, Brahma esa Atmandir deyiladi (Atman-nafas, ruh, jon, umumiy-ilohiy jon). Shunday ekan, aytishimiz mumkinki, barcha narsalar xudodir, xudo esa nafas, ruh, jon, umumiy jondir.

Bu ta'limotga ko'ra, moddiy dunyo, jumladan, inson ham, atman-brahmadan paydo bo'lgan va yana o'shanga aylanadi, insonning joni avvalgi mohiyatiga butunlay qaytib, u bilan yana qo'shib ketadi.

Har bir inson ilohiy kuch tomonidan belgilangan hayot kechirish tarzi-qonuniga muvofiq yashashi kerak, kimki bu qonunni buzsa, uning joni kelgusida biron hayvon yoki hashorat tanasida qayta dunyoga keladi, bu qonunni buzmagani odamning joni esa kelgusida yuqori tabaqa vakillariga mansub inson tanasida qayta paydo bo'ladi, deb ta'lim beriladi. Insonning yashashdan maqsadi ham ana shunda deb tushuntiriladi.

Upanishadlar keyingi davrlarda shakllangan barcha hind falsafiy tizimlar, maktablar va ularning vakillari dunyoqarashlariga o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Braxmanlik. Eramizdan avvalgi birinchi ming yilliklarga kelib oriylar Hindistonda o'zlarining knyazliklariga ega bo'ldilar. Vedalarning marosimlar haqidagi ko'rsatmalari ancha murakkablashdi. Shu davrga kelib aholi o'rtasida braxmanlarning nufuzi oshib ketdi. Ular oldingi ta'limotlarni isloh qilib, yangicha liniy qonun-qoidalarni ishlab chiqdilar va *braxmanlik* diniga asos soldilar.

Braxmanlik ta'limoti *kastalar* (ijt.tabaqalar)ga asoslangan, ya'ni jamiyatdagi insonlar o'zlarining kelib chiqishlari, mansablari va hunarlariga ko'ra turli tabaqalarga bo'linadilar. Braxmanlikda eng yo'qori kasta braxmanlar. Ular xudoning tilidan yaratilgan bo'lib, xudolar nomidan gapirish huquqiga ega edilar. Ikkinchi kasta *kshatriylar*. Ular xudoning qo'lidan yaratilgan insonlar hisoblanib, podshohlar, knyazlar, jangchilar shular jumlasiga kiradi. Kastalarning yana biri *vayshlar*. Ular xudoning sonidan yaratilgan insonlar hisoblanib, savdogarlar va hunarmandlar shu kastaga mansubdirlar. Kastalarning eng quyi tabaqasi *shudralardir*. Ular xudoning oyog'idan yaratilgan hisoblanib, oddiy xalq, dehqonlar shular jumlasiga mansub.

Braxmanlikning kastachilik asoslari er. av. V asrlarda yashagan Hindis-tonning yarim afsonaviy hukmdori Manu qonunlarida mustahkamlangan.

Braxmanlikdagi ruhning ko'chib o'tish ta'limoti Hindistonning deyarli barcha din va falsafalariga ta'sir etgan.

Hinduiylik. Eramizdan avvalgi VI asrda Hindistonda keyinchalik jahon dinlaridan biriga aylangan Buddaviylik vujudga keldi. U braxmanlikdagi bir necha elementlarni qabul qilgan bo'lsa-da, kasta ta'limotini inkor etdi. O'sha davrda Hindistondagi kasta tuzumini saqlab qolishga, braxmanlik dinini isloh qilib, qayta tiklashga harakat boshlandi. Bu harakat braxmanlik bilan

buddaviylik o'rtasidagi kurashni ifodalovchi hinduiylik edi. Hinduiylik ko'pxudolik dini bo'lib, unda braxmanlikning asosan uchta xudosi tan olinadi; 1) koinotning yaratuvchisi bo'lgan Braxma; 2) dunyo nizomini ushlab turuvchi Vishnu; 3) koinotni halok qilish qudratiga ega Shiva.

Hinduiylik ta'limotiga ko'ra olam, hayotning barcha shaklini Braxma yaratgan. Biroq Braxma bu dinda uch xudoning nomigagina boshlig'i. Hozir Braxmaga sig'inish deyarli yo'q. Hinduiylar asosan Vishnu va Shivaga sig'inadilar, ularga atab qurbonliklar keltiradilar.

Hinduiylikda jannat va do'zax haqidagi tushunchalar ham mavjud. Ular marhumlarni Gang daryosi sohillarida kuydirib, kulini suvga oqizadilar.

Bu din asosan Hindistonda tarqalgan bo'lib, mamlakat aholisining 83% shu dinga e'tiqod qiladi. Hinduiylikning uni qabul qilmoqchi bo'lganlarga qo'yadigan birinchi va asosiy sharti Hindistondagi kasta tuzumini qabul qilishidir.

Hinduizm – hozirgi Hindistonda tarqalgan din shaklidir. U eramizdan oldingi dinlar – braxmanizm va vedizmning evolyusiyasi natijasida eramizning birinchi ming yilligi o'rtalariga kelib shakllangan. Shu davrdan boshlab hinduizm hukmron dinga aylangan. Xozirgi vaqtda Hindiston aholisining 80 dan ortiqroq foizi hinduizmga e'tiqod qiladi. Hinduizm sinkretik din bo'lib, turli e'tiqodlar, urf-odatlar va marosimlar, maxalliy diniy e'tiqod va qarashlarning murakkab kompleksi sifatida voqe bo'lib, urug'-qabila dinlari elementlarini, braxmanizm, buddizm va jaynizmning asosiy g'oyalarini qamrab olgan. Hinduizm o'zining yagona tashkilotiga ega emas.

Hinduizm insonning tug'ilganidan to vafot etishigacha bo'lgan huquq va vazifalarini belgilab va cheklab qo'yadi. Shuning uchun unda marosimchilikka keng o'rin berilgan. Hinduizm kishilarning ijtimoiy tengsizligini oqlaydi va abadiylashtiradi, ruhning o'lmasligi va ko'chib aylanib yurishi (sansara ta'limoti), qayta tug'ilishi (karma ta'limoti), gunoh ishlar uchun javob berishi, jannat va do'zax kabi aqidalarni o'z ichiga oladi.

Hinduizm politeistik din bo'lib, unda ko'p xudolilik elementlari saqlangan. Dindorlar tasavvurida bosh xudo Braxman Koinotning ijodkori va yaratuvchisidir. Bundan tashqari hindlar Vishnu va Shiva xudolariga ham e'tiqod qiladilar. Hinduizm ta'limotida xudoning uch xil ko'rinishida tasavvur etilishi (trimurti) eng oliy, ilohiy, yakka xudoning uch xususiyati, deb talqin qilinadi. Bu xristianlikdagi uch yuzli xudoga uxshaydi.

Hinduizm ta'limoticha, olam paydo bo'lib, yemirilib, yuq bo'lib turadi, ya'ni olamning yashashi progressiv emas, aksincha, regressiv xarakterga ega; har bir davr olamning yuksak rivojlangan cho'qqisidan boshlanib, uning inqirozga uchrashi bilan tugaydi, insonlar gunohga botib ketgach, olam yuqoladi.

Hinduizm jamiyatning tabaqalarga bo'linishini aks ettiruvchi savob va jazo (karma) g'oyasiga asosan, inson hayotida 4 ta asosiy maqsad bor, deb da'vo qilinadi: 1) dxarma – oila va jamiyatda diniy talablarni bajarish; 2) artxa – foydali ishlar qilish, zarur materiallarga ega bo'lish; 3) kama muhabbat tuyg'ulariga erishish, his-tuyg'ularni qondirish; 4) moksha – o'zgarish zanjiridan butunlay xalos bo'lish.

Vishnuizm va shivaizm oqimlarining vakillari o'z xudolariga bag'ishlab minglab katta-kichik ibodatxonalar qurganlar. Bu dinga e'tiqod qiluvchilar «muqaddas joylar», daryolar va boshqa xar hil narsalarga sig'inadilar. Hind xalki orasida yovuz ruhlarga e'tiqod qiltsh keng tarqalgan. Ular turli hayvonlar – hukiz, sigir, maymun va ilon kabilarga ham sig'inadilar, ularni muqaddaslashtiradilar.

Hind xalqi uchun Gang daryosi muqaddas hisoblanadi. Hinduizm diniga e'tiqod qiluvchilar Banoras shahrini ham muqaddaslashtirishgan. Rivoyatlarga ko'ra, go'yo Gang daryosi qirg'og'ida

kishi hayotdan ko'z yumsa, narigi dunyodagi hayoti ancha yengillashar, jannatga yul olar degan diniy fikr bor.

Hinduizmning xarakterli xususiyatlari, yuqorida qayd qilingandeq jamiyatdagi kishilarni tabaqalarga – kastalarga ajratishdir. Hozirgi paytda kishilarni tabaqalarga bo'lish ta'qiqlanadi. Hinduizmning «muqaddas» yozuvlariga Veda, Upanishadlar kiradi. Keyinchalik «Maxabxarata» va «Ramayana» dostoniga o'xshash, diniy marosimlar va urf-odatlar sigdirilgan har xil afsona, rivoyat, hikmatli suzlar, epik dostonlar paydo bo'la boshladi.

Hozirgi vaqtda hinduizm Hindistondan tashqari Nepal, Shri Lanka, Bangladesh, Gavana va hindlar yashaydigan boshqa hududlarda tarqalgan.

3 – reja bayoni. Jayniylik. Sikxiylik ta'limoti va manbalari.

Jayнизм - dinning asoschisi sifatida e'tiqod qilinadigan yarim afsonaviy payg'ambar - Jina nomi bilan atalgan bo'lib, eramizdan oldingi VI asrda paydo bo'lgan. Jayнизм braxmanizmdagi kishilarni tabaqalarga ajratish sistemasiga qarshi paydo bo'lgan. Uning ta'limotida 24 payg'ambarga, ayniqsa oxirgi payg'ambar - Vardxamana Maxaviraga sig'inish talab etiladi. Jayнизмda jonning o'lmasligiga, uning bir moddiy shakldan ikkinchisiga ko'chib yurishiga ishonish markaziy o'rinni egallaydi.

Inson yer yuzida qiladigan har qanday harakat va ish ana shu jon bilan tan birligida sodir bo'ladi deb qarash, jonni gunohdan saqlash uchun hayotda to'g'ri yo'lni tutmoq, ya'ni din targ'ib qiladigan barcha ta'limotlarga, talablarga so'zsiz itoat etish va e'tiqod qilish zarur.

Jayнизм ta'limotining asosiy g'oyasi deyarli barcha hind dinlari uchun umumiy bo'lgan karmalar va nirvana haqidagi ta'limot hisoblanadi. Nirvanaga erishgan inson qayta tug'ilishdan ozod bo'ladi. Bunga esa faqat tarkidunyo qilganlarga erishishi mumkin. Shuning uchun ham ushbu ta'limotda tarkidunyochilikka alohida e'tibor beriladi. Inson dunyoda o'zining barcha ehtirosalaridan voz kechgach, o'z nafsini tiyishi, o'z-o'zini yengishi – yangi karma hosil bo'lishiga yo'l qo'ymasligi kerak. Natijada karmaning kuchi yemirilib, inson rug'i kishanlardan ozod bo'ladi. Kishining karmasi qanchalik zaiflashsa, uning ichki dunyosi shuncha boyib boradi. Bu jarayon ruhning to'la ozod bo'lgunigacha davom etadi. Va nihoyat, ruhning butunlay ozod bo'lishi – nirvana holati yuz beradi.

Dunyoviy kishidan ham, tarki dunyo qilgan rohibdan ham ma'lum axloqiy qoidalarni bajarish talab qilinadi.

Jayнизм ta'limoti borliqning iloh tomonidan yaratilgani va uning borliq ustidan nazorat qilib turishini tan olmaydi. Unga ko'ra, ruh – abadiy mavjudot, olam esa azaliydir. Ruh moddiy tanani yengib o'tib, abadiy hayotga yetishishi mumkin. Maxaviraning fikricha, dunyodagi har bir jism, uning jonli yoki jonsiz bo'lishidan qat'iy nazar, qandaydir darajadagi anglash xususiyati bilan yaratilgan. Shuning uchun jayнизмda axinsa – zarar yetkazmaslik qoidasiga ko'proq e'tibor beriladi, ya'ni jonli yoki jonsiz narsalarga ozor yetkazmaslik talab qilinadi.

Jayнизм ikki oqim – shvetambarlar (oq kiyim kiyganlar) va digambarlar (moviy kiyim kiyganlar)ga bo'linib ketgan. Digambarlar jayнизмning asl holatini saqlab qolishga ko'proq ahamiyat beradilar. Ular hayotning barcha lazzatlaridan voz kechganlar. Ular hech narsani, hatto oddiy hashoratlarni ham o'ldirmaslik to'g'risidagi ta'limotlarga amal qiladilar. Hatto suv ichayotganda og'izlarini latta bilan berkitadilar.

Shvetambarlar diniy matnlarni haqiqiy deb hisoblaydilar, hayotga unchalik e'tibor bermaslikni targ'ib qilsalar-da, bu dunyo lazzatlarining hammasidan ham voz kechmaydilar..

Sikxizm - (“sikx” – sanskrit tilida “o‘quvchi”, “shogird” ma’nolarini bildiradi) XV asrning oxiri va XVI asrning boshlarida Shimoliy-G‘arbiy Xindistonda bir tomondan, hinduizmdagi aholini tabaqaga bo‘lish tamoyiliga qarshi yo‘nalish sifatida, ikkinchi tomondan, musulmonlarning bosqinchiligiga qarshi milliy kurash harakati sifatida paydo bo‘lgan. U mayda hunarmand va savdogarlarning kastachilik tuzumi va feodal zulmiga qarshi noroziligini ham ifodalagan.

Bu dinning asoschisi – “guru” (sanskrit tilida “ustoz” ma’nosini anglatadi) – kshatriy tabaqasidan chiqqan Nanak (1469-1539)dir.

XVI asrga kelib sikxlar jamoasiga dehqonlar ham qo‘shila boshlaganlar va bu antifeodal harakatni quvvatlaganlar. Natijada jamoa harbiy-demokratik tashkilot tusini olgan va u aholini tabaqalashtirish hamda qabiladoshlik tutumidan yuz o‘giran teng huquqli kishilar jamoasiga aylangan. Ayni paytda, sikhizm ta’limoti oshkora feodalizm, Boburiylar imperiyasi va inglizlar zulmiga qarshi kurash bayrog‘iga aylangan.

Sikhizm ta’limotidagi asosiy g‘oya diniy bo‘linishni tugatish, barchani, shu jumladan hinduizm va islomga e’tiqod qiluvchilarni yagona diniy e’tiqodga birlashtirish g‘oyasi edi.

Sikhizm harakati XVII asrda sikhlarining kuchli davlatini tuzish bilan yakunlandi. XVIII asrda esa ular Panjobni ham egallaydilar. Bu davlat 1849 yilgacha, ya’ni inglizlar tomonidan istilo qilinguncha yashagan. XVII asr oxiridan buyon sikhizmga e’tiqod qiluvchilarning mazkur jamoaga qabul qilinishiga bag‘ishlangan maxsus marosim o‘tkazib kelinadi. Sikhlar o‘zlarining boshqalardan ajratib turadigan tashqi qiyofalarini ajratib turadigan beshta “K” belgisiga amal qilib keladilar. 1. “Kesh”. Sikhlar sochi va soqolini tagi bilan oldirmaydilar. 2. “Kachxa”. Ular uzun ishton kyib yuradilar. 3. “Kangxa”. Sochlariga yog‘och taroq taqib yuradilar. 4. “Kurpan”. Har doim xanjar taqib yuradilar. 5. “Kara”. Temirdan bilakuzuk taqadilar.

Hozirgi kunlarda sikhlar o‘zlariga harbiy unvon – “Singh” – “Sher” unvonini qo‘shib olganlar.

Sikhizm ta’limoti uning muqaddas kitobi “Grant Sohib” (“Janob Kitbo”)da bayon etilgandir. Bu kitob asosan guru (ustoz)ning pand-nasihatlar va hayot haqidagi lavhalardan iboratdir. Sikxizm monoteistik din hisoblanib, jamoa bo‘lib birgalikda ibodat qilishni inkor etadi, ruhoniylarni tan olmaydi. Moddiy olamdagi barcha hodisalar sikhizm ta’limoticha, yagona xudo - oliy kuchning ijodi, insonlar esa xudo oldida teng, deb hisoblanadi. Mazkur ta’limot asosiga yagona xudo – “Ek” (“Yagona”, “Bitta”), ya’ni hinduizmdagi Braxma, Vishnu, Shiva va islomdagi Alloh qo‘shilib yagona xudoni tashkil etishi g‘oyasi asos qilib olinadi. Sikxizm ta’limotiga e’tiqod qiladiganlar hozirgi kunda kam uchraydi.

4 – *reja bayoni. Konfutsiylik ta’limoti va uning Xitoy milliy diniga aylanish jarayonlari.*

Konfutsiylik ta’limotida ijtimoiy-axloqiy masalalar. Daovichilik – falsafiy ta’limot.

“Dao” tushunchasi tahlili.

Konfutsiylik. Qadimgi Xitoyda Lao-Szi falsafiy ta’limoti bilan deyarli bir davrda Kun-Szi (Konfutsiy - miloddan avvalgi 551-479)ning falsafiy ta’limoti ham paydo bo‘ldi. Konfutsiy - Qadimgi Xitoy faylasufi va pedagogi, Konfutsiychilikning asoschisi. Konfutsiy, garchi, samoni oliy ruhiy qudrat, ajdodlarga qurbonlik keltirishni ularni e’zozlashning asosiy ifodasi deb bilsa ham, o‘z ta’limotida osmon sirlari muammolarini deyarli tilga olmagan hamda ruhlar va narigi dunyo kabi tushunchalarga kam e’tibor bergan. Konfutsiyning falsafiy va axloqiy g‘oyalari markazida inson, uning aqliy va ma’naviy qiyofasi, olamdagi hamda jamiyatdagi o‘rni, vazifasi muammolari turadi.

Konfutsiy fikricha olamdagi barcha mavjudot singari insonning taqdiri ham samoviy qudratga bog'liq. Shuning uchun odamlarning oliyjanoblighi yoki tubanligi, oliy yoki past tabaqaga mansubligini o'zgartirib bo'lmaydi.

Binobarin, podshoh - podshohligicha, fuqaro - fuqaroligicha, ota - otaligicha, farzand - farzandligicha qolishi kerak. Bunday g'oya, ko'ramizki, mavjud tuzumni saqlab qolishni nazarda tutar edi. Shu bilan birga, Konfutsiy ideal, oliy inson, asl, mard kishi konsepsiyasini ishlab chiqqan. Bu konsepsiyaga ko'ra, odamlar ijtimoiy kelib chiqishi yoki jamiyatdagi mavqeyi orqali emas, balki odamiylik, adolatgo'ylik, haqgo'ylik, samimiyat, farzandlik izzat-hurmati kabi yuksak ma'naviy fazilatlariga erishish tufayli yuksak kamolotga yetishuvi mumkin.

Konfutsiyning falsafiy ta'limoti keyinchalik Xitoyda hukmron dinlarning biriga aylangan va Konfutsiychilik deb nom olgan dinning asosi bo'ldi. Konfutsiychilik manbai - Konfutsiy izdoshlari yozgan «Lung-Yuy» (Suhbatlar va mulohazalar, miloddan oldingi VI asr) kitobidir. Konfutsiychilik Lao-Szi ta'limotidan tubdan farq qiladi. U jamiyatni ijtimoiy larzalardan asrab qolishga intilgan feodal amaldorlarning qarashlari va manfaatlarini himoya qilgan. Konfutsiychilikning maqsadi - xalqni mavjud tartib-qoidalarini hurmat qilish ruhida tarbiyalashdir. Bu din aqidasi ko'ra, jamiyatda osmondan yuborilgan «Jeng» (Insonparvarlik) qonuni amal qiladi. Bu qonunni o'rganib olish uchun inson «Li»ga, ya'ni ijtimoiy axloq normalariga, qoidalariga, an'anaviy marosimlarga amal qilishi, o'zining jamiyatdagi darajasiga qarab ish tutishi zarur.

Konfutsiychilik belgilangan diniy tartiblarga qattiq amal qilishni talab etadi. Konfutsiyning o'zi hayotligida diniy tartiblarni sidqidildan bajargan.

Endilikda, har bir oilaning o'z ibodatxonasi bo'lishi zarur bo'ldi. har bir oila o'z ibodatxonasiga ajdodlarning timsoli bo'lgan «Chju» tasvirini joylashtiradi. Uning yoniga qurbonliklarni qo'yadi va diniy marosimlarni ijro etadi.

Konfutsiychilikda ijtimoiy-axloqiy masala alohida o'rin egallaydi. Shu ma'noda Konfutsiy ta'limotini inson xatti-harakati hayoti me'yorlari haqidagi ta'limot deyishi ham mumkin edi. Insonlar o'rtasidagi hayot tarzi an'anaviy besh munosabatdan iboratligi qayd etilgan:

- davlat boshlig'i bilan amaldorlar o'rtasidagi munosabat;
- ota-onalar bilan farzandlar o'rtasidagi munosabat;
- er bilan xotin o'rtasidagi munosabat;
- katta va kichik aka-ukalar o'rtasidagi munosabat;
- do'st-birodarlar o'rtasidagi munosabat.

Bu ta'limotda shunday qadriyatlar ham borki, unga qoyil qolmay iloj yo'q. Birgina misol keltiramiz:

O'g'il ota-onasi oldida quyidagi beshta vazifani bajarish shart edi:

1. har doim ota-onani to'la hurmat qilish;
2. ularga eng suyukli taomni keltirish;
3. ular betob bo'lib qolganlarida chuqur qayg'urish;
4. ular vafot etganlarida yurak-yurakdan achinish;
5. ular xotirasiga tantanali ravishda qurbonliklar qilish.

Konfutsiychilikda diniy marosimlarning asosiy mazmuni - Konfutsiychilikka qadar mavjud bo'lgan an'analarni, urug'-qabilaviy marosimlarni mustahkamlash, qonunlashtirishni tashkil etardi. Chunki konfutsiy o'zining hech qanday yangi ta'limot yaratmaganligini faqat eski marosimlarga, tartib-qoidalariga qattiq rioya etishni talab qilardi. Bu o'rinda uning quyidagi so'zlarini keltirishni maqsadga muvofiq deb bildik: «Qadimdan joriy etilgan marosimlar saqlanmas yoki ular bekor

qilinar edi, unda hamma narsa aralashib ketadi, izdan chiqadi. Nikoh marosimini yo‘q qiling-chi, unda er-xotinlik bo‘lmaydi, bu bilan bog‘liq katta-katta jinoyatlarga yo‘l ochiladi yoki dafn etish va qurbonlik qilish marosimini yo‘q qilingchi, unda bolalar vafot etgan ota-onalari xotirasi to‘g‘risida o‘ylamay, tiriklarga esa xizmat qilmay qo‘yadilar; Pin-Szin marosimini yo‘q qilingchi - unda podshoh bilan amaldor o‘rtasidagi farq yo‘q bo‘lib ketadi, kichik-kichik knyazchalar o‘z boshimchalik qila boshlaydilar, natijada ta‘qib etish va zo‘ravonlik boshlanadi».

Xitoy xalqi tarixida qadimgi marosimlar katta o‘rin tutganligini Konfutsiy yaxshi bilar edi. Shuning uchun ham Xitoy xalq an‘analarini, marosimlarini o‘zining ta‘limotida asosiy mazmunga aylantirgan. Xitoyliklar uchun eng yomon fojia - erkak tomonidan avlodning qolmasligidir. Ular avlodlari qolmasa, biz o‘lganimizdan so‘ng kim bizlarni yod etadi deb qattiq qayg‘uga tushadilar.

Konfutsiychilikning bosh xudosi - osmon Xudosi edi. Keyinchalik Konfutsiyning o‘zi ham ilohiylashtirilgan. Uning sharafiga, hatto imperatorning o‘zi ham diniy marosimlarni bajo keltirar edi. Bu bejiz emas edi, albatta. Chunki, Konfutsiychilik oddiy xalq ustidan «aslzodalar»ning hukmronligini oqlardi. Bu dinga ko‘ra ayni paytda imperatorning o‘zi oliy Xudoning yerdagi vakili edi. Konfutsiychilikda imperatorga qarata yozilgan quyidagi maslahat ham bor edi: «Agar imperator biror katta maqsadni amalga oshirmoqchi bo‘lsa, u albatta ajdodlari ibodatxonasiga borishi lozim. Qilmoqchi bo‘lgan ishidan, o‘zining maqsadidan avlodlarini xabardor etmog‘i kerak. Shu paytda u osmonda yo‘lduzlarning holatiga qaramog‘i, ular qulay joylashganligiga ishonch hosil qilganidan so‘ng o‘zining maqsadini amalga oshirmog‘i mumkin».

Daosizm - aslida falsafiy ta‘limot bo‘lib, u miloddan avvalgi IV-III asrlarda Xitoyda paydo bo‘lgan. Uning asosida miloddan avvalgi II asrda daosizm dini shakllandi.

Daosizmning falsafiy prinsiplari «Dao-Deszin» kitobida bayon etilgan. Bu asar o‘tmishdagi Xitoy donishmandi Lao-Szi qalamiga mansubdir. Lao-Szining tarixiyliigi xususidagi masalaga sinologlar shubha bilan qaraydilar.

Asarning asosiy tushunchasi «dao» (yo‘l) bo‘lib, u olamning mohiyati va bosh sababi, dunyoning turli-tumanligi manbai, barcha narsalarning onasi deb tushunilgan. Bu, go‘yo qandaydir yo‘l bo‘lib, atrofni o‘rab olgan olam va barcha kishilar shu yo‘l bilan borishi lozim. «Dao» diniy mazmun kasb etgan yo‘lgina bo‘lib qolmay, ayni paytda u hayot tarzi, usuli, prinsiplari ham edi.

Daosizm dinining asosiy ramzi Dao bo‘lib, u osmon xudosi ramziga yaqin edi. Unga ko‘ra, har bir baxtiyor bo‘lishni istagan odam Daoni taniy olishi va u bilan birlashib ketishi zarur. Chunki, odam *mikrokosm* (*kichik dunyo*) bo‘lib, u ham mikrokosmdek abadiydir. Insonning vafoti bilan ruh tanadan ajralib chiqib, mikrokosm bilan birlashib ketadi. Insonning vazifasi u o‘lmay turib, ruhi Daoga qo‘shilib ketishiga intilishdir. Bu narsaga qanday erishish mumkin degan savolga Dao ta‘limotida javob berilgan.

Lao-Szining ta‘limotiga ko‘ra, Dao yo‘li «De» kuchiga mosdir. Faqatgina shu kuchda Dao shaxsi namoyon bo‘ladi. «De»ning ma‘nosi *faoliyatsizlik* bo‘lib, to‘laqonli faoliyatni inkor etishdir. Demak, ilohiy mukofotga Daoning maqomiga yaxshi ishlar bilan erishishga tirishgan odam emas, balki meditatsiya va o‘zining ichki dunyosiga g‘arq bo‘lish jarayonida o‘zini tinglashga harakat qilgan va o‘zi orqali dunyo tuzilishi maromini tinglash va unga erishishga harakat qilgan odam yetishadi.

Shunday qilib Daosizmda hayot mohiyati abadiylikka, o‘z ildizlariga qaytish deb tushuniladi.

5 – reja bayoni. Sintoilylik. Yapon xalqi an‘analari. Kami kulti.

Sintoizm. Sintoizm dini qadimgi Yaponiyada vujudga kelgan (sinto – “xudolar yo‘li” demakdir). Yaponiyada keng tarqalgan, an’anaviy milliy xarakterdagi dindir. Bu din ilk feodalizm davrida (VI-VII asrlar) rivojlangan va urug‘chilik, qabilachilikka xos animistik va shomonlik marosimlari yig‘indisidan iborat holda vujudga kelgan. Sintoizm ta’limotida Yaponiyada joriy etilgan ijtimoiy-siyosiy tartibning mustahkamligi va o‘zgarmasligiga, quyosh tangrisi - Amaterasuning‘ naslidan deb hisoblangan yapon imperatori - Mikado hokimiyatining iloxiyilgaga ishonish, imperator ajdodlarini muqaddas deb tan olish, ajdodlar sharafiga tayinlangan oila-urug‘ marosimlarini bajarish kabilar asosiy o‘rin egallaydi. Har bir yapon kishisi ikkinchi darajali ruhlr (kama)ning vorisidir. Yaponlar kamaga ajdodlar va qahramonlarning ruhlari deb e’tiqod qiladilar. Xudojo‘y yapon o‘lganidan keyin o‘zining ham o‘sha kamalardan biri bo‘lishiga ishonadi.

Sintoizmda umumiy hayotiy tartiblarga rioya qilinishi lozim bo‘lgan qoidalardan boshqa diniy urf-odatlar mavjud emas.

“Kodziki” – bu sintoizmning muqaddas kitobidir. U har yaponning qalbiga yaqin kitob hisoblanadi. Bu kitob Yaponiyani va yapon xalqini tushunishning kaliti hisoblanadi. Mazkur kitobda ikki asosiy mazmun: a) qon-qabilaviy birlik; b) siyosiy hokimiyat g‘oyasi mujassamlashgan.

Sintoizm ta’limotiga ko‘ra, bosh xudo Amaterasuning nabirasi Ninigi osmondan tushib, Idzumo davlati rahbarligini qabul qilgan. Unga hokimiyatning ramzi sifatida uch muqaddas narsa – ko‘zgu (ilohiylik ramzi), qilich (kuch-qudrat ramzi) va yashm toshi (sadoqat va fidoyilik timsoli) topshirilgan. Shuning uchun ham ko‘zgu, qilich va yashm toshi qadim zamonlardan beri yapon imperatorlari xonadonining belgisi bo‘lib qolgan.

Sintoizm ta’limotining asosini – imperator hokimiyatining ilohiyliigi to‘g‘risidagi aqida tashkil etadi. Imperator xudo Amaterasuning avlodi. Shuning uchun ham har bir yapon imperatorning muqaddas hohishi oldida bosh egishga majbur. Imperator saroyi muqaddas joydir.

Imperator – mikado yaponlar tasavvurida o‘zining ilohiy kelib chiqishi sababli butun xalq bilan qon-qarindosh bo‘lib, u bir oiladan iborat millatning boshlig‘idir. Hatto yaponiyada 300 yildan ortiq hukmronlik qilgan syogunlar ham o‘zlarini mikado namoyandalari deb ataganlar.

Sintoizmdagi mavjudot olami va tabiatning o‘zaro bog‘liqligi to‘g‘risidagi qarashlar aks etadigan tamoyillar mavjud bo‘lib, u quyidagi beshta tamoyilni o‘z ichiga qamrab oladi.

Birinchi tamoyil – butun borliq dunyoning o‘z-o‘zicha rivojlanishi natijasidir. Dunyo o‘z-o‘zidan vujudga kelgan bo‘lib, yaxshi va mukammaldir.

Ikkinchi tamoyil – hayot kuchi to‘g‘risidagi tamoyil. Hayotdagi har bir tabiiy holat hurmat qilinadi. Faqatgina “nopok” narsagina hurmat qilinmaydi. Biroq har qanday “nopoklik” tozalanishi mumkin.

Uchinchi tamoyil – tabiat va tarixni yagona deb tushunish tamoyili. Sintoistlar nazdida dunyodagi hayvonlar, o‘simliklar, jismlar, umuman, tabiatdagi barcha narsalar tirikdir va inson vujudida kama ilohlari yashaydi. Kamalar dunyosidan boshqa dunyo emas, balki u odamlar bilan birikib ketadi.

To‘rtinchi tamoyil – ko‘pxudolik tushunchasi haqidagi tamoyil. Sintoizm mahalliy tabiat, urug‘, qabila ilohlariga bag‘ishlangan marosimlardan kelib chiqqan.

Beshinchi tamoyil – milliy-ruhiy asos bilan bog‘liq tamoyil. Sinto ilohlari – kamalar barcha insonlarni emas, balki faqat yaponlarnigina yaratganlar. Shuning uchun ham yapon o‘zlarining farzandlariga yoshligidanoq “biz sintoga tegishlimiz” degan aqidani singdirishadi.

Milliy marosimlarni kannushlar deb ataladigan aloxida koxinlar ijro etadi. Kannushlik vazifasi nasldan naslga o‘tadi. Hozirgi vaqtda yaponlarning yarmidan ko‘pi sintoizm bilan

buddizmni teng ko'rib, xar ikkalasiga e'tiqod kiladilar; hayotiy marosimlar - tug'ilish, nikoh kabilar sintoizm ibodatxonalarida bajarilsa, dafn etish va marhumni xotirlash marosimlari buddaviylik ibodatxonalarida o'tkaziladi.

Sintoizm bilan buddaviylikning bir-biriga ta'siri kuchli. Sintoistlar buddaviylik dini uchun ibodatxonalar qurish bilan cheklanmadilar, balki o'rta asrlarga kelib sinto-budda qo'shma ibodatxonalari vujudga kela boshlagan. Sintoizmning o'ziga xos xususiyati o'zi targ'ib qilgan xudoga sig'inish, boshka millat kishilarining bu dinga sig'inishini man etishdan iborat. Sintoistlarning muqaddas kitobi bo'lmagan, ammo ibodatxonalarda yozilgan diniy afsonalar uchrab turadi. VIII asrga kelib og'zaki diniy afsonalar asosida "Kodziki" (qadimgi ishlar to'g'risida yozuvlar) nomli diniy kitob paydo bo'ldi. Unda asosan imperatorlar sulolasining kelib chiqishi ilohiylashtirilgan. VIII-X asrlarda sig'inish qoidalari ishlab chiqilgan va xudolar nomi ro'yxatga olingan edi.

Yaponiyadagi din sifatida sintoizmni xristianlik kabi yuqori darajada tashkil etilgan din deb atash mumkin emas. Shintoizm yoki sintoizm, uning mohiyati har xil tabiiy kuchlar va hodisalarni ilohiylashtirish va ularga sig'inish, marosimlardir. Shuningdek, ko'p narsalarning o'ziga xos ma'naviy mohiyati - kami bor, deb ishoniladi. Shinto kamini aynan ma'naviyat, mavzuning ruhiy mohiyati sifatida tasvirlaydi. Shinto tilidagi Kami Yerda har qanday moddiy ob'ektda mavjud bo'lishi mumkin va bu so'zning odatiy standart ma'nosida tirik deb hisoblangan ob'ektda bo'lishi shart emas. Shinto kami hamma narsada, masalan, daraxtda, toshda, muqaddas joyda yoki u yoki bu tabiat hodisasida bor deb hisoblaydi. Shinto shuningdek, ma'lum sharoitlarda kami ilohiy qadr-qimmatga joylashtirilishi mumkinligini tasvirlaydi.

Yaponiyaning Shinto dini ba'zi kamilarni ma'lum bir hududning yoki ma'lum tabiiy ob'ektlarning ruhlari, masalan, ma'lum bir tog'ning ruhi deb ta'riflaydi. Boshqa darajadagi kami global tabiat hodisalarini ifodalaydi va ularga qo'shimcha ravishda sintoizmning markaziy ma'budasi - Amaterasu Omikami, quyosh ma'budasi mavjud. Shinto, shuningdek, kamini oilalar va urug'larning homiylari sifatida hurmat qiladi; kami orasida o'lgan ajdodlarning ruhlari ham bor, ular o'z avlodlarining homiylari va himoyachilari hisoblanadilar. Yaponiyaning Shinto dini ham sehr, totemizm, turli xil himoya talismanlari va tumorlarining samaradorligiga ishonishni o'z ichiga oladi. Shintoizmda dushman kamilardan himoyalaniish yoki ularni yordami bilan bo'ysundirish ham mumkin deb hisoblanadi maxsus marosimlar va la'natlar.

Qisqacha aytganda, sintoizmning mohiyatini ma'naviy tamoyil sifatida ta'riflash mumkin - bu tabiat va atrofingizdagi odamlar bilan uyg'un hayotdir. Shinto tarafdorlarining fikriga ko'ra, butun dunyo kami, odamlar va o'liklarning ruhlari bir-biri bilan yonma-yon yashaydigan yagona tabiiy uyg'un muhitdir. Shinto kami o'lmas va tug'ilish va o'lim tsikliga kiritilgan deb hisoblaydi. Sintoizm bunday tsikl orqali dunyodagi hamma narsaning tinimsiz yangilanishiga ishonadi. Shinto, shuningdek, hozirgi ko'rinishdagi bugungi tsikl cheksiz emas, u faqat er vayron bo'lgunga qadar mavjud bo'ladi, keyin esa bu jarayon boshqa shakllarga ega bo'ladi. Sintoizmna nasroniylikda bo'lgani kabi najot tushunchasi yo'q. Bu erda har bir mo'minning o'zi o'zining his-tuyg'ulari, motivlari va harakatlari orqali atrofimizdagi dunyoda o'zining tabiiy o'rnini belgilaydi.

1886 yildan to XX asrning 40 yillarigacha sintoizm Yaponiyaning davlat dini hisoblanar edi. Natijada dinning strukturasi ham o'zgara boshladi, ilohiy ruxdar o'rniga imperator shaxsi ulug'landi. Sintoizmna milliy ibodatxonalar ko'plab kurildi. XIX asrning oxirlariga kelib mohiyatini yo'qota boshlagan sintoizm 1945 yilda davlatdan ajratildi. Xozirga paytda sintoizm tarafdorlari unchalik ko'p emas, ammo uni zamonga moslashtirishga urinishlar davom etmoqda.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Yahudiylik dini qaysi vaqtda vujudga kelgan?
2. Yahudiylik dinining muqaddas kitobi qaysi?
3. Yahudiylik dinining asosiy ta'limoti nimalardan iborat?
4. Vedalarning boshqa muqaddas kitoblardan qanday farqi bor?
5. Braxmanlik jamiyatni qanday tabaqalarga bo'ladi?
6. Hinduiylik qanday dinlar qatoriga kiradi?
7. Hinduiylik ta'limoti nimalardan iborat?
8. Konfutsiychilik nima asosida vujudga kelgan?
9. Konfutsiychilik Xitoyda qanday mavqiyega ega edi?
10. Daosizm asoschisi kim?

3-MAVZU. ZARDUSHTIYLIK DINI.

Reja:

1. Zardushtiylik dinining vujudga kelishi.
2. Zardushtiylik shakllangan tarixiy sharoit.
3. Zardushtiylik ta'limoti. Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal tamoyili. Govmard va shoh Yima. Zardushtiylikning teologik tizimi va diniy marosimlari.
4. Zardushtiylikda tabiatning ulug'lanishi.
5. "Avesto" matnlari. Avestoning tarkibiy tuzilishi.

Tayanch so'z va iboralar: *Zardusht, Axuramazda, Axriman, "Avesto", «Gat», ko'p xudolik, yakka xudolik, ezgu fikr, ezgu so'z ezgu amal, «Vadovdot» visparad, vidavdod.*

1-reja bayoni. Zardushtiylik dinining vujudga kelishi.

Zardushtiylik eng qadimgi dinlardan bo'lib, bu din eramizdan avvalgi VII-VI Asrlarda dastavval O'rta Osiyoda-Xorazm vohasida paydo bo'lgan. Uning payg'ambari Zardusht tarixiy shaxs edi. U mazdakiylik dinini isloh qilib, uning asosida yangi Yakkaxudolik dinini ijod etgan.

Zardushtiylik – ilgari diniy tasavvurlar va kup xudochilikka asoslangan diniy e'tiqodlarni takror Zardusht isloh qilishi oqibatida yuzaga kelgan dindir. Bu qadimiy din haqida bir-birini istisno etuvchi fikrlar hanuz davom etib keladi. Ko'p tadqiqotchilar Zardusht tarixiy shaxs bo'lib, milodgacha 589-512 yillarda yashab ijod etgan birinchi ilohiyotchi, faylasuf, tabiyotshunos va shoir ekanini e'tirof etadilar. Bu haqiqatga yaqindir.

Zardushtiylik paydo bo'lgan vaqt quldorlik tuzumi endigina paydo bo'layotgan davr edi. U urug'-qabilachilik tuzumi yemirilib aholi qullar va quldorlarga bo'linayotgan davr bo'lgan. Bu din eng avval O'rta Osiyo, so'ng Eron, Ozorbayjonda qaror topgan edi.

Zardo'shtning diniy islohotini tushunish uchun o'sha davr Movarounnahr ijtimoiy - iqtisodiy ahvoli va siyosiy vaziyatini e'tiborga olish kerak. Gap shundaki, Movarounnahr iqlimining nisbatan mo'tadilligi, geografik jihatdan ikki qit'a o'rtasida joylashgani sababli savdo-sotiqning kuchayishi bu yerlarda sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik ertaroq vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Ayni chog'da xunarmandchilik, chorvachilik va ovchilik ham rivojlangan. Bu hududda yilqichilikning rivojlanishi, ayniqsa, Farg'ona vodiysida qorabayir zotiga o'xshash otlar boqish keng ko'lam olgani ham ijtimoiy hayotda katta rol o'ynaydi. Uning ustiga mis va qo'rg'oshin konlariga boy bo'lgan Oltoyning yaqinligi bu yerda temirchilik, misgarlik rivojiga asos bo'ldi. Zardo'sht yashagan davrda o'troqlik turmushi afzalligi yaqqol namoyon bo'lgan, ammo unga qabilalar o'rtasidagi qirg'inbarot urushlar raxna solayotgan edi. Urushlar ko'pincha xarajatlar bir qabila va elatning o'z xudolariga ko'plab qurbonliklar qilish odatlari zaminida ham yuzaga kelardi. O'z davrining koxinlari, sehrgarlari va mo'tabar qariyalari bilan keng munozaralar olib borgan Zardo'sht yuqoridagi odatlarini bartaraf etish va xalqlarga tinch mehnat bilan shug'ullanish imkonini yaratish uchun ko'pxudolik e'tiqodlariga va otashparastlikka barham berib, yakkaxudolik (arabcha Alloh) ga sig'inishni targ'ib etish deb bildi.

Shoh Vishtasia farmoniga binoan «Zardo'sht 1200 bobdan iborat pandnomasi «Avesto»ni oltin taxtachalarga yozib, shohning otashkadasiga topshirgan» - deydi Firdavsiy. Keyinchalik u «Kitob» 12 ming ho'kiz terisiga bitilgan, makedoniyalik Aleksandr Sharqni zabt etganda uning nodir nusxasini Elladaga eltib, kerakli joylarini tarjima qildirgan, qolganini yoqtirgan» «Avesto» eng qadimiy yakka xudochilikka asoslangan dinnning birinchi muqaddas kitobi bo'lib, e'tiborli tarixiy manba va madaniyat yodgorligi hisoblanadi. Unda dastlabki falsafiy qarashlar bilan diniy -

afsonaviy tasavvurlar uyg'unlashib ketadi; shu zaminda ma'naviy - axloqiy barkamol odam ezgulikni barqaror qila oladigan kurashchan, adolatparvar insonni shakllantirish g'oyasi markaziy o'rinni egallaydi.

Zardusht yashagan davrda o'troqlik hayoti afzalligi yaqqol namoyon bo'lgan. O'z davrining kohinlari, sehrarlari va mo'tabar qariyalari bilan keng munozaralar olib borgan Zardusht xalqlarga tinch mehnat bilan shug'ullanish imkonini yaratish uchun kupxudolik e'tiqodlariga va otashparastlikka barham berib, yakkaxudolikka sig'inishni targ'ib etish deb bilgan va shu vazifani bajargan.

Zardushtiylik eradan avvalni VII-VI asrlarga xos bo'lgan din sifatida undan oldingi urug'-qabilachilik dinlari negizida paydo bulgan yakkaxudolik dini. U eramizning to VII-IX asrlargacha turli shaklda davom etib, so'ngra uning o'rnini islom egallagan. U dastavval Xorazm vohasida shakllanib, Yaqin va O'rta Sharqgacha tarqalib, ayrim asoratlari haligacha saqlanib kelmoqda.

2-reja bayoni. Zardushtiylik shakllangan tarixiy sharoit.

Zardo'shtning diniy islohoti o'z-o'zidan yuzaga kelgan emas. G'arbiy Evropa va rus tadqiqotchilarining fikricha, milodgacha bo'lgan 3-2 ming yilliklarda Markaziy Osiyoda oriy deb atalgan qabila yashagan. A. P Primakning aytishicha, oriylar ko'chmanchi chorvadorlar bo'lishgan. Ularda yozma adabiyot bo'lmagan, ammo hayratomuz og'zaki ijod iste'dodiga ega bo'lib, ular yaratgan o'ziga xos ashula, gimnlar, o'git-nasihat shaklidagi qo'shiqlar avloddan-avlodga o'tib borgan. Umuman, Sharqda qadimda inson ichki olamini munavvar etish, niyati bilan amal mushtarakligiga jiddiy ahamiyat berish diniy va falsafiy fikrlarning markazida turgan. Angliyadagi Oksford universitetining professori Maks Myuller Pomir atrofida yashagan oriy qabilalarining Hindistonga, bir qismi Evropa va Eronga ko'chib ketishganini ta'kidlab, ular, albatta o'zlari bilan birga shu erdagi osori-atiqalar (mifologiya)ni ham olib ketishgan, deydi.

Demak Evropa va Hindistonga hamda Yaqin va O'rta Sharqqa tarqalgan ko'p xudolik asoslari avvalo Markaaziy Osiyoda vujudga kelgan, shu bilan birga Zardo'sht asos solgan yakka xudolik din ham boshqa joyda yashayotgan xalqlar e'tiborini o'ziga jalb etgan.

Masalan, Zardo'shtiylik dini bo'yicha katta va izchil tadqiqot olib borayotgan ingliz olimasi Meri Boys bunday deydi: «Zardo'shtiylikning ulug'vor va original ta'limotlari butun Yaqin Sharq hududida ta'sir etib, uning asosida iudaizm rivojlangan, xristianlik va islom paydo bo'lgan». Shuningdek, buddizmning maxayana oqimi ham Zardo'shtiylikdan oziqlangan. «Shuning uchun, - deydi u, - jahon dinlarining barcha jiddiy adqiqotchilari Zardo'shtiylikni o'rganadilar».

Agar Zardo'shtiylik qadimgi Movarounnahr va Baqtriyadagina emas, balki Araxoziya, Sakiston (hozirgi Afg'oniston va Shimoliy Hindiston), fore, Midiya, Parfiya, Assuriya, Vaviloniya, Lidiya va Kappodoniya (Kichik Osiyo), Gretsiya, Suriya, falastin hududlariga ham tarqalganini hisobga olinsa, haqli ravishda uni jahonga tarqalgan birinchi din deyish mumkin. Zardo'shtiylikning Markaziy Osiyoda vujudga kelganligi, u jahon madaniy hayoti (tsivilizatsiyasi)ga ko'rsatgan zo'r ta'sirini inkor etish qiyin. Bu din haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lishimizda avvalo ingliz D. J. Bulger, so'ngra frantsuz tadqiqotchilari A. Dyupliz va A. Dyuperondan minnatdor bo'lishimiz lozim. 1755 yilda Dyuperon Hindistonga ilmiy safar qilib, u erdagi Zardo'shtiy (mazdakiy)lar orasida uch yil yashadi, ularning ibodatlari, urf-odatlar bilan yaqindan tanishdi va «Avesto» ni frantsuz tiliga tarjima qildi. Hozir «Avesto»ning to'rtidan bir qismining eng nodir nusxasi Bombaydagi Kama Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda. U 1915 yilda ko'chirilgan bo'lib, 672 betdan iborat. «Avesto» ning qarbiy Evropa, Eron va hind tillari

orqali bizga ma'lum bo'lgani uchun undagi nomlar va terminlar, aftidan asliga to'g'ri kelmaydi. Ko'pgina osori atiqalar, ismlar, joylarning nomlari hindcha tusda yoki hindi – evropa tillariga xos shakl olgan. Undagi turkona jihatlar kam qolgan. Har bir sohada birinchi ish, birinchi qadam, birinchi kashfiyot bag'oyat qadirlanib, insoniyat bu qadamini boshlab bergan kishilarni minnatdorchilik tuyg'ulari bilan doimo eslab turishni o'z burchi hisoblagan. Shu ma'noda jahon dinlari keyingi 2,5-1,5 ming yil davomida takomillashgan, ularning marosimlari, urf-odatlar, rasm-rusumlari nechoglik xilma-xil tus olgan bo'lmasin, ular baribir Zardo'sht asos solgan yakka xudochilik e'tiqodlarining vorisi hisoblanishi kerak. Ulug' vatandoshimiz Zardo'sht Sepitomaning tarixida, madaniy taraqqiyotda o'ynagan buyuk rolini tiklash orqali o'z milliy qadriyatlarimizni ham tiklagan bo'lamiz.

3-reja bayoni. Zardushtiylik ta'limoti. Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal tamoyili.

Govmard va shoh Yima. Zardushtiylikning teologik tizimi va diniy marosimlari.

Zardushtiylik dini ta'limotini quyidagi uch tarixiy qismga bo'lish mumkin; 1. Eng qadimiy qismi miloddan avvalgi 3-ming yillikda vujudga kelgan Yashtlardir; ularda urug'chilik tuzumidagi e'tiqodlar, ko'p xudolik tasavvurlari tasvirlangan; 2. Gatlar deb atalgan qismidir. Bunda Axuramazda nomli xudo haqida fikrlar yozilgan; 3. Qadimiy ko'pxudolilik va keyingi yakkaxudolilik g'oyalari orasidagi kurash sharoitlarida eramizdan avvalgi V asrda har ikkisini kelishtirgan mazdahiylik dini shakllangan. «Avesto» bu dinning oxirgi va asosiy qismini bayon etgan. Zardushtiylikning asosiy g'oyalari olimdagi barcha tartiblar, ezgulik (yaxshilik) va yomonlikdagi, ziyo va zulmat, hayot va o'lim o'rtasidagi kurashga bog'liq; dunyodagi barcha ezguliklarni Ahuramazda, yomonliklarni Ahriman ifodalaydi; bu kurashda odam asosiy kuch va rolni o'ynaydi, u tanlash erkinligiga ega, u o'z g'ayrati bilan bu dunyoda adolat topishiga ta'sir eta oladigan kurashdir.

Zardo'shtiylik imoni 3 tayanchga asoslanadi: fikrlar sofliqi, so'zning sobitligi, amallarning insoniyligidan iborat.

Axuramazda odamlarni o'z istaklarida xolis bo'lib, ular bir-birlari bilan murosa qilib yashashni odat qilishlari, g'arazgo'ylik, kattazanglik (dimog'dorlik), shuhratparastlik, qonunsiz ishlardan o'zlarini tiyib yurishga chaqiradi. «Bergan so'zning ustidan chiqish, unga sodiq qolish, savdo sotiq shartnomaga qat'iy amal qilish, qarzni vaqtida to'lash, aldanchilik va hiyonatdan holi bo'lish imonlilik alomatlaridir».

Imonli odam o'g'rilik va talonchilikdan, begonalarning mol-dunyasiga ko'z olaytirishdan, o'z-o'ziga hiyonat qilishdan, ya'ni imoniga xilof ish qilishdan o'zini saqlay biladigan komil insondir. «Tanalaringizga nisbatan qalbingiz haqida ko'proqqayyouring», ya'ni avval ma'naviy dunyoyingiz musaffo bo'lsa, moddiy turmushingiz ham mukammal bo'lib boraveradi, deydi Axuramazda.

«Avesto»ning muqaddas kitoblarida qadimiy materialistik falsafaning asoslari – tuproq, suv, havoni bulg'ash, ifloslantirish eng og'ir gunohlar qatoriga qo'shiladi. Hatto marhumlar erni, suvni, havoni zaharlab qo'ymasliklari uchun ularning murdalarini maxsus sopol idishlarda ko'mish rasm bo'lgan. Axuramazda «erga yaxshi, mustahkam urug'lar sepishdan ortiq savob ish yo'q», deydi. Xudoi taoloning bu aytganlariga amal qilish, 10 ming marta ibodat etish yoki yuzlab jonivorni qurbonlikka so'yishdan afzal hisoblangan. Ekin ekish erdagi yovuzlikka barham berish, demakdir. «Odam go'zalligi dehqondan, dehqonchilikdan, - deyiladi bashoratlarda, - kimki erga urug' qadabdi, u odamiylikka imon keltiradi, yagona shu yo'lgina haqiqat bo'lib, qolgani sarobdir.

Odamlar tabiatning bu go'zalliklarini muqaddas bilib, ularni xalq bayramlari va sayillariga aylantirib yuborganlar. Yosinning 29 - bashorat 5-hikmati va 50-bashorat 8-hikmatidan ibodatdan so'ng, ikki kaftni oldinga yozib ko'targan holda xudoi taolodan o'z talablarini iltijo qilish rasm – rusumi haqida gap boradi. Bashoratlarda yer, osmon, okean, boshlanishi yo'q yorug'lik sohasi va jannat haqida fikrlar mavjud.

Bashoratlardagi Odam Ato haqidagi fikrlar o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Iyim nomi bilan birinchi odam va uning faoliyati haqida gap boradi. U Axuramazda irodasiga muvofiq, odamlarni, hayvonlarni va qushlarni parvarishlaydi, yer yuzida qizil shu'lali olovni ko'paytiradi va shu tarzda 300 yil yashaydi. Axuramazda unga oltin nayza bilan, oltin qamchi xadya etadi. Yer odamlar yashashi uchun torlik qilib qolganida, Iyim nayzani erga suqib, xudodan uni kengaytirishni iltijo qiladi va bunga erishadi.

Axuramazda Odam Atoga muz davri kelayotganidan xabar beradi, bu ofatning oldini olib qolish kerakligini aytadi. Iyim maxsus uy qurib, mavjud hamma hayvon va o'simliklarning eng yaxshi zoti va navidan bir juftidan saqlaydi, natijada dunyoda tirik tabiatni ofatlardan saqlab qoladi. Biroq Iyim o'z ishiga ortiqcha baho berib, mag'rurlanib ketadi va xudo tomonidan taqiqlangan ne'mat – yirik shohli hayvon go'shtidan tanovul qilib qo'yadi. Oqibatda xudoning qahriga uchrab, abadiylikdan mahrum bo'lib qoladi. Odamzod hayotining bu birinchi bosqichidan so'ng, ikkinchi davr boshlanadi.

Bu davr Zardo'sht faoliyati va uning diniy islohoti bilan bog'liq bo'lib, u din va imon uchun beomon kurashlar bilan xarakterlanadi. 3000 yillik kurashlardan so'ng, Zardo'shtning farzandi boshchiligida dunyoda osoyishtalik va farovonlik davri yuzaga keladi, yovuzlik kuchlari timsoli bo'lgan dev – Axriman engiladi. 3- davrda qiyomat – qoyim boshlanadi va o'liklar tirilib, xudo xuzo'riga o'z qilmishlari haqida hisob bergani borishadi. Hamma ishlardan voqif bo'lgan va hisob-kitob qilib borgan xudoi taoloni aldab bo'lmaydi. Zardo'shtiylik e'tiqodicha, odam o'lgandan so'ng uning joni uch kun davomida tanada turadi, to'rtinchi kunda o'z mahrami – farishtasi yo'lboshchiligida narigi dunyodagi «Chinvot» degan ko'prikdan o'tishi kerak. Ezgu ishlar qilgan odamlar uchun bu ko'prikkengaygan holda turadi. Ular undan bemalol o'tib, jonlari abadiy rohat – farog'atda ketadi va oxiratda o'liklar tiriladigan kunda o'z tanalariga kirib yotadilar. yovuz ishlar bilan shug'ullanganlar uchun « Chinvot» qilday torayadi va ular jahannam azoblariga mahkum bo'ladilar.

Eron shohlari o'z imperiyalarini barqaror qilishda Zardo'shtiylik dinining o'rni va roliga to'g'ri baho beradilar. Biroq bu dindagi o'rtahol dehqonchilik, mo'tadil, kamtarona hayotdan iborat turmush tarzini ilohiylashtirib, quldorchilik munosabatlarini qoralash ularga yoqmaydi. Shuning uchun Eron shohlari Zardo'shtiylikni Zardo'shtgacha bo'lgan va Yaqin Sharqda ham keng tarqalgan ko'p xudochilik g'oyalari bilan aralashtiradilar. Zardo'sht o'rniga o'zlarini xudo vahiyalarini odamlarga etkazib turuvchi payg'ambar o'rniga qo'yadilar.

«Kichik Avesto» da Axuramazda olamni yaratuvchi va tartib o'rnatuvchilikdan ko'ra ko'proq qabilaviy xudolarni boshqaruvchi Bosh xudoga aylanib qoladi. Ahmoniylar Gretsiyani bosib olish uchun olib borgan urushlari (bunda Markaziy Osiyodagi turk jangchilari katta rol o'ynagani uchun Aleksandr Makedonskiy ulardan qasos oladi) hamda greklarning Eron va Turonni ishg'ol etishi oqibatida Axuramazda qadimgi Gretsiyada bosh xudo Zevs, Aflotun sifatida talqin etila boshlaganiga adqiqotchilar e'tiborni qaratadilar.

Ahmoniylar Zardo'shtiylikni o'z e'tiqodlariga bo'ysundirgan bo'lsalar, Aleksandr Makedonskiy bu dinni butunlay yo'q qilish uchun unga oid kitoblarni yoqtirib yuborgan. Arablar Eron va Turonni bosib olishgach, mazdakizm ko'rinishidagi Zardo'shtiylikka e'tiqod qiluvchilarni

zo'rlik bilan islomga kiritadilar. O'z e'tiqodidan voz kechmaganlarni o'ldiradilar, quvg'in ostiga oladilar. Zardo'shtiylikning bizgacha etib kelishida unga e'tiqod qilib kelayotgan Hindistondagi eronliklarning hissasi katta.

Biroq hukmdorlar Zardo'sht asos solgan g'oyalarni yo'q qilib yuborishga kuchlari etmadi. Uning olam, odamning yaratilishi, ikki dunyo haqidagi g'oyalari, jannat va do'zax, qiyomat-qoyim, oxiratda jonning tirilishi, gunoh va savob ishlar yozib borilishi, so'roq-savollar. «Chinvot» ko'prigi, jihod, erkin va ozod turmushga asoslangan barqaror tartibotlarni qaror topishi, yakka xudo bilan odamlar o'rtasidagi vositachi – payg'ambar to'g'risidagi fikrlar budda, xristian, islom dinlarida o'ziga xos ravishda xanuz yashab kelmoqda. Shuning uchun tadqiqotchilar jahon dinlarining vujudga kelishi va shakllanishida Zardo'sht asos solgan Zardo'shtiylik dinining o'rnini va rolini munosib baholaydilar.

Zardushtiylikning barcha marosimlari, jumladan, Navro'z, Mehrjon bayramlari tantanalarida bu ruh ayniqsa ulkan qudrat bilan namoyon bo'lgan. Boychechakning chiqishi, lolaqizg'aldoqning ochilishi, bodomning gullashi, umuman bahor bilan birga tabiatning go'zallashib borishi ezgulik ruhining tantanasi bo'lib, ularning har biri katta shodiyonalikka sabab bo'lgan. Odamlar tabiatning bu go'zalliklarini muqaddas bilib, ularni xalq bayramlari va sayillariga aylantirib yuborganlar.

5-reja bayoni. “Avesto” matnlari. Avestoning tarkibiy tuzilishi.

«Avesto» ning muqaddas kitoblarida qadimgi dunyo falsafasining 4 asoslari (substansiyasi) – tuproq, suv, havo, olov muqaddaslashtirilgan. Tuproq, suv, havoni bulg'ash, ifloslantirish eng og'ir gunohlar qatoriga ko'shilgan. Hatto marhumlarning murdalari yerni, suvni, havoni zaharlab ko'ymasliklari uchun ularning jasadlarini maxsus sopol idishlarda ko'mish rasm bo'lgan. Oxuramazda «yerga yaxshi, mustahkam urug'lar sepishdan ortiq savob ish yo'q», degan. Xudoning bu aytganiga amal qilish, 10 ming marta ibodat etish yoki yuzlab jonivorni qurbonlikka so'yishdan afzal hisoblangan. Ekin ekish yerdagi yovo'zlikka barham berish, hisoblangan. «Odam go'zalligi dehqondan, dehqonchilikdan, - deyilgan bashoratlarda, - kimki yerga urug' qadabdi, u odamiylikka iymon keltiradi, shu yo'lgina yagona haqiqat bo'lib, qolgani sarobdir. Zardushtiylikning vazmin, musiqa bilan uyg'unlashib ketgan dono o'g'itlari ona zaminga, dehqonchilik chorvachilik hunarmandchilikka va vatanga, xalqqa ulug' muhabbat ruhi bilan uyg'unlashib ketgan. Bu hol unda diniy mazmunga qaraganda dunyoviy elementlar ko'p bo'lganidan dalolat beradi.

Avesto faqat diniy manbagina emas, balki dunyoviy bilimlar, tarixiy voqealar, o'zi tarqalgan o'lkalar, elatlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, madaniy va ma'naviy qarashlari, diniy e'tiqodlari, urf-odatlar haqidagi manba hamdir. Unda bayon etilgan asosiy g'oyalar diniy e'tiqodning ilk sodda bilimlari Zardusht degan payg'ambar nomi bilan bog'langan. U «Avesto»ning eng qadimiy qismi «Gat» (xat nomi)ni ijod etgan. «Avesto» tarkibiga kirgan bilim, ma'lumotlar qariyb milloddan avval 3000-yillik oxirlari va 2000-yillik boshlaridan to milodning boshlarigacha o'tgan davrda yuzaga kelgan; avloddan-avlodga og'zaki o'tib olingan, uning buqa terisiga yozilgan ko'p qismi yo'qolgan, yettidan bir qismi saqlangan. U milloddan avvalgi III asrda ashrakiylar sulolasi davrida to'plangan.

«Avesto»ning uchta kitobi qadimgi tilda va bittasi pahlaviy tilda tiklangan. Uning birinchi kitobi «Vadovdot» ya'ni devlarga qarshi qonun, deb ataladi. «g'sin» va «Vispard»ni qo'shgan holda «Vadovdot - Sade» nomi bilan yuritilgan. «Vadovdot» ni poklanish qonun-qoidalari majmuasi deyish ham mumkin. «Avesto» ning ikkinchi kitobi «g'sin» bo'lib, Zardo'sht xat(noma)

lari uning asosiy mazmunini tashkil etadi. U 72 «xa» - bashoratdan iborat bo'lib, birinchi bashoratda tabiat va halolliklar hukmdori, hamma narsani biladigan va hamma narsaga qodir Axuramazdaning vahiy-lari haqligiga imon keltirishga doir duolar bor. 19 - bashoratda olam yuzaga kelmasdan ilgari mavjud bo'lgan xudo sha'niga shukronalar aytiladi. Imon kalimasi, poklanish (yuvinish gigienasi), yovuzlikni qarg'ayotgan payt tanani qanday maromda tutishlik, dev-iblis-larni haydashga qaratilgan harakatlar, gunohdan forig' bo'lish, kechirim so'rashga doir duolar mavjud. Gunohdan forig' bo'lish, imonni saqlab qolish uchun mana bunday duolar o'qish tavsiya etiladi: «Ey olamning hukmdori Axuramazda! Men barcha gunohlarimga iqroman, ularni takrorlamaslik uchun senga so'z beraman: men har qanday yomon niyat (fikir) lardan, har qanday yomon so'zlardan, harajatlardan har qanday yomon amallardan voz kechaman: men fikrlagan va gapirgan yoki qilmoqchi bo'lgan va qila boshlagan va qilgan hamma nojo'ya ishlarimdan voz kechaman: niyatlarim, so'zlarim va amaliy ishlarim orqali bundan buyon ishonchingni oqlayman: gunohlarimni keng ila kechirgin, tanam va jonimni u dunyoyu bu dunyo munavvar etgil, ey parvardigorim»!

Yosinlarning 7-bobida Zardo'sht orqali xabar berilgan bashoratlar o'z ifodasini topgan. Zardo'sht Axuramazdadan o'z axloqiy qonun-koidalarini ma'lum etishni so'raydi. Axuramazda butun mavjudlikning ikki oliy ibtidosi - ezgulik va yovuzlik haqida vahiy qiladi. Bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan bu boshlang'ich kuchlar harajatlardan doim birgalikda mavjud bo'lib, ular hayot va o'lim, osmon va jahannam ma'nolarini anglatadi. Jahannam Axuramazda vahiy-sida «hayotning eng yomon onlari», osmon va ruhning eng yuksak holati sifatida gavlalanadi.

Olamdagi yovuzlik va notakomillik narsa, hodisalar va ularning mohiyatidan kelib chiqadi. Ularni bartaraf etish esa istiqboldagi ish bo'lib, imonli kishilar bu jarayonda eng kattafaollik ko'rsatishga da'vat etiladilar. Ular Axuramazda yuborgan qonunlar, o'git-nasixatlarga amal qilsalar, ezgulik yovuzlik ustidan tantana qilib boraveradi.

Olam qarama-qarshiliklar kurashi asosida ko'rilgan: jismoniy (fizik) narsalarda yorug'lik va zulmat, tirik tabiatda hayot va o'lim, ma'naviy olamda ezgulik va yovuzlik, ijtimoiy-hayotda adolatli qonunlar bilan qonunsizliklar o'rtasidagi kurashlarda u o'z ifodasini topadi. Diniy soha esa ezgulikni qaror toptirish ruhi bilan yovuzlik ruhi o'rtasidagi kurashga asoslanadi. Axuramazda ezgulikni vujudga keltiraveradi, yovuzlik ruhi bo'lgan Axriman unga qarshi odamlarni yomon ishlarga boshlayveradi. 30-bashoratda ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi abadiy kurashda oraliq yo'l yo'q, binobarin, har bir odam bu jarayonning u yoki bu tomonidan ishtiroq etishga majbur, deyiladi. Shuning uchun dindorlikda imon-e'tiqod barkamollik nishonasi sifatida muhim bo'lib, u odamlarga ezgulikni yovuzlikdan farqlash imkonini beradi. Imon-e'tiqodli odam, albatta ezgulik tarafida turadi. g'vuz ruhlar - dev, pari, iblis va boshqalar gunohlar, adashishlar, yolg'onlar, kasalliklar timsoli sifatida tasvirlanib, Axuramazda ulardan saqlanishga da'vat etadi. g'sinning birinchi bashoratida xudo – «Men ezgu fikr (niyat) larni, ezgu so'zlarini va ezgu amallarini yoqtiraman. Men mazdayosin qonunlariga asoslangan targ'ibotlarni ulug'layman, deydi.

Avestoning uchinchi kitobi «Visparat» deb nomlangan. Udna olamni yoki hamma narsani bilishshga doir pand – nasixatlar o'rin olgan. U ibodat namozlari yig'indisi bo'lib, 25 qismdan iborat.

Oxirgi kitob «Bundaxash» qadimgi Eron tili – pahlaviy tilida yozilgan. G'shtlar va yosinlar 3 qatlamdan iborat: Birinchisi xalq eposlarining Zardo'shtgacha bo'lgan qo'shiqlari (she'rlari), ikkinchisi Zardo'sht xat(noma)lari va uchinchisi Zardo'sht halok bo'lgandan keyin kitob holiga keltirilgan va Kichik Avesto nomi bilan yuritiladigan qismidir. Demak, Avestoning ilk va kichik (keyingi) qismlaridan uning asosiy qismi Zardo'sht Nomalarini farqlash lozim. Nomalari ko'p

xudochilikni, O'ta va tabiat stixiyali kuchlariga sig'inishni qoralab, yakka xudolikka e'tiqod qilishni talab etadi.

Hozirgacha bo'lgan ilmiy adabiyotlardagi farqlar ko'proq «Kichik Avesta»ga asoslanib bildirilgan. Bunda yakka xudolik g'oyalari ko'p xudolik e'tiqodlari bilan qorishib ketgani uchun tadqiqotchilar Zardo'shtiylikni ko'p xudolik yoki ikki xudo dini sifatida talqin etadilar. Bunday qarashlar Zardo'shtiylikning uchinchi yo'nalishi-ko'p xudochilik bilan yakka xudochilik qorishmasidan iborat mazdaizm bilan aralashtirish oqibatidir.

Zardo'shtigacha bo'lgan Axura, Mitra, Mazda, Anaxit va boshqa xudolar haqida fikrlar bo'lgan. Ammo u xudolar odamlardek hayot kechirgan bo'lsalar, Zardo'sht talqinida Axuramazda Oliy ibtido bo'lib, uning na xotini, na bolalari bor. U hamma mavjudotlarni yaratuvchi va boshqaruvchi sifatida ezgulikni barqaror qiluvchi, odamlar qalbini munavvar etkuvchi Oliy ruh sifatida namoyon bo'ladi.

Zardushtiylikda diniy dasturlar haqidagi g'oyalar bilan birga real, dunyoviy, hozir ham foydali nasihat, tavsiya, cheklash, ta'qiqlash, rag'batlantirishga doir o'git va da'vatlar ko'p bo'lgan. Ulardan hozirgi mustaqilligimiz davrida ham foydalanish mumkin va lozim.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Zardushtiylik dini qachon va qyerda vujudga kelgan.
2. Zardushtiylik dini vujudga kelishi yuzasidan qanday farazlar mavjud?
3. Zardushtiylik dini rahnamosi kim va u haqida ma'lumotlar ayting.
4. Zardushtiylik ta'limoti haqida nimalar bilasiz?
5. Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal tamoyilini yoritib bering.
6. Zardushtiylikda tabiat qanday ulug'langan?
7. "Avesto" hqida ma'lumot bering.
8. Avestoning tarkibiy tuzilishini ketma ketlikda sanab bering

4-MAVZU. BUDDAVIYLIK DINI.

Reja:

1. Buddaviylik dinining paydo bo'lish tarixi, asosiy ta'limotlari, oqimlari va manbalari.
2. Kushonlar imperiyasida buddaviylik dinining davlat dini darajasiga ko'tarilishi.
3. Tripitakan va buddaviylikning muqaddas manbalari.
4. O'zbekistonda buddaviylik dinining tarixiy ildizlari (Qaratepa, Fayoztepa, Dalvarzintepa) va hozirgi zamon.

Tayanch soʻz va iboralar: *Sidxartxa, Budda, shakyamuni, tripitaka, dzen buddizm, chan buddizm, Qaratepa, Dalvarzintepa.*

1-reja bayoni. Buddaviylik dinining paydo bo'lish tarixi, asosiy ta'limotlari, oqimlari.

Buddaviylik - uchta dunyo dinlari ichida eng qadimiysi hisoblanib, eramizdan avvalgi VI - V asrlarda Hindistonda yuzaga kelgan. Bu dinga e'tiqod qiluvchilar, asosan, Janubiy, Janubi-Sharqiy va Sharqiy Osiyo mamlakatlarida, Shri-Lanka, Hindiston, Nepal, Butan, Xitoy, Singapur, Malayziya, Mongoliya, Koreya, Vetnam, Yaponiya, Kombodje, Birma, Tayland, Laosda va qisman evropa va Amerika qit'alarida, Rossiyaning shimoliy mintaqalari - Buryatiya, Qalmiqistonda istiqomat qiladilar.

Hozirgi kunda dunyoda buddaviylikka e'tiqod qiluvchilar soni qanchaligi aniqlanmagan, Chunki ko'pgina mamlakatlar huquq normalariga ko'ra qaysi dinga e'tiqod qiluvchilar soni qancha deb hisobot ishlari olib borilmaydi. Biroq taxminan olinganda hozirgi kunda dunyoda buddaviylar soni 400 mln.ga yaqin bo'lib, ulardan 1 mln.ga yaqini *monax*lardir.

Buddaviylik bundan 2500 yildan avvalroq Hindistonda diniy falsafiy ta'limot sifatida vujudga kelib, unda ko'plab qonuniy manbalar va ko'p sonli diniy yo'nalishlar mavjuddir

Buddaviylikning turli millatlar tomonidan keng qabul qilinishi va uning keng doirada tarqalib ketishining sababi uning turli milliy va diniy an'analar bilan kirisha olishi bo'lib, bu narsa buddaviylikning hayotning barcha sohalari, jumladan, diniy, madaniy, siyosiy va iqtisodiy qatlamlarga kirib borishiga sabab bo'ldi.

Buddaviylikni din yoki falsafa, ideologiya yoki madaniyat qonunlari to'plami yoki hayot tarzi deb baholash mumkin.

Hozirgi buddaviylikka e'tiqod qilib kelayotgan sharq mamlakatlaridagi buddaviylik ta'limotini o'rganish u erdagi siyosiy-iqtisodiy, ma'naviy madaniyatini tuShunishning asosiy omillaridan hisoblanadi. Bu davlatlarda buddaviylik qoida va an'analari buddaviylikka e'tiqod qiluvchilar nazarida markaziy hukumat qonunlaridan ko'ra ustun turadi. Bu narsa zamirida buddaviylikning potentsial kuchi yotadi.

Buddaviylik asoschisining shaxsi. Buddaviylik asoschisi haqiqiy tarixiy shaxsdir. Bu ko'plab buddaviylik bilan Shug'ullangan tadqiqotchi olimlar bizgacha etib kelgan manbalar asosida isbot qilganlar. Buddaviylik asoschisi haqida xabar beruvchi folklor va badiiy adabiyotlar uni Siddxarta, Gautama, Shakyamuni, Budda, Tadxagata, Djipa, Bxagavan kabi ismlar bilan zikr etadilar. Bu ismlarning ma'nolari quyidagicha: Siddxartxa - shaxsiy ismi, Gautama - urug' ismi, Shakyamuni - shaklar yoki shakiya qabilasidan chiqqan donishmand, Budda - nurlangan, Tadxagata - Shunday qilib Shunday ketgan, Djina - g'olib, Bxagavan - tantana qiluvchi. Bu ismlar ichida eng mashhuri Budda ismi bo'lib, Shu ismdan uning diniga *buddaviylik (buddizm, buddiylk)* nomi berilgan.

Hozirgi kunda Buddaning beshta biografiyasi ma'lumdir: «Maxavostu» - eramizning II asrida yozilgan, «Lalitavistara» - eramizning II-III asrlarida yuzaga kelgan, «Buddaxacharita» - Buddha faylasuflaridan biri Ashvagxoshey tomonidan eramizning I-II asrlarida yaratilgan, «Nidanakatxa» - eramizning 1-asrida yozilgan va «Abnixishkramansutra».

Bu biografiyalar orasidagi asosiy ziddiyat Buddaning qaysi yillarda yashaganligi xususidadir. Ular eramizdan avvalgi IX-III asrlar orasidagi turli muddatlarni ko'rsatadilar. Rasmiy buddaviylik hisobiga ko'ra esa Butama - Buddha er. av. 623 yilda tug'ilib, 544 yilda vafot etgan. Biroq, ko'pchilik tadqiqotchilar uning tug'ilishi er. av. 564 yilda, o'limi esa 483 yilda deb hisoblaydilar. Ba'zan 560 - 480 deb to'liq sonlar bilan ko'rsatadilar.

Yuqorida zikr qilingan biografiyalarda Buddaning haqiqiy hayoti bilan uning afsonaviy hayoti o'zaro qorishib ketgan.

Siddxartxa Shakya qabilasining podshohlaridan biri Shuddxodananing o'g'li edi. Uning saroyi Ximolay tog'lari etagida Kapilavasti degan qishloqda bo'lgan. (Hozirda Nepal hududida). Onasi - malika Mayya. Podshoh o'g'lini orzu havaslar og'ushida tarbiyalar, uni hech bir kamchiliksiz katta qiladi. Ulg'ayib qo'shni podshohlardan birining qizi Yashadxaraga uyulanadi va o'g'il ko'rib, unga Raxula deb ism qo'yadi.

Hech bir qiyinchilik va kamchilik ko'rmay o'sgan bola Siddxartxa ittifoqo qarigan cholni, bemorni, og'ir mehnatli bir rohibni uchratadi. Bundan qattiq ta'sirlagan shahzoda insoniyatni qiyinchilik va azobdan qutqarish yo'llarini axtarib saroyini tashlab ketadi. Bu vaqtda u 30 yoshda edi. U beshta rohibga ko'shilib, ular bilan qishloqma-qishloq kezib yuradi. Ko'p vaqt bu rohiblarga hamrohlik qilib, ularning yo'llarida ma'lum maqsad yo'qligini va bu yo'l o'z oldiga qo'ygan maqsadi - insoniyatni azob uqubatdan qutqarishga olib bormasligini angelaydi va rohiblar jamoasidan ajraladi.

U chakalakzor o'rmonlarda kezib, charchab bir daraxti tagida dam olish uchun o'tiradi va o'ziga toki haqiqatni topmaguncha Shu erdan turmaslikni va'da beradi.

Bu o'tirishning 49 kuni uninu qalbidan «Sen haqiqatni topding» degan sado keladi. Shu paytda uning ko'z oldida butun borliq namoyon bo'ladi. U hamma joyda shoshilish, qayoqqadir intilishni ko'radi. Hech bir joyda osudalik yo'q edi. Hayot nihoyasiz uzoqlikni ko'zlab o'tib ketayotgan edi. Inson aqli etmas bir kuch - Krishna - yashash, mavjud bo'lish umidi barchaninu tinchini buzar, halok qilar va yana qayta yaratar edi. Mana endi Buddha kimga qarshi kurashish kerakligin angladi. Shu ondan u Buddha - nurlangan deb ataldi. U tagida o'tirgan daraxt esa - nurlangan daraxt deb atala boshladi.

Budda o'zining birinchi da'vatini Varanasi yaqinidagi Rishipatana bog'ida, o'zining besh rohib do'stlariga qildi va o'shalar uning birinchi shogirdlari bo'ldilar.

Shu kundan boshlab Buddha o'z shogirdlari bilan qishloqma-qishloq yurib o'z ta'limotni tarqatib o'ziga yangi izdoshlar orttiradi. Buddha 40 yil davomida o'z ta'limotini Hindistonning turli joylariga etkazadi va 80 yoshida Kushtnagara degan joyda dunyodan o'tdi. Uning jasadi hind udumiga ko'ra u erda kuydirilib, uning xoki 8 ta budda jamoalariga bo'lib yuborildi va har bir jamoa uni dafn etgan joyida ibodatxona barpo etdi.

Buddaning hayoti haqida turli afsonalar ham to'qilgan. Bu afsonalarda aytilishicha, Buddha ko'p yillar davomida er yuzidagi turli mavjudotlar qiyofasida qayta tug'ilgan: 84 marta ruhoni, 58 marta podshoh, 24 marta rohib, 13 marta savdogar, 18 marta maymun, 12 marta tovuq, 8 marta g'oz, 6 marta fil Shuningdek baliq, qurbaqa, kalamush, quyon kabi qiyofalarda qayta tug'ilgan. Jami 550 marta qayta tug'ilgan. U doimo qaerda, qay qiyofada tug'ilishini o'ziga o'zi belgilagan.

So'nggi marta uni xudolar insoniyatni to'g'ri yo'lga boshlashi uchun inson qiyofasida yaratganlar. Bu afsonalarning ba'zilariga ko'ra er yuzida Gautamaga qadar 6 ta budda o'tgan. Shuning uchun buddaviylikning ba'zi muqaddas joylarida 7 ta ibodatxona barpo etilgan. 7 ta Botxa daraxti o'tkazilgan. Ba'zi afsonalar 24 ta Buddha avlodi o'tgan desa, ba'zilar minglab Buddalar o'tgan deb da'vo qiladi.

Buddaviylik ta'limoti. Buddaviylik qadimiy Hind diniy - falsafiy ta'limotlari asosida vujudga kelgan, amaliyot va nazariyotdan iborat diniy tizimdir. Uning asosi «Hayot - bu azob, uqubatdir» va «najat yo'li mavjud» degan g'oyadir. buddaviylik qonuniyatlariga ko'ra inson o'ziga moslashgan mavjudot bo'lib, o'zida tug'iladi, o'zini o'zi halok qiladi yoki qutqaradi. Bu narsa Buddaning ilk da'vatida mujassamlashgan 4 haqiqatda o'z ifodasini topgan.

Birinchi haqiqat - «Azob uqubat mavjuddir». Har bir tirik jon boshidan kechiradi, shuning uchun har qanday hayot - qiynoq, azob-uqubatdir.

Tug'ilish - qiynoq, kasallik - azob, o'lim - kulfat, qiyinchilikka duch kelish - mashaqqat, yaxshi narsadan ayrilish - qiynoq, ayriliq - ezilish, orzu-havasga etaolmaslik - uqubat. Dunyo tuzilishining asosiy qonuni bir-biriga bog'liqlik. Hech bir narsa ma'lum sababsiz yaralmaydi. Lekin har bir hodisa yoki harakatning birlamchi sababini aniqlash mumkin emas. Shuning uchun buddaviylik dunyoni Shu holicha qabul qilishga chaqiradi.

Buddaviylik ta'limotiga ko'ra, har qanday narsa yoki hodisa u hoh moddiy yoki ma'naviy bo'lsin Dxarma (yelement)lardan tuzilgan. Bu elementlar o'z xususiyatiga ko'ra harakatsiz bo'lib, ularni harakatlantiruvchi kuch insonning xayollar va so'zlaridir. Ob'yektiv haqiqat bu doimiy ravishda o'zgarib turuvchi Dxarmalar oqimidir. Harakatdagi Dxarmalar mavjudligining 5 formasini yaratadi: tana, sezgi, his-tuyg'u, harakat, anglash. Bu besh forma insonni tashkil qiladi. Inson ular yordamida yashaydi va borliq bilan aloqada bo'ladi, yaxshi yoki yomon ishlarni bajaradi. Bu narsa insonning o'limi bilan tugallanadi. Insonni tashkil qiluvchi besh forma (*skandx*) o'z navbatida qayta tug'iladi. Yangi tananing xususiyatlari asos bo'luvchi besh natijani beradi: faoliyat, gumrohlik, xohish, istak va norma. Bu protsess «hayot g'ildiragi»ni tashkil qiladi. «Hayot g'ildiragi»da doimiy ravishda aylanib, inson abadiy qiynoqqa duchor bo'ladi.

Ikkinchi haqiqat - «qiynoqlarning sabablari mavjuddir». Inson moddiy narsalar yoki ma'naviy qadriyatlardan foydalanib, ularni haqiqiy va doimiy deb hisoblaydi va doimo ularga ega bo'lishga intiladi. Bu intilish hayot davomiyligiga olib boradi. Yaxshi yoki yomon niyatlardan tuzilgan hayot daryosi, orzular va intilishlar sababli kelajak hayot uchun *karma* hozirlaydi. Demak, qayta tug'ilish, yangitdan qiynoqlarga duchor bo'lish davom etadi. Buddistlar fikricha Buddadan keyin hech kim Nirvana holatiga erisha olmagan.

Uchinchi haqiqat - «qiynoqlarni tugatish mumkin». Yaxshi yoki yomon niyatlar, intilishlardan butunlay uzilish Nirvana holatiga to'g'ri keladi. Bu holatda inson qayta tug'ilishdan to'xtaydi. Nirvana holati, buddaviylar fikricha, «Hayot g'ildiragidan» tashqariga chiqishdir. «Men» degan fikrdan ajralib, insonning hissiy tuyg'ullarini to'la tugatishdir.

To'rtinchi haqiqat - qiynoqlardan qutilish yo'li mavjuddir. Bu yo'l - «Sakkizta narsaga amal qilish, to'g'ri tuShunish, to'g'ri harakat qilish, to'g'ri muomalada bo'lish, fikrni to'g'ri jamlash». Bu yo'ldan borgan inson Buddha yo'lini tutadi.

Bu sakkiz narsaga amal qilish meditatsiya deb nomlanadi. buddaviylik ta'limoti asosan uch qismdan iborat: 1. Meditatsiya; 2. Axloq; 3. Donolik.

1. Meditatsiya:

- 1) To'g'ri tuShunish;
- 2) To'g'ri niyat qilish;

- 3) To'g'ri o'zini tutish;
- 4) To'g'ri anglash;
- 5) To'g'ri harakat qilish;
- 6) To'g'ri muomalada bo'lish;
- 7) To'g'ri fikr yuritish;
- 8) To'g'ri gapirish;

2. Axloq normalari - Budda «Pancha Shila» nasihati:

- 1) Qotillikdan saqlanish;
- 2) O'g'rilikdan saqlanish;
- 3) Gumrohlikdan saqlanish;
- 4) "Yolg'on, qalbaki narsalardan saqlanish;
- 5) Mast qiluvchi narsalardan saqlanish;
- 6) Tushdan keyin ovqatlanishdan saqlanish;
- 7) O'yin - kulgudan saqlanish;
- 8) Zebu-ziynat, atir-upalardan saqlanish;

3. Donishmandlik - bu buddaviylikning asosiy maqsadi bo'lib, narsalar tabiatini to'g'ri tushunish.

Ilk buddaviylikning dxarmalar tabiati haqidagi mavhum metafizik asoslari buddaviylikda ikki oqim «Xinayana» (kichik g'ildirak) va «Maxayana» (katta g'ildirak) yuzaga kelishiga olib keldi.

Xinayana ta'kidlashicha dxarmalar tabiatini o'rganish va nirvanaga erishish ma'naviy yo'l bilan bo'ladi. Bu yo'l juda og'ir va faqat monaxlargina nirvana holatiga etishi mumkin. Maxayana esa Budda tanasi jonzotlarni azobdan qutqarish uchun turli jonzot formasiga kirishi mumkin va hayot zanjiridagi barcha uni o'rganishi, anglashi mumkin deydi. Bu narsa cheksiz Budda ramlarini, xudolarni kelib chiqishga sabab bo'ldi. Bu xudolarga ishonish yo'llari barchaga mumkin. Shu sababli «Katta g'ildirak» deb nomlanadi.

Barcha jahon dinlari kabi buddaviylik ham ijtimoiy taraqqiyot natijasida va turli mamlakatlardagi ijtimoiy guruhlar tuzumlarining xususiyatlariga qarab, turli mazhablarga bo'linib ketgan.

Buddaviylikda bir necha yo'nalishlar paydo bo'lgan. Bulardan eng yirigi I asrda undan ajralib chiqqan **xinoyana** («kichik arava», tor yo'l ma'nosida) Shri Lanka, Birma kabi mamlakatlarda keng tarqalgan; **maxayana** («katta arava», keng yo'l ma'nosida) Tibet, Xitoy, Yaponiya, Mongiliyada hamda Oltoy va Uzoq Sharqda yashovchi ba'zi xalqlar o'rtasida keng tarqalgan.

Lamaizm. Buddaviylikning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, u tibet tilida «*lama*» – «yeng ulug'» degan ma'noni anglatadi. Mazkur diniy yo'nalish rahbari Shu nom bilan – *lama* deb ataladi.

Lamaizm Tibetda VII – XIV asrlarda tibetliklarning qadimiy dini Bon-Po (shamanizmning bir turi) unsurlarini qabul qilgan Maxayana va Tantrizm asosida vujudga kelgan bo'lib, hozirda tibetliklarning asosiy dini hisoblanadi. U bir necha firqa va mazhablarga bo'linadi. Lamaizm XVI asr oxiridan mo'g'ullar, XVI asr boshlaridan Rossiya hududida yashovchi buryatlar, tuvaliklar va qalmiqlar orasida ham tarqaldi. Buddaviylikning barcha aqidalarini qabul qilgan lamaizmda inson faqat *lamalar* yordamida najot topadi. *Lamalarsiz nirvanaga* etishish u yoqda tursin, kishi bu dunyoga qaytib kelishda ham hech narsaga erisha olmaydi, deb ta'kidlanadi.

Lamaizmning an'anaviy qonunlashgan asosi Kanjur (108 jildli) va Tanjur (225 jildli) nomli muqaddas kitoblarda bayon qilingan. Bu dinda dabdabali ibodatlar, teatrlashtirilgan muqaddas tomoshalar – *misteriyalar*, ko'pgina maishiy rasm-rusumlar, xudolarning g'azabini, yovuz ruhlarning ziyonlarini qaytarish uchun qilinadigan xatti-harakatlar, duo va afsunlar bor. Lamaizmga ko'ra, *lamalarga* va dunyoviy hokimlarga so'zsiz bo'ysunish asosiy fazilat sanaladi. Masalan, buriyat lamalari rus podshohlarini – *avatara*, ya'ni ma'buda Sagan-Daraexening erdagi ko'rinishi deb e'lon qilganlar.

Lamaizm ta'limotiga ko'ra, odam o'ldirish, o'g'rilik, yolg'onchilik, tuhmat, g'iybat, bekorchi so'zlash, ochko'zlik, kek saqlash, zino qilish – o'nta «og'ir gunoh» sanaladi. Gunoh qilishdan o'zini tiyish insonga eng yaxshi *qayta tug'ilishga* imkon beradi.

Lamaizm yo'nalishining oliy diniy rahnamosi Dalay-Lama sanaladi. U tug'ilgan mavjudotlarning eng ulug'i, *bodxisatva* Avalakiteshvaraning erdagi ko'rinishi, *tirik xudo* hisoblanadi. *Dalay* – tibet tilida «dengiz» ma'nosini anglatadi. Dalay-Lama «dengizdek ulug' lama» deganidir. Bu unvon 1391 yilda joriy qilingan. Birinchi Dalay-Lama Binduidub (1391-1475) bo'lgan. Hozirgi kunda Dalay-Lama XIV Lozondantzenjanso-Igvanat hisoblanadi. U 1935 yilda tug'ilgan. Uning o'limi bilan erda yangi Dalay-Lama paydo bo'ladi. Oliy *lamalardan* tashkil qilingan hay'at uning o'limidan so'ng bir yil mobaynida yangi tug'ilgan go'daklar orasidan yangi Dalay-Lamani qidirib topadilar. Shundan so'ng go'dak monastirda tarbiyalanadi. U voyaga etgunga qadar uning vazifasini regent – muvaqqat vakil bajarib turadi. Lamaizm diniy hayotining markazini monastir tashkil qiladi. U erda Dalay-Lama, Lamalar diniy uyushmasi, rohiblar, talabalar faoliyat olib boradilar

2-reja bayoni. Kushonlar imperiyasida buddaviylik dinining davlat dini darajasiga ko'tarilishi.

Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi tarixi va madaniyatida buddaviylik muayyan o'rin egallagan. U zardushtiylik dini ta'sirida va u bilan yonma-yon shakllangan dinlardan biri bo'lgan buddaviylik miloddan avvalgi VI-V asrlarda Xindistonning shimolida vujudga kelgan; keyinchalik Janubi-Sharqiy va Markaziy Osiyo hamda Uzoq Sharq mamlakatlarida keng tarqalgan. Uning vujudga kelishi hind jamoalarida ro'y bergan muhim ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar – urug'-qabilachilik aloqalari va tartiblarining yemirilishi, sinfiy jamiyatlarning vujudga kelishi va yirik quldorlik davlatining paydo bo'lishi bilan bog'liq edi. III asrga kelib dunyoviy jamiyat (imperator Ashoka)ning faol qo'llab-quvvatlashi natijasida mulkchilik darajasida yagona bo'lgan budda tashkiloti (monaxlik jamoasi – singxa) va diniy aqidachilik shakllangan.

Buddaviylikning markaziy Osiyo va Sharqiy Turkistonda tarqalishi miloddan avvalgi II asrlarda bu yerlardagi qabilalarning avlodlari tugatgan grek-baqtriya podshohligining o'rnida qaror topgan Kushon imperiyasining rivojlangan davriga to'g'ri keladi.

Kushon imperiyasi o'zining eng gullagan davrida (milodning I-III asrlarida) hozirgi Markaziy Osiyoning bir qismini, Afg'oniston, Pokiston, Shimoliy Hindiston, ehtimol Uyg'uristonni ham o'z ichiga olgan. Kushon podshohligi davrida buddaviylik Hindistondan Markaziy Osiyoga, undan esa Buyuk ipak yo'li orqali Xitoy va Uzoq Sharqqa tarqalgan.

Keyingi o'n yilliklar mobaynida olib borilgan arxeologik izlanishlarning natijalari va tarixiy ma'lumotlarni umumlashtirgan holda tahmin qilish mumkinki, islomgacha bo'lgan davrda buddaviylik Markaziy Osiyo g'oyaviy hayotining muhim tarkibiy qismlaridan birini tashkil etgan. Buddaviylik faqat maxsus ibodatxonalargagina emas, balki podsho saroylaridan boshlab, oddiy kambag'al dehqon va hunarmandlarning kulbasigacha kirib borgan dindir. Buddaviylikni qabul qilgan Markaziy Osiyo xalqlari diniy ibodatlar uchun har xil maxsus inshootlar qurganlar.

Buddaviylik bilan bog'liq obidalar, ibodatxonalar, haykallar, devorlarga olingan rasmlar Markaziy Osiyoda topilgan qadimgi tarixiy obidalar orasida muhim o'rin egallaydi. Buddaviylik bilan bog'liq imoratlar, qurilishlar hozirda ham Shimoliy Qirg'iziston, O'zbekiston va Turkmanistonning Janubiy tumanlarida, Tojikistonda va Qozog'iston janubida ma'lumdir.

Bular orasida eng yirik inshoot eski Termizdagi Qoratepa nomli g'or ibodatxonasidir. Bu ochiq sariq rangli katta tepalik bo'lib, unga qum toshli g'or binolar o'yib solingan; yer ustida binolar barpo etilgan; bularning hammasi bir butun uyg'un bo'lgan buddaning 20-25 ibodatxonasini tashkil qilib, Kushon podshohligida buddaviylikning muhim ahamiyatga egaligidan dalolat beradi. Devorlarga solingan rasmlarni, haykallarni, toat-ibodat buyumlarini, tangalarga, sovg'a qilingan sopol idishlarga bitilgan har xil yozuvlarni o'rganishlar Qoratepaning milodning I asr oxiri va II asri boshlarida bunyod qilinganligidan, arablar O'rta Osiyoga kirib kelganlaridan keyin ular tugatilgan va keyinchalik vayronaga aylanganligidan dalolat beradi.

3-reja. Tripitaka va buddaviylikning muqaddas manbalari.

Buddaviylik manbalari. Buddaviylik ta'limoti bir qator devon shakliga keltirilgan to'plamlarda bayon qilingan. Ulardan eng asosiysi Tripitaka (yoki Tipitaka) - uch savat ma'nosini anglatadi. U uch qismdan iborat bo'lganligi uchun shunday nom bilan atalgan. buddaviylikning bu yozma manbasi hozirgi davrda ShriLankada saqlanib qolgan. U eramizning boshlarida shakllangan. Ular - budda targ'ibotining haqiqiy bayoni hisoblangan sutra matnlari (sutta-pitaka), rahboniylik axloqi va xonaqoqlar nizomlariga bag'ishlangan vinaya matnlari (vinaya-pitaka), buddaviylikning falsafiy va psixologik muammolarini bayon qilib berishga bag'ishlangan abxidxarma matnlari(abxidxarma-pitaka)dan iborat. Keyinchalik shakllangan sanskrit, xitoy, tibet, kxmer va yapon tillaridagi buddaviylikka oid adabiyotlar ancha keng tarhalgan, ammo ularning tarixiy qiymati kamroq. Budda hayotiga tegishli rivoyatlarning barchasi Tripitakada jamlangan.

4-reja bayoni. O'zbekistonda buddaviylik dinining tarixiy ildizlari (Qaratepa, Fayoztepa, Dalvarzintepa) va hozirgi zamon.

Baqtriya-Toxaristonning eng taraqqiy etgan madaniyat markazlaridan biri bo'lgan Termizning madaniy-ma'naviy hayotida buddaviylikning o'rni misolida ko'rish mumkin. Miloddan avvalgi 1-asrda Termizda buddaviylik ustuvor mavqega ega bo'ldi. Bunda shahar zadagonlarining buddaviylikni qabul qilishi va ibodatxonalar qurilishiga homiylik qilishlari muhim ahamiyat kasb etgan. Qoratepa va Fayoztepa ibodatxonalari eng katta sajdagohlardan hisoblangan. Ularda Buddaning loydan yasalgan katta haykali va stupalar bo'lgan. Ibodatxonalar odatda er osti va er usti qismlaridan iborat bo'lgan. Bu erda alohida stupalar ham mavjud bo'lib, ular oq marmardan mahorat bilan ishlangan Budda haykalchalari bilan bezatilgan "Zo'rmala" stupasi mahobati bilan ajralib turgan. Stupalar bir necha balandlikda to'rtburchak shaklda bunyod etilgan. Stupa usti gumbazsimon qilib ishlanib, unga yog'och yoki toshdan yasalgan langar o'rnatilgan. Bu langarlarda toshdan yasalgan bir necha soyabon bo'lib, buddaviylar uni "chatra" deb atashgan. "Chatra" muqaddas daraxt timsolidir. Fayoztepa "vixara" (sanskritcha – kulba, boshpana, buddaviy rohiblarning yomg'ir mavsumi vaqtida yashaydigan kulba, hovli va bog'dan iborat bo'lgan joyi) uslubidagi ibodatxona bo'lib, uning markazida diniy marosimlar o'tkazilgan. Ibodatxona bilan yonma-yon joylashgan stupadan oltin suvi yurgizilgan, sopol va marmardan yasalgan haykallar topilgan. Bu erdan marmartoshdan nafis ishlov berib yasalgan muqaddas "Boddxa" daraxti ostida o'tirgan Budda va uning ikki tomonida turgan ikki rohib haykali ham topilgan. Qoratepa xarobasidan shimoliy Baqtriyadagi eng katta va mahobatli stupa topilganini

alohida qayd etish lozim. Bizgacha stupaning asosi hamda zinapoyaning ikki tomonida joylashgan kichik stupalar, o'sha davrga tegishli yozuv namunalari saqlanib qolgan.

Kushon podsholigining dastlabki poytaxti Dalvarzintepa o'rnida bo'lgan. Kushonlar hukmdori Kanishka davrida Dalvarzintepa shahar sifatida shakllanib, savdo–sotiq markazlaridan biriga aylangan. Surxondaryo viloyati SHo'rchi tumanida joylashgan Dalvarzintepa (qalinligi 10 metrgacha bo'lgan qudratli mudofaa devori bilan o'rab olingan qal'a shahar) majmuasidan Budda ibodatxonasi va aslzodalar dafn etilgan dahma, shuningdek, oltin xazina to'ldirilgan ikki yarim metrli sopol ko'za topilgan. Bular buddaviylikning o'sha davr xalqlari ijtimoiy–ma'naviy hayotidagi mavqei va boshqa mahalliy dinlar o'rtasida egallagan o'rnini ko'rsatadi.

Markaziy Osiyo xalqlari qadimgi tarixi va madaniyati rivojida buddaviylik muayyan o'rin egallaydi. Bunga Markaziy Osiyo hududida joylashgan Dalvarzintepa, Quva, Zartepa, Qorovultepa, Ayritom mavzellaridan topilgan arxeologik qazilmalar, jumladan, Shakyamuni sanamlari, haykalchalar, ramziy g'ildiraklar va stupa qoldiqlari, shuningdek, marmardan yasalgan va juda yaxshi saqlangan Budda haykali aniq dalolat beradi. Qadimgi Termiz xarobalaridan topilgan yirik ibodat majmuasida 25 ta Budda kompleksi (Buddaning tikka turgan, o'tirgan va yotgan holdagi haykallari 3–4 metrgacha balandlikda loy–ganchdan ishlangan) borligi aniqlangan. Qoratepada topilgan arxeologik yodgorliklar er usti va g'or ichida joylashgan ibodatxona, saroy, rohib (zohid) uchun moslashtirilgan hujralardan iborat bo'lgan. Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan yodgorliklar buddaviylikning o'sha davrdagi mavqei haqida xabar beradi. Shuningdek, ajdodlarimizning yuksak moddiy madaniyati, dini, urf–odati, tafakkur tarzi haqidagi tasavvurimizni boyitishga xizmat qiladi.

Hozirgi davrda buddaviylik Janubiy, Janubiy–sharqiy, Sharqiy Osiyo mamlakatlari Shri Lanka, Hindiston, Birma, Tailand, Laos, Mo'g'uliston, Kambodja, V'etnam, Xitoy, Singapur, Butan, Nepal, Malayziya, Koreya, Yaponiya, qisman Evropa va Amerika qit'asi, Rossiyaning Tuva, Buryatiya, Qalmiqiston kabi hududlarida keng tarqalgan. 700 milliondan ortiq kishi buddaviylikning turli yo'nalishlariga e'tiqod qiladi. Hozirda buddaviylik Yaponiyaning davlat dini hisoblanadi.

Markaziy Osiyoda bir necha yuz mingdan iborat koreys millatiga mansub kishilar yashaydi. Ularning oilaviy maishiy an'analari, milliy udumlarining ayrim tarkibiy qismlari mahayana (shimoliy) ko'rinishdagi buddaviylik ta'sirida shakllangan. Hozirgi vaqtda bu mintaqada, ayniqsa O'zbekistonda koreys buddistlarni xristianlik ta'siriga olishga qaratilgan harakatlar avj olmoqda.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Buddaviylik ta'limotining asoslari nimalardan iborat?
2. Buddaviylikning braxmanizmdan asosiy farqlarini sanang.
3. Buddaviylikning muqaddas bitigi necha qismdan iborat?
4. Buddaviylikning mohiyati va xususiyatlarini ayting?

5-MAVZU. XRISTIANLIK DINI.

Reja:

1. Xristianlikning paydo bo'lishi, aqidalari, asosiy yo'nalishlari, ta'limotlari va manbalari.
2. Katolitsizm va pravoslavlik dini yo'nalishlarining o'zaro farqli tomonlari.
3. Protestantlik harakatining shakllanishi va rivojlanishi.
4. Hozirgi davrda xristian dinining rivojlanishi va dunyo davlatlaridagi o'rni. O'zbekistonda xristian dinining rivojlanishi tarixi va hozirgi zamon.

Tayanch so'z va iboralar: *Xristianlik, Xristos muso (Moisey) Katolitsizm, pravoslavlik, protestantlik, Eski Ahd, Yangi ahd, injil, «xoloskorlik». Vatikan, Ioanning «Vahiynomasi».*

1-reja bayoni. Xristianlikning paydo bo'lishi, aqidalari, asosiy yo'nalishlari, ta'limotlari va manbalari.

Xristianlik jahon dinlaridan biri bo'lib, eramiz I asrining 2-yarmida Rim imperiyasining sharqiy viloyatlarida ko'p xudolik dinlari o'rniga qullar va mazlum elatlarning dini sifatida yakkaxudolik(monoteistik) shakldagi tarzda shakllangan. Demaq u dasavval demokratik xususiyatga ega bo'lgan. Shuning uchun tez, oson tarqalgan. Davrlar o'tishi bilan uning bu xususiyati kamayib, undan hukmron mafkura (ideologiya) sifatida foydalanishga harakat qilingan.

Xristianlik Falastin va O'rta Yer dengizi yahudiylari dinlari doirasida vujudga kelgan; o'nlab yillardan keyin esa boshqa, asosan geografik jihatdan qaralganda Rim imperiyasi bilan bog'liq yoki uning siyosiy va madaniy ta'sirida bo'lgan xalqlar orasida tarqalgan. Yangi va eng yangi tarix davrlarida u mustamlakachilik siyosati va missionerlik natijasida Yevropadan tashqariga ham tarqalgan.

Xristianlikning vujudga kelishida sharq dinlarining ham ta'siri bo'lgan. Jumladan, misrliklarning Osiris va isida, eronliklarning Mitra, yahudiylarning Muso haqidagi rivoyatlari, oxirat to'g'risida hikoya qiluvchi har xil rivoyatlar ham xristianlik ta'limotiga kiritilgan.

Lekin shakllanayotgan xristian mafkurasi asosida birinchi galda iudaizm monoteizmining «Eski ahd» kitobiga kirgan barcha «muqaddas g'oyalar», ya'ni Yerni Xudo yaratganligi, o'simlik va hayvonot dunyosining vujudga kelishi, insonning yaratilishi, uning tili, axloqi, huquqi, ohirat rohatlari haqtdagi g'oyalar katta rol o'ynagan. Xristos muso (Moisey) bilan tenglashtirilgan turli rivoyatlar ham aynan ifodasini topgan.

Shunday qilib, xristianlik Rim imperiyasida yashagan ko'pchilik elatlarning dinlari, rivoyatlari, arfodatlari asosida tashkil topgan. Bu din dastlab qullar, ezilgan kambag'allarning talablarini, «xoloskorlik» g'oyalarini o'ziga singdirgan din sifatida vujudga kelgan. Keyinchalik uning ijtimoiy, diniy strukturasi o'zgarishi bilan hukmron tabaqalar qo'lida mazlum xalqlarni ekspluatasiya qilishning g'oyaviy quroliga aylangan.

O'sha davrda jamiyatda yuzaga kelgan hukmron doiralar bilan mazlum xalqlar o'rtasidagi ziddiyatni yumshatishga xizmat qilishi mumkin bo'lgan xristianlikdagi diniy g'oyalarni hisobga olgan imperator Konstantin 324 yili bu dinni davlat dini deb e'lon qilgan. 325 yilda uning ko'rsatmasi bilan Nikey savorida xristianlarning 1 – yig'ini bo'lib o'tgan. Unda yepiskoplar va ilohiyotchilar xristianlikning asosiy aqidalarini tasdiqlab, cherkov tashkilotini takomillashgan xolga keltirganlar.

Shundan buyon, davrlar utishi bilan xristianlik butun Yevropa, Shimoliy va Janubiy Amerika, afrika, Avstraliya kit'alariga yoyilgan. Keyinchalik Markaziy Osiyo respublikalari hududlariga ham qisman yetib kelgan jahon dinidir.

Xristianlikning diniy ta'limoti. Xristianlikning muqaddas diniy yozuvi – Bibliyaning ikkinchi g'ismi – «Yangi ahd» bo'lib, u eramizning I-II asrlarda grek tilida yaratilgan.

Bibliyaning xristianlik paydo bo'lmasdan birmuncha oldin yaratilgan 1 - qismi «Eski ahd» deb atalib, u iudaizmning muqaddas yozuvi hisoblanadi. Bibliyaning ikkinchi qismi – «yangi ahd» deb atalib, u xristianlikning muqaddas yozuvi deb hisoblanadi.

«Yangi ahd» 27 kitob (bob) dan tashkil topgan. Uning tarkibiga 4 ta «Injil» (Yevangiliye, ya'ni Xushxabar), havoriylarning (Iso shogirdlari, xristianlikning dastlabki tartibotlari) amallari, 21 risola va Ioanning «Vahiynomasi» kiritilgan.

Xristianlikning ta'limoti boshqa jahon dinlari kabi mutlaq, abadiy, o'zgarmas karomatni, bilimni, benihoya qudratning egasi bo'lgan yakka xudo haqidagi g'oyani o'zlashtirgan. Lekin ulardan (islom va iudaizmdan) farqi shundaki, u uch ko'rinishdagi yakka xudoni o'zida mujassamlashtirganlik aqidasini yaratgan. Uch ko'rinishdagi xudo haqidagi ta'limotga binoan, xudoning ichki hayoti sababi o'z-o'zidan mavjud bulgan uchlikdagi uch asos yoki «muqaddas uchlik» bo'lgan – ota-xudo, o'g'il-xudo va muqaddas ruhning o'zaro munosabatidir. O'g'il iso bayon qilingan tarjimai xoliga ko'ra ota-xudodan, muqaddas ruh ham ota-xudodan yaratilgan (pravoslav yunalishi ta'limoti), (katolisizmda esa ota-xudo va o'g'il-xudo ham xudodan tug'ilgan).

Xudoning mujassamlanishi yoki Isoning ikki mohiyati – odam mohiyati, xudo mohiyati haqida, «gunohni yuvish», ya'ni «Isoning o'zini ixtiyoriy tarzda qurbon qilishi» haqidagi ta'limot bilan mustahkamlangan. Xristianlik muqaddas ruh – ota xudo bola xudo va muqaddas ruh – uch yuzli xudo to'g'risidagi ta'limoti, targ'iboti, tashkilotchiligi, jannat va do'zah oxirat ya'ni dunyoning oxiri borligi, Isoning qayta tirilishi haqidagi va boshqa aqidalarni o'z ichiga olgan. 381 yili xristianlarning Konstantinopolda bo'lib o'tgan 11 jahon yig'ilishida cho'qinish va tirilish haqidagi yangi aqida qabul qilingan.

Ota xudo tabiat, odam va farishtalarni yaratgan, deb hisoblanadi. Xudoning gavdalanishi aqidasiga ko'ra, Iso xudoligicha qolgan xolda Mariya ismli qizdan tug'ilgan odam ham bo'lib qolgan. Butga parchinlangan xudo Iso tortgan azoblari va o'limi bilan o'zini odamlarning gunohlari uchun ota xudoga qurbon qilgan va shu bilan gunohini yuvgan. Ushbu aqidaga ko'ra, Iso odamzodga gunohlardan xalos bo'lish yulini ko'rsatib bergan. Isoning tirilishi ag'idasi kelgusida hamma odamlar tirilishining garovi, deb e'lon qilingan. U tirilgandan so'ng osmonga – ota xudo xuzuriga chiqqanligi, ya'ni osmonga chiqib tushishi (islomda me'roj) aqidasi bu dunyodagi hayot oxiratdagi mangulikka nisbatan hech narsaga arzimaydi, deb uqtiradi.

Xristianlikda iymon kaliamsi «yagona, muqaddas sobo va opostol cherkovi»ga ishonishni, cho'qintirish zarurligini tan olishni, qiyomatda o'liklarning tirilishiga, shundan so'ng savob egalariga mangu rohat-farog'at ko'rish, gunohkorlarga doimiy azob-uqubat tortish davri kelishiga ishonishni buyuradi.

Diniy g'oyalar tarkib topishi bilan bir qatorda xristian ibodat marosimlari ham shakllanib borgan. Xristian marosimchilining eng muhim elementlari sirli ibodat (tainstvo) deb yuritiladi. Bular qatoriga cho'qintirish (suvga sho'ng'itib olish), miropomozaniye (cho'qintirilgan kimsaga xushbo'y qatron-miropa surtilgach, «muqaddas ruh»ning huzur-halovati unga o'tishi); yevxaristiya yoki prichisheniye (non va vinoni Isoning tanasi va qoni deb tasavvur etgan holda iste'mol qilish), tavba qilish(dindorning ruhoniyy vositasida xudodan kechirim so'rashi va o'z gunohlarini unga aytib berishi), nikoh, ruhoniylikka fotixa berish, soborlashtirish, ya'ni bemoni muqaddaslashtirilgan zaytun moyi – yelega bo'yash kabilar kiradi. Xristianlikning bosh ibodati liturgiya (obednya, messa) bo'lib, u har xil afsungarliklar, mo'zika chalish, ashula aytish, «muqaddas» yozuvlarni o'qish, qad bukib ta'zim bajo keltirish, sham va chiroqlarni yondirish,

xushbo'y narsalarni chekish bilan qo'shib olib boriladigan diniy amallardan biri. «Muqaddas uchlik»ning har birini, Bibi maryamni ulug'lash «xudoga xush kelgan avliyolarga», xudo yarlaqaganlarga ham sig'inishni keltirib chiqargan. Xristianlikda butga cho'qinish ham muhim o'rinni egallaydi. Unda pasxa (Isoning tirilishi), tariqa (yoki pyatidesyatnisa), rojdestvo (Isoning tug'ilishi) va boshqa bayramlarga katta o'rin berilgan.

Manbalari. *Ilohiy kitoblar* –muayyan dinda muqaddas va ilohiy hisoblanadigan kitoblar. Diniy ta'limotga ko'ra, Alloh o'tgan payg'ambarlarning ba'zilariga sahifalar, ba'zilariga esa kitoblar nozil qilgan. 100 sahifa va 4 kitob. Bulardan 10 sahifani Odam (as)ga, 50 sahifani Shis(as)ga, 30 sahifani Idris(as)ga, 10 sahifani Ibrohim (as)ga yuborgan. Muso (as)ga Tovrot, Dovud (as)ga Zabur, Iso(as)ga Injil va Muhammad (sav)ga Qur'onni nozil qilgan. Qur'ondan boshqa ilohiy kitoblar va sahifalar bir yo'la bir da'fada nozil qilingan, deb hisoblanadi. Qur'on xazrat Jabroil orqali 23 yil mobaynida oyat-oyat, sura-sura shaklida yuborilgan -deydi.

Bibliya. Bibliya, yahudiylar va xristianlik dinlari ta'limotiga ko'ra, u Xudo tomonidan nozil qilingan, asosiy diniy aqida va axloq qonunlarini o'zida jamlagan muqaddas kitoblar majmuasidir.

Uning tarkibiga kirgan yahudiy diniga talluqli kitoblar «Qadimiy ahd» deb, xristian talimotiga tegishli kitoblar «Yangi ahd» deb nomlanadi. Yahudiy va Xristian bibliyalari bir-biriga mos kelmaydi. Yahudiylarning muqaddas kitobi Qadimiy Isroil va Qadimiy Yahudiylarning diniy talimot va urf-odatlariga asosida eramizdan avvalgi XIII asrda yozilgan bo'lsa, Xristianlarning kitobi esa eramizning boshlarida vujudga keldi. Yahudiylar xristianlarning kitobini muqaddas kitob sifatida tan olmaydilar xristianlar esa yahudiylarning kitobini muqaddas kitob sifatida tan oladilar.

Bibliya so'zining grekchadan tarjimasida **biblia - kitob, o'ram** ma'nolarini anglatadi. Hozirgi Bibliya katolik nashrlarida 72 ta kitobdan, protestant nashrlarida esa 66 kitobdan iborat. Yahudiylarning yana bir diniy manbasi Talmudning xabar berishicha Qadimiy ahdga 24 ta kitob bo'lishi kerak. Qadimiy yahudiy tarixchisi Iosif Flaviyning aytishicha 22 ta kitob bo'lishi kerak. Protestantlar va yahudiylar, Trident Soboridan keyin (1545-1563) katoliklar ham qadimiy ahd tarkibiga 45 ta kitob kirgizadilar. Bu son bilan yuqorida keltirilgan son o'rtasidagi tafovutni keyinchalik ba'zi kitoblar bir necha mustaqil kitoblarga bo'linib ketganligi bilan izohlash mumkin. Masalan, «Musoning besh kitobi» avval bir butun bo'lib, keyinchalik beshta mustaqil kitobga ajratib yuborilgan, «kichik payg'ambarlar kitobi» 12 kitobga ajratib yuborilgan.

Yahudiylar Qadimiy Ahdni 3 qismga bo'ladilar:

- birinchisiga «Musoning besh kitobi» - «Tora» («Tavrot»);
- ikkinchisiga «Payg'ambarlarning avvalgi va keyingi kitoblari (Netiim);
- uchinchisiga qolgan kitoblar (Ketubim).

Xristianlar Qadimiy Ahdni «Rivoyatlar kitoblari», «Ta'limotlarga kitoblari»ga, «Payg'ambar kitoblari»ga bo'lishadi. Ular Yangi Ahdning 27 kitobini ham Shunday tasnif qiladilar. «Rivoyatlar kitoblari»ga «Injil» va «Havoriylar faoliyati» kitoblari kiradi. «Ta'limotlar»ga «Havoriylar maktublari» kiradi, «Payg'ambarlar kitoblari»ga «Vahy» kitobi kiradi.

Bibliyaning kitoblari boblarga, boblar esa suralarga bo'linadi. Uning hozirgi qabul qilingan bo'linishi Nenterberiya episkopi Stefan Langton (vafoti 1228 y.) tomonidan kiritilgan. U 1214 yili lotin tilidagi matnni boblarga bo'lib chiqdi va bu narsa keyinchalik yahudiy va yunon tillaridagi matnlarga ham joriy qilindi. Suralar avval Santes Panino (v. 1541 y.) keyinchalik 1555 yilarda Robert etenlar tomonidan raqamlandi.

Yevangeliya. Injil soʻzi yunoncha «yevangelion» soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, “xushxabar” maʼnosini anglatadi. Unda odamzodni qutqaruvchi yagona Najotkor hisoblanmish Iso Masihning er yuziga yuborilganligi haqida hikoya qilinadi.

Injil milodning birinchi asrida yozilgan, 27 boʻlimdan iborat. Injil Iso Masihni koʻrib, uni yaqindan bilgan, uning taʼlimotini sinchiklab oʻrgangan mualliflar tomonidan yozilgan. Xristianlikda bu mualliflar xudoning ruhidan ilhomlanib, aynan xudoning buyurganini Injilda yozib qoldirganlar deb hisoblanadi. Injilning matni yozib tugatilgandan keyin undan koʻp nusxa koʻchirilib, dunyoning har tarafiga tarqatilgan.

Xristianlikda Yangi Ahd tarkibiga kirgan Injil 4 qismga boʻlinadi:

Injilning dastlabki 4 kitobchasi Iso Masihning hayoti va taʼlimotiga bagʻishlangan, ular Matto (Matfey), Marko, Luka, Yuhanno (Ioann) bayon etgan Muqaddas xushxabar (Yevangelie) deb ataladi. Bu 4 kitob muallifining har biri Iso Masih shaxsiyati va faoliyatining alohida xususiyatlarini tasvirlaydi, toʻrtala kitob ham Isoning yoʻli va qayta tirilishi bilan yakunlanadi. Bu Injil xushxabarining markaziy nuqtasi hisoblanadi.

Aziz havoriylarning faoliyati (Deyaniya svyatых apostolov) nomli kitobchada Iso Masihning alohida tanlagan shogirdlari – havoriylarning nasroniylik dinini tarqatish yoʻlida qilgan ishlari, nutqlari, quvilishlari, xristian jamoalarining vujudga kelishi haqida hikoya qilinadi.

Pavel, Iakov, Petr, Ioann, Iuda nomli havoriylarning turli mamlakat va podshohlarga xristianlik dinining aqidalarini bayon qilib yoʻllagan maktublari ham Injilda jamlangan.

Vahy (Otkrovenie) deb nomlangan kitob xudo tomonidan avliyo Ioangga yuborilgan bashorat hisoblanadi. Unda oxirzamonda yuz beradigan musibatlar, Iso Masihning dunyoga qaytishi, Yaʼjuj-Maʼjuj, Dajjol, qiyomat, jannat va jahannam tasvirlanadi.

Islom dini ilohiy kitoblar sifatida Injilni ham tan oladi.

Injil- Alloh taolo Iso (as)ga Jabroil orqali ogʻzaki tarzda nozil qilgan kitob. Musulmonlar bunga imon keltiradilar. Bu haqda Qurʼonda bir necha oyat keltiradi. “Va unga kitobni, xikmatni, Tavrot va Injilni oʻrgatadi” (Oli Imron surasi 48-oyat). “Ularning izlaridan Iso ibn Maryamni oʻzidan oldingi Tavrotni tasdiqlovchi qilib yubordik. Unga Injilni berdik. Unda xidoyat va nur bor. U oʻzidan oldingi Tavrotni tasdiqlaguvchidir. Qurʼonga koʻra, Injilda Muhammad (sav)ning kelishlari haqida bashorat qilingan, biroq Injil matni nasoralar tomonidan buzilgan, oʻsha ilohiy kitobning asl matni hozirda yoʻq. Chunki, Iso (as) ning vaqtlarida Injil kitob shaklida boʻlmagan. Isodan keyin “Injil vahiy qilinganlar” koʻpayib ketdi. Ixtiloflarni oldini olish maqsadida Imperator Konstantin 325 yilda Nikeyada katta majlis chaqirdi. Unda 2048 patriarx qatnashdi. Soʻngra turli jamoalardan oʻnlab injillar olib kelishdi. Imperator Injillardan eng ishonchlisini tanlab olish vazifasini qoʻydi. Ulardan 4 dona I.ni tanladilar. Xozirda eʼtiqod qiladigan Injillar oʻshalardir.

Xristianlikda Yangi Ahd tarkibiga kirgan Injil 4 qismga boʻlinadi:

1.Matto- (Matfey) I.i. Bu eng qadimgi Injil hisoblanadi. U Iso (as)dan 4 yil keyin yozilgan. U ibroniy tilida yozilgan edi. Ammo, oʻsha asl nusxasi ham hozirda yoʻq. Oʻshaning tarjimai bor. Lekin tarjimon ham, u qaysi matndan tarjima qilgani ham hozirgacha maʼlum emas. Undan tashqari I.ning muallifi Mutto Isoning xavoriylaridan emasdi. Keyinroq uni xoin Yahuzoning oʻrniga saylashgan edilar.

2.Markos (Mark) I.i. Bu yunon tilida Iso (as) dan 23 y keyin yozilgan. Ammo uni kim yozgani noaniq. Baʼzilari uni Pyotr yozgan, boshqalari Pyotrning oʻlimidan keyin Markos yozgan deyidilar.

3.Luka I.i. bu kitob Isodan 20 y keyin yozilgan. Luka Isoning shogirdlaridan emas. U Polning shogirdi. Uning ustози ham Isoni ko'rgan emas. Undan tashqari Pol norasolarga dushman bo'lgan yahudiylardan edi. Shuning uchun norasolarga qarshi ko'p buzg'unchiliklar qilgan.

4.Yuhanno (Ioann) I.i. Bu I.Isodan 32 y keyin yozilgan. Ba'zilar uni isoning shogirdlaridan biri Yuhanno ibn Zabdiy yozgan deyilar. 500 taniqli noraso olimlari ishtirokida yozilgan "Britaniya ensiklopediyasi" bu kitobni qalbaki kitob degan. Islom dini ilohiy kitoblar sifatida Injilni ham tan oladi.

Xristianlikdagi yo'nalishlar. Eng birinchi ajralish xristianlikda IV-V asrlarda ro'y bergan, ya'ni Iso masihni talqin qilishda farqlanadigan ikkita diniy-aqidaviy yo'nalishlar – monofizilar va nestorianlar yuzaga kelgan.

Hozirgi kunda monofizitlikka Yaqin sharqdagi Yakobitchilar, Janubiy Hindiston va Efiopiya xristian axolisining 96 foizi amal qiladi. Nestorianlar, eng avval, Ossuriylar orasida tarqalgan. Bularning diniy jamoalari hozirda ham Suriyada, Iroqda, Eronda, Hindistonda bor.

1054 yilga kelib xristianlikning pravoslav va katolik cherkoviga bo'linishi rasman tan olingan. Bu bo'linish Rim imperiyasining Sharqiy va G'arbiy qismlari orasidagi feodal munosabatlarining tafovutlarini o'zida aks ettirgan; Rim papasi ilan Konstantinopol patriarxi o'rtasidagi jamii xristian cherkovlari ustidan yakka xokimlik o'rnatish uchun shiddatli kurashlar bilan bog'liq bo'lgan. Xristianlikning alohida va mustaqil g'arbiy tarmog'i Rim katolik cherkovi, ya'ni umumiy, jahon Rim cherkovi deb atala boshlagan. Dunyoviy xokimiyatga tobe bo'lgan Shprqiy xristianlik grek-kefilik (grekcha – butun dunyo) yoki izchil, sobitqadam (ortodoksal) xristianlik deb atala boshlangan. Pravoslaviye va katolisizm oralarida umumiylik ham, bir-biridan farqlanadigan jahatlari ham bor. Katolisizmdan bir necha Yevropa cherkovlari ajralib chiqishi natijasida xristianlikda protestantlik xarakatlari vujudga kelgan. Buning doirasida lyuteranliq anabaptizm, anglikanlik va kalvinizm cherkovlari shakllangan. Har bir cherkovning asosiy marosimlari jihatidan o'zlariga xos bo'lgan tomonlarga ega bo'lishi bilan bir qatorda, bular ham o'z navbatida bir necha yunalishlar, mazhablar va oqimlarga bo'lindi.

2-reja bayoni. Katolitsizm va pravoslavlik dini yo'nalishlarining o'zaro farqli tomonlari.

Katolitsizm. Xristianlikning yirik yo'nalishlaridan biri katoliklardir. U evropa, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida tarqalgan bo'lib, muxlislari taxminan 850 mln. kishini tashkil etadi.

Katolitsizm *umumiy, dunyoviy* degan ma'nolarni ifodalaydi. Uning manbai - uncha katta bo'lmagan Rim Xristian jamoasi bo'lib, rivoyatilarga ko'ra uning birinchi episkopi apostol Petr bo'lgan.

Katolitsizmda Bibliyani sharhlash huquqi faqatgina ruhoniylarga beriladi, Chunki ular uylanmaslik haqidagi diniy talabga amal qiladilar. Diniy ibodatlar dabdabali va sohtalashtirilgan ko'rinishga ega, diniy o'qish, duo, iltijolar lotin tilida olib boriladi. Provslaviyadagi kabi katolitsizmda ham farishta, ikona, ilohiy kuch, chirimaydigan marhum jasadlariga sig'inish odatlari mavjuddir.

Katolitsizm xristianlikning yo'nalishlaridan biri sifatida uning asosiy aqida va qoidalarini tan oladi, biroq diniy ta'limot, sig'inish va tashkiliy masalalarda bir qator xususiyatlar bilan ajralib turadi.

Katolik diniy ta'limotning asosini Muqaddas kitob va Muqaddas yozuvlar tashkil qiladi. Biroq Pravoslav cherkovidan farqli o'laroq katolik cherkovi Muqaddas yozuvlar deb nafaqat

avvalgi etti Butun Olam Xristian Soborlarining qarorlarini, balki hozirgacha bo'lib o'tgan barcha Soborlar qarorlarini, bundan tashqari Papaning maktublari va qarorlarini ham hisoblaydi.

Katolik cherkovi tashkiloti qat'iy markazlaShuv bilan ajralib turadi. Rim papasi bu cherkovning boshlig'i. U diniy axloq masalalariga oid qonun-qoidalarini belgilaydi. Uning hokimiyati dunyoviy soborlar xokimiyatidan yuqori turadi.

Katolik cherkovining markazlaShuvi jumladan diniy ta'limotni noan'anaviy tahlil qilish (sharhlash) huquqida aks etgan dogmatik taraqqiyot tamoyilini keltirib chiqaradi. Masalan, Pravoslav cherkovi tomonidan tan olingan diniy ramzda ta'kidlanishicha, Muqaddas ruh *ota xudodan* kelib chiqadi. Katolik aqidasi ko'ra esa Muqaddas ruh *ota xudodan* va *o'g'il xudodan* kelib chiqadi. Cherkovning najot borasidagi roli haqida ham o'ziga xos alohida ta'limot shakllangan. Najotning asosi imon va xayrli ishlar hisoblanadi. Cherkov, Katolik ta'limotiga ko'ra, xayrli zaruriy ishlar xazinasiga Iso tomonidan yaratilgan «Xayrli ishlar xazinasiga» ega.

Cherkov Iso, Bibi Maryam, Muqaddas Ruh nomidan bu xazinani tasarruf qilish, undan muhtojlarga ulashish, ya'ni gunohlarni avf etish, nadomat chekuvchilarga pul yoki tufha evaziga avf - kechirim tufha qilish huquqiga ega. Pul evaziga yoki cherkov oldidagi xizmatlari uchun gunohlarini kechirish - *indulgentsiya* haqidagi ta'limot mana Shundan kelib chiqqan.

A'rof haqidagi (do'xax va jannat oralig'idagi mavze) aqida faqat katolik ta'limotida mavjud. Gunohi katta bo'lmagan gunohkorlarning ruhi u erda o'tda kuyadi (yehtimol bu vijdon va nadomat azobining ramziy in'ikosidir), keyin jannatga yo'l topadi. Ruhning a'rofda bo'lish muddati xayrli ishlar tufayli qisqartirilishi (ibodat va cherkov foydasiga xayr-yehson qilish bilan) mumkin. Bu ibodat va xayr ehsonlar o'lganlar xotirasiga yaqinlar tomonidan qilinadi.

A'rof haqidagi ta'limot I asrdayoq paydo bo'lgan edi. Pravoslav va Protestant cherkovlari a'rof haqidagi ta'limotni rad etadi.

Bundan tashqari, pravoslav dini ta'limotidan farqli o'laroq, katolik yo'nalishida papaning begunohligi haqidagi aqida ham bor. Bu aqida 1870 yildagi birinchi Vatikan soborida qabul qilingan. Farb cherkovining Bogoroditsaga nisbatan alohida e'tibori 1950 yilda papa Piy XII tomonidan kiritilgan, Bibi Maryamning meroji haqidagi aqidada o'z aksini topdi. Katolik ta'limoti pravoslav ta'limoti kabi etti asrorni tan oladi, biroq bu asrnlarni talqin qilinishidan qarashlar mos kelmaydi. Masalan, pricheshenie (tamaddi) qilish qattiq non bilan, (pravoslavieda bo'ktirilgan non bilan) dunyoviy (miryane)larga non va vino bilan Shuningdek faqat non bilan amalga oshiriladi. Cho'qintirish sirini o'tash paytida suv sepiladi (cho'qintiriluvchiga), muz ostidagi suvga cho'ktirilmaydi.

Miropomazanie (cho'qinuvchining peshonasiga eley surkash) etti-sakkiz yoshlarda amalga oshiriladi, go'dakligida emas. Bunda o'spirin (bola) yana bitta ismga ega bo'ladi. Bunda u o'sha avliyoning qilmishlari va g'oyalarini maqsad qilib qo'yadi. Shunday qilib, bu rusumning ijro etilishi imon mustahkamlanishiga xizmat qilishi zarur.

Pravoslavlarda nikohsizlik rusumini faqat qora ruhoniylar qabul qiladi. Katoliklarda esa nikohsizlik (tselibat) Papa Grigoriy VII tomonidan joriy qilingan qoidaga ko'ra barcha ruhoniylar uchun majburiydir.

Din markazi - ehromdir. Dinning muhim elementlari cherkovga qatnovchilar hayotining maishiy asoslarini tartibga soluvchi bayramlar, Shuningdek postlardir.

Milodiy post katoliklarda *advent* deb ataladi. U Avliyo Andrey kunidan keyingi birinchi yakshanbada - 30 noyabrda boshlanadi. Ular uch ibodat bilan: yarim tundagi, ertalabki va kunduzgi ibodat bilan nishonlanib, Bibi Maryam homilador bo'lishi, Isoning tug'ilishi va dindorning qalbida

bo'lishi kabi ramziy ma'noni anglatadi. O'sha kuni tazim qilish uchun ehromlarda go'dak Isoning figurasi qo'yilgan yaslilar o'rnatiladi.

Katolik ierarxiyasida uch darajadagi ruhoniylar bor: diakon, ruhoni (kyure, pater, kenz) episkop. Episkopni papa tayinlaydi. Papani kardinal kollegiya saylaydi. Bunda umumiy ovozning uchdan ikki qismi plyus 1-ovoz (yashirin ovoz berish yo'li bilan) II Vatikan soborida (1962-1965 yillar) cherkov hayotining barcha jabhalarini yangilash, zamonaviylashtirish jarayoni boshlandi. Birinchi navbatda ibodat an'analarga tegishli bo'ldi. Masalan, ibodatni lotin tilida olib borishdan voz kechildi.

Pravoslavlik. Pravoslav oqimi xristianlikning uch asosiy yo'nalishidan biri o'laroq, tarixan uning sharqiy shahobchasi sifatida ro'yobga chiqdi va shakllandi. Bu oqim asosan Sharqiy evropa, Yaqin Sharq va Bolqon mamlakatlarida tarqalgan. Pravoslav atamasi yunoncha *ortodoksiya* so'zidan olingan bo'lib, ilk davr xristian yozuvchilari asarlarida uchraydi. Pravoslaviening kitobiy asoslari Vizantiyada shakllandi, Chunki bu yo'nalish u erdagi hukmron din edi.

Muqaddas kitob bo'lmish Injil va muqaddas o'gitlar IV-VIII asrlardagi etti butxona Soborlarining qarorlari, Shuningdek Afanasiy Aleksandriyskiy, Vasiliy Velikiy, Grigoriy Bogoslov, Ioann Damasskiy, Ioann Zlatoust kabi yirik cherkov xodimlarining asarlari ushbu oqim ta'limotining asosi deb tan olingan.

Xristianlikning Sharqiy tarmog'i bo'lmish pravoslaviyaning rivojlanishi jarayonida 14 Mustaqil (avtokefal) cherkovlari: Konstantinopol, Aleksandriya, Antioxiya, Quddus, Rus, Gruziya, Serb, Rumin, Bolgar, Kipr, ellada, Albaniya, Polsha, Chexoslovakiya, Amerika cherkovlari shakllangan.

Pravoslav oqimida sirli rasm-rusumlar muhim o'rin egallaydi. Cherkov ta'limotiga ko'ra, bunday paytlarda Xudo tomonidan dindorlarga alohida savoblar nozil bo'ladi.

Cho'qintirish - sirli hodisasi. Bunda dindor o'z tanasini uch marta suvga botirishi Xudotani, O'g'ilni va Muqaddas ruhni chaqirish bilan ruhiy tug'ilishni kasb etadi.

Badanga eleyni surkash ham sirli bo'lib, bunda dindorga Muqaddas ruhning ruhiy hayotga qaytaruvchi va chiniqtiruvchi ehsonlari ulashiladi.

Poklanishning sirliligi. Unda dindor non va vino ko'rinishida o'z badanida Iso qonini abadiy hayotga tayyorlaydi.

Nadomatning sirliligi Shundaki, dindor o'z gunohlarini din peshvosi oldida tan oladi, din peshvosi esa uning gunohlarini Iso nomidan kechiradi.

Ruhoniylikning sirliligi u yoki bu shaxsni ruhoni darajasiga ko'tarish uchun episkopning qo'lini o'sha shaxs badaniga tegizishi (yoki qo'yishi) orqali amalga oshiriladi.

Badanni eley bilan ishqalash sirida Xudoning ruhiy va jismoniy zaifliklarni tuzatuvchi lutfu marhamatidan umid qilinadi.

Pravoslav cherkovi bayramlar va diniy marosimlarga alohida ahamiyat beradi. *Post* diniy marosimi odatda, katta cherkov bayramlaridan oldin o'tkaziladi. Postning mohiyati inson ruhini tozalash va yangilash, diniy hayotning muhimi voqealariga tayyorgarlikdan iborat.

Rus Pravoslaviyasining ko'p kunlik postlari to'rtta: Pasxa oldidan, Pyotr va Pavel kuni oldidan, Bogoroditsa uyqusidan oldin va Iso tug'ilgan kundan oldin.

Buyuk bayram ichida Pasxa birinchi o'rinda turadi. Pasxa Isoning o'lganidan so'ng qayta tirilganini nishonlab o'tkaziladigan bayram. U yilning 22 apreldan may oyining birinchi yakshanbasigacha o'tkaziladigan bayram. U «Ottsovskiy den»dan avval o'tkaziladi. Pasxaning tarixi yahudiylikdagi *pesax* bayrami bilan bog'liq bo'lib, u yahudiylarning Misrdan qochib chiqishi va

ozodlikka erishishini nishonlanishidir. Xristianlik yahudiylikdan to'la ajralib chiqqach pasxa yangicha tus olgan.

Pasxadan so'ng pravoslav dinining o'n ikki kunlik o'n ikki muhim bayrami boshlanadi. Ular: *Iso tug'ilishi, Sretenie, Isoni cho'qintirish, Preobrajenie, Quddusga kirish, Isoning osmonga ko'tarilishi, Troitsa Muqaddas butning osmonga ko'tarilishi, Blagoveshanie* (Injilning nozil bo'lishi), *Rojdestvo Bogoroditsi* (Isoning xochga osilishi) va hakozi. **Pravoslav oqimidagi diniy mansablar.** Pravoslav oqimidagi diniy mansablar. Pravoslav cherkovida ruhoniylar uch tabaqaga bo'linadi: 1) diakon, 2) ruhoni (svyashennik), 3) episkop.

Diakon (grek. "xizmatchi") ruhoniylarning eng quyi tabaqasi hisoblanadi. U mustaqil hech qanday ibodatni boshqara olmaydi, balki faqatgina ruhoni yoki episkopga ibodat marosimini o'tkazishda yordam bera oladi, xolos. Uni ruhoniylar sirliligiga (tainstvo) episkop qabul qiladi. Katta diakonlar protodiakon, rohib diakonlar ierodiakon, katta ierodiakonlar arxidiakon deb ataladi.

Ruhoni (svyashennik) yoki ieriy pravoslav ruhoniyligining ikkinchi tabaqasi hisoblanadi. U boshqalarni ruhoniylikka bag'ishlash va cherkov suvini muqaddaslashtirishdan boshqa barcha sirli marosimlarni bajara oladi. Kichik ruhoniylar ieriy, katta ruhoniylar protoieriy va eng katta ruhoniylar protopresviter deb nomlanadi.

Yepiskop yoki arxiieriy ruhoniylarning eng oliy unvoni hisoblanadi. Episkoplar barcha ibodat va sirli marosimlarni bajara oladilar. Shuningdek, ular ma'lum bir shahar, viloyat cherkovi yoki eparxiyani boshqara oladilar. Nisbatan kattaroq episkoplar arxiepiskop deyiladi. Poytaxt shaharlarning episkoplari mitropolit deb ataladi. Pravoslav cherkovining eng oliy mansabi patriarxdir.

3-reja bayoni. Protestantlik harakatining shakllanishi va rivojlanishi.

Protestantizm. Protestantizm tarixi Martin Lyuterdan (1483-1546) boshlanadi. U birinchi bo'lib katolik cherkovi bilan aloqani uzdi va protestant cherkovining asosiy qoidalarini ishlab chiqdi va uni himoya qildi. Bu nizomga ko'ra, insonning Xudo bilan bevosita muloqoti mumkin. Lyuterning diniy va dunyoviy hokimiyatga qarshi chiqishlari, katolik dindorlarning imonni va vijdonni inson bilan Xudo o'rtasidagi vositachi sifatida nazorat qilish haqidagi mulohazalarga qarshi chiqishi jamoatchilik tomonidan favqulodda diqqat bilan tinglandi.

Protestantizm atamasi «protest» (norozilik) so'zidan kelib chiqqan. Bunday nomni olishiga sabab 1526 yilda Shpeer reyxshtagi nemis lyuterchi knyazlari talabi bilan har bir nemis knyazi o'zi va fuqarosi uchun xohlagan dinni tanlash huquqiga ega ekanligi to'g'risida qaror qabul qildi. Ammo 1529 yilda ikkinchi Shpeer reyxshtagi bu qarorni bekor qildi. Bunga qarshi imperiyaning barcha shaharlari va besh knyazlik norozilik (protest) e'lon qildi

Protestantizmning mohiyatiga ko'ra, ilohiy lutfu marhamat insonlarga cherkovning vositasisiz, bevosita in'om etiladi. Inson najot topishi uning shaxsiy e'tiqodi va Isoning vositasi orqali ro'y beradi. Avom ruhoniylardan farqlanmaydi, ruhoniylar hamma dindorlarga bir xilda joriy etiladi. Protestantlik diniy marosimlarning ko'pchiligini bekor qildi, faqatgina lyuteranlikda non va vino bilan cho'qintirish saqlanib qoldi.

O'lganlarga bag'ishlangan duo o'qish, aziz-avliyolarga sig'inish, muqaddas murdalarga, sanamlarga topinish bekor qilindi. Ibodat uylari ortiqcha hashamlardan, mehroblardan, sanamlar, haykallardan tozalandi, ruhoniylarning uylanmaslik shartlari bekor qilindi. Bibliya milliy tillarga tarjima qilindi, uni sharhlash har bir xudojo'yning eng muhim burchi bo'lib qoldi.

Asrorlardan faqat *cho'qinish* va *mansublik* (cherkovga) e'tirof etiladi. Ibodat va`z-nasihatlar, birgalikdagi ibodat va suralarni kuylashdan iborat bo'ldi. Protestantlar Bogoroditsa shaxsiyatini, a`rofn tan olmaydilar.

Tavba-tazarru ruhoniy (avliyo) oldidagi birgina tazarrudan iborat emas. Birinchi to'rt tezisda, Lyuter ta'kidlaydiki, haqiqiy tavba uzoq muddatli jarayondir, birgina xatti-harakat bilan ro'yobga chiqmaydi.

Papa faqat o'zi belgilagan jazoni olib tashlashi mumkin. Cherkov hech qaysi samoviy jazodan insonni ozod qila olmaydi. Tavba-tazarru qonunlari tiriklar uchun joriy qilinadi (belgilanadi). Bu erda va keyingi bir qancha tezislarda papaning a'rof ustidan hukmronligi rad etiladi.

Lyuter bir necha tezislarda ta'kidlaydiki, chindan tavba qilgan, nadomat chekkan xristian (nasoro) «samoviy jazoga shoshilmaydi, ya'ni unga samoviy jazo joriy etilmaydi».

Cherkovning haqiqiy xazinasi muqaddas Injil va xudo marhamatidir. Lyuterning ta'kidlashicha, «xayrli amallar xazinasi»ning mavjudligi kambag'allar uchun emas boylar uchun foydalidir, bu xazinalarga papa marhamati bilan emas, o'z amallari bilan eriShuvi mumkin. Bu xil vositalar bilan Xudoning mehrini qozonmoqni Lyuter sarob deb ataydi.

Haqiqiy xristian Isoga ergashish istagi bilan yonmog'i zarur. Najot yo'li ruxsatnoma yorlig'ida emas, balki chin yurakdan nadomat chekmoq va tavba qilmoqdadir.

1517 yili 31 oktyabrda jamoatchilik hukmiga havola qilingan tezislar Shundan iborat. Keyinchalik bu kun protestantlar bayrami bo'lib qoldi.

Hozirgi kunda Markaziy Osiyodagi protestantlik birlashmalari yangi mustaqil respublikalarda demokratik o'zgarishlarga muvofiqlashishga intilyaptilar; islohot jarayonlarining rivojlanish to'liqlarida targ'ibot ishlarini faollashtirmoqdalar; dindorlarning ijtimoiy jarayonlardagi faol ishtirokchilarining o'zlariga ma'qul bo'lgan shakllarini belgilamoqdalar.

4-reja bayoni. Hozirgi davrda xristian dinining rivojlanishi va dunyo davlatlaridagi o'rni.

O'zbekistonda xristian dinining rivojlanishi tarixi va hozirgi zamon.

Xristianlikning sharqqa tomon tarqalishi, O'zbekistonda xristian cherkovining tutgan o'rni. XI asrning oxirida xristianlikning Sharqqa tomon harakati va tarqalishi ommaviy tus oldi. Bu dinni mahalliy aholi orasida tarqatuvchilar Sharqning ayrim viloyatlariga ilgariroq kirib borganlar. 280 yildayoq Talos (merke) da xristian cherkovlari qurilgan bo'lib, Samarqandda (301 yildan), Marvda (334 yildan), Hirotida (430 yildan), Xorazmda, Marida va Markaziy Osiyoning boshqa shaharlarida yepiskopliq kafedra, missiyalar, keyinchalik Samarkandda, Marvda (430 yillar), Hirotida (558 yillar) 612 yepiskoplikdan iborat diniy xududiy jamoalar, birlashmalar bo'lgan. Xurosonliklar va so'g'diyonaliklar buddistlar, zardushtiylar, moniylar bilan bir qatorda xristianlar ham bo'lgan. Ular qoraxitoylar va sosoniylarga qaram yerlarda ta'qib qilinganlar.

O'rta Osiyo hududida islom tarqatilgan davrlarda bu din bilan xristianlik o'rtasidagi kelishmovchiliklar keskinlasha boshlagan. Biroq, X asrgacha samarqand, Xorazm, Toshkent viloyatlarida xristianlarning manzilgohlari bo'lgan. Hatto Beruniy yashagan davrda ham (973-1050) Marvda pravoslav mitropoliyasi bo'lgan.

Ana shu davrlarda xristianlik Kavkazda ham tarqala boshlagan; Armaniston (301 yil) va Gruziyada (318 yili) davlat diniga aylangan. Kavkaz Albaniyasi hududida esa (hozirgi Ozarbayjon va Janubiy Dog'iston hududi) IV-VIII asrlarda hukmron din hisoblangan.

O'sha davrdagi ko'pdan-ko'p va bir-biriga qarshi kurashayotgan dinlar orasidagi Sharqning hukmronlari tomonidan eng ko'p homiylik ko'rsatilgan din xristianlikning sharqiy yo'nalishi

bo'lmish nestorianlik bo'lgan. Xalif saroylarida nestorianlik patriarxlariga butun sharq xristianligining homiysi sifatida qaralgan, patriarxning qarorgohi esa Konstantinopoldan Bag'dodga ko'chirilgan. Nestorianlar xristianlikni Turkistonda, amurgacha bo'lgan Shimoliy va G'arbiy Xitoyda targ'ib qilganlar. Nestorianlikning Markaziy Osiyodagi tayanchi va islomga qarshi kurashdagi markazi 1257 yildan so'nggina o'z faoliyatini to'xtatgan Samarqand mitropoliyasi bo'lgan.

Hozirgi mustaqil O'zbekistonda 130 dan ziyod millat va elat yashaydi. Bular orasidagi dindorlar 16 konfessiyaga, ya'ni diniy uyushmaga e'tiqod qiladi. Bular doirasida islomdan so'ng 2-o'rinni xristianlikning pravoslaviye oqimi egallaydi. Uning bir necha cherkovi va markaziy uyushmasi, chunonchi baptist, iyegovist, adventist kabi sektalari bor.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va unga asoslanib ishlab chiqilgan vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagim yangi tahrirdagi e'lon qilingan qonunga asosan respublikadagi barcha diniy uyushmalar erkin, oshkora, teng huquqli tarzda faoliyat ko'rsatmoqdalar. Bu huquq va erkinliklar qonun bo'yicha kafolatlangan.

Respublikamizdagi barcha konfessiyalar orasida totuvliq hamjixatlilik mavjud bo'lib, xalqimizni tarbiyalashga, tinch va xavfsizlikni saqlashga xristianlik jamoalari ham salmoqli hissa qo'shmoqdalar.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Xristianlikning vujudga kelishi sabablari nimalardan iborat?
2. Xristianlik ta'limotining asoslarini aniqlang.
3. Xristianlikning muqaddas rivoyatlariga qaysi manbalarni kiritishimiz mumkin?
4. Xristianlikning ulug' bayramlarini sanab bering.
5. Qachon va nima sababdan xristianlikda bo'linish vujudga kelgan?
6. Katolitsizmning xususiyatlari nimalardan iborat?
7. Katolitsizmda cherkovlarni boshqarishning o'ziga xos xususiyati nimalardan iborat?
8. Protestantizmning katolitsizmdan farqlarini aniqlang?
9. Protestantizm qachon va qanday sabablarga ko'ra vujudga kelgan?

6-MAVZU. ISLOM DINI.

Reja:

1. Islom dinining paydo bo'lishidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy sharoitlar.
2. Payg'ambarlik va vahiyning talqini.
3. Dastlabki musulmonlar jamoasining tashkil topishi. Hijrat va Madinada tashkil etilgan ilk islom davlatida boshqaruv shakli.
4. Islom dinining besh sharti.
5. Qur'on, hadis, fiqh, aqida ilmlarining shakllanish tarixi. Hozirgi davrda islom sivilizasiyasining ahamiyati.

Tayanch so'z va iboralar: Islom, Qur'oni Karim, aqida, Kalom ilmi, hadis, fiqh, sunniylik, shialik.

1-reja bayoni. Islom dinining paydo bo'lishidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy sharoitlar.

Islom dunyoda keng tarqalgan jahon dinlaridan biri. Osiyo qit'asidagi Eron, Pokiston, Afg'oniston, Turkiya, kabi ko'pgina davlatlar, Arabiston yarim oroli, Iordaniya, Suriya, Afrika qit'asidagi Marokash, Jazoir, Tunis, Liviya, Misr Arab Respublikasi, Somali singari mamlakatlar xalqlari, Efiopiya, Sudan, Malayziya, Indoneziya xalqlari, Livan, Hindiston, Xitoy hamda Filippin aholisining ma'lum bir qismi, Evropa qit'asida esa Bolqon yarim orolida yashovchi xalqlarning bir bo'lagi islomga e'tiqod qiladi. Islom Markaziy Osiyo, Zakavkaze va SHimoliy Kavkaz, Volgabo'yi, G'arbiy Sibir va boshqa ayrim rayonlarda yashovchi aholining bir qismi ongi va turmushida mavjud bo'lib, bu xalqlar turmush tarziga o'z ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Yer yuzida Islomga e'tiqod qiluvchilar, ya'ni musulmonlar qariyb 1,5 milliardga etadi va ular soni jixatidan xristianlardan so'ng ikkinchi o'rinda turadi. Islom so'zi arabcha "Alloxga o'zini topshirish", "itoat etish", "taslim bo'lish", "bo'ysunish" ma'nolarini beradi. Islomning asosiy manbasi bo'lmish Qur'oni Karim VII asrda nozil bo'lgan bo'lsa-da, islom ta'limotiga ko'ra bu din, er yuzida insoniyat paydo bo'libdiki, barchalariga nozil qilingan. Muhammad a.s. avvalgi payg'ambarlar ishini davom ettirgan, ular dinini qayta tiklagan, qiyomat oldidan yuborilgan oxirgi payg'ambar – Nabiy va Rasul deb tan olinadi.

2- reja bayoni. Payg'ambarlik va vahiyning talqini.

Muhammad ibn Abdullox ibn Abd al-Muttalib Arabiston tarixida "fil voqeasi" nomi bilan mashxur jangdan 50 kun keyin tavallud topdi. Misrlik munajjim Maxmud poshoning aniqlashicha payg'ambarning tavallud topishi milodiy sananing 571 yil 21 aprel kuniga to'g'ri keladi. Otasi Abdullox Muhammad a.s. tug'ilmasidan oldin savdo ishi bilan Shomdan qaytayotib Yasrib(Madina)da vafot etdilar va o'sha erga dafn etildi.

Bola sog'lom va ziyrak bo'lib o'sishi uchun arablarda saxroyi ayollardan sut-ona topib emizish odati bor edi. Ana shu odatga ko'ra, Bakri qabilasidan bir guruh ayol go'dak izlab shaharga keladi. Muhammad a.s.ga sut-ona bo'lish Abu Zuaybning qizi Xalimaga nasib etdi.

Rivoyat qilinishicha, Rasulullox Xalimaning qo'ylarini yaylovda boqib yurganlarida ikki oppoq kiyimli kishi kelib u kishining ko'kraklarini yorishadi-da, ichlaridan bir narsani olib tashlab, kesilgan joyni tikib qo'yishadi. Muhammad a.s.ni ikki oq kiyimli kishi olib ketishayotganini ko'rgan akalari o'z onalariga bu xabarni etkazishganida bibi Xalima voqea sodir bo'lgan joyga zudlik bilan etib keladilar. Bu vaqtda kichkina Muhammad a.s. ranglari bir holatda

turgan edilar. Keyin ularga bo'lgan voqeani o'z og'izlari bilan gapirib beradilar. SHundan so'ng birovning farzandiga biror shikast etib qolishidan qo'rqqan Xalima bolani o'z onalariga topshiradi.

6 yoshlarida onalari Omina vafot etdi. 8 yoshgacha buvalari Abdulmuttalib qo'llarida qolib, buvalari vafot etgach amakilari Abu Tolib Muhammad a.s.ni o'z qarmog'iga oldi.

Muhammad a.s. 25 yoshga to'lganlarida Asad jamoasidan bo'lgan boy ayol Xadicha bint Xuvaylid u kishidan o'zining savdo karvoni bilan birga SHomga safar qilishni so'radi. Bu savdodan katta foyda tushdi. Muhammadning to'g'ri so'zlilik, xalollik, sadoqatlilik kabi yuksak insoniy fazilatlarini ko'rgan Xadicha yoshlari ancha katta bo'lishiga qaramay, taomilga zid ravishda unga sovchi qo'ydi. Muhammad tomonidan amakilari Abu Tolib, Xadicha tomonidan amakivachchasi Varaqa rozilik berib, nikox o'qildi.

Muhammad 35 yoshga kirganda makkaliklar Ka'bani ta'mir etishadi. Uni qayta qurish jarayonida muqaddas sanalgan "Xajar al-asvad" (g'ora tosh)ni kim o'rniga qo'yadi degan masalada tortishib qoladilar. Shunda ulardan biri - "ertalab Safo eshigidan kim birinchi kirib kelsa o'sha bizga xakamlik qilsin", deydi. Ertalab Safo tarafidan Muhammad a.s. kirib keladilar. Uni ko'rgan olamon "Muhammad al-Amin (ishonchli Muhammad)keldi" deb, xursand bo'lishadi. U choponini echib, "g'ora tosh"ni qo'yib, barcha qabila boshliqlarini cho'ponni baravariga ko'tarishga buyuradi va o'zi Qoratoshni joyiga qo'yadi. Muhammad o'zining zukkoligi bilan qabilalar o'rtasida chiqishi mumkin bo'lgan nizoning oldini oladi.

Muhammad 40 yoshga etganida ko'proq tarkidunyochilikni qo'msaydigan bo'lib qoldi. Makkaning 3 mil yuqorisidagi Xiro tog'ida joylashgan g'orga ketar va Ramazon oyini u erda kechirib, ibodat qilardi. G'amlagan ozuqalari tugagach bibi Xadicha oldiga qaytar, bu erda bir oz qolib, yana o'sha g'orga ketar edi. Uerda o'zlarini sukunatga berib, chuqur o'yg'a tolar edilar. G'oyibdan quloqlariga "Sen Alloxning elchisidan" degan tovushlar tovushlar eshitilar edi. Tush - xayollari to'g'ri chiqayotgandek edi.

Milodning 610 yilida Ramazoni sharif oyida Payg'ambar a.s. odatga ko'ra, yana Xirodagi g'orga chiqdilar. Jamiyatda yuz berayotgan noxaqliklar, insoniyat jabr tortayotgan zalolatdan qutulish - oliy haqiqatga erishish haqida fikr yuritir edilar. Xiro tog'ida avvalgi o'tgan payg'ambarlardan Ibroxim, Muso, Iso kabi "taxannus" ibodati bilan mashg'ul bo'lardilar. Imom al-Buxoriy bu ibodatga shunday sharx beradilar: "Payg'ambarimizning qaysi shaklda ibodat qilganligi so'raladigan bo'lsa, buning tafakkur va ibratdan iborat bo'lganligini aytamiz".

Payg'ambarlikning boshlanishi tushda ayon bo'la boshladi. Tushda ko'rilgan har bir narsa oydin bir subx kabi o'ngda yuz berardi. Kunlarning birida Xiro tog'idagi g'orda vaxy keltirgan malak Jabroil a.s. Payg'ambarga ko'rindi va:

1. O'qi, - dedi.

Payg'ambar:

2. Men o'qishni bilmayman, - dedilar.

Malak yana amrini takrorladi. Payg'ambar yana:

3. Men o'qishni bilmayman, - javobini berdilar. So'ngra malak uni boshdan oyoqqa qadar kuchlari qolmaguncha siqdi.

SHunda Payg'ambar:

4. Nimani o'qishim kerak? - deb so'radi.

U zamon farishta ilohiy oyatlarni o'qiy boshladi:

"Yaratgan rabbing nomi bilan o'qi! U insonni laxta qondan yaratdi. O'qi! Karami keng bo'lgan Rabbing xaqqi uchunki, U qalam bilan ta'lim berdi, insonga bilmaganlarini o'rgatdi".

Alaq surasining boshidagi bu oyatlar ilk kelgan vaxydir. Payg‘ambar a.s. bu oyatlarni qalbga joylab, farishtaning ketidan qaytardilar. SHundan so‘ng bo‘lib o‘tgan voqeadan nixoyatda xayrat va qo‘rquvga tushganlaridan darhol bibi Xadichaning xuzurlariga qaytdilar va “Meni o‘rab qo‘ying, o‘rab qo‘ying”, dedilar. Shundan so‘ng uzoq uyquga ketdilar. Uyg‘ongach bo‘lgan voqeani ayollariga so‘zlab berdilar. Xadicha buni yaxshilikka yoyib, Varaqa ibn Navfal nomli avvalgi samoviy kitoblardan boxabar bo‘lgan qarindoshlarining xuzuriga borib bu voqeaning tafsilotini so‘radilar. Varaqa bu ko‘ringan farishta Muso va Iso payg‘ambarlarga vaxyni olib tushgan - Jabroil ekanligini aytdi. U yana kelajakda Muhammad a.s. o‘z ummatiga payg‘ambar bo‘lishi, bu yo‘lda ko‘p aziyat chekishi, o‘z yurtidan chiqarilishi haqidagi xabarlarni bildirdi.

Rasululox yashirin da‘vatga o‘tdilar. Birinchi bo‘lib Xadicha bint Xuvaylid va amakivachchalari Ali ibn Abi Tolib imyon keltirishdi. Keyin Zayd ibn Xorisa, Abu Bakr imyon keltirishdi. Birinchilardan bo‘lib imyon keltirganlarni ko‘radigan bo‘lsak, ular ayollardan - Xadicha, erkaklardan - Abu Bakr, go‘daklardan - Ali ibn Abi Tolib, qullardan - Zayd ibn Xorisa bo‘ldilar. Ular jamiyatning turli tabaqalaridan bo‘lib, bu narsa islom hamma uchun ham munosib din ekanini ko‘rsatardi. Vaqt o‘tishi bilan jami musulmonlar 30 kishiga etdi. Ular qurayshiylarning yangi dinga qarshi ekanliklarini bilganliklari uchun o‘z dinlarini yashirin saqladilar.

Ilk musulmon bo‘lganlarning ichidan hech kimi va orqasida quvvatli suyanchig‘i bo‘lmaganlar mushriklarning ta‘qibiga uhradilar. Makka mushriklari Abu Bakr, Usmon ibn Affon kabi buyuk va badavlat zotlarga bir narsa deya olmas edilar. Ammo zaif bo‘lgan faqirlarni och va suvsiz tutishar, urar edilar. Ular orasida Bilol Xabashiy, Ammor ibn Yosir, Suxayb Rumiy, Xabbob ibn Arat, Abu Fakayxa kabi qullar hamda Lubayna, Naxdiyya, Zinnira, Ummu Abis kabi joriyalar bor edilar.

Mushriklar Usmon ibn Affon kabi musulmonlarga qo‘llaridan kelgan azoblarni berishdan chekinmayotgan edilar. Payg‘ambarga eng ko‘p dushmanlik qilganlar quyidagilar edilar: Abu Laxab, Abu Jaxl, Valid ibn Mug‘ira, Abu Sufyon, Umayya ibn Xalaf, Os ibn Voil.

Quraysh ulug‘lari Payg‘ambarning Alloh elchisi bo‘lganligini tan olgan edilar. Ammo hasad yuzasidan unga qarshi chiqar edilar. Buni Anas Abu Jahldan islom haqidagi fikrini so‘raganida u bergan javobdan bilsa bo‘ladi: “Biz bilan Xoshimiylar o‘rtasida qadimdan raqobat bordir. Sharafni o‘rtada bo‘lisha olmaymiz. Ular ziyofat bersalar, biz ham beramiz. Ular xayr-sahovat ko‘rsatsalar, biz ham ko‘rsatamiz; ulardan orqada qolmaymiz. Shunday barobar ketayotgan paytimizda ulardan biri o‘ziga ko‘kdan vaxy kelganini xabar beryapti. Biz bunga qanday qo‘shila olamiz? Valloxi, biz ularning Payg‘ambariga ishonmaymiz!..”.

Musulmon bo‘lmagan makkaliklar ham Muhammadning yuksak axloq egasi ekanini tan olar edilar. Musulmonlar safi kengayib Payg‘ambar amakilari - jasur Hamza undan so‘ng Umar ibn al-Hattobning imon keltirishlaridan mushriklar sarosimaga tushib qoldilar. Ular musulmonlarga ozor berishni yanada kuchaytirib yubordilar. Bu aziyatlardan holi bo‘lishlari uchun Payg‘ambar musulmonlarga Xabashistonga xijrat qilishni buyurdilar.

Xabashistonga ketishni istagan 11 erkak va 4 ayoldan iborat bo‘lgan birinchi guruh Makkadan yashirin ravishda chiqib, Qizil dengiz bo‘ylab ketdi. Ularning ichida Usmon ibn Affon va xotini Ruqiya (Payg‘ambarning qizi), Abu Xuzayfa va xotini, Zubayr ibn Avvom, Abdurrahmon ibn Avf, Abdulloh ibn Mas‘ud bor edilar. Guruh boshlig‘i Usmon ibn Maz’un edi. 15 kishi bir guruh holida vaxyning 5-yili Xabashistonga ketdilar. Ularni Xabashistonda juda yaxshi kutib oldilar. U erda yaxshi sokin hayot kechira boshladilar. Ularning bunday osoyishta hayot kechirayotganliklarini eshitgan boshqa musulmonlar ham bir yildan so‘ng ikkinchi bir guruh

holida u erga xijrat etdilar. Bu guruhning boshida Ja'far ibn Abu Tolib bo'lib (Alining akasi), ular 80 kishi edilar.

Xabashiston xalqi va uning podshoxi Najoshiy musulmonlar juda yaxshi munosabatda bo'ldilar.

Makkaliklar Abdumanof urug'ini Abu Tolib darasiga qamal qildilar. SHundan so'ng ikki marta Habashistonga xijrat qilindi.

Qamaldan so'ng Xadicha vafot etdi. Payg'ambar Toifga xijrat qildilar.

Makkada "Isro va Me'roj" voqeasi yuz berdi. Dushmanlar Rasululloxni o'ldirishga qaror qilishdi.

3- *reja bayoni.* Dastlabki musulmonlar jamoasining tashkil topishi. Hijrat va Madinada tashkil etilgan ilk islom davlatida boshqaruv shakli.

Madina davri. Madinaliklar Makkaga Payg'ambar xuzurlariga kelib islomni qabul qildilar. Ular bilan makkalik musulmonlar o'rtasida do'stlik aloqalari o'rnatildi. Makka mushriklarining musulmonlar ustidan tazyiqlari kuchaygach, Payg'ambar ularga Yasrib(Madina)ga xijrat qilishni buyurdilar. Ular ketidan o'zlari ham jo'nadilar.

Madinalik "ansor"("yordamchi")lar makkalik muxojirlarni juda samimiy kutib oldilar. Muhammad a.s.ning xijratlari rabi al-avval 8-kuni milodiy 622 yil 20 sentyabrda bo'ldi. Birinchi musulmonlar masjidi qurildi. Azonga asos solindi. Avs va Xazraj arab qabilalari va Banu Qurayza, Banu Qaynuqo', Banu Nadir qabilalari bilan o'zaro sulx tuzildi. Har tomondan musulmonlarga qarshi xujumlar uyushtirildi. Musulmonlar ularni muvaffaqiyat bilan qaytardilar. "Badr" g'azoti bo'ldi.

Madina davrida Muhammad payg'ambar etakchiligidagi islom jamoasi yaqin davlatlar orasida tuzilajak kuchli bir davlatning vazifalarini bajarib, turli arab qabilalarining va bir-biriga qaram bo'lgan qabilalar ittifoqlarining o'zaro dushmanligini yo'qotishga ular o'rtasida yaqin va uzoq muddatli sulx shartnomalarini tuzishga kirishgan edi.

Xijratning 6 - yilida Makka qurayshiylari bilan tuzilgan Xudaybiya shartnomasi eng muhim tarixiy xujjatlardan biridir. Bu sulx bitimi tuzilishi arafasida payg'ambar 1500 saxoba jangchilar bilan, o'q-yoy va nayzalar olmasdan, faqat qilich taqib, Baytulxaram ziyorati vaqtida qurbonlikka so'yiladigan 70 tuyani xaydab, Makka shaxriga yaqin keldilar. Bu kichik qo'shin Makka mushriklariga ko'p ko'rinib, ular Rasululloxni jang qilishga, urushga kelgan hisoblab, shaharga kiritmadilar. Har ikki taraf bir necha bor elchilar almashib, vaziyatni tushintirdilar. Musulmonlarning tinch maqsadda kelganiga ishonmasdan, Makka mushrikleri urushga tayyorlanib turdilar. Ammo joxiliyat zamonlarida ham Baytulxaramda - Ka'ba va uning atrofida jang qilish, qon to'kish man qilingan edi. Buni yaxshi bilgan Muhammad payg'ambar Usmon ibn Affon etakchiligidagi navbatdagi elchilarni yubordi. Makka mushrikleri ularni garovga, asir olganday, qaytarib jo'natmadilar. Musulmonlar ham Makka vakillarini vaqtincha ushlab turdilar.

Oradagi keskin vaziyatni yumshatish uchun payg'ambar Xudaybiya degan joyda Makka raislari bilan o'n yillik sulx shartnomasini tuzishni taklif etdilar. Xudaybiya shartnomasi musulmonlar uchun murakkab vaziyatda tuzildi.

Musulmonlar davlatining ilk tarixiy xujjatlaridan bo'lgan Xudaybiya bitimida quyidagi shartlar yozildi:

1. O'n yilgacha tarflardan hech biri urush boshlamaydi.
2. SHu muddat ichida musulmonlar va makkaliklar o'zaro aloqada bo'ladilar.

3. Ulardan kimki musulmon bo'lib Makkadan Madinaga voliy ruxsatisiz qochib kelsa, agar mushriklar uni talab qilsalar qaytariladi. Musulmonlar tarafidan murtad bo'lib qochgan kishilar qaytarilmaydi.

4. O'rtamizda dushmanlik tugatiladi, talonchilik va makr-xiylalarga yo'l qo'yilmaydi.

5. Istagan odamlar Muhammad bilan shartnoma tuzib, ittifoqqa qo'shilishni istasa-qo'shilaveradi, istagan odamlar qurayshiylar bilan shartnoma tuzib, ittifoqqa qo'shilishni istasa qo'shilaveradi.

6. Sen (Muhammad) bu yil Makkaga kirmay qaytib ketasan, kelasi yili biz Makkadan chiqib turamiz va musulmonlar uch kun Makkada turishlari ixtiyoriydir. O'sha vaqtda musulmonlarning qilichlari qinida bo'lib, boshqa hech qanday qurol bilan kelaydilar.

SHartnomaga musulmonlar jamoasi tarafidan Muhammad payg'ambardan so'ng Abu Bakr Siddiq, Umar ibn al-Xattob, Abduraxmon ibn Avf, Abdullox ibn Suxayl (g'uraysh vakilining o'g'li), Sa'd ibn Abi-l-Vaqqos, Muhammad ibn Maslama imzo chekdilar. Qurayshilar tarafidan Suxayl ibn Amr, Miqroz ibn Xafs, Xuvaylid ibn Abdul Uzza imzo chekdilar.

Xijratning 8-yili Makka fatx etildi. Xavozin, Saqif qabilalari bilan Xunayn janggi bo'ldi. Mushriklarning Lot, Manot, Uzzo nomli budlari yo'q qilindi.

Makka fatxidan so'ng islom xukumi Arabiston yarim orolida to'la g'alabaga erishdi. SHuni alohida ta'kidlash zarurki, Makkaning olinishi musulmonlar uchun g'oyat katta ahamiyatga ega bo'ldi, chunki shundan so'ng Madinadagi musulmonlar jamoasi Arabiston muxitida yagona davlat va siyosiy kuchga aylandi.

632 yili payg'ambar hajga borishga qaror qildi. Bu uning oxirgi haji bo'lganligi tufayli islom tarixida "Xajjatul vado" (xayrlashuv haji) deb nomlandi. Bu safarga to'qson ming musulmon otlandi. Zu-l-xijja oyining to'qqizinchi kuni Arafot tog'ida Payg'ambar a.s. islom dinining asosiy shartlarini bayon etgan "Vidolashuv xutbasi"ni o'qidilar. SHundan so'ng, deyarli barcha arab qabilalari islomni tan olib Payg'ambar a.s.ga elchi va maktublar yo'llay boshladilar.

Hajdan Madinaga qaytgan Payg'ambar bir oz muddatdan so'ng kasallikka chalindilar. Zotan "Moida" surasining 3-oyati nozil bo'lgan vaqtda saxobalarning ba'zilari payg'ambar hayotining oxirlashib qolganligini sezgan edilar.

Hijratning o'n birinchi yilida Payg'ambar a.s. vafot etdilar. Payg'ambarning vafot etgan kuni haqida tarixchilar orasida turli xil fikr-muloxazalar mavjud. Tarixchilar V.V.Bartold, Muhammad Xuzariy Sayid Amir Ali, marxum profesor Mutalib Usmonov, Doktor Abdulmun'im Majid Muhammad payg'ambarning vafot etgan kunini 632 yilning 8 iyun deb beradilar. Tarixchi Muhammad Rizo payg'ambari 632 yil 9 iyunda (11 xijriy yil, 12 rabiul avval) vafot etgan deb hisoblaydi.

4- reja bayoni. Islom dinining besh sharti.

Islom ta'limotining asoslari. Islom dinining ta'limoti uning muqaddas kitobi Qur'oni karimda bayon etilgan.

Islomning asosiy aqidasi — „Allohdan boshqa iloh yo'q va Muhammad uning rasuli“. Islom ilohiyotining ilk shakli — kalom bo'lib, VIII asrda Arab xalifaligida vujudga kelgan. Mutakallimlar Islom dini aqidalarini ishlab chiqqanlar.

Islom dini 5 „asos“ yoki „ustun“ (arkon ad-din al-islomiy)ga ega:

- 1) Kalimai shahodat;
- 2) Namoz o'qish;
- 3) Ro'za tutish;

- 4) Zakot berish;
- 5) imkoniyat topilsa haj qilish.

Namoz. Namoz islomda imondan keyin musulmonlarga farz qilingan ikkinchi amal hisoblanadi. Namoz arkonlari Qur’oni karimda to’liq bayon etilmagan bo’lsa ham, ammo u haqda ba’zi ko’rsatma va tartiblar berilgan. Namozning vaqti hamda ado etish tartiblari hadislar bilan joriy etilgan. Har kuni besh vaqt namoz ado etiladi.

Zakot. Zakot-“poklash” ma’nosini bildiradi, ya’ni ehtiyojidan tashqari 40 dan 1 foizi sadaqa qilinadi. Abu Homid G’azzoliyning Zakot va ro’za sirlari kitobida zakot berish va olishning tartib qoidalari haqida bayon qilgan. Unga ko’ra, eng birinchi zakot beruvchi qalbida niyat qilmog’idir degan. Agar zakot maxfiy bo’lsa o’zingiz uchun yaxshiroqdir degan. Unda yozilishicha, ba’zilar sadaqani ko’r kishiga bergan bo’lsa, boshqalari faqir o’tadigan, u o’tiradigan, sadaqani ko’rib, beruvchini sezmaydigan erga qo’yishardi. Ayrimlar uxlayotgan faqrning kiyimiga tashlab ketishardi, yana birlari faqir qo’liga boshqa birov qo’lidan berishardi. Zero, miskinning bilishi riyo va minnatdir. Chunki zakot baxillikni ketkazish va molga muxabbatni susaytirish uchundir. Zakotning yana bir shartlaridan birisadaqasini minnat va ozor bilan buzmasligidir. “Bergan sadaqalaringni minnat va ozor bilan yo’qqa chiqarmang!” (Baqara surasi, 264-oyat) Minnat qanday bo’ladi desa, Uni yodga olib gapirishdir. Yana aytilishicha, minnat-berish bilan xizmat qildirish, ozor esa uni kambag’allikda ayblashdir. Yana aytilishicha, minnat- bergani sababli olganga mutakabirlik qilish, ozor-unga tilanganligi uchn ayblash va o’dag’aylashdir. 1 Bir kuni payg’ambar as’hoblariga: “Sadaqa qilinglar”, dedilar. Shunda bir kishi: “Menda bir dinor or”, dedi. Dedilar: “O’zingga infoq qil”. Dedi: “Menda yana bir dinor bor”. Dedilar: “Xotiningga infoq qil”. Dedi: “Menda yana bir dinor bor”. Dedilar: “Farzandlaringga infoq qil”. Dedi:”Menda yana bir dinor bor”. Dedilar: “Xizmatkoringga nafaqa qil”. Dedi” “Menda yana bir dinor bor”. Shunda Payg’ambar sen o’zing yaxshi bilguvchiroqsan”, dedilar. Yana Payg’ambar aytadilar: “Oli Muhammadga sadaqa xalol bo’lmaydi, chunki sadaqa odamlarning chiqindilaridir”. “Tilanchining malomatini taomdan chumchuqning boshichalik miqdor bilan bo’lsada qaytaring!”. Iso (a.s) aytadilar: “Kimki tilanchini noumid qaytarsa, farishtalar bu uyni etti kun o’rashmaydi”.

Ro’za. Ro’za yilda bir oy: “ramazon” oyi davomida tutish farzdir.

Ro’zaning shartlari, amallari haqida Abu G’omid G’azzoliy “zakot va ro’za sirlari kitobi” da bayon etilgan. Unda ro’zador musulmon kishining axloqiy ma’naviy jihatlari ham bayon etilgan.

Haj. Haj qodir bo’lgan kishi uchun umrida bir marta Makka shahridagi Ka’bani ziyorat qilish va ibodat arkonlarini ado etishdan iboratdir. Abu Homid G’azzoliyning haj sirlari va Qur’on tilovatlari odobi kitobida Hajning fazilatlarini, Baytulloh va Makka va Madinaning fazilatlarini bayon qiladi. Islomda muqaddas joylarni ziyorat qilish, payg’ambar, shayxlar, avliyolarning qadamjolarini tavof etish keng tarqalgan. Musulmonlarning muqaddas joylar, ularga e’tibor xususida Qur’onda shunday deyiladi: “(Yey, Muhammad) eslang, Biz Ibrohimga Baytulloh o’rmini belgilab berib, (unga shunday dedik): “Menga biror narsani sherik qilmagin va Mening Baytimni tavof qiluvchilar, (namozda) tikka turuvchilar, ruku’ va sajda qiluvchilar (ya’ni hojilar va namozxonlar) uchun tozalab qo’ygin!” 2 Islomda masjid, sajdagoh muqaddas joy hisoblanadi. Sajdagohlarning eng ulug’i – Ka’badir. Islomdan avval qadimgi arablar sig’inadigan but va sanamlar shu ibodatxonada saqlangan. Muhammad SAV undagi haykallarni yo’q qilishni buyurib, islom dinining muqaddas sajdagohi sifatida e’tirof etganlar. Abu Homid G’azzoliy “Baytullohga termulishning o’zi ibodat hisoblanadi.” “Madina masjididagi namoz o’n ming namozga, masjid ul-

Aqsodagisi – ming namozga, Masjid ul-haromdagi namoz esa, yuz ming namozga (barobar)”, deb yozgan buyuk ulamo. **KA’BA**-(arab. –kub, to‘rt burchak)- islom dinining eng muqaddas ibodatxonasi, baytulloh (Allohning uyi) deb ham yuritiladi. Uni ziyorat qilish –haj va umraning asosiy amallaridan biri. Ka’ba Makkadagi eng katta Masjidi Haramning markazida joylashgan bo‘lib, 10x12x15 (bal 15 m va poydevori 12x10 m) o‘lchamdagi bino. Odatda, Ka’baning usti qora mato (kisva) bilan qoplangan bo‘ladi, unga Qur’onning Makka va hajga oid oyatlari zarhal bilan yozib qo‘yilgan. Ka’ba devorining tashqi g‘arbiy burchagida “Qora tosh” (Hajar-al-asvad”) joylashgan. Shimoliy sharqiy devoridagi eshik ham choyshab bilan qoplangan va erdan chamasi 2m baland o‘rnatilgan. Ka’baning ichi tavof qilinganda devorga narvon qo‘yiladi. Ichkarida uchta ustun bo‘lib, shiftiga sirlangan ko‘pdan ko‘p chiroq osilgan. Devorning eshik bilan qora tosh oralig‘idagi qismi al-muntazam deyiladi, uning yonida Allohga ayniqsa yoqadigan duolar o‘qiladi. Shimoliy g‘arbiy devorning tomidan tilla suvi yugurtirilgan tarnov ko‘rinib turadi, u almizob yoki mizob alrahma deb ataladi. Shu tarnov bilan g‘arbiy burchak oralig‘i qibla hisoblanadi. Shim.-sharqiy devor yonidagi yarim doira shaklidagi devor (al-xatim) al-hijr (yoki hijr Ismoil)ni to‘sib turadi, hojilar tavof vaqtida bu joyga kiritilmaydi; Ibrohim (as) zamonida bu joy Ka’baning bir qismi bo‘lgan; bu erga Ismoil (as) va uning onasi Hojar dafn etilgan, deb rivoyat qiladilar. Devor qarshisida maqom Ibrohim deb atalgan inshoot bo‘lib, undagi toshda odam izlari ko‘rinadi. Aytishlaricha, Ibrohim (as) Ka’bani qayta tiklayotganida shu tosh ustida turgan. “Qora tosh” yaqinida esa Zamzam bulog‘i bor. Muhammad (as) 25-30 yoshlarida Ka’bani ta’mirlash ishlarida qatnashganlar. Odamatoning uchinchi o‘g‘li Shis (as) tomonidan qurilgan, Ibrohis (as) tomonidan ta’mirlangan va Muhammad (sav) tomonidan kofirlardan tozalangan. Ka’ba Yasrib (Madina)da qibla deb e‘lon qilingach uning ahamiyati juda oshib ketdi. O‘shangacha Quddusga qarab ibodat qilinar edi. Ka’ba islomning alohida din bo‘lib shakllanishida g‘oyat katta vazifani bajaradi. 2 Makkaga hajga borgan musulmonlar Qora toshni o‘pib yoki qo‘l bilan tekkizib ziyorat qiladi. Qora tosh islomda mo‘tabar hisoblangan narsalardan biri. Shariatga ko‘ra, umra va hajga borgan odam Qora toshni o‘pishi yoki qo‘lining ichki tarafi bilan unga ishorat qilib, so‘ng qo‘lini o‘pishi (istilom) sunnat amallardan hisoblanadi.

Imon 7 aqidani –

1. Allohga,
2. uning farishtalariga,
3. muqaddas kitoblariga,
4. payg‘ambarlariga,
5. oxirat kuniga,
6. taqdirga va
7. o‘lgandan keyin tirilishga ishonishni o‘z ichiga oladi.

1. **Alloh** — dunyodagi barcha mavjudotlarni yaratgan. Olamda yuz bergan va kelajakda yuz beradigan barcha voqea va hodisalar, dunening tugashi va oxiratga Allox tomonidan belgilangan va uning irodasi bilan sodir bo‘ladi. Allohni hech kim bor qilgan emas, u o‘zidan-o‘zi bordir. Alloh birdir, yakkadir, yolg‘izdir. Uning sherigi, tengdoshi, o‘xshashi, o‘g‘li, qizi, otanasi, qarindoshi, er yoki xotini yo‘q. U o‘lmaydi, uxlamaydi. U biluvchidir, u bilmaydigan biror ish yo‘q. U xohlovchidir, har ishga qodirdir, ko‘ruvchidir, eshituvchidir, so‘zlaguvchidir, ya’ni Qur’ondagi barcha oyatlar Allohnikidir. Alloh bo‘ldirguvchidir, tarbiya qiluvchidir, to‘g‘rilik qiluvchidir. Allohda hech qanday ayb va kamchilik yo‘qdir, Uning turadigan joyi, oldi, orqasi, o‘ng yoki chapi, yuqori va pasti yo‘q. U hamma erda hozir. Alloh emaydi, ichmaydi, kasal bo‘lmaydi.

2. **Farishtalar** — Alloh taoloning nihoyatda itoatli hech-bir gunohsiz, nurdan yaratilgan, odamlar ko'ziga ko'rinmaydigan bandalaridir. Ular doimo Alloh taoloning buyurgan ishlarini bajaradilar, uning buyrug'idan aslo chiqmaydilar. Ularda erlik, xotinlik, eyish-ichish, uxlash kabi xususiyatlar yo'q. Farishtalarning mashhurlari — Jabroil, Mikoil, Isrofil va Azroillardir. Ular o'zlari xohlasalargina insonlar ko'ziga har xil suratda ko'rinishlari mumkin.

3. **Payg'ambarlar** — Alloh taolo tarafidan bandalariga din hukmlarini o'rgatmoq uchun yuborilgan elchilardir. Ular aqlli, ziyrak, to'g'ri va itoatli bandadirlar. Ular Alloh taolo amridan chiqmaydilar, gunoh qilmaydilar. Ular odam bolalaridan chiqadilar. Payg'ambarlar Alloh taolo tarafidan buyurilgan din va shariat hukmlarini bandalariga etkazadilar, bandalarni haq dinga va yaxshi ishlarga va'z, nasihat bilan chaqiradilar. Qur'onda 28 payg'ambarning ismlari zikr etilgan. Payg'ambarlar 2 xilga bo'linadilar: a) rasullar; b) nabiylar.

Alloh taolo tarafidan o'zlariga alohida kitob va shariat berilgan payg'ambarlar rasul deb ataladilar. O'zlariga maxsus kitob va shariat berilmay, bir rasulga berilgan kitob va shariat asosida ish qilishga buyurilgan payg'ambarlar esa nabiyy deyiladi. Nabiylar rasul bo'lolmaydilar, rasullarning har biri, ayni paytda, nabiyy ham hisoblanadilar. Barcha payg'ambarlardan 8 nafariga alohida kitob va shariat berilgan (Odam, Idris, SHis, Ibrohim, Muso, Dovud, Iso va Muhammadga). Payg'ambarlarning oxiri va barchadan afzali Muhammad alayhissalomdir, undan keyin boshqa payg'ambar kelmaydi.

4. **Muqaddas kitoblar** (Alloh taoloning kitoblari)-bu har zamonning o'ziga yarasha din va muomalat hukmlarini bayon etib, o'sha zamonning payg'ambarlariga yuborilgan vahiy Alloh taoloning kitoblari, ya'ni muqaddas kitoblardir. Alloh taolo payg'ambarlarga 100 sahifa va 4 kitob yuborgan. 100 sahifa Odam, SHis, Idris, Ibrohimga, 4 kitob esa Muso, Dovud, Iso va Muhammadga yuborilgan.

Qur'on Alloh taolo tomonidan o'z payg'ambari Muhammad (s.a.v.)ga tushirilgan vahiydir, ya'ni Allohning o'z payg'ambariga yuborgan ko'rsatmalaridir va samoviy kitoblarning oxirgisidir. Vahiy — farishtalar orqali yuborilishi yoki bevosita Alloh bilan gaplashish vositasida bo'lishi mumkin. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ga vahiy quyidagicha amalga oshgan:

Birinchi vahiy tush orqali namoyon bo'lgan (o'sha tush o'ngidan kelgan);
farishtalar o'zi ko'rinmay turib payg'ambar qalblariga kerakli narsani etkazgan;
-vahiy qo'ng'iroq ovozidek jaranglab quloqlariga chalingan;
-Jabroil farishta payg'ambarga odam shaklida ko'ringan;
-farishta o'zining asl qiyofasida ko'ringan va vahiy etkazgan;
-Allohning o'zi payg'ambarga me'roj kechasida namozni farz qilish va shunga o'xshash ba'zi narsalarni bevosita vahiy qilgan.

Dastlabki vahiy Muhammad (s.a.v.) Hiro g'orida yolg'iz ibodat qilayotganida yuborilgan. SHu kuni "Alaq" surasining ayrim oyatlari nozil bo'la boshlagan. Qur'onning nozil bo'lishi 23 yil davom etgan. Goho bir oyat, ayrim hollarda o'ntagacha oyat ketma-ket vahiy orqali nozil bo'lgan. Buning sababi shundaki, Qur'on oyatlari kishilar ongiga yaxshiroq singishi va qalblarga jo bo'lishi nazarda tutilgan, qolaversa, atrof-muhit voqealari, shart-sharoit hisobga olingan. Agar Qur'on oyatlari tarqoq holda emas, birato'la tushgan taqdirda, kishilarda "biz bunchalik ko'p yo'l-yo'riqlarni bajara olmaymiz", degan bahona tug'ilishi mumkin edi. Qur'onning nozil bo'lish tartibi odamlarni ana shunday malollikdan xalos etgan.

Qur'onning tarqoq tushishida hikmat ko'p. CHunonchi, har qanday xalq ajdodlaridan o'tib kelgan va o'zi yashayotgan tartibotlar, urf-odatlar va rasm-rusumlardan birdaniga voz kecha olmaydi. Bu asta-sekinlik bilan sodir bo'ladigan jarayondir.

Oyatlarining tarqoq tushishidagi yana bir hikmat shulkim—uni yod oluvchilarga mushkullik tug'dirmasin.

Qur'on tushishidan oldin va xususan, Qur'on tushayotgan paytda arablarda so'z san'ati — adabiyot (she'riyat), va'z-xonlik benihoya oliy darajada edi. Ular yil mobaynida bir necha sayil va marosimlar tashkil etishar edi. Xususan, Ukoz degan joyda nufuzli hay'at a'zolari hakamligida she'rxonlik va va'zxonlik bobida katta-katta musobaqalar o'tkazilardi.

Arablarining shu qadar so'z san'atini ulug'lashining, mahoratlari darajasi ulkanligining ikki sababi bor edi:

Birinchisi — odatda sahro hayoti kishilarni xayolchanlikka undaydi, voqelikni shoirona idrok etish esa xayolchanlik mevasidir. Arablar shunday sharoitda yashaganlar.

Ikkinchisi — ayni chog'da ular qabila-qabila bo'lib yashaganlar. Bu tarzda hayot kechirish o'zaro urush, ziddiyat, tortishuvlarsiz bo'lishi mumkin emasligi tabiiy hol edi. Bunday sharoitda har bir qabila qo'shni qabilaga nisbatan o'z qadr-qimmatini saqlashga, o'z faxr-iftixorini ko'z-ko'z qilishga intilgan. Bunday ustunlikning yagona yo'li — so'zga chechanlik, shoirlik edi. So'z san'ati soxiblari nihoyatda qadrlangan.

Qur'onning sehrli so'zlari ana shunday tarzda yashayotgan xalq huzuriga tushishga ravo ko'rildi. Mana, Qur'on yaralgandan buyon necha asrlar ortda qoldi, bu foniylar dunyodan nene ulamo-yu fuzalolar, shoiru davronlar yashab o'tmadi, lekin bironta inson farzandi Qur'on so'zlarining ohorini to'kadigan so'z ijod qila olmadi.

5. **Oxirat** — bu, dunyoda Alloh taoloning o'zidan va u xohlaganidan boshqa hech narsa qolmaydigan kundir. Uning kachon bo'lishini Alloh taolodan boshqa hech kim bilmaydi. O'lgan bandalar go'rga qo'yilganlaridan so'ng, go'rlariga Munkar va Nakir ismli ikki farishta kirib, ularni so'roq qiladilar. Savollarga javob berganlar yaxshilardan hisoblanib, qiyomatgacha rohatda bo'ladilar. O'lgan bandalar Alloh taoloning qudrati bilan tiriladilar, so'ngra Alloh taoloning tayin qilgan eriga borib yig'iladilar. Yig'iladigan joyning nomi "Mahshar eri", kun esa "Qiyomat kuni" deb ataladi. Qiyomat kuni — bandalarning bu dunyoda qilgan yaxshilik va yomonliklari ma'lum bo'ladigan, yaxshi bandalar uchun sevinch, yomonlar uchun qo'rquinchli kundir. Yaxshiliklari ma'lum bo'lgan bandalar xursandlik ila "sirot" ko'prigidan o'tib, jannatga, yomonlar esa bu ko'prikdan o'ta olmay do'zaxga kiradilar.

Sirot ko'prigi — Mahshar eri bilan jannat orasida do'zax ustiga qurilgan, qilichdan o'tkir, qildan ingichka va nihoyatda uzun ko'prikdir.

6. **Taqdir** — Alloh taolo tomonidan bo'lgan va bo'ladigan yaxshi, yomon ishlarning qaysi zamonda, qaysi joyda, qay ravishda bo'lmog'ini hamda o'z ilmi azaliysi bilan bo'lmasdan turib oldindan belgilab qo'yilishidir.

Islom ta'limotidagi bu asosiy 7 aqidaning Alloh taolo va Muhammad (s.a.v.)ga ishonish qismi islomda imon (iymon) deb ham ataladi, ya'ni Allohdan o'zga iloh yo'q, Muhammad uning bandasi va rasuli (payg'ambari), deb shohidlik berishi tushuniladi. Barcha 7 aqida to'laligicha imoni (iymoni) mufassal deb ataladi.

4- reja bayoni Qur'on, hadis, fiqh, aqida ilmlarining shakllanish tarixi. Hozirgi davrda islom sivilizasiyasining ahamiyati.

Islom dinining asosiy manbalari. Diniylar manba tushunchasi shundan iboratki, jahon xalqlarining tarixiy taraqqiyotida vujudga kelgan va asrlar osha avloddan-avlodga o'tib, ularning e'tiqodiga aylangan har bir yirik dinlarning muqaddas yozuvlari (kitoblari) Alloh tomonidan in'om etilgan deb qaraladi. Ana shu muqaddas kitoblar dinlarning manbalari hisoblanadi.

Qur'on islomning muqaddas kitobi sifatida Allohning mo'jizali kitobi bo'lib, yer yuzi musulmonlarining dasturamali, diniy ahkomlar manbaidir. Qur'on Muhammad Payg'ambarga vahy orqali tushgan tilovat ibodat hisoblanuvchi muqaddas kitobdir.

Ana shunday kitoblarni Alloh boshqa payg'ambarlarga ham o'z vaqtida nozil qilganligi haqidagi fikrlar ma'lum.

Qur'onda boshqa ilohiy yozuvlar bir yo'la tushgan deb hisoblansa, Qur'oni karim 23 yil mobaynida Alloh farishta Jabroil orqali Muhammad payg'ambarga vahy qilib yuborgan, so'ngra ular to'planib xalifa Usmon hukmronligi davrida mus'haf qilingan.

Shunday qilib, islom dini shakllangan davrdan boshlab Qur'oni Karim islom dinining asosiy manbasi bo'lib kelayotir. Islom manbalaridan yana biri sunnadir. Sunna islomda Qur'ondan keyingi, uni to'ldiruvchi islom ilohiyoti va shariatning ikkinchi asosi sifatida e'tirof etilgan.

VII-IX asrlarda islom ta'limotining tobora keng yoyilishi bilan turli diniy jamoa va davlatlar o'rtasida diniy huquq, qonun-qoidalarini tartibga solish zaruriyati tug'ildi. Bunda Qur'on va hadislarga asoslangan shariat va uning manbalari-fiqh va qiyos vujudga keldi.

Shariat (arabcha to'g'ri yo'l, ilohiy yo'l, qonunchilik demakdir)-islom diniy huquq qonun qoidalarini va me'yorlari majmuasidir. Ayni paytda shariat tushunchasi nafaqat islom diniy talablarini, balki diniy marosimlar, oila, nikoh va taloq masalalari, tijorat, iqtisodiy, mulkiy munosabatlar, musulmonlarning shaxsiy va ijtimoiy hayotiga xos ko'p masalalarni o'z ichiga oladi.

Fiqh-musulmon huquqi sifatida shariatning tarkibiy qismini tashkil etadi. Fiqh shariatning g'oyaviy va amaliy harakatlari, tavsifi sifatida musulmonlarning turmush qoidalarini va ijtimoiy qarashlarini ifodalaydi.

Ijmo'-(arabcha yakdillik bilan qabul qilingan qaror). Qur'on va hadislarda aniq ko'rsatma bo'lmagan huquqiy masalalarni hal etishda faqiya va mujtaxidlarning to'planib, yagona fikrdan hukm chiqarishi (fatvo berishi).

Qiyos-Qur'on va Sunnada uchramaydigan biror huquqiy masala, ulardagi shunga o'xshash masala orqali berilgan yo'l-yo'riqqa, ko'rsatmaga mantiqiy taqqoslash, o'xshatish yo'li bilan sharh, izoh etish asosida hukm yoki fatvo chiqarish.

Islom davlat dini bo'lib kelgan mamlakatlarda shariat talablariga amal qilib kelingan, hozir ham shunday. Hozirgi davrda O'zbekiston xalqlari orasida marxumning yettisini, yigirmasini, qirqini va boshqa marosimchiliklarini o'tkazish odati bor. Xolbuki, shariat bunday marosimlarni o'tkazish yoki o'tkazmaslik haqida biron-bir ko'rsatma bermagan.

Qur'onning jamlanishi, tarkibi va uning shaxs ma'naviy qiyofasiga ta'siri. Qur'oni karim suralarining mus'haf qilinishi va ichki tuzilishi bayonida, uning nozil bo'lishiga e'tibor qaratiladi. Islom tarixiga ko'ra Qur'onning sura va oyatlari Muhammad payg'ambarga parcha-parcha tarzida vahy qilib borilgan; bu vahyning birinchi bayoni «Laylatur qadr» kechasi boshlanib, ularning vafotlarigacha, ya'ni 23 yil davom etgan. Islom dini, nur imon va hidoyatining boshlanishi bo'lgan ana shu tun diniy an'ana bo'yicha hijradan 12 yil oldin ramazon oyining 27-kuniga o'tar kechasi melodiy hisob bilan 610 yilning 31 iyulidan 1 avgustiga o'tar kechasi deb hisoblanib, Qur'onni vahy qilinishning boshlanishi to'g'risida 97-«Qadr» surasida ifodalangan. «Albatta Biz u (Qur'on)ni Qadr kechasida nozil qildik. (Ey Muhammad) Qadr kechasi nima ekanini Sizga ne ham anglatur?! Qadr kechasi ming oydan yaxshiroqdir?!» (97,1-3).

Diniy ma'lumotlarda Muhammad payg'ambarga vahy kela boshlagandan so'ng, ularning qalblariga mustahkamlanib qolgan, Alloh ularga targ'ibot boshlashga da'vat qilganlari to'g'risida Qur'onda bor. Qur'onning 73-«Muzzammil» («O'ralib olgan») va 74-«Muddassir» («Burkalgan»)

nomli suralaridagi dastlabki oyatlarida o'z ifodasini topgan. Muzzammil-o'ralib olgan, ya'ni biron narsadan qo'rqqan kishi arablar odati bo'yicha kiyim yoki to'shaklariga o'ralib olishga harakat qilar ekan. Payg'ambarimiz (s.a.v.) ham mushriklarning bergan aziyatlaridan xafa bo'lib yotganlarida, shu suraning oyatlari nozil bo'lgan deyiladi. Unda Rasul (a.s.)ga Alloh taolo tungi ibodat qoidalaridan ta'lim beradi. Tunni faqat uyqu bilan ham emas yoki faqat ibodat bilan ham emas, balki har ikkisiga ham ma'lum vaqt ajratish to'g'risidagi ko'rsatma beriladi.

Islom manbalarida rivoyat qilinishicha, Muhammad payg'ambar 40 yoshga yetganlarida, ya'ni 610 yili Makka shahri yaqinidagi Hiro nomli g'orda yolg'iz qolib, ibodat bilan mashg'ul paytlarida, farishta Jabroil (a.s.) ularga birinchi bor Qur'on oyatlarini keltirganlar. Odatda Jabroil (a.s.) payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ga oyatlarni o'qib berar, ular yodlab olib, o'z izdoshlariga yetkazar edilar. Ular ham o'z navbatida shunday qilar edilar. O'sha davrlarda mutlaqo ko'pchilik, shu jumladan Muhammad payg'ambar ham o'qish, yozishni bilmaganliklari uchun yodlab olish u davrning birdan bir usuli bo'lgan. Bu vahy melodiy yil hisobida 22 yil, hijriy esa 23 yil davom etgan. Oyatlarda odamlarning savollariga javob berib, ularni to'g'ri yo'lga yetaklagan, yuz bergan hodisalarni talqin qilib berilgan. Biron hukmning to'g'ri yoki noto'g'ri ekani bayon qilinabergan. Muhammad payg'ambar (s.a.v.) vafot etganlarida ularning safdoshlari Qur'onni yod bilganlar. O'sha paytda oz sonli kishilargina o'qish-yozishni bilganlar. Savodli musulmonlar yozish imkoni bo'lgan narsalarga Qur'on oyatlarini aniqlik bilan yozib borganlar.

Muhammad payg'ambar (s.a.v.) vafotidan so'ng Qur'oni karim suralarini to'plash va mus'haf qilish xalifalar Abu Bakr, Umar ibn al-Xattob, Usmon, ibn Affon davrlarida amaga oshirilgan. Dastlabki jamlangan Qur'onni (Suhufni) xalifa Usmon (r.a.) barcha mus'haflarni to'plab, taqqoslab chiqish va ularga bo'lajak Qur'onning yagona nusxasini tayyorlashga amir bergan va bu ishga bosh bo'lgan.

Usmon (r.a.) amrini bajarish uchun to'rt kishilik guruh belgilangan. Unga Zayd rahbarlik qilgan, uning tarkibiga Qur'onni yaxshi bilgan sahobalardan az-Zubayr, al-Os, ibn Hishomlar kiritilgan. Bular barcha nusxalar va topilgan suralarni qaytadan tekshirib, taqqoslash asosida yagona nus'hani tayyorlagan. Ilgarigi shaxsiy nus'halarining barchasi yo'qotilgan. Yangiddan ko'chirilgan yagona nus'ha tarixda «Mus'hafi Usmoniy» deb nom olgan.

Mus'haf qo'lyozmasi tayyor bo'lgandan keyin (651 yil) tez orada Usmon (r.a.) buyrug'i bilan undan yana 3 ta (ba'zi ma'lumotlarga ko'ra yettita nusxa) qo'lyozma kufiy alifbosida ko'chirilgan va o'qishda hamda ibodatda barcha yerlarda Qur'onning yagona matnidan foydalanishni amalga kiritish maqsadida, bu nusxalar Kufa, Basra, Damashq va boshqa shaharlarga yuborilgan.

Hozirgi kunda Islom olamida 4 ta qadimiy Mus'haf nusxalarining borligi ma'lum. Ulardan biri Madinada saqlanayotgan asl nusxa bo'lib, islom manbalarida u «Imom» nomi bilan tilga olingan. Ikkinchi nusxa Ka'bada, uchunchi nusxa Qoxiradagi Misr milliy kutubxonasida saqlanmoqda. To'rtinchisi Toshkentda O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyida saqlanib, 1989 yil boshlarida O'zbekiston musulmonlari diniy idorasiga topshirilgan.

Endi Qur'onning ichki tuzilishi masalasiga e'tibor qilamiz. Qur'onda 114 ta sura, 6226 ta oyat borligi e'tirof etilgan. Ammo Qur'on matnlarini taqsimlanishiga asosan oyatlar soni 6204, 6232, hatto 6666 gacha belgilangan va uni kitob shakliga keltirishda muayyan usul qo'llangan.

Suralar Qur'onda o'z mazmuniy izchilligiga yoki o'qilgan vaqtiga qarab joylashtirilgan. Suralarning hajmi ham har xil: eng katta hajmiga ega bo'lgan 2-«Baqara» surasida 286 oyat bor, eng kichik suralar faqat 3 oyatdangina iborat.

Uzun suralar kitobining boshidan, qisqa suralar uning oxiridan o‘rin olishi, tadqiqotlarda aniqlanishicha, qadimiy arablarning va umuman old Osiyodagi somiy xalqlarning an‘anasi bilan bog‘liq bo‘lgan. Xilma-xil yozuvlar, rivoyatlar yoki adabiy asarlar to‘planib kitob qilganda, katta hajmdagi asarlar birinchi o‘rinda, kichiklari keyin joylashtirilgan ekan. Zayd Ibn Sobit ham Suhufni to‘plab dasxat qilishda ana shu an‘anaga amal qilgan bo‘lishi mumkin.

Qur‘on-ilk islom g‘oyalarini o‘zida aks ettirgan yagona yozuv bo‘lgani sababli faqat islom tarixi bilan shug‘ullangan olimlarga emas, balki islom tarqalgan xalqlar adabiyoti va madaniyati bilan shug‘ullanganlarning barchasi ham bu kitobni tahlil qilishga katta e‘tibor berganliklari tabiiy bir holdir.

Ammo, yuqorida aytib o‘tilganidek, uning suralari mavzulari asosida yoki tarixiy-xronologik tartibda joylashmaganligi sababli, bu kitob g‘oyat murakkab hisoblanadi. Shuning uchun XIX asr o‘rtalaridan boshlab, manbalarda uchraydigan tarixiy voqealar va shaxslarning faoliyati to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, ishoralarga, shuningdek, ishlatilgan iboralarga qarab suralarning yoki ayrim guruh oyatlarining vujudga kelgan davrini aniqlash, bilan ko‘p olimlar shug‘ullanganlar.

Nemis olimlaridan Noldeke va Grimme, rus olimlaridan I.Yu. Krachkovskiylarning bu sohadagi xizmatlarini alohida tilga olib o‘tish kerak. Ular olib borgan tekshirishlar natijasida suralar xronologiyasi faqat umumiy tarzdgina aniqlangan.


Islomshunoslik va Qur‘onshunoslikning oxirgi xulosalari asosida suralarning xronologik tarkibini quyidagicha biroz takomillashgan shaklda tasavvur qilish mumkin:

Biz bu o‘rinda Qur‘oni Karim suralarining xronologik tartibda masalasiga umumiy tarzdgina to‘xtalib o‘tdik. Bu g‘oyat murakkab ilmiy masalani faqat maxsus tadqiqotdgina mufassal yoritish mumkin.

Qur‘oni Karim tuzilishi haqidagi gapni davom ettirsak, undagi har bir sura, oyatlar yig‘indisidan iborat. «Oyat» so‘zi faqat Qur‘onning o‘ziga xos iborasi bo‘lib, «mo‘jiza», «hikmat», «ilohiy», «alamat, belgi», ma‘nolarini anglatadi.

Qur‘on-muqaddas kitob, uning mazmunini Alloh so‘zlaridan iborat deb hisoblash ham Qur‘onning o‘zidagi ko‘rsatmalariga asoslangan: «U (Alloh) bundan ilgari yuborilgan (kitoblar)ning to‘g‘riligini tasdiqlab, senga haqiqat kitobini yubordi», «Biz Nuhga, Yaqubga va uning avlodlariga, Isoga, Ayyubga, Yunusga, Xorunga, Sulaymonga qanday vahy qilgan bo‘lsak hamda Dovudga Zoburni qanday yuborgan bo‘lsak, senga ham o‘shanday vahy yubordik», «Sening Qur‘onni odamlarga parcha-parcha qilib o‘qib berishing uchun biz uni bo‘laklarga bo‘lib senga yubordik».

Biz keltirgan va bundan boshqa ko‘p oyatlardan shunday xulosa kelib chiqadiki, Qur‘on o‘zidan ilgarigi diniy yozuvlarni inkor etmaydi, balki ularni tasdiqlash va o‘sha yozuvlardagi diniy yo‘llanmalarni oxiriga yetkazish uchun yuborilgan muqaddas kitob deyiladi. Islom ham o‘zidan ilgarigi diniy e‘tiqodlarning vorisi, Muhammad (s.a.v.) esa o‘zlaridan ilgari o‘tgan barcha payg‘ambarlarning ishini yakunlovchi va oxirigi yetgazuvchi rasul-elchi deb taniladilar.



Qur'oni karim islomda muqaddas kitob, barcha bilimlar manbai, qonunlar to'plami, mazmuni osmondan Xudo vahy qilgan deb e'tiqod qilinadi. Qur'ondagi har bir suraning nomi bor, bu nom sura boshlanishida sarlavha qilib berilgan.

Olimlarning fikricha, suralarning nomlari dastlabki vaqtda bir necha so'zdan tuzilgan jummalardan iborat bo'lgan, keyinchalik qisqara borib, o'sha jumladan bironta so'z saqlanib qolgan bo'lishi mumkin. shuning uchun 2-sura Baqara (Sigir), 16-sura Nahl (Asalarilar), 27-sura Naml (Chumolilar) deb nomlangan bo'lsa, bunga hech ham ajablanish kerak emas. O'sha suralarda tegishli rivoyatlar keltirilgan.

Qur'on matni sura va oyatlardan tashqari yana 30 ta «juz» (o'zbekcha «pora») larga bo'lingan. Shuni aytish kerakki, pora sura va oyatlarga o'xshab Qur'onning ilk tuzilishi bilan bog'liq emas, balki o'qishda qulaylik tug'dirish uchun keyinchalik Qur'on matnini hajm jihatidan teng bo'laklarga bo'lishdan iborat bo'lgan. Shu sababli eng uzun 2-sura poradan ko'proq bo'lgani holda, oxirgi qisqa suralardan 37 tasi bir porani tashkil etadi.

Qur'on yirik tarixiy va madaniy yodgorlik sifatida axloq, insof, vijdon, halollik kabi sohalaridagi umumbashariy ahamiyatga molik yo'l-yo'riqlar, qoidalari hozirda ham g'oyat zarur ekanligini alohida ta'kidlash lozim.

Yuqorida aytib o'tilganidek, Qur'on mazmunida hayotning ko'p sohalariga taalluqli masalalar o'z ifodasini topgan.

Unda arab xalqlarining adabiy ijodi tarixida yirik nasriy asar sifatida arab tilining o'sha davrlariga xos xususiyatlarini, so'z boyligi, iboralari va atamalarini, grammatik tuzilishi va boshqa xususiyatlarini o'zida ifoda etgan. Qur'on matnini tahlil qilish jarayonida arab yozuvi grammatikasi (sarf va nahv batafsil ishlab chiqilgan arab yozuvi) g'oyat mukammal shaklga kelgan. Shuningdek, Qur'on tili har bir arab mamlakati va elatlarining o'ziga xos lahjalari saqlangan holda barcha arablar uchun yagona bo'lgan adabiy tilning shakllanishiga asos bo'lgan. Hozir ham arab mamlakatlarida nashr etilayotgan kitoblar va vaqtli matbuot yagona arab adabiy tilida bosiladi va u barcha arablar uchun tushunarlidir.

Qur'onning uslubi ham keyingi adabiyotga katta ta'sir o'tkazgan, undagi rivoyat va tasvirlar, o'xshatish, nasihat va maslahatlar faqat diniygina emas, balki butun badiiy adabiyotga singib ketgan. Shuning uchun Qur'onni yaxshi bilmasdan arab xalqlari va umuman musulmon xalqlari madaniyati va adabiyotini chuqur o'rganish, tushunish ancha mushkul.

Toshkentdagi «Mus'hafi Usmoniy» tarixi va Qur'on tarjimalari. Mus'hafning Samarqanddan 1865 yilda Sankt-Peterburgga olib ketilgan, 1920 yilda musulmonlarga qaytarib berilgan, 1923 yilda Toshkentga olib kelingan.

Mus'hafning O'rta Osiyoga olib kelinishi bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlar ichida tarixiy jihatdan asoslirog'i va ishonarlirog'i sohibqiron Amir Temurning Basradan Samarqandga Qur'onning qadimiy bir nusxasini jo'natgani haqidagi ma'lumot mavjud.

Mus'haf-keyinchalik musulmon olamida tarqalgan va minglab marotaba nashr qilinayotgan Qur'onning asl nusxasi hisoblanadi. Qur'on qacda nashr qilinmasin, uning birinchi sahifasida Usmon mus'hafi matniga muvofiq ekani yozib qo'yilgan bo'ladi.

Endi Qur'onning tarjimalari haqidagi aniq ma'lumotlarga e'tibor qaratamiz. Hozirgi paytda ko'pchilik o'quvchilarning fikr mulohazalari e'tiborga olinib, O'zbekiston musulmonlari Diniy idorasi tashabbusi bilan o'zbek tiliga 2 marta (Alouddin Mansur tarjimasi, T.: 1992, Abdullaziz Mansur tarjimasi, T.: 2001) nashr etildi.

Qur'on jahondagi juda ko'p tillarga tarjima qilingan. Uni G'arbiy Yevropa tillariga tarjima qilish 11 asrdan, rus tiliga ag'darish 18 asrdagi Pyotr I ning tashabbusi bilan boshlangan. 1790 yilda nashr etilgan M.N.Verovkin tarjimasi e'tiborli rus olimlarining fikriga ko'ra A.S.Pushkinning mashhur «Podrajaniya Koranu» (Qur'onga tatabbu'lar) asariga manba bo'lgan. G.S.Sablukovanning arabchadan dastlabki ruscha tarjimasi I.Yu.Krachkovskiy rus tiliga tarjima qilgan nusxasi uning vafotidan keyin (1963, 1986) nashr qilingan.

Islom davlat dini bo'lib kelgan mamlakatlarda shariat talablariga amal qilib kelingan, hozir ham shunday. Hozirgi davrda O'zbekiston xalqlari orasida marxumning yettisini, yigirmasini, qirqini va boshqa marosimchiliklarini o'tkazish odati bor. Xolbuki, shariat bunday marosimlarni o'tkazish yoki o'tkazmaslik haqida biron-bir ko'rsatma bermagan.

Hadis ilmining shakllanishi. Hadis va hadisshunoslik ilmini shakllantirishga bo'lgan harakat islom paydo bo'lgan dastlabki yillardanoq boshlangan. Chunki islom dinining asosiy manbai bo'lgan Qur'oni karimdan keyin uni izohlovchi va bayon etuvchisi bo'lmish Rasulollohning so'zlagan hikmatli gaplari o'z hayot faoliyatlarida qilgan ishlari-ul zotning hadislarini hisoblanadi. Islom jamoasi Qur'oni karimning sura va oyatlarida keltirilgan ta'limotlar,

amallar va huquqiy ko'rsatmalardan foydalangan holda Rasulollohning sunna (hadislar)laridan ham bohabar bo'lmish, amaliy hayotga tatbiq qilish zaruriy hol bo'lgan. Muhammad (s.a.v.) payg'ambarning hadislaridan birida: «Ey ummatlarim! Men sizlar uchun Qur'oni karim bilan o'zimning sunnatim-yo'l-yo'riqlarimni qoldirdim. Sizlar shu ikkalasini qattiq tutib, (ularga) amal qilsalaringiz, to'g'ri yo'ldan aslo adashmaysizlar» deyiladi.

Ma'lumki, islomning asosiy manbalaridan bo'lmish Qur'oni karim suralari, Muhammad (s.a.v.) sunnalari dastlabki davrlarda asosan yodlangan, og'izdan-og'izga ko'chib yurgan. Vaqt o'tishi bilan ularni yaxshi bilgan sahobalarning kamayib ketishidan qo'rqib, xar ikkalasini ham yozma matnini tayyorlashga kirishilgan. Natijada VII asrning o'rtalaridan boshlab Muhammad (s.a.v.) sunnalarini to'plash va kitob holiga keltirish qizg'in tus ola boshlagan.

Arabcha Sunna (as-sunna, ko'plikda sunan)-yo'l, yo'nalish, ya'ni «rivoyat», «naql», «xotira», «odat», «an'ana», «xatti-harakat» ma'nolarini anglatadi. Sunna islomda Qur'ondan keyingi, uni to'ldiruvchi manba, islom ilohiyoti va shariatining ikkinchi asosi sifatida e'tirof etilgan.

Musulmon sunnalari ko'plab hadislardan tashkil topgan. Hadis so'zining dastlabki ma'nosi (ar. Ko'plikda «ahadis» so'zidan)-«xabar», «bildirish», tor ma'noda-«parcha» (sitata). Rasmiy ma'noda hadis-Muhammad Payg'ambar (s.a.v.) so'zlari va amaliy ishlari haqidagi rivoyatlardir. Bu ma'noda hadis faqat Muhammad Payg'ambar (s.a.v.) so'zlariga nisbatangina ishlatiladi.

Ba'zi ulamolar esa, hadis deganda faqat Payg'ambarninggina emas, balki sahobalarining ham bergan xabarlarini tushunadilar. Ba'zi hadisshunoslar faqat Payg'ambar so'zlarinigina hadis deb, boshqalarnikini esa xabar deb ataganlar. Shu boisdan ham Payg'ambar hadislarini to'plovchilar muhaddis, boshqa tarix, qissa kabilarini naql qiluvchilar axboriy deyilgan. Qandayligidan qat'i nazar, hozir musulmon olamida hadis deyilganda Payg'ambarning so'zlari, fe'l va atvorlari tushuniladi.

Hadis-islomda Qur'ondan keyingi muqaddas manba hisoblangan. Bunda Muhammadning hayoti, faoliyati va ko'rsatmalari, uning diniy, axloqiy dasturlari ham o'z ifodasini topgan. Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) biror gap aytgan yoki ma'lum ishni qilib ko'rsatgan bo'lsa, yoxud boshqalarning qilayotgan ishini ko'rib, uni man etmagan bo'lsa, shu uch holatning har biri hadis deb atalavergan. Ma'lumki, hadislarda islom ahkomlari, ya'ni farz, vojib, sunnat, mustahab, halol, harom, makruh, muboh kabi amal turlaridan tashqari, axloq-odobga doir dasturlar talqin etiladi. Unda xalq orasida keng tarqalgan axloq-odobga oid maqol, qimmatli hikmatli gaplar ham qamrab olingan.

Hadislarda ibodatning tartib-qoidalari va ularni astoydil bajarishga da'vat etish bilan birga insoniy fazilatlar keng tashviq qilingan, insoniylik sha'niga dog' tushiradigan razil xatti-harakatlar keskin qoralangan. Shuning uchun ham islomning ilk tarqalish davridanoq musulmonlar orasida hadislariga juda katta ahamiyat berilgan. Eshitgan har bir hadisni yanglishmay, asl holicha boshqalarga yetkazishga qat'iy rioya qilingan. Bu to'g'rida Muhammad Payg'ambar o'zi musulmonlarni tez-tez ogohlantirib turgan. Hadis mazmuni va iborasini buzib yoki o'zicha yangi hadis to'qib tarqatuvchilar qattiq qoralangan. Bunday talabchanlik payg'ambar vafotidan ancha keyingacha ham hadislarining sof holda saqlanib turishiga imkon bergan.

Lekin keyinchalik turli sinfiy va ijtimoiy ziddiyatlar, islomdagi ichki g'oyaviy kurashlar natijasida ko'pincha soxta hadislar ham yuzaga kela boshlagan. Natijada yirik ulamolar hadislarini ishonchli manbalar asosida qayta ko'rib chiqish va ularni turli xatolardan tozalab, asl holiga qaytarish uchun ancha zahmat chekishgan. Hadislarni og'zaki holdan kitob shakliga keltirish hijriy yil hisobining ikkinchi asridan, ya'ni milodning VIII asridan avj olib ketgan.

Muayyan bir hadis asosida huquqiy va urf-odat bo'lgan yo'l-yo'riqlar, diniy marosimlar sofliigi, noz-ne'matlar haqidagi ko'rsatmalar, maishiy turmushdagi axloq va odob tartib-qoidalarini keltirib chiqarilgan. Qur'onning ayrim ko'rsatmalariga amal qilish ham ko'pincha uning ma'lum matni bilan bog'liq bo'lgan hadis orqali belgilanar edi. Shu bilan birga tarixiy xarakterga ega bo'lgan hadislar bo'lgan; ular Muhammad (s.a.v.) yoki sahobalar tarjimai holidagi ayrim tafsilotlarni aks ettirgan edi. Shu hadislar asosida VIII-IX asrlarda Muhammad Payg'ambar va uning yaqinlari, harbiy yurishlari haqida «Yurishlar kitobi» yozilgan. Bu arab tilidagi ilk tarixiy asar va Muhammad Payg'ambar tarjimai holi edi. Shu tariqa, hadislarini muayyan qismi-ilk islom tarixi bo'yicha bir manba bo'lib xizmat qilgan.

Ma'lumki, hadislar asosan Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) vafotidan keyin yozila boshlagan. Islomda Muhammad (s.a.v.)ga payg'ambarlik uning qirq yoshida nasib bo'lgan, deb hisoblanadi. Shunga ko'ra, Qur'on oyatlari payg'ambar umrlarining oxirigacha, ya'ni 23 yil davomida turli munosabatlar bilan nozil bo'lib turgan. Payg'ambar safdoshlari-sahobalar bu oyatlarni maxsus sahifalarga yozib borganlar. Ularning ba'zilar payg'ambarning aytgan so'zi va xatti-harakatlarini ham yoza boshlaganda payg'ambar bu ishni davom ettirishni ta'qiqlagan va bunga ular Qur'on bilan Sunnani ajratolmay qolishlaridan cho'chishligini sabab qilib ko'rsatgan.

Ilk muhaddislardan Al-Xudriy bu borada bunday rivoyat qiladi: Rasululloh aytadiki, «Mendan eshitganlaringizni hech narsani yozib yurmanglar. Kimki Qur'on oyatlaridan boshqa biror so'zni mendan eshitib yozib olgan bo'lsa, uni darhol yo'qotsin... Kimki mening haqimda so'z tarqatsa, jahannamga doxil bo'lishlikka hozirlik ko'raversin». Darhaqiqat islom tarixidan Al-Hudriy payg'ambar hadislarini yozib borishlikka u kishidan ijozat so'raganda, rad javobini olganligi ma'lum.

Abu Xurayradan yana boshqa misol keltiriladi: «biz hadis yozar ekanmiz, payg'ambar alayhissalom yonimizga keldi va «Sizlar nimani yozayapsizlar?»-deb so'radi. Bizlar: «Sendan eshitgan hadislarini»-deb javob berdik. Shunda payg'ambar: «Allohning kitobi-Qur'ondan boshqa yana qanday kitob istaysiz? Sizdan boshqa millatlar Allohning kitobidan tashqari yana boshqa kitoblar yozganlari uchun zalolatga ketdilarku!»-degan ekan».

Manbalarda ko'rsatilishicha, hadisni to'plab chiqarishni taqiqlashning turli xil sabablari bo'lgan. Masalan, tarixchi ibn Qutaybaning ta'kidlashiga ko'ra, bunday sabablardan biri savodli xattotlarning kamligi bo'lsa, ikkinchisi, arab alifbosining hali yetarli darajada takomillashmaganligidir. Shu sababdan payg'ambar musulmonlarning hammalariga ham hadis yozib borishga ijozat bermagan. Bundan faqat savodli va mo'tabar xattotlarga mustasno edilar.

Ilk yozilgan hadislar qatoriga Muhammad (s.a.v.)ning xorijiy o'lkalarga-Vizantiya imperatoriga, Eronshohiga, Misr ham Habashiston hukmdorlariga yo'llagan maktublari ham kiradi. Undan tashqari ko'plab vasiqa va hujjatlar ham bo'lganki, ular ham ilk bor yozilgan hadislardan hisoblanib, ularda islomga da'vat etish, muayyan vazifalarga tayinlash, yer va undan olinadigan soliqlar, imom va tavsiya maktublari, payg'ambarga kelgan xatlarga javoblar o'rin olgan.

Xalifa Abu Bakr (r.a.) va Umar (r.a.) ham hadislar yozmoqqa bel bog'laganliklari, hatto Abu Bakrning besh yuz hadisni bir kitobga to'plagan ma'lum; ba'zi sabablarga ko'ra bu kitobni yo'q qilib yuborganligi haqida ham xabarlar bor. O'z davrida Umar (r.a.) ham sahobalarga hadis kitobi yozish niyati borligini izhor qilgan va sahobalar bu fikrni ma'qullaganlar. Oradan ma'lum bir muddat o'tgach, ular o'z fikrlarini o'zgartiradilar.

Hadislarni saqlab, kelajakka yetkazuvchilar birinchi navbatda sahobalar-payg'ambarning qarindoshlari, do'stlari, yordamchilari va shogirdlari, ularning vafotidan keyin asosan Madinada yashab kelganlar hisoblanganlar.

Umuman «sahoba» so'zi arabcha bo'lib, «suhbat» so'zidan olingandir. Hadislardan biriga ko'ra payg'ambarni ko'rgan, u bilan muloqotda bo'lgan har bir musulmonni «sahobiy» deyilgan. Imom Buxoriy ham shu fikrni tasdiqlagan. Ibn Xanbal ta'biricha, payg'ambar bilan bir yil, yo bir oy, yo bir kun va yoki hatto bir soat suhbat etgan, yo bo'lmasa hayotida bir marta bo'lsa hamki uni ko'rgan musulmon kishi sahobalardan hisoblanavergan.

O'rta Osiyo muhaddislarining hadisshunoslikka qo'shgan hissalar. Buyuk muhaddis Ismoil al-Buxoriy. Islom olamida eng yetuk va mashhur muhaddis Abu Abdulloh muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy 810 yil 21 iyulda Buxoroda tug'ilgan. Otalari shayx Ismoil ibn Ibrohim ahli hadislardan bo'lib, ozgina tijorat ishlari bilan ham shug'ullangan. Katta bobosi al-Mug'iri yamanlik Ju'fiy ibn Sa'd qabilasidan bo'lmish Buxoroda istiqomat qiluvchi al-Yaman al-Ju'fiy degan kishining ta'sirida musulmon bo'lgani uchun imom Buxoriyga ham al-Ju'fiy deb nisbat bergan.

Imom Buxoriy go'dakligidanoq otadan yetim qolib, ona qo'lida katta bo'lgan. U yoshligidanoq arab tili va hadis kitoblarini o'qish va ularni yodlashga qunt bilan kirishgan. Keyin buxorolik muhaddislar Muhammad ibn Sallalol Paykoiy, Abdulloh ibn al-Masnadiy al-Ju'fiylardan hadis ilmini o'rganib, ko'p hadislarni yod olgan. 16 yoshida onasi va akalari bilan birga hajga safar qilib, 4 yil Makkada yashagan. Safar asnosida qaysi shaharda to'xtalmasalar, o'sha yerdagi muhaddislardan ozmi-ko'pmi hadis o'rganmay o'tmasdilar. Shu tariqa Balx, Basra, Kufa, Bag'dod, Xums, Damashq, Misr, Makka va Madina kabi ko'plab shaharlardagi mashhur hadischi olimlardan shu ilm asrorlarini o'rgangan.

Imom Buxoriy o'ta iste'dodli, ziyrak, o'tkir zehnli, qobiliyatli ulamo edi. Rivoyat qilishlaricha, qaysi bir kitobni qo'lga olib, bir marotaba mutola qilsalar, hammasi yod bo'laveradi. Imom Buxoriyning o'z so'ziga ko'ra yuz sahih (ishonchli) va ikki yuz ming g'ayri sahih (ishonchsiz) hadisni yod bilar ekan. Basrada hadis darsiga qatnashgan sheriklaridan biri Xolid ibn Ismoil aytgan ekan: «Imom Buxoriy bizlar bilan birga ustozning darsini eshitardi. Ustoz rivoyat qilgan hadislarni biz yozib olar edik, ammo Buxoriy faqat quloq solibgina o'tirardi. Shu tarzda qancha kunlar o'tib, orada ustoz qariyb 15 ming hadis rivoyat qildi. Shunda biz Buxoriyga: «Sen nega hadislarni yozmaysan?»-deb ta'na qilgan vaqtimizda: «Sizlar yozib borayotgan hadislarni men ustoz og'zidan yodlab olayotirman»,-dedi-da, ustoz rivoyat qilgan hamma hadislarni bir chekkadan yoddan o'qib berdi. Shundan keyin biz yozib olgan hadislarimizdagi xatolarni uning yodlaganidan tuzatib oladigan bo'ldik». Buxoriyning o'zi guvohlik berishicha, 100,000 hadisni yod bilgan.

Ba'zi rivoyatlarga ko'ra, Imom Buxoriy 16 yoshga qadam qo'yganida al-Marvaziy (736-798), al-Jarroh (747-812)larning kitoblarini batamom yodlab olgan ekan.

Imom Buxoriy o'n sakkiz-yigirma yoshlaridan boshlab kitob yoza boshlagan. Uning «al-Jome' as-sahih» asari sunniylar tomonidan e'tirof etilgan olti sahih kitobining birinchisidir. Undan tashqari yigirmaga yaqin kitoblari bo'lib, ko'plari bizgacha yetib kelmagan. Movarounnahr musulmonlari diniy boshqarmasi qarmog'idagi kutubxonada «al-Jome' as-sahih» (Ishonchli to'plam), «At-Tarix al-kabir», «At-Tarix as-sag'ir», «al-Qiroatu xalfa-l-Imom» («Imom ortida turib namoz o'qish»), «Raf'ul-yadani fis salot» («Namozda ikki qo'lni ko'tarish») kabi asarlarning qalamiy nusxalari mavjuddir. Imom Buxoriyning boshqa bir qancha asarlari ham bor: «Al adab al-mufrad» («Adab durdonalari»), «Asmi-as-sahoba», «Kitob af'ol il-ibod», «Kitob bad i-l-

maxluqot», «Birrul-Volidayn», («Ota-onaga yaxshilik qilish haqida»), «Tarix us-siqat va-z-zu'afo min ruvot il-hadis», «Tarixi Buxoro», «Kitob us sulosiyosat», «Al-jome' as-sag'iy», «Al-Jome' al-kabiyr», «Kitob ul-Fafoid», «Kitob ul-Vijdon», «Kitob ul-hiba», «Xulq af'ol il-ibod», «Kitob ul-musnod al-kabiyr» va boshqalar.

Imom Buxoriyning «Al-Jome' as-sahih» deb nomlangan 4 jild (juz')dan iborat hadislar to'plami islom olamidagi boshqa muhaddislar tuzgan to'plamlar orasida eng ishonarli va mukammalidir. Mazkur to'plamda Muhammad va uning sahobalari haqidagi hadislardan tashqari fiqh, islom marosimchiligi, axloq-odob, ta'lim-tarbiya hamda «Iymon», «Tahorat», «Namoz», «Zakot», «Nikoh», «Taloq», «Xaj», «Jihad», «Maloikalar haqida», «Olamning paydo bo'lishi» («Dastlabki yaratish») kabi 100 bobga bo'lingan. Shuningdek, o'sha davr tarixi va etnografiyasiga oid hadislar ham mavjud bo'lib, unga 600 ming hadisdan faqat 7275 ta eng «sahih»-haqqoniy, ishonchli hadislar kiritilgan. Mazkur to'plam Misr va boshqa bir qancha mamlakatlarda juda ko'p marta chop etilgan, unga yirik ulamolar tomonidan sharhlar bitilgan. Bu kitob yozilganiga hijriy bo'yicha 1200 yilcha bo'ldi. O'sha davrdan boshlab barcha ulamolar bu asarga Qur'ondan keyingi ikkinchi o'rinda turadigan manba deb baho berib keladilar. Imom Buxoriyning ushbu kitobi ma'naviy qadriyatlarimizni tiklashda, kishilarda axloq-odob, halollik, rostgo'ylik, poklik singari umuminsoniy fazilatlarini qaror toptirish va mustahkamlashda muhim ahamiyatga egadir.

Imom al-Buxoriyning «Al-Adab al-Mufrad» (Adab durdonalari) kitobiga kirgan ba'zi hadislardan keltiramiz. Masalan, farzandlarning ota-ona oldidagi burchi haqida bunday deyiladi: Rasulullohdan: «Ey Rasululloh, men yaxshiligimni kimga qilsam bo'ladi?»-deb so'ralganda, «Onangga»,-dedilar. Men shu savolni uch martaba qaytarsam ham, Rasululloh: «Onangga»,-deyaverdilar. To'rtinchi marotaba so'raganimda: «Otangga va yaqin bo'lgan qarindoshlaringga»,-dedilar.

Hadislarda Rasul akramning yana shunday tabarruk so'zlari keltiriladi: «Ota-onalarning keksalik vaqtida har ikkisi yoki biri bo'lmaganda, boshqasini rozi qilib, jannatiy bo'lib olmagan farzand xor bo'lsin, xor bo'lsin va yana xor bo'lsin».

Ota-onani hurmat qilish har bir insonning muqaddas burchidir. Insoniyatning yashash bilan bog'liq shaxsiy, ijodiy munosabatlar, oila, jamiyat, vatanga sadoqat, axloq-odobga oid ko'rsatmalar vatandoshimiz Imom al-Buxoriyning hadisi shariflarida keng va mujassam o'z bayonini topgan.

Hozir O'zbekiston qomuslar bosh tahririyati Imom Buxoriyning bu 4 jildlik betakror mumtoz asarini arabchadan o'zbekchaga o'girib nashr qildi. Hadislar arabshunos olim professor N.Ibrohimov va shoir M.Kenjabekov tahriri ostida bosilib chiqdi.

Imom Buxoriy chet el safaridan Buxoroga qaytgach, mahalliy ulamolar undan tahsil ko'ra boshlagan. Shu vaqtda Abbosiy xalifaligining Buxorodagi noibi az-Zuhaliy: «Bundan buyon amirlik saroyiga kelib turing va bolalarimga (ikkinchi rivoyatda: saroy ahliga) «al-Jome' as-sahih»dan dars bering»,-deb maktub yuboradi. Imom bu taklifni qabul qilmaydilar va «Men ilmni xorlab sulton amirlar eshigiga olib bormayman. Agar amirga ilm kerak bo'lsa, bolalarini (ikkinchi rivoyatda saroydagilarni) uyimga yoki masjidimga yuborsin!»-deb javob qaytarganlar.

Natijada u kishini ko'rolmagan ba'zi hasadgo'y, dili qora, xudbin shaxslarning fitna va ig'volari tufayli amir az-Zuhaliy uning Buxoroni tark etishi shartligi haqida farmon bergan. Natijada u Samarqandning Xartang qishlog'idagi qarindoshi ibn Jibril degan kishining uyiga ko'chib ketadi va o'sha yerda betob bo'lib yotib qolgan. U 870 yil 31 avgustda 62 yoshida vafot etgan. Ertasi hayit kuni janoza o'qilib, shu Xartangda dafn qilingan.

Hozirgi vaqtda Samarqand yaqinidagi Poyariq tumani xududida Imom Buxoriy nomi bilan bog'liq ziyoratgoh mavjud bo'lib, u Hoji Ismoil masjidi nomi bilan mashhur. Uni Buxoro amiri Abdullaxon qurdirgan. 1974 yili Imom Buxoriyning 1200 yilligiga bag'ishlangan jahon anjumani o'tkazilgan edi.

Mustaqilligimiz yillarida buyuk vatandoshimiz al-Buxoriyning merosini o'rganishga, uning masjidi va qabrini ta'mirlashga alohida e'tibor berildi. 1996 yili O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Imom Buxoriyning 1998 yilda o'tkaziladigan 1225 yillik yubeleyini munosib tayyorgarlik bilan kutib olish haqida maxsus qaror qabul qildi. Ushbu qarorga asosan Imom al-Buxoriyning Samarqanddagi masjiti va qabri qayta ta'mirlandi. 1998 yili, uning tavallud topgan kunini nishonlashga yig'ilgan vatandoshlar, olimu, imom-hatiblar, chet eldan kelgan diniy arboblardan bu yangi tarixiy obidaning islomiy qadriyatlarining tiklanishi deb baholadilar. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan amalga oshirilgan bu shijoat musulmonlarning har galdagi haj safaridan oldin kelib ziyorat qilinadigan obidaga aylantirdi.

Buyuk muhaddis Iso at-Termiziy. Ma'lumki, 1990 yil 14-17 sentabr Toshkent shahrida buyuk alloma, muhaddis Abu Iso Muhammad ibn at-Termiziy tavalludining 1200 yilligiga bag'ishlangan «Imom Abu Iso Termiziyning ilmiy merosi va hozirgi zamon» degan mavzuda xalqaro Islom anjumani bo'lib o'tgan edi.

Imom Termiziy payg'ambar hadisilari, hatti-harakatlari to'g'risidagi sahih rivoyatlarni, ul zotning oila a'zolari, yaqinlari va sahobalaridan to'plab kelajak avlod uchun ulkan va bebaho meros qoldirgan. Islom dunyosida oltita sahih hadis to'plovchilar tan olingan va Imom Termiziy ular orasida munosib o'rinda turadi.

Aziz vatandoshimiz buyuk muhaddisning to'la ismi shariflari Abu Iso Muhammad ibn Iso bin Savra bin Muso bin al-Zahhoh az-Zarir at-Termiziy al-Bug'iy. Ul Zot islom olamidagi mashhur muhaddislardan biri bo'lib, hadis, tarix va boshqa ko'plab ilmlar sohasida asarlar yozgan.

Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, Imom Termiziy 824 yili Termiz shahrida tug'ilganlar. Yoshlik chog'larida ilmga katta qiziqish va ishtiyoq ko'rsatgan. Hadis o'rganish maqsadida u 850 yildan boshlab Islom dunyosining turli shahar va diyorlariga safar qilgan. Hijoz, Xuroson va boshqa joylarda bo'lib, mashhur muhaddislar, ulamolar bilan muloqotda bo'lgan, ulardan ta'lim olgan. Imom al-Buxoriy shogirdlikdan tashqari at-Termiziy Muslim ibn Sa'id, ibn Muso, ibn Giylon, ibn Abdurahmon, ibn Bashshor, ibn Hujr, ibn Muni', ibn al-Musanno, Sufyon, ibn Vaqi' kabi yirik muhaddislarni o'ziga ustoz deb bilgan.

Manbalarda ko'rsatilishicha, Imom al-Buxoriy Imom at-Termiziy to'plagan hadislarining sinchiklab o'rganishdagi nodir qobiliyati, taqvodagi ustunligini tan olgan va bunga shohidlik bergan.

Taniqli muhaddislarning ko'plari Imom at-Termiziyning hadis ilmini takomillashtirish va uni kelgusi avlodlarga sof holda yetkazishdagi xizmatlarini yuqori baholaganlar. Hadis imomlaridan al-Idrisiyning ta'biricha, u kishi «hadis bobida iqtido qilinadigan imomlardan biridir».

Termiziyning «Al-Jome'», («Jalovchi»), «Ash-Shamoyil an-nabaviya», («Payg'ambarning alohida fazilatlarini»), «Al-ilal fil hadis», («Hadislardagi og'ishlar»), «At-tarix», «Kitob az-zuhd», «Kitob al-asmo va-l-kuno», At-Termiziy qalamiga mansub asarlarning to'la bo'lmagan ro'yxatidir.

At-Termiziyning fiqh boblariga moslab tasnif qilgan «Sunan» nomli kitoblariga tegishli mavzularni o'z ichiga atroflicha qamrab olganligi sababli «Al-Jome'» deb nom olgan. Bu asar

1867-68 yillarda Mirtohda toshbosmada, so'ngra 1876-77 yillar 2 jild bo'lib Qohirada nashr etilgan. At-Termiziy tayyorlagan hadislar majmuasi ham Qohirada «Sahih» deb, boshqasi «Jome'» degan nom bilan chiqqan. Uning bu kitobida takror hadislar uchramasligi o'tmish muhaddislar asarlarida zikr qilinmagan. «Manoqib» va «Tafsir Qur'on» boblarining kengaytirib berilganligi mazkur kitobning qiymatini yanada oshiradi.

Undagi hadislar uch guruhga bo'lingan: Sahih, Hasan va Zaif. Har bir hadisni zikr qilgan, uni qaysi guruhga mansub ekanligini aytib ketadi. (Masalan: «Bu hadis sahih, bunisi esa Hasan yoki Zaif»).

Imom at-Termiziyning «Kutubi sitta» («Olti kitob») mualliflari orasida tutgan o'rnini belgilash borasida ko'pchilik ulamolar o'z fikr va mulohazalarini bayon qilganlar. Jumladan, turk olimlaridan professor Talat Ko'jyigitning ko'rsatishicha, at-Termiziyning «Sunan» kitobi hadischi olimlardan bo'lmish an-Nasoniy va Abu Dovudning kitoblaridan keyin uchinchi o'rinda turadi.

Muallifga nisbat berilib, shuhrat qozongan bu kitobni «Jome' at-Termiziy» ham deyishadi. («Uni «Sunan» deb ham ataydilar, faqat birinchisi mashhurroqdir»).

Imom al-Ansoriy at-Termiziyning kitobini yuqori baholagan. Zero, uning aytishicha, al-Buxoriy va Muslimning kitoblaridan ko'proq imomlargina foydalanadilar, at-Termiziyning kitobi esa har bir oddiy inson uchun foydalidir.

Imom at-Termiziy o'zining shoh asarini yozib tugatgach, uni zamonasining mashhur ulamolariga ko'rsatgan va ularning roziligini olgan. Bu haqda at-Termiziyning o'zi shunday deydi: «Bu kitobni tasnif etgandan keyin, uni Xijoz, Iroq va Xuroson ulamolariga ko'rsatdim va ularga ma'qul bo'ldi». Payg'ambar hadislarini to'plash va o'rganishda at-Termiziy ikki xil yo'ldan borgan. Birinchidan, hadislarining isnod (asl) manbalarining mazumini tanqidiy tahlil etgan. Ikkinchidan, har bir hadis atrofida borgan mazhablararo nuqtai nazarlar kurashiga e'tibor qilgan, ularga tanqidiy yondashgan.

Ular Abu Xanifa, Imom Shofe'iylar izidan borib, bir tomondan islomga Ijmo', Qiyos, Ra'y kabi oqilona tamoyillarni kiritganlar. Asarlari musulmon Sharqidagi hurfikirlik, diniy-falsafiy, diniy-axloqiy tafakkurning keng qamrovligini, umuman islomning nihoyatda zamon va shart-sharoitlarga moslasha olish qobiliyati shakllanishida muhim rol o'ynagan.

Boshqa tomondan esa, at-Termiziy O'rta Osiyo, Eron xalqlarining urf-odatlarini, davlatchilik qonun-qoidalari va qadimgi diniy e'tiqodlarni islomga moslashtirilgan tarzda singdirishda ham katta xizmat ko'rsatgan. Masalan, ilk islomda juda katta munozaralarga sabab bo'lgan aziz-avliyolarning islomdagi nufuzi tan olinishida u zot katta xizmat ko'rsatgan. Xususan, «Kafsh al-Mahjub» asari muallifi Xujviriyni fikricha, at-Termiziy sufiylar ta'limotiga valiyar va ularning nufuzlari, darajalari to'g'risidagi muazzam muammoni kiritganlar.

Imom Termiziy yuksak axloqiy va insoniy fazilatlariga ega, yuksak zakovat va zehn sohibi, fanning turli sohalarida atroflicha chuqur va yetuk bilimga ega bo'lgan kishi edi. Turmushda alohida ajralib turar, kam taom iste'mol qilib, ko'p mehnat va ijod qilar, axloqsizlikni qoralar edi. U zot har doim ilm-fanni targ'ib qilar, ayniqsa yoshlarni ilm olishiga da'vat etardi. Ayni paytda, muloyimlik va xushfe'llik ul zotning go'zal fazilatlaridan biri edi.

Umr bo'yi qilingan uzluksiz ilmiy izlanishlar, mutolaa, asarlar yaratish mashaqqati, hayotiy uqubatlar o'z asoratini ko'rsatgan, umrining oxirgi yillariga kelib ko'zlari ojiz bo'lib qolgan va 892 yili 70 yoshida termizda vafot etganlar.

Hozirgi vaqtda at-Termiziyning maqbarasi Sherobod tumani markazi yaqinidagi qishloq qabristonida qad ko'tarib turibdi. Mustaqilligimiz yillarida bu qabriston yangitdan ta'mirlandi,

tevarak-atrof obodonlashtirilib, ziyoratgohga aylantirildi. Qadim-qadimdan musulmonlar uchun bu yer ziyoratgoh hisoblanadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Islomning vujudga kelishi sabablarini tahlil qiling.
2. Arabiston yarim orolining aholisi islomgacha qaysi dinga e'tiqod qilgan?
3. Hanafiylar harakati qanday g'oyaga asoslangan?
4. Nima uchun Yasrib shahri aholisi Muhammad alayhissalomning da'vatlarini qabul qilgan?
5. Qur'oni karim ilmiy ahamiyati haqida fikr yuriting.
6. Qur'oni karim suralariga xos xususiyatlar nimalardan iborat?
7. Islom iymoni aqidalari deganda nimani tushunasiz?
8. Islomning asosiy bayramlarini izohlang.

7-MAVZU. ISLOM DININING AQIDAVIY YO'NALISHLARI VA MAKTABLARI

Reja:

1. Kalom ilmining shakllanishi. Ilk aqidaviy adabiyotlarning islom dinining qabul qilinishidagi o'rni.
2. Islom oqimlari va yo'nalishlarining paydo bo'lishi sabablari, e'tiqodidagi bo'linishlarning sabablari va oqibatlari.
3. Sunniylik va shialik yo'nalishlarining paydo bo'lishi va ular e'tiqodidagi farqlar.
4. Moturidiylik va ash'ariylik maktablari.

Tayanch so'z va iboralar: *Tasavvuf, sunniylik, shialik, Xanafiya, Molikiya, Shofi'iya, Hanbaliya, Zaydiya, Isno'ashariya, Ja'fariya, Ismoilিয়া.*

1- reja bayoni. Kalom ilmining shakllanishi. Ilk aqidaviy adabiyotlarning islom dinining qabul qilinishidagi o'rni.

Kalom(arab.-ravon nutq, jumla,gap,so'z)-islom ilohiyot ilmi. VIII asrda arab xalifaligida paydo bo'lgan. Kalom islom diniy ta'limotini asoslashga harakat qiladi. Kalom ilmi tarafdorlari mutakallimlar deyiladi. Kalom ilmi turli diniy-siyosiy guruhlar(xorijiylar,qadariylar, jabariylar, murjiylar va h.k) paydo bo'lishi bilan bog'liq bahslar jarayonida vujudga keldi va taraqqiy etdi.

Islom ta'limotiga rahna soluvchi turli oqimlarga qarshi kalom ilmi – “ilm ul-aqoid”, ya'ni kalom ilmini himoya qiluvchi ikkita oqim – Ash'ariya va Moturidiya oqimlari vujudga keladi.

Ash'ariya (873-935) ta'limoti: ongni, ya'ni aqlni diniy an'anachilikdan (naqldan) ustun qo'yadi va shariat musulmonlarning hayotini boshqaradi, deb hisoblaydi.

Taqlidni, ya'ni ko'r-ko'rona diniy rahbarlarga, ularning fikrlarini tanqidiy qaramasdan bo'ysunib, itoat etishni inkor qiladi va hatto taqlid qiluvchilarni mo'min emas, deb hisoblaydi.

Islom ilohiyot ilmi (islomning diniy-falsafiy ilmi) – kalom – yakkaxudolik, tavhid, olam, borliq, inson, ularning yaratilishi, mohiyati, mavjudligi, e'tiqod mazmuni, olamning, insonning o'zgarishi, taqdiri va h.k masalalarni qamrab oladi.

Kalom ilmi diniy-nazariy masalalarni aqlga, mantiqqa asoslanib tahlil qiladi. Ratsionalistik, mantiqiy tahli va umumlashtirish negizida ko'rilayotgan masalani dalillash, mulohaza yuritib xulosalar qilish kalomning mazmunini tashkil etadi. Uni islom ratsionalistik tafakkurining, dunyoqarashining nazariy o'zagi deyish mumkin. Din masalalarida aqliy bilishga, mantiqqa qattiq suyanish va mistika (g'ayri tabiiy kuchlar)dan yiroqligi bilan u tasavvufdan keskin farq qiladi. Qur'onni mantiqqa va aqlga suyanib tafsir etadi. Hadislarni ham xuddi shunday tushuntiradi. Kalom kamdan-kam holatlarda majoziy talqin qilinadi.(A.Erkaev. Ma'naviyat va taraqqiyot. T.: M'naviyat. 2009 yil. 118-119-betlar).

Kalom ilmining mu'tazila oqimi VIII asrda Ummaviylar xalifaligining oxirlarida vujudga kelib, Abbosiylar davrida katta ta'sir kuchiga ega bo'lgan oqimdir. Abbosiy xalifalar al-Ma'mun, al-Mu'tasim va al-Vosiqlar davrida (813-847) rasmiy e'tiqod darajasiga ko'tarilgan. Xalifa al-Mutavakkil davriga kelib mu'taziliy ta'qibga uchraydi.

Mazkur qoimning asoschisi Vosil ibn Ato (vaf. 748 y)dir. U mashhur islom ilohiyotchisi va faqihi Hasan al-Basriy(vaf. 728)ning shogirdlaridan biri bo'lgan.

Mu'taziliylik oqimi dastlab “inson o'z amalini o'zi yaratadi”, degan fikr bilan o'z ta'limotlarini boshlaganlar. Keyinchalik o'z e'tiqodlarini besh asosda barpo qilganlar:

1. At-Tavhid (Allohning yagonaligiga e'tiqod qilish). Bu aqidaga ko'ra, mu'taziliylar Allohni sherikdan, o'xshatishlardan pok, uning hukmiga hech kim qarshi chiqa olmaydi,

insonlarda sodir bo'ladigan holatlardan hech biri unda sodir bo'lmaydi, deb biladilar. Ahl al-sunna ularni quyidagi maqelari uchun tanqid qiladilar: a) Allohni oxiratda ko'rish mumkin emas; b) Allohning sifatleri uning zotidan boshqa narsa emas; s) Qur'onning yaratilganligi.

2.Ai-Adl (Adolat). Bunga ko'ra, Alloh bandalarining amallarini yaratmaydi, ularning buzilishlariga ham rozi bo'lmaydi, balki bandalarining o'zlari Alloh ularga bergan qudrat bilan buyurilgan ishlarni bajaradilar va qaytarilgan ishlaridan saqlanadilar. Alloh bandalariga faqatgina o'zi yaxshi ko'rgan amallarni buyuradi va ularni o'zi yomon ko'rgan barcha amallardan qaytaradi.

3.al-Va'd (solih amalga mukofotning) va **va-l-va'id** (yomon amallarga jazo berish). Ushbu aqidaga ko'ra, Alloh bandalarining qilgan amallariga qarab ularga mukofot yoki jazo beradi. Katta gunoh qilgan bandalariga esa to'g'ri qilmaganlariga qadar kechirmaydi.

4. al-Manzila bayna-l-manzilatayn (mo'minlik va kofirlik orasidagi holat). Bunda zino, o'g'irlik, mast qiluvchi ichimliklar ichish kabi katta gunoh qilgan banda mo'min ham bo'lmaydi, kofir ham bo'lmaydi, balki shu ikki daraja o'rtasida qoladi. Bu aqida mu'tazila asoschisi Vosil ibn Ato tomonidan belgilangan.

5.al-Amr bi-l-ma'ruf (yaxshilikka buyurish) **va-nnaxy ani-l-munkar** (yomonlikdan qaytarish). Mu'taziliylar ushbu qoidani islom diniga da'vat, adashganlarga yo'l ko'rsatish barcha mo'minlarga uchun vojib deb hisoblaydilar. Har bir mo'min o'z imkoniyatidan kelib chiqib, bu vazifani bajarishi zarur deb hisoblaydilar.

Mu'taziliylar e'tiqodiy masalalarni bayon qilishda aqlni naqladan ustun qo'yadi. Ularni yunon va hind falsafasidan ta'sirlangan holda, har bir masalani aqlga tayanib yechishga harakat qiladilar.

Ahl as-sunna va-l-jamoa e'tiqodi. Kalom ilmi o'rta asrlarda diniy-falsafiy fikrlarni, dinning nazariy asoslarini o'rganish, islom aqidalariga e'tiqod qilish haqidagi bilimlarni jamlagan. E'tiqod qilinishi lozim bo'lgan diniy talablarga nisbatan aqliy mulohaza yuritish jarayonida kalom maxsus bilimlar tizimi majmui sifatida vujudga keldi. Kalom (ilm al-kalom) atamasi keng ma'noda o'rta asrlar musulmon adabiyotida diniy-falsafiy mavzularda erkin fikr yuritishlarga nisbatan qo'llanilgan, tor ma'noda esa Qur'on va sunna ta'limotini aql-idrokka mos talqin etish, tafakkurga suyanib ish yuritishga nisbatan ishlatilgan.

Kalom ilmi dastlab islomda mavjud bo'lgan turli diniy-siyosiy firqalar (**xavorijlar**, **qadariylar** (Gunoh oldindan belgilangan bo'lishi mumkin emas, xudodan faqat adolatli ishni kutish mumkin, gunoh ishlar esa inson faoliyati bilan bog'liq, **jabariylar** (Inson taqdirini xudo oldingan belgilab qo'ygan, hech qanday iroda va faoliyat erkinligi yo'q, bular faqat xudoda mavjud, inson esa ana shu faoliyatni o'zlashtirib olish imkoniyatigagina ega, degan ta'limotni ilgari surganlar), **murji'iyalar** (Katta gunoh qilganni darhol jazolash tarafdori bo'lgan xorijiylarga qarshi jazolashni kechiktirishni yoqlab chiqqanlar.)ning o'zaro munosabatlari va boshqa din (**mazdakiylik**, **xristianlik**) vakillari bilan bahs jarayonida shakllandi. Ushbu tortishuvlarda Qur'on va sunna kabi islom manbalari asos qilib olindi.

2-reja. Islom oqimlari va yo'nalishlarining paydo bo'lishi sabablari, e'tiqodidagi bo'linishlarning sabablari va oqibatlari.

Rasululloh (s.a.v.) shunday deganlar: "Yahudiylar 71 firqaga bo'linganlar. Nasroniylar 72 firqaga bo'linganlar. Mening ummatim 73 firqaga bo'linadi. Ularning hammasi zalolatda bo'ladilar. Faqat savodi a'zam (mutlaq ko'pchilik) bo'lgani hamda mening va ashobimning yo'lida bo'lganlar bundan mustasno" Payg'ambar vafoti haqidagi xabar Madina ahli orasida

yoyilgach, ansorlar Bani soida saqfasida Xazraj qabilasining sayidi Sa'd ibn Uboda yoniga to'plandilar. Ayni paytda musulmonlardan birining Abu Bakr oldiga kelib, Bani soida saqfasida ansorlar Rasululloxga xalifa saylash uchun yig'ilganlarini xabar berishi e'tiborga loyiq. Chunki xuddi shu ma'lumot musulmonlar o'rtasida xalifa saylash bir qator murakkab ixtilofiy muammolar bilan amalga oshishidan xabar beradi. Abu Bakr, Umar ibn al-Xattob va Abu Ubayda ibn Jarroxlar Sa'dning betob bo'lishiga qaramasdan, ansorlarga ma'ruza kilayotgan paytiga etib keldilar. Muhojirlar xalifani Quraysh qabilasidan saylanishini xohlar edilar. Chunki Quraysh qabilasi Arabiston yarim orolida nufuzi yuqori edi. Agar xalifa boshqa qabiladan saylansa, davlat ichida fitna oralashi shubxasiz, chunki muxojirlar birinchilardan bo'lib payg'ambarga iymon keltirganlar va Makka mushrikklarining azoblarini birga totgan edilar.

Ansorlar esa muhojirlardan ko'ra xalifalikka o'zlarini xaqliroq deb bilardilar. Ular payg'ambar qiyin axvolda qolganda unga yordam qilganlar va o'z shaharlarining to'rini bo'shatib bergandilar va u bilan birga mushrikklarga qarshi elkama-elka turib jang qilgan edilar.

Muhojirlar xalifalikka Quraysh qabilasining nomzodini qo'yar ekanlar, payg'ambarning "Imomlik Quraysh xaqqi", "Imomlik Qurayshdan, qozilik ansordan va azon chaqirish esa xabashdandir" - degan hadislarini dalil qilar edilar. Ular xalifalikka Umar ibn al-Xattob yoki Abu Ubayda ibn Jarroxning nomzodini ko'rsatardilar.

Mazkur xalifalikka nomzodlar orasida Payg'ambarning urug'idan xalifa saylanish tarafdorlari ham bor edilar. Ular Ali ibn Abi Tolib, Abbos, Zubayr, Fotima va boshqa Xoshim urug'ining vakillari edi. Ular xalifalikka payg'ambar oilasidan boshliq saylash ishtiyoqida edilar. Bu guruh xalifalikka Alini, undan keyin uning o'g'lini, keyin nabirasini va x.k. saylamoqchi edilar. Ularning ta'birlaricha, o'rinbosar emas, faqat etakchi imomgina Qur'onni sharx va tafsir qilishi, hadislarini tahlil etishi va shariat ishlarida xukm, fatvo chiqarishi mumkin edi. Shuning uchun ular payg'ambar izdoshiga xalifa emas, "Imom" laqabini berganlar.

Shu ikki guruh orasidagi kichkina ixtilof islom ummatining Sunniy va Shia oqimlariga bo'linishiga sabab bo'ldi.

Abu Bakr xalifalikka saylangach, uni musulmonlar "xalifat Rasulullox", ya'ni "Payg'ambarning o'rinbosari" deb atadilar. Undan so'ng xalifalikka saylangan Umar ibn al-Xattob payg'ambarning emas, balki Abu Bakrning o'rinbosari bo'lishi kerak edi. SHuning uchun musulmonlar uni "xalifat xalifat Rasulullox", ya'ni "Payg'ambar o'rinbosarining o'rinbosari" deb atashlari zarur edi. Bunday qiyin talaffuzdan qochish maqsadida Umar ibn al-Xattob o'zini "Amirul mu'minin", ya'ni mu'minlarning amiri deb atashlarini ma'qul ko'rgan edi.

Xalifalik Ali ibn Abi Tolibga etib kelgach, esa uning tarafdorlari uni "Imom" deb atay boshladilar. SHunday qilib, ilk arab xalifalari: xalifa, amirul mu'minin va imom laqablari bilan nomlanganlar.

Shunday qilib Islom dini ikki oqimga bo'lindi: Sunniylar va Shialar.

Sunniylar oqimining mazhablari quyidagilardan iborat:

Xanafiya, Molikiya, SHofi'iya, Hanbaliya mazhablari.

Shia oqimining mazhablari quyidagilar: **Zaydiya, Isno'ashariya, Ja'fariya, Ismoiliya, Ubaydiya, Karmatiylar va boshqalar.**

Abu Abdulloh Halimiy shunday degan:

"Ahli sunnaning asosiy xususiyati uchta:

1. har amirning orqasida namoz o'qish (ya'ni ularni fosiq va fojirga ajratmaslik);
2. har bir davlat rahbarining rahnamoligida jihad qilish (ya'ni ular bilan birga jang qilish, ularga qarshi jang qilmaslik);

3. ahli qibladan bo'lgan har bir kishiga janoza namozini o'qish (ya'ni ularni kofir demaslik)".

Xorijiylik. Hazrat Alining yon berganidan norozi bo'lgan uning 12 ming askari bo'ysunishdan bosh tortib, Harura nomli qishloqqa ketdilar. Bu guruh keyinchalik «Xorijiyalar» (yoki al-xavoriij, xorijiy) deb ataldi. Ba'zi manbalarda ularning nomi ilk to'plangan joylariga nisbat berilib, «Haruriya» deb ham ataladi. Xavoriijlar o'zlariga Abdulloh ibn Vahb Rosibiyni amir etib saylab, Ali va Mu'oviyani yo'q qilish payiga tushdilar. Xalifa Alini 660 yilda xorijiy Abdurrahmon ibn Muljam o'ldirgach, xavoriijlar ikki firqaga bo'linib, biri Iroqda qoldi, ikkinchisi Arabiston yarim oroliga ketdi. Umaviylar davrida xavoriijlarga qarshi keskin kurash olib borildi. Chunki ular Umaviylar davlatiga katta xavf solardilar. Bu davrda xavoriijlar kuchayib, Kirmon, Fors, Yamoma, Hadramavt, Toif va Yaman kabi shahar va o'lkalarni egalladilar.

Hokimiyat Umaviylardan Abbosiylar sulolasi (749–1258) qo'liga o'tganidan keyin ham bu toifa bir muddat o'z kuchini yo'qotmadi. Biroq Abbosiylar uzoq vaqt ularga qarshi uzluksiz olib borgan kurashlaridan so'nggina xavoriijlar inqirozga yuz tutdi.

Shialik. Siffin jangi natijasida haruriylar bilan deyarli bir paytda o'zini "shiatu Ali" (Alining guruhi) deb atagan aliparast oqim ham yuzaga keldi. VII asr oxirlariga kelib SHialik, Iroq va Eronda keng tarqalgan va islomdagi mustaqil diniy yo'nalishga aylangan. SHialik boshda har qanday ixtilof va aqidaviy farqlardan xoli holda, faqat siyosiy harakat sifatida namoyon bo'lgan edi. Keyinroq diniy ixtiloflar, aqidaviy farqlar vujudga kelgan. Sha so'zining to'liq shakli "ash-Shia" (tarafdorlar, guruh, partiya) yoki "Shiatu Ali" (Ali tarafdorlari) bo'lib, bu nom hazrat Aliga ergashganlar va ularning avlodlariga nisbatan berilgan.

Shialikda imomat asosiy diniy ruknlardan hisoblanib, u jamiyat manfaatlaridan emas, balki din ruknlaridan kelib chiqadi deb e'tiqod qilinadi. Ularning ta'limotiga ko'ra, rahbar xalq tomonidan saylanmay, balki rahbarlik meros sifatida o'tadi. Rasululloh Alini xalifa etib tayinlagan, undan keyin esa xalifalik uning avlodlarida qonuniy meros sifatida vasiyat yo'li bilan uzatiladi. Ular Alining xalifalikka haqli ekanligini ilohiy deb biladilar, imomlik ularda payg'ambarlik kabi ilohiy mansab hisoblanib, Alloh bandalari orasidan payg'ambarlarini tanlab, ularni gunohlardan saqlagani va ularga "ilmi ladun" (Allohhuzuridan berilgan ilm) bergani kabi, xalifalarni ham shunday tanlaydi deytilar. Abu Bakr, Umar va Usmonlar esa bu huquqni Alidan zo'rlik bilan tortib olishgan, Ali o'sha davrda xalifalikni boshqarganmi yoki yo'qmi bundan qat'i nazar, Alining xalifaligi Rasululloh vafotlarining birinchi kунidan boshlangan, deb da'vo qiladilar.

Zaydiylar. Mazkur firqa asoschisi Zayd ibn Ali Madinada tug'ilgan (698–740). Zayd ibn Ali ilm yo'lida Basraga borib mo'tazila, qadariya, jahmiya va boshqa turli firqalar aqidalari asoslarini o'rgandi.

Zaydiylar e'tiqodiga ko'ra:

- bir vaqtning o'zida ikki o'lkada ikki imomga bay'at qilish joiz
- imomlar begunoh emas;
- taqiya (sharoit og'irlashgan paytda e'tiqodni sir tutish) nojoiz;
- sahobalar haqida noloyiq so'zlarni aytish mumkin emas;
- Abu Bakr, Umar va Usmon (r.a.)lar ham xalifalikka loyiq bo'lganlar.

Imom Zayd ibn Alining "Majmu'" nomli kitobidagi qarashlari zaydiya fiqhining asosini tashkil qiladi. U ham boshqa faqihlar kabi birinchi o'rinda Qur'onni, keyin esa sunna, ijmo, qiyos, istihson, so'ngra aqlni shariat asoslaridan deb hisoblaydi.

Ja'fariya. Shialikning imomiya firqasidagi imomlardan biri Abu Abdulloh Ja'far as-Sodiq 699 yil Madinada tug'ilgan. U Imom Muhammad ibn al-Boqirning o'g'li bo'lib, ota tarafidan

nasabi Ali ibn Abi Tolibga, ona tarafidan nasabi Abu Bakr as-Siddiqqa boradi. U Islomda birinchilardan bo'lib falsafa yo'nalishiga asos solgan. Bundan tashqari u fiqh, hadis, kalom ilmlarida ham peshqadamlardan bo'lgan. Ja'fariya mazhabining sunniylik mazhablaridan farqli tomoni shundaki, ularda qiyos bilan fatvo chiqarish usuli tan olinmaydi, hadislardan faqat payg'ambar xonadonidan bo'lgan ahli bayt rivoyat qilganlarinigina qabul qiladilar. Bundan tashqari ularda vaqtinchalik nikoh – "mut'a" va taqiya halol deb hisoblanadi.

Ismoiliya. Islomdagi shia oqimining asosiy shahobchalaridan biri bo'lib, Islom tarixida juda muhim o'rin tutgan. Ushbu firqa vakillari turli mamlakatlarda "botiniya", "sab'iya", "qarmatiya", "ta'limiya", "mulhidiya" va hokazo nomlar bilan atalganlar.

Ismoiliyaning paydo bo'lishi VIII asrda shialar orasidagi bo'linishdan boshlandi. SHialarning keyinchalik "imomiylar" deb atalgan bir guruhi Ja'far as-Sodiqning kichik o'g'li Muso al-Kozimni ettinchi imom deb tan oldilar. Chunki Imom Ja'far ichkilik va maishatga berilgan katta o'g'li Ismoilni vorislikdan mahrum etib, imomlikni kichik o'g'liga vasiyat qilgan edi.

3-reja bayoni. Sunniylik va shialik yo'nalishlarining paydo bo'lishi va ular e'tiqodidagi farqlar.

Islomdagi yo'nalishlar. Muhammad payg'ambarning vafoti va hokimiyat uchun kurash islomning uchta yo'nalishga – "Sunniy" ("to'g'ri yo'l")lik va "Shia" ("guruh")lik va "Xorijiylar", yo'nalishlariga bo'linib ketishiga olib keldi.

Sunniylik tarafdorlari o'zlarini "ahli sunna va-l-jamoa", ya'ni sunna ahli deb ataydilar va Muhammad Payg'ambarning shialar tomonidan buzilayotgan an'alariga faqat bizgina amal qilayapmiz, deb hisoblaydilar.

Bu yo'nalish tarafdorlari islomning Muhammad davridayoq shakllangan ta'limotining to'g'riligini, Hadisni Qur'ondan keyingi islom ilohiyati va shariatining ikkinchi manbai deb tan olgan, islomning an'anaviy diniy marosimlariga, maishiy, ijtimoiy qoidalariga amal qiladigan har bir musulmon sunniy hisoblanadi.

Sunniylik-bu islomda izchil, sobitqadam yo'nalish hisoblanadi. Musulmonlarning juda ko'pchilik qismi-92,5 foizi sunniylikka e'tiqod qiladi. Qolgan 7,5 foizini shialar, ibodiylar va xorijiylar tashkil qiladilar. Sunna arabcha odat, an'ana, xatti-harakat tarzi degan ma'nolarni bildiradi. Sunniylik degan so'z arabcha «Sunna»-«muqaddas rivoyat», ya'ni Muhammad to'g'risidagi rivoyatlar va uning hadislari to'plami degan tushunchadan olingan. Yana Sunna farzdan farqli ravishda bajarilishi ixtiyoriy bo'lgan ko'rsatmalar, amallaridir.

Sunniylar ummaviylar sulolasidan bo'lgan xalifalarning oliy hokimiyatga bo'lgan huquqini tan olganlar. Sunniylikda Sunna Qur'ondan keyingi asosiy muqaddas manba, hadislar to'plami deb qaraladi. U VII asr o'rtalarida shakllana boshlagan. Unda xalifalikdagi sinfiy munosabatlar, ijtimoiy ziddiyatlar, islom mafkurasi atrofida kurash o'z ifodasini topgan. Uni to'plash, sharhlash va nashr qilishda vatandoshlarimiz Ismoil Buxoriy, Imom at-Termiziy asosiy rol o'ynaganlar.

Sunniylik tarafdorlari o'zlarini "ahli sunna va-l-jamoa", ya'ni sunna ahli deb ataydilar va Muhammad Payg'ambarning shialar tomonidan buzilayotgan an'alariga faqat bizgina amal qilayapmiz, deb hisoblaydilar.

Bu yo'nalish tarafdorlari islomning Muhammad davridayoq shakllangan ta'limotining to'g'riligini, Hadisni Qur'ondan keyingi islom ilohiyati va shariatining ikkinchi manbai deb tan

olgan, islomning an'anaviy diniy marosimlariga, maishiy, ijtimoiy qoidalariga amal qiladigan har bir musulmon sunniy hisoblanadi.

Sunniylik-bu islomda izchil, sobitqadam yo'nalish hisoblanadi. Musulmonlarning juda ko'pchilik qismi-92,5 foizi sunniylikka e'tiqod qiladi. Qolgan 7,5 foizini shialar, ibodiyalar va xorijiyalar tashkil qiladilar. Sunna arabcha odat, an'ana, xatti-harakat tarzi degan ma'nolarni bildiradi. Sunniylik degan so'z arabcha «Sunna»-«muqaddas rivoyat», ya'ni Muhammad to'g'risidagi rivoyatlar va uning hadislarini to'plamini degan tushunchadan olingan. Yana Sunna farzdan farqli ravishda bajarilishi ixtiyoriy bo'lgan ko'rsatmalar, amallaridir.

Sunniylar ummaviylar sulolasidan bo'lgan xalifalarning oliy hokimiyatga bo'lgan huquqini tan olganlar. Sunniylikda Sunna Qur'ondan keyingi asosiy muqaddas manba, hadislar to'plamini deb qaraladi. U VII asr o'rtalarida shakllana boshlagan. Unda xalifalikdagi sinfiy munosabatlar, ijtimoiy ziddiyatlar, islom mafkurasi atrofida kurash o'z ifodasini topgan. Uni to'plash, sharhlash va nashr qilishda vatandoshlarimiz Ismoil Buxoriy, Imom at-Termiziy asosiy rol o'ynaganlar.

Sunniylik qisman Eron, Janubiy Iroq, Yaman, Markaziy Osiyo, Kavkaz, Volga bo'yi, Sibir, O'rol, Kichik Osiyo, Misr va Shimoliy Afrika, Indoneziya, Malayziyada keng tarqalgan. Uning muqaddas shaharlari Makka va Madinadir.

Mazhab so'zi arabcha "yo'l, yo'nalish" ma'nosini bildirib, istilohda esa "biror diniy masala, muammo bo'yicha muayyan muftohid olimning fatvosiga ergashish" ma'nosini bildiradi. Ilk islom davrida mazhablar ko'p bo'lgan. Ammo vaqt o'tishi bilan ular orasidan 4 yirik mazhab: hanafiylik, molikiylik, shofeylik, hanbaliylik ajralib chiqqan. Bu to'rt mazhab ikki aqidaviy ta'limot: moturidiya va ash'ariya bilan birgalikda "Ahli sunna val jamoa" deb ataladigan sunniylik yo'nalishini tashkil etadi.

Hanafiyy mazhab. Hanafiyylik asoschisi Imom A'zam Abu Hanifa No'amon ibn Sobitdir. No'amon ibn Sobit tarixga ikki sharaflilik nom bilan kirdi.

- Abu Hanifa, ya'ni to'g'ri yo'lda sobit turuvchilar rahnamosi.
- Imom A'zam, ya'ni buyuk imom.

Abu Hanifaning ba'zi asarlari haqida qisqacha ma'lumot:

1. "Kitob as-solat" - Abu Muqotildan rivoyat qilinganki, u aytdi: "Abu Hanifaning birinchi kitobi ushbu kitobdir".

2. "Kitob al-Manosik" - Abu Hanifa ustozini Imom A'mash (r.h.) hajga borishni niyat qilgan vaqtida unga atab yozgan. Chunki A'mash Ali ibn Mus'irni Imom Abu Hanifaga yuborib, undan hajning tartibi va hukmlari haqida kitob ta'lif qilib berishni so'ragan. Shunda Abu Hanifa bu kitobni yozib, Ali ibn Mus'irdan A'mashga berib yuborgan. Shunday bo'lsa bu kitob haj manosiklari haqida yozilgan birinchi kitob hisoblanadi.

3. "Kitob al-faroiz" - Al-Muvaffaq aytishicha, meros ilmidan birinchi yozilgan kitoblardanidir.

4. "Kitob ash-shurut" - Imom Quduriyning ustozini shayx Abu Abdulloh aytishicha, Abu Hanifaning shartnomalar haqidagi ushbu asari bu mavzudagi bitilgan birinchi kitobdir.

5. "Kitob al-olim val mutaallim" - savol va javob tariqasida bitilgan kitobdir.

6. "Kitob al-fiqh al-akbar" - sunniylik aqidasi bo'yicha bitilgan mashhur kitobdir.

7. "Kitob al-vasiya" - qozilarga pandu nasihatdan iborat bo'lib, Imom Abu Yusuf (r.h.) va boshqalarga atab ta'lif etilgan. **Hanafiyylik mazhab to'g'risida keying ma'ruzada alohida toxtalamiz.**

Molikiy mazhabi. Molikiy mazhabining asoschisi Imom Molik ibn Anasdir. Abu Abdulloh Molik ibn Anas al-Asbaxiy (r.h.) hijriy 93-179, milodiy 713-795 yillarda hayot kechirgan. Madina shahrida tugʻilib, shu erda vafot etgan. Uning nasabi Yamanlik Ziy Asbaxga boradi. Bobosining ismi Horis Ziy Asbax boʻlgani uchun Imom Molik Asbaxiy deya nisba olgan. Molik ibn Anasning Abu Omir ismli bobosi Paygʻambar (a.c.)ning sahobalar, boshqa bobosi Abu Anas tobeinlardan boʻlib, Usmon (r.a.)ni gʻusl qildirib, dafn qilishda ishtirok etganlarning biri edi. Imom Molik (r.h.) Madinai Munavvaradagi yirik ulamo va muhaddislar huzurlarida taʼlim oldi. Nofeʼ, Al-Maqbariy, Naʼim al-Mujmir, Zuhriy, Omir ibn Abdulloh ibn Zubayr, Abdulloh ibn Dinor, Ibn Munkadir, Ato ibn Raboh, Abdulloh ibn Ahmad kabilardan ilm oʻrgandi. Molik ibn Anas butun umri davomida faqat bir martaba Makkai Mukarramaga haj qilish munosabati bilangina Madinai Munavvarani tark qilgan. Hadis ilmi bilan koʻproq mashgʻul boʻlgan. Hadis rivoyat qiluvchi eng siqa (ishonchli) roviylardan hisoblanadi. Imom Molikning ustozlari Nofeʼdan, Nofeʼning esa Abdulloh ibn Umar (r.a.)dan rivoyat qilgan hadislar silsilasi muhaddislar oʻrtalarida “oltin sanad” deb yuritiladi.

Molik ibn Anas ham muhaddis va ham faqih boʻlgan. U Hijoz oʻlkasi (Arabiston yarim orolining gʻarbiy sohillari)dagi eʼtirof etilgan olim sifatida tanilib, “Imomul-Madina”, “Imomud-doril-hijra”, yaʼni Madina shahrining imomi degan unvonga musharraf boʻlgan. Imom Molik (r.h.) Imom Abu Hanifa va uning shogirdi Abu YUsof bilan muloqotda boʻlgan. U Arabiston zaminida zohir boʻlgan molikiy mazhabining asoschisi boʻlib tanildi. Zotan, Molik ibn Anas asos solgan bu taʼlimot Arabiston yarim oroli va Afrika mintaqasi aholisi uchun muvofiq keldi. Imom Molik umrining 40 yilini sarflab, “Muvatto” nomli ulkan kitobni yozdi. Bu kitobda u fiqhiy masalalarga doir oʻz echimlarini bayon qilgan va ularning isboti sifatida Paygʻambar (a.s.)ning juda koʻplab hadislarini rivoyat qilgan. Bu kitobda nafaqat hadislar balki, oʻsha zamondagi sahobalarning fikrlari va soʻzlari ham rivoyat qilingan. Undagi hadislar adadining koʻpligi sabab baʼzi ulamolar tarafidan “Muvatto” fiqhga emas balki, hadisga doir kitob deb qabul qilinishiga sabab boʻldi. Molik ibn Anas (r.h.) oʻz zamonining yirik muhaddisi boʻlgan. Oʻsha vaqtda hadislarini jamlash harakati endi taraqqiy qila boshlagan bir paytda “Muvatto” koʻplab hadislarini oʻzida jamlagan yagona kitob edi. Imom Molik madrasalarida asosan hadisdan dars berilgan, bu madrasa tinglovchilari ham muhaddislar boʻlishgan. Bu inkor etilmagan haqiqatdir. Lekin, Molik ibn Anasning boshqa faoliyati, yaʼni ijtihodini nazarga olmaslik mumkin emas. U har bir hadisni taxqiq etishda mulohaza bilan, hadisning tarixini, maqsadini mukammal oʻrgangan va shundan keyin oʻz nuqtai nazarini bayon qilgan. Shu tariqa molikiy mazhabi fiqhiy qoidalari shakllangan.

Boshqa mujtahidlar istifoda qilganlaridek, Imom Molik ham molikiy mazhabi taʼlimotiga islom fiqhining toʻrt asosiy manbalari Qurʼoni karim, sunnat, qiyos va ijmoʻdan foydalangan holda asos solgan. Imom Molikdan oʻsha davrning yirik ulamolari Imom Avzoʻiy, Imom Shofeiy, Imom Abu Hanifaning maslakdoshi va shogirdi Imom Muhammad ibn Hasan va boshqalar taʼlim olganlar. Imom Molik koʻplab asarlar yozdi. Ularning ichida eng mashhuri va muhimi “Muvatto” kitobidir. Bundan tashqari Imom Molikning Horun ar-Rashidga yozgan 23 sahifa risolasi, Ibn Vahbga yozilgan “Qadariya firqasiga taqdir masalasida raddiya haqidagi risola”, shuningdek, baʼzi bir qozilar uchun yozilgan 10 juzlik “Qozilik haqidagi kitob”, Gʻasson Muhammadga yozilgan “Fatvo haqidagi risola” kabi asarlari boʻlgani haqida manbalarda maʼlumot beriladi.

Molikiy mazhabi taʼlimoti.

Imom Molik ikki harami sharif orasida Makkai mukarrama va Madinai munavvarada hayot kechirdi. Alalxusus, umrining koʻproq qismi Madinada oʻtdi. U yashagan davrda ilm boblarga

bo‘linmagan va yagona tartibga keltirilmagan edi. SHuning uchun ham Imom Molik (r.h.) o‘z mazhabiga asos solishda qanday fiqhiy usuldan foydalanganining bayoni tarixiy kitoblardan topa olmaymiz. Faqat keyingi davrda faoliyat ko‘rsatgan molikiy ulamolar bu mazhabning usul qoidalarini shakllantirdilar. Lekin ularda Imom Molikdan tashqari bu mazhabdagi boshqa muftahidlarning fikrlari ham aralash holda bayon qilingan edi. SHunday bo‘lsada, Imom Molikning asosiy asari bo‘lmish “Muvatto”ga qaraganda molikiy mazhabining asoslari quyidagilardir:

1. Qur’oni karim
2. Sunnat nabaviya
3. Sahobalar so‘zlari
4. Ijtihod va qiyos
5. Istehson
6. Al-maslaha al-mursala
7. Urf

E’tiborli jihati, Imom Molik ijmoni asos qilib olishda, asosan, Madina ahlining ijmosini nazarda tutgan. Negaki, Molik ibn Anas ushbu shahar ahlini payg‘ambar va sahobalar yo‘l - yo‘riqlarini bilib olgan va unga asoslanib kelgan deb hisoblardi.

Shofeiyy mazhabi. Shofeiyy mazhabi asoschisi Abu Abdulloh Muhammad ibn Idris ibn Abbos ibn Usmon SHofeiyydur. U 150/767 - 204/ 820 yillar davomida hayot kechirdi. Nasabi payg‘ambarning amakisi bo‘lmish Hoshim ibn Muttalibga borib taqaladi. Shofeiyy nomi bobosi Shofi’ ismi bilan bog‘liqdir. Zahabiy aytishicha, Imom Shofeiyy (r.h.) Falastinning G‘azo mintaqasida tug‘ilgan. Ikki yoshligida otasi vafot etadi va onasi uning oliyjanob naslini saqlab qolish niyatida Makkaga qarindoshlar oldiga olib ketadi va u erda to Qur’onni yod olib, arab tili va she’rlarini mukammal o‘rgangunicha yashab qoladi. SHundan so‘ng u sahroga - Huzayl qabilasiga yuboriladi. Bu qabila esa o‘zining suxanzabonligi va she’riy an’anasi bilan mashhur edi. Keyinchalik Madinaga borib Imom Molik davrasida fiqhni o‘rgandi. Imom Shofeiyy (r.h.) ilm o‘rganishga judayam qiziquvchan edi. O‘z davridagi taniqli olimlarning so‘zlarini rivoyat qilgan. Molik ibn Anas, Muhammad ibn SHayboniy, Muhammad ibn Xolid al-Jundiy, Muslim ibn Xolid az-Zanjiy, Marvon ibn Muoviya, ulug‘ imomlardan biri bo‘lmish Vake’ ibn Jaroh kabi ko‘plab olimlar SHofeiyyga ustozlik qildilar. Makka qorisi Ismoil ibn Qustantindan Qur’onni tajvid bilan o‘qishni o‘rgandi. Ilm talabida ko‘p safar qilar edi. Yosh paytlarida mashhur olim So‘fyon bin Uyayna majlisida o‘tirar edi. Undan tafsir yoki fatvo haqida biror masala so‘rab kelishsa, Shofeiyyga o‘girilib: “Mana shu yigitdan so‘ranglar!”, der edi. Shofeiyy Imom Molik vafotidan so‘ng Yamanda faoliyat olib boradi. “Aliychi”larga xayrixohlikda ayblanib, Iroqqa xalifa Horun ar-Rashid saroyiga olib kelinib so‘roqqa tutiladi. U o‘zini mohirona himoya qilishi va Imom A’zam shogirdi Muhammad ibn Hasan SHayboniy homiyligiga olgani tufayli omon qoladi.

Shofeiyy hadis va fiqh borasida ulkan darajalarga erishdi. Ilm izlab juda ko‘p marta safar qildi. Hamidiy aytadi: “Bir gal SHofeiyy YAmandan kelganida yonida 20 ming dinor bor edi va Makka tashqarisiga chodir qurib, to ana shu 20 ming dinorni ehson qilib, sarflagunlaricha o‘sha erda yashadi”. U tilamchini yoki u kishidan biron narsani so‘raganni rad qilishdan hayo etardi. Rabi’ aytadi: “Imom Shofeiyy (r.h.) undan biron narsa so‘ragan kishidan hayo qilar edi va u so‘ragan narsasini berib yuborishga shoshilardi. Ul zotni kishilar haqini biladigan, ularga husni xulq bilan muomala qiladigan judayam odobli kishi sifatida bilar edik”.

Shofeiyy o'zining ilm olishi haqida shunday degan: "Men Qur'ondan, hadisdan, nahvdan yoki shunga o'xshash boshqa ilmlardan biror narsani o'rganadigan bo'lsam, bu o'rganish jarayonida hamisha odob - axloqqa rioya qilar edim, Madinaga kelgunimcha bu mening odatim edi. Unda men Imom Molikni ko'rdim. Ul zotdek ilmni ulug'laydigan, haybatli kishini uchratmagan edim. Odob - axloqqa bo'lgan ahamiyatim shu darajada oshdiki, Imom Molik darslarida ul kishi varaq shitirlashini eshitmasliklari uchun kitobni nihoyatda muloyimlik bilan varaqlar edim". Imom Shofeiyyning ustozlari ko'p bo'lgani kabi shogirdlari ham ko'pdir. Undan Imom ibn Hanbal, Imom Hamidiy, Abu Ubayd, Abu Savr, Robi' al-Murodiy, Imom Za'faroniy kabi ko'plab ilm peshvolari ta'lim olganlar. Ishoq ibn Rohavayh aytadilar: "Makkada Ahmad ibn Hanbal menga: "Bu yoqqa kel, men senga hali ko'zlaring o'xshashini umuman ko'rmagan bir kishini ko'rsataman"- deb, meni Imom SHofeiyni oldiga olib bordi. Demak, Ishoq ibn Rohavayh SHofeiyydan ta'lim olgan, Ahmad ibn Hanbal esa uning eng ulug' shogirdlaridandir.

Shofeiyy mazhabi ta'limoti. Imom SHofeiyy hijriy ikkinchi asrning o'rtalarida hayot kechirdi. Madinada imomi Molik ibn Anasdan ta'lim olib "Muvatto" kitobini yodladi. So'ng Iroqda istiqomat qilgan chog'ida Abu Hanifaning shogirdi Muhammad ibn Hasan SHayboniydan fiqh ilmi bo'yicha Iroq ahli yo'nalishini o'rgandi. Bu orqali imomi Abu Hanifaning ilmini va fiqhiy usulini yod oldi. Natijada imom SHofeiyy (r.h.) hijozliklar ilmi bilan iroqliklar ilmini jamlashga muvaffaq bo'ldi. Ilmda yuksak martabaga erishgan SHofeiyy birinchi bo'lib fiqhiy usullarni tartibga soldi va bu borada uning ilk kitobi aynan shu edi. Imom SHofeiyy bu kitobda shunday deydi: "Ilm ikki xildir: taqlid va istinbot (ya'ni mustaqil fatvo chiqarish). Taqlid - hukm olishda Qur'oni karimga, agar undan topilmasa sunnatga, agar undan ham topilmasa, solih olimlarning ko'pchiligiga ergashishdir. Agar undan ham topilmasa, Qur'oni karim oyatlariga qiyos qilinadi. Undan ham topilmasa, ko'pchilik salaflarning so'zlariga qiyos qilinadi. Agar qiyos qilishda ixtilof qilishgacha borilsa, har kim o'zicha ijti-hod qiladi".

Shofeiyy mazhabining manbalari quyidagilardir:

- 1.Qur'oni karim.
- 2.Sunnati mutohhara.
- 3.Sahobalar qavllari.
- 4.Qiyos.
- 5.Ijti-hod.

"Islomda huquq" kitobi mualliflari fikricha, uning davrida huquqiy istidlol, ya'ni fatvolarni dalillar bilan asoslash nihoyat darajada rivojlanadi. Payg'ambar (s.a.v.)dan rivoyat qilingan hadislarga bo'lgan chuqur ishonch ul zotga boshqa biror hadisni ochiq shaklda rad kilish imkonini bermaydi. Imom SHofeiyy faqat rivoyatga qarshi rivoyat topilgandagina bunday imkoniyatga ega bo'lardi.

Hanbaliy mazhabi. Hanbaliylik asoschisi Imom Ahmad ibn Hanbaldir. U hijriy 164 – 241, milodiy 780- 855 yillarda hayot kechirgan. Ahmad ibn Hanbalning to'liq ismi - Abu Abdulloh Ahmad ibn Hanbal ibn Hilol ibn Asad az-Zuhaliy al-Marvaziy al-Bag'dodiydir. Kelib chiqishi arablardan bo'lmish Ahmad ibn Hanbalning naslu nasabi Robia Adnoniya ismli mashhur ayol mansub bo'lgan SHaybon qabilasiga borib taqaladi. SHaybonning nasabi Nazzor ibn Ma'd ibn Adnonda Muhammad (a.s.)ning nasablari bilan tutashadi. Otasi Ahmadning yoshligida vafot etib ketdi va uning tarbiyasi bilan oilasi shug'ullandi.

Abu Zahra shunday deydi: "Ahmad ibn Hanbal (r.h.) Bag'dodda o'sib voyaga etdi va u erda o'zining ilk ta'lim tarbiyasini oldi. Bag'dod o'sha paytda fiqh, hadis, lug'at, falsafa va boshqa

ilm sohalarning ulamolari va insonlar bilan to'liqlanib turardi". Ahmad ibn Hanbal Bag'dod shayxlaridan ta'lim oldi. Keyin ko'plab mamlakatlarga safar qildi: Hijozga, Yamanga, SHom mamlakatiga. Ahmad ibn Hanbal (r.h.)ning ustozlarini sanab adog'iga etish qiyin: Hammod ibn Xolid, Usmon ibn Umar, Muhammad ibn YAzid, YAzid ibn Horun, Abdurahmon ibn Mahdiy, Vake' ibn Jaroh, Muhammad ibn Idris ash - SHofeyy, Ibrohim ibn Sa'd az – Zuhriy. Imom Abu Hanifaning eng yaqin shogirdlaridan bo'lmish Imom Abu YUsufdan hanafiy fiqhini o'rgandi. Imom SHofeyyni ustoz deb bilib, undan ham fiqh ilmini o'rgandi. Shuningdek, Yamanga borib Abdurazzoq ibn Xumordan ta'lim oldi. Mana shunday ilm muhitida o'sgan Ahmad ibn Hanbal Allohning fazli bilan fiqh va hadis imomlaridan biriga hamda butun islom olamida unga ergashiladigan mazhab sohibiga aylandi. U husni xulq sohibi bo'lib, o'ziga ham, insonlarga ham rostgo'y edi. Rivoyat qilinishicha, abbosiylar sulolasi vakili Mutavakkil o'z xodimidan Ahmad ibn Hanbalga salom aytib, 10 ming dirham berib yuboradi. U xodimga: "Sen bularni hammasini ehson qilib yubor", - deb pullarni qabul qilmaydi. SHunda xodim: "Ey, Abu Abdulloh, agar sen bu pullarni qaytarsang, hukmdor bilan o'rtalaringga nizo tushib qolishidan qo'rqaman. Senga maslahatim, bu pullarni qabul qil", -deya ularni Imom Ahmadning oldiga qo'ydi va o'zi ketdi. Tun oxirlab qolganda Imom Ahmad o'z ahli ayollarini, amakilarining o'g'illarini chaqirtirib, ularga shunday dedi: "Men bu kecha uxlay olmadim". Ular birgalikda Basra va Bag'doddagi ilm ahllaridan muhtoj kishilarning ismlarini yozib chiqdilar. Tong otgandan so'ng Ahmad ibn Hanbal (r.h.) har bir kishiga ellik dirhamdan to' yuz-ikki yuz dirhamgacha berib, pullarni tarqatib yubordi. O'zida biror dirham ham qolmadi.

Ahmad ibn Hanbal ko'plab shogirdlarga ustozlik qildi. Zero, undan katta bir jamoa hadis rivoyat qilgan. SHogirdlari sanalmish Imom Buxoriy, Imom Muslim, Imom Muslimning o'g'li Abdulloh ibn Muslim. Yana Abu Dovud, Abu Zar'a, Abdulloh ibn Ahmad, Abulqosim, Muso ibn Xorun va hakoza ko'plab kishilar Ahmad ibn Hanbal (r.h.)dan eshitgan va o'rganganlarini rivoyat qilgan.

Ibn Nadim al-Bag'dodiya Ahmad ibn Hanbal tasnif qilgan quyidagi asarlarni sanab o'tgan:

- "Amal kitobi".
- "Tafsir kitobi".
- "Nosix va mansux kitobi".
- "Zuhd kitobi".
- "Masalalar kitobi".
- "Fazilatlar kitobi".
- "Manosik kitobi".
- "Imon kitobi".

Ahmad ibn Hanbalning eng mashhur asari "Musnad" bo'lib, u o'z ichiga o'ttiz mingdan ortiq hadisni jamlagan.

Hanbaliy mazhabi ta'limoti. Ahmad ibn Hanbal hadisshunoslik bo'yicha katta shuhrat qozondi. Bir guruh mashhur muhaddislar, jumladan, imom Muhammad ibn Ismoil Buxoriy, Muslim ibn Hajjoj undan hadis rivoyat qilganlar. U o'ziga xos fikriy qarashlarga ega edi va ular bilan boshqa mazhab tarafdorlaridan ajralib turardi. Gunohi kabiralarga qo'l urgan kishi haqida mo'tazilaga qarshi turib, bunday gunoh qilgan kishi mo'min emas, degan fikrni rad qildi. Ahmad ibn Hanbal (r.h.) o'z uslubiga tayangan holda hanbaliy mazhabiga asos soldi va uni rivojlantirishda Makkada Ibn Abbos orqali kurtaklari o'sa boshlagan ilk huquqiy maktabdan foydalandi. U Qur'on, sunnat, sahobalar so'zlari va ijмага asosiy e'tiborni qaratib, qat'iy zarurat

bo'lmasa qiyosdan foydalanmagan. Barcha hadislarini hatto xabari vahid va sahobalar qavlini qiyosdan ustun qo'yardi.

Hanbaliylarga binoan fiqh asoslari beshta:

1. Qur'on va sunna matnlari.
2. Sahobalarning fatvolari.
3. Qur'on va sunnaga muvofiq bo'lsa, ayrim sahobaning qavllari.
4. Isnodi zaif yoki ohod hadislar.
5. Mutlaqo ilojisiz qolganda, qiyos bo'yicha hukm chiqarish.

Shialik yo'nalishi. Shialik guruh) – Ali ibn Abu Tolib va uning avlodini Muhammad payg'ambarning birdan-bir qonuniy vorislari, deb tan oladigan turli oqimlarning umumiy nomi.

Safaviylar sulolasining birinchi shohi Ismoil XVI asrning boshlarida shialikni Eronning rasmiy dini deb e'lon qilgan. Hozir ham shialik Eronning hukmron diniy e'tiqodi hisoblanadi.

Shialik Iroq, Afg'oniston, Hindiston, Pokiston, Ozarbayjon, Livan va boshqa davlatlarga yoyilgan.

Shialik. Guruh, partiya, tarafdorlari degan ma'nolarni beradigan arabcha «shia» so'zidan kelib chiqqan. Shialik o'z ahamiyati va tarafdorlari soniga ko'ra islomdagi ikkinchi yo'nalishdir. U VII asrning ikkinchi yarmida musulmonlarning maxsus va siyosiy guruhi sifatida yuzaga kelgan. U choryorlarning to'rtinchisi Ali tarafdorlarini birlashtirgan. U juda ko'p sektalarga bo'linib ketgan. Bular orasida ismoiliylar hozir 35 millionga yaqin tarafdorga ega bo'lib, ogahonlar boshchiligidagi hozir ham islom doirasida katta rol o'ynamoqda.

Shialar Arabistonda paydo bo'lgan teokratik davlat-xalifalikdagi oliy hokimiyat uchun olib borilgan keskin kurash jarayonida kelib chiqqan. Xalifalikning barcha bosh lavozimlari 644 yildan boshlab quraysh qabilasiga mansub bo'lgan xalifa Usmon boshliq makkalik oqsuyaklar-muhojirlar qo'liga o'tgan.

Islomda jabr-zulm qoralansa-da, baribir, ular islomga bo'ysundirilgan boshqa xalqlardan tashqari musulmon arablarning o'zlarini ham qattiq ekspluatatsiya qilishaveradi. Bundan norozi bo'lgan arablar Xalifa Usmonga qarshi qo'zg'alon ko'tarib, uni Madinada o'ldirishgan. Xalifalik lavozimiga Ali ko'tarilgan. Biroq, u o'z hokimiyatini quraysh oqsuyaklaridan himoya qilishga majbur edi. Ali tarafdorlari u payg'ambarning amakivachchasi va kuyovi bo'lganligi uchun musulmonlarning boshlig'i bo'lishi kerak, uning vafotidan keyin esa bu lavozim uning avlodlariga meros bo'lib o'tishi kerak, deb chiqishgan. Biroq taxt uchun kurashda Suriya hokimi Muoviya boshliq quraysh zodagonlari g'olib chiqqan. Ali tiriklik chog'idayoq Muoviya xalifa deb e'lon qilingan.

Shialar Alidan boshqa barcha sunniy xalifalarning uzurpatorlar, ya'ni siyosiy hokimiyatni zo'ravonlik bilan qo'lgan olgan kishilar deb hisoblaydilar. Bular Alining avlodi bo'lgan 12 imomdan iborat o'z sulolalarini ularga qarshi qo'yganlar. Ular Alini, uning o'g'illari-Hasan va Husaynni hamda ularning avlodlarini shahid, deb hisoblashgan.

Safaviylar sulolasining birinchi shohi Ismoil XVI asrning boshlarida shialikni Eronning rasmiy dini deb e'lon qilgan. Hozir ham shialik Eronning hukmron diniy e'tiqodi hisoblanadi.

Shialik Iroq, Afg'oniston, Hindiston, Pokiston, Ozarbayjon, Livan va boshqa davlatlarga yoyilgan.

Islom tarqalgan mamlakatlardagi iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar natijasida turli davrlarda musulmonlarning har xil guruhlari, ayniqsa ko'proq sektalar paydo bo'la boshlagan. Bular sunniy va shia yo'nalishlaridan ajralib chiqqan bo'lib, musulmon sektalari deyiladi. Bularning islomdagi hanafiya, hanbaliya, shofi'iya, molikiya kabi mazhablar bilan aralashtirmaslik kerak.

Sunniylar va shialar o'rtasidagi farqli jihatlar. Birinchidan, Sunniylikda 7 ta aqida tan olinsa, Shialar quyidagi 5 aqidaga ishonadilar: a) Allohning yagonaligiga; b) Adolatga; v) oxirat va o'lganlarning tarilishiga; g) Payg'ambarlarga; d) Imomat (Ali va uning avlodlari imomlar deb ataladi). Imomat – shialikda davlatni boshqarish huquqi haqidagi ta'limot bo'lib, unga ko'ra musulmonlar jamoasi yoki davlatida faqat Muhammad payg'ambar avlodi (kuyovi Ali bilan qizi Fotimadan tarqalgan avlod) hukmron bo'lishi haqidagi ta'limotdir.

Sunniylar uchun imomlar odamlar tomonidan saylanadigan yoki tayinlanadigan diniy rahbardir.

Ikkinchidan, Shialar dastlabki uchta xalifaning hokimiyatini tan olmaydilar.

Uchinchidan, Shialar kalima shahodatga "Aliyan Valiulloh" so'zlarini qo'shib aytadilar.

To'rtinchidan, Shialar sunniylarning hadislarini tan olmaydilar. Shuning uchun ham Muhammad, Ali va uning avlodlari nomi bilan bog'liq bo'lgan hadislardan o'zlarining "Axbor" degan to'plamini tuzganlar.

Beshinchidan, Shialar Makka va Madina shaharlari bilan birga Karbalo va Najaf shaharlarini ham muqaddaslashtirganlar.

Oltinchidan, Imomlarning ba'zi birlarini o'ldirilgan, din yo'lida shahid bo'lgan, shuning uchun ular jabrdiylardir, deb motam marosimini o'tkazadilar.

Xavorijlar. Usmon ibn Affon (644-656) davriga kelib islom jamoasi (umma) ichida fitnalar paydo bo'ldi. Usmonga uyushtirilgan suiqasd (656 y.) ham ana Shu siyosiy kurashlarning natijasi edi. Xalifa o'ldirilgach, uning o'rniga o'z tarafdorlari tomonidan Ali ibn Abi Tolib (656-661) saylandi. Ana Shu davrdan *umma*-davlat ichida birinchi fuqarolar urushi boshlanadi (656-660).

Talha ibn Ubaydulloh, az-Zubayr ibn al-Avommm va Mu'oviya ibn Abi Sufyon kabi guruh rahbarlari Aliga qarshi chiqib, bu holatni Shunday talqin qildilar: «Ali qo'zg'olonchilarga qarshi kurashda Usmonga yordam bermadi, qodir bo'la turib odamlarni bu ishdan qaytarmadi, bundan tashqari u xalifalik mansabiga ko'tarilganidan keyin Ibn Affonning qasosini olmadi, balki u Usmonni qatl etilishidan manfaatdor bo'ldi».

Bu uch sahobaning bu fikrga kelishlariga har birining xalifalikka Alidan ko'ra o'zini loyiqroq deb hisoblashi turtki bo'ldi. Ular o'z da'volari haq ekanligini turli yo'llar bilan isbotlardilar: Talha va az-Zubayr «Umar (634-644) vafotidan oldin xalifa saylash xususida kengashga (*sho'ro*) chaqirilgan olti kishidan birimiz» deyishsa, Mu'oviya esa Usmonga yaqin qarindosh (ularning ikkisi ham Quraysh qabilasining Umayya urug'idan edilar) va uning qasosini olishga loyiq ekanligini ro'kach qildi.

Talha va az-Zubayr «al-Jamal» («*Tuya*») jangida halok bo'ldilar. Shundan so'ng Ali o'rniga xalifalikka da'vogarlardan birgina Mu'oviya ibn Abi Sufyon (660-680) qoldi. 657 yili Suriyada Mu'oviya va Ali o'rtasida bo'lib o'tgan Siffin jangi Ali tarafdorlarining ikki guruhga ajralib chiqishiga sabab bo'ldi. Bu jangda Ali ibn Abi Tolib qarshi tomon (Umaviylar, 660-749) bilan o'zaro bitim tuzib, urushni to'xtatishga rozi bo'ldi. Alining tutgan bunday murosasozlik siyosatidan uning qo'shini orasidagi bir guruh kishilar norozi bo'lib ajralib chiqdilar. Aliga itoat etishdan bosh tortganlar «xavorij» deb, Mu'oviyaga qo'shilmay Ali atrofiga to'planganlar, keyinchalik, «shia» deb nomlana boshlandi. Bu guruhlar islomdagi ikki katta oqimga asos soldilar. O'z navbatida har bir toifaning o'ziga xos diniy-siyosiy nuqtai nazarlari, ta'limot va amaliyotlari shakllana boshladi.

Xavorijning kelib chiqishi. Ali bilan Mu'oviya o'rtasidagi tuzilgan bitimdan Kufa yaqinida turgan 12 ming kishidan iborat qo'shinning bir qismi norozi bo'ldi. Ular «hukm chiqarish

faqat Allohning qo‘lidadir», degan shior bilan qo‘shinni tark etib, Kufa yaqinidagi Harura qishlog‘iga ketdilar. Bu firqaning Kufadagi «xuruj» (bo‘ysunmaslik) voqeasi ularning «xavorij» (qarshi chiquvchilar) nomini olishlariga sabab bo‘ldi. Bu voqea Harura qishlog‘ida yuz berganligi bois avvaliga ularni «haruriylar» deb ham ataganlar. Ular o‘zlarini «Shurot» («Jonlarini Alloh yo‘lida tikkan kishilar») deb nomlaganlar. Yana ularning «Muhakkima» («hukm Allohning qo‘lida» deguvchilar) degan nomlari ham bo‘lgan.

Xavorijlar o‘zlariga Abdulloh ibn Vahb ar-Rosibiyni *amir* etib saylab, Ali va Mu‘oviya ni yo‘q qilish payiga tushdilar. Xalifa Alini 660 yilda xorijiy Abdurrahmon ibn Muljam o‘ldirgach, xavorijlar ikki firqaga bo‘linib, biri Iroqda qoldi, ikkinchisi Arabiston yarim oroliga ketdi. Umaviylar davrida xavorijlarga qarshi keskin kurash olib borildi. Chunki ular Umaviylar davlatiga katta xavf solardilar. Bu davrda xavorijlar kuchayib, Kirmon, Fors, Yamoma, Hadramavt, Toif va Yaman kabi shahar va o‘lkalarni egalladilar.

Hokimiyat Umaviylardan Abbosiylar sulolasi (749-1258) qo‘liga o‘tganidan keyin ham bu toifa bir muddat o‘z kuchini yo‘qotmadi. Biroq Abbosiylar uzoq vaqt ularga qarshi uzluksiz olib borgan kurashlaridan so‘nggina xavorijlar inqirozga yuz tutdi.

Xavorijlar ta‘limotlari asosi quyidagilardan iborat:

- ular gunohkorni «kofir» deb e‘lon qildilar. Shunga ko‘ra xalifa Usmonni Abu Bakr va Umar yo‘lidan yurmagan uchun kofir deyishadi. Ali, Mu‘oviya, Abu Muso al-Ash‘ariy, Amr ibn al-Oslar muxolif guruhlarda qatnashganlari uchun ular nazdida kofirlar;

- «zolim» podshohga qo‘lda qilich bilan qarshi chiqishni diniy vazifa (*vojib*) deb biladilar. O‘z e‘tiqodini yashirish tamoyili (*taqiya*) rad etadilar. O‘zlari harbiy jihatdan zaif bo‘lsalar ham, qudratli «zolim» podshohga qarshi chiqish *vojib* bo‘laveradi, deb hisobladilar;

- xalifalikka har qanday odam, Quraysh qabilasidan yoki arab bo‘lishligidan qat‘i nazar, musulmonlar tomonidan saylanishi mumkin. Xalifalik, shialar aytganidek, ma‘lum jamoat (sulola) ichida cheklanmagan;

- namoz, ro‘za, zakot va boshqa amallarni imonning bir bo‘lagi, deb hisoblaydilar. Kishi to barcha amallarni bajarmaguncha, dili bilan tasdiqlab, tili bilan aytishi musulmon deb tan olinishi uchun kifoya emas.

“**Xorijiy**” so‘zi aoab tilidagi “xaraja” so‘zidan olingan bo‘lib, “chiqmoqlik” ma‘nosini anglatadi. Xorijiyalar dastlab Ali ibn Abu Tolibni qo‘llab quvvatlovchi shialar tarafdori sifatida sunniylarga qarshi kurash olib borishgan. So‘ngra, Ali va Abu Sufyonning o‘g‘li Muoviya o‘rtasida hokimiyat uchun olib borilgan kurashda Alining Muoviya bilan sulh tuzilishga qarshi turuvchi guruh sifatida Ali ibn Abu Tolibning qo‘shinidan ajralib chiqishadi va Alining o‘ziga qarshi kurash olib borshadi.

Xorijiyalar o‘zlari tomonidan “dindan qaytgan”, deb e‘lon qilingan siyoisy va g‘oyaviy raqiblariga nisabatan murosasiz bo‘lgan. Ularning ta‘limotiga ko‘ra, xalifa diniy jamoa tomonidan saylanadi va jamoaga bo‘ysunadi; har qanday tavodor musulmon (hatto qul yoki qora tanli bo‘lsa ham) xalifa bo‘lib saylanishi mumkin; agar xalifa damoa manfaatlarini himoya qilmasa, vazifasidan bo‘shatiladi va hatto qatl etiladi.

Shuningdek, xorijiyalar dindor kishining islom arkonlariga sodiqligini amalga oshirgan ishlariga qarab baholash kerak, deb hisoblab, ularning talqinidagi islom qoidalariga rioya qilmagan har qanday hukmdorga bo‘ysunmaslik, uni ag‘darib talash zarurligi haqidagi g‘oyani ilgari surgan edi. Bunday g‘oyalar hokimiyat uchun kurashning zo‘rovonlikka asoslangan usullari kelib chiqishiga va minglab kishilarning halok bo‘lishiga olib keldi.

4-reja bayoni: Moturidiylik va ash'ariylik maktablari.

Abu Mansur Moturiydiy hanafiy mazhabi asoschisi Abu Hanafaning (699-767 y.) ta'limotiga suyanan holda o'ziga xos kalom maktabini yaratdi. Lekin Moturidiy vafotidan keyin Movarounnahrda mazkur maktabning mavqei ma'lum darajada susaya boshladi. Shuning uchun Moturidiydan keyin Movarounnahrda uning ta'limotini to'g'ri talqin qilib keng targ'ib qiladigan hamda asossiz fikr va tanqidlardan uni himoya qila oladigan bir guruh olimlarga zarurat sezila boshlagan edi.

Manbalarda yozilishicha, Abu Mansur Moturidiy asli Samarqandning Moturid (Moturit) qishlog'ida tug'ilgan, to'liq ismi Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud Hanafiy Moturidiy Samarqandiydir. U Abu Bakr Juzjoniydin hanafiy fiqhini, an'anaviy islom mezonlari va uni atroflicha qamrab olish, izchil tahlil qilish, aqlan fikr yuritib, ilohiyot borasida munozaralar olib borishni esa Abu Nasr Iyodiydan o'rganadi.

Yevropa va Turkiya olimlari tomonidan kalom ilmi tarixiga oid ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsada, Markaziy Osiyo hududida ushbu soha bo'yicha hali yetarli ishlar amalga oshirilgani yo'q edi. Birinchidan 2000 yilda Ulrix Rudolfning Abu Mansur Moturidiy ilmiy merosiga oid tadqiqoti rus va o'zbek tiliga tarjima qilingani [19] ushbu sohada o'zbekistonlik tadqiqotchilarning faoliyati rivojiga turtki bo'lgan bo'lsa, ikkinchidan 2000 yilda Imom Moturidiy tavalludining 1130 yilligi O'zbekistonda keng nishonlanishi unga bo'lgan qiziqishni yanada oshirdi. Unga qadar O'zbekistonda madrasa mudarisslari, madrasalarda tahsil olgan katta ulamolar, hatto masjid imomlari Moturidiy shaxsi haqida biron bir ma'lumotga ega emas ekanliklari bilinib qoldi. Lekin shuni alohida ta'kidlab o'tish darkorki, ular Moturidiylik e'tiqodini "Imom A'zam e'tiqodi" yoki "ahli sunna val jamoa e'tiqodi" sifatida bilar edilar.

Abu Mansur Moturidiyning hayoti Samarqandda ilohiyot ilmi rivojining keyingi davriga to'g'ri keladi. Bu paytda shaharda bir necha e'tiborli mutakallimlar guruhi faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ular orasida donishmandlar (hukamo) guruhiga mansub Abulqosim Hakim Samarqandiy ijodiga qiziqish katta edi. Ikkinchi guruhda Abu Bakr Juzjoniylar maktabi namoyandalari – Abu Abdulloh ibn Abu Bakr Juzjoniylar, Abu Mansur Moturidiy, Abulhasan Rustufag'niy, Abu Salama Samarqandiylar bor edi. Uchinchi guruhni esa iyodiylar sulolasi vakillari – Abu Nasr Iyodiy, uning farzandlari Abu Ahmad va Abu Bakr Iyodiylar tashkil etardi. Bu guruhlar o'rtasidagi bahslar turli ko'rinishlarda namoyon bo'ldi va bu kalom ilmi rivojiga ijobiy ta'sir etdi.

Ma'lumki, kalom ilmida mutakallimlar mavqeini belgilashda ularning ijtimoiy-siyosiy masalalardagi qarashlari muhim o'rin tutgan. Hakimlar davlat bilan hamkorlikni rad etmay, uning vakillari bilan birga faoliyat ko'rsatganlar. Masalan, Abulqosim Hakim Samarqandiyning "Kitob as-savod al-a'zam" asari somoniylar taklifi asosida yozilgan va bu kitobdan o'sha davrda Movarounnahrda asosiy qo'llanma sifatida foydalanilgan.

Gap shundaki, islomga yangi o'tgan mintaqa-larda ya'ni Movarounnahrda ilohiyot borasida turli masalalar vujudga keldiki, bu juda keskin tus oldi. Chunki mazkur hududdagi turk yoki sug'd uchun islom ahkomlari va talablariga javob berishga tayyor emas edi. Bu esa oxir oqibatda bir qator isyonlarga ham olib keldi. Bularning barchasi Movarounnahrda kelgusida mustaqil ilohiyot an'analari vujudga kelishi uchun yetarli zamin tayyorladiki, natijada nisbatan ko'p sonli diniy muhit yuzaga keldi.

Mana shunday sharoitda uning ta'limoti bilan batafsil tanishib, bu ta'limotning mazmun-mohiyatini teran anglagan izdoshlari, nasafiylar sulolasidan va boshqa sulolalardan yetishib chiqqan yirik mutakallim Abu-l-Yusur Pazdaviy (vaf. 1099 y.), Abu-l-Muin Nasafiy (vaf. 1114 y.), Saffor Buxoriy (vaf. 1134 y.), Abu Xafs Najimiddin Umar Nasafiy (vaf. 1142 y.), Ali ibn 'Usmon O'shiy (vaf. 1173 y.), Sabuniy Buxoriy (vaf. 1184 y.), Umar Hanafiy (vaf. 1200 y.)lar Imom Moturidiy ta'limotini davom ettirib, uni yanada rivojlantirishdi.

Movarounnahr kalom maktabini shakllani-shida va taraqqiy ettirishda Samarqand ilmiy muhitini ham alohida o'rni bor. Ushbu kalom maktabining taraqqiyotini uch davrga bo'lib o'rganish mumkin.

- 1) Moturidiygacha bo'lgan davri (IX).
- 2) Moturidiy va uning safdoshlari davri (X).

3) Qayta tiklanish davri (XI-XII).

Birinchi davrda yuksak martabali va nufuzli hanafiya olimlarining xizmatlari katta bo'ldi. Dastlabkilaridan, hanafiylar orasida mashhur bo'lgan "Kitob al-'alim va-l-muta'allim" ("Ustoz va shogird kitobi") asarining muallifi Abu Muqotil Samarqandiy (vaf. 823 y.) nomi tilga olinadi. Uning asari hanafiya an'anasi yo'lidagi kalom ilmining eng dastlabki qadamlarini kuzatish imkonini beradi. Chunki u ustoz qarashlarini aniq yetkazish va tushuntirib berishga intilgan. Ushbu asar o'quvchi (muallifni o'zi) va ustoz (Abu Hanifa) o'rtasidagi savol-javob tariqasida tuzilgan.

Movarounnahr kalom maktabiga zamin tayyorlashda Abu Bakr Muhammad ibn Yamon Samarqandiyning (vaf. 881-82 y.) ham alohida o'rni bor. Uning hayoti Samarqand shahrida kechgan. Movarounnahrlik mutakallimlardan olimning hayoti tafsilotlariga nisbatan, asarlari bizgacha yetib kelganligi bilan farqlanib turadi. Abu Bakr qalamiga mansub "Kitob al-anvor" ("Ziyo kitobi"), "Kitob al-i'tisom" ("O'zaro bog'lanish kitobi"), "Kitob ma'olim ad-din" ("Dinni bildiruvchi asar") kabi asarlarni ko'rsatib o'tish mumkin. Olimning yana bir asari "Kitob ar-radd 'alo-l-karromiya" ("Karromiylarga raddiya kitobi") deb atalgan bo'lib, bu asar ham ilohiyot masalalariga oiddir. Bu asarni Muhammad Samarqandiy yashagan davrda shaharda ma'lum mavqega ega bo'lgan karromiylar ta'limotiga qarshi yozilgan raddiya asarlari qatoriga kiritisa bo'ladi.

Ushbu maktab rivoji uchun o'z hissasini qo'shgan yana bir sermahsul olim Abu Muti' Makhul ibn Fazl Nasafiy (vaf. 930 y.) dir. O'qimishli oila vakili bo'lgan olim zakovatli olimlar sulolasi asoschisi edi. Mazkur sulola uch avlod vakillari moturidiya rivojiga katta hissa qo'shdilar. Ulardan Abu-l-Mu'in Nasafiy o'zini eslab o'tish kifoyadir. Makhul an-Nasafiy o'z davri ilohiyotida asosiy o'rinlardan birini egallagan bo'lsa-da, lekin manbalarda uning hayoti haqidagi ma'lumotlar deyarli uchramaydi. U "Kitob ash-shu'o'" ("Nur kitobi"), "Kitob al-lu'lu'iyot" ("Durdonalar haqidagi kitob"), "al-Radd 'alo ahl al-bid'a" ("Bidat ahlga radiya") nomli asarlarning muallifidir. Uning uchinchi asari – "ar-Radd 'alo ahl al-bid'a" ("Bid'atchi, adashgan va adashtiruvchi firqalarga raddiyalar kitobi") bevosita ilohiyot sohasiga aloqador bo'lib, muallif zamondoshlari orasida keng tarqalgan. Undagi ma'lumotlar mazmundorligi va nihoyatda aniqqligi bilan ushbu fan sohasidagi birinchi darajali manba sifatida diqqatimizni o'ziga jalb qiladi.

Ikkinchi davr Hakim Samarqandiy (vaf. 953 y.) Movarounnahr ilohiyot maktabi rivojida muhim o'rin tutadi. U kalom bilan bir qatorda boshqa diniy ilmlar bilimdoni sifatida e'tirof etilganligi uning mamlakat qozisi lavozimini egallaganligidan ko'rinadi. U Moturidiy bilan birgalikda Samarqandda Abu Nasr 'Iyodiydan ta'lim olgan. Uning hanafiylar orasida mashhur "Kitob as-savod al-a'zam" ("Kitob aksariyat halq") asari Movarounnahr ilohiyot tarixida asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Asar 902 yil amir Ismoil ibn Ahmad Samoniy (892-907) buyrug'iga muvofiq yozib tugatilgan. Ushbu asar Nux ibn Mansur (976-997) davriga kelib fors tiliga ham tarjima qilingan.

Abul Muin an-Nasafiy Moturidiy vafotidan so'ng uning qabri ustiga quyidagi maqto'v so'zlarini yozdirishga buyruq berganini rivoyat qilgan: "Ushbu qabr ilmlarni o'z nafaslarigacha qamrab olgan, uni tarqatishda ko'p zahmatlar chekkan, u qoldirgan meros ko'p madh qilingan va o'zining umr daraxtidan ko'plab mevalar tera olgan ulug' zotning qabridir".

Movarounnahr kalom maktabi faoliyati borasida to'liqroq tasavvurga ega bo'lish uchun bevosita Moturidiy va uning shogirdlari va ularning ilohiyot borasidagi yutuqlariga ham murojaat etish lozim.

XI-XII asrlar hanafiy mutakallimlari moturidiya ta'limotini qayta tiklash jarayonida uning ijtimoiy qarashlarini aks ettiruvchi fikrlarini e'tibordan chetda qoldirishadi. Keyinchalik Moturidiy fiqh va kalom masalalari bilan qiziqib, hanafiy mazhabi olimlaridan dars olib, o'z bilimni yuksaltiradi. Bu jarayonda ko'plab mashhur faqih va muhaddislar bilan muloqot va munozarada bo'ladi, shu sohaga oid asarlar yozadi.

Mahmud ibn Sulaymon Kafaviyning (vaf. 990/1582 y.) "Katoib ul-a'lom al-axyor fi taboqot fuqaho va mashoyix mazhab an-Nu'mon" ("Nu'mon mazhabiga mansub bo'lgan taniqli alloma fakihlar va shayxlar haqidagi kitob") nomli asarida Abu Mansur Moturidiyning, qayerda va

qachon vafot etgani hamda uning asarlari haqida ma'lumot beradi. Muallif imom Moturidiyning "Kitob ut-tavhid" ("Allohning yakkayu yagonaligi borasidagi kitob"), "Kitob al-maqomat", "Kitob rad avomil lil adila lil Ka'biy" ("Ka'biy zalolatlarining boshlanishini rad qilishga bag'ishlangan kitob"), "Kitob bayon va hum ul-mu'tazila" ("Mu'tazila g'avg'olari va undan qo'rqmaslik haqidagi kitob bayoni"), "Ta'vilot al-Qur'on" ("Qur'on ta'vili") kabi asarlarini sanab o'tadi.

"Ta'vilot al-Qur'on" asarining 2 ta nusxasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida № 5126 va №5127 raqamlari ostida saqlanadi.

Toshkent fondidagi №5126 raqami ostidagi nusxasi asarning ikkinchi jildidir. Qo'lyozma asarning bir qismi LXII-CXIV suralar ta'vilini o'z ichiga oladi. Qo'lyozmaning 171a sahifasida bu asar Xoja Muhammad Porso kutubxonasida saqlanganligi to'g'risida belgi bor. Unda jumladan shunday deyiladi: "Ushbu kitob Buxoro shahrining Kuyi Dixqon manzilidagi kutubxonaga Alloh bandasi Muhammad al-Xofizi al-Buxoriy tomonidan vaqf qilingan".

E'tiborli jihati – yuqorida tilga olingan bu qo'lyozma "Kitob at-ta'vilot"ning hozirgi kunga qadar dunyodagi eng qadimiy nusxasi bo'lib turibdi. Mazkur nusxaning tavsifi SVR [22]ga kiritilmagan edi va u ilk bor maqola muallifi (Sh.Z) tomonidan ilmiy muomalaga kiritildi [11: 66-73].

Bu qo'lyozma 529/1134-35 yilda ko'chirilgan. Buxoro jome' masjidida qabul qilinib, tahrir etilgan (Qubila va suhhiha fi masjidi ja'mi al-Buxara).

"Kitob at-ta'vilot" asarining yana bir nusxasi 5127 inv. raqami ostida saqlanadi. Bu nusxa asarning oxirgi jildidir. Nasx yozuvida ko'chirilgan bu nusxa 294 varaqdan iborat. Muqovaning yuzida bir bo'lak qadimiy qog'ozga "Kitob at-ta'vilot" so'zlari yozilgan bo'lib, yozuv yillar davomida eskirib, ko'z ilg'amaydigan darajaga kelib qolgan. qo'lyozmaning boshlang'ich varag'idagi (1a) yuqori satrda "Tafsir-i shayx Abu Mansur al-Moturidiy" deb yozilgan. Shu sahifaning quyirog'ida shunday yozuvlar bor: "Bu oxirgi daftar buyuk imom, zohid, hidoyat yo'li imomi, ahli sunna va jamoa raisi shayx Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud al-Moturidiydan naql qilingan". Varaqning chap tarafiga "Muhammad ibn Muhammad ibn Nasr al-Hofiz al-Buxoriy mulki" deb yozib qo'yilgan.

Ikki nusxa ham mashhur Xoja Muhammad Porsoning kutubxonasiga tegishli bo'lgan

Shu fondning o'zida "Kitob at-ta'vilot" asarining mashhur hanafiy fiqh olimi Alouddin Samarqandiy tomonidan yozilgan sharhi ham mavjud bo'lib, uning nusxalari № 3249 va № 3155 raqamlari ostida saqlanadi. Bularning ham har ikkisi Xoja Muhammad Porso kutubxonasidandir. Bu nusxalarning biri, ayniqsa, qimmatlidir.

Qo'lyozmaning sarvarag'i shunday iboralar bilan boshlanadi: "Ahl as-sunna raisi Abu Mansur al-Moturidiy – Alloh undan rozi bo'lsin – hidoyat ilmi peshvosidan ash-shayx al-imom Hofiz ad-din Muhammad ibn Muhammad ibn Nasr al-Buxoriyga asarlar quyidagi isnod bilan yetib keldi: ash-shayx al-imom ar-rabboniy, usul va furu' sohibi Shams ad-din Muhammad ibn 'Abd as-Sattor ibn Muhammad al-Imodiy al-Kardariy xabar qildi (Alloh uni rahmatiga va rizosiga yo'llasin), unga o'z navbatida ash-Shayx al-Imom Najm ad-din Abu Hafs Umar ibn Muhammad ibn Ahmad an-Nasafiy aytdi, ash-Shayx al-Imom al-qozi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn al-Husayn ibn 'Abd al-Karim an-Nasafiy, u – otasidan, u – bobosidan, u esa – otasi 'Abd al-Karimdan, u esa – ash-shayx, hidoyat yo'liga boshlovchi, ahl as-sunnaning raisi Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud al-Moturidiy as-Samarqandiydan – Alloh uni rahmati va rizosi bilan qo'llasin – aytadi", degan so'zlar bilan birinchi isnod matni tugaydi. Ikkinchi isnod "Sharh Ta'vilot" dan bu birinchi daftarni shayx imom ar-rohib ahl as-sunna va jamoaning raisi Abu Mansur al-Moturidiydan – Alloh uning tavbasini qabul etib rahmati va rizosi bilan qo'llasin – ibn Ahmad as-Samarqandiy sharhlagan" degan jumla bilan tugaydi.

Manbalarga tayanib ish ko'rilsa, Moturidiyning shogirdlari haqida ma'lumotlar talaygina. Lekin ularning barchasiga ham to'g'ridan-to'g'ri ishonish qiyin. Chunki bu ma'lumotlarning mualliflari yashagan davrda Moturidiy shuhrat pog'onasiga ko'tarilib bo'lgan edi, shu bois nafaqat

haqiqiy, balki soxta shogirdlar haqida ham ma'lumotlar uchraydi. Bu esa o'z navbatida shogirdlar doirasining kengayishiga olib keladi.

Darhaqiqat Moturidiy vafotidan so'ng, Samarqandda joylashgan mashhur Chokardiza qabristoniga dafn etiladi. O'sha davrdagi taomulga ko'ra bu qabristonga shahar ahli orasida e'tiborga molik taniqli olimlar, ulamolar dafn etilardi.

Shu o'rinda yana bir muhim yozma manbalar turkimiga kiruvchi, ya'ni yuqorida zikr etilgan Chokardiza qabristonidagi qayroqtoshdagi bitiklarni ham atab o'tshimiz lozim. Bu qayroqtoshdagi bitiklar moturidiyya kalom maktabi vakillari haqida muhim ma'lumotlar berishi bilan ahamiyatlidir. Moturidiyning ko'plab safdoshlari va shogirdlari ham shu joyga dafn etilganlar.

2000 yil Vazirlar Mahkamasining qarori bilan Abu Mansur Moturidiy tavalludiga bag'ishlab o'tkazilgan tantanalar arafasida Samarqandda Chokardiza qabristoni o'rnida 3,5 gektarlik majmua barpo etildi. Majmua markazida Abu Mansur al-Moturidiy maqbarasi bunyod etildi. Moturidiy o'z ta'limoti va ilmiy asarlari bilan Movarounnahr ilohiyot maktabi rivojiga katta hissa qo'shdi. Shuningdek, hanafiya ta'limotining O'rta Osiyo xalqlari urf-odatlarini bilan chambarchas bog'liq ekanini o'z qarashlari orqali ko'rsatib berdi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, Imom Moturidiy asos solgan diniy ta'limot – moturidiylik maktabi Sharq mamlakatlarida katta shuhrat topishiga sabab shuki, unda ilgari surilgan g'oyalar islom dinining mohiyatini to'g'rilik, ezgulik, insoniylik deb biladigan jamiki mo'min-musulmonlarning qarashlari va intilishlari bilan hamohang edi.

Ash'ariylik – islom dinidagi sunniylik yo'nalishining ikki asosiy kalom (aqida) ilmi maktablaridan biri. Asoschisi Abul Hasan Ash'ariy (873-935). Ash'ariylik maktabining taniqli vakillari Abu Bakr Boqiloniy (950-1013), Ibn Furq (vaf. 1015 y.), Abu Ishoq Isfaroiniy (vaf. 1027 y.), Abul Maoliy Juvayniy (1028-1085), Abul Fath Shahrisoniy (1086-1153), Faxriddin Roziy (1149-1209) va boshqalar hisoblanadi. Ash'ariylik, faqatgina aqlga tayanuvchilar bilan faqat naql va uning zohiriga e'tibor beruvchilar o'rtasidagi mo'tadil ta'limot bo'lib, unda naql aqldan ustun qo'yilgan hamda aql - bu naqlni tushunishdagi bir vosita, deb qaralgan. Ash'ariylar to'rt fiqhiy mazhab imomlariga xilof qilmaganlar, Qur'onning biror oyatini va hadisi sharifni hamda sahoba va ulamolarning so'zlarini inkor qilmaganlar. Ahli qibladan biror kishini kofirga chiqarmaganlar. Ash'ariylik moturidiylikdan bir necha aqidaviy masalalarda farq qiladi. Masalan, ash'ariylikda imon ziyoda va noqis bo'ladi, deyiladi. Moturidiylikda esa, imon ziyoda va noqis bo'lmaydi, deyiladi. Ash'ariylar qazo va qadarni quyidagicha ta'riflaydilar: «Qazo - Alloh taoloning hamma narsalarni kelajakda qanday bo'lishini azaldan bilishidir». «Qadar - o'sha narsalarni Allohning azaliy ilmiga muvofiq ravishda vujudga kelishidir». Moturidiylar qazo va qadar lafzlarining o'rnini almashtiradilar. Shu kabi e'tiqodiy masalalarda mazkur ikki aqidaviy mazhab o'rtasida shaklan ixtiloflar bo'lsada asl mohiyatda ular bir-birlari bilan o'xshashdir. Ash'ariylikning qarashlarini eng avval Eronda (X asr) keng tarqalgan shofeiy mazhabi tarafdorlari qabul qilganlar. Ash'ariyning o'zi tayangan hanbaliy mazhabi tarafdorlari bu maktab g'oyalarini tanqid qilgan. Mashhur ilohiyotchilarning ko'pchiligi (mas., Andalusiyada Ibn Hazm) ash'ariylik g'oyalariga qarshi chiqqan. Birinchi saljuqiylar sulton To'g'rilbek (1038-1063 yillarda hukmronlik qilgan) davrida ash'ariylik ta'limoti bid'at deb e'lon qilinib, uning tarafdorlari ta'qib etilgan. Biroq bu ta'limot Abu Bakr Boqiloniy, Abu Homid G'azzoliy (1058-1111) kabi olimlarning asarlari tufayli musulmon olamida katta ta'sirga ega bo'lib, kalom ilmida eng keng tarqalgan yirik aqidaviy mazhablardan biriga aylandi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Islomda yo'nalishlar va oqimlarning yuzaga kelish sabablari nimalardan iborat?
2. Nima sababdan xorijiyliklarning tarafdorlari juda kam sonli bo'lib qolgan?
3. So'fizm oqimining asosiy g'oyalari va maqsadi nimalardan iborat?
4. Islom ilohiyotining rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan Markaziy Osiyo mutafakkiri kim?

5. Markazi Osiyoda tasavvufning qaysi tariqatlari yuzaga kelgan?
6. Islomdagi an'anaviylik va zamonaviylik jarayonlarining o'ziga xosligi nimalardan iborat?

8 – MAVZU MARKAZIY OSIYO TARIXIDA HANAFIYA MAZHABINING O'RNI

Reja:

1. Hanafiylik mazhabining asoschisi Abu Hanifa hayoti va ta'limoti.
2. Movarounnahrda hanafiy mazhabi va Markaziy Osiyo faqihlari.
3. Islom huquqi manbalari. Qur'on, sunna, ijmo va qiyos, masolihul-mursala, istihson va urf.
4. Tasavvuf tushunchasi va uning mohiyati. Yusuf Hamadoniy. Abduxoliq G'ijduvoniylar. Yassaviya, Kubroviya, Naqshbandiya tariqatlarining shakllanishi.

Tayanch so'z va iboralar: Qur'on, sunna, ijmo va qiyos, masolihul-mursala, istihson, urf, Yusuf Hamadoniy, Abduxoliq G'ijduvoniylar, Yassaviya, Kubroviya, Naqshbandiya, tasavvuf, Abu Hanifa, mazhab, "ahli hadis", Markaziy Osiyo, faqih.

1-reja bayoni. Hanafiylik mazhabining asoschisi Abu Hanifa hayoti va ta'limoti.

Hanafiy mazhabi asoschisi Abu Hanifaning asl ismi Nu'mon ibn Sobitdir. Garchi butun dunyodagi mo'min musulmonlar orasida u Imom Abu Hanifa yoki al-Imom al-Azam ("Imomlarning eng ulug'i ") nomi bilan tanilgan. Abu Hanifa 699-yilda Kufa (Iroq) shahrida badavlat ipak savdogar oilasida tug'ilgan. Uning bobosi xalifa Umar ibn al-Xattob davrida islomni qabul qilgan.

Kufa shahrida Abu Hanifa umumiy va diniy ta'lim olgan. Uning ustozlari orasida Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning sahobalari ham bor edi. Xullas, Abu Hanifa 16 yoshida otasi bilan birga hajga boradi va Madina shahridagi payg'ambar (s.a.v.) qabrlarini ziyorat qiladi. U yerda Abdulloh ibn al-Horisni (payg'ambarning sahobalaridan biri) ko'rdi va undan Muhammad payg'ambar (s.a.v.)ning so'zlarini (hadislarini) eshitdi. Shu bois Abu Hanifa tobiinlardan (Muhammad sollallohu alayhi vasallamning sahobalarini topgan musulmonlar avlodi) sanaladi.

Abu Hanifa 22 yoshida iroqlik ilohiyot olimi qozi (qozi) Hammud ibn Abu Sulaymonning shogirdi bo'lib, ustozlari vafotigacha 18 yil davomida uning davrasida bo'lgan, so'ngra o'zi o'n yil davomida bu to'garakka rahbarlik qilgan. Iroqning eng nufuzli imom-faqihi sanaladi. Abbosiylar tomonidan hokimiyatda tasdiqlanganidan keyin u Iroqqa qaytib, u erda savdogar va olim sifatida hayotini davom ettirdi. Xalifa al-Mansur Abu Hanifaga yangi poytaxt – Bag'dodda oliy qozi (qozi) lavozimini egallashni taklif qildi, biroq Abu Hanifa rozi bo'lmadi. Uning rad etishi al-Mansurni g'azablantirdi. Qasos sifatida xalifa, yoshi va yuksak nufuziga qaramay, uni qamoqqa tashlashni va kaltaklashni buyuradi. Oradan ko'p o'tmay, 767 yilda Imom al-Azam qamoqda vafot etdi.

Hanafiy huquqiy maktabi, yuqorida aytib o'tilganidek, asosan arab bo'lmagan mamlakatlarda keng tarqalgan va haqli ravishda eng bag'rikeng va oqilona hisoblanadi. Buning sabablari bor.

Hanafiy mazhabining mantiqiyliqi haqidagi bayonot Iroqning geografik o'ziga xosligi, hadis tashuvchilarning asosiy qismi istiqomat qilgan Islom vatani – Makka va Madinadan uzoqligidan kelib chiqqan. O'sha paytda Iroqda aqlga, mantiqqa yangi sharoitlarda yagona mumkin bo'lgan bilim manbai sifatida murojaat qilishning butun tizimi mavjud edi. Shuning uchun Kufa va Bag'dod shaharlaridagi huquqshunos olimlarni ko'pincha "ahli ray", masalan, Madina shahridagi olimlarni esa "ahli hadis" deb atashgan. Shunday qilib, Imom Molik ibn Anas

(molikiylar huquqiy maktabi) payg'ambarimiz (s.a.v.) hadislarini tashuvchilar bo'lgan Madina aholisi bilan tez-tez muloqot qilish imkoniga ega bo'ldilar. Abu Hanifada bunday imkoniyat bo'lmagan va u ko'pincha Qur'on va Sunnatdan tashqari, Islom maqsadlari va uning ruhidan kelib chiqqan holda aql va mantiqqa ham murojaat qilgan.

Hanafiylar mazhabining bag'rikengligiga Abu Hanifaning iymon (e'tiqod) ta'limotining mashhur pozitsiyasini ishlab chiqqanligi, ya'ni amallarning (amal) og'zaki tan olish bilan bog'liq holda ikkinchi darajaliligini tan olishi ham ta'sir ko'rsatdi. iymon (al-ikror bi-l-lison) va qalb bilan tasdiqlash (at -tasdiq bi-l-qalb).

Abu Hanifa va uning shogirdlari og'zaki iqro'ni ko'rib chiqadilar, masalan, inson Allohga ishonaman va Yaratganni inkor etmayman, deb aytsa, qalbi bilan Allohga va boshqa iymon ustunlariga, farishtalarga, payg'ambarlarga, kitoblarga, qiyomat kuni, o'limdan keyingi hayot, do'zax va jannat, taqdir, insonni mo'min musulmon deb hisoblash uchun yetarli sabab. Va agar musulmon har xil gunohlarni qilsa, u gunohkor, buzuk (fosik) bo'lsa ham, musulmon hisoblanadi. Hanafiylar mazhabining bu eng muhim pozitsiyasi ushbu mazhabning bag'rikengligi va oqilonaligini asoslash nuqtai nazaridan asosiy hisoblanadi.

Hanafiylardagi bu pozitsiya juda muhim bo'lib chiqdi, chunki bugungi kunda ko'pchilik musulmonlar mo'min musulmonlar uchun barcha belgilangan diniy va marosim ko'rsatmalariga rioya qilmaydi. Hanafiylarga ko'ra, Alloh taoloning rahmati o'z islomini e'lon qilgan va qalbidagi dinni qabul qilgan, hatto gunohkor bo'lgan yoki Islomning farz shartlarini bajarmagan barcha kishilarni qamrab oladi. Shunday har bir musulmon jahon ummatiga – Muhammad payg'ambar (s.a.v.) ummatiga mansub bo'lishga haqli.

Zero, Abu Hanifa o'zining qonuniy qarorlarini "o'zgarishlar davrida" tasodifan qabul qilgan. Bu halokatli fuqarolar urushi, ko'plab muxolifat harakatlari va tartibsizliklar bilan birga kelgan sulolalar almashadigan vaqt edi. Xullas, 740-yillarning boshlarida umaviylar hokimiyatiga qarshi qurolli qo'zg'olon ko'tarilgan bo'lsa, so'ngra 740-750-yillarda to'ntarish yo'li bilan Abbosiylar harakati hokimiyat tepasiga keldi. To'polon, tartibsizlik va zo'ravonlik davri boshlandi. Bu Abu Hanifaning mafkurasiga ham, huquqiy qarorlarining usullariga ham ta'sir qildi va oxir-oqibat uning maktabini eng bag'rikeng va yumshoq, immunitet birinchi o'rinda turadigan maktabga aylantirdi. inson hayoti, uning erkinligi.

Hanafiylar mazhabining aqidasi xalifalikda boshqa musulmonlarni kufirda ayblagan diniy radikal guruh tarqalayotgan bir paytda paydo bo'ldi. Bu guruh Xorijiyalar deb atalgan. Xorijiyalar uchinchi guruh sifatida hokimiyat va musulmonlarning sunniy va shialarga bo'linishi paytida yuzaga kelgan. Xorijiyalar (halifa hokimiyatiga qarshi qo'llarida qurol ko'tarib chiqqan xavrijlar) — mazhabparast, terrorchi guruh, katta va kichik gunohlar uchun boshqa musulmonlarni kufirda ayblagan, xorijiyalar hozirgi takfirchilarga o'xshaydi. Puritanizm diniy ritorika bilan birgalikda ularga zamonaviy jamiyatning quyi ijtimoiy qatlamlari bilan rezonanslashishga imkon berdi. Raqiblari-dushmanlariga shafqatsiz bo'lgan xorijiyalar diniy qotillik - istirod g'oyasini e'lon qildilar. Ularning ta'limotiga ko'ra, har bir musulmon "katta gunohkor" kofir (kofir) deb tan olingan, taqiqlangan va o'ldirilishi mumkin edi. Amalda, xorijiyalar nazarida "katta gunohkorlar" ularning siyosiy raqiblari, ularning oqimiga qo'shilmagan har bir kishi edi. Shu bilan birga, xorijiyalar sunniy va shialarni kufirda (kufirda) aybladilar. Ular Islom nomini olgan dindoshlariga hujum qilishdi, talon-taroj qilishdi va o'ldirishdi. Fitna va ummatning (musulmon jamoalarining) bo'linishi boshlandi. Bugun esa 21-asrda Suriya va Iroqda bo'linish, tartibsizliklar va shunga o'xshash mazhabga oid qurolli guruhlar boshqa musulmonlarni kufirda (takfirda) ayblayotganiga guvoh bo'lamiz. Bunday guruhlar bugungi kunda takfirchilar deb ataladi (boshqa dindorlarni

kufirda ayblash, musulmonlarni o'ldirish va talon-taroj qilishga ruxsat berish), ular ham xuddi xorijiyalar kabi terrorga aylanib ketadigan radikal oqimdir.

Abu Hanifa 745 yilda bir guruh xorijiyalar Kufa shahriga bostirib kirganlarida mazhabchilar bilan shaxsan uchrashgan. Mazhabchilarga qarshilik Abu Hanifa uchun eng muhimi edi. Ularga qarshi turish uchun Abu Hanifa "irja" (ixtiloflarni Alloh taoloning hukmiga qoldirish) g'oyasi ustida ishlay boshladi. Bu ixtiloflarning kamayishiga ta'sir qildi va musulmonlar o'rtasida o'zaro kufr ayblovlari (takfir) ehtimolini yo'q qildi.

Huquqiy masalalarni tadqiq qilish usullarini birinchi bo'lib Abu Hanifa islom huquqshunoslarining ishlanmalarini talablar bilan birlashtirish imkoniga ega bo'lgan tarzda qo'llagan, deb ishoniladi. Kundalik hayot va bugungi kun haqiqatlari. Zero, Abu Hanifa va uning eng yaqin izdoshlari aql, qiyos (qiyos) bilan hukm qilish, shuningdek, odat me'yorlaridan (urf, adat) shariat manbalaridan biri sifatida foydalanishga asoslangan turli vosita va uslublardan foydalanish metodologiyasini ishlab chiqdilar.

Bu tamoyil imkon berdi mahalliy aholi islomgacha bo'lgan milliy an'analarini saqlab qolish. Darvoqe, islom asoslariga zid bo'lmagan xalq udumlari hanafiy mazhabida islom huquqining yordamchi manbalaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Hanafiy mazhabi turli urf-odatlar, urf-odatlar va madaniyatlarga nisbatan eng moslashuvchan va bag'rikeng deb e'tirof etilishining sababi ham shu. Bu maktab Oltin O'rda, O'rta Osiyo, Usmonli turklari va Mug'allar imperiyasining jangovar ko'chmanchilari orasida tez tarqaldi. Hanafiy mazhabi milliy madaniyat va urf-odatlarni o'ziga singdirmasdan, "arablashtirmasdan" ularni o'z qonunlari manbalariga kiritgan.

Imomlar imomi, ummatning mash'alasi, faqih va mujtahidlarning rahnamosi, hofiz-hadis, hazrat, imom Abu Hanifa, rahimahulloh, obro'li mujtahid, muhaddis va obro'li shaxs edilar. U haqiqatan zo'hid, dono va taqvor edi.

Ko'p sonli muhaddislar, shuningdek, Hanafiy, Shofe'iy, Molikiy va Hanbaliy mazhablari ulamolari Imomning fazilatlarini va kuchli tomonlarini tan olishda yakdildirlar. Imom Abu Hanifa, rahimahulloh tomonidan minglab asarlar yozilgan. Imom Abu Hanifa, rahimahulloh, barcha imomlar ichida "Imom-Azam" (Eng ulug' imom) unvoniga sazovor bo'lgan yagona kishidir. U fiqh'dagi to'rt imomning birinchisi bo'lgani uchun emas, balki dunyodagi eng ko'p tarafdorlari bo'lgani uchun emas, balki ahli sunna ulamolari ichida birinchi bo'lib xato qilganlar bilan bahslashgani uchun shunday nomlangan. - shialar, ateistlar, xavoriylar va mutaziliylar (Allohning sifatlarini inkor qilish).

Olim va muhaddislarning salmoqli qismi Imom Abu Hanifa, rahimahulloh va Payg'ambar Muhammad sollallohu alayhi vasallam ummatlarining yarmidan ko'pi tarafdorlari bo'lib, shu kungacha ham u zotning ta'limotlariga amal qilib kelmoqdalar.

U sahobalar (Payg'ambar sollallohu alayhi vasallamning sahobalari) davrida tug'ilgan. Bosiqlik, taqvorlik, saxovatlik, ilmlilik, ezigulik – bu fazilatlarining barchasi Imom Abu Hanifa, rahimahullohga xos edi.

U o'sha davrda hadis ilmining eng qudratli markazi bo'lgan Kufalik edi. Bu shaharda Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning minglab sahobalari yashagan. Kufada mingdan ortiq faqih tavallud topgan bo'lib, ulardan bir yuz ellik nafari Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning sahobalaridir. Kufa hazratlari Abdulloh ibn Masud roziyallohu anhum va hazrati Abu Hurayra roziyallohu anhumlar yashagan shahar edi.

Imom mana shu mashhur ma'rifat maskanida tarbiya va ta'lim olgan. Al-Haramayn (Makka va Madina) olimlaridan ham ko'p ilm o'rgangan va bahramand bo'lgan.

Tug'ilgan yili va joyi

Hijriy 80-yil, Kufa (Iroq).

Unga e'tiborli havolalar

Imomi A'zam / Abu Hanifa, rahimahulloh

alohida fakt

Imom Abu Hanifa, rahimahulloh, tabiiy (sahobalarni ko'rganlar) ekanliklari bir ovozdan e'tirof etilgan. Turli manbalarda imom ko'rgan sahobalar soni haqida turli ma'lumotlar keltirilgan. Sohib-Iqmol ularning yigirma oltitasi borligini, Hofiz Ibn Hajar esa sakkiztasini aytadi. Hofiz al-Mizziy tubdan boshqacha fikrda yetmish ikki sahoba haqida gapiradi.

Bilimlarni egallash

Imom Abu Hanifa, rahimahulloh, bolaligida asosiy islomiy bilimlarni egallagan, ammo otasining yaqin orada vafot etishi sababli o'qish davri uzoq davom etmagan. Keyinchalik u oilaviy biznesni davom ettirdi.

Daromad manbai

Ipak savdosi

Uzluksiz ta'lim

22 yoshida bo'sh vaqtining ko'p qismini bahslarda o'tkazardi. Bu davrda Imom Sha'biy, rahimahulloh, Imom Abu Hanifa, rahimahulloh, ba'zi bir olimga qo'shilishni maslahat berdilar.

U sahobalar va tobeiyarning aqidalari bo'lgan Ahlu-s-sunna e'tiqodlarini himoya qilgan, uni buzib ko'rsatgan turli mazhabchilarni rad etgan. Ana shunda u eng avvalo imomlikka erishdi, imomlik darajasiga erishdi. Keyin ustoz Hammad aytganidek, bu mavzulardan voz kechib, fiqhga chuqur kirib, fiqh masalalari yechimiga ehtiyoj kuchayib ketgani uchun bu mavzuda mujtahid bo'ldi. Avval adashganlarni rad etdi, keyin esa fiqh masalalariga, kundalik amaliyot masalalariga ko'proq e'tibor qaratdi.

Fiqh ilmining eng muhim ustoz

Imom Hammad, rahimahulloh

Eng muhim hadis muallimi

Imom Amir Sha'biy rahimahulloh

Naql qilingan hadislar soni

4000 ta hadis, shundan 2000 tasi faqat Imom Hammoddan, rahimahullohdan olingan.

Imom Abu Hanifa tayangan hadislarining maqbulligini aniqlashning muhim tamoyillari, rahimahulloh.

Hadis eshitilgan birinchi kundan boshlab to naql qilingan paytgacha to'g'ri shaklda yodlanishi kerak.

Hadis Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan kelgan va faqat ishonchli odamlar zanjiri orqali yetkazilishi kerak.

Qur'onga yoki boshqa ma'lum hadislariga zid bo'lgan har qanday hadis qabul qilinmaydi.

Imom Abu Hanifa rahimahulloh ustozlari qisqacha ro'yxati

Amir ibn Shurahbil, Sha'abi Kufiy, Alqama ibn Martad, Ziyod ibn Ilaqa, Adi ibn Sobit, Qatoda Basriy, Muhammad ibn Munkadir Madniy, Simak ibn Harb, Qays ibn Muslim Kufiy, Mansur ibn Umar va boshqalar.

Imom Abu Hanifa shogirdlarining qisqacha ro'yxati, rahimahulloh

Qozi Abu Yusuf, Muhammad ibn Hasan, Zufar ibn Xuzayl, Hammad ibn Abu Hanifa, Abu Ismat Mug'ira ibn Miksam, Yunus ibn Ishoq, Abu Bakr ibn Ayyosh, Abdulloh ibn Muborak, Ali ibn Osim, Jafar ibn Aun, Ubaydulloh ibn va boshqalar. .

Imom Abu Hanifa, rahimahulloh asarlari

- “Kitob-ul-asor” – 70 ming hadis asosida yaratilgan asar,
- "Olim-val-muta'allim",
- "Al-Vasiya",
- "Risalya",
- "Al-Fiqh al-akbar",
- "Jomi'ul Masoniy",
- “Kitabul Rad alal Qodiriya” va boshqalar.

Imom Abu Hanifa rahimahullohning fazilatlari:

Xolislik

Imom Abu Hanifa rahimahulloh hech kimdan homiylik sovg'alarini qabul qilmaganlar va shuning uchun hech kimdan qarzdor bo'lmaganlar.

Insonparvarlik va saxiylik

Bir kuni imom Abu Hanifa roziyallohu anhumuning yonidan o'tib ketayotganini ko'rib, rahimahulloh, bir yo'lovchi boshqa yo'lga burilibdi. Imom Abu Hanifa, rahimahulloh, bunday ishning sababini so'raganlarida, u imom Abu Hanifa, rahimahulloh, 10 ming dirham qarzi borligi uchun uyalganini aytdi. U kishining hayosi Imom Abu Hanifa rahimahullohga tegdi va u qarzdorning qarzini kechirdi.

Javobgarlik

Bir kuni imom masjidida tomdan bir odam qulagani haqidagi xabarni eshitdi. Imom zudlik bilan majlisni tark etdi va oyoq kiyimini kiymay, yalangoyoq voqea joyiga yugurdi. Yiqilgan odamning sog'lig'i normallashguncha imom uni har kuni ziyorat qilib, unga g'amxo'rlik qilardi.

Odob

Imom zarurat bo'lmasa, hech qachon gapira olmasdi. Bir kuni bir kishi Sufyon as-Savriyga, rahimahulloh, imomning birovni tuhmat qilganini eshitmaganman, dedi. Sufyon, rahimahulloh, javob berdilar: «Abu Hanifa, rahimahulloh, o'zining yaxshiliklarini yo'q qiladigan darajada ahmoq emas».

Muvozanat va taqvodorlik

Rivoyat qilinadi: “Imom Abu Hanifa rahimahullohni kechalari dam olayotganini ko'rmaganman”.

Abu Nuaym raziyallohu anhu rivoyat qiladilar: «Imom Abu Hanifa rahimahulloh namoz o'qishdan oldin ham yig'lab, Allohga nido qildilar».

“Qur'onda nafl namozlarida o'qimagan sura yo'q” (Abu Hanifa).

Xoriya ibn Musab rivoyat qiladilar: to'rtta din peshvosi borki, ular Qur'onni bir rakatda to'liq o'qiganlar. Bular Usmon ibn Affon, rahimahulloh, Tamin Dori, radiallohu anhum, Said ibn Jubayr, rahimahulloh, Imom Abu Hanifa, rahimahullohdir.

Bir kuni o'g'irlangan qo'y haqida xabar tarqaldi. Imom Abu Hanifa qo'ylarning qancha umr ko'rishini aniqlay boshladi. Buni bilib qolgach, bu go'sht o'g'irlangan jonivorniki bo'lishi mumkinligidan qo'rqib, yetti yil davomida qo'y go'shti yemagan.

Imom Abu Hanifa rahimahulloh qirq yil ketma-ket xufton uchun olgan tahorati bilan bomdod namozini o'qidilar.

Har Ramazonda Qur'on oyatlari soni

Oltmish

U qilgan hajlar soni

Ellik besh

Sinovlar va qiyinchiliklar

Bir sinov

Ibn Hubayra davrida Imom Abu Hanifa, rahimahulloh, oliy qozi lavozimini egallash taklifini rad etdi (imom yomon ishlarda yordam berishni istamagan).

Muvaffaqiyatsizlik oqibatlari

Uni har kuni 11 kun ketma-ket 10 marta qamchilagan holda otda shahar bo'ylab olib borishdi.

Ikki sinov

Abu Ja'far Mansur davrida bu taklif yana aytili va yana rad etildi.

Muvaffaqiyatsizlik oqibatlari

Qamoq va qattiq kaltaklash.

Sinovning davomi

Xalifa Abu Ja'far Mansur yana imomni qarorini qayta ko'rib chiqishga undadi. Oxirida imom uni qabul qilmayman, deb Alloh nomiga qasam ichdi.

Oqibatlari

Imomning ko'ylagini yechib, 30 darra urishdi. To'pig'iga qon oqardi. U yana qamoqqa tashlandi va 15 kun davomida oziq-ovqat cheklandi, shundan keyin u zahar ichishga majbur bo'ldi, shuning uchun u shahid bo'lib vafot etdi.

O'lim holatida

O'limning yoshi va sanasi

70 yoshda: hijriy 150 yilda rajab oyida (bu shabon yoki shavvol oyida sodir bo'lgan degan fikrlar ham bor).

Dafn marosimi

Uning dafn marosimiga yig'ilgan ellik mingdan ortiq odam qatnashishi uchun 6 ta janob namozi o'qildi. Uning o'g'li va yagona farzandi Hammod oxirgi janoza namozini o'qidi.

2-reja bayoni. Movarounnahrda hanafiy mazhabi va

Markaziy Osiyo faqihlari.

Movarounnahrda tafsir ilmining tarixiy rivoji haqida gap borar ekan Qur'on va tafsir ilmlari ham rivojlangani, ilk tafsir asarlari sifatida imom Buxoriy, imom Termiziy, imom Dorimiyning hadis to'plamlari yoki tafsirga oid asarlari keltirilganini aytib o'tish o'rinlidir. Chunki ularda Qur'on tafsirlariga bag'ishlangan maxsus boblar bo'lib, Abd ibn Humayd Keshiyning (786-863 y.) "Tafsir" asari, asosan, hadislardan iborat tafsir kitobi sanalgan. Shu sabab, ushbu tafsir "naqliy tafsir" deb ataladi. Bundan tashqari, Abu Is'hoq Nasafiy (vaf. 294/906 y.) "at-Tafsir", Hakim Termiziy Muhammad ibn Ali (205/820-320/932 y.) tafsirga oid kitoblarini yozganlar.

VIII-IX asrlar hanafiy mazhabining Movarounnahr hududida mustahkam o'rin egallashi ushbu joyda mazkur mazhab mufasssirlarining shakllanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Bunday olimlar qatorida Abu Hafs Umar Nasafiyning (223/838-311/923 y.) "at-Tafsir", Abu Mansur Moturidiyning (vaf. 333/944 y.) "Tavilot al-Qur'on" ("Qur'on ta'villari"), Abul Lays Samarqandiyning (vaf. 373/983 y.) "Bahrul ulum" ("Ilmlar dengizi"), Samarqandning mashhur qorilaridan Abu Nasr Haddodiyning (vaf. 1015-1020 y.) "al-Muvazzah fi 'ilmittafsir" ("Tafsir ilmidagi izohlar"), "al-Madhal li ilm tafsir kitabillahi ta'ala" ("Alloh taoloning kitobini tafsir qilish ilmiga kirish"), Alouddin Samarqandiyning (vaf. 539/1145 y.) "Sharh tavilot al-Qur'on" ("Qur'on

ta'villari sharhi") asarlarini tilga olish mumkin. Ushbu mufasssirlar hanafiy mazhabi qarashlarini o'z tafsirlariga singdirganlar.

Masalaning e'tiborli tomoni shundaki, Movarounnahrda hanafiylikdan boshqa mazhab olimlari ham faoliyat olib borib, tafsirga oid kitoblar yozishgan. Jumladan, shofeiylar mazhabi, shuningdek, shia, mo'taz bilan tarafdorlarini ham aytib o'tish mumkin. Ahli sunna va jamoa ichidagi hanafiy, shofiy, molikiy va hanbaliy mazhablari fiqhiy mazhablar ekanligini e'tiborga olib, ulardagi o'xshash va farqli jihatlar, asosan, fiqhiy masalalarda ko'rinishini ta'kidlash lozim. Shu jihatdan olib qaralganda, ba'zi o'rinlarda fiqhga taalluqli oyatlarda mazhablar o'rtasidagi turlichalarni ko'rish mumkin.

Bir so'z bilan aytganda, hanafiy mufasssirlari Qur'onni tafsir qilish jarayonida botil oqim va toifalar tomonidan turlicha talqin qilinayotgan oyatlarga asosli raddiyalar berib, ixtilofli masalalarda o'z qarashlarini bayon etganlar va bu bilan hozirda o'z yechimini kutayotgan ko'plab bahsli masalalarning ilmiy javoblarini topganlar.

Imom Nasafiy yashab o'tgan zamon haqida bir fikr yuritadigan bo'lsak, uchinchi hijriy asrning ikkinchi yarmi va to'rtinchi hijriy asrning birinchi yarmida ham islom ummati juda katta fikriy qarshilikka duch keldi. Bu qarshilik mo'taz kabi firqalarning paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'ldi. Shunday zamonda islom ulamolarining bir qismi ularga qarshi turishlikda va ahli sunna va jamoa fikriy aqidalarini himoya qilishlikda bor kuchlarini safarbar etishdi. Biz o'rganish olib borayotgan imom Nasafiy ham Movarounnahr olimlaridan bo'lgani sababli va aqidaviy mazhabda moturudiyya mazhabida bo'lganidan imom Abu Mansur Moturudiyning fikrlarini qo'llab-quvvatlab keltirishini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bizning diyorlarda hanafiy mazhabi va aqida jihatdan moturudiyya yo'nalishida ma'lum va mashhur inson bu – imom Nasafiy bo'lib, ularning tafsir kitoblari mo'tabar manbaa. Hozirgi kunda ko'plab madrasalarda ularning asarlari darslik sifatida ta'lim manbayiga aylangan. Alloh taolo ularning yozgan asarlari va qoldirgan ilmlariga O'zi va'da qilgan ajrlarni bersin.

3-reja bayoni. Islom huquqi manbalari. Qur'on, sunna, ijmo va qiyos, masolihul-mursala, istihson va urf.

Islom huquqining manbalarini asosan shariat, urf-odatlar va qonunlar tashkil etadi. «Shariat» so'zi arabcha «sharia», «shar'» so'zlaridan olinib, uning lug'aviy ma'nosi «suvga olib boradigan yo'l» deganidir. Shunga asosan, shariat to'g'ri yo'l, ilohiy yo'l, qonunchilik degan ma'nolarni anglatuvchi islom diniy huquq tizimidir. Shariatda sof huquqiy masalalardan tashqari axloqiy normalar va amaliy diniy talablarga ham qonun tusi berilgan. Ilk islomda jamiyatni huquqiy boshqarish **Qur'on** asosida olib borilgan. Feodalizm rivojlanishi bilan musulmonlarning barcha ijtimoiy-iqtisodiy va diniy faoliyatini qamrab oluvchi qonunlar majmuasiga ehtiyoj tug'ilgan. Islom ilohiyotchilari bir necha asr mobaynida shariat qonunlarini ishlab chiqqanlar. Shariatga asos qilinib Qur'on va sunna, keyinchalik ijmo va qiyos olingan. Ular fiqhda shariat manbalari (usul al-fiqh) deb e'tirof etilgan. Shariat diniy-huquqiy tizim sifatida VI-VII asrlarda tugal shakllangan.

Qur'oni Karim Islom dinining asosiy muqaddas kitobi va shariatning eng asosiy manbayidir.

Qur'oni Karim 30 para, 114 sura (tizma, qator), 6236 oyat (modda) dan iborat bo'lib, oyatlarning 63 foizini Makkada, 37 foizini Madinada nozil bo'lgan oyatlar tashkil etadi. Ya'ni, Qur'on suralarining 95 tasi 13 yil davomida Makka shahrida nozil bo'lib, makkiy suralar deb

ataladi. Ularning 19 tasi esa 622-yili yuz bergan hijratdan keyin 10 yil davomida Madinada nozil bo'lib, madiniy suralar deb qabul qilingan. Bu ikki turkum suralarning farqi shundaki, makkiy suralar asosan e'tiqod, ibodat masalalarini, oliy axloqiy fazilatlar, erkin fikrlik, ilmu tafakkurni targ'ib qilishga qaratilgan bo'lsa, madiniy suralar fiqhiy ahkom-muomalot, jinoyat va jazo, ommaviy munosabatlar, sulhu tinchlik bitimlari va musulmonlararo boshqa aloqalarga tegishlidir.

Shariatning ikkinchi manbayi - **sunna** (arabcha lug'aviy ifodasi -odat, an'ana, xatti-harakat tarzi) yo'l-yo'riq degan ma'noni bildiradi. Sunna Rasululloh (S.A.V.)ning so'zlari, qilmishlari, xatti-harakatlari, fe'llari (amallari), tasdiqlari, shuningdek, sahobalarning so'zlari va amallari majmuyidan iborat. Sunna haqidagi rivoyatlar hadislarida berilgan. Hadislar to'plamiga sunna deyiladi. Hadis arabcha rivoyat degan so'zdan olinib, islom dinida Qur'ondan keyingi muqaddas manba hisoblanadi. Hadislar Muhammad (SAV)ning hayoti, faoliyati va ko'rsatmalari haqidagi rivoyatlardan iborat. Qur'on musulmonlar jamoasining barcha huquqiy va axloqiy masalalarini qamrab ololmaganligi sababli VII asr oxiri – VIII asr boshida hadislar yozila boshlandi va asta-sekin tizimga solindi. IX-X asr boshlarida dindorlar orasida obro'li deb tanilgan hadislarining 6 ta to'plami vujudga kelgan. Bular: Muhammad Al-Buxoriyning «al-Jome' as-Sahih» kitobi, Muslim An-Nishopuriyning «as-Sahih» to'plami, Ibn Mojaning «Sunan» to'plami, Abu Dovud As-Sijistoniyning hadislar to'plami, Muhammad At-Termiziyning «al-Jome' al-Kabir» kitobi, An-Nisoniyning «Sunan» kitobidir. Ulardan «Sahihi Buxoriy» va «Sahihi Muslim» ko'proq e'zozlanadi. Surma va Payg'ambar hadislarini to'plab, ularni ja'liy (to'qima) hadislardan ajratib olishda vatandosh allomamiz Imom Muhammad ibn Ismoil Buxoriy (810-892-yillar) ulkan va unutilmas hissa qo'shib, o'zidan abadiy va barhayot asarlar qoldirgan. Ko'pgina hadislar Qur'onning turli qoidalarini tushuntirib beradi va to'ldiradi. Ular ko'plab amaliy masalalarni hal etishda muhim ijtimoiy vazifani bajaradi, ular haqida Qur'onda hech narsa aytilmagan hollarda esa hadislarining ahamiyati yanada ortadi. Lekin hadislar Qur'onga zid kelib qolgan taqdirda ular manba kuchiga ega bo'lmaydi.

Vaqt o'tishi bilan musulmonlar jamoasi - ummada vujudga kelgan vaziyat va muammolarni Qur'on va sunna to'liq qamrab ololmagan. Ular musulmonlar jamoasi - ummada ro'y bergan barcha muammolar va vaziyatlarga to'liq javob bera olmay qolgan.

Shu tariqa shariatning yangi manbayiga zarurat tug'iladi va ijm'o islom huquqi (shariat)ning asosiy manbalaridan biri sifatida tasdiqlanadi. **Ijm'o** (arabcha - yakdillik, yakdillik bilan qabul qilingan qaror, ijm'o al-umma - «diniy jamoaning yagona fikri») - Qur'on va hadislarida aniq ko'rsatma berilmagan huquqiy masalani hal etishda faqih va mujtahidlarning to'planib, yagona fikrga kelgan holda hukm chiqarishi (fatvo berishi)dir. Shariatda shunday yo'l bilan chiqarilgan hukm shar'iy (qonuniy) deb qabul qilingan.

Mujtahid tomonidan aytilgan fikrgina hal qiluvchi fikr hisoblanadi. Oddiy musulmonlar fikrining esa ijm'oga hech qanday aloqasi yo'q. Mujtahid deb diniy olimga aytiladi. Mujtahid (arabcha - intiluvchi, g'ayrat qiluvchi) - o'rta asrlarda islomda ijthod huquqiga ega bo'lgan, ya'ni mustaqil ravishda diniy aqidaviy masalalar bo'yicha xulosa bera oladigan va hukm chiqara oladigan shaxs.

Qiyos - fiqhning to'rtinchi manbayi. Qiyos arabcha so'zdan olingan bo'lib, «taqqoslash», «solishtirish» degan ma'noni anglatadi. Bunga ko'ra, biror huquqiy masala o'ziga o'xshash ikkinchi huquqiy masala bilan taqqoslanadi, solishtiriladi va ular bir-biriga tenglashtiriladi. Demak, bunga binoan Qur'on va Sunnada berilmagan biror huquqiy masala ulardagi shunga o'xshash masala bo'yicha berilgan ko'rsat-maga taqqoslash yo'li bilan sharhlanadi. Qiyos faqihlar huquqini kengaytirib, shariatning turli huquqiy masalalarga tadbiq etilishiga imkon yaratadi.

Qiyosning fiqhning to'rtinchi klassik manbayi sifatida e'tirof etilishi hadisga borib taqaladi. Unda hikoya qilinishicha, Rasululloh (S.A.V.) bir kuni o'z sahobalaridan biri Muoz ibni Jabal raziyallohu anhuri Yamanga dindan ta'lim berishga yuborayotganida uning odil sudlovni amalga oshirishida nimalarga tayanishini so'raydi. U quyidagicha javob beradi: «Allohning kitobi bilan. Agar undan topmasam, Alloh rasulining sunnati bilan. Agar undan ham topmasam, ijthod qilaman va ijthodda nuqsonga yo'l qo'ymaslikka harakat qilaman». Rasululloh (S.A.V.) bunday fikrni ma'qullagan ekanlar. Ijthod arabcha «intilish», «g'ayrat qilish» so'zlaridan olingan bo'lib, diniy va huquqiy masalalar bo'yicha mustaqil fikr yuritish prinsipidir. O'rta asrlarda faqat yirik musulmon faqihlari va ilohiyotchilari - mujtahidlar ijthod huquqiga ega edilar.

Shariat musulmon huquqining asosiy manbayi bo'lsa, Islom huquqining qo'shimcha manbalari bu – urf-odat, istehson, masolihul mursalalar islom huquqi birlamchi manbalarining hosilasi, ularni to'ldiruvchi manbalar bo'lib, ularga birlamchi manbalarda masalaning echimiga oid qoida bo'lmaganda ehtiyoj tug'iladi. Qo'shimcha manbalar yordamida masalani hal etish echimi qoidasi birlamchi manbalar echimiga zid bo'lmasligi, ularning umumiy qoidalari, printsiplari doirasida amalga oshirilgan bo'lishi lozim. Aks holda bunday echim, masalani hal etish yo'li noqonuniy bo'lib, yuridik kuchga ega emas. Ko'shimcha manbalardan huquq manbai sifatida to'liq hammasidan foydalanishda huquq mazhablari o'rtasida yakdillik yo'q. Birlamchi manbalarda masalani hal etish qoidasi bo'lmaganda uni hal etishning yo'llaridan biri sifatida istehsondan foydalaniladi. Fiqhiy masalalarni istehsondan foydalanish yo'li bilan hal etish ilk bor Abu Hanifa tomonidan qo'llanilgan. Istehson hanafiylar mazhabi vakillari tomonidan qiyosdan foydalanish yo'li bilan qabul qilingan qaror maqsadga muvofiq bo'lmasa yoki musulmon jamoasi manfaatiga zid bo'lsa, masalani hal etishning bir yo'li sifatida qaralgan.

Istehson so'zi arab tilida bir narsani boshqasidan yaxshi deb bilish, yaxshilash, ma'qullash ma'nolarini anglatadi. Fiqhda istehson "Usuliylar istilohida esa, dalil asosida xafiy qiyosni, jaliy qiyosdan ustun qo'yish yoki juziy hukmni kulliy asldan yohud umumiy qoidadan ushbuni taqozo qilgan xos dalilga asosan istisno qilishdir"¹. Oddiyroq tushuntiriladigan bo'lsa, istehson – bu masalani hal qilishning ikki yo'lidan qaysi biri musulmon jamoasi manfaatiga foydalibroq bo'lsa o'shanisini tanlab masalani hal etish. Masalan: islom huquqi bo'yicha go'shti harom bo'lgan jonzoqlarning so'lagi tekkan narsa harom. Lekin bu umumiy qoidadan go'shti harom qushlar (qirg'iy, kalxat va boshqa) istisno qilingan. Chunki ular narsalarga tili bilan emas, balki tumshug'i bilan tegadi, suvni tumshug'i bilan ichadi. Ushbu qushlarning tumshug'i suyakdan iborat, unda so'lak yo'q. Shuning uchun mazkur qushlarning tumshug'i tekkan narsalar – suv, meva-cheva, va boshqalar halol hisoblanadi. Yana boshqa bir misol, umumiy qoida bo'yicha oldi-sotdi shartnomasi uni tuzish paytida mavjud bo'lgan tovar, mahsulot borasida tuzilishi mumkin. Lekin ayrim hollarda hali mavjud bo'lmagan dehqonchilik mahsulotlari, zargarlik va duradgorlik buyumlari bo'yicha shartnoma tuzib, buyum, yoki tovar yohud mahsulotning pulini oldindan to'lashga ruxsat etiladi. Istehsondan huquqiy masalalarni hal etishda foydalanish borasida huquq mazhablari vakillarining fikri bir xil emas. Hanafiy mazhabi vakillari istehsondan foydalanishni ma'qullaydi. Shofe'iy mazhabi vakillari istehsondan foydalanishga qarshi.

Islom huquqining qo'shimcha manbalaridan biri **Maslahatul mursaladir**. "Maslahat" arab tilidagi so'z bo'lib, "Manfaat", "Foyda", "Naf" ma'nolarini anglatadi. "Mursala" so'zi "qo'yib yuborilgan" degan ma'noni anglatadi. Ya'ni "qilish yoki qilinmaslik xaqida qayd kelmagan", "tek qo'yilgan" degan ma'no bo'ladi. Shundan kelib chiqib, "Maslahatul mursala"ning lug'aviy ma'nosi "qaydlanmagan", "erkin manfaat" degani ekanini bilib olamiz². "Maslahatul mursala" usul ulamolari nazdida, shunday bir maslahatki, shori' unga asosan hukm ham mashru' qilmagan,

biror shar'iy dalil kelib, uni e'tiborga olganini ham, e'tiborga olishni bekor qilganini ham isbotlamagan³. Fiqh ulamolarining fikricha, "Maslahatul mursala" shariatning tasarrufoatlari va maqsadlariga muvofiq kelgan bir sifat bo'lib, uni qilish yoki qilmaslik to'g'risida shariatda muayyan bir dalil kelmagan narsadir⁴. Yuqoridagilardan kelib chiqib – bu fiqhning birlamchi manbalarida amalga oshirish mumkin yoki mumkin emasligi aniq belgilangan harakat yoki harakatsizlikni sodir etish, faoliyatni amalga oshirish, shuni qilish haqida kelishish, qarorga kelishdir. Bu fiqh manbalari qoidalariga zid bo'lmashligi, undan musulmon jamoasi manfaatdor bo'lishi kerak. Masalan Qur'oni karimni kitob holatiga keltirish haqida uning o'zida hech nima deyilmagan, bu haqda Muhammad (s.a.v) payg'ambarimiz hech nima demaganlar, uni kitob holatiga keltirish taqiqlanmagan ham. Payg'ambarimiz Muhammad(s.a.v) vafotlaridan so'ng sahobalar Qur'oni karimni kitob holatiga keltirish maqsadga muvofiqligini yoqlab chiqishgan. Bu taklif inobatga olinib, Qur'oni karim xalifa Abu Bakr ko'rsatmasiga binoan kitob holatiga keltirilgan. Shuningdek qamoqxonalarda va (alohida sohalarni boshqaruvchi organlar)ni tashkil qilish va ularning vazifalarni, faoliyatini amalga oshirish yo'llari va tartibi, oltin va kumush tangalar zarb etish, bosib olingan dehqonchilikka yaroqli erlarni egasida qoldirib, ulardan soliq undirish haqida islom huquqi manbalarida hech qanday qoida yo'q edi, bunday ishlarni amalga oshirish taqiqlanmagan ham edi, keyinchalik hayot taqazosi tufayli mazkur sohada munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalar ishlab chiqildi. "Maslahatul mursala"ni fiqhning manbai sifatida e'tirof etish uchun u quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1. "Maslahatul mursala" yo'li bilan qabul qilingan qarorning bekor qilinmaganligi haqida aniq dalil bo'lishi;
2. Echim jamiyat uchun foydali bo'lishi;
3. "Maslahatul mursala" yo'li bilan qabul qilingan qaror nufuzli, soha bilimdonlari tomonidan qo'llab-quvvatlanishi;
4. Qur'oni karim oyatlariga, hadislariga va qat'iy dalillarga zid bo'lmashligi shart.

Urf – bu an'ana sifatida umumxalq tomonidan qabul qilingan tartib - qoida; odat, rasm, tamoyil. Islom ulamolari fikriga ko'ra, "urf" deb kishilar o'rganib, odatlanib qolgan ishlarga, so'zlarga aytiladi. Urf odat deb ham yuritiladi. Boshqa bir fikr bo'yicha, "urf" odamlar o'rganib qolgan ya'ni odamlarga tanish bo'lib qolgan ish yoki so'z bo'lib jamiyatda mashhur bo'lgan narsadir. Shariatda urfning ikki turi bor: sahih urf va fosid urf. Sahih urf – bu fiqhning asosiy manbalariga zid bo'lmagan musulmon jamoasi uchun foydali bo'lgan, yaxshilikka olib keluvchi, haromni halol, halolni harom qilmaydigan urfdir. Masalan mahrning bir qismini olmagan ayolning erining uyiga bormasligi mumkinligi, unashtirilgan kelinga hayitlik berish. Fosid urf – bu shariatga zid, musulmon jamoasi manfaatlariga mos kelmaydigan halolni harom, haromni halol qiladigan, oqibati yaxshilik bilan tugamaydigan urf. Masalan, dabdabali to'ylar qilish. Umumiy qoidaga ko'ra urf o'zi mustaqil manba hisoblanmaydi. Odatda urf maslahatul mursala yordamida masalani hal etishda yordamchi manba sifatida xizmat qiladi.

4-reja bayoni. Tasavvuf tushunchasi va uning mohiyati. Yusuf Hamadoniy. Abduxoliq G'ijduvoni. Yassaviya, Kubroviya, Naqshbandiya tariqatlarining shakllanishi.

Tasavvuf, so'fiylik – islomda insonni ruhiy va axloqiy jihatdan komillik sari yo'llovchi ta'limot. Tasavvuf so'zining o'zagi va mazmuni haqida olimlar turli fikr va tahminlar bildirishgan. Ular ichida Ibn Xaldunning fikri haqiqatga yaqin deb e'tirof etilgan. U "Muqaddima" asarida tasavvuf "suvf" – "jun", "po'stin" so'zidan olingan bo'lishi kerak, zero qadimdan tarki dunyo qilgan zohidlar jundan to'qilgan kiyim yoki po'stin kiyib yurishni odat qilganlar, bu bilan ular


bashang kiyinib yuruvchi ahli dunyolardan farqli hayot tarzini o'zlarida namoyon etganlar, deydi. Tasavvuf va "so'fiy" so'zlari IX asrning boshlarida yashagan Abu Hoshim So'fiydan boshlab joriy etilgan. Undan oldingi davrlarda bu atama o'rnida "zuhd" ("zohidlik", "tarkidunyochilik"), "taqvodorlik", "parhezkorlik" kabi so'zlar ishlatilgan. Ibn Xaldunning fikriga ko'ra, sahobalar, tobeinlar va ulardan keyingi asr kishilarida hidoyat, ibodat, taqvo va zohidlik kabi his-tuyg'ular mujassam bo'lgan. Lekin hijratning II asri va undan keyingi davrga kelib, odamlarning ko'pchiligida mazkur xususiyatlar o'rnida dunyoparastlik, din ishlariga beparvolik, kibr va riyokorlik kabi salbiy xususiyatlar paydo bo'la boshlagandan keyin obidlik va zohidlikni ixtiyor qilgan bir guruh kishilar tasavvuf va so'fiylik nomi bilan ajralib chiqqanlar. Tasavvuf turlicha talqin qilingan. Masalan: Ma'ruf al Karxiy (815 y.v.e.) fikricha, "tasavvuf – haqiqat sari intilish, odamlardan ta'magirlik qilmaslik va faqirlikni ixtiyor etishdir". Zunnuni Misriy (859 y.v.e.), "So'fiy boyluk istab o'zini charchatmas va yo'qotgan boyligiga achinib, bezovta bo'lmas", desa, Junayd al Bag'dodiy (909 y.v.e.) "tasavvuf – qalbni sof tutmoq, tug'ma zaiflik va noxush axloqlardan forig' bo'lib, hayvoniy va nafsoniy tuyg'ular ustidan g'alaba qilmoq", deb ta'rif bergan. Yana u "tasavvuf bir uy bo'lsa, shariat unga kiradigan eshikdir", degan. So'fi Olloyor bu ta'rifni quvvatlab: Shariatsiz kishi uchsa havog'a, Ko'ngil berma aningdek xudnamog'a, deb yozadi. Misirlik olim Ibrohim Basyuniy "Islomda Tasavvufning paydo bo'lishi" kitobida hijriy III va IV asrlarda yashab o'tgan olimlarning tasavvuf haqidagi 40 ta ta'rifini keltiradi. Tasavvufda tasavvufning o'ziga xos istilohi mavjud. Masalan, tasavvuf ilmidan saboq beruvchi shaxs – shayx, murshid, pir, eshon, xoja, mavlo, mavlono, maxdum kabi unvonlar bilan tanilgan. Tasavvufdan saboq oluvchi shaxs – murid, solik, ahli dil, ahli hol, mutasavvif kabi nomlar bilan atalgan. Tasavvuf bo'yicha oliy maqomlarga erishgan sohibkaromat pirlar – valiy, avliyo, qutb, aqtoq, avtod, chilton, abdol, abror, ahror, nujabo, nuqabo, siddiq, g'avs kabi so'zlar bilan ifodalangan. Tasavvuf ahli ba'zan oshiq, faqir, haqir, darvesh, qalandar, zohid, orif, devona, ahli muhabbat, ahli suluk, rijolul g'ayb, savdoyi, gado kabi atamalar bilan ham ifoda etilgan. Tasavvuf istilohi asosida ijod etgan shoirlar majoz uslubini tanlashgan. Shuning uchun haqiqat, majoz, tashbeh, istiora kabi mantiqiy qoidalardan boxabar bo'lmagan kitobxon Navoiy, Fuzuliy, Atoyi, Umar Xayyom kabi mumtoz adabiyot namoyandalarning she'rlarini to'la anglashi qiyin kechadi. Tasavvuf tarixida ko'p olimlar tasavvufga doir so'zlar izohiga bag'ishlangan lug'at va qomuslarni yozib qoldirishgan. Ulardan ayrimlari O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanmoqda. Tasavvuf tariqatlarining insoniyat ma'naviyatini yuksaltirishga qo'shib kelayotgan benazir hissasi butun dunyo xalqi tomonidan e'tirof etilsada, ba'zan islom olamida tasavvufga salbiy nazar bilan qarash, uning tariqatlari, mashoyixlar va karomatlarini inkor etish ko'zga tashlanadi. Burhoniddin al Biqoiy (1406-1480)ning "Tasavvuf inqirozi", Abdurahmon Dimashqiyaning "Naqshbandiya tahlili" kitobi va boshqa kitoblarda tasavvufning barcha tariqatlari va ularga doir asarlar hamda mashoyixlar qattiq tanqid qilingan. Mustaqillik yillaridan beri O'zbekistonda tasavvuf tariqatlarini o'rganish, unga doir asarlarni tarjima qilish, atoqli mashoyixlarning maqbaralarini qayta qurish va ta'mirlashga ahamiyat berilmoqda. Shuningdek, tasavvuf tariqatlariga mansub pir-u komillar: Hakim Termiziy, Najmiddin Kubro, Abduxoliq G'ijduvoni, Xoja Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Xoja Axror Valiy, Shayx Zayniddin, Zangi ota, Shayx Xovandi Tohur kabi valiylarning hayot va ijodlarini chuqur o'rganish, qoldirgan asarlaridan xalqni bahramand etish borasida muayyan ishlar qilinmoqda. Tariqatlar, tasavvuf va mutasavviflar tarixini o'rgangan olimlardan biri Abu Nuaym o'zining "Xulyatul avliyo" kitobida tasavvuf bilan mashhur bo'lgan tobeinlardan ikki yuz kishini tarjimayi holini keltirgan. Taba'a tobe'inlar avlodida Fuzayl ibn Iyoz va Ibrohim ibn Adham

boshliq ko‘plab so‘fiylar yetishib chiqdilar. Asta-sekin ruhiy tarbiya ustozlari yetishib chiqib boshladi. Ularning atrofida shogirdlari va o‘z jamoalari ham paydo bo‘la boshladi. Bora-bora ular boshqalardan ajralib turadigan o‘z belgilariga ham ega bo‘ldilar. Keyinchalik bir ustozning ruhiy tarbiyasini olib, o‘sha tarbiyani hayotiga tatbiq qilib yurgan jamoa a‘zolarining tutgan yo‘lini “Tariqat” deb nomlash odat tusiga kirdi. Zotan, “Tariqat” arabcha “toriiq” – “yo‘l” so‘zidan olingan bo‘lib, ham moddiy, ham ma‘naviy yo‘lni ifoda etadi.

IX asr davomida Tasavvuf nazariyoti va amaliyotini ishlab chiqish uchun qizg‘in harakatlar davom etdi. Basra bilan bir qatorda Bag‘dod va Xuroson sufiylik maktablari eng nufuzli maktablar sifatida yuzaga keldi. Ularning namoyandalari avvalgidek sufiyning ichki dunyosiga asosiy e‘tiborni qaratib edilar. Ularning «ahvol», «maqomot»lariga batafsil tavsiflar berdilar. Boshqa mistik ta‘limotlar kabi unga sufiy bosib o‘tganida «dunyo gunohkorligidan» poklanib, ilohiyotga yaqinlashishiga sabab bo‘ladigan yo‘l (*tariq*) sifatida qaradilar. «Niyatlar» haqidagi ta‘limot yanada chuqurlashtirildi. Bunda o‘z-o‘zini nazorat (muroqaba, muhosaba) qilishga erishish uchun uning «ixlos» va «sadoqat» bilan bo‘lishiga asosiy urg‘uni berdilar. Bag‘dodlik ilohiyotchi al-Muhosibiy tomonidan shakllantirilgan bunday ta‘limotning Xurosonda ko‘plab tarafdorlari topildilar va ularni «malomatiylar» deb atadilar.

Tasavvufda Allohga etishish faqatgina yuzini ko‘rish bilan emas, unga qo‘shilib ketish (fano‘/baqo‘) bilan bo‘lishi ham mumkin degan fikr ilgari surildi. Mansur al-Halloj, ibn ‘Ato, ‘Ayn al-Qudot al-Hamadoniy kabi kishilarning qatl etilishi boshqa sufiylarni xushyorlikka chaqirdi.

Tasavvuf - manbalarning keltirishicha, ba‘zi musulmonlar kalom va mantiq ilmlaridagi turli ko‘rinishdagi tortishuvlardan, quruq bahslardan o‘z qalblarini saqlab, Alloh taoloning muhabbati yo‘lida zuhd va taqvonini o‘zlariga kasb qilib oldilar. Bu kabi kishilarga «sufiy» deb nom berildi. Islom dinida birinchi sufiy nomini olganlardan Abu Hoshim Shomiy (vaf. 160/776-77 y.), tasavvuf usuliga birinchi marta sharh bergan kishi Imom Molikning shogirdi bo‘lmish Zunnuni Misriy (vaf. 256/869-70 y.), minbardan turib birinchi marotaba tasavvufga chaqirgan kishi Shibliy (vaf. 334/945-46 y.), tasavvuf usulini kengaytirib tartibga solgan kishi Junayd Bag‘dodiy (vaf. 398/1007-08 y.) edi. Ayollardan birinchi sufiy bo‘lgan kishi Robi‘a ‘Adaviyya (vaf. 135/752-53 y.)dir. Umuman olganda tasavvufning rivojlanish yo‘li islom tarixining ajralmas bir bo‘lagidir.



So'fiylik (tasavvuf) tariqatlari: 1. Markaziy Osiyoda. 1) Naqshbandiylik. 2) Yassaviylik. 3) Kubraviylik keng tarqalgan.	
2. Sharq mamlakatlarida: 1) Qodiriylar. 2) Bektoshiylar. 3) Rifo'iylar. 4) Tayfuriylar. 5) Suhravardiya.	7) Shoziliylar. 8) Chishiylar. 9) Safaviylar. 10) Hamdariylar. 11) Ne'matullohiylar. 12) Jaloliylar keng tarqalgan. 6) Mavlaviylar
3. Arab mamlakatlari, Afrika, Janubiy-Sharqiy Osiyo xalqlari orasida ham ko'p tariqatlar tarqalgan: 1) Salafiylar. 2) Shartariylar. 3) Rashidiylar. 4) Rahmoniylar. 5) Tayyibiylar. 6) Tinoniylar.	
7) Ammoriylar. 8) Hamoliylar. 9) Muridiylar. 10) Barqiylar. 11) Idrisiylar. 12) Sanusiylar. 13) G'ufriylar va hokazo.	

Movarounnahrda sufiylik Eron orqali kirib kelgan. Movarounnahrda juda keng tarqalgan sufiylik oqimi aqoid olimi Shayx Abu Ya'qub Yusuf al-Hamadoni (vaf. 535/1140-41 y.) maktabidan boshlangan. Yusuf Hamadoniyning maktabi ikki tarmoqqa ajralgan edi.

Birinchisi, «Xuroson madrasasi» ya'ni, shahar va shahar atroflarida rivojlangan va xalq orasida keng tarqalgan. Bu oqimga Xoja Yusuf Hamadoniyning mashhur shogirdi Xoja 'Abd al-Xoliq al-ijduvoni (vaf. 1179 y.) murshidlik qilgan. Keyinchalik bu oqimga Xoja Muhammad Bahouddin Naqshband (1318-1389) murshidlik qilgan va bu davrda naqshbandiyya tariqati butun islom olamiga tarqalgan.

Ikkinchisi, Shayx Ahmad Yassaviy (1105- 1166) va uning shogirdlari nomi bilan bog'liqdir. Ahmad Yassaviy sufiylik tariqatining targ'ibotchisi bo'lish bilan birga shoir ham edi. U qadimiy o'zbek (turkiy) tilida ijod qilgan. Yassaviy asarlari majmuasi 1878 yili nashr etilgan «Devoni hikmat» nomi bilan ma'lum. Bu asar islom mafkurasining sodda ifodasi bo'lib, sufiylik asoslarini targ'ib qiladi. Uning fikricha, dunyoning noz-ne'matlarini so'ragan kishi sufiy emas, balki zuhd va taqvoli ixtiyor etib, umrini toat-ibodat hamda yig'i bilan o'tkazgan kishi sufiydir. Uning «Hikmat»i xalq orasida mashhurdir. Yassaviyya tariqati XII asrda Movarounnahrda paydo bo'lgan va Eronga ham keng yoyilgan. Yassaviylik ruhiy osoyishtalikka, sufiylik yo'liga kirishga, pining rahbarligida «kamolot» sari borishga da'vat etgan. Yassaviyya keyinchalik naqshbandiyya tariqati bilan birlashib ketgan.

Markaziy Osiyoda yetishib chiqqan Ahmad Yassaviy (1041-1167), Najmiddin Kubro (1145-1221), Bahouddin Naqshband (1318-1389)larning ijodiy faoliyatlari tasavvufining jahonshumul tariqatlariga asos soldi.

«Yassaviya» tariqatining qoidalari Ahmad Yassaviyning «Hikmat» degan asarida o'z ifodasini topgan. Unda inson mehr-shafqat, halol-pok, halol mehnati bilan kun kechirish orqali Alloh visoliga etishi mumkin. Yana u molu dunyo to'plashga harakat qilmagan, faqirlikda kun kechirgan.

Orifiy yo'lin tutgan Ahmad Yassaviy tasavvuf tarixida munosib o'ringa ega bo'ladi. Unga «Sulton-ul-orifiy» ya'ni oriflar sultoni nomini beriladi. Yassaviy haqiqiy orif inson sifatida faqirlik yo'liga juda yoshlikdan kiradi. Manbalarning ko'rsatishicha, u bu yo'lga to'rt yoshida kirib, umr bo'yi kishilarni bunga da'vat etdi. Uning hayotidagi muhim voqealardan yana biri, Yassaviy 63 yoshga to'lganidan so'ng Muhammad (s.a.v.) yoshidan ortig'ini er ostida o'tkazdi.

Kubraviylik – tasavvuf tariqati. XIII asr boshida Xorazmda Najmiddin Kubro (1145-1221) asos solgan Kubroviya tariqati. Kubro buyuk vatanparvar inson edi. U 1221 yilda Xorazmga hujum qilgan CHingizxon qo'shinlariga qarshi jangda shahid bo'ladi. Uning aqidasi ko'ra, inson "olami sug'ro", ya'ni kichik olam bo'lib, unda "olami kubro"ning ya'ni katta olamning barcha xususiyatlari mujassamdir. Kamolotga erishish uchun inson ma'lum riyozatli yo'llarni o'tishi zarur. Buning uchun har bir kishi quyidagi 10 asosga tayanmog'i kerak:

1. **Tavba** – barcha amallarning ibtidosi. Tavba qilgan kishi o'z gunohlarini anglab etadi.

2. **Zuhdi** – bu taqvo, parhez demakdir. Tavba qilgan kishi haromdan hazar qiladi. Man etilgan ishlarni qilmaydi.

3. **Tavakkul** – o'z amallari, fikri va ishlarida yolg'iz, Allohga suyanish demakdir.

4. **Qanoat** – kamolotning eng maqbul yo'li, oznarsa bilan cheklanish, hirsdan yuz o'girish.

5. **Uzlat** – tanholikda ruhni mustahkamlashdir.

6. **Tavajjuh** – butun ichki mohiyatni Allohga qaratish, unga cheksiz muhabbat qo'yish, undan boshqa narsa borligini his etmaslikdir. Murid hamma vaqt yaratganga yuzlanib, undan madad so'rab, unga qalban intilmog'i kerak.

7. **Sabr** – muridlarning toqat va bardoshini sinashdir. Haq yo'li og'ir va mushkul yo'l, uning azobu izzatlariga chidagan kishilargina maqsadga erishadilar.

8. **Muroqaba** – tafakkurga g'arq bo'lish demakdir va ma'rifatini oshirib borish.

9. **Mulozamat az-zikr (uzluksiz zikr)** – bu o'z xohishicha Allohning ismini fikrida yod qilib turish va butun qalbini u bilan band qilish. SHunday qilganda, pastkashlik, hasad, ochko'zlik, ikki yuzlamachilik kabi razilliklar ko'ngilga yo'l topa olmaydi.

10. **Rizo.** Murid o'zini butunlay Alloh irodasiga topshiradi va Alloh zikri bilan huzurlana boshlaydi. Haq unga va u Haqqa yaqinlashadi. Najmiddin Kubroning tasavvufdagi yana bir buyuk xizmati – uning javonmardlik g'oyalarini tariqatga joriy etganligidir.

Najmiddin Kubro tasavvuf tarixida o'z o'rniga ega bo'lgan tasavvufiy olimgina bo'lmay, balki dunyoviy ilmlarni o'rganishga e'tibor qaratgan. Avvalo o'zi uzoq o'lkalarda yurib, diniy, ilohiy, madaniy ilmlar bilan birga dunyoviy ilmlarni o'rganishga erishdi. Ul zot faqat tariqat asoschisigina emas, balki ulug' shayx, buyuk donishmand, chin vatanparvar, xalqparvar inson ham edi. U oddiy xalqni zulmdan qutqarish, ezgu ishlar, Vatan uchun jon fido qilish sifatleri bilan mashhur edi.

Naqshbandiylik

1. Naqshbandiylik – tasavvuf tariqatlaridan biri Bahouddin Naqshband (1318-1389) Buxoro viloyati Kogon tumanida tug'ilgan, naqshbandiya tariqati asoschisi. Abdul Xoliq G'ijduvoni hamda Bahouddin Naqshband tomonidan yaratilgan, keyinchalik "Naqshbandiya" tariqati deb nom olgan tamoyillar 11 nomdadir.

1. Hush dar dam – har bir nafasni hushyorlik bilan olish.
2. Nazar bar qadam – har bir qadamni ehtiyotkorlik bilan bosish.
3. Safar dar vatan – o'z vatanida, uyida bo'la turib fikran va zikran butun borliq haqida tafakkur yuritish.
4. Xilvat dar anjuman – o'zi xalq ichida anjumanda bo'la turib, xilvatda o'tirgandek Allohning zikrida bo'lish.
5. Yod kard – til va dil bilan zikr qilish.
6. Boz gasht – zikr paytida xotirni parishon qilmay, Allohning yodida bo'lish.
7. Nigoh dosht – bir nafasda "Kalimai tayyiba"ni dil huzuri bilan tilda takror qilish.
8. Yod dosht – Allohni mudom yod etib, g'aflatdan saqlanish.
9. Vuqufi zamoniyy – o'z holidan ogoh bo'lib, shukr va uzrda bo'lish.
10. Vuqufi adadiy – zikrlarda muayyan adadga rioya qilish.
11. Vuqufi qalbiy – dilni Alloh zikri bilan ogoh qilish.

Naqshbandiylikning asosiy mohiyati "Qo'l ishda, Alloh dilda bo'lsin", ya'ni "Dil ba yoru, dast ba kor" shiori edi. 1993 yilda Bahouddin Naqshbandning 675 yillik yubileyi nishonlandi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

1. Hanafiylik mazhabining asoschisi Hanifa hayoti va ta'limoti haqida so'zlab bering?
2. Movarounnahrda hanafiy mazhabining yoyilishi va rivoji qay tariqa ro'y bergan?
3. Markaziy Osiyo faqihlari to'g'risida ma'lumot bering?
4. Islom huquqi manbalarini sanab bering?
5. Qur'on, sunna, ijmo va qiyos, masolihul-mursala, istihson va urf tushunchalarini izohlang?
6. Tasavvuf tushunchasi va uning mohiyatini izohlang?
7. Yusuf Hamadoniy, Abduxoliq G'ijduvoni, Yassaviy, Kubroviy, Naqshbandiy shaxslarini tasavvuf ilmiga qo'shgan hissalarini tushuntiring?

9 - MAVZU. O'ZBEKISTONDA FAOLIYAT YURITUVCHI DINIY TASHKILOTLAR.

Reja:

1. Konfessiya tushunchasining mohiyati va O'zbekistonda faoliyat yurituvchi diniy konfessiyalarning tasnifi.
2. O'zbekistonda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar haqidagi qonun qabul qilinishining tarixi va uning ahamiyati. Vijdon va e'tiqod erkinligining ta'rifi.
3. Davlat va din munosabatlarini tartibga solishning tiplari. (Identifikatsion model, separatsion model va kooperatsion modellar). Sekulyarlashuv jarayoni.
4. Sobiq Sovet Ittifoqi davrida O'zbekistonda diniy qarashlarga munosabatning asosiy jihatlari.
5. BMTning 72 sessiyasida diniy bag'rikenglik haqidagi rezolyusiyani qabul qilish haqidagi taklifning ijtimoiy siyosiy ahamiyati.

Tayanch so'z va iboralar: Din, Konfessiya, Sekta, Diniy tashkilot, O'zbekistondagi diniy konfessiyalar, Diniy tashkilot, Mormonlar, Krishnani anglash jamiyati, Iegovo shohidlari, Bahoiylik, Bobiylik, 72 sessiya, sekulyarlashuv, Identifikatsion model, separatsion model, kooperatsion model, Vijdon va e'tiqod erkinligi, konfessiya.

1-reja bayoni. Konfessiya tushunchasining mohiyati va o'zbekistonda faoliyat yurituvchi diniy konfessiyalarning tasnifi.

Konfessiya tushunchasi mavzuni yoritishda talaba quyidagilarga e'tibor qaratadi. "Konfessiya" so'zi (lotincha – "confessio") o'zbek tiliga aynan tarjima qilinganda "e'tiqod qilish", degan ma'noni anglatadi. Umuman olganda, diniy konfessiya deganda muayyan diniy ta'limot doirasida shakllangan va o'ziga xos xususiyatlarga ega e'tiqod va ushbu e'tiqodga ergashuvchilar jamoasi tushuniladi. Bir din doirasida yuzaga kelgan bo'lsa-da, aqidalar borasida farqlanadigan jamoalar ham diniy konfessiyalar jumlasiga kiradi. Shuni inobatga olgan holda, mutaxassislar hozirgi kunda dunyoda taxminan 1000 dan ortiq diniy konfessiyalar mavjud, deb hisoblaydi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, islom dinida bunday holat kuzatilmaydi. Hech qaysi mamlakatda hanafiy mazhabi alohida, boshqa mazhablar alohida konfessiya sifatida ro'yxatdan o'tmaydi. Masalan, O'zbekistonda ham bir necha shia jamoalari bo'lishiga qaramay, ular o'zlarini alohida diniy konfessiya hisoblamaydilar. Din jamiyat hayotining tarkibiy qismi sifatida kishilarning ijtimoiylashuviga, ularning turmush tarzini tashkil etish va tartibga solishga xizmat qiluvchi me'yoriy omillardan biri bo'lib kelgan. Dinning bunday roli uning tarixan shakllangan o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Chunki, din, birinchidan, umuminsoniy axloq me'yorlarini o'ziga singdirib olib, ularni hamma uchun majburiy xulq-atvor qoidalariga aylantirgan; ikkinchidan, odamlarning bahamjihat yashashiga ko'maklashgan; uchinchidan, odamlarda ishonch hissini mustahkamlagan hamda hayot sinovlari, muammo va qiyinchiliklarni engib o'tishlarida kuch bag'ishlagan; to'rtinchidan, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlarni saqlab qolish hamda avloddan-avlodga etkazishga yordam bergan va shu yo'l bilan madaniyat rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Konfessiya umumiy atama bo'lib, xristianlik, buddaviylik kabi katta dinlar ham, ularning zahirida paydo bo'lgan pravoslavlik, katoliklik, lamaizm, dzen-buddizm kabi yo'nalishlar ham shunday nom bilan atalaveradi.

Mazhablarga misollar

- Ustun dinlar va konfessiyalarning mamlakatlar bo'yicha taqsimlanishi :
Pravoslavlik Qadimgi Sharq pravoslav cherkovlari katoliklik protestantizm sunniylik shiizm
Teravada Mahayana Vajrayana hinduizm

Xristianlik:

Pravoslavlik, Katoliklik, Protestantizm, Pentikostalizm, anglikanizm va boshqalar.

Islom:

sunniylik, Shialik, Zaidizm, Imomiylik, Ismoilik Ibadizm.

Ma'lumot o'rnida keltirilganlarning hech qaysi biri Dunyo musulmonlari kengashining Fatvo hayati tasdig'idan o'tmagan Hechqaysi rasmiy islomiy davlat mazkur mashablarga ega emas bularning bari mutaasiblar tomonidan o'ylab topilgan sunniy oqimlar Dunyo musulmonlari kengashi ta'sdiqidan o'tgan mazhablar: Shofiy, Moliy, Hanafiy va Hanbaliy mazhablaridir

yuqorida keltirilgan keltirilgan 4 mazhab dunyo miqyosida rasman tasdig'ini topgan

ilk keltirilgan sunniy mazhablar esa Ayrim bir oqimlarning manfaati maqsadida o'ylab topilib muhim masalalarda zaiflashib qolganligi sababli tasdiqdan o'tmagan.

Buddizm

Teravada, Mahayana, Vajrayana.

Yahudiylik:

Pravoslav yahudiylik, Hasidizm, Yahudiylikni isloh qilish.

Xristian konfessiyalari ro'yxati:

Xristianlikning konfessiyalarga bo'linishi va e'tiroflar soni bo'yicha konsensus mavjud emas. Biroq, xristianlik uchta konfessiyaga bo'linganligi keng tarqalgan — katoliklik, protestantlik va pravoslavlik. Biroq, bunday soddalashtirilgan bo'linish bilan, bir mazhabda, guruhlar aslida dinda boshqacha bo'lib chiqadi.

Reformatsiya davrida Rim-katolik cherkovidan ajralib chiqqan lyuteranlar, anglikanlar va kalvinistlardan tashqari protestantizm keyinchalik protestantizmning o'zi doirasida paydo bo'lgan harakatlarni ham o'z ichiga oladi, masalan, baptistlar, ellikchilar va boshqalar. Ettinchi kun adventistlariga kelsak, ba'zi protestant ilohiyotshunoslari ularni kultlar deb atashadi, ammo 1950-yillarning oxiridan boshlab „o'z saflarida evangelistik harakat paydo bo'lganini“ ta'kidlaydilar. Protestantizm 19-asrda paydo bo'lgan ba'zi diniy oqimlarni o'z ichiga olmaydi, masalan, Iegova guvohlari va o'zlarini o'z ichiga olmaydi.

Tarixiy cherkovlar bilan bog'liq vaziyat bundan kam emas. Shunday qilib, o'zlarini katolik deb atagan eski katoliklar va o'zlarini katolik deb ataydigan boshqa guruhlar Rim-katolik cherkovi tomonidan tan olinmaydi, chunki katoliklikning asosiy belgisi Rim papasining cherkov boshlig'i sifatida tan olinishidir. Pravoslavlik o'zlarini pravoslav deb ataydigan ikki xil cherkov guruhini anglatadi — Kalsedon bo'lmagan Qadimgi Sharq pravoslav cherkovlari va Vizantiya an'alarining Kalsedon Sharqiy pravoslav cherkovlari. Shu bilan birga, ular o'rtasidagi munosabatlar o'zaro tan olishdan bid'at ayblovlarigacha farq qiladi.

Bundan tashqari, Sharqning Ossuriya cherkovi va Sharqning Qadimgi Ossuriya cherkovi, nestorianlikni e'tirof etadigan yagona cherkovlar va shuning uchun o'zlarining shaxsida alohida nasroniylik mazhabi bo'lib, bunday uch tomonlama sxemaga mos kelmaydi.

Xristianlik mazhablari ularning ajralish xronologiyasiga ko'ra

- Sharqning qadimgi Sharqiy Ossuriya cherkovi
- Qadimgi Sharqiy pravoslav cherkovlari
- Vizantiya pravoslavligi va katolikligi (bir vaqtning o'zida bir-biridan ajratilgan).
- Protestantizm

- Restoratsionizm
- Para -xristianlik (psevdo-xristianlik)

Yahudiylidagi konfessional bo‘linishlar

Zamonaviy yahudiylilik turli konfessiyalarni o‘z ichiga oladi. Eng yiriklari pravoslav yahudiylilik (shu jumladan, o‘z navbatida, Hasidimlar, Litvaklar, zamonaviy pravoslavlar, diniy sionistlar va boshqalar), islohotchi va konservativ harakatlar (asosan AQSh va Kanadada). Ba’zi mamlakatlarda islohot yahudiyligiga taxminan mos keladigan oqim liberal yoki progressiv iudaizm deb ataladi va AQSh va Kanadadan tashqaridagi konservativ yahudiylilik tarafdorlari „masorti“ deb ataladi.

Islomdagi konfessiyaviy bo‘linish:

Islom oqimlari

Islomdagi oqimlarning tafovuti Umaviylar davrida boshlanib, Abbosiylar davrida ham davom etgan, ya’ni olimlar qadimgi yunon va eron olimlarining asarlarini arab tiliga tarjima qila boshlaganlar, bu asarlarni islom nuqtai nazaridan tahlil qilib, sharhlay boshlaganlar.

Dunyo musulmonlarining taxminan 85-90% sunniylar, (Raqamlar Tahminiy farazga asoslangan asosan xayoliy) qolganlari shialar, shuningdek, islomiy mazhablar a’zolarini (Ahmadilar, alaviylar, druzlar, ibodiylar, ismoiliylar va boshqalar) o‘z ichiga olgan kichik ozchilikni tashkil qiladi.

Dunyoning konfessional manzarasi. Bugungi kunda dinga bo‘lgan qiziqishning kuchayib borishi globallashuv jarayonlarining o‘ziga xos in’ikosi deyish mumkin. Zero, globallashuv dunyoni bir butun va yaxlit qila borishi bilan bir qatorda, uning hosilasi sifatida alohida olingan millat va jamiyatlar darajasida o‘z-o‘zini anglashga bo‘lgan intilishning chuqurlashuviga ham zamin yaratmoqda. Bu jarayonlar o‘z navbatida inson ma’naviyatining uzviy qismi bo‘lgan dinning mohiyatini tushunish, uning inson va jamiyat hayotidagi o‘rnini anglashga bo‘lgan e’tiborning kuchayishini keltirib chiqarmoqda. Shu bilan birga, dinga bo‘lgan qiziqishning kuchayishi bugungi kunda kishilik jamiyati oldida turgan muammolar, insonning ularni hal qilish yo‘llari haqidagi o‘y-izlanishlari, dunyoviy va diniy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlagan holda bugungi kunning og‘ir va murakkab savollariga to‘laqonli javob topishga intilishi bilan bog‘liq ekanini ham alohida qayd etish lozim. Mutaxassislar ma’lumotlariga ko‘ra, XX asrning ikkinchi yarmida xristianlik, buddaviylik, islom va boshqa dinlar doirasida yuzlab sektalar paydo bo‘lgan. Bu shunday jarayonlar kelajakda davom etishi mumkinligini taxmin qilish imkonini beradi.

O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatuvchi diniy tashkilotlar.

Tarixdan ma’lumki, har qanday davlatning barqarorligi undagi xalqlar, millat va elatlarning huquq va erkinliklari faqatgina qonuniy hujjatlarda belgilanishiga emas, balki ularning amalda qay darajada o‘z tasdig‘ini topishiga ham bog‘liqdir. SHu nuqti nazardan qaraganda, mamlakatimizda fuqarolarning vijdon erkinligi bilan bog‘liq huquqlari nafaqat qonunan mustahkamlab qo‘yilganini, balki amaliyotda ham ushbu Qonundan kelib chiquvchi tamoyillarga qat’iy rioya qilinayotganini hayotiy dalillar ham ko‘rsatmoqda. Mamlakatimizda diniy tashkilotlar hech qanday tazyiqlarsiz, cheklashlarsiz, emin-erkin faoliyat ko‘rsatishlari uchun barcha sharoitlar yaratilganini ta’kidlash lozim. Shu bilan birga, diniy tashkilotlarning soni o‘sganini ham qayd etish zarur. Xususan, 1990 yilda respublikamizda 119 ta diniy tashkilot (89 ta islomiy va 30 ta noislomiy) mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 1991 yilda 179 taga (146 islomiy va 33 noislomiy) etdi, 2007 yilning yanvariga kelib esa, ularning soni 2227 tani (2046 ta islomiy, 181 ta noislomiy) tashkil etdi. Ulardan eng yirigi O‘zbekiston musulmonlari idorasi, Rus Pravoslav cherkovining Toshkent va O‘rta Osiyo Eparxiyasi, Evangel xristian-baptistlar cherkovi, Rim-katolik cherkovi, To‘liq Injil

xristianlari cherkovi, O'zbekiston Bibliya jamiyati. SHuningdek, 1987 ta masjid, 163 ta xristian cherkovi, 8 ta yahudiy sinagogalari, 6 ta Bahoiylar jamoasi, 1 ta Krishnani anglash jamiyati, 1 ta Budda ibodatxonasida fuqarolar emin-erkin ibodat qilishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Mustaqillikkacha bor-yo'g'i ikkita islomiy diniy o'quv yurti (Toshkent islom instituti va «Mir Arab» madrasasi) bo'lgan bo'lsa, o'tgan yillar davomida ularning soni 11 taga etdi. Boshqacha aytganda, Imom al-Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti, Buxorodagi «Mir Arab», Toshkentdagi «Ko'kaldosh», Qoraqalpog'istondagi «Beruniy», Namangandagi «Mulla Qirg'iz», Xorazmdagi «Faxriddin ar-Roziy», Andijondagi «Sayyid Muhyiddin Maxdum», Qashqadaryodagi «Xoja Buxoriy», Toshkentdagi «Xadichai Kubro» va Buxorodagi «Jo'ybori Kalon» xotin-qizlar o'rta maxsus islom bilim yurtlari va Imom al-Buxoriy nomidagi hadis ilmi markazidan iborat yaxlit diniy ta'lim tizimi yaratildi. 2000–2001 o'quv yilidan boshlab diniy ta'lim muassasalarida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Kasb-hunar ta'lim markazining Davlat ta'limi standartlari bo'limi bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan ta'lim standartlari va o'quv rejasi asosida o'qitish joriy qilindi. Sodda qilib aytganda, o'quv yurtlarida diniy va dunyoviy ta'limning uzviyligi ta'minlandi. 2000 yildan boshlab Toshkent islom instituti va o'rta maxsus islom bilim yurtlari bitiruvchilarini O'zbekiston musulmonlari idorasi yo'llanmasi bilan rejali ravishda respublikada faoliyat ko'rsatayotgan masjidlariga ishga taqsimlash va 2001 yil yanvar oyidan boshlab, ilk marta diniy bilim yurtlari talabalariga stipendiya berish joriy qilindi. Yuqoridagi kabi o'zgarishlarni boshqa konfessiyalar misolida ham ko'rish mumkin. Xususan, 1998 yildan Toshkent Pravoslav hamda Samarqand Protestant seminariyalari faoliyat ko'rsata boshladi, Rus pravoslav cherkovi Toshkent va O'rta Osiyo eparxiyasining 125 yilligi va Evangel-Lyuteran jamoasining 100 yilligi nishonlandi. Xulosa qilib aytganda, xalqimizning diniy va ma'naviy qadriyatlarining hozirgi demokratik jamiyat qadriyatlari bilan uyg'unlashishi respublikamizning kelajakda yanada ravnaq topishi, jahon hamjamiyatiga qo'shilishida muhim omillardan biri hisoblanadi.

2-reja bayoni. O'zbekistonda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar haqidagi qonun qabul qilinishining tarixi va uning ahamiyati.

Vijdon erkinligi - ijtimoiy-falsafiy tushuncha; har kimning o'z e'tiqodiga ko'ra, mazkur jamiyatda mavjud ijtimoiy me'yorlarni buzmagani holda vijdoni buyurgani bo'yicha yashash, ishlash imkoniyatiga ega. Bunda dinga munosabat masalaning bir tomoni hisoblanadi. Siyosiy jihatdan Vijdon erkinligiga demokratiya ko'rinishlaridan biri sifatida qaraladi. Yuridik nuqtai nazardan Vijdon erkinligi insonning asosiy shaxsiy huquqlari sirasiga kiradi va demokratik erkinliklardan biri hisoblanadi. O'zbekistonda u O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunda (1991 yil 14 iyunda qabul qilingan, 1998- yil 1- mayda va 2021 yil 5 iyulda yangi tahriri tasdiqlangan) nazarda tutilgan. Konstitutsiyaga ko'ra, "hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega" (35-modda). O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi bo'yicha, diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi. Ayni vaqtda yangi tahrirdagi "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunga ko'ra, dinga munosabatidan qat'i nazar fuqarolarning tengligi ta'minlanadi (6-modda). Ushbu qonunda ta'kidlanishicha, hech bir dinga yoki diniy e'tiqodga boshqalariga nisbatan biron-bir imtiyoz yoki cheklashlar belgilanishiga yo'l qo'yilmaydi. Qonun muayyan yoshga yetgan fuqarolarning o'z diniy ehtiyojlarini qondirish uchun diniy tashkilot tuzish, oliy va o'rta diniy o'quv yurtlarida ta'lim olish tartib-qoidalarini ham belgilab bergan. Ayni vaqtda dindan davlat va Konstitutsiyaga qarshi targ'ibot olib borishda, millatlararo adovat uyg'otishda, vaziyatni

beqarorlashtiruvchi uydirmalarni tarqatishda, aholi o'rtasida vahima chiqarishda hamda davlat, jamiyat va shaxsga qarshi qaratilgan boshqa g'arazli maqsadlarda foydalanishga yo'l qo'yilmaydi (5-modda).

Yangi tahrirdagi Qonunda **vijdon erkinligini ta'minlash quyidagicha izohlangan.**

Vijdon erkinligi — bu fuqarolarning xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik bo'yicha kafolatlangan konstitutsiyaviy huquqidir.

Fuqaro dinga, dinga e'tiqod qilishga yoki e'tiqod qilmaslikka, ibodatlarda, diniy rasm-rusumlar va marosimlarda ishtirok etishga yoki ishtirok etmaslikka, diniy ta'lim olishga nisbatan o'z munosabatini belgilayotganda uni u yoki bu tarzda majburlashga yo'l qo'yilmaydi.

Voyaga yetmaganlarni ularning xohish-irodasiga, ota-onasining yoki qonuniy vakillarining xohish-irodasiga zid tarzda diniy tashkilotlarga jalb etishga yo'l qo'yilmaydi.

O'z diniga e'tiqod qilish yoki ishonish erkinligiga nisbatan faqat qonunda nazarda tutilgan cheklovlar tatbiq etiladi.

O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini zo'rlik bilan o'zgartirish, uning suvereniteti va hududiy yaxlitligiga putur yetkazish, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini kamsitish, urushni, milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovatni targ'ib qilish, fuqarolarning sog'lig'i va axloqiga tajovuz qilish, fuqarolar totuvligini buzish, vaziyatni beqarorlashtiruvchi tuhmatdan iborat uydirmalarni tarqatish, aholi o'rtasida sarosima uyg'otish hamda shaxs, jamiyat va davlatga qarshi qaratilgan boshqa harakatlar sodir etish maqsadida dindan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Shuningdek, Vijdon erkinligini ta'minlashning asosiy ustuvorliklari quyidagilardan iborat etib belgilangan:

fuqarolarning dinga munosabatidan qat'i nazar, diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'ymagan holda, ularning vijdon erkinligiga bo'lgan o'z huquqlarini amalga oshirishi uchun teng shart-sharoitlar yaratish;

konfessiyalar o'rtasidagi tinchlik va totuvlikni mustahkamlash, jamiyatda diniy bag'rikenglikni ta'minlash;

vijdon erkinligini ta'minlashda dunyoviy davlat qurilishini saqlab qolish;

vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonunchilikka fuqarolar hamda diniy tashkilotlar tomonidan rioya etilishini ta'minlash;

jamoat tartibiga, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining sog'lig'i va axloqiga, huquq va erkinliklariga tahdid soluvchi diniy g'oyalar hamda qarashlarning singdirilishi va tarqatilishiga qarshi kurashish.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita vijdon erkinligini, shuningdek vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonunchilikning amalda izchil hamda bir xil tarzda qo'llanilishini ta'minlashga doir choralarning amalga oshirilishi uchun mas'ul bo'lgan vakolatli davlat organidir (bundan buyon matnda vakolatli organ deb yuritiladi).

Qonunning 6-moddasida fuqarolarning dinga munosabatidan qat'i nazar teng huquqliligi quyidagicha belgilangan:

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, dinga munosabatidan qat'i nazar, qonun oldida tengdir.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng ravishda vijdon erkinligi va dinga e'tiqod qilish erkinligi huquqidan foydalanadi hamda

vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun qonunda belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

Rasmiy hujjatlarda fuqarolarning dinga nisbatan munosabatini ko'rsatishga yo'l qo'yilmaydi.

Fuqarolarning huquqlarini ularning dinga munosabatiga qarab har qanday tarzda cheklash va to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita ustunliklar belgilash, ularning diniy yoki ateistik e'tiqodi bilan bog'liq holda fuqarolarda adovat va nafrat uyg'otish yoxud ularning his-tuyg'ularini haqoratlash, xuddi shuningdek muqaddas diniy e'tiqod obyektlarini tahqirlash qonunda belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi.

Qonunda belgilangan majburiyatlarni bajarishdan hech kim o'z diniy e'tiqodlarini sabab qilib bo'yin tovlashi mumkin emas. Diniy e'tiqodlarini sabab qilib, bir majburiyatni bajarishni boshqasiga almashtirishga faqat qonunda nazarda tutilgan hollardagina yo'l qo'yiladi.

Bir dinga yoki diniy e'tiqodga boshqalariga nisbatan biror-bir ustunliklar yoki cheklovlar belgilashga yo'l qo'yilmaydi.

7-moddasida esa Dinning davlatdan ajratilganligi quyidagicha belgilab qo'yilgan:

O'zbekiston Respublikasida din davlatdan ajratilgan. O'zbekiston Respublikasida diniy tashkilotlar va davlat organlarining faoliyati o'zaro aralashmaslik asosida amalga oshiriladi.

Davlat turli dinlarga e'tiqod qiladigan va ularga e'tiqod qilmaydigan fuqarolar, turli dinlarga mansub diniy tashkilotlar o'rtasida o'zaro murosa va hurmat o'rnatilishiga ko'maklashadi, diniy aqidaparastlik hamda ekstremizmga, munosabatlarni qarama-qarshi qo'yish va keskinlashtirishga, turli konfessiyalar o'rtasida adovatni avj oldirishga qaratilgan xatti-harakatlarga yo'l qo'yilmaydi.

Davlat konfessiyalarning tinch-totuv yashashiga kafil bo'ladi. Missionerlik va prozelitizmni amalga oshirishga yo'l qo'yilmaydi.

Davlat diniy tashkilotlar zimmasiga davlatning biror-bir vazifalarini bajarishni yuklamaydi, ularning qonunchilikka zid bo'lmagan faoliyatiga aralashmaydi. Diniy tashkilotlar davlat vazifalarini bajarmaydi. Davlat diniy tashkilotlarning faoliyatini moliyalashtirmaydi va dinga e'tiqod qiluvchilarning din bilan bog'liq his-tuyg'ularini haqoratlaydigan faoliyatga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasida diniy ruhdagi siyosiy partiya va boshqa jamoat birlashmasining, respublikadan tashqarida tuziladigan diniy partiyalar vakolatxonalari va filiallarining tashkil etilishiga hamda faoliyatiga, siyosiy partiyalar va siyosiy maqsadlarni ko'zlovchi boshqa jamoat birlashmalari faoliyatida diniy tashkilotlarning ishtirok etishiga, shuningdek ularga moliyaviy yoki boshqa yordam ko'rsatishiga yo'l qo'yilmaydi.

8-moddada Ta'lim tizimi va din:

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi dindan ajratilgandir.

Ta'lim tizimining o'quv dasturlariga diniy fanlar kiritilishiga (bundan diniy ta'lim muassasalari mustasno) yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining dunyoviy ta'lim olish huquqi, ularning dinga bo'lgan munosabatidan qat'i nazar, ta'minlanadi.

Har kim diniy ta'lim muassasalarida professional diniy ta'lim olish huquqiga ega.

Diniy ta'lim muassasalarida o'qishga fuqarolar qonunchilikka muvofiq umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim yoki professional ta'lim olganidan keyin qabul qilinadi.

Diniy professional ta'lim olgan shaxslar diniy ta'lim muassasalarida diniy fanlarni o'qitish faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga egadir.

9-moddada: Diniy rasm-rusumlar va marosimlar:

Diniy rasm-rusumlar va marosimlar diniy tashkilotlar joylashgan joyda, shu jumladan ibodat qilinadigan binolarda hamda ularga tegishli hududlarda, dafn etish joylarida, ziyoratgohlarda, diniy zaruriyat bo'lgan taqdirda fuqarolarning xohishiga ko'ra ularning uylarida o'tkaziladi.

Kasalxonalarda, gospitallarda, internat muassasalarida, dastlabki qamoq va jazoni o'tash joylarida, ichki ishlar organlarining rehabilitatsiya markazlarida diniy rasm-rusumlar va marosimlar qonunchilikda belgilangan tartibda, shu joylardagi fuqarolarning iltimoslariga ko'ra o'tkazilishi mumkin.

Ibodot qilinadigan binolardan tashqaridagi ommaviy diniy rasm-rusumlar va marosimlar

3-reja bayoni. Davlat va din munosabatlarini tartibga solishning tiplari. (Identifikatsion model, separatsion model va kooperatsion modellar).

Sekulyarlashuv jarayoni.

Rivojlangan demokratik yo'ldan ketayotgan davlatlarning hozirgi zamonda dinga munosabati asosan vijdon erkinligini ta'minlash va diniy bag'rikenglikka asoslangan. SHunga qaramay, bugungi kunda davlat va din o'rtasidagi munosabatlar o'z mazmuni, mohiyati, shakllari va usullariga ko'ra turli davlatlarda o'ziga xoslikka ega. SHu munosabat bilan din va davlat o'rtasidagi munosabatning tiplari, modellari haqida fikr yuritish mumkin.

Hozirda davlat bilan din (diniy tashkilotlar) o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishning turli shakllari mavjud bo'lib, ular bugunga kelib quyidagi uchta asosiy turkumga ajratiladi:

1. Davlat-diniy tashkilot modeli – identifikatsion model. Bunday modelni biz, misol uchun, Daniya, Angliya, Gretsiya, SHvetsiya, Finlyandiya, Norvegiyada (ya'ni Evropa ittifoqining deyarli uchdan bir qismida), Saudiya Arabistoni, Bruney qirolligi, Qatar, Eron islom respublikasida kuzatishimiz mumkin.

2. Separatsion, ya'ni davlat dindan ajratilganligiga asoslangan model. Davlat bilan din o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishning bu turiga AQSH, Fransiya, Niderlandiya, Turkiya, MDH davlatlari, jumladan O'zbekiston Respublikasi kabi davlatlarni misol sifatida keltirish mumkin.

3. Kooperatsion – neytralitet modeli. Germaniya, Ispaniya, Italiya, Belgiya, Lyuksemburg, Avstriya kabi mamlakatlarida o'z aksini topgan.

Identifikatsion model muayyan tarixiy shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda, Evropaning ayrim mamlakatlarida davlat dinini rasmiy belgilash prinsipiga amal qiladi. Jumladan, hozirgi kunda anglikan cherkovi (rasmiy nomlanishi – Angliya cherkovi) davlat maqomiga egadir. Qirolikdagi diniy tashkilotlarning o'rni-mavqei bir qator parlament tomonidan qabul qilingan qonunlar hamda davlat va diniy tashkilot o'rtasidagi kelishuv-bitimlari bilan belgilanadi. SHunday hujjatlardan eng muhimi – 1534 yili qabul qilingan «Suprematiya (ustuvorlik) to'g'risidagi akt»dir. Unga binoan qirol anglikan cherkov rahbari hisoblanadi (1952 yildang buyon qirolicha). Monarx hukumat tavsiyasiga binoan episkoplarni tayinlaydi. Bunday episkoplarning aksariyat qismi lordlar palatasining a'zolaridir.

Barcha din xizmatchilaridan san (diniy unvon)ga bag'ishlash jarayonida qirolga itoatkorlik to'g'risida qasamyod qilishi talab etiladi. SHuningdek, cherkovning muhim hujjatlari, shuningdek anglikan cherkovining Bosh sinodi qarorlari, qonuniy kuchga kirishidan avval, parlament tomonidan tasdiqlanishi va qirol tomonidan ma'qullanishi lozim. Anglikan cherkovi xizmatchilari tomonidan rasmiylashtirilgan nikohlar yuridik kuchga ega. Diniy tashkilot o'zining barcha

mablag'larini bevosita emas, balki «CHerkov vakolatdorlari» nomli davlat moliyaviy tashkiloti orqali tasarruf etadi. Bu tashkilot qo'lida Angliya cherkoviga rasmiy tegishli bo'lgan barcha moliya-mablag'lar to'planadi.

SHvetsiya, Daniya va Norvegiyada diniy tashkilotning maqomi boshqa mamlakatlarda bo'lgan maqomidan jiddiy farq qiladi. Skandinaviya mamlakatlarining xarakterli belgisi – protestantizmning qat'iy ustuvorligi hisoblanadi - bu mamlakatlarda aholining 90 foizidan ko'prog'i protestant cherkoviga mansubdir.

YAqin va O'rta sharq mamlakatlarining aksariyatida davlat dini sifatida islom dini e'tirof etilgan bo'lib, ko'pincha, bu haqda ularning nomlarida ham ko'rsatiladi: Pokiston Islom Respublikasi, Eron Islom Respublikasi. SHu bilan birga islom Afg'oniston, Misr, Iroq, Jazoir, Tunis va Iordaniyada ham davlat dini sifatida e'tirof etilgan.

1979 yili 23 dekabrda tasdiqlangan Eron Islom Respublikasining Konstitutsiyasida aytilishicha, «Eronda 12 ta imomlarning mavjudligini nazarda tutuvchi ja'fariya mazhabi rasmiy din sifatida e'tirof etiladi hamda bu qoida abadiy o'zgarmas bo'lib qoladi» (12-modda). «Barcha fuqarolik, moliyaviy, iqtisodiy, ma'muriy, madaniy, harbiy, siyosiy va boshqa qonun-qoidalar islom normalari asosida belgilanishi lozim» (4-modda).

Qirol bir vaqtning o'zida hukumat rahbari, oliy bosh qo'mondon va diniy rahbar sifatida namoyon bo'ladigan, mutlaq teokratik monarxiyaga Saudiya Arabistonini misol qilib keltirsa bo'ladi. Bu mamlakat Konstitutsiyada Qur'oni karim va Payg'ambar alayhis-salom sunnatlari har qanday normadan ustun ekani e'tirof etilgan. Saudiya Arabistonida mahalliy aholi to'liq islom diniga e'tiqod qiladi. SHuningdek, Makka va Madina shaharlariga islomdan boshqa dinga e'tiqod qiluvchi shaxsning kirishi taqiqlanadi. Qirollikda sud hokimiyati asosan shariat sudlari tomonidan Qur'on ko'rsatmalariga amal qilgan holda amalga oshiriladi.

Isroilda esa yahudiylar davlat dini bo'lib, bu mamlakatda din davlat mexanizmining bir qismi sifatida o'z aksini topgan. Mamlakatda yagona konstitutsiya mavjud bo'lmay, uning o'rniga Knesset tomonidan qabul qilinadigan qonunlar amal qiladi. 1952 yilgi qonunga binoan Isroil fuqaroligi yahudiylardan boshqa dinga e'tiqod qiluvchi yoki umuman dinsiz yahudiylarga berilmaydi. Sinagoga va ravvinatning jamiyat turli sohalardagi aralashuvi nihoyatda keng bo'lib, ular o'zlari tomonidan chiqarilgan turli ko'rsatmalar orqali e'tiqod qiluvchi hayotining turli jabhalarini tartibga soladi.

Ayrim mamlakatlarning konstitutsiyalarida diniy tashkilotning davlatdan ajratilganligi (separatsion model) mustahkamlangan bo'lib, bunda davlat dinni o'z fuqarolarining shaxsiy ishi sifatida ko'radi. Bunday holatni «erkin jamiyatda erkin e'tiqod» degan ibora bilan izohlasha bo'ladi.

Separatsion model vakillaridan bo'lgan AQSHda davlat va dinning bir-biri ishlariga ikki tomonlama aralashmaslik, diniy jamoalarning erkinligi, diniy konfessiyalar o'rtasida davlatning betaraf ekanini nazarda tutuvchi diniy tashkilotning davlatdan qat'iy ajratilishi tamoyili keng yoyilgan.

Diniy tashkilotning davlatdan ajratilishi prinsipi boshqa shaklda ham namoyon bo'lishi mumkin. Evropada bunday tizim diniy tashkilotga qarshi kurash jarayonlari natijasi sifatida shakllandi. XIX asr davomida Fransiyada davlat-din munosabatlari hamkorlikdan butunlay uzilishga qadar o'zgarib, 1905 yildan cherkov davlatdan rasmiy ravishda ajratiladi. SHunga bog'liq ravishda 1905 yili Fransiyada qabul qilingan qonun quyidagilarni tan oladi:

1. Vijdon va e'tiqod erkinligi;

2. Davlat tomonidan diniy tashkilotlar va ularni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlanishining taqiqlanishi;

3. Barcha dinlarga, hech bir istisnosiz teng munosabatda bo'lish.

Fransiyada qabuli qilingan dinning davlatdan ajratilishi to'g'risidagi qonun diniy marosim va urf-odatlarini bajo keltirish davlat hokimiyati ruxsati va nazorati bilan amalga oshirilishini belgilab qo'ydi.

Kooperatsion, ya'ni neytralitet modeliga Germaniya federativ respublikasini misol tariqasida keltirish mumkin. GFR da davlat bilan diniy tashkilot o'rtasidagi munosabatlarda davlat hokimiyatining ustuvorligi e'tirof etilgan, davlat-diniy tashkilot huquqi vujudga keldi.

Veymar Konstitutsiyasi davridan boshlab Germaniyada davlat-cherkov munosabatlari sekulyarlik tamoyiliga asoslanadi. SHuningdek, davlat hokimiyati bilan diniy tashkilot munosabatlarida muayyan masofa saqlanadi. Hozirgi kunda bunday masofani «neytralitet» termini bilan atash odat bo'lgan.

Hozirgi kunda davlat-cherkov munosabatlari GFR Asosiy qonunining 140-moddasi asosida tartibga solinadi. O'z navbatida konstitutsiyaning mazkur moddasi 1919 yilgi Veymar Konstitutsiyasining 136-139, 141- moddalaridan tashkil topgan. Mazkur qoidalariga binoan GFR da davlat biror dinga rasmiy davlat dini maqomini bermaydi.

GFRda diniy mashg'ulotlar davlat bilan diniy tashkilot o'rtasidagi o'zaro munosabatning o'ziga xos ifodasi bo'lib, diniy mashg'ulotlar davlat bilan diniy tashkilotning umumiy ishi sifatida e'tirof etiladi. GFR Konstitutsiyasining 7-moddasiga binoan, ommaviy maktablarda diniy ta'lim majburiy predmet sifatida o'qitiladi.

Ko'rib chiqilayotgan model doirasida 1920 yilgi Avstriya konstitutsiyasida ham o'ziga xosliklar bor. Unda ham vijdon va e'tiqod erkinligi to'liq e'tirof etiladi. Avstriyada ham, GFRda bo'lgani kabi, cherkov davlatdan ajratilmagan. Katolik cherkovi davlat maqomiga ega bo'lmasa-da, diniy sohada hukmronlik qiladi va mafkuraviy hayotning turli jabhalariga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. E'tiqod qiluvchilarning taxminan 90% ni katoliklar tashkil etadi.

Yuqoridagi davlatlar misolidan ko'rinib turibdiki, xorijiy mamlakatlarda diniy tashkilotlarning huquqiy maqomini, davlatning dinga, vijdon va e'tiqod erkinligiga bo'lgan munosabatini tartibga soluvchi konstitutsiyaviy va qonunchilik normalari nihoyatda turli-tumandir. Konstitutsiyalar odatda, diniy tashkilot bilan davlat o'rtasidagi o'zaro munosabat asoslari, jamiyatda dinning tutgan o'rni bilan bog'liq masalalarni tartibga soluvchi maxsus moddalarni, ayrim hollarda esa bir-butun bo'lim va boblarni ham o'zida aks ettiradi. Umuman olganda esa, konstitutsiyalar konfessiyalar va e'tiqod qiluvchilar huquqlarining kafili bo'lib hisoblanadi.

O'zbekistonda tarkib topgan davlat va din o'rtasidagi munosabat o'z mohiyati, mazmuni va huquqiy asoslariga ko'ra separatsion modelga, ya'ni davlatdan din, umumta'lim maktablaridan diniy ta'limning ajratilganligi va vijdon erkinligi, konfessional bag'rikenglik ta'minlanganligiga asoslanadi.

O'zbekiston dunyoviy davlat bo'lib, mamlaktimizda din davlatdan alohida bo'lib, bu haqda mamlakatimiz Konstitutsiyasining 75-moddasida shunday deyiladi: «Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi».

Bu g'oya «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonunning 5-moddasida ham mustahkamlangan bo'lib, unda ham dinning davlatdan ajratilganligi, hech bir dinga yoki diniy e'tiqodga boshqalariga nisbatan biron-bir imtiyoz yoki cheklashlar belgilanishiga yo'l

qo'yilmasligi belgilab qo'yilgan. Bu esa mamlakatimizda davlatning diniy ishlarga, dinning esa davlat ishlariga (qonun hujjatlarida ko'rsatilgan holatlar bundan mustasno, albatta) aralashmasligini anglatadi.

Buning zahirida davlat tomonidan turli dinlarga e'tiqod qiluvchi va dinga e'tiqod qilmaydigan fuqarolar, shu kabi tashkilotlar o'rtasida o'zaro murosa va hurmat o'rnatilishiga ko'maklashishi, ular o'rtasida vujudga kelishi mumkin bo'lgan qarama-qarshilik va keskinliklarning oldini olishi, diniy konfessiyalar o'rtasidagi tinchlik va totuvlikni qo'llab-quvvatlashi, diniy tashkilotlar zimmasiga davlat o'zining hech qanday vazifasini bajarishni yuklamasligi, ularning qonun hujjatlariga zid bo'lmagan faoliyatiga aralashmasligi kabilar yotadi.

Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi demokratik prinsiplarga sodiqligini ifodasi sifatida davlatning din va diniy tashkilotlar bilan o'zaro munosabatda quyidagi prinsiplarga amal qilishini e'lon qildi:

- *dindorlarning diniy tuyg'ularini hurmat qilish;*
- *diniy e'tiqodlarni fuqarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish;*
- *diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni ta'qib qilishga yo'l qo'ymaslik;*
- *ma'naviy tiklanish, umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni qaror toptirish ishida turli diniy uyushmalarining imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan muloqot qilish yo'llarini izlash zarurati;*
- *dindan buzg'unchilik maqsadlarida foydalanishga yo'l qo'yib bo'lmashini e'tirof etish.*

Yuqoridagilarga asoslangan holda, xulosa qilish mumkinki, biz yuqorida tahlil etgan davlat va din o'rtasidagi munosabatning uch modeli davlat va din o'rtasidagi munosabatning turli-tuman qirralarini jihatlarini va xossalarini to'laligicha qamrab ololmaydi. Davlat va din o'rtasidagi munosabatning bir modelida boshqa model elementlari ham uchray qolishi mumkin. Shu jihatlarni hisobga olgan holda aytish mumkinki, davlat va din o'rtasidagi munosabatning qaysi modelda bo'lishi shu davlatning taraqqiyoti, undagi aholining mentaliteti, dinning xususiyati, mamlakatdagi demokratik vaziyat, inson huquqlarining ta'minlanganligi, xalqaro ahvol, jamiyatning onggi kabi omillar ta'sir etishi shubhasizdir.

4-reja bayoni. Sobiq Sovet Ittifoqi davrida O'zbekistonda diniy qarashlarga munosabatning asosiy jihatlari.

Xonliklarning XIX asr oxirlarida ruslar tomonidan bosib olinishi oqibatida mintaqada uzoq davr davomida shakllangan barcha muassasalar ziyon ko'rdi. Xonlar vaqf mulklari ustidan qisman nazoratga ega edilar. Rossiya hukmronligi davrida bu nazorat susaygach, vaqf daromadlarini suiste'mol qiluvchi mas'ullar paydo bo'ldi. Masjid va madrasalar e'tiborsizlik tufayli yaroqsiz holga keldi. Madrasalar tuzilmasiga putur yetkazgan yana bir holat qozilarni tayinlash masalasi edi. Ruslar o'lkani bosib olganlaridan so'ng shariat qonunlariga asoslanib ish ko'ruvchi qozilar faoliyatini to'xtatmagan bo'lsa-da, biroq har bir viloyatga o'zlari bir qozi tayinlashgan. Ilgari qozilarni xonlar tayinlaganlar, ularni tayinlashda taqvodorlikka, layoqatlilik va munosibligiga va xalq orasidagi obro'siga ahamiyat berilgan. Rossiya hukmronligi davrida saylangan qozilarda esa hech qanday layoqat qolmagan edi. Bundan tashqari, xalqning saylov huquqi ham bekor qilingan edi. Adolat izlagan xalq faqat o'zlari istiqomat qiladigan hududdagi qozilarga arz qilishlari mumkin edi xolos. Oqibatda qozi va mullalarning obro'siga putur yetdi. Bu salbiy holat madrasalarga ham ta'sir ko'rsatmay qolmadi. Chor Rossiyasining musulmon aholini kuchli

nazorat va ta'qib qilish siyosati boshlandi. Ayniqsa, tariqatlarning xalqqa ta'siri va bir-biriga o'ta sodiq tizimga egaligi ommani tuzumga qarshi safarbar etish salohiyatiga ega bo'lgani sababli ular chor Rossiyasida ham, sovetlar davrida ham kuchli nazorat va bosim ostida tutilgan. Bizning fikrimizcha, din olimlari va musulmon xalq ko'plab tazyiqlarga qaramay, mustamlakaning dastlabki davrlarida maktab va madrasalar sonini ko'paytirishga harakat qilganligi ijtimoiy ongda diniy dunyoqarashning ustuvorligidan dalolat beradi. Sovetlar bunga javoban din va dindorlarga qarshi bosimni yanada kuchaytirdilar. Dinning o'rnini egallashi kutilgan ateizm uchun tizimli ravishda propaganda faoliyati boshlandi va bu holat sovet tuzumining oxirgi yillariga qadar davom etdi. Ateistik propagandaga ko'ra, fan va din orasida bevosita va aniq qarama-qarshilik bo'lgan va din aqlga butunlay teskari deb e'tirof etilgan. Ateistik yondoshuvga ko'ra, din insonlar tomonidan tabiatni tushuna olmaslik va barcha tabiat hodisalarini metafizik tushunchalar orqali tushuntirish, insoniyatning ibtidoiy davrining bir mahsuli edi xolos. Sovet hukumati ba'zan dinga nisbatan ijobiy qarashlarni namoyon etib, urush davrida hatto dinni tashviq qilgan bo'lishiga qaramay, kommunistik partiya dinni rivojlanish yo'lida bir to'siq deb ko'rishda davom etdi. Shu bois dinni yo'q qilish uchun, kerak bo'lsa, ma'muriy va harbiy kuch ishlatishdan ham toymadi. Bolshevik rahbarlarining bu niyati dastlabki davrlardan ayon edi. Biroq Moskva hukumati fuqarolar urushidan keyin strategik sabablar tufayli islomga nisbatan biroz bag'rikenglik siyosatini olib bordi va o'n yil davomida musulmon diniy guruhlar bilan har qanday nizolarning yuzaga chiqishiga yo'l qo'ymadi. Ikkinchi jahon urushi davomida va keyingi yillarda sovet hukumati bilan islom dunyosi o'rtasidagi munosabatlar iliqlashdi. 1942-yil iyul oyida Rossiyaning Yevropa mintaqasi muftiysi Abdurahmon Rasulev Stalin bilan aloqalarni yo'lga qo'ydi. Nemislarga qarshi urushda musulmonlarning hukumatni qo'llab-quvvatlashi va'dasi olinib, dinga qarshi propaganda, butunlay bo'lmasa-da, to'xtatildi. Sovet davlati bilan islom orasidagi rasmiy munosabat, ayniqsa islomiy tashkilotlarning eski shaklini boshqarish orqali bir nechta diniy idoraning tashkil etilishi natijasida normallashti. Bu iliq munosabatlar Stalinning vafotiga qadar davom etdi.

Sovet ittifoqining diniy siyosati negizida "kommunizm va dinning bir-biriga uyg'un emasligi" fikri mavjud edi. O'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, 1917-1930 yillar din olimlari va diniy xodimlarga qarshi kurash va bosim davri deb nomlangan. 1941-1945-yillar esa dinga nisbatan qo'llangan bosimlarning biroz yumshatilgan davri deb ta'kidlanadi. 1960-1980-yillarda diniy idoraga Qur'oni karim va diniy taqvimni chop etishga qayta ruxsat berildi. Aksilislomiy propagandalar 1980-yildan keyin ham davom etdi. Islomni tashviq qilish bu davrda biroz susaydi. Musulmon diniy xodimlarning ta'lim darajasining nihoyatda pastligi bu holatning eng muhim faktorlaridan biri edi. SSJIda islomiy ta'lim tizimining yetarli darajada mavjud emasligi (atigi ikkita diniy ta'lim beradigan tashkilot faoliyat yuritgan) musulmon diniy xodimlar orasida diniy ta'lim saviyasining pasayishiga olib kelgandi. Sovet davrida O'zbekistonda, umuman olganda Turkiston mintaqasida qaysidir ma'noda islom diniga qarshi urush e'lon qilingan, masjidlar va boshqa diniy tashkilotlarning faoliyati to'xtatilgan, diniy vaqf mulklari musodara etilgan, diniy olimlar bosim va qatag'onga uchragan, bir qanchasi esa o'ldirilgan edi. O'lka musulmonlari bu zo'ravonliklar va qatag'on siyosatiga qaramay, 1991-yilda mustaqillik e'lon qilinguniga qadar dinsizlikka qarshi kurash olib bordilar. "Sovet jamiyatida dinni yo'q qilish" siyosatini olib borgan sovet tuzumi musulmonlarga oid diniy muassasalarni tugatdi yoki o'z nazorati ostiga olishga harakat qildi. Xulosa. Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, Turkiston mintaqasida din olimlari va musulmon xalq ko'plab tazyiqlarga qaramay, mustamlakaning dastlabki davrlarida maktab va madrasalar sonini ko'paytirishga harakat qilganligi ijtimoiy ongda diniy dunyoqarashning ustuvorligidan dalolat beradi. Sovetlar bunga javoban din va dindorlarga qarshi bosimni yanada

kuchaytirdilar. Sovet ittifoqi davrida diniy ta'limning yillar mobaynida qonun orqali ta'qiqlangani va diniy ta'lim beradigan tashkilotlarning mavjud bo'lmagani 1991-yil 31-avgustda mustaqillikka erishgan O'zbekistonda xalqni diniy e'tiqod borasida to'g'ri yo'lga boshlaydigan din olimlarining yetishmasligiga olib keldi va bir qancha muammolarga sabab bo'ldi.

5-reja bayoni. BMTning 72 sessiyasida diniy bag'rikenglik haqidagi rezolyusiyani qabul qilish haqidagi taklifning ijtimoiy siyosiy ahamiyati.

Ma'lumki, O'zbekistonda so'nggi yillarda barcha sohalar singari fuqarolarning vijdon va diniy erkinligi sohasidagi Konstitutsion huquqlarini ta'minlash, jamiyatda diniy bag'rikenglik va dinlararo do'stlik-hamkorlik g'oyalarini mustahkamlashga **alohida e'tibor** qaratib kelinmoqda.

Qayd etish lozim, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan qabul qilingan "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha **Harakatlar strategiyasi**"ning beshinchi yo'nalishi aynan **diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash** masalasiga bag'ishlandi. Uning mantiqiy davomi sifatida 2022 yil 28 yanvar sanasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan **Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi dasturi to'g'risi**"dagi PF-60-sonli Farmoni qabul qilingan bo'lib, ushbu hujjatda ham yurtimizda istiqomat qilayotgan millatlar o'rtasidagi tinchlik-totuvlik va diniy bag'rikenglik masalalari ma'naviy taraqqiyotning muhim omili ekanligi belgilandi.

Bugungi kunda, mamlakat miqyosida **16 ta** konfessiyaga taalluqli **2335 ta** diniy tashkilot rasmiy faoliyat olib bormoqda. Shundan **2142 tasi** islomiy, **193 ta** noislomiy tashkilotlar hisoblanadi. Ulardan 174 ta xristian diniy tashkiloti, 8 ta yahudiy, 6 ta bahoij jamoalari, 1 ta Iyegova shohidlari jamoasi, 1 ta krishnani anglash jamiyati, 1 ta buddaviylar ibodatxonasi va 1 ta O'zbekiston Bibliya jamiyatidir.

Ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda diniy bag'rikenglikni ta'minlash borasidagi islohotlarning zamirida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan xalqaro hamjamiyatga yuzlanib ilgari surgan tashabbuslarining ahamiyati ham yuqori. Xususan, davlatimiz rahbari 2018 yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida O'zbekistondagi islohotlar, inson huquqlari, demokratiya, yoshlar masalasi, xalqaro xavfsizlik, mintaqaviy hamkorlik, ekologiya, kabi qator global muammolar bilan bir qatorda diniy bag'rikenglikni mustahkamlash masalasiga ham alohida to'xtalib o'tilgan bo'lib, bu borada BMT Bosh Assambleyasining "**Ma'rifat va diniy bag'rikenglik**" maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish tashabbusi ilgari surildi.

Ushbu tashabbus BMTga a'zo **193 ta** mamlakatlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi va 2018 yil 12 dekabrda BMT Bosh Assambleyasi **73-sessiyasi 51-yig'ilishida** A/Res/73/128-raqamli "**Ma'rifat va diniy bag'rikenglik**" rezolyutsiyasi yakdillik bilan qabul qilindi.

Mazkur rezolyutsiya nafaqat BMTning barcha a'zo davlatlari tomonidan bir ovozdan qo'llab-quvvatlangan, balki 50 dan ortiq davlatlar hammuallifligida qabul qilingan edi. Mualliflar orasida Qirg'iziston, Qirg'iziston, Livan, Marokash, Birlashgan Arab Amirliklari, Ummon, Pokiston, Koreya Respublikasi, Rossiya, Saudiya Arabistoni, Singapur, Sudan, Tojikiston, Tailand, Ozarbayjon, Jazoir, Bahrayn, Belorussiya, Gana, Tunis, Turkmaniston, Filippin, Yaponiya va boshqa davlatlar bor.

Rezolyutsiyani qo'llab-quvvatlash maqsadida BMT Bosh Assambleyasi majlisida Kuvayt, BAA, Marokash, Ummon, Ozarbayjon, Panama, Yevropa Ittifoqi va boshqa qator davlatlar delegatsiyalari so'zga chiqib, O'zbekistonga o'ta muhim va o'z vaqtida ilgari surilgan tashabbus,

shuningdek, uning matnini kelishish bo'yicha norasmiy maslahatlashuvlar chog'ida bildirilgan ochiqlik uchun minnatdorlik izhor qildi.

“Ma’rifat va diniy bag’rikenglik” rezolyutsiyasining amaliy natijasi sifatida yurtimizda amalga oshirilayotgan diniy sohadagi ulkan islohotlarni ko’rsatish mumkin. Jumladan, diniy sohada xalqaro tajriba asosida qonunchilik tizimi shakllantirildi. Buning yorqin dalili 2021 yilning 5 iyul kuni O‘zbekiston Respublikasining **“Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to’g’risida”**gi yangi tahrirdagi Qonuni qabul qilinishi bo’ldi. Qonunning qabuli qilinishi tarixiy voqea sifatida ko’rsatish mumkin. Sababi, mazkur Qonunda tarixan shakllangan an’ana, urf-odat va qadriyatlarni inobatga olgan holda Yevropa Kengashining Venetsiya komissiyasi, YeXHTning Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi kabi nufuzli xalqaro tuzilmalar ekspertlari tomonidan berilgan tavsiyalar ham o'z aksini topgan. Qonun bir nechta muhim yangiliklar va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishni o'z ichiga oldi. Xususan, mahalliy diniy tashkilotlar, jumladan, **masjidlar va boshqa konfessiyalarning ibodatxonalarini tashkil etish** bo'yicha tashabbuskor fuqarolar soni ikki barobar kamaytirilib, 50 nafardan kam bo'lmagan holda etib belgilandi. Shuningdek, diniy tashkilotning markaziy boshqaruv organi va diniy ta'lim muassasalarini tuzish uchun ham 100 nafar tashabbuskor bo'lishi haqidagi talab bekor qilindi. Diniy tashkilotni davlat ro'yxatidan o'tkazish bilan bog'liq **xizmatlar to'liq elektron shaklda**, inson omilisiz amalga oshirilishi joriy etildi. Ro'yxatdan o'tkazuvchi adliya idoralariga taqdim etiladigan **hujjatlar soni keskin qisqardi, ularni ko'rib chiqishning muddati esa 3 barobarga kamaydi**, ya'ni 3 oydan 1 oyga tushirildi. Bu bilan ortiqcha byurokratik to'siqlar bartaraf etildi.

Bundan tashqari, diniy ta'lim tizimi ham tubdan takomillashtirilib, yangidan-yangi ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyati yo'lga qo'yildi.

Hozirgi kunda respublikamizda dunyoviy va diniy ilmlarni puxta egallagan yetuk mutaxassislarni tayyorlashga ixtisoslashgan **O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Toshkent islom instituti, “Mir Arab” oliy madrasasi, Hadis ilmi maktabi, 10 ta** o'rta maxsus islom bilim yurti hamda **pravoslav va protestant seminariyalari** faoliyat yuritmoqda. 13 ta oliy va o'rta maxsus islom bilim yurtlarida **2000 dan** ziyod yoshlar bilim olmoqda. Ularga 255 nafar pedagoglar dars beradilar.

Shu bilan birga, hududlarda maxsus ilmiy maktablar ham tashkil etilgan bo'lib, ularda islom dini ta'limotlari o'rganiladi, jumladan, Farg'onada **“Fiqh”**, Samarqandda **“Kalom”** va **“Hadis”**, Qashqadaryoda **“Aqida”** va Buxoroda **“Tasavvuf”** maktablari o'z tinglovchilariga egadir.

Shuningdek, yurtimizda Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy kabi buyuk allomalarning hayoti va ijodini o'rganishga mo'ljallangan ilmiy-tadqiqot markazlari ham faoliyat olib bormoqda.

Fuqarolarning Qur'oni karimni o'rganish yuzasidan xohish-istaklari va ehtiyojlarini qondirish maqsadida respublikada faoliyat olib borayotgan diniy ta'lim muassasalari, ilmiy maktablar hamda O'zbekiston musulmonlari idorasining ayrim viloyat vakilliklari qoshida, shuningdek, O'zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi hamda O'zbekiston xalqaro islom akademiyasida **“Qur'oni karim va tajvid”** kurslari faoliyati yo'lga qo'yildi. Mazkur kurslarni hozirgi kunga qadar **30 mingga** yaqin tinglovchi tamomladi.

Yurtimiz dindorlarining muqaddas ziyoratgohlar va qadamjolarga borishlarini ta'minlash ishlari olib borilmoqda. Ushbu jarayon mutasaddi tashkilotlarning doimiy tarzda har tomonlama yordami va ko'magi ostida amalga oshirilmoqda. Mustaqillik yillarida jami **300 mingdan** ziyod

yurtdoshlarimiz Saudiya Arabistoniga Haj va Umra ziyoratlariga, shuningdek, deyarli 3 mingga yaqin fuqarolar Isroil, Rossiya, Gruziya, Turkiya kabi davlatlarda joylashgan muqaddas maskanlarni ziyorat qilishga muvassar bo'ldilar. 2022 yilgi haj mavsumiga esa tarixda ilk bor O'zbekistondan **12 mingga** yaqin ziyoratchilar o'z ibodatlarini amalga oshirish uchun muqaddas Makka va Madina shaharlariga bordilar. 2023 yilda yuqoridagi ko'rsatgichlar yanada oshishi kutilmoqda.

Shu bilan bir qatorda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan **minglab mahkumlarning afv etilishi**, fuqarolarning turli **ro'yxatlardan** chiqarilishi, shuningdek, **“Mehr”** operatsiyalari doirasida mojaroli hududlardan ayollar va yosh bolalarning yurtimizga olib kelinishi, diniy tashkilotlarni **ro'yxatdan o'tkazish** tartibining soddalashtirilishi **yuqori darajadagi islohotlar** sifatida **ekspertlar** tomonidan e'tirof etildi. Qolaversa, O'zbekiston so'nggi 20 yilda AQShning **“Alohida tashvish tug'diradigan davlatlar ro'yxati”**dan chiqarilgan ikkinchi mamlakat bo'ldi.

Xalqaro miqyosda diniy bag'rikenglik tamoyilining joriy qilinishiga yana bir yorqin misol sifatida joriy yilning 16 - 20 may kunlari Toshkent, Samarqand va Buxoro shaharlarida o'tkazilgan **“Deklaratsiyalar muloqoti” xalqaro forumini** ko'rsatish mumkin. Ushbu forum Yevropa, Osiyo, Yaqin Sharq, Afrika va AQShdan taniqli diniy ulamolar, ilohiyotchilar, huquqshunoslar, davlat va jamoat arboblari bir joyga to'pladi. O'zbekiston tomonidan turli konfessiyalar vakillari, ilohiyotchilar, diniy ulamolar, tegishli vazirlik va idoralarning mutaxassisleri ishtirok etdi.

Forum jahon hamjamiyatiga o'zbek xalqining boy madaniy, tarixiy, ilmiy va ma'naviy merosi, shuningdek, O'zbekistonning siyosiy-huquqiy, dinlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, jamiyatda do'stlik va o'zaro tushunish muhitini qo'llab-quvvatlash borasidagi tajribasi bilan tanishish imkoniyatini beruvchi muhim platformaga aylandi.

Xalqaro forum yakunida **“Buxoro deklaratsiyasi”** qabul qilindi. Ushbu hujjat avval qabul qilingan Marokash (2016), Jakarta (2017), Potomake (2018), Punto-del-Este (2018) va Makka (2019) deklaratsiyalarning mantiqiy davomi bo'ldi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Prezidentimizning tashabbuslari ila qabul qilingan **“Ma'rifat va diniy bag'rikenglik” BMT rezolyutsiyasi** jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof qilinishi bilan birga diniy bag'rikenglikni ta'minlash dunyo miqyosida dolzarbligi va ahamiyatining nihoyatda yuqoriligini ko'rsatmoqda. Buyuk mutafakkir olim Imom Moturidiy hazratlari **“Ta'vilot al-Qur'on”** kitobida inson o'z his-tuyg'ularini boshqara olgan holda ahloqiy bilim darajasini yuksaltirishi mumkin, degan edi. Bu esa zamonamizda turli yot g'oyalarni targ'ib qilish orqali dinlararo adovat qo'zg'atishga harakat qilayotgan kuchlarga nisbatan ishonib ketishdan saqlanish, fikr yuritib baho berish, vahima va jazava singari his-tuyg'ularni junbushga keltirayotgan illatlardan saqlanishga go'zal davatdir. Zero, biz yashayotgan yurt ilmlar diyori va iftixor makoni.

Mavzuni takrorlash uchun savollari.

1. Konfessiya tushunchasining mohiyatini izohlang?
2. O'zbekistonda faoliyat yurituvchi diniy konfessiyalarni tasniflang?
3. O'zbekistonda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar haqidagi qonun qabul qilinishining tarixi va uning ahamiyatini tushuntiring?
4. Vijdon va e'tiqod erkinligining ta'rifini keltiring?
5. Davlat va din munosabatlarini tartibga solishning tiplari qanday ko'rinishda?

6. Identifikatsion model, separatsion model va kooperatsion modellar deganda nimani tushunasiz?
7. . Sekulyarlashuv jarayoni deganda nimani tushunasiz?
8. Sobiq Sovet Ittifoqi davrida O`zbekistonida diniy qarashlarga munosabatlar qy ahvolda edi?
9. BMTning 72 sessiyasida diniy bag`rikenglik haqidagi rezolyusiyani qabul qilish haqidagi taklifning ijtimoiy siyosiy ahamiyatini izohlab bering?

10-MAVZU. ZAMONAVIY DINIY HARAKATLAR VA SEKTALAR.

Reja:

1. “Yangi diniy harakatlar” tushunchasining mazmun mohiyati. “Yangi diniy harakatlar” ning noqonuniy harakatlari.
2. Islom va boshqa diniy aqidalar sinkretlashuvi natijasida shakllangan diniy ta’limotlar tarixi. Bahoiylik va qodiyoniylik harakatlari.
3. Soxta xristianlik harakatlari. Krishnani anglash jamiyati. Aum-Sinrikyo harakati.
4. O‘zbekiston Respublikasida faoliyati aniqlangan norasmiy diniy jamoalar: “Ma’rifatchilar”, “Shohidiylar”, Baxshillochilar” jamoasi.
5. Islom hamkorlik tashkiloti, Islom konferensiyasi tashkiloti, fan, ta’lim va madaniyat bo’yicha islom tashkiloti.

Tayanch so‘z va iboralar: *Din, konfessiya, sekta, diniy tashkilot, missionerlik, xarizmatika, xristianlik, islom, buddaviylik, hinduiylik, Xitoy dinlari, soxta xristianlik harakatlari O‘zbekistondagi diniy konfessiyalar, mormonlar, Krishnani anglash jamiyati, Yahve shohidlari, Baxshillochilar Bahoiylik, noan’anaviy diniy oqimlar, Ahmadiylik, Islom konferensiyasi*

1-reja bayoni. “Yangi diniy harakatlar” tushunchasining mazmun mohiyati. “Yangi diniy harakatlar” ning noqonuniy harakatlari.

Bugungi kundagi o‘zgarishlar haqida so‘z ketar ekan quyidagilarni alohida qayd etish lozim. Eng avvalo, shakllangan dinlar doirasida muayyan o‘ziga xosliklarga ega bo‘lgan yangi yo‘nalish va sektalarning paydo bo‘lishi davom etmoqda. Masalan, mutaxassislar ma’lumotlariga ko‘ra, XX asrning ikkinchi yarmida xristianlik, buddaviylik, islom va boshqa dinlar doirasida yuzlab sektalar paydo bo‘lgan. Bu shunday jarayonlar kelajakda davom etishi mumkinligini taxmin qilish imkonini beradi.

Sekta so‘zi, eng umumiy ma’noda, muayyan diniy, siyosiy yoki falsafiy qarashlarga ergashuvchilar guruhini anglatadi. Diniy sekta deganda ma’lum bir dindagi rasmiy aqidalarga zid ravishda ajralib chiqqan yoki mavjud dinlar va konfessiyalarga umuman aloqasi bo‘lmagan holda din bayrog‘i ostida faoliyat ko‘rsatadigan guruhlar tushuniladi. Bugungi kunda har ikkala yo‘nalishga mansub bo‘lgan ko‘plab sektalar faoliyat ko‘rsatmoqda. Mutaxassislar ularning sonini taxminan 5000 atrofida, deb baholaydilar. Shuningdek, mavjud dinlarning tarqalish hududida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘layotganini ta’kidlash zarur. Masalan, o‘tgan asrda asosan xristianlar yashab kelgan Evropada bugungi kunda 20–25 million atrofida musulmonlar istiqomat qilmoqdalar. Jumladan, Buyuk Britaniyada – 3 million, Germaniyada – 5 million, Fransiya – 6–7 million islomga e’tiqod qiluvchi fuqarolar yashamoqda. Tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, hozirda aynan islom e’tiqodchilari soni eng tez ko‘payib borayotgan din hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, islomning yillik o‘sish sur’ati 6,4 foizni tashkil etib, 1989 yildan 2011 yilga qadar musulmon aholi soni SHimoliy Amerikada – 25, Afrikada – 2,15, Osiyoda – 12,57, Evropada – 142,35, Avstraliya va Okeaniya – 257,01 foizga ko‘paygan. Faqat Lotin Amerikasida islomga e’tiqod qiluvchilar ulushi 4,73 foizga kamaygan. Bunday o‘zgarishlar, bir tomondan, globallashuv keltirib chiqarayotgan odamlar migratsiyasi natijasida, ikkinchi tomondan, kishilarning buddaviylik, ko‘pgina hollarda va asosan islomni ongli tarzda qabul qilishi bilan bog‘liq. Shuningdek, aholisi an’anaviy ravishda buddaviylik va islomga e’tiqod qilib kelgan o‘lkalarda xristianlikni yoyishga intilish kuzatilmoqda. BMT ma’lumotlariga ko‘ra xristianlikning

o'sish ko'rsatkichi yiliga 1,46 foizni tashkil qiladi. Mazkur jarayon ayrim xristian tashkilotlari va yo'nalishlarining faol missionerlik harakati natijasida sodir bo'lmoqda.

Mutaxassislar ma'lumotlariga ko'ra, XX asrning ikkinchi yarmida xristianlik, buddaviylik, islom va boshqa dinlar doirasida yuzlab sektalar paydo bo'lgan. Bu shunday jarayonlar kelajakda davom etishi mumkinligini taxmin qilish imkonini beradi.

Yangi diniy harakatlar deganda odatda XX asrning 70 yillarida Yevropa va AQShda tarqalgan noan'anaviy diniy guruhlar va oqimlar nazarda tutiladi. Tadqiqotchilar bunga an'anaviy dinlardagi inqiroz davri sabab bo'lganligini ta'kidlaydilar. YaDH liderlari jamiyat kayfiyatidagi o'zgarishlarni, bu "o'tkinchi dunyo"ning nuqsonlarini fosh qilib, o'zlarini "xaloskor", yuksak axloqli "haqiqatgo'y" sifatida ko'rsatdilar. YaDH to'riga ko'proq yoshlar ilindilar. YaDH qat'iy ta'limotga ega bo'lmagan tashkilot bo'lib, uning faoliyati lider roli bilan belgilangan.

Liderlar an'anaviy diniy qadriyatlarga qarshi tashviqot ishlarini olib borganlar. Diniy hayot maxsus ishlab chiqilgan tartib qoida va nizomlar orqali amalga oshirilgan. YaDHLarning ba'zilar dunyoning turli burchaklarida o'z bo'linmalariga ega bo'lgan, biznes bilan shug'ullanuvchi yirik xalqaro korporatsiyalarga aylandi. YaDHLar meditatsiya amaliyotini keng qo'llaydilar, tashkiliy jihatdan piramida shaklida boshqariladi. YaDHLarning aksariyati noqonuniy faoliyat yurituvchi, kriminal tashkilotlardir. (Aum Sinrikyo (Tokio metrosi 10/5000 zah.), Quyosh ehromi (fransiya va Kanada) va b.). Diniy ta'limotlarni buzib talqin qiluvchi harakatlarga:

protestantlarning "ikkilamchi" birlashmalari – Iogov shohidlari, Oxirgi kun avliyolari Iso Masih cherkovi (mormonlar), Masih serkovi (Boston harakati);

soxta xristian harakatlar – Mun birlashtirish cherkovi, Vissarion oxirgi Ahdi cherkovi, Oq birodarlar;

sayentalogik kultlar – Xristian ilmi, Ron Xabbard sayentologiya markazi, Kloneyd, Oq ekologlar harakati;

neo- va kvaziorientalistik maktablar va kultlar – "Tirik axloq"(Agni yoga), Krishnani anglash jamiyati, Transsendental meditatsiya, Aum-Sinrekyo, Saxadja-yoga va b.);

Yangi majusiy tashkilot va kultlar – "Runvira" ukrain milliy e'tiqodi cherkovi, Rossiya jarangli kedrlari, Omsk "qadimgi diniy e'tiqodiga qaytish kulti" va boshqalar kiradi.

2-reja bayoni. Islom va boshqa diniy aqidalar sinkretlashuvi natijasida shakllangan diniy ta'limotlar tarixi. Bahoiylik va qodiyoniylik harakatlari.

Bahoiylik – XIX asrda Eronda bobiylar yo'nalishi zamirida vujudga kelgan diniy yo'nalish. Sherozlik Sayid Ali Muhammad (1819-1850) 1844 yilda Bob (arabcha "eshik"), ya'ni yangi davrga "eshik" nomini olib, yaqin orada "Xudo elchisi"ning namoyon bo'lishi, kishilarga yangi davrning asosiy qonunlari va nizomlarini in'om etishini targ'ib qila boshlagan.

Bobning yirik izdoshlaridan biri Mirza Husayn Ali Nuriy (1817-1892) 1863 yilda Bob bashorat etib ketgan xudoning elchisi uning o'zi ekanini e'lon qiladi va Bahoulloh, ya'ni "Allohning jilosi" nomini oladi. Ushbu yo'nalishning nomi ham Bahoullohning nomidan olingan.

Bahoullohning "Kitobi Aqdas" ("Eng muqaddas kitob") va "Kitobi Iqon" ("Mustahkam ishonch kitobi") asarlari bahoiylik ta'limotining asoslarini tashkil etadi. Yo'nalish asoschisi o'ziga islom dini e'tiqodiga ko'ra, olamlarning Yaratuvchisi bo'lgan "Allohning jilosi" nomini qabul qilgan bo'lsa-da, bahoiylar aqidasi ko'ra, bahoiylik mustaqil din, u biror bir dindan ajralib chiqqan sekta ham, mazhab ham emas, deb hisoblanadi.

Bahoiylik Hindiston, Uganda, Keniya, Eron, Misr, AQSh, Kanada kabi qator mamlakatlarda tarqalgan. Hozirgi vaqtda dunyoda bahoiylarning 9 ta ibodat uyi, 200 ga yaqin

milliy hamda bir qancha mahalliy diniy majlislari mavjud. Bahoiylarning umumiy miqdori taxminan 6 million kishini tashkil etadi.

Bahoiylik ta'limotiga ko'ra:

- barcha dinlar bir ildizdan paydo bo'lgan va payg'ambarlar birodar hisoblanadi;
- Ibrohim, Muso, Iso va Muhammad payg'ambarlardan tashqari Budda, Zardusht, Krishna, Bob va Bahoulloh ham payg'ambar hisoblanadi. Bahoiylikda ular eng buyuk 9 ta payg'ambar sifatida e'tirof etiladi;

- xudo har ming yilda Yer yuziga yangi payg'ambar tushiradi;
- jannat va do'zax, oxirat, shayton va farishtalar inkor qilinadi;
- hozirgi barcha dinlar bir-birini inkor qiladi, shuning uchun ham, ularni birlashtirish va insonlar orasidagi turli farqlarni yo'qotish lozim. Bahoiylar da'vosiga ko'ra, bunday birlashtiruvchilik vazifasini bahoiylik bajarishi lozim.

- Vatan, millat degan tushunchalar ma'nisiz hisoblanadi. Zero, ularning fikricha, Yer yuzining hamma joyi Vatan hisoblanadi.

Bahoiylikda ruhoniylar yo'q. Mahalliy jamoalarni yilda bir marotaba 21 aprel' kuni yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadigan 9 kishidan iborat Mahalliy diniy majlis boshqaradi. Bahoiylar yirik jamoasi mavjud bo'lgan har bir davlatda Milliy diniy majlis saylanadi. O'z navbatida Milliy diniy majlis vakillari 9 kishidan iborat bo'lgan Umumjahon Adolat Uyi a'zolarini saylaydilar. Har besh yilda saylanadigan Umumjahon Adolat Uyi umumjahon bahoiylar jamiyatining faoliyatini boshqarib boradi.

Bahoiylikda har biri 19 kunlik 19 oydan iborat bo'lgan diniy taqvim qabul qilingan. Har 19 kunda jamoaning barcha a'zolari ibodat qilish, jamoa bilan bog'liq ishlarni muhokama qilish, o'zaro birodarlik aloqalarini mustahkamlash uchun yig'iladilar.

Kuniga uch marta Isroilning Akka shahriga qarab ibodat qilinadi. Umumiy ibodat duo o'qish, meditasiya hamda bahoiylikning asosiy kitoblari va jahon dinlari muqaddas kitoblaridan matnlar o'qish orqali amalga oshiriladi. Har yili 2 martdan 20 martgacha bahoiylar kun chiqardan kun botgunga qadar ovqat va suvdan o'zlarini tiyib, ro'za tutadilar.

Bahoiylarning muqaddas ibodatxonasi Akka shahrida joylashgan. Xayfa shahri muqaddas shahar hisoblanib, dunyo bahoiylarining ziyoratgohi hisoblanadi. Bu yerda Bob ibodatxonasi, 1957 yilda bahoiylikning rahbarlik organi sifatida tashkil etilgan Umumjahon Adolat Uyining qarorgohi joylashgan.

Ahmadiylik (Qodiyoniylik). G'ayriislomiy mohiyat va diniy-siyosiy mazmunga ega bo'lgan ahmadiylik oqimi XIX asrning oxirlarida Mirzo G'ulom Ahmad Qodiyoniy tomonidan tuzilgan. Dastlab u asoschisining nomi bilan – "Mirzoiylik", keyinchalik esa vujudga kelgan joyga nisbatan – "Qodiyoniylik" deb nomlangan. Mirzo G'ulomning 1900 yil 4 noyabrdagi bayonotiga binoan oxir-oqibat "Ahmadiylik" nomini olgan.

G'ulom Ahmad 1840 yilda hozirgi Pokiston hududidagi Panjob viloyatining Gurdaspur mintaqasidagi Qodiyon qishlog'ida tug'ilgan. U yoshligidan hinduiylik, yahudiylar, xristianlik aqidalari bilan tanishgan. Bu esa uning dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatgan va u o'zini hinduiylarning Avatari (hinduiylik ta'limotiga ko'ra, Krishnaning yerdagi ko'rinishi), yahudiylarning Mashiahi (yahudiylikka ko'ra, Isroil xalqi va insoniyatni qutqarish uchun Yaratgan tomonidan yuboriladigan Dovud payg'ambar avlodidan bo'lgan shoh), xristianlarning xaloskori va buddaviylarning Maytreyasi (buddaviylarning Yerda paydo bo'lishi kutiladigan ilohi) deb e'lon qilgan.

1876 yilda G'ulom Ahmad Allohning huzuriga chiqqani va vahiy ola boshlaganini da'vo qilib chiqadi. 1880 yilda u o'z ta'limoti asoslariga bag'ishlangan "Barohin Ahmadiya" (Ahmad

dalillari) nomli kitobining ilk ikki jildini nashrdan chiqarishga erishadi. Unda u islomni boshqa dinlardan himoya qilgan. Shu tufayli musulmonlar kitobdagi "ilohiy ilhomlar", karomatlar, o'z-o'zini maqtashlarga, dastlab, uncha e'tibor bermaganlar. Uchinchi va to'rtinchi jildlarda esa G'ulom Ahmad o'ziga vahiy tushayotgani va payg'ambar ekanini da'vo qilgan. Shuningdek, ingliz hukumatini maqtab, hozirgi paytga kelib "jihod" tushunchasining o'rinsiz, hukmsiz holga kelib qolganini aytgan. Boshlanishda 50 jild bo'lishi rejalashtirilgan "Barohin Ahmadiya"ning 5 jildigina nashr qilingan.

G'ulom Ahmad qarashlari evolyusiyasining tahlili uning asl mohiyatini chuqurroq anglashga yordam beradi. Dastlabki bosqichda u o'zini sof islom ta'limoti himoyachisi sifatida namoyon qilib, turli dinlarga o'z raddiyalarini berishga urinadi. U o'zini "xokisor" bir musulmon sifatida ko'rsatib, o'zini "o'z da'vati va shaxsiy xususiyatlarida Masihga o'xshagan kishi" deya tarafdorlarini to'playdi. Ikkinchi bosqichda esa dinni yangilash g'oyasini, ya'ni 1885 yili u o'zini yashab turgan davr (hijriy XIV asr) "mujaddidi" ekanini, 1888 yilga kelib esa insonlardan "bay'at" olib, alohida "jamoat" tashkil qilish haqida buyruq olganini e'lon qiladi. G'ulom Ahmad faoliyatining uchinchi bosqichida o'zini "Imom Mahdiy", deb atab, islom asoslarini buzishga kirishgan. Xususan, 1891 yilda u Iso ibn Maryamning tabiiy yo'l bilan o'lganini aytib va shundan kelib chiqib o'zini musulmonlar kutayotgan "Masih" va "Mahdiy" deb da'vo qilgan. Sunniylik aqidasi ko'ra, Mahdiyning qachon va qaerda paydo bo'lishini Alloh taolo biladi. Bu borada kelgan hadislar tahlili esa, Mahdiyning imom Hasan avlodidan bo'lishi, unga qarshi Shomdan askar yuborilishi, payg'ambar sunnatiga amal qilishi, Yer yuzida adolat va insofni qaror toptirishi haqida ma'lumot beradi.

1900 yilga kelib, u payg'ambarlik da'vosini ilgari surdi, "ilhom" xutbasini o'qidi. Qizig'i shundaki, G'ulom Ahmad o'zini oddiy payg'ambar emas, balki "payg'ambarlarning sarasi", deyishgacha borib yetdi. Uning "Amadiy dalillari" kitobining beshinchi juz'ida keltirilgan "Alloh barcha nabiy va rasullarni bir kishi qiyofasida mujassamlashtirishni istadi va o'sha menman", - degan so'zlari bunga dalil bo'la oladi. Bundan tashqari u Yaratgan tomonidan vahiy yuborilishi hech qachon to'xtamasligini e'lon qilish bilan necha asrlardan beri musulmonlar e'tiqod qilib keladigan aqidaga mutlaqo yot fikrni ilgari surdi. Islom ta'limotiga ko'ra, Muhammad (s.a.v.)dan so'ng o'zini payg'ambar, deb e'lon qilgan kishi yo kazzob yoki dajjol yoki majnun hisoblanadi.

Ahmadiylarga ko'ra, barcha dinlar qandaydir xaloskorni kutadilar, uning kelishiga umid bilan yashaydilar. Agar kutilayotgan qutqaruvchi, bir odamda mujassam bo'lsa, dinlararo kelishmovchilik bartaraf etilib, birdamlik, hamjihatlikka erishilgan bo'lardi.

1904 yilda G'ulom Ahmad o'zini Krishnaning odam qiyofasidagi ko'rinishi ekanini e'lon qildi. Yaratgan unga go'yoki "Sen menga o'g'il kabisan", deb vahiy yuborgani haqidagi iddaosi uning sog'lom fikrdan ancha uzoqlashib ketganini ko'rsatadi.

Ahmadiylarning islom asoslaridan uzoqlashib ketganini ko'rsatuvchi yana bir holat ularning Makka, Madina qatorida Qodiyonni ham muqaddas shahar ekaniga e'tiqod qilishlaridir. Ular Qodiyondagi masjid oldida minora qurdirib, uni "xaloskor minorasi", ushbu qishloqdagi qabristonni esa "Jannat bog'lari" deb atab, bu yerga ko'milganlar jannatga kiradi, deb hisoblaydilar.

G'ulom Ahmad 1905 yilda o'zining o'limi haqida vahiy kelganini aytgan bo'lsada, 1908 yil 26 mayda Lahorda vafot etgan. Qabri Qodiyonga olib ketilgan va tarafdorlari uchun ziyoratgohga aylangan.

Mirzo G'ulom Ahmadning o'limidan keyin shogirdlari uning fikrlarini yig'ishda davom etdilar va natijada "Sinkretik Qodiyoniya-Ahmadiya harakati" yuzaga kelgan. Keyinchalik oqim

"Qodiyon ahmadiylari" ("Qodiyoniylar") va "Lahor ahmadiylari" ("Lahoriylar") nomli ikki jamoaga bo'linib ketdi. "Qodiyoniylar" G'ulom Ahmadga nisbatan "Masih mav'ud" ("Va'da qilingan Masih") va "Mahdiy", "Lahoriylar" esa "Nabiy zilliy" ("Payg'ambar soyasi") va "Nabiy g'ayri tashri'iy" ("Shariat joriy qilmagan payg'ambar"), "mujaddid" ("dinni yangilovchi") nomlarini ishlatishda farqlanadilar.

Ahmadiylar muayyan mamlakatga kirib borar ekan, ko'p hollarda savodi past musulmonlar yoki ilgari biror dinda bo'lmagan kishilarni nishonga olishga, o'zlarining talqinidagi nashr va kitoblarni chop etishga e'tibor qaratadilar. Jamoa tarkibiga faqat 10 sharti belgilangan rasmiy qasamyod vositasida a'zo bo'lib kirish mumkin. Ular o'z talqinida Qur'on nusxalarini turli tillarda (80 ga yaqin tilda, xususan o'zbek tilida) nashr qilish va tarqatish bilan faol shug'ullanadilar.

Ma'lumotlar ahmadiylar O'zbekistonga kirib kelishga qiziqayotganligini ko'rsatadi. Xususan, ba'zi qo'shni mamlakatlarda ahmadiylar g'oyalarini targ'ib qiluvchi "Tanlangan yozuvlar", "Tanlangan hadislar", "Tanlangan oyatlar" kabi kitoblarning chop etilgani, Qur'oni karimning ular talqinidagi o'zbekcha tarjimasining taqdimoti bo'lib o'tgani yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi.

Ahmadiylik musulmonlarni ichidan bo'lib tashlash, islomiy qadriyatlarni buzib talqin etish, islom diniga yangi tushunchalarni kiritish orqali odamlarni to'g'ri yo'ldan adashtirishga qaratilgan, shaklan islomiy, mohiyatiga ko'ra unga mutlaqo zid bo'lgan oqimlar sirasiga kiradi.

3-reja bayoni. Soxta xristianlik harakatlari. Krishnani anglash jamiyati.

Aum-Sinrikyo harakati.

Soxta xristianlik harakatlari. Zamonaviy voqelik diniy-ekstremistik xarakterdagi sektalarning inson ongi va qalbi uchun kurash yo'lidagi faoliyatining jonlanishi kuzatilayotganini ko'rsatmoqda. Xususan, ma'lumotlarga ko'ra, bizga qo'shni bo'lgan davlatlarda "Bogorodichiy sentr", "Serkov ob'edineniya", "Serkov Isusa", "Serkov Novogo Zaveta", "Beloe bratstvo", "Bojestvennyy orden Pervogo Angela" kabi o'nlab diniy sektalar noqonuniy ravishda faoliyat olib bormoqda. "Satanizm" deb ataladigan sekta ham keng tarqalgan. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, o'ta xavfli bo'lgan bu sektaning Rossiyada 100 ming, Yer yuzida 5 milliondan ortiq tarafdorlari bor.

Ular aholining diniy bilimlari pastligidan foydalanib, oxiratning yaqinligi bilan qo'rqitish hamda asosan yoshlar va moddiy ahvoli nochor bo'lganlar ichida ish olib borish yo'li bilan o'z tarafdorlarini ko'paytirishga harakat qilmoqdalar. Bunday sektalarga asos solgan "avliyo"lar o'z izdoshlarini aldash yo'li bilan ularning mol-mulklariga egalik qilishga urinmoqdalar.

Yashirin faoliyat olib borishi, sekta ichida bo'layotgan voqealarning ko'pchilikka ma'lum bo'lib qolmasligining qattiq nazorat qilinishi, ular faoliyatidan jamoatchilikning bexabar qolishini keltirib chiqarmoqda.

Ugandadagi "Oxirat kuni" sektasi boshliqlarining faoliyati bunga misol bo'ladi. Oxiratni 1999 yilning 31 dekabriga "belgilagan" ushbu sekta rahbarlari o'z tarafdorlarini mol-mulklarini sotish, tushgan mablag'ni ularga berishga va shu yo'l bilan gunohlardan forig' bo'lishga chaqirgan. Qiyomatning 2001 yil 1 yanvarga "ko'chirilishi" sekta rahbarlariga nisbatan shubha uyg'onishiga olib kelgan. Shundan so'ng rahbarlar Kanungu qishlog'ida 500 dan ortiq o'z tarafdorlarini aldab bir joyga to'plab, ustlaridan yopib binoga o't qo'yib yuborishgan. Ommaviy axborot vositalari xabarlariga ko'ra, tezkor tadbirlarni o'tkazgan politsiya yana to'rt joyda ommaviy qabrlarni topgan. Umuman bu sektaning qurbonlari 1000 ortiq bo'lgani qayd qilingan.

Jahon xristianlarini birlashtirish yo'lidagi Muqaddas Ruh assotsiatsiyasi (Assotsiatsiya Svyatogo Duxa za ob'edinenie mirovogo xristianstva (ASD-OMX) bo'lib, Mun San Men birlashtirish cherkovi, Birlashtirish harakati, munchilar (munistyi) kabi nomlar bilan ham ataladi.

Tarixi: BCh (Birlashtirish cherkovi) asoschisi Sun Myung Men 1920 yilda Shimoliy Koreyada mahalliy presviterian cherkoviga e'tiqod qiluvchi dehqon oilasida tug'ilgan. Maktabda o'qish davrida u pyatidesyatniklar yig'inlarida qatnashardi. 1936 yili Pasxa bayramida unga "vahiy" keladi: Iso Masih unga ko'rinib, uni taxminan 2000 yil avval boshlagan missiyasini yakunlash uchun "tanlangan"ini aytgan. Ma'lumotlarga ko'ra, bu voqea sodir bo'lganda osmondan: "Sen insonlarni halokatdan qutqarasan, sen Masihning ikkinchi bor zoxir bo'lishisan!". Shu voqea sabab u o'z ismining birinchi bo'lagi - Sun (ajdarho)ni -San (nur taratuvchi (svetyamiysya)ga o'zgartirdi va bu bilan u o'zini "ilohiy" kelib chiqishini bildiradi. Shu yo'l bilan yangi "payg'ambar"- Mun San Men vujudga keldi.

Munchilarning ta'kidlashlaricha, bo'lg'usi payg'ambar Yaponiyada elektrik kasbini egallagan, ammo u o'z iste'dodi bilan muhandis diplomini olishi ham mumkin edi. Biroq u "ilohiy yo'l"ni tanlashni afzal bilgan.

Ikkinchi jahon urushi tugagandan keyin Mun 1948 yilda ma'naviy buzuvchiligi, "jamoat tartibini buzganligi" uchun 100 kunga, keyinroq esa ikki xotiga ega bo'lganligi uchun 5 yilga qamalgan. 1950 yil kuzda u Janubiy Koreyaga o'tadi va 1954 yilda o'z tashkilotiga asos soladi.

1957 yilda uning muallifligida Muqaddas kitoblarga "Bibliya"ga qo'shimcha ravishda "Ilohiy prinsiplar" ("Bojestvennye Printsipy") nomli kitobini chop etadi.

1955 yilda Mun 10 dan ortiq ayollarning nomusiga tajovuz qilishda ayblanib sudga tortilgan.

Ayblarni yumshatish, janjallarga barham berish uchun o'sha ayollardan biri Seuldagi "Rixva" universiteti talabasi 18 yoshlik Xak Xok Djaga 1960 yilda uylanadi ("svadba agnsev").

To'y sovg'asi sifatida "payg'ambar" o'z rafiqasiga "olamni yaratuvchi ona" ("mat mirozdaniya") unvonini beradi va "Ilohiy prinsiplar"ni sovg'a qiladi.

1976 yildan boshlab BCh bir necha bor moliyaviy masalalar bo'yicha janjalli voqealarga sabab bo'lgan. 80-yy. Boshlarida dunyo bo'ylab BChning 150 dan ortiq korporatsiyalari bo'lib, ularga turli sohalarga oid korxonalar qarashli bo'lgan. Korxona xodmlari past maosh olib, yuqori daroma olishga rozi bo'lishgan. Emishki, daromadlar BChni yuksaltirishga ishlatilgan.

AQSh sudi Munni 625000 \$lik Nyu Yorkdagi uyini soliq deklaratsiyalarda qayd etmagani, soliqlardan qochganlikda ayblagan. 1982 yil iyulida uni 18 oy qamoq jazosi va 25 000 doll.jarimaga tortadi. Advokatlar say-harakatlari tufayli Mun 1 yildan so'ng ozod etilgan. (Munning pullari BCh tashkiloti hisobiga tegishli bo'lgani uchun soliqlardan ozod deyishgan).

1992 yilda Mun o'zini yangi insoniyatning "Haqiqiy Ota"si deb e'lon qilgan, 1993 yilda "Yangi Ahd davri" tugab, "Ahdning yakuniy davri ("era Zaversheniya Zaveta") boshlanganini bildirgan.

Munchilar to'liq va yakuniy haqiqatga "Haqiqiy Ota" orqali erishaladi, deb ta'kidlaydilar. Mun va uning xotini yaqinda "Iso Masih"ga rafika topishgan va Iso Masih ularga ko'rinib minnatdorchilik bildirgan. Munchilarning ommaviy nikoh tantanalari "Unashtirish" marosimi munchilarning ammalijotida markaziy o'rinda turadi.

U 2 qismdan iborat: "muqaddas vino" marosimi va "muqaddas nikoh".

Ushbu marosimlar vino orqali unashtirilayotganlar odamzotning "birinchi gunohi"dan poklanib, yangi "haqiqiy" hayotni boshlashlarini anglatadi. Nikoh marosimidan avval "unashtirish" bo'lib o'tadi. Bo'lg'usi kelin-kuyovlar o'z juftlarini topishni Mun va uning tajribali

mintaqaviy liderlariga to'lig'icha ishonadilar. Ayrimlar o'z juftini nikoh tantanasidan bir necha kun avvalgina taniydilar.

“Muqaddas vino” yoki “Nasabni o'zgartirish” marosimi orqali munchilar Mun va uning oilasi bilan qarindoshlik rishtalarini bog'laydilar. Mun ta'rificha: “Bu marosimlar shayton dunyosidan saqlovchi va “Haqiqiy ota-onalar”ga yaqinlashish bo'yicha o'ziga xos “emlash” vositasidir. Vinoda 21 bitta unsur (element) va “Ota va Ona”ning qoni jamlangan bo'lib, uni iste'mol qilgan inson o'z ajdodlaridan voz kechadi.

Boshqa bir ma'lumotlarga qaraganda, ushbu ichimlik tarkibiga Mun va xotinining boshqa narsalari ham solinadi.

Oq birodarlik tashkiloti (OBT) eng janjalkash sektalardan biri bo'lib, Nyu Eyj harakati bilan o'zaro bog'liq. Uning g'oyalarida ham Baliq erasi (Iso Masih davri) yakunlanib, Vodoley erasi, ya'ni yer yuzida Ilohiy boshqaruv davri boshlanishini da'vo qiladilar.

Asoschisi va yaqin yillarga qadar rahbari Yuriy Krivonogov tex.f.n.,m Kievning nevrologiya va psixiatriya institutida ishlagan, ko'plab yangi g'oyalar muallifi, inson shaxsiyatiga ta'sir o'tkazish masalalariga qiziqqan (KGB bilan aloqada bo'lgan).

O'z qiziqishlari o'laroq biroz muddat Krishnani anglash jamiyatiga a'zo bo'ladi va turli uslublarni o'rganadi. U “Atma” nomli “Qalb instituti”ni ochadi va “Znanie” nashriyoti orqali ko'plab risolalar chop etadi. Krivonogov ko'p shaharlarda ma'ruzalar o'qib yuradi va Dnepropetrovskda bo'lg'usi xotini Mariya svigunni uchratadi va to'y arafasi uni yerdagi “Xudo” deb e'lon qiladi.

Krivonogov o'zini turli avliyolar nomi bilan atab chiqqan (Ioann Predtech, Payg'ambarlar Yoqub, Nuh, Ioann Krestitetl, Tutanxamon, knyaz Vladimir, v.h) va oxiri Yuoann Svami ismida to'xtagan. Mariya ham dastlab Xudoning onasi, keyin Ota Xudo, O'g'il Xudo, Muqaddas Ruhga aylangan, nihoyat Mariya Devi Xristos nomini olgan. Mariya o'zini erkak jinsiga nisbatan ishlatiladigan “on” so'zi bilan murojaat qilgan. U yer yuzida uch yarim yil yashab 144 ming eng e'tiqodli kishilarni “haqiqiy e'tiqodlilar”ni jamlashi kerak bo'lgan.

Bu kishilar yusmalianning yangi xalqi bo'lishi kerak edi. (YuSMALOS bu “Yuoann Svami Mariya Logos” abriviaturasi, shuningdek Jus malos “yovuzlik qonuni” ma'nosi bor). Yusmalos “olanmi qutqarish” missiyasi 1990 yil 1 iyuldan 1993 yil 24 noyabrga qilib belgilangandi.

Yerdan oxirgi bo'lib bu er xotin ketishi, ularni chormixlashlari lozim bo'lgan. Jasadlar uch kun ko'chada turib, uchinchi kuni qayta tirishlari va osmonga ko'tarilishlari kerak edi. O'sha kuni Oxir zamon bo'lib, yer yuzi vayron bo'lishi, insoniyat halokatga uchrashi, keyin esa yusmalos xalqi yerda yangi hayotni boshlashi, ular jannatda qolgan do'zaxda bo'lishi ta'kidlangan.

Belgilangan sanada Kievda bir necha ming tarafdorlar yig'iladilar. Albatta, Oxir zamon bo'lmadi. Kievdagi muqaddas Sofiya ibodatxonasi oldida to'polon uyushtirildi.

Ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning keskinlashib ketishi, ochlik, fuqarolar urushlari, ommaviy epidemiyalar, spidning tarqalishi yuqoridagi kabi sektalarning keng yoyilishiga olib kelmoqda.

Umuman olganda, bunday sektalarning barchasi insonning ojizligi, ma'naviy va jismoniy kamolotga erishishga bo'lgan intilishi, kishilar hayotda duch keladigan qiyinchiliklardan o'zlarining g'arazli maqsadlari yo'lida shaxsiy boylik orttirish niyatida foydalanadilar.

“**Armageddon**” (ya'ni, go'yoki, oxirzamonda Iso boshchiligidagi iegovochilar va SHayton boshchiligidagi jinlar qo'shini o'rtasida bo'lib o'tadigan jang) tushunchasini kiritdi. SHuningdek, u har yili iegovochilarning xalqaro konferensiyalarini o'tkazishni, 50 ga yaqin kitob muallifi sifatida targ'ibot ishlarida radio va grammo-plastinkalardan foydalanishni yo'lga qo'ydi.

“Iegovo shohidlari” Uchlik haqidagi aqidani rad etishadi, lekin boshqa yo‘nalishlar kabi uning barcha ko‘rinishlarini izohlashadi. Ular xudoning o‘z shaxsiy ismi bor, bu ism “Iegovo”dir va u barcha narsalarning asosi va yaratuvchisi, deb hisoblaydilar.

Iegovochilar Iso Xudoning O‘g‘li bo‘lgan deb e‘tiqod qilsa-da, uning Xudo bo‘lganini inkor qilishadi. Ularning ta‘limotiga ko‘ra, Iso Iegovo tomonidan yaratilgan yagona insondir, qolgan barcha insonlar Masih orqali yaratilgan. Muqaddas Ruh – Xudoning ko‘rinmas kuchi bo‘lib, u dunyo yaratilishida qatnashgan. Iso Golgofa tog‘ida xochga emas, balki ustunga mixlangan deb hisoblaganlari sababli bu ramz ishlatilmaydi. Iegovo butun insoniyat tarixida 144 ming kishini tanlab olgan, ular o‘lgandan so‘ng to‘g‘ridan-to‘g‘ri tiriladi va osmon podshohligiga o‘tib ketishadi. Hozirgi kunda o‘sha tanlangan 144 ming kishi, ya‘ni “kichik poda”dan (imoni mustahkam va din yo‘lida ko‘p xizmat qilgan) 11 mingtasi tirik, deb e‘tiqod qilinadi. Qolgan imonlilar, ya‘ni Iegovo shohidlariga qo‘shilgan “q .ylar”ga (oddiy dindorlar) Er yuzida abadiy jannatda yashashlari va‘da qilinadi.

“Iegovo shohidlari” faqatgina Iso Masih o‘limini eslash kechalari bilan bog‘liq bayramni nishonlaydilar. SHu kuni jamoa a‘zolari qarindosh va tanishlarini uylariga taklif qilishadi. Dasturxonda Isoning tana va qonining ifodasi deb bilinadigan xamirturishsiz non va qizil, quruq vino bo‘lishi shart.

Markaziy Osiyoda “Iegovo shohidlari” diniy tashkilotining birinchi jamiyatlari 1950 yillarda paydo bo‘lgan va norasmiy ravishda faoliyat ko‘rsatib kelgan. Bugungi kunda respublikamizda “Iegovo shohidlari”ning 1 ta tashkiloti rasman ro‘yxatga olingan. “Iegovo shohidlari” missionerlikka katta e‘tibor beradi. Jamoa paydo bo‘lgan davrdan boshlab, asosan uyma-uy yurish va adabiyotlar tarqatish bilan o‘z izdoshlarini ko‘paytirishga harakat qiladi. Ayrim ma‘lumotlarga ko‘ra, hozirgi kunda iegovochi missionerlarning soni 700 mingdan ortiq kishini tashkil etadi. Jamoa rahbariyati tomonidan missionerlarni tayyorlash ishlariga katta ahamiyat beriladi. AQSHning Nyu-York shahrida, jamoaning bosh ofisi bilan bir joyda “Galaad” nomli missionerlar tayyorlash markazi mavjud. Ushbu markazda tashkil etilgan besh oylik kurslarda butun dunyodan kelgan missionerlar tahsil olishadi.

Krishnani anglash jamiyati. Bugungi kunda dunyoda faol missionerlik bilan shug‘ullanayotgan Xalqaro Krishnani anglash jamiyati (MOSK) sharqona destruktiv diniy tashkilotdir. Sekta asoschisi hind ruhoniysi Abxay Charan De (1896-1977), 1947 yil “Veda” bilimdoni sifatida, “Bxaktivedanta” (sanskritcha - “sodiqlik”, “fidokorona xizmat”) unvoniga sazovor bo‘ladi. Ayniqsa, sanskrit tilidan ingliz tiliga “Bxagavadgita” (“Xudo qo‘shiqlari”)ni tafsirlarini tarjima qilish orqali Svami (“Aql va hissiyotlar egasi”) nomiga sazovor bo‘ladi. O‘z navbatida, Abxay Charan De o‘zini keyinchalik Shri Shrimad Svami Bxaktivedanta Shrila Prabxubada deb ataydi. 1965 yilda Sekta rahbari A.Ch.Bxaktivedanta Svami AQSHga ko‘chib o‘tdi va “Xalqaro Krishnani anglash jamiyati” ga asos soldi.

O‘z navbatida, Prabxubada o‘z ustozining vasiyatini amalga oshirish uchun Krishna ta‘limotini G‘arbda targ‘ib etishga alohida e‘tibor qaratgan. Shu o‘rinda, Prabxubada AQSHda taniqli Alen Ginzberg bilan o‘zaro yaqindan tanishgan. Ayniqsa, Alen Ginzbergning Sharq madaniyatiga qiziqishi Prabxubadaga o‘z ta‘limotini targ‘ib etishda yaqindan ko‘maklashdi. Shuningdek, Prabxubada o‘z ta‘limoti orqali “Bitlz” guruhini ham o‘ziga jalb etgan. O‘z navbatida, “Bitlz” guruhi o‘zining nomini sektaga ishlatilishiga ruxsat etgan.

Ayniqsa, guruh a‘zosi Jorj Xarrison Prabxubadaga kirishnachilar ta‘limotini yoyish maqsadida mantralar bilan disklar chiqarishga ko‘maklashgan. Jorj Xarrison sekta faoliyatini

rivojlantirish maqsadida moliyaviy yordam ko'rsatib krishnachilarga London atrofidagi qasrni ham sekta tasarrufiga o'tkazgan. Hozirda mazkur qasr XKAJning Angliyadagi shtab kvartirasi hisoblanadi. Ayniqsa, A.Ch.Bxaktivedanta 1968 yilda krishnaizm ta'limotini yoyish maqsadida sekta g'oyalarini o'zida aks etuvchi "xudoga qaytish" jurnalini tashkil etdi. Prabxubadani o'zining diniy e'tiqodi tufayli o'z oilasidan voz kechib, Sanyasin (ya'ni o'zini xudoga bag'ishlash) yo'lini tanlagan. Prabxubada o'z sektasi g'oyalarini Hindistonda targ'ib etishga harakat qiladi, ammo u yerdagi kuchli raqobat tufayli o'z maqsadiga yetisha olmaydi. Natijada, u o'z omadini sinab ko'rish maqsadida Amerikaga borishga qaror qiladi. Shu o'rinda, Prabxubadaning sektagacha bo'lgan hayot faoliyati Xabbard, Muna yoki Jozef Smitnikiga o'xshashligini farqlash qiyin emas, albatta. O'z navbatida, Prabxubada G'arbda o'z ta'limoti orqali Hindiston hayotini tashqi tomonini tatbiq etishga harakat qilgan.

Ayniqsa, uning yoqtirgan metaforasi "G'arb-ko'r (ruhiy)", "Sharq - oqsoq (ya'ni iqtisodiy tomondan kambag'al)" va ularning o'zaro birikishi orqali kamolotga erishish mumkin degan g'oyani ilgari suradi. Vaholanki, ko'r va oqsoqni kamolat timsoli sifatida atash mantiqqa to'g'ri kelmaydi. "Xalqaro krishnani anglash jamiyati" fundamentalistik xarakterdagi yangi hinduistik sekta sifatida faoliyat olib boradi. Mazkur sekta faoliyati ayniqsa, Hindistonda juda keng tarqalgan bo'lib, "Krishnani anglash jamiyati"ning asosiy vaziflaridan biri turli xil madhiyalar va ibodatlarni amalga oshirishdir. Ayniqsa, krishnachilar ta'limotida insonni bu dunyodagi azob uqubatlardan xalos etishning yagona yo'li xudoga e'tiqod qilishdir. Sekta ta'limotida asosiy ibodat so'zi "Xare Krishna" ya'ni "Ey hamma narsaga qodir xudo, hammani xursand qiladigan xudo, menga sen uchun xizmat qilishimga ijozat ber"- degan aqidaga qattiq rioya qilishidir. O'z navbatida, sekta ta'limotida Krishna (Vishnu)ga e'tiqod qilish, muqaddas yozuv sifatida "Bxagavadgita" va "Veda", matnlarni o'rganishga alohida e'tibor qaratiladi. Mazkur oqim a'zolari Krishnani mutloq xudo, cheksiz va abadiy ko'rinishlarga ega ekanligini ta'kidlashadi.

Shuningek, krishnani anglashda avvalo insonlar bxakta-yoga mashg'ulotlari orqali ruhni poklashga erishish mumkinligini ta'kidlashadi. Shu o'rinda, karishnachilar ta'limotida o'zining moddiy ehtiyojlaridan voz kechish, go'sht, tuxum, baliq, spirtli ichimliklarni iste'mol qilish taqiqlanadi. Mazkur oqim a'zolari inson aqlini poklash, o'z fikrini tashqi dunyodan xolos etishda, butun muhabbatini xudoga izhor etish orqali ibodatxonalarda meditatsiya - diniy marosimlarni kun davomida soatlab bajarishadi. Hozirda krishnachilar missionerlik faoliyatini amalga oshirishda qo'yidagi jihatlariga asosiy e'tibor qaratishadi:

- ibodat kiyimlarida yurib, aholi yashaydigan gavjum joylarda o'zlarining g'oyalari aks ettirilgan diniy adabiyotlarini tarqatish;

- qariyalar va mehribonlik uylari hamda davolash maskanlarida fuqarolarga o'zlarini "beg'araz" yordamlarini amalga oshirish;

- mazkur oqim a'zolari o'z mol mulklarini tashkilot hisobiga xayr-ehson qilishni va bu orqali tashkilot doirasida ruxoniylik martabasiga ko'tarilish orqali rag'batlantiriladi;

Shuningdek, sekta ta'limotida oqim a'zolarining diniy tamoyillarga qattiq amal qilish go'yoki, "jamiyatni yovuz kuchlardan holos etish orqali ijobiy tomonga o'zgarishi natijasida insoniyatni firibgarlik, tovlamachilik, aldov va korrupsiyadan xalos etadi"-deya ta'kidlashadi. Ayniqsa, Krishna ta'limotidagi ilgari surilgan g'oyaga ko'ra, go'yoki, mazkur ta'limotni ijobiy jihatdan o'zga din vakillariga namuna bo'ladigan e'tiqod ekanligini ta'kidlashadi. Shu tariqa, krishnani anglashda avvalo insonlar bxakta-yo'ga mashg'ulotlari orqali ruhni poklashga alohida ta'kidlashadi.

Mutaxassislar krishna ta'limotini o'tgan asrning 70-yillarda sobiq SSSR hududida ham tarqala boshlaganligini ta'kidlashadi. Bugungi kunda, Rossiyada "Xalqaro Krishna anglash jamiyati" keng miqyosda faoliyat ko'rsatishi natijasida u totalitar sekta hisoblanadi. Rossiyada krishnachilar g'ayri oddiy tarzda kiyinib jamoat joylarida o'z g'oyalari aks etgan adabiyotlarni tarqatish holatlari aniqlangan. Ayniqsa, sektalar tez-tez madaniy tadbirlarni o'zlariga niqob qilib turli xil "kungilochar" bazmlar uyushtirish orqali insonlarni aldab, o'z faoliyatini amalga oshirishmoqda. Rossiyaning Tula, Yekatiyrenburg, Vladimir, Qozon kabi shaharlarida "Xalqaro Krishnani anglash jamiyati" tomonidan "Ratxa-yatra-Aravalar bayrami" keng miqyosda o'tkazilgan. Mazkur bayram mahalliy aholi ishtirokida shahar markazidagi istirohat bog'lari hamda dam olish maskanlarda tashkil etilib, bayram qatnashchilariga sekta g'oyalari aks etgan diniy adabiyotlar tarqatilib, sekta asoschisi Svami Prabxupada va krishna jamiyati to'g'risidagi ma'lumotlar e'lon qilinadi. Mazkur bayram qatnashchilaridan o'z pullarini krishnachilar jamiyati uchun qurbonlik qilish so'raladi.

Xususan, Krishnachilar ta'limoti zamiriga e'tibor qaratilsa, go'yoki sektantlar shahar xokimligiga odamlarga qadimgi hind tarixiy madaniyati, san'ati, qadriyatlarini, milliy taomlarini shahar aholisiga tanishtirishga xokimlardan ruhsat olishganligini ta'kidlashadi. Ammo, mazkur tadbirlar hind madaniyati bilan umuman bog'liq emasligi, diniy marosimlari asosan, krishnani anglash tashkiloti bilan bog'liq ekanligi ma'lum bo'lgan.

Shu o'rinda, mamlakat aholisini Krishnachilar ta'limotini asl mohiyatini anglamaslik, yordam tariqasida bepul sovg'alar, tekin davolanish, maktab o'quvchilari uchun o'quv qurollarini olish maqsadida ushbu bayramda ishtirok etishi namoyon bo'lgan. Ayniqsa, Tula shahrida yashovchi ayrim keksalar Krishnaga sig'inib, shahar markazida tashkil etilayotgan "Ratxa-yatra-Aravalar bayrami"da apelsin yoki banan olish uchun ishtirok etishi aniqlangan. Zero, mazkur bayramda doimiy ravishda qatnashayotgan aholi ongida Rus xalqning milliy qadriyatlarini hamda din va diniy ta'limotlaridan voz kechish holatlari namoyon bo'lmoqda. O'z navbatida mazkur bayramda qatnashuvchi boshqa din vakillari katoliklar, provaslavlilar, protestantlar, yaxudiylarining ishtiroki tufayli krishnachilar ta'limotiga e'tiqod qilish holatlari kuzatilmoqda. Mazkur oqim a'zolari o'zlarini faol missionerlik faoliyatini mamlakatimizda o'tgan asrning 90-yillarning o'rtalarida amalga oshirganligini ta'kidlash o'rinli. Ayniqsa, Toshkent shahridagi "Krishnani anglash jamiyati" vakillari tomonidan shaharning turli burchaklarida o'zlarining ibodat kiyimlarida yurib, diniy adabiyotlarni tarqatish holatlari kuzatilgan. Shu o'rinda, 2018 yil 1 martga qadar mamlakatimizda Krishnachilarning 1 ta diniy tashkiloti ro'yxatga olingan.

Hozirgi kunda krishnachilar dunyo miqyosida o'z faoliyatlarini 150 dan ortiq ibodatxonalari orqali amalga oshirmoqda. Krishnaitlar ta'limotiga ko'ra, mamlakat hayotidagi siyosiy jarayonlarga ishtirok etishdan voz kechish orqali faqatgina xudoga e'tiqod qilishni afzal bilishadi. Zero, mazkur holat insonlar qalbi va ongida o'zida yovuz va buzg'unchi g'oyalarni targ'ib etuvchi Krishna ta'limotiga nisbatan jiddiy fikrlashni taqozo etmoqda.

«Aum Sinrikyo». Sektaning paydo bo'lishi. Asaxara 1955 yilda Kyusyu orolida tug'ilgan. U 1984 yilda «Aum Shinsen-no-kay» («Ma'nan yetuk va g'ayritabiyy kuchga ega insonlar jamiyati») diniy tashkilotiga asos solgan. Tashkilot keyinchalik «Aum Sinrikyo» deb nomlangan. To'rt yildan so'ng uning izdoshlari soni 3-4 ming kishiga yetgan.

Uning muridlari nafaqat Yaponiya, balki AQSh va Rossiyada ham bor edi.

U tarafdorlarini hindlar ma'budi Shivaning qayta tug'ilgan qiyofasi ekanligiga ishon tirgan (Asaxara o'zini «Tokio Isosi» va «Muqaddas papa» deb ham atagan) va ulardan barcha mol-

mulklarini unga berishni talab qilgan. Asaxara o'z ta'limotini barcha dinlarning umumlashmasi deb e'lon qilgan.

Aytishlaricha, uning izdoshlari aksariyat vaqt davomida ovqatlanish, uxlash va yaqinlari bilan suhbatlashishdan voz kechishgan. Natijada ular muntazam ravishda yarim gipnoz holatida yurishgan, irodalari sustlashgan.



«Aum Sinrikyo» safida shifokor va olimlardan iborat oliy ma'lumotli kishilar ham bo'lishgan va ularning ayrimlari jinoyatlarda ishtirok etishgan.

Sekta a'zolari televideniye orqali tez-tez chiqishlar qilib, o'z tashkilotlari haqida so'zlab berishgan. OAV ularga odamlar ongiga ta'sir ko'rsatishlarida yordam bergan.

Sud stenogrammalariga ko'ra, Asaxara qiyomatdan qochib qutulib bo'lmasligini, u o'ldirgan insonlar esa jannatga tushishini ta'kidlagan.

Shafqatsiz qotilliklar

1989 yil noyabrda advokat Tsutsumi Sakamoto butun oilasi bilan o'ldiriladi. Yurist bir necha kishiga farzandlarining Asaxara ta'siridan qutulishiga yordam bergandi. Uni xotini va bir yoshli o'g'li bilan birgalikda bo'g'ib o'ldirishadi.

1990 yilda Asaxara va uning 24 sherigi vakillar palatasiga saylovlarda mag'lub bo'lishgach, sekta asoschisi qasos rejasini tuzdi.

Fudziyama tog'i etagidagi qishloqlardan birida «Aum Sinrikyo» zaharli zarin gazi va o'tochar qurollar ishlab chiqarish bilan shug'ullana boshladi.

1994 yilda guruh a'zolari bu gazdan Matsumoto shahridagi tumanlardan birida foydalanishdi. Sektaga qarshi da'voni ko'rayotgan sudya hujumga uchradi. Bundan tashqari, tashkilot o'zi ishlab chiqargan qurolni tekshirib ko'rmoqchi edi. Oqibatda sakkiz kishi halok bo'ldi, 600 kishi jarohatlandi.

Keyingi yili zarin Tokio metrosida qo'llanildi – tashkilotning 15 a'zosi gazli paketlarni beshta turli poyezd vagonida odam gavjum bo'lgan vaqtda teshib qo'yishdi. Natijada 6 mingdan ortiq kishi zaharlandi, 13 kishi qurbon bo'ldi.

Tez orada Asaxara hibsga olindi va 1996 yilda sud eshituvlari boshlandi.

Nihoyat, 6 iyul kuni sekta asoschisi qatl etilganidan so'ng «Aum Sinrikyo» faoliyatidan jabrlanganlar yengil nafas olishdi. Ammo bu hali hammasi tugadi degani emas – tashkilot 2000 yilda «Alef» nomi bilan qayta faoliyat boshlagan deb hisoblanadi.

Yaponiya vazirlar mahkamasi bosh kotibi Yosixide Suga «Alef» a'zolari politsiyaning qat'iy kuzatuvida ekanligini bildirdi.

Darvoqe, «Aum Sinrikyo» bilan aloqador yana bir guruh mavjud. Uni 2007 yilda Asaxaraning sobiq tarafdori Fumixiro Joyu tashkil etgan.

Mahalliy huquq organlari ma'lumotlariga ko'ra, «Aum Sinrikyo» bilan aloqador guruhlar tarafdorlari Yaponiyada 1650ga yaqin kishini, Rossiyada 460 kishini tashkil etadi. Ularning mablag'i 1 mlrd iyen (\$9 mln)dan oshadi.

«Aum Sinrikyo»ning tarafdorlari necha kishi ekanligini esa aytish qiyin. Ayni paytda ularning soni 60 mingga yetganligi taxmin qilinadi.

Rossiyadagi faoliyat

Katta Rossiya ensiklopediyasidagi ma'lumotlarga ko'ra, 1994 yilda sekta tarafdorlari soni 40 mingga yaqin kishini tashkil etgan. 1992 yilda Asaxara Rossiyaga kelgan va ma'ruzalar o'qigan.

1995 yilda Tokio metrosida yuz bergan hujumdan so'ng Ostankino sudi tashkilotni yopish to'risida qaror chiqargan. Shundan so'ng tashkilotning uch nafar rahbariga fuqarolar huquqlari va shaxsiyatiga daxl qilish ayblovi e'lon qilingan. Ammo ular sud qilinmadi – 1998 yilda ular jamiyatga xavf tug'dirmaydi deb topildi.



2000 yilda Vladivostokda Yaponiyada terakt amalga oshirishga tayyorgarlik ko'rgan Asaxara tarafdorlari qo'lga olindi. 2016 yilda Rossiya Oliy sudi «Aum Sinrikyo»ni terrorchi tashkilot deb topdi va uning faoliyatini taqiqladi.

Xavf saqlanib qolmoqda

Rossiya din va sektalarni o'rganish assotsiatsiyalari markazi prezidenti Aleksandr Dvorkinning aytishicha, hozirda mazkur harakat tarafdorlari 3 ming atrofida, lekin aniq raqamni aytish qiyin.

«Sekta yashirin faoliyat yuritadi, bundan tashqari turli darajadagi a'zolar bor: kimdir sektaning to'laonli a'zosi, yana kimdir qisman a'zo», — dedi ekspert.

Uning aytishicha, sekta a'zolari internet orqali odamlarni jalb etadi va odatda bo'lajak qurbonlarni «yoga kurslari»ga taklif etishadi. So'ngra qiziqqanlar asta-sekin yetti bosqichli sinovdan o'tib, sektaga qamrab olinadi.

4-reja bayoni. O'zbekiston Respublikasida faoliyati aniqlangan norasmiy diniy jamoalar: «Ma'rifatchilar», «Shohidiylar», Baxshillochilar» jamoasi.

«Ma'rifatchilar» Hozrgi kunda respublikada faoliyati kuzatilayotgan norasmiy diniy jamoalar katoriga «Ma'rifatchilar», «Shoxidiylar» va «Baxshillochilar»ni kiritish mumkin

«Ma'rifatchilar» jamoasiga 1990-yillarning urtasida Fargona viloyati Toshlok tumanida mazkur xududda istikomat kiluvchi Baxodir Mamajonov (1950 y.t.) tomonidan asos solingan.

Jamoaning goyaviy ta'limoti B.Mamajanov tomonidan yozilgan va nokonuniy tarzda chop etilgan «Ma'rifat», «Tilak», «Namoz- Siginish», «Rost-Kur'on» kitoblari xisoblanadi. Kitoblar uta saviyasiz, diniy va ilmiy asossiz, grammatik koidalarga amal kilinmagan xolda pala-partish yozilgan. Barcha suzlar, shu jumladan, Kur'on va namozdagi arab tilidan uzbek tiliga kirib kolgan suzlar xam turkiy tilga tarjima kilingan.

«Ma'rifat» kitobi B.Mamajanovning diniy mavzudagi fikrlari va nozil bulish tartibiga kura joylashtirilgan bir necha suralarning tarjimasidan iborat. Ushbu kitob nomidan kelib chikkan xolda axoli ichida B.Mamajanovning izdoshlari «Ma'rifatchilar» deb atalgan.

B.Mamajanov esa uzini va tarafdorlarini «Tugri din»dagilar deb xisoblaydi.

«Namoz-Siginish» > kitobida B.Mamajanov tomonidan belgilangan namoz tartibi bayon kilingan. «Rost-Kur'on» kitobida xam guyoki «Usmon ibn Affon davrida Kur'on notugri tartiblangan» degan da'vo ostida suralar nozil bulish tartibiga kura joylashtirilgan.

B.Mamajanov uzi va jamoasini asl musulmonlar deb da'vo kilsada, u ilgari surgan aksariyat goyalar an'anaviy islom ta'limotiga tamomila zid keladi. Jumladan, «Ma'rifatchilar»ning da'volariga kura:

Kur'on va namoz milliy tilda, ya'ni uzbek tilida ukilishi shart xisoblanib, guyoki «uzi anik bilmagan narsaga ergashish» shirk ekani e'lon kilinib, «ota-bobolarimizmushrik edilar» deb xisoblanadi;

1990 yili «Shark yulduzi» jurnalida chop etilgan KUR'ON tarjimalari nazarda tutilib, Uzbekiston axolisi fakat ushbu yili xakikiy KuR'onga (B.Mamajanovning da'vosicha - «Rost-Kur'on») erishgan, ungacha Kur'onga guyoki «shayton suralari kushilgan» deb da'vo kilinadi xamda mavjud tafsirlar tan olinmaydi;

guyoki Muxammad paygambarga «uning vazifasi fakat Kur'onni yetkazish edi» degan da'vo bilan xurmat kursatilmaydi, «xulofai roshidinlar»dan keyingi xalifalar «duzaxi» sanaladi;

Kur'on yagona mukaddas manba uisoblanadi, xddislar tan olinmaydi;

dunyoviy partiya va boshka dindagilar, shu jumladan, yaxudiy va xristianlar «shaytonga ergashgan» deb da'vo kilinadi;

mazxdblarga ergashish «shirk» amal kisobl^nadi;

guyoki isrof baxrnasida davlat bayramlari va tugilgan kunlarni nishonlash, tuy-ma'arakalar utkazish, diniy marosim va urf-odatlar dindan chikaruvchi shirk amallar katoriga kiritilgan;

namoz va ibodatda ishlatiladigan sano va salovotlarning barchasi uzbek tilida ukilishi joriy kilingan, namoz vakti va tartibi e'tiborga olinmaydi, bir sutkada besh makal azonsiz, B.Mamajanov belgilagan vakt va tartibda 17 rakat, kechasi 2 rakat sunnat namozi ukiladi.

Jamoa a'zolari asosiy kismini B.Mamajanovning karin- doshlari va yakinklari tashkil etadi. 1990-yillarda tashkilot a'zolarining ayrimlari, jumladan B.Mamajanovning ugillari «kijrat» da'vosida Uzbekistan islom karakatining xorijiy jangovar lager- larida bulib kelgan.

«Ma'rifatchilar» guyoki «chin dinga mansub» insonlar sifatida an'anaviy islom ta'limotiga e'tikod kiluvchilar bilan mulokotda uzini takabbur tutish, jamoani «kambagallar dini» tarafdori sifatida rasmiy masjidlarda faoliyat yurituvchi diniy xodim va ulamolarga karama-karshi kuyish, jamoadan tashkaridagilar bilan mumkin kadar mulokot kilmaslikka karakat kilish kabi sebtalikka xos xususiyatlarni namoyon kiladi.

Hozir «Ma'rifatchilar» jamoasining oz sonli a'zolari Fargona viloyatining Toshlok tumani va Samarkand viloyatining Ishtixon tumanida istikomat kiladi.

«Shoxidiylar».

«Shokidiylar» jamoasining faoliyatiga ** Andijon shakri va tumanida 1990-yillarning boshida Karimov Xabib (1944 y.t.) tomonidan asos solingan. X.Karimov aslida kech kanday diniy ma'lumotga ega bulmay, jamoaga xos diniy karashlarni Toshkent shaxrida yashab yurganda poytaxtda istikomat kiluvchi shaxsi noma'lum fukarolardan uzlashtirgan.

«Shoxidiylar»ning diniy karashlarida islom ta'limotiga zid kuyidagi tamoyillar mavjud:

Kur'on tafsirlari va xadislari inkor kilinadi;

besh maxal namoz ukish rad etiladi, istalgan vaktida ikki rakat namoz ukiladi, guyoki solix amallar namoz xisobiga utadi deb xisoblanadi;

Makka shaxridagi «Masjidu X,arom»dan boshka masjidlar tan olinmaydi, imom-xatiblar

guyoki sof islomdan kaytgan xisoblanib, jamoa a'zolariga namoz uchun masjidga borish man etilgan, juma namozi fakat Makka axdiga farz etilgan deb da'vo kilinadi;

islomiy marosimlar xam utkazilmaydi. Jumladan, 2001 yilning sentabrida X.Karimov onasi vafot etganda mayitni kechasi yashirincha, «janoza» ukimay kumib kelgan;

jamoa a'zolariga tuy va boshka dunyoviy marosimlarni utkazish yoki ishtirok etish takiklangan;

spirtli ichimlik ichish xarom sanalmaydi.

«Shoxidiylar» jamoaga yangi a'zolari asosan uzlarining yaqin

karindoshlari ichidan jalb kiladilar. Kuda bulish xam odatda fakat jamoa doirasida amalga oshiriladi. Yangi a'zolariga 70 kun ruza tutish buyuriladi.

Jamoa a'zolariga diniy tushunchalar «Kur'ondan ma'ruf» nomli kitob asosida beriladi. Mutaxassislarning fikriga kura, mazkur kitob 1960-yillarda Toshkent shaxri va viloyatida vujudga kelgan, bugungi kunda faoliyati kuzatilmayotgan «Axdi KUR'ON» norasmiy diniy jamoasi a'zolari tomonidan tayyorlangan. Mazkur jamoa tomonidan xam dastavval mukaddas matn sifatida fakat Kur'on tan olinib, xadislari rad etilgan xamda mazxablarga ergashish tankid kilingan.

Hozir oz sonli «shoxidiylar» Andijon shaxri va Andijon tumani xududida yashaydi.

Baxshillochilar. G'ayriislomiy mohiyatga ega "Baxshillochilar" jamoasi Buxoro viloyatida tug'ilgan Baxshillo Aliev tomonidan 1997 yilda asos solingan. Jamoa a'zolarining aksariyati Buxoro shahri va Kogon tumanida istiqomat qilgan.

"Baxshillochilar" o'zlarining musulmon ekanliklarini da'vo qilsalar-da, aslida ularning diniy-aqidaviy qarashlari islomning asl ta'limotiga ziddir. Bunga Baxshilloning Mahdiy kelishi, payg'ambarlik, haj, namoz kabi aqidaviy masalalarga munosabati dalil bo'la oladi.

Jumladan, islom ta'limotida Qiyomatga yaqin insonlarni yaxshilikka chorlovchi "Mahdiy" (arabcha to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi)ning kelishi haqidagi qarashlar mavjud. Baxshillo islomdagi Mahdiy to'g'risidagi qarshlarni nazar-pisand qilmay, asossiz ravishda o'zini musulmonlar tomonidan oxir zamon arafasida paydo bo'lishiga ishoniladigan Mahdiy deb atagan.

Buning ustiga, Baxshillo payg'ambarlik ham da'vo qilib, islomning bu boradagi aqidasiiga zid g'oyani ilgari suradi. U o'zini payg'ambar, turmush o'rtog'i Mohira Alievani "musulmonlar onasi", farzandlari Olim va Faxriddinni "musulmonlar amiri", yaqin izdoshlarini esa "sahobalar" deb e'lon qilgan.

Islom ta'limotiga ko'ra, Muhammad payg'abardan so'ng o'zini payg'ambar deb e'lon qilgan kishi kazzob, dajjol hisoblanadi.

Baxshillo 1990 yillarning oxirida aholi ichida diniy va milliy nizolarni keltirib chiqarishga qaratilgan hatti-harakatlari uchun qamoq jazosiga tortilgan. U 2006 yili ozodlikka chiqqach, Rossiya Federatsiyasiga doimiy yashash uchun ko'chib ketgan. Lekin Rossiyada istiqomat qilsa-da, Buxoro viloyatidagi maslakdoshlari orqali "Baxshillochilar" jamoasi g'oyalarini targ'ib qilish bilan shug'ullangan. Buning ustiga, Baxshillo go'yoki uni ziyorat qilgan kishi haj amalini bajargan kishi singari savob oladi degan soxta g'oyani tashviq qilgan. Uning yana bir buzg'unchi g'oyalaridan biri unga ergashganlarga, namoz go'yoki bir kecha-kunduzda uch mahal farz qilingan, degan da'vodir. Uning ikkinchi bir da'vosi, go'yo unga ergashganlarga qiyomatda savol-javob bo'lmaydi, qanday holatda vafot etishidan qat'iy nazar, ularga shahidlik maqomi beriladi.

Baxshillo uni ziyorat qilish uchun Rossiyaga borgan muxlislarini qurilish va boshqa firmalarda ishlatib, topgan daromadlarining asosiy qismini o'zlashtirib olish bilan shug'ullangan. SHuningdek, Baxshillo o'zining peshobini barcha kaslliklardan forig' qiluvchi dori sifatida pul evaziga O'zbekistonda qolgan muridlariga yuborgan.

Agar Baxshillochilar e'tiqod qiladigan g'oyalarga zimdan nazar tashlansa, u tomonidan ilgari surilgan aqidalar Hidistonda paydo bo'lgan Mirzo G'ulom Ahmad Qodiyoniy tomonidan asos solingan "Ahmadiya" g'oyalariga hamohang ekanligini sezish mumkin.

Baxshillo tomonidan ilgari surilgan g'oyalarga e'tibor berilsa, bir tomondan uning g'oyasi asl islom dinning mazmun-mohyatiga qarama-qarshi ekanligi, ikkinchidan, uning buzg'unchi g'oyalari jamiyatimiz barqarorligiga rahna solishga qartilganligini sezish mumkin.

5-reja bayoni. Islom hamkorlik tashkiloti, Islom konferensiyasi tashkiloti, fan, ta'lim va madaniyat bo'yicha islom tashkiloti.

Islom hamkorlik tashkiloti - (Organization of Islamis Cooperation) (OIC) - hukumatlararoxalqarotashkilot (2011-yil 28-iyungacha Islomkonferensiyasitashkiloti deb nomlangan). IHT bosh qarorgohi Jidda shahrida joylashgan. IHT huzurida Islom taraqqiyot banki, Fan va texnika sohasida hamkorlik bo'yicha doimiy qo'mita faoliyat ko'rsatadi. 1975-yildan IQTga BMT huzurida kuzatuvchi tashkilot maqomi berilgan. 1969-yil Rabot shahrida (Marokash) asos solingan. Tashkilotga a'zo davlatlarning tashqi ishlar vazirlari 3-konferensiyasida (1973 y., Jidda sh., SaudiyaArabistoni) IHT ustavi qabul qilingan. 2008-yil 13-14 martdaDakarda (Senegal) bo'libo'tgantashkilotning 11-sammitida ustav yangitdan qabul qilingan. IHT 2008yilda Dakarda qabul qilingan ustav asosida ish olib boradi. IHTning rahbar organlari davlat va hukumat boshliqlari Konferensiyasi va tashqi ishlar vazirlarining Konferensiyasi va bosh kotibi rahbarligidagi kotibiyatdir. A'zo mamlakatlar rahbarlarining sammiti har uch yilda bir bor tashkil qilinadi va u tashkilotning asosiy faoliyat yo'nalishini belgilaydi. A'zo davlatlarning tashqi ishlari vazirlari konferensiyasi esa har yili yoki zaruratga qarab o'tkaziladi. Tashkilotning oliy organi Bosh kotib tomonidan boshqariladigan Bosh kotibiyat hisoblanadi. Bosh kotib a'zo davlatlar tashqi ishlar vazirlari tomonidan 4 yil muddatga saylanadi. Bosh kotibning 4 ta o'rinbosari bo'lib, ular siyosiy masalalar, fan va texnologiyalar bo'yicha, iqtisodiy masalalar va ijtimoiy-madaniy masalalar bo'yicha faoliyat olib borishadi.

Tashkilot huzurida quyidagi mustaqil tashkilotlar mavjud: Islom taraqqiyot banki, Islom yangiliklar agentligi, Islom teleradio eshittirishlar uyushmasi, Iqtisodiy-ijtimoiy masalalar bo'yicha Islom komissiyasi, Islom taraqqiyot fondi, Islom adolat sudi, Islom poytaxtlari uyushmasi, Ilmiy-texnikaviy rivojlanish islom fondi, Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha islom tashkiloti va hakazo. IHT o'z faoliyatini amalga oshirishda quyidagi vazifalarni asosiy maqsad sifatida belgilab olgan:

- a'zo davlatlar o'rtasida islom birdamligini rag'batlantirish;
- iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ilmiy va boshqa sohalarida hamkorlikni mustahkamlash;
- irqiy kamsitishni, barcha shakldagi mustamlakachilikni tugatishga harakat qilish;
- tinchlik va xavfsizlikni saqlash uchun tadbirlar belgilash;

•Falastin arab xalqining o'z huquqlarini tiklash va uning yerlarini ozod qilish uchun kurashini qo'llab-quvvatlash kabilardan iborat. Dastlabki davrda tashkilot Afrika va Osiyodagi 25 davlatni o'zida birlashtirgan bo'lsa, hozirda IHT tarkibida jami 57 davlat, (jumladan, O'zbekiston ham) shuningdek, Falastin ozodlik tashkiloti (FOT) mavjud. Bosniyava Gersegovina, Markaziy Afrika respublikasi, Rossiya Federasiyasi, shuningdek, Filippin milliy ozodlik harakati tashkilotda kuzatuvchilik maqomiga ega. IHTning xalqaro maydondagi nufuzi yuqori bo'lib, BMT huzuridagi maslahat beruvchi va hamkor tashkilot hisoblanadi. Islom hamkorlik tashkilotining tashqi ishlar vazirlarining 1995-yilning oktyabrida Nyu-Yorkda bo'lib o'tgan navbatdan tashqari majlisida O'zbekistonga kuzatuvchi davlat maqomi berildi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning maktubiga asosan Islom hamkorlik tashkiloti tashqi ishlar vazirlarining 1996-

yil 2-oktyabrda Nyu-Yorkda bo‘lib o‘tgan navbatdagi muvofiqlashtirish majlisida O'zbekiston tashkilotning to‘la huquqli a‘zosi etib qabul qilindi.

Islom olami ta’lim, fan va madaniyat tashkiloti (inglizcha: ICESCO’) – musulmon mamlakatlarida ta’lim, fan, madaniyat va kommunikasiya masalalari bilan shug‘ullanuvchi, a’zo davlatlar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan ixtisoslashgan tashkilotdir. ICESCO qarorgohi Rabotda (Marokash) joylashgan. Uning bosh direktori, doktor Salom Bin Muhammad Al Malik bo‘ladi.

1981-yil 28-25-yanvar kunlari Muqaddas Makka shahrida bo‘lib o‘tgan uchinchi islom anjumanida qabul qilingan oliy qaror Islom hamkorlik tashkiloti qoshida “Ta’lim, fan va madaniyati bo‘yicha islom tashkiloti” deb nomlangan qo‘shma islom ishchi-xodim organlari doirasida yangi xalqaro islom organi tashkil etilganligi o‘z tasdig‘ini topadi.

2020-yil 30-yanvar, chorshanba kuni Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha Islom tashkiloti (ICESCO) Ijroiya kengashi 2020-yil 29-30-yanvar kunlari BAAning Abu-Dabi shahrida bo‘lib o‘tgan qirqinchi sessiyasida tashkilotning yangi nomi — Ta’lim, fan va madaniyat islom dunyosi tashkiloti (ICESCO) tasdiqlandi^[1].

ICESCO Bosh direktori, doktor Salom Bin Muhammad Al-Malik tashkilot nomining o‘zgarishi tashkilotning diniy bo‘lmagan missiyasi mohiyatiga oid keng tarqalgan ikkiyuzlamachilikni bartaraf etish va keng dunyoqarashni ochish maqsadida xalqaro miqyosda aloqa munosabatlarini tiklashga qaratilganligini ta’kidlaydi^[2]. Uning aytishicha, tashkilotning yangi nomi uning faoliyat yo‘nalishlari, xususan, ta’lim, fan, madaniyat va kommunikasiyalar sohasidagi madaniylashtirish vazifasi mohiyatini to‘g‘ri aks ettiradi.

Maqsadlari: a) a’zo davlatlar o‘rtasida ta’lim, fan, madaniyat va kommunikasiya sohalari hamkorlikni mustahkamlash, rag‘batlantirish va o‘zlashtirish, shuningdek, ushbu sohalarni islom olamining madaniylashtirilgan belgisi doirasida va islom olami nuqtai nazaridan umuminsoniy qadriyat va g‘oyalarni targ‘ib qilish va rivojlantirish;

b) a’zo davlatlar va undan tashqarida xalqlar o‘rtasida o‘zaro tushunishni mustahkamlash, shuningdek, turli yo‘llar bilan, ayniqsa, ta’lim, fan, madaniyat va kommunikasiya orqali dunyoda tinchlik va xavfsizlikni o‘rnatishga ko‘maklashish;

d) islom va islom madaniyati g‘oyasini kengaytirish, ta’lim, madaniyat va dinlar o‘rtasidagi muloqotni rag‘batlantirish, islom ta’limotiga muvofiq adolat va tinchlik madaniyati qadriyatlarini, erkinlik va inson huquqlari tamoyillarini yoyishga harakat qilish;

e) A’zo davlatlarda madaniy o‘zaro ta’sirni rag‘batlantirish va uning xilma-xilligi namoyon bo‘lishini qo‘llab-quvvatlash, shu bilan birga madaniy o‘ziga xoslikni saqlab qolish va mustaqil intellektuallikni himoya qilish;

f) Islom hamkorlik tashkilotining ta’lim, fan, madaniyat va kommunikasiyalar sohasidagi ixtisoslashgan institutlari o‘rtasida hamda ISESCOga a’zo davlatlar o‘rtasida bir-birini to‘ldirish va muvofiqlashtirishni kuchaytirish, shuningdek, a’zo davlatlar ichida ham, tashida ham umumiy davlat va nodavlat notijorat institutlari bilan hamkorlikni mustahkamlash;

g) O‘quv dasturlarida, ilmiy tadqiqot ishlarida, intellektual xususiyatlarini kengaytirish va islom madaniyatiga e’tibor qaratish hamda uning asosiy jihatini ochib berish;

h) a’zo davlatlarning ta’lim tizimlari o‘rtasida bir-birini to‘ldirish va o‘zaro bog‘liqlik ustida ishlash;

i) ISESCOga a’zo bo‘lmagan islom davlatlarining ta’lim, fan va madaniyat muassasalari sa’y-harakatlarini qo‘llab-quvvatlash^[3].

A’zo davlatlarning ISESCOga kirgan yili.

Islom olami Ta'lim, fan va madaniyati tashkiloti Nizomida aytilishicha, Islom hamkorlik tashkilotiga a'zo har bir davlat nizomi rasmiy imzolanganidan keyin va qaror qabul qilish bo'yicha huquqiy va qonunchilik jarayonlari tugagandan so'ng ICESCO ga a'zo bo'ladi. qo'shilish va bu haqda ICESCO Bosh ma'muriyatiga yozma ravishda xabar berishi kerak. Islom anjumani tashkilotiga a'zo yoki kuzatuvchi bo'lmagan har qanday davlat ICESCO ga a'zo bo'la olmaydi.

Bugungi kunda Islom tashkilotiga a'zo davlatlar soni 57 ta, umumiy hisobda olganda Islom hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar esa 52 ta yetdi.

Mavzuni takrorlash uchun savollar.

1. Yangi diniy harakatlar deganda nimani tushunasiz?
2. "Yangi diniy harakatlar" tushunchasining mazmun mohiyatini izohlang?
3. "Yangi diniy harakatlar" ning noqonuniy harakatlari nimalarda ko'rinadi?
4. Soxta xristianlik harakatlari haqida gapiring?
5. Krishnani anglash jamiyati qanday jamiyat hisoblanadi?
6. Aum-Sinrikyo harakati qanday ta'limot?
7. O'zbekiston Respublikasida faoliyati aniqlangan norasmiy diniy jamoa: Baxshillochilar" haqida gapiring?

11- MAVZU. KIBER MAKONDA DINIY E'TIQOD TARG'IBOTINING IJTIMOIY XAVFI

Reja:

1. Kiber makon, kiber terrorizm, kiber zo'ravonlik (cyberbullying) tushunchalarining mohiyati.
2. Internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlarda diniy targ'ibot usullari.
3. Internet tarmog'idagi axborot urushi.
4. Ijtimoiy tarmoqlarda diniy axborot ist'emoli madaniyatini tarbiyalashning zarurati.
5. Hozirgi davrda virtual diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda xalqaro kuchlarni birlashtirishning ahamiyati.

***Tayanch so'z va iboralar:** internet, vizual olam, kiberterrorchilik kibermakon tushunchasi, kiber terrorizm, kiber zo'ravonlik (cyberbullying), diniy targ'ibot, virtuallik, axborot urushi, virtual diniy ekstremizm, xalqaro kuchlar, ijtimoiy tarmoq, "ISHID fitnasi".*

1-reja bayoni. Kiber makon, kiber terrorizm, kiber zo'ravonlik (cyberbullying) tushunchalarining mohiyati.

Kibermakon kompyuter tarmoqlari orqali amalga oshiriladigan muloqot maydonini ifodalovchi voqelik sifatida 1990 yildan boshlab keng miqyosida rivojlanib, takomillashib kelmoqda. Kibermakon tushunchasini dastlab kanadalik yozuvchi Uilyam Gibson 1982 yil «Sojjenie Xrom» («Burning Chrome») nomli hikoyasida yozadi.

Keyinchalik, Gibsonning 1990 yilda yozib tugatgan «Neuromancer» (o'zbek tilida tarjimai «Asabli manzaralar tasvirlovchisi», rus tilida «Nervo-sochinitel») nomli texno-utopik fantastik trilogiyasida qo'llagan. Bu asardagi kibermakon tushunchasi millionlab odamlarning jamoaviy sarob, xayolparastlikning o'ziga xos ko'rinishi sifatida tasvirlangan. Bu erda jamoaviy sarob yoki xayolparastlik inson ongida sub'ektiv psixologik holat sifatida namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy nuqtai-nazardan kibermakon deganda kompyuter tarmog'i orqali bir-biri bilan bog'langan va bir vaqtning o'zida turli geografik nuqtada kesishuvchi har qanday mavjud kompyuterning grafik sifatidagi ma'lumotlariga o'rallashib qolgan kishilar jamoasi tushuniladi.

Kiberterrorchilik – bu tahdid yoki qo'rqitish orqali, internetdan foydalangan holda, siyosiy yoki mafkuraviy muvaffaqiyatga erishish maqsadida uyushtiriluvchi kiberhujumlardir. Kompyuter viruslari, kompyuter qurtlari, fishing, zararli dasturlar, apparat usullari, dasturlash skriptlari kabi vositalar yordamida kompyuter tarmoqlarini, xususan, Internetga ulangan shaxsiy kompyuterlarni qasddan, keng miqyosda buzish harakatlari internet terrorizmining ko'rinishi bo'lishi mumkin. Kiberterrorizm munozarali atamadir. Ba'zi mualliflar ma'lum terroristik tashkilotlar tomonidan signalizatsiya, vahima yoki jismoniy buzilishlarni yaratish maqsadida axborot tizimlariga qarshi hujumlarni buzish bilan bog'liq juda tor ta'rifni tanlaydilar. Boshqa mualliflar esa kiberjinoyatni o'z ichiga olgan kengroq ta'rifni afzal ko'rishadi. Kiberhujumda ishtirok etish, hatto zo'ravonlik bilan amalga oshirilmagan bo'lsa ham, terror tahdidi idrokiga ta'sir qiladi. Ba'zi ta'riflarga ko'ra, onlayn faoliyatning qaysi holatlari kiberterrorizm yoki kiberjinoyat ekanligini farqlash qiyin bo'lishi mumkin.

Kiberterrorizmni shaxsiy maqsadlar yo'lida vayron qilish va zarar yetkazish uchun kompyuterlar, tarmoqlar va ommaviy internetdan qasddan foydalanish sifatida ham e'tirof etish mumkin. Tajribali kiberterrorchilar, buzg'unchilik bo'yicha juda malakali bo'lganlar hukumat tizimlariga katta zarar yetkazishi va keyingi hujumlardan qo'rqib, mamlakatni tark etishi mumkin.

Bunday terrorchilarning maqsadlari siyosiy yoki mafkuraviy bo'lishi, bu esa terrorning bir ko'rinishi deb hisoblanishi mumkin.

Hukumat va ommaviy axborot vositalarida kiberterrorizm yetkazilishi mumkin bo'lgan ziyor haqida xavotirlar talaygina. Bu esa Federal Qidiruv Byurosi (FQB) va Markaziy Razvedka Boshqarmasi (CIA) kabi davlat idoralarini kiberhujumlar va kiberterrorizmga chek qo'yishga unday boshladi.

Kiberterrorizmning bir necha asosiy va kichik holatlari bo'lgan. Al-Qoida internetdan tarafdorlari bilan muloqot qilish va hatto yangi a'zolari yollash uchun foydalangan. Estoniya, Bolviqbo'yi mamlakati, texnologiya jihatidan rivojlanib borishmoqda, 2007-yil aprel oyida Estoniya poytaxti Tallinda joylashgan Ikkinchi Jahon urushi davridagi sovet haykali ko'chirilishi bilan bog'liq tortishuvlardan so'ng kiberterror uchun kurash maydoniga aylanib qoladi.

Umumiy ko'rinishi: Kiberterrorizm ko'laminig asosiy ta'rifi bo'yicha munozaralar mavjud. Ushbu ta'riflar tor bo'lishi mumkin, masalan, Internetdagi boshqa tizimlarga hujum qilish uchun Internetdan foydalanish, bu odamlar yoki mulkka nisbatan zo'ravonlikka olib keladi. Ular, shuningdek, axborot texnologiyalari infratuzilmalariga odatiy hujumlar uchun terrorchilar tomonidan Internetdan foydalanishning har qanday shaklini o'z ichiga olgan keng bo'lishi mumkin. Ishda motivatsiya, maqsadlar, usullar va kompyuterdan foydalanishning markaziyliigi bo'yicha malakaning o'zgarishi mavjud. AQSh davlat idoralari ham turli xil ta'riflardan foydalanadilar va ularning hech biri hozirgacha o'z ta'sir doirasidan tashqarida majburiy bo'lgan standartni joriy etishga urinmagan.

Kontekstga qarab, kiberterrorizm kiberjinoyat, kiberurush yoki oddiy terrorizm bilan sezilarli darajada mos kelishi mumkin. Kasperskiy laboratoriyasi asoschisi Yevgeniy Kasperskiy hozirda "kiberterrorizm", "kiberurush" dan ko'ra aniqroq atama ekanligini his qilmoqda. Uning ta'kidlashicha, bugungi hujumlar bilan siz buni kim qilgani yoki ular yana qachon zarba berishini bilmaysiz. Bu kiber-urush emas, balki kiberterrorizmdir". U, shuningdek, o'z kompaniyasi kashf etgan Flame Virus va NetTraveler Virus kabi keng ko'lamlı kiber qurollarni biologik qurollarga tenglashtirib, bir-biriga bog'langan dunyoda ular bir xil darajada halokatli bo'lish potentsialiga ega ekanligini ta'kidlaydi.

Agar kiberterrorizmga an'anaviy terrorizmga o'xshash munosabatda bo'lsa, u faqat mulk yoki hayotga tahdid soladigan hujumlarni o'z ichiga oladi va jismoniy, haqiqiy zarar yoki jiddiy buzilishlarni keltirib chiqarish uchun maqsadli kompyuterlar va ma'lumotlardan, xususan, Internet orqali foydalanish infratuzilmasi sifatida ta'riflanishi mumkin.

Terrorizmni o'rganish bo'yicha ixtisoslashgan ko'plab akademiklar va tadqiqotchilar kiberterrorizm mavjud emasligini va haqiqatan ham xakerlik yoki axborot urushi masalasi ekanligini ta'kidlamoqda. Hozirgi hujum va himoya texnologiyalarini hisobga olgan holda, elektron vositalardan foydalangan holda aholida qo'rquv, jiddiy jismoniy zarar yoki o'lim paydo bo'lishi ehtimoli yo'qligi sababli uni terrorizm deb belgilashga rozi emaslar.

Umuman kiberjinoyatda bo'lgani kabi, kiberterrorizm aktlarini amalga oshirish uchun talab qilinadigan bilim va ko'nikmalar chegarasi erkin foydalanish mumkin bo'lgan xakerlik to'plamlari va onlayn kurslar tufayli doimiy ravishda pasayib bormoqda. Bundan tashqari, jismoniy va virtual olamlar jadal sur'atlar bilan birlashib, yana ko'plab imkoniyatlar maqsadlariga erishmoqda, buni Stuxnet, 2018-yildagi Saudiya neft-kimyosi sabotaj urinishi va boshqalar kabi e'tiborga molik kiberhujumlar tasdiqlaydi.

Hozirgi davrda fan, texnika va asosan kompyuter taraqqiyoti mahsuli bo'lgan kibermakon va uning boshqaruvchi qiyofasi "superkorporatsiya" texnologiyalarning insoniylikdan begonalashuvi natijasida din niqobidagi ijtimoiy va madaniy buzg'unchilikni sodir etishga bo'lgan urinishlar tobora kuchayib bormoqda. Jumladan, bugungi kunda kiberterrorchilik tuzilmalari o'z g'arazli maqsadlari yo'lida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanishga urinmoqda.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch" asarida quyidagicha ta'kidlaangan: "Taassufki, ba'zan islom dini va diniy aqidaparastlik tushunchalarini bir-biridan farqlay olmaslik yoki g'arazli maqsadda ularni teng qo'yish kabi holatlar ham ko'zga tashlanmoqda. Shu bilan birga, islom dinini niqob qilib, manfur ishlarni amalga oshirayotgan mutaassib kuchlar hali ongi shakllanib ulgurmagan, tajribasiz, g'o'r yoshlarni o'z tuzog'iga ilintirib, bosh-ko'zini aylantirib, ulardan o'zining nopok maqsadlari yo'lida foydalanmoqda. Bunday nojo'ya harakatlar avvalo muqaddas dinimizning sha'niga dog' bo'lishini, oxir-oqibatda esa ma'naviy hayotimizga salbiy ta'sir ko'rsatishini barchamiz chuqur anglab olishimiz va shundan xulosa chiqarishimiz zarur".

Bu xususida Xalqaro press-klubda Mintaqaviy aksilterror tuzilma (MAAT) Ijroiya qo'mitasi direktori Evgeniy Sisoevning so'zlariga ko'ra, MAAT O'zbekiston bilan o'zaro ishonch va yordamga asoslangan aloqalarni o'rnatgan. Xalqaro Press-klubda bo'lib o'tgan ko'p tomonlama hamkorlik masalalariga bag'ishlangan navbatdagi yig'ilish zamonaviy tahdidlar sharoitida asosiy masalalardan biri axborot xavfsizligi, kiberxavfsizlik masalasi ekanini ta'kidladi.

«Kibermaydonlar xalqaro terrorchi tashkilotlar a'zolarining o'z maqsadlariga erishish uchun qulay imkoniyatlar yaratmoqda. Bu yo'nalishda ko'p ishlarni amalga oshiryapmiz, bu borada hamkorlik chora-tadbirlari ishlab chiqilgan. Biz terrorchilikka qarshilik qilish maqsadida aksilterror o'quv mashqlarini o'tkazyapmiz. Xitoy tomon bu masalalarga katta e'tibor qaratmoqda va ko'plab qiziq takliflar kiritmoqda. Aprel oyida Shanxayda ajoyib seminar bo'lib o'tdi. Unda kiberterrorizm masalasiga bag'ishlangan uchrashuvlar o'tkazildi. Bu mazmunda janob Mirziyoevning takliflari juda o'rinli», — qo'shimcha qiladi E.Sisoev.

"Kibermakon"da din niqobidagi "kiberhujum"lar tahdidi: din niqobi ostidagi ekstremistik saytlarda asosan davlat to'ntarilishi va xunrezlik urushlari haqida gap boradi. Bugungi kunda dunyoda eng katta xavf solib turgan ISHID guruhining internet kibermakonidagi axborot hujumi va tahdidi to'g'risida Aydarbek Tulepov o'zining "ISHID fitnasi" kitobida quyidagi ma'lumotlarni beradi. ISHID o'zining internet orqali go'yo Islom yo'lida "qurbon" bo'layotgani aks etgan videolavhalari va fotosuratlari "al-Hayot" media studiyasida tayyorlanadi va internetga joylashtiriladi.

2-reja bayoni. Internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlarda diniy targ'ibot usullari.

Terrorchilarning targ'ibot-tashviqotlari kun sayin avj olib bormoqda. Jumladan, "Odnoklassniki", "Facebook", "Instagram", "Twitter", "V Kontakte" ijtimoiy tarmoqlarida buzg'unchilik va yot g'oyalarni targ'ib qiluvchi yuzlab guruhlar mavjudligi fikrimizning yaqqol dalilidir. SHuningdek, Islom dinini noto'g'ri, qabih maqsadlarda talqin etish, dinga siyosiy tus berib, hokimiyatni qo'lga kiritishdir. Kitobda din niqobi ostidagi "rahnamolar" haqida ham yoziladi. Bular, Muhammad ibn Abdulvahhob, Hasan al-Banno, Sayyid Qutb, Muhammad Ilyos Kandhlaviy, Taqiyuddin Nabahoniy, Abdul Qadim Zallumlarning yoshlar ongiga kuchli ta'sir o'tkazadigan: "Xudo-idealimiz, payg'ambar-dohiyimiz, Qur'on-konstitutsiyamiz, jihod-vositamiz,

din va Xudo yo'lida qurbon bo'lish-ezgu orzuimiz",- kabi jarangdor shiorlari aslida soxta bo'lib, g'arazli maqsadga erishish yo'lidagi niqobdan boshqa narsa emas.

Bu xususda 2017 yil 28 iyun kun.uz saytida bergan ma'lumotga ko'ra: Ukraina hukumati barcha kompyuterlari xakerlik hujumiga uchradi. Bu haqda mamlakat bosh vaziri o'rinbosari Pavel Rozenko Facebook'dagi sahifasida xabar berdi.

Tabiiyki, tarmoqning barcha foydalanuvchilari kabi ekstremistlar ham turli xil saytlar va forumlarga kirib ko'radi. Mudom shakllantirilib boriladigan dasturli ta'minotdan foydalanadi, tarmoqli ta'minot shu jumladan internet orqali maxfiy muloqot tarqatmoqda. "Al-Qoida"ning birinchi rasmiy sayti 2001 yil 11 sentyabr voqealarigacha ham mavjud bo'lgan. "Al-Qoida" sayti o'sha vaqtlardagi veb-resurslardan farq qilmagan, uning katta qismini statik (turg'un, muvozanat holatidagi) tasvirlar va turlicha matn, e'lonlar (asosan arab tilida), shuningdek, bir nechta qisqa videoroliklar tashkil qilgan.

"Al-Qoida"ning rasmiy tashkiloti paydo bo'lishi, saytda boshqa din niqobidagi "dindor"larning o'zini oshkor qilishi tezlik bilan kengayib bordi. Yomg'irdan keyingi qo'ziqorinlar kabi, ularni qo'llab-quvvatlovchi ko'plab sahifalar, turli xil ko'rinishdagi forum va ijtimoiy tarmoqlar "bolalab" ketdi. Ammo uning din niqobi ostidagi ekstremistlarning diniy mafkurasi bilan tanish bo'lgan har qanday odam, kichik detallar vositasida go'yoki "hamfikir birodarlar"i orasida ekanligi — bugungi kunning xavfidir. Bu o'z vaqtida "Al-Qoida" tomonidan emas, balki uning tarafdorlari tomonidan yaratilgan edi va o'z navbatida, to'laqonli ijtimoiy tarmoqlarni yaratishda "asqotadigan" zamonaviy texnologiyalar dunyosida bilim darajasini namoyish etib, bu guruhning haqiqiy a'zolari diqqatini o'ziga jalb qilgan.

nuqtai-nazardan qaraganda, bugungi kunda yoshlar ongi va ruhiyatida diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish asosiy masalalardan biri hisoblanadi.

Qisqa yo'l, ko'pincha ekstremistik xarakterda bo'luvchi — eng yaxshi yo'l emasligini bilish uchun bilim va hayotiy tajriba lozim.

Ekstremistik mafkura ta'siriga tushib qolgan yosh yigit-qizlardagi asosiy belgilar:

- Uning xatti-harakatlari keskin yoki qo'pol bo'lib qoladi, noodatiy yoki jargon leksika shakllanadi;

- Ma'lum bir submadaniyat qoidalariga mos ravishda birdan kiyinish uslubi va tashqi ko'rinish o'zgaradi;

- Kompyuterida siyosiy-ekstremistik yoki ijtimoiy-ekstremal mazmundagi fayllar, rolik yoki tasvirlar ko'payib boradi;

- Xonadonda tushunarsiz yoki noodatiy timsol va atributlar, qurol sifatida foydalanish mumkin bo'lgan sovuq predmetlar paydo bo'la boshlaydi;

- U kompyuterda ko'p vaqt o'tkazib, maktab, oliy ta'lim, badiiy adabiyotga, film, kompyuter o'yinlariga aloqador bo'lmagan ta'lim bilan shug'ullanadi;

- Siyosiy va ijtimoiy mavzularda ko'p gapira boshlaydi, bunda sabrsizlik hamda keskin mulohazalar kuzatiladi;

- Internetdagi taxallus, parol va hokazo ekstremal-siyosiy xarakter kasb etadi.

"Kiber hujum mexanizmi"ga qarshi "Kiberhimoya mexanizmi":quyidagilardan iborat: hammamizga ma'lum bola tarbiyasi ota-ona, mahalla, maktab gardaniga tushadi. Bunda yoshlarni keskinlik yoki tazyiq o'tkazib to'g'ri yo'lga solib bo'lmaydi. Hech bir zo'ravonliksiz va asosli fikr-mulohazalar bilan tushuntirish ishlari olib borilishi zarur. "Kontrpropaganda" ishlari bosh tezisi — inson olamni o'zgartirish uchun mukammal bilim va chuqur mulohaza yuritsa, jamiyatda mutaxassis va avtoritetga aylansa, uning ergashuvchilari tabiiyki ko'proq bo'ladi. Shunda yaxshi

maqsadlarga erishishi muqarrarligi ta'minlangan bo'ladi, deb bosim o'tkazmay, qalban yondashib bolaning ongiga "etkazish" lozim. Bolaning xatti-harakatlarini mutlaqo qoralash kerak emas. Bu uning qarshi reaksiya — himoya pozitsiyasini qo'llashiga olib keladi.

Hech qachon ekstremizm – ijtimoiy xastalik ekanligini unutmaslik lozim. Shuning uchun unga jarrohning emas, psixolog qurollari bilan yondashish kerak. Bunday "romantika"ga asosan yoshlar ishonib, bu ular energiyasini destruktiv yo'nalishga burib yuboradi. Shunday targ'ibot va tashviqot asosida shakllanish bosqichidagi yoshlar va ta'sirchan ijtimoiy qatlam vakillarida tabiiy ravishda olamni adolatliroq qilish (masalan elitalar shakllanishi, nochorlik, mehnat haqqi va karera o'sishidagi adolatsizlik, jinoyatchilikning yuqori darajadali, oddiy fuqaro huquqini himoyalashda adolatsizlik, ishsizlik, qonuniy idoralar tomonidan siyosiy tizimga ta'sir sustligi kabi masalalar yuzasidan) xohishi yuzaga kelib, umuminsoniy qadriyatlarni rad qila boshlaydi, o'zini ijtimoiy fikrga qarshi tuta boshlaydi, ta'lim olishda mutaxassis sifatida shakllanish o'rniga, kelajagi yo'q yo'nalishga tushib qoladilar.

Axborot ekstremizmining spetsifik jihatlari:

- Radikallik, biror maqsadga erishish va qiziqishlarini amalga oshirishda;
- Antijtimoiylik, tarixiy shakllangan, ijtimoiy huquqiy o'zaro hamkorlik pozitiv shakllari va modellarini buzadi, qiziqishlar mavjud muvozanotini buzadi, o'zaro hamkorlikda mojarogenli makon yaratadi;

- Institutsionallik, u chegaraviy sharoitda va marginal makonlarda pishib etiladi va institutlashtiriladi;

- Siyosiy-huquqiy tafakkur buzilishi, chunki ekstremistik faoliyat sub'ekti ko'pincha deformatsiyalashgan ongli bo'ladi, uning ijtimoiy-madaniy muhit, norma va qadriyatlardan qochishida kuzatiladi;

- Natijalarning noqonuniyligi, axborot ekstremizmning amal qilishi qonuniy bo'lsa-da (ba'zi holatlarda), ammo beriladigan imkoniyatlardan qarshi maqsadlarda foydalanadi.

Unga qarshi kurash ommaviy kommunikatsiyaning zamonaviy ilg'or texnologiyalari vositasida, ilg'or ilmiy-texnik ishlanmalar vositasida amalga oshirilishi lozim. Xususan, global tarmoq monitoringi yordamida bu ishlarni samarali yo'lga qo'yish mumkin.

Internetda ekstremizm bu avvalo targ'ibot-tashviqotdir. Ekstremistlar e'tiqod qiladigan bir qator maqsad va qarashlar, qadriyatlar targ'ib qilinadi, ularning "ilg'or", "muqarrar"ligi isboti keltiriladi, qarshilar va dushmanlar aniqlanadi. Agarda tashkilot ma'lum bir submadaniyatga e'tiqod qilsa, o'zlarining targ'ibot va tashviqotida "kiberhujum mexanizmi"ni ishga soladi. Bularga quyidagilarni misol keltirish mumkin:

- kiyinish uslubi, xatti-harakat, tashqi ko'rinish va hokazolar kabi masalalar bo'yicha maslahatlar beriladi;

- kundalik hayotga oid nima qilish mumkin-u, nima mumkin emas;

- "to'g'ri" narsani to'g'ri bajarishni, u yoki bu ko'rinishda "qo'shilish" yoki "kurash"ga chaqiriladi.

Biz bu kabi din niqobi ostidagi yoshlarda internet orqali salbiy xarakter shakllantirishga harakat qilayotganlarning "kiberhujum mexanizmi"ga qarshi yosh avlodni asrashimiz uchun "kiberhimoya mexanizmi"ni quyidagicha qo'llash mumkin:

- birinchidan, internetda berilayotgan ma'lumotlarni "filtrlash" yoki yoshlarda "filtrlay" olish qobiliyatini shakllantirish;

- ikkinchidan, internet ma'lumotlarga yoki kompyuterga qiziquvchi yoshlarga doimiy ravishda salbiy saytlar va ularning oqibatlari to'g'risida kerakli ko'rsatmalar berib boish;

— uchinchidan, joylarda ota-onalar uchun doimiy ravishda tushuntirish ishlarini olib borish;

— to‘rtinchidan, maktab, litsey, kollej va oliy o‘quv yurti pedagog jamoasi, o‘quvchi va talabalar orasida internet hujumlari va internet savodxonligi bo‘yicha targ‘ibot va tashviqot ishlarini tashkil qilish;

- beshinchidan, maktab, litsey, kollej va oliy o‘quv yurtlarida internet savodxonligi bo‘yicha maxsus kurslar o‘qitilishi, shuningdek, oliy ta‘lim muassasalarida maktab, litsey, kollejlari va oliy ta‘lim muassasalari uchun o‘qituvchilar tayyorlanishini hisobga olib, fanlarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, “Kibermakondagi diniy ma‘lumotlar va kiberterrorizm” maxsus kurs yoki fanlarning ishchi fan dasturlariga alohida mavzu shakllantirib kirgizish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 28 sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining jamoat ta‘lim axborot tarmog‘ini tashkil etish to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq ta‘lim va yoshlar bo‘yicha yaratilayotgan axborot resurslari yagona “ZiyoNET” milliy ta‘lim tarmog‘i tashkil etilganligi axborot xurujlariga qarshi turishda bir “mexanizm” ekanligi, “Kiber jinoyatlar to‘g‘risida” Konvensiya, “Voyaga etmaganlar uchun xavfsiz Internet va onlayn resurslarni joriy qilish to‘g‘risida” Evropa Ittifoqi Parlamenti Assambleyasining tavsiyalari, “Bola huquqlari to‘g‘risida” BMT Konvensiyasi kabi qonunlar va Xalqaro Konvensiyalarni yuqorida ko‘rsatilgan ta‘lim muassasalariga fan sohalarining mazmunlaridan kelib chiqib o‘rgatishimiz lozim deb hisoblaymiz.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, bugungi kunda axborot maydonidagi “inqilobiy yangilik” sifatida e‘tirof etilayotgan “kibermakon” asta-sekin jahon jamoatchiligi uchun tobora jiddiy xavf tug‘dirib bormoqda. Xalqaro xavfsizlikka nisbatan ilgari ko‘rilmagan din niqobidagi tahdidlar ortayotgani, kiberjinoyatchilik, kiberhujum, kibertahdid kabi tushunchalar hayotimizga kirib kelayotgani kishini xavotirga solmoqda. Hozircha bu xurujga qarshi turadigan qurol yo‘q. Axborotga bo‘lgan ehtiyoj bor ekan, kiberjinoyatchilik turli shakl va usullarda bo‘y ko‘rsataveradi.

3-reja bayoni. Internet tarmog‘ida axborot urushi

Rossiyalik yetakchi mutaxassislar yozishicha, axborot urushi (information war) – strategik maqsadlarni amalga oshirish uchun raqibning axborot maydoniga informatsion ta’sir ko‘rsatish harakatidir.

Axborot urushi «targ‘ibot» (propaganda) atamasiga bevosita bog‘liq. «Targ‘ibot» atamasini Rim Papasi 1622-yili, katoliklar va protestantlar o‘rtasidagi o‘ttiz yillik urushda ilk bor qo‘llagan. Papa mag‘lub bo‘layotgan katoliklarning jangovor ruhini ko‘tarish maqsadida maxsus kongregatsiya – iymon targ‘iboti bo‘limini ishga tushirgan.

1622-yildan birinchi Jahon urushigacha targ‘ibot atamasi diniy ma’noda qo‘llanilgan. Dushman qo‘shinlari va kuchlariga ta’sir qilish uchun maxsus bo‘linmalar ilk bor ana shu urushlar davomida paydo bo‘ldi.

«Axborot urushi» atamasi ilk bor 1967-yili tilga olingan bo‘lib, bu iboraning muallifi sobiq Sovet ittifoqiga qarshi boshlangan axborot urushining asoschilaridan biri Allen Dallesdir. 1985-yili axborot urushi atamasi Xitoyda ham qo‘llangan.

1992-yili AQSh harbiy qo'mondonligi Fors ko'rfazida amalga oshirilgan «Sahrodagi bo'ron» amaliyoti uchun «Axborot urushi» deb nomlagan alohida hujjat ham ishlab chiqqan. «Axborot urushi» atamasi 1995-yilda Rossiyada ham paydo bo'ldi.

Axborot urushi – raqib sanalgan mamlakat rahbariyatiga, uning jamoatchilik yoki diniy tashkilotlariga va ular qabul qiladigan qarorlarga ta'sir ko'rsatish, ijtimoiy fikr va jamoatchilik ongini o'ziga kerakli yo'nalishda shakllantirishga urinishdir. Ta'sir qilishning asosiy dastaklari – kitoblar, kinofilmlar, televideniye, internet, OAV nashrlari.

Axborot urushining muhim jihati – raqibning rahbariga psixologik bosim o'tkazib, uni «kerakli» qarorlarni qabul qilishga majbur qila bilishdir. Misol uchun, kerakli laqablar o'ylab topiladi (kofir, tog'ut, munofiq, vahhobiy va hokazo), turli xil dezinformatsiya, ya'ni haqiqatdan yiroq axborotlar tarqatiladi. Yolg'on maqsadlar sari yo'nalishga majbur qiluvchi xatti-harakatlar va vahima uyg'otuvchi uslublar qo'llaniladi.

Axborot ta'siri – dalillarni (faktlarni) buzib ko'rsatish yoki raqibning tabiiy idrok qilish qobiliyatini so'ndirish, uning fikrini his-tuyg'ular (emotsiyalar), kuchli hissiyotlar ta'sirida ushlab turish, ya'ni “jahll chiqsa, aql ketadi” degan holatga olib kelish.

Misol uchun, G'arb ommaviy axborot vositalari (OAV) va «Al-Jazira» telekanalining Qaddofiy samolyotlari «tinch» namoyishchilarni «bombardimon qilgani» oqibatida Liviya ko'chalarida yuzlab o'liklar yotgani, begunoh xalq ayovsiz qirilayotgani haqidagi axborotlardan so'ng BMT maxsus rezolyutsiya qabul qilishga «majbur» bo'ldi. Haqiqatdan yiroq bu axborotlar ta'siri ostida NATO Liviyani bombardimon qilishi va yaqin kelajakda bu mamlakat Afg'oniston va Iroq kabi bosib olinishi mumkin bo'lib qoldi...

Axborot hujumlari hatto musulmon olamining mashhur va nufuzli olimi Yusuf Qarzoviyini ham chetlab o'tmadi. Shayx Qarzoviy ham yolg'on axborot (dezinformatsiya) qurboniga aylanib, Qaddofiyning hokimiyatda qolishiga qarshi fatvo berib yubordi. Ba'zi imomlar esa Qaddofiyini Allohning va dinning dushmani deb, unga takfir e'lon qilishdi.

Ehtimol, u yomon siyosatchi bo'lgandir, biroq u Afrika qit'asidagi ko'plab qabilalarning Islomga kelishiga sababchi bo'lgan, dunyodagi ko'plab musulmonlarga homiylik qilib turadigan, namozxon kishi edi.

Vaholanki, Liviyada yashayotganlar telefon orqali hech qanday bombardimonlar bo'lmaganini, o'liklar ham yo'qligini, bolalar maktablariga, kattalar esa ishlariga borib kelayotganini aytib turdilar. Haqiqiy bombardimonlar esa BMT qabul qilgan rezolyutsiyadan keyin, G'arb koalitsiyasi tomonidan amalga oshirildi.

Bu elektron OAVlaridagi yolg'on va soxta axborotning (dezinformatsiya) yopirilishi va uning oqibatiga bir misoldir.

Yuqorida aytilganlarga qo'shimcha qilib aytish mumkinki, axborot ta'siri kutilgan natijani berishi uchun zarur paytda yolg'on xabar tarqatish (dezinformatsiya) bosimini kuchaytirib, axborot jang maydonini (poligonini) yolg'on ma'lumotga to'ldirib yuborish, zarur paytlarda esa axborot bo'shlig'ini (vakuum), ya'ni axborot olish juda muhim bo'lgan vaqtda axborot bermay «axborot ochligini» tashkil qilish kabi usullardan foydalanish mumkin.

Axborot urushlari turli xil aloqa (kommunikatsiya) vositalari yordamida amalga oshiriladi. Vositalar navi (assortimenti) juda boy bo'lib, unga mashhur OAVlardan boshlab mish-mishlar, g'iybatlar va hatto latifalargacha (anekdot) kiritish mumkin.

Kechagi axborot urushlari bugungisidan batamom farq qiladi. Yangi zamonaviy axborot texnologiyalarining rivojlanib ketishi, sun'iy yo'ldosh televideniylar, internet tarmoqlar

boshqalar uchun yopiq bo'lgan ma'lum hudud, ya'ni lokal konfliktlarning zudlik bilan tarqalishi ularga olamshumul ahamiyat berilishiga sabab bo'ldi.

Bugungi kunda Xitoyda 500 million, Rossiyada esa 50 millionga yaqin internetdan foydalanuvchilar ro'yxatdan o'tgan. Endilikda ijobiy yoki salbiy mazmundagi axborotlarning global tarmoqqa chiqishi uchun bir soniya kifoya. Bu axborotlarning nafaqat milliy manfaatlar, xavfsizlik va mamlakat suverenitetiga, balki shu mamlakatda yashayotgan musulmonlarga ham aloqasi bor. «Islomiy omil» esa bugungi kun axborot urushida yetakchi o'rinni egallab oldi.

Axborot urushini oddiy reklamadan farqlaydigan jiddiy belgi shuki, bunda asosiy maqsad qarshi tarafga nisbatan uning maqsadi va unga yetishish vositalaridan to'liq foydalanishiga to'sqinlik qilish, chalg'itishdir.

4-reja bayoni. Ijtimoiy tarmoqlarda diniy axborot iste'moli madaniyatini tarbiyalashning zarurati

Keyingi paytlarda ilmiy manbalarda tez-tez “axborot iste'moli madaniyati” atamasi qo'llanayotganiga guvoh bo'lmoqdamiz. Unga ko'ra, har kim o'zi e'tiqod qiladigan mafkura tarqatuvchisi va targ'ibotchisidir.

Axborotni qabul qiluvchi o'zi, atrofdagilar, yaqinlari, xalqi, yurti manfaatlarini himoya qilishi, shunga mos va xos ma'lumotlarni tanlashni bilishi, o'zlashtirishi va tarqatishi lozim. Bu, o'z navbatida, tarbiyaga bog'liq. Bugun yoshlarga “Bu axborotni kim taqdim qilmoqda?”, “Nima uchun taqdim qilmoqda?” va “Qanday maqsadda taqdim qilmoqda?” degan savollarni o'z-o'ziga berishi, unga asosli javob topishga harakat qilishni o'rgatish kerak bo'ladi. Ana shundagina turli g'oyalar ta'siriga tushib qolish ehtimoli kamayib, taklif etilayotgan ma'lumotlarga ko'r-ko'rona ergashishning oldi olinadi. “Axborot tashnalligi”ga barham beriladi.

Ayni paytda, axborotlashuv jarayoni qo'yidagi muammolarni ham keltirib chiqaradi:

Birinchidan, mualliflik yoki intellektual mulk huquqi buzilishiga sabab bo'lishi mumkin. Bu hol bugungi kunda internet orqali tarqatilayotgan ma'lumotlarning to'g'ridan-to'g'ri olinishi misolida ko'rinmoqda. Mualliflar huquqlarini himoya qiluvchi tashkilotlar, plagiatlikni aniqlash programmalari tabiiy zarurat tufayli vujudga kelgan.

Ikkinchidan, tekshirilmagan, noxolis ma'lumotlarning keng tarqalishi ehtimoli ortadi. Aslida, internet tarmoqlari mualliflardan mas'uliyatni cheklaydi. SHunga muvofiq internet jurnalistikasi rivojlanmoqda.

Uchinchidan, maxfiy, shaxsiy ma'lumotlarning noqonuniy ravishda e'lon qilinishiga olib keladi. Bundan ba'zan moddiy manfaatdorlik yoki ko'zlangan aniq maqsadga erishish, jumladan, biror shaxsni obro'sizlantirish nazarda tutiladi.

To'rtinchidan, din niqobidagi ekstremizm, missionerlik hamda “ommaviy madaniyat” targ'iboti ortadi. Bu esa ma'naviyatga, milliy va diniy qadriyatlarga, azaliy urf-odat va an'analarga qarshi qaratilgan to'g'ridan-to'g'ri tahdiddir.

Beshinchidan, ma'naviy, milliy qadriyatlarga putur etadi. Masofaviy muloqot, faqat hurmatdan iborat munosabat shakli ota-onaga xizmat, yaqinlar diydoriga intilish, hashar, muhtojlarga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatish kabi qadriyatlarimizga ma'lum darajada ziyon etkazadi. SHu sababdan yurtimizda qadriyatlarga sadoqat, milliylikka hurmat tuyg'ulari targ'ib qilinadi.

Yuksak axborot texnologiyalarini jamiyat hayotining turli sohalariga joriy etish – davr talabi. Ammo uning ham o'ziga xos jihatlari bor. Jumladan,

- uning natijasida jismoniy mehnat hajmi keskin qisqaradi. Bu esa ishsizlikning ortishidir. Demak, amaliyotga ilm-fanning eng so'nggi natijalarini joriy etish barobarida yangi ish o'rinlarini yaratish ustida jiddiy bosh qotirish ham muhim hisoblanadi;

- yuksak darajada texnik imoniyatlarga ega bo'lish mehnat, ishlab chiqarish jarayonini osonlashtiradi, inson uchun murakkab va qiyin bo'lgan ishlarni texnika o'z zimmasiga oladi va insonlarning aqliy faoliyati uchun keng yo'l ochiladi.

-dunyo xalqlari bilan muloqot almashinuvi osonlashadi, tezlashadi. Jahondagi istalgan mamlakat kutubxonalarida saqlanayotgan nodir va muhim kitoblardan foydalanish imkoniyatlari yaratiladi;

- madaniyatlararo aloqalar rivojlantiriladi, mustahkamlanadi. Dunyo yaqinlashadi.

Demak, har bir olingan ma'lumotni tekshirib, asosli yoki asossiz ekanini aniqlamay turib, o'sha ma'lumotga qarab ish tutish turli muammo va javobgarliklarni keltirib chiqarishi mumkin. CHunki bunda xabar tarqatayotgan kishining g'arazli maqsadini amalga oshirishiga zamin yaratib qo'yiladi.

Shunday ekan, dunyoning turli mintaqa va hududlarida ro'y berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, ziddiyatli to'qnashuvlarga teran qarash hissini oshirish, har qanday ko'rinishdagi tahdidlarga qarshi ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish, ayniqsa bu borada kelajagimiz hisoblangan yosh avlodni, bir so'z bilan aytganda har birimiz uchun muqaddas bo'lgan oilamizni din niqobi ostidagi yot g'oyalar ta'siridan asrash uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz lozim.

5-reja bayoni. Hozirgi davrda virtual diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda xalqaro kuchlarni birlashtirishning ahamiyati.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida VI yo'nalish umumbashariy muammolarga milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda yechim topishga bag'ishlangan.

Unda terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini shakllantirishdan ko'zlangan maqsadlar belgilab berilgan.

Terrorizm va ekstremizm muammosi global ijtimoiy hodisa sifatida dunyoning barcha davlatlarini qamrab olgan. O'zbekiston ham jahon hamjamiyatining ajralmas qismi sifatida bundan mustasno emas.

So'nggi yillarda yangi O'zbekistonning terrorizm va ekstremizmga qarshi harakatlari Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari uchun o'ziga xos namuna bo'lib xizmat qildi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2017 yilga nisbatan 2018 yilda O'zbekistonda terrorizm va ekstremizm bilan bog'liq jinoyatlar soni 65 foizga kamaydi.

Yoshlarning huquqiy va diniy bilimini oshirish orqali ekstremistik targ'ibotga, radikallashuvga qarshi kurashishning o'zbek modeli muvaffaqiyat qozondi. Huquqiy va diniy bilimlarini oshirish vositasida yoshlar o'rtasida ekstremistik tashviqotga qarshi turishga asoslangan mazkur model samarali bo'lib chiqdi.

O'zbekistonda terrorizmga qarshi kurashishning o'zbek modeli, avvalambor, huquqiy va siyosiy madaniyatni, ma'naviy va diniy ma'rifatni oshirish orqali odamlar ongi, birinchi navbatda, yoshlar ongini oshirish uchun kurash sifatida tushuniladi. Ijtimoiy rehabilitatsiya, ekstremistik g'oyalar ta'siri ostida bo'lgan va o'z xatolarini anglaganlarning normal hayotga qaytishi bo'yicha olib borilayotgan tizimli ishlar ham ijobiy natijalarni bermoqda.

Mamlakatda yangi - terrorologiya fani shakllanmoqda, ushbu global hodisalar tahliliga bag'ishlangan qator monografiyalar, risolalar va maqolalar nashr etilmoqda, dissertatsiyalar himoya qilinmoqda. Ularda o'zbek modelining mazmun-mohiyati, mazkur makon va zamon tanlamas illatga qarshi kurashishda davlat organlari va jamoatchilik tajribasi har tomonlama ko'rib chiqilgan.

Bu boradagi milliy va xalqaro sa'y-harakatlarni birlashtirish orqali samarali profilaktik chora-tadbirlarni belgilash, terrorizm va ekstremizmning oldini olish, ularni moliyalashtirish manbalari va kanallariga barham berish davlat siyosatining muhim yo'nalishi hisoblanadi. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 1 iyuldagi farmoni bilan 2021-2026 yillarga mo'ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasi va uni amalga oshirish bo'yicha «Yo'l xaritasi» tasdiqlanib, yo'nalishlari belgilandi.

Xalqaro terrorizm va ekstremizm kabi global hodisalarga qarshi ziyolilar, olimlar, diniy ta'limot mutaxassislarning kurashi faollashgani jaholatga qarshi ma'rifat bilan javob qaytarishning muhimligini tasdiqlaydi.

2020 yilda Global terrorizm indeksi (Global Terrorism Index) bo'yicha tadqiqotlar 135 ta davlatni qamrab oldi. Unga ko'ra, O'zbekiston ro'yxatning 134-pog'onasini egalladi va bir necha yillardan buyon terrorizm xavfi past bo'lgan yetakchi davlatlar qatoridan joy oldi. Mamlakatimiz bunday natijaga davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining muvofiqlashtirilgan faoliyati, aholi o'rtasida tizimli profilaktika ishlarini olib borish orqali erishmoqda. Shuningdek, BMT mojaro zonalaridan ayollar va bolalarni o'z vataniga qaytarish bo'yicha o'zbek modelini ham yuqori baholadi.

Ekstremistik va terrorchilik maqsadlarida Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishga qarshi kurashish

O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarni rivojlantirish vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda Internet foydalanuvchilari soni 23 milliondan ortib ketgan.

Qayd etish lozimki, bugungi kunda ekstremistik va terrorchilik tashkilotlari saflariga jalb qilishda Internet jahon axborot tarmog'idan keng foydalanilmoqda, uning yordamida ekstremizm va terrorizm mafkurasi faol singdirilib, aholining dindor qismi o'rtasida jamiyatga qarshi kayfiyat shakllantirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining vakolatli davlat organlari tomonidan ekstremistik va terroristik materiallarni tarqatuvchi veb-resurslar va ijtimoiy tarmoqlarning faoliyatini aniqlash va oldini olish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ekstremistik va terroristik tashkilotlarning Internet jahon axborot tarmog'i orqali yollash harakatlarida kuzatilayotgan faollik sababli, ularni zararsizlantirish bo'yicha quyidagi qo'shimcha choralar ko'rilishi zarur:

a) Internet jahon axborot tarmog'ida ekstremizm va terrorizm g'oyalarini tarqatuvchilarni, shuningdek, respublikadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish niyatida bo'lgan shaxslar va guruhlarini o'z vaqtida aniqlash;

b) respublika aholisiga xos bo'lgan bag'rikenglik va diniy an'analarni o'zida mujassam qilgan ilmiy asoslangan mafkuraga tayanib Internet tarmog'ida ekstremizm va terrorizm g'oyalariga qarshi tashviqot va targ'ibot ishlarini tashkil etish;

v) buzg'unchi kontentni aniqlash va yo'q qilish maqsadida Internet jahon axborot tarmog'ini tahlil qilish;

- g) Internet jahon axborot tarmog'ida ekstremizm va terrorizm g'oyalariga axborot orqali qarshi kurashish sohasida malakali kadrlar tayyorlash;
- d) huquqni muhofaza qiluvchi organlarning maxsus bo'linmalarini zarur bo'lgan ilg'or dasturiy mahsulotlar hamda texnika bilan ta'minlash;
- e) Internet jahon axborot tarmog'idan ekstremistik va terrorchilik maqsadida foydalanishga qarshi kurashish masalalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni muntazam ravishda takomillashtirib borish.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

1. Kiber makon, kiber terrorizm, kiber zo'ravonlik (cyberbullying) tushunchalarining mohiyati izohlang?
2. Internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlarda diniy targ'ibot usullari qanday olib boriladi?
3. Internet tarmog'idagi axborot urushi deganda nimani tushunasiz?
4. Hozirgi davrda virtual diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda xalqaro kuchlarni birlashtirishning ahamiyati nimada?
5. Diniy bag'rikenglik nima?
6. Turli diniy oqim va firqalarga qarshi O'zbekistonda qanday chora-tadbirlar amalga oshirilayapti?

12-MAVZU. MISSIONERLIK VA PROZELITIZMNING SIYOSIY-IJTIMOIIY XAVFI

Reja:

- 1.Missionerlik va prozelitizm tushunchasining mohiyati va rivojlanish bosqichlari. Xristian dini missionerligi.
- 2.Xalqaro missionerlik tashkilotlari va ularning targ'ibot usullari.
- 3.Missionerlik va prozelitizmning targ'iboti va ularni bartaraf etish bo'yicha olib borilayotgan faoliyat dinamikasi.
- 4.O'zbekistonda faoliyati kuzatilgan missionerlik harakatlari va ular faoliyatining oqibatlari.
- 5.Missionerlik va prozelitizmning ma'naviy barqarorlikka tahdidi hamda uni oldini olishning mexanizmlari.

Tayanch so'z va iboralar: missionerlik, prozelitizm, mutaassiblik, vijdin erkinligi, diniy bag'rikenglik, konfessiya, diniy tashkilot, sekta, firqa, oqim, yo'nalish, mazhab, 10/40 OYNA, Xristian dini missionerligi, ma'naviy barqarorlik, tahdid, "Injil", Mark, «missio», Matto, «World Book» ("Jahon kitobi"), Djonstoun.

1-reja bayoni. Missionerlik va prozelitizm tushunchasining mohiyati va rivojlanish bosqichlari. Xristian dini missionerligi va islom dini missionerligi.

Missionerlik haqida gap ketar ekan, avvalo ushbu tushunchaning lug'aviy va istilohiy ma'nolarini tushunib olish muhim ahamiyatga egaligini alohida qayd etish lozim.

Ushbu so'z lotin tilidagi «missio» fe'lidano'lingan bo'lib, «yuborish», «vazifa topshirish», missioner esa "vazifani bajaruvchi" degan ma'nolarni anglatadi. Missionerlik esa belgilangan vazifalarni hal qilishga qaratilgan nazariy va amaliy faoliyat majmuini bildiradi. Turli lug'atlar va manbalarda missionerlikka ko'plab ta'riflar berilgan. Ularning deyarli barchasida missionerlikka xos xususiyatlar tavsiflanishi barobarida, bu so'z asosan xristian dini bilan bog'lanadi. Jumladan, har yili qayta nashr etiladigan «World Book» ("Jahon kitobi") ensiklopediyasida "Missioner biror diniy guruh tomonidan boshqalarni o'z diniga targ'ib qilish va kiritish uchun yuborilgan inson",- degan fikr qayd etilgan. 2005 yilda Moskvada nashr etilgan "Kirill va Mefodiyning katta ensiklopediyasi"da esa «Missionerlik biror diniy birlashma vakillarining o'z e'tiqodini boshqa din vakillari orasida yoyish harakati»,-degan ta'rif keltirilgan. Umuman olganda, turli lug'atlar va manbalarda bayon etilgan ta'riflar bib-biriga juda yaqin va o'xshash bo'lib, ularga tayangan holda quyidagi xulosani chiqarish mumkin: missionerlik - bir dinga e'tiqod qiluvchi xalqlar orasida boshqa bir dinni targ'ib qilishni anglatadi.

Prozelitizm - bu to'g'ridan-to'g'ri biron bir dinga ishongan fuqaroni o'z dinidan voz kechishga va o'zga dinni qabul qilishga majbur qilishdan iboratdir. Missionerlarning bugungi kundagi faoliyati hech bir mintaqaga, hech bir davlat bunday tahdiddan holi emasligini ko'rsatadi. Bunday holatlarning oldini olish uchun esa missionerlikning mohiyatini to'g'ri va chuqurroq anglash, uni bartaraf etish yo'lida maqsadli, tizimli va tadriijiy faoliyat olib borish zarur bo'ladi .

Bugungi kunda faol missionerlik bilan turli yo'nalishdagi tashkilotlar shug'ullanayotgan ekan, bunday harakatlarning g'oyaviy-aqidaviy asoslarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Masalan, xristianlar "Missionerlik har bir dindor uchun shart",-deb hisoblaydilar. Bunday

fikrlarning asosi va manbaini «Injil»dan topish mumkin. Jumladan, «Injil»da Iso Masihning o'ziga 12 havoriyni tanlab olishi va ularni Isroilning qishloqlari bo'ylab da'vat qilish uchun yuborgani qayd etilgan. Bu haqda Markdan rivoyat qilingan «Injil»da «Iso shogirdlariga dedi: “Butun jahon bo'ylab yuringlar va hamma tirik jonga Injil Xushxabarini targ'ib qilinglar”, Mattodan rivoyat qilingan «Injil»da esa “...barcha xalqlardan shogird orttiringlar. Ularni Ota, O'g'il va Muqaddas Ruh nomi bilan cho'qintiringlar. Men sizlarga buyurgan hamma narsalarga amal qilishni ularga o'rgatinglar...”, -degan da'vatlarni o'qish mumkin. Shu o'rinda adolat yuzasidan bir fikrni alohida qayd etish lozim. Ko'pchilik hollarda muayyan dinda doirasida shakllangan u yoki bu ko'rsatmalar, aqidalar konkret tarixiy shart-sharoit bilan bog'liq bo'ladi va o'z davri uchun to'g'ri hisoblanadi. Vaqt, sharoit o'zgarishi bilan o'zining birlamchi ahamiyatini yo'qotgan bunday ko'rsatmalar o'sha davrdagi tarixiy vaziyatni tushunish va baholashda qimmatdorlik kasb etadi. «Injil»dan keltirilgan yuqoridagi so'zlar haqida ham shunday deyish mumkin. Zero, Iso Masih tomonidan qilingan bunday da'vatlar ko'p xudolilik o'rniga yakka xudolikni targ'ib qilish bilan bog'liq edi.

Bugungi kunda jahon aholisining mutlaq ko'pchiligi yakkaxudolikka asoslangan o'z dinlariga e'tiqod qiladi. Shunday ekan, qayd etilgan ko'rsatmalarni missionerlik bilan shug'ullanish uchun g'oyaviy asos qilib olish tarix haqiqatiga zid ekanini ta'kidlash zarur. Hozirgi davrga kelib missionerlik global ko'rinish oldi. Bunda XIX-XX asrlarda yuzaga kelgan ko'plab protestantlik oqimlari faol rol o'ynamoqda. Insoniyat tarixida XX asr yirik davlatlar tomonidan o'z ta'sir doiralarini kengaytirish uchun olib borilgan kurashlar davri bo'ldi. Bu jarayonda Osiyo va Afrika mamlakatlari asosiy kurash maydoniga aylandi.

Missionerlarning asosiy maqsadi ma'lum davlatlarda o'zlariga tarafdorlarni ko'proq yig'ish, ular orasida g'arbona, xristian hayotini targ'ib qilish va shu orqali jamiyatda xayrixoh bo'lgan guruhlarini shakllantirishdir. Ushbu maqsadga erishish uchun xristian missionerlari tomonidan ko'p yillik dasturlar ishlab chiqilgan. SHunday loyihalardan eng yirigi bu «**10/40 OYNA**» rejasidir. Rejaga binoan xristian missionerlari injillashtirish faoliyatida asosan shimoliy kenglikning 10 va janubiy uzunlikning 40-darajalari orasida joylashgan hududlarga alohida ahamiyat beradilar.

Ushbu xarita ham missionerlikdan energetik zahiralarni qo'lga kiritishdek geosiyosiy maqsadlarda foydalanilishi haqidagi xulosaning o'rinli ekanini ko'rsatadi. Uzoqni ko'zlab, g'arazli geosiyosiy maqsadlarga erishishni niyat qilgan kuchlar tomonidan ushbu hududga xos xususiyatlar juda ham chuqur o'rganib chiqilgan, bu haqda bir qator risolalar va missionerlar uchun qo'llanmalar ishlab chiqilgan. Ularning orasida «10/40 OYNA»ga kiruvchi mamlakatlarning o'ziga xos xususiyatlari, aholisining dini, turmush tarzi, missionerlik faoliyatini olib borishda nimalarga e'tibor berilishi lozimligi haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan Patrik Djonstounning «Dunyo operatsiyasi» risolasi alohida e'tiborga molik.

Qo'llanmada keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunda dunyodagi millat va elatlar soni 12 017 tani tashkil etadi. Ulardan 9 017 tasi to'laqonli faoliyat yuritadigan cherkovga ega, qolgan 3000 millat va elat bunday cherkovlarga ega emas. Djonstoun ularga ko'proq ahamiyat qaratish kerakligini, bu hududlardagi xristianlar islom, hinduiylik, buddaviylik dinlarning tazyiqlariga uchrayotganini ta'kidlaydi. Risolada dunyo bo'yicha eng ko'p tazyiqqa uchrayotgan cherkovlar joylashgan hududlar xaritasi ham keltirilgan.

2001 yilda chop etilgan “Butun dunyo xristian ensiklopediyasi”ga ilova tarzida 2002 yilda AQSHda, “Butun jahon xristianligi tendensiyasi” kitobi nashr etildi. Unda xristianlik 2025 yilgacha erishish lozim bo'lgan sakkiz asosiy maqsad sanab o'tilgan. Xususan, unda aytilishicha

- Er yuzi aholisining “Injil” bilan tanishtirilishi 73,1 foizdan 100 foizga etkazilishi;
- dunyo aholisi tarkibidagi xristianlarning ulushi 33 foizdan 40 foizga o‘sishi;
- xristianlarning 10 foizini tashkil qilgan missionerlarning ulushi 20 foizga ko‘tarilishi;
- xristianlar o‘z daromadlarining 1,8 foizini cherkov hisobiga o‘tkazib kelishgan bo‘lishsa, bu ko‘rsatkich 3 foizga etkazilishi;
- har 3000 kishiga 1 ta missioner to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich har 1000 kishiga 1 ta missionerni tashkil etishi;
- cherkov mavjud bo‘lmagan, aholisi 50 000 dan ortiq 116 ta shaharning barchasida cherkovlar yuzaga kelishi;
- cherkovlar tuzilmagan 1000 dan ortiq etnik guruhning har birida cherkovlar tashkil etilishi;
- yo umuman tarjima qilinmagan, yoki qisman tarjima qilingan barcha tillarga “Injil” tarjima qilinishi lozim.

Er sharining ushbu mintaqasi klassik geosiyosat nazdida ham asosiy va hal qiluvchi ahamiyatga ega. XIX asrdayoq taniqli geosiyosatchi A.Mexen jahon maydonida 30-40 paralellar orasidagi “qarama-qarshiliklar hududi”ni ajratib ko‘rsatgan. Ushbu hududlarda imperiyalarning manfaatlari to‘qnashadi. Zamonaviy geosiyosatchilar esa ushbu hududning aksariyat qismini “beqarorlik tuguni” deb atashadi.

2-reja bayoni. Xalqaro missionerlik tashkilotlari va ularning targ‘ibot usullari.

Missionerlik harakatini eng ko‘p olib boradiganlar, hozirgi kunda, bu «Iegov shohidlari» diniy tashkiloti vakillaridir. Ularning vakillarini jamoat joylarida, xiyobon va mahallalarda ochiqdan-ochiq missionerlik ruhidagi adabiyotlarini tarqatishlarini kuzatish mumkin.

Missionerlik bilan faol shug‘ullanuvchi «Iegov shohidlari» sektasida ta’sir etish mexanizmlari aniq va lo‘nda qilib ishlangan. Bu yo‘nalish 19-asrning 70-yillarida AQSHda vujudga kelgan. Bugungi kunda jahonning turli mamlakatlarida 100 ga yaqin bo‘linmalariga ega. Bu tashkilot qat’iy markazlashgan bo‘lib, uning boshqaruvchi raisi cheklanmagan hokimiyatga ega. YUqoridan pastga ko‘rsatmalar va adabiyotlar, pastdan yuqoriga hisobotlar yuborib turiladi. «Iegov shohidlari» o‘zining matbuot organiga ega. «Posbon minora», «Uyg‘on». Bu jurnallar jahon xalqlarining 160 dan ziyod tilida nashr qilinib, dunyoning turli burchaklarida tarqatiladi.

Ularning tarqatayotgan adabiyotlari didli, rangli va chiroyli manzaralar bilan tasvirlangan. «Jalb etuvchilar»ning ovoz ohanglari tinchlantiruvchi va mehrli sado etadi. Mutaxassislarning aytishicha, «Iegov shohidlari» sektasi a’zolari jalb etishning 86 xil usulidan foydalanar ekanlar.

Ular ko‘pincha quyidagi turdagi kishilarni o‘z ta’sir doiralariga olishga urinadilar.

- birinchi va to‘rtinchi kurs talabalari;
- keksalar ayniqsa, endigina nafaqaga chiqqanlar va yolg‘iz qariyalar;
- o‘z o‘rnini topishga intilayotgan o‘smirlar;
- kuchli stressni (kasallik, yaqin odamining vafoti, ajralish va x.k.) boshidan kechirayotganlar;
- qochoqlar va ishsizlar.

Yana bir missionerlik harakati bilan shug‘ullanayotgan diniy tashkilot «To‘liq injil xristian cherkovi»dir. Ular ba’zi ibodat uylarida o‘zbek tilida ibodatlarini olib bormoqdalar, moddiy yordam ko‘rsatish orqali o‘z dinlariga da’vat qilishga harakat qilmoqdalar.

Missionerlik faoliyatining eng cho‘qqisi bu prozelitizm. Prozelitizmi-bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri biron bir dinga ishongan fuqaroni majburan o‘z dinidan voz kechishi va o‘zga dinni qabul qilishga majbur qilishdan iborat.

Prozelitizm illatining ba’zi bir noxush natijalarini keltirish mumkin: bir qancha vaqt islom dinida yurib, keyin xristian dinini qabul qilgan kishilar vafot etganda, jasadlarini musulmon qarlariga qo‘yish muammo tug‘dirmoqda. Sababi, mayitning musulmon ota-onalari o‘z farzandlarini xristian mozoriga dafn etishni xohlamaydilar. Musulmonlar esa, xristian dini vakili jasadini o‘z musulmon birodarlari yotgan joyga ular uchun haqorat deb biladilar. Natijada kelishmovchiliklar kelib chiqadi.

Missionerlik qonun orqali ta’qib qilinib turiladi: O‘zbekiston Respublikasida vijdon erkinligi qonunan kafolatlangan. Har bir fuqaro xohlagan diniga e’tiqod qilishi mumkin. Davlat va diniy tashkilotlar bir-biridan ajratilgan. Shu bilan birga diniy konfessiyalar o‘rtasidagi tinchlik, totuvlik va daxlsizlikni ta’minlash maqsadida prozelitizm (bir diniy konfessiyadagi dindorlarni boshqasiga kiritishga qatilgan xatti-harakatlar) va har qanday missionerlik faoliyati qonunan man etilgan.

Ushbu qoidaning buzlishiga aybdor bo‘lgan shaxslar qonun oldida javobgarlikka tortiladilar.(Jinoyat kodeksining 216(1), 216(2) moddalari)

Aholining, xususan soha mutaxassislarining, missionerlik haqida ma’lumotga ega bo‘lishlari ularning burch va vazifalari sanaladi. Chunki yurtboshimiz ta’kidlaganidek: “Islom-bu ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz dini. Uni tashqi ta’sir, buzg‘unchi unsurlardan tozalash muqaddas burch sanaladi.”

Hozirgi kunda Markaziy Osiyoning bir qismini ham qamrab olgan ushbu hudud xristian missiyalarining asosiy harakat nuqtasiga aylangan. Missiyalar tomonidan ushbu hududlarni o‘zlashtirish uchun bir qator rejalar ishlab chiqilgan. “Tong - 2000” nomli missionerlik dasturining muallifi J. Montgomerining fikricha, xristianlik o‘z tarixida bir avlod hayot davrining o‘zida amalga oshirish uchun 700 dan ortiq Butunjahon injillashtirish rejalariga ega bo‘lgan.

Muayyan ijtimoiy guruhlarni tanlab olish va ular bilan maqsadli ishlash missionerlik strategiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Xususan, protestant missioneri R.Adler “Havoriy Pavlus davrida va hozirgi kunda missionerlik metodlari” kitobida yozishicha, Xitoyda “Qo‘llab-quvvatlash jamiyati” nomli missionerlik tashkiloti ziyolilar va mansabdor shaxslarni o‘ziga jalb qilish orqali muvaffaqiyatlarga erishgan.

«Dunyo operatsiyasi» kitobining muallifi, taniqli missioner P.Djonstoun esa, talabalarni missionerlik faoliyatining asosiy ob’ekti deb qarab, jumladan, shunday deydi: “Butun dunyoda universitet va kollejlarda 37 million talaba tahsil oladi. Ularning ko‘plari 20 yildan so‘ng yirik mansablarni egallashadi”. Darhaqiqat missionerlar o‘z faoliyatida talabalar va yoshlarga katta ahamiyat beradilar. Masalan, “Kechki Bishkek” tashkiloti tomonidan chiqarilgan axborotnoma va Qirg‘iziston xavfsizlik xizmati ma’lumotlariga ko‘ra, hozirda ayrim qirg‘iz yoshlaridan 15 mingi xristianlikni qabul qilgan. Qozog‘istonda ham ba’zi ma’lumotlarga ko‘ra, hozirgi kunga kelib 800 000 ga yaqin sobiq musulmon aholi protestantlikni qabul qilgan.

Missionerlik strategiyasining yana bir muhim tarkibiy qismi bu diniy tashkilotlar sonini oshirishga intilishdir. “DAWN” (“Kun chiqishi”) missionerlik harakati rahbari D.Montgommeri fikricha: “Cherkovlarni ko‘paytirish strategiyasi - xalqlarni masihiylikka o‘tkazishning eng to‘g‘ri yo‘lidir”.

Buning isbotini Qirg‘iziston hukumati xuzuridagi Din ishlari qo‘mitasining ma’lumotlarida ham ko‘rish mumkin. Unga ko‘ra, hozirgi kunda Qirg‘izistonda 216 protestant diniy tashkiloti,

shu jumladan, 20 ta xorijiy konfessiyalarning missiyalari faoliyat yuritmoqda. So‘nggi yillarda mamlakatga 830 ta missioner kelgan, ularning asosiy ulushi Janubiy Koreya, AQSH, Germaniya kabi davlatlardan kelgan da’vatchilarga to‘g‘ri keladi.

Missionerlar tomonidan “Mun izdoshlari”, “Greys cherkovi”, “Iso Masih cherkovi”, “Yangi Hayot”, “Sunn Bag‘im” kabi cherkovlar tuzilib, Ettinchi kun adventistlari, baptistlar, To‘liq injil xristianlari, Iegovo shohidlari cherkovlari ishi faollashtirilgan.

Missionerlar o‘z faoliyatlari orqasida siyosiy yoki iqtisodiy maqsadlar yotganini umuman tan olishmaydi. «10/40 Oyna» hududiga qiziqishlarini ular diniy nuqtai nazardan asoslashga urinadilar. Xususan, ularning fikrlaricha, ushbu hududda “Bibliya”dagi ko‘p voqealar sodir bo‘lgan. Xudo ilk insonlar Odam va Havvoni shu hududga tushirgani, Iso Masih tug‘ilib o‘tib, o‘z havoriylari bilan faoliyat olib borgani xamda ilk masihiy cherkovi shu erda paydo bo‘lgani haqidagi fikrlar shular jumlasidandir. Bu hudud quruqlikning 1/3 qismini tashkil qilishi, 4 milliard aholi istiqomat qilishi, dunyodagi eng kam injillashtirilgan 50 davlatning 37 tasi shu hududda joylashgani ham bu xalqlarga «Najot keltiruvchi Xushxabarni» etkazish zarurligiga “asos” sifatida keltiriladi.

Bu gaplar asl maqsadni yashirish uchun bir niqob, xolos. Aslida asosiy maqsad ushbu hududlardagi xalqlarni injillashtirish orqali ularning birdamligiga putur etkazish, ichki nizolarni keltirib chiqarish orqali ularning rivojlanishiga to‘sqinlik qilish va qaram etishdan iborat. Agar «masihiy» lardan biri yuqori davlat organlariga ishga kirsam nur ustiga a‘lo nur bo‘ladi.

Missionerlikka boyish yo‘llaridan biri sifatida qarovchilar ham talaygina ekanini ham qayd etish lozim. Ma‘lumki, ko‘pchilik protestant jamoalari o‘z a‘zolari daromadlarining muayyan qismini cherkov hisobiga o‘tkazishni talab qiladi. Ba‘zi cherkovlarda bu narsa majburiy bo‘lmasa, xayr-ehson qilish qattiq targ‘ib qilinadi. Tadrijiy va agressiv targ‘ibot olib borilishi natijasida kishilar “o‘z xohishlari bilan” bor budlarini cherkovga topshirishadi. Oddiy dindorlar, jumladan, yangi prozelitlar ham kamtarona, tashkilot rahbarlari esa hashamatli ofislarda o‘tirib shohona hayot kechirishadi.

Buning isboti sifatida quyidagi misolni keltirish mumkin. Yaqinda Rossiyada «Serkov Bogomateri» nomli sekta ustidan bo‘lib o‘tgan sud jarayonlarida ushbu sekta rahbarlari o‘z izdoshlaridan xudo yo‘lida xonadonlarini o‘z rahnamolariga xadya qilishga da’vat qilishgani va shu yo‘sinda bir necha fuqarolar o‘z kvartiralarini soxta rahbarlarga hadya qilib yuborishgani e‘lon qilindi.

Mamlakatimizdagi bir qator cherkovlarda ham xayr-ehson yig‘ish yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Cherkovlarga keladiganlar orasida o‘ziga to‘q odamlar juda kamchilikni tashkil qilsa-da har bir ishtirokchi eng kamida 3000-4000 so‘mdan xayriya qilishi tabiiy hol xisoblanadi.

Targ‘ibot usullari: Bugungi kunda missionerlar o‘z targ‘ibot faoliyatlarida yangi, zamonaviy usul va vositalardan, jumladan, zamonaviy tele, audio, video, radio va kompyuter texnologiyalaridan keng foydalanmoqdalar.

Missionerlar maqsadlarini amalga oshirishda turli xil uslublardan keng foydalanishadi.

Ma‘rifat tarqatish, tibbiy yordam ko‘rsatish, yoshlarni jalb qiladigan o‘quv markazlari tashkillashtirish, radio, televideniya va bolalar uchun mo‘ljallangan rasmlı jurnallar nashr etish ularning asosiy targ‘ibot yo‘nalishlari sanaladi.

Missionerlarning birgina oqimi sanalgan adventistlar bir yuz sakson to‘rt mamlakatda 22 000 dan ortiq cherkov, 5000 dan ortiq o‘quv markazlari, 50 ta nashriyot, 160 ta kasalxonaga ega. Bundan tashqari 170 dan ortiq tilda missionerlik adabiyotlarini chop etadilar.

Dunyodagi umumiy missionerlarning 2/3 qismini katolik missionerlari tashkil etadi. Katoliklik va protestantlikda missionerlik bilan shug‘ullanish har bir masihiyning burchi darajasiga ko‘tarilgan.

Shuningdek, missionerlar o‘zlari faoliyat yuritmoqchi bo‘lgan hudud aholisi diniy e‘tiqodi, ularning ijtimoiy muammolari haqida ma‘lumot olishlari uchun o‘z tadqiqot markazlariga ham egalar.

Missionerlar bugungi kunda xohlagan tilda va adadda o‘z diniy adabiyotlarini chop eta olishlari mumkinligi ham ularning imkoniyatlari naqadar keng va kuchli ekanini ko‘rsatadi.

Ular har bir Yurtning tub aholisi uchun, o‘sha xalqning sonidan ham ziyod tirajda kitob chiqarishlariga guvoh bo‘lishimiz mumkin.

Misol tariqasida keltiradigan bo‘lsak, rus tilida chop etilgan “Injil” kitobi bir chop etilishda 164 mln nus‘hada nashr etilgan.

O‘zbek tilidagi missionerlikka targ‘ib qiluvchi kitobcha esa, bir chop etilishda 50 mln.dan ko‘p nus‘hada nashr etilgan. Buni O‘zbekiston aholisi soniga nisbatan olib qarasak, hali tug‘ilmagan farzandlar uchun ham kitoblar nashrdan chiqarilib, tayyor holga keltirilgan deyish mumkin.

Uyma-uy yurib «Xushxabar» etkazish, ya‘ni odamlar bilan kunning dolzarb muammolari haqida suhbatlashish, ularning dardlariga qiziqish bildirish va ushbu muammolardan chiqish yo‘llarini ko‘rsatib berishni taklif qilib, o‘z tashkilotlariga jalb qilish missionerlikdagi yaxshi samara beradigan usullardan biri hisoblanadi. Ushbu usuldan faol foydalayotgan “Iegovo shohidlari” oqimi a‘zolari, o‘zlarini Iso Masih o‘z havoriylariga buyurgan yo‘ldan foydalanayotganlarini ta’kidlashadi.

Missionerlikda **mahalliy tillarda xristianlikni targ‘ib qiluvchi adabiyotlarni chop qilish va tarqatish** ham eng ko‘p qo‘llaniladigan usullardan biri hisoblanadi. Kichik hajmdagi qo‘llanmalar juda ham ta’sirchan qilib yoziladi va odamlarning e’tiborini jalb qilish uchun chiroyli suratlariga boy bo‘ladi. Ularda dinni qabul qilish ochiq-oydin taklif qilinmaydi. Ammo adabiyot oxirida qo‘shimcha ma‘lumot olish uchun tashkilot manzili yoki telefoni keltiriladiki, risolani o‘qigan va diniy bilmi sayoz bo‘lgan inson bu narsaga uchishi mumkin. Masalan, «Iegovo shohidlari» tashkiloti tomonidan tarqatilgan kitobchalarning birida shunday yozilgan: *“Albatta, Iehovo shohidlarining butun ta’limotini ushbu kichik kitobda qamrab olishning iloji yo‘q, lekin biz sizga qo‘shimcha ma‘lumotga ega bo‘lishingiz uchun turar joyingizda istiqomat qiluvchi Iehovaning shohidlariga murojaat qilishingizni taklif etamiz”*.

Yuzaki qaraganda, bunday usul yaxshi natija bermaydigandek tuyuladi. Aslidachi? Ma‘lumotlarga ko‘ra, 200 dan ortiq mamlakatda To‘liq Injil xristianlariga qarashli 120 dan ortiq Bibliya jamiyatlari faoliyat yuritadi. Ushbu oqimga kirgan yangi vakillarning yarmidan ko‘pi dinni qabul qilishlarini xristian adabiyotlari ta’siri bilan bog‘lashlari esa yuqoridagi uslubning nechog‘lik samarali ekanini ko‘rsatadi.

Adabiyotlarni olib kirish va tarqatish ko‘pincha mavjud qonunlarga zid ravishda amalga oshiriladi. Masalan, Tojikistonda protestant diniy adabiyotlarini tarqatish bilan Ukrainadan kelgan “Din so‘zi” nomli tashkilot shug‘ullanadi. Ushbu tashkilot Tojikistonda Bibliya yilini e‘lon qilgani va har bir protestantga kamida bitta boshqa din vakilini Bibliya bilan tanishtirishni vazifa qilib qo‘ygani bu yo‘ldagi harakatlar aniq maqsadlarga qaratilgan holda tashkil etilayotganini ko‘rsatadi.

Xayriya yordamlari ko‘rsatish ham missionerlikdagi eng qadimiy va samarali usullardan biri hisoblanadi. Bunda turli xil ma’rifiy tadbirlar uyushtirilib, ularga asosan yoshlar jalb etiladi.

Ishtirokchilarga xristian adabiyotlarini ham o'z ichiga olgan sovg'alar ulashiladi, tadbir so'ngida albatta ibodat va Bibliya o'qish ham bo'ladi. Zilzila, toshqin, ocharchilik kabi ofatlarning sodir bo'lishi missionerlar uchun ayni muddao hisoblanadi. Qaerda yuqoridagidek holatlar yuz bersa o'sha erga birinchi bo'lib missionerlar etib borishadi. Dastlab ular o'zlarini beg'araz yordam ko'rsatayotganlarini ko'z-ko'z qilib, asta-sekin asl maqsadlarini ko'rsatadilar. Aslida **missionerlar hech qachon, hech kimga beg'araz yordam ko'rsatmaganlari va ko'rsatmasliklarini ham unutmazlik lozim**. Bunga dalil sifatida quyidagi misolni keltirishimiz mumkin. 2003 yilda Qirg'iziston bosh vaziri bilan uchrashuv chog'ida, AQSH ning YUTA shtati delegatsiyasi rahbari Rassel Nelson o'z shtatidan Qirg'izistonga insonparvarlik yordamining ko'paytirilishi Qirg'iziston xududida Mormon cherkovi faoliyatining nechog'liq tez qonuniylashtirish bilan bog'liq ekanini qayd qilgan. Rossiya Federatsiyasining Federal Xavfsizlik Xizmati ma'lumotlariga ko'ra, Mormon cherkovlari rahbariyati NATOga kiruvchi mamlakatlar maxsus xizmatlari vakillaridan iboratdir. Ularning bunday tadbirlarni tez-tez o'tkazishga urinishlari, jamiyat ongida ularning ijobiy **imidji** shakllanishi va o'zaro munosabatlarning, shuningdek, mahalliy xokimiyat vakillari bilan ham yaxshilanishiga olib keladi.

Tibbiy va ta'lim-tarbiya sohalariga maxsus kadrlarni yuborish ham eng qadimiy usullardan biridir. Hozirgi kunda bir qator missioner jamoalar ushbu usuldan samarali foydalanishmoqda. Jumladan, ma'lumotlarga ko'ra "Ettinchi kun Adventistlari" jamoasi dunyoning turli chekkalarida 200 dan ortiq bepul shifoxonalarga ega. "Ruhiy tiklanish" missionerlik assotsiatsiyasining ma'lumot byulletenlarida bayon qilingan, mintaqaviy missioner markazlarni rivojlantirish konsepsiyasida tibbiy missiyalarning asosiy vazifasi: "Yangi cherkovlarni tuzish va evangallashtirish", deb belgilanganini qayd etish lozim. Misol uchun, 2002 yilda Tojikistonning So'g'd viloyatiga Janubiy Koreyadan xirurglar, terapevtlar va pediater vrachlar guruhi tashrif buyurdi. 2003 yil iyulida esa xuddi shunday tashrif bilan endi Chkalovsk shahriga yana sakkizta missioner vrachlar kelishgan.

Missionerlarning yoshlar bilan ishlashda bir necha usullari mavjud: talabalar, bolalar uchun missiyalar, yozgi oromgohlar shular jumlasidandir. Hozirgi kunda "Xalqaro xristian oromgohlari" assotsiatsiyasiga MDH ning 7 mamlakatida 177 oromgoh a'zo bo'lgan. Ushbu oromgohlar dasturi shunday ishlab chiqilganki, mavsum oxiriga borib u erda dam olgan bola xristianlikni qabul qiladi.

Hozirgi kunda missionerlik tashkilotlari xristianlikni targ'ib qilishda **audio, video va elektron mahsulotlar, ro'znoma va oynomalar, teledasturlar, internetda onlayn o'quv kurslari** tashkil etish yo'llaridan ham faol foydalanmoqda. Jumladan, missionerlik mazmunidagi kassetalar ishlab chiqarish va tarqatish bilan shug'ullanuvchi ko'p sonli xalqaro agentliklar faoliyat yuritmoqda. Ushbu yo'nalishdagi eng yirik tashkilot- Global Recordings bo'lib, u 21 milliy agentlikni birlashtiradi va hozirgi kunga kelib 4562 til va lahjada mahsulot ishlab chiqarmoqda.

Yevropa va Amerika qit'alarida missioner da'vatchilar mashhurlilik borasida shou-biznes va kinosanoat yulduzlaridan qolishmaydi. Ma'lum bo'lishicha, televidenie orqali da'vat qilishdan eng ko'p Adventistlar va To'liq Injil Xristianlari jamoalari foydalanishadi.

MDH hududida ham bir qator missionerlik dasturlari efirga uzatilmoqda. Jumladan, Rossiyaning "TV-3" kanali orqali butun MDH ga uzatiladigan «Kennet Kouplend missiyasi»ga qarashli "Iymonli kishining baralla ovozi" dasturi, bundan tashqari Pyatidesyatnik yo'nalishiga tegishli "CNL", "ICB" kabi telekanallar Injilni targ'ib qilish bilan shug'ullanadi.

Internet tarmog'ida ham missioner tashkilotlar o'z sahifalariga ega. berilgan. Ushbu saytlarda missionerlarga turli maslahatlar, jumladan musulmonlarni protestantlikka o'tkazish haqida tegishli ko'rsatmalar va missiologiya bo'yicha o'quv kurslari berib boriladi.

Din milliy ma'naviyatning tarkibiy qismi, millatni birlashtirib turuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Bir tilda gaplashadigan, umumiy tarix va yagona davlatga ega bo'lgan, ammo turli dinlarga yoki diniy yo'nalishlarga e'tiqod qiladigan millatlar hamon ichki milliy birlikni ta'minlay olmayotgani, kichkina bir sabab qayta-qayta nizoli vaziyatlar va fuqarolar urushining kelib chiqishiga zamin yaratayotgani va mamlakatlar o'z taraqqiyotida o'nlab yillarga orqada qolib ketayotgani ham shunday xulosa chiqarish imkonini beradi.

Livan aholisining 90 foizdan ortig'ini arablar tashkil etadi. Rasmiy til arab tili hisoblanadi. Ammo livanliklarning bir qismi islomga (suniy, shia, druz), qolgan qismi xristianlikka (maroniy, pravoslav, katolik) e'tiqod qilishi natijasida milliy birlikni ta'minlash qiyin kechmoqda. Mamlakatning amaldagi qonunchiligida davlat boshqaruv idoralarining diniy belgilar asosida shakllantirilishi mustahkamlab qo'yilgani esa, ko'pgina hollarda xilma-xil omillar ta'sirida uning to'laqonli faoliyatiga to'siq bo'lmoqda. Musulmonlar va xristianlar o'rtasida vaqti-vaqti bilan kelib chiqayotgan fuqarolar urushi esa bu birlikni ta'minlashni yanada mushkullashtirayotgani fikrimizning isboti bo'la oladi.

Turli millat va din vakillari istiqomat qilib kelgan YUgoslaviyaning Serbiya, Sloveniya, Xorvatiya, Makedoniya, CHernogoriya, Bosniya va Gersegovina kabi davlatlarga parchalanib ketgani ham etnokonfessional ziddiyatlar qanday og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkinligining hayotiy-amaliy ifodasidir.

Masalaning ana shu jihatiga e'tibor berilsa, missionerlik harakatlari ortida diniy zaminda millatni ichidan bo'lib tashlashga qaratilgan g'arazli siyosiy maqsadlar yotganini va u keltirib chiqaradigan fojialarni anglab etish mumkin.

Bu, missionerlar o'z oldilariga qo'ygan maqsadlarga erishadigan bo'lsalar ular faoliyat olib borayotgan mamlakatda ham xalqning parokandalikka yuz tutishi va ma'naviy tanazzulning kelib chiqishi mumkinligi haqida xulosa chiqarish imkonini beradi.

Missionerlarning bugungi kundagi faoliyati hech bir mintaq, hech bir davlat bunday tahdiddan holi emasligini ko'rsatadi. Bunday holatlarning oldini olish uchun esa missionerlikning mohiyatini to'g'ri va chuqurroq anglash, uni bartaraf etish yo'lida maqsadli, tizimli va tadrijiy faoliyat olib borish zarur bo'ladi.

3-reja bayoni. Missionerlik va prozelitizmning targ'ibotini bartaraf etish bo'yicha olib borilayotgan faoliyat dinamikasi.

O'zbekistonda mustaqillikning ilk yillaridanoq missionerlik va prozelitizmning salbiy oqibatlariga olib kelishini hisobga olgan holda bu borada tegishli qonuniy asoslar ishlab chiqildi. Qonunlarda missionerlik harakatlari taqiqlandi.

Ma'lumki, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonun (yangi tahriri) kishilarning vijdon erkinligini huquqiy kafolatlash bilan birga diniy tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirishga xizmat qiladigan hamda davlat va din munosabatlarini tartibga soladigan muhim hujjat hisoblanadi. Qonunga binoan «Bir diniy konfessiyadagi dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar (prozelitizm), shuningdek boshqa har qanday missionerlik faoliyati man etiladi. Ushbu qoidaning buzilishiga aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikka tortiladilar» (5-modda, 3-band).

Mazkur moddadan kelib chiqib, «O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi»ga noqonuniy diniy xatti-harakatlarning oldini olish bilan bog‘liq bir qator moddalar kiritilgan. Jumladan:

- diniy mazmundagi materiallarni tarqatish maqsadida qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish yoki tarqatish;
- diniy yig‘ilishlar, ko‘cha yurishlari va boshqa diniy marosimlar o‘tkazish qoidalarini buzish;
- O‘zbekiston Respublikasida g‘ayriqonuniy nodavlat notijorat tashkilotlari, oqimlar, sektalar faoliyatida qatnashishga undash;
- nolegal diniy faoliyat bilan shug‘ullanish;
- diniy tashkilotlar rahbarlarining mazkur tashkilotlar ustavini ro‘yxatdan o‘tkazishdan bosh tortishi;
- dindorlar va diniy tashkilotlar a‘zolari tomonidan bolalar va o‘smirlarning maxsus yig‘ilishlari, shuningdek diniy marosimga aloqasi bo‘lmagan mehnat, adabiyot va boshqa xildagi to‘garaklar hamda guruhlarini tashkil etish va o‘tkazish;
- bir konfessiyaga mansub dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar (prozelitizm) va boshqa missionerlik faoliyati;

- maxsus diniy ma‘lumoti bo‘lmay turib va diniy tashkilot boshqaruvi markaziy organining ruxsatisiz diniy ta‘limotdan saboq berish, xuddi shuningdek xususiy tartibda diniy ta‘limotdan saboq berish bilan bog‘liq harakatlar sodir etilganda belgilangan eng kam ish haqining tegishli miqdoridagi jarima solinishiga yoki belgilangan muddatga ma‘muriy qamoqqa olishga sabab bo‘lishi haqidagi qoidalar mustahkamlab qo‘yilganini ta‘kidlash zarur.

Amaldagi qonunchiligimizga ko‘ra, muayyan hollarda birinchi marta qonunni buzgan shaxs yoki tashkilotga ma‘muriy jazo qo‘llaniladi. Agarda o‘sha shaxs yoki tashkilot shundan keyin ham qonunni buzishda davom etsa, unga endi jinoyat kodeksidagi choralar qo‘llaniladi. Masalan, «O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi» normalariga ko‘ra, «O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi»ning yuqorida qayd etilgan bandlaridagi harakatlar ma‘muriy jazo qo‘llangandan keyin yana sodir etilsa, bu «O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi»da belgilanganidan ko‘ra og‘irroq jazolar qo‘llanishiga olib keladi.

Shu bilan birga, «O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi»da «O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi»da nazarda tutilmagan bir qator harakatlar uchun ham jazolar belgilanganini qayd etish zarur. Jumladan:

- voyaga etmagan bolalarni diniy tashkilotlarga jalb etish;
- voyaga etmagan bolalarni ularning ixtiyoriga, ota-onalari yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar ixtiyoriga zid tarzda dinga o‘qitish;
- dindorlardan majburiy yig‘im undirish va soliq olish;
- diniy ta‘lim olishda hamda fuqaro dinga nisbatan, dinga e‘tiqod qilish yoki e‘tiqod qilmaslikka nisbatan, ibodat qilishda, diniy rasm-rusumlar va marosimlarda qatnashish yoki qatnashmaslikka nisbatan o‘z munosabatini belgilayotgan paytda majburlash bilan bog‘liq diniy faoliyat yuritish;
- g‘ayriqonuniy jamoat birlashmalari yoki diniy tashkilotlarni qonunga xilof ravishda tuzish yoki ularning faoliyatini tiklash;
- g‘ayriqonuniy jamoat birlashmalari yoki tashkilotlari faoliyatida faol qatnashish bilan bog‘liq harakatlar belgilangan eng kam ish haqining tegishli miqdorida jarima solinishiga yoki

belgilangan muddatga axloq tuzatish ishlari, yoki qamoq yohud ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi belgilab qo'yilgan.

Mamlakatimizda missionerlik va prozelitizmning oldini olish, ayniqsa yoshlarni bunday zararli oqimlar domiga tushib qolishlarining oldini olish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirishni taqozo qilmoqda. Bu vazifani muvaffaqiyatli hal etishda yosh avlodni hozirgi davrda mamlakatimizda din sohasida sodir bo'layotgan o'zgarishlar, yaratilgan imkoniyatlar bilan muntazam asosda tanishtirib borish muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, qiziqishlari, bilim darajalarini inobatga olgan va differensial yondashgan holda yoshlarning din, shu jumladan, xalqimiz asrlar davomida e'tiqod qilib kelgan islom dini haqidagi bilimlarni va milliy-diniy an'analar asoslarini sog'lom asosda egallashlariga ko'maklashish ham bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Bunday bilimlar ob'ektiv bo'lishi, voqelikni to'g'ri va to'liq aks ettirishi va o'z mohiyatiga ko'ra, Vatan va millat manfaatlari bilan uzviy bog'liq bo'lmog'i kerak. Yoshlarimizning missionerlikning mohiyati haqida xolis va etarli bilimga ega bo'lishlari unga qarshi immunitetni shakllantirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Mustaqil respublikamizdagi ayrim oilalarning, xususan, yoshlarning ota-bobalarimizning muqaddas islom dinidan voz kechib, xristian missionerlari domiga ilinayotganini inobatga olsak, bu faoliyat tinch-totuv yashayotgan xalqimiz o'rtasiga solinayotgan rahna-adovat ekani kunday ravshan bo'lib qoladi.

Missionerlik ta'siriga tushib qolmaslik uchun ham uni bilishimiz, u haqida ma'lumotga ega bo'lishimiz lozim ekan.

Birinchidan, xushyor bo'lishimiz, loqaydlikka berilmasligimiz kerak bo'ladi, chunki "Vatan", "millat", "imon-e'tiqod" bu muqaddas tushunchalardir. Uni hech narsaga almashtirib bo'lmaydi.

Ikkinchidan, har bir inson biror narsa haqida to'g'ri tushunchaga ega bo'lishi darkor. Hech kimning biror narsani, hatto dinni ham noto'g'ri, yanglish va bo'yab talqin qilishga xaqqi yo'q va bo'lmasligi kerak.

Uchinchidan va eng muhimi musulmonlar uchun nima kerak va muhim va nojoiz va kerak emasligini yana bir eslatib qo'yish lozim bo'ladi.

Mamlakatimizdagi diniy bag'rikenglik muhitini yanada mustahkamlash va missionerlikning oldini olish har birimizdan ijtimoiy faollik va fidoyilikni talab qiladi.

Darhaqiqat, shunday. Respublikamizda konfessiyalararo tortuvlik va bag'rikenglik ustunvor qilmoqda. Har bir fuqaromizning missionerlikning mohiyatini chuqur anglab etishi, befarqlik va loqaydlikka yo'l qo'ymagan holda, uning oldini olish bo'yicha ishlarda faol ishtirok etish ana shu barqarorlik muhitini saqlab qolish va yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Befarqlik ijtimoiy illat sifatida og'ir oqibatlarini keltirib chiqarishi hayotiy tajribadan ma'lum. Mashhur faylasuflardan biri befarqlik oqibatlariga to'xtalib shunday deb yozgan edi: "Dushmanlardan qo'rqma – nari borsa, ular seni o'ldirishi mumkin. Do'stlardan qo'rqma – nari borsa, ular senga xiyonat qilishi mumkin. Befarq odamlardan qo'rq – ular seni o'ldirmaydi ham, sotmaydi ham, faqat ularning jim va beparvo qarab turishi tufayli er yuzida xiyonat va qotilliklar sodir bo'laveradi".

Har bir kishida xalqimizning ertangi kuni, jamiyatimiz istiqboli va Vatanimiz taqdiri uchun daxldorlik tuyg'usini, o'z bilim va malakasi, irodasi va qudratini el – yurt manfaatlari, uning birligi va taraqqiyoti yo'lida safarbar etishda namoyon bo'ladigan fidoyilikni tarbiyalashda hayotiy – amaliy ahamiyat kasb etadi. Yurtboshimiz so'zlari bilan aytganda, "... har kuni, har

soatda fidoyi bo'lish, o'zini tomchi va tomchi, zarrama – zarra buyuk maqsadlar sari charchamay, toliqmay tinimsiz safarbar etib borish, bu fazilatni doimiy, kundalik faoliyat mezoniga aylantirish" gina ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotni ta'minlashimizga mustahkam zamin yaratadi.

Tahlillar hech bir mintaqa, hech bir davlat bunday tahdiddan xoli emasligini ko'rsatadi. Bunday holatlarning oldini olish uchun esa missionerlikning mohiyatini to'g'ri va chuqurroq anglash, uni bartaraf etish yo'lida maqsadli, tizimli va tadrijiy faoliyat olib borish zarur bo'ladi. Egallangan bilimlar qanchalik xolis va chuqur bo'lsa, uning zamirida yuzaga keladigan baholar, qadriyatlar ham shunchalik mustahkam bo'ladi. Shakllangan qadriyatlar tizimi esa turli tahdidlarning oldini olishga xizmat qiladi.

4-reja bayoni. O'zbekistonda faoliyati kuzatilgan missionerlik harakatlari va ular faoliyatining oqibatlari.

Globalashuv sharoitida mafkura poligonlarida inson qalbi va ongini zabt etishga bo'lgan harakatlar tobora kuchaymoqda. Zero, global miqyosda g'oyaviy - mafkuraviy tahdid sifatida namoyon bo'layotgan missionerlikning kuchayishi dunyo jamoatchiligi ongi, ruhiyati va ma'naviyatiga jiddiy ta'sir o'tkazmoqda. Bu haqda fikr yuritganda **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev qayd etganidek: "Barchamizga yaxshi ma'lumki, hozirgi kunda dunyo shiddat bilan o'zgarmoqda. Insoniyatning taqdiri va kelajagiga tahdid solayotgan xavf-xatarlar tobora kuchayib bormoqda"**, -deya ta'kidlagani bejiz emas. Zero, bugungi kunda missionerlik zamirida taraqqiyot sari intilayotgan mamlakatlarning davlat suvereniteti, konstitusion tuzumga qilinayotgan tajovuzlarni mafkuraviy qo'llab quvvatlash, mafkura poligonlarida olib borilayotgan kurash uchun juda katta sarmoyalarni safarbar etishayotganligi kuzatish mumkin.

O'zbekiston hududida missionerlik harakati qonunan ta'qiqlangan. Chunki bu harakat, asosiy aholisi musulmon bo'lgan xalqimizning parokandaligiga va yurtimizda nizolar chiqishiga sabab bo'ladi.

Ko'pgina ogohlantirish va ma'muriy choralar ko'rilishiga qaramasdan, ular yurtimizda o'zlarining missionerlik faoliyatlarini olib borishga intilishmoqda.

"Yakshanba kunlari o'zbek tilida ma'ruzalar o'qish, qo'shimcha "Bibliya" o'qish darslari tashkil qilish, "xosil yig'ish kuni" deb ataladigan va har bir a'zo cherkovga yangi odam olib kelishini rag'batlantirishga qaratilgan amaliyotlar" shular jumlasidandir.

Missionerlar kishilarni o'z saflariga jalb qilish uslublari, ular avvalo vaziyatni, kishilarni va ularning ko'ngliga yo'l topishni yaxshilab o'rganadilar. Keyin esa asta-sekin insoniy yordam, tibbiy xizmat, xayru ehsonga o'xshash narsalardan gap ochadilar. Qo'lidan ish keladiganlarga "sovg'alar" uyushtiradilar.

Asta-sekin u yer-bu yerdan odamlarni to'plash boshlanadi, oddiy suhbat, choy ichish, videofilm ko'rish, kichkinagina sovg'a va sovg'aga qo'shib, suhbatdoshning ona tilidagi missionerning dini haqidagi kitob beriladi.

Kitobning so'ngida albatta, tushunmay qolganda so'rab-surishtirish uchun telefon raqami yoki manzil ko'rsatilgan bo'ladi.[3]

Yangi a'zolarga "do'stona maslahat"lar ham beriladi: "Yangi dinga yangi a'zo bo'lgan kishi ko'proq savob topishi kerak, – buning eng oson yo'li – oila a'zolarini, yaqin kishilaringni dinimizga chaqirishing", "Agar har hafta bittadan yangi odam olib kelsang, savobning tagida qolasan. Ko'chada yurganingda ham bekor yurma, o'zing bilan mana bu kitobchalardan olib yur",

“Odamlar gavjum bo‘ladigan do‘kon, bekatga o‘xshash joylarga bitta-bitta tashlab qo‘y. Odamlarning ulariga – ostonasidan ichkariga tashlab qo‘ysang, yana ham yaxshi bo‘ladi”.

Natija esa, ayon. O‘zimizdan chiqqan iymonfurushlar o‘z xalqini buzishga, Ona Vatanini zaiflashtirishga va unda yangi front ochishga jon-jahdi bilan harakat qiladi.

Missionerlik faoliyati mafkuramiz uchun shunchaki yot unsur bo‘lib qolmay, balki ma‘naviyatimiz rivoji uchun ham katta to‘siq sanaladi.

Ularning maqsadlari — o‘z safdoshlarini ko‘paytirish orqali, qabih rejalarini amalga oshirish. Bu esa o‘z o‘rnida jamiyat hayotida notinchlik, beqarorlik va parokandalikni keltirib chiqaradi.

Bundan esa mana shu zaminda yashayotgan har bir fuqoro, u kim bo‘lishidan yoki qanday dinga e‘tiqod qilishidan qat’iy nazar ogoh bo‘lishi va bunga yo‘l qo‘ymasligi lozim. Chunki buning zamirida barchamiz uchun birdek muhim bo‘lgan “tinchlik” masalasi turadi.

Yuqoridagi mulohazalar zamonaviy missionerlik geosiyosiy maqsadlarga erishish, u yoki bu mintaqaga ta’sir o‘tkazishning o‘ziga xos vositasi va nihoyat, serdaromad sohaga aylanib qolgani haqida xulosa chiqarish imkonini beradi.

Jamiyat taraqqiy etib, yuksalib borgan sari missionerlik ham unga mos ravishda zamonaviy fan-texnika va texnologiyalardan ustalik bilan foydalangan holda o‘z uslub va vositalarini takomillashtirib bormoqda.

5-reja bayoni. Missionerlik va prozelitizmning ma‘naviy barqarorlikka tahdidi hamda uni oldini olishning mexanizmlari.

Bugungi kunda missionerlik va prozelitizm g‘oyasi tinchlik va barqarorlik, millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglikka bevosita tahdid ko‘rsatayotgan xatarli g‘oyalardan biriga aylanmoqda. Din, e‘tiqod masalasi insoniyat hayotida doimiy muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo undagi muammo shundan iboratki, din targ‘iboti ijobiy yoki salbiy maqsadlarga qaratilib, ma‘lum bir dinning yoyilishi, insonlarning ongiga singdirilishida missionerlar alohida o‘rin tutishi mumkin.

Hozirgi kunda missionerlik harakati fuqarolar o‘rtasida ijtimoiy munosabatlarning keskinlashuviga olib kelib, ular o‘z tashkiliy asoslarini yaratishda asosan nashriyotlar, xayriya, tibbiy yordam ko‘rsatish va nodavlat, notijorat tashkilotlari maqomidan foydalanib, ba’zi tashkilotlar tibbiy uyushmalar niqobi ostida faoliyat yuritmoqda va odatdagidek missionerlar qarorgohi hududida cherkov, kichik butxona yoki masjid, missioner-monaxlar yotoqxonasi joylashgan bo‘lib chiqmoqda.

Missionerlarning ko‘zlagan maqsadlari faqat siyosiy bo‘lib, bugunda demokratiyaga oid oddiy bir misol bo‘lib ko‘rinayotgan harakatlarining tagida ertangi kunga mo‘ljallangan, juda katta siyosiy nayranglar yotibdi va bu nayranglar quyidagi yovuz maqsadlarda yashiringandir. Birinchidan, an‘anaviy musulmon bo‘lib kelgan, mafkurasi, urf-odati, butun boshli ma‘naviy tarixiy ildizi bir xil bo‘lgan (aslida, mamlakatimizni kuch-qudrati ham shunda!) xalqimizning yuragini parchalab zaiflashtirish va parokanda qilish hamda turli-tuman siyosiy va iqtisodiy bosimlar bilan o‘z holimizcha yashashga yo‘l qo‘ymaslik.

Ikkinchidan, yurtimizni doimiy nizo maydoniga aylantirib, uni hal qilishda o‘zlariga muhtoj qilib qo‘yish. Uchinchidan, iloji boricha, ba’zi hududlarga alohida ahamiyat berib, u yerlarda o‘zlariga ergashganlar sonini ko‘paytirib, kelajakda go‘yo ularning xohish-irodasi va kayfiyatlari sifatida bo‘linish (separatistik) g‘alayonlarni chiqarish va oqibatda mamlakatni parchalab tashlash. To‘rtinchidan, “Inson huquqlarini himoya qilish”, “Vijdon erkinligini

ta'minlash" kabi sirtidan chiroyli shiorlar niqobi ostida oddiy sud-prokuratura organlaridan tortib to davlat rahbari ishlarigacha aralashish va mustaqil davlat boshqaruviga yo'l qo'ymaslik. Beshinchidan, jamiyatni doimiy bezovta qilib turish orqali boshqaruvda asabiy bir vaziyatni vujudga keltirish; turli-tuman matbuot organlari va nodavlat tashkilotlar vositasida tashviqot yuritib, o'zlarini go'yo xalqning himoyachisi qilib ko'rsatish va xalq "dardi"ni aytib, davlatga qarshi gij-gijlash, davlatni esa bu qutqularni bostirish uchun keskin choralar ko'rishga majburlash va mana shu yo'l bilan xalq va davlat orasiga o'zaro ishonchsizlik ruhini singdirish.

Ko'rib turibmizki, missionerlar amalga oshirayotgan ishlar dinga, diniy da'vatga hech qanday aloqasi bo'lmay, balki bir mamlakatni o'zlarining siyosiy tizginlariga solib olish uchun rejalashtirilgan nayrang uslublaridir.

Muammo nafaqat diniy, balki siyosiy kuchsizlantirishga qaratilganligi bilan xavfli va tashvishlidir. Chunki natija bevosita mamlakat xavfsizligiga daxldor bo'lib, ularning qilmishlari shu nuqtai nazardan baholanishi va chora-tadbirlar ham shunga ko'ra belgilanishi lozim. Aks holda, biz kelajak avlod uchun kuchli, ozod va obod Vatanni emas, balki xalqining ruhi-dili bir-biriga begona va shu bois qator muammolar girdobiga g'arq bo'lib, parokandalik, ma'naviy ziddiyatlar avj olgan, zaif va qaram bir o'lkani taqdim etishimiz ehtimoldan xoli emas!

Missionerlik va prozelitizm globallashuv jarayonida ma'naviy-mafkuraviy tahdid vositasi bo'lib, avvalo, jahondagi muayyan kuchlarning geopolitik maqsad va manfaatlariga yo'naltirilgan holda olib borilmoqda. Ikkinchi tomondan, xalqning milliy ma'naviyati, urf-odat va an'analari, milliy mentaliteti diniy ta'limot sifatida shakllangan bo'lib, missionerlik va prozelitizm xalqning milliy o'zligidan begonalashuviga, manqurtlashuviga, davlatning ichki hayotida milliy, diniy, ijtimoiy ziddiyatlarning chuqurlashuviga sababchi bo'ladi. Shuning uchun ham bugungi kunda O'zbekistonda fuqarolik jamiyati qurish jarayonlarida milliy istiqlool mafkurasining asosiy g'oyalarini fuqarolar ongi – tafakkuriga singdirishga, ularda mafkuraviy immunitetni shakllantirishga muhim e'tibor berilmoqda.

Xususan, bugungi kunda yoshlarimiz ongi va qalbiga buyuk ma'naviyatimizni singdirish orqali sog'lom dunyoqarashni shakllantirish orqali chetdan juda katta ma'naviy xuruj sifatida namoyon bo'layotgan missionerlik ta'sirlariga ham qarshi tura oladigan barkamol insonlar sifatida kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, bugungi kunda globallashuvning shiddatli tus olishi dunyoda keskin g'oyaviy kurashlar, turli mafkuralar to'qnashuvlari jarayonida demokratiya yoki turli diniy ta'limotlar shiorlarini o'zida namoyon etuvchi yovuz g'oyalarni singdirishga bo'lgan intilish tobora kuchayib bormoqda. Zero, missionerlik tarafdorlari tomonidan ilgari surilayotgan demokratiya niqobidagi balandparvoz targ'ibot va tashviqotlar bizning milliy mentalitetimizga mutlaqo to'g'ri kelmasligini bemalol aytishga to'la haqlimiz. Missionerlik tarafdorlarining asosiy maqsadi yoshlarimizni milliy zamindan, azaliy qadriyat – ma'naviyatimizdan judo qilish orqali manqurtga aylantirish kabi illatlarini maqsad qilayotganligi tashvishlidir. Shuni e'tiborga olgan holda xalqimiz, millatimizni turli soxta va zararli g'oyalar ta'siridan asrashda eng avallo, o'z qadriyatlarimizni e'zozlash orqali belgilangan maqsad va vazifalarimizga eri shamiz. Yuqorida bildirib o'tgan fikrlardan xulosa qilib aytsek, missionerlikning taqiqlanishi ham siyosiy, ham ma'naviy, ham ijtimoiy sabab hamda omillarga asoslangan bo'lib, maqsadimiz yurtimizda hukm surayotgan barqarorlik, tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash orqali Yurtimiz mustaqilligini mustahkamlashdir. O'z navbatida, missionerlik tahdidini bartaraf etishda eng avvalo, hukumatimiz tomonidan missionerlikka oid ilmiy-ma'rifiy manbalar hamda muammoning amaliyotdagi holatini o'rganish orqali ilmiy tajribalar asosida aholining keng qatlamlari ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarini shakllantirishning nazariy-amaliy asoslarini belgilash

muhim ahamiyat kasb etadi. Missionerlik tahdidlaridan doimo ogoh bo'lish, mazkur harhkatlarni o'z vaqtida anglash va ularni bartaraf etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Bunday keng ko'lamli o'ta muhim masalalarni hal qilishda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan olib borilayotgan tajribalari asosida missionerlik harakatini bartaraf etishda, avvalo, oila, ta'lim sohasi va jamoat tashkilotlarining ma'naviy-ma'rifi y qadriyatlarini shakllantirish mamlakatimizda jamiyatimizning barcha qatlamlarini missionerlik tahdidiga qarshi g'oyaviy-mafkuraviy qurollantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda jahonda keng quloch yozgan va inson ma'naviyatini buzishga qaratilgan tahdid bu Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "ommaviy madaniyat" ko'rinishida kirib kelayotgan turli tahdidlar, giyohvandlik, diniy ekstremizm, missionerlik kabi balo-qazolardan yoshlarimizni asrash, ularning ta'lim-tarbiyasiga har birimiz mas'ul ekanimizni hech qachon unutmasligimiz kerak" (Mirziyoyev, 2017). Zero, yosh mamlakatimizda missionerlik tahdidlarining oldini olish, uni bartaraf etish orqali tinchlik, osoyishtalik, barqarorlik, totuvlik, millatlararo hamjihatlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishini har bir vatandoshimiz anglashi lozim.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

1. Missionerlik deganda nimani tushunasiz?
2. Prozelitizm nima?
3. Missionerlik uyushmaridan qaysilarini bilasiz?
4. Sekta nima?
5. Missionerlar o'z faoliyatlari davomida maqsadlarini amalga oshirish uchun qanday usul va vositalardan foydalanadilar?

13-MAVZU. DINIY FUNDAMENTALIZM, RADIKALIZM VA TERRORIZMNING TARIXI VA YO`NALISHLARI.

Reja:

1. Mutaasablik, ekstremizm, aqidaparastlik, radikalizm, fundamentalizm, terrorizm, xalqaro terrorizm tushunchalarining mazmun mohiyati. Diniy fundamentalizmning tarixi va rivojlanish bosqichlari.
2. Markaziy Osiyo mintaqasida faoliyati kuzutilgan diniy ekstremistik harakatlarning maqsadlari.
3. Al-Qoida, ixvanul muslimin, ISHID, boko xaram tashkilotlarining dunyo hamjamiyati xavfsizligiga tahdidi, ularga islom tashkilotlari va musulmon ulamolari tomonidan berilgan raddiyalar.
4. O'zbekistonda sodir etilgan terroristik harakatlar va ularning barqaror taraqqiyotga ta'siri: Turkiston islom harakati, xizbut tahrir, akromiylar, vahobiylik va nurchilik harakatlari tarixi, maqsadlari.
5. O'zbekiston davlat siyosatida radikal oqimlarga qarshi kurashning yo'nalishlari.

Tayanch so'z va iboralar: Diniy ekstremizm, terrorizm, jihod, johiliya, aqidaparastlik, diniy fanatizm, fundametalizm, diniy bag'rikenglik, mutaasablik, Al-Qoida, ixvanul muslimin, ISHID, boko xaram, xizbut tahrir, akromiylar, vahobiylik, nurchilik, radikal oqimlar, Markaziy Osiyo.

1-reja bayoni. Mutaasablik, ekstremizm, aqidaparastlik, fundamentalizm, terrorizm, xalqaro terrorizm tushunchalarining mazmun mohiyati. Diniy fundamentalizmning tarixi va rivojlanish bosqichlari.

Manbalar diniy ekstremizm va terrorizm kabi hodisalarning ildizlari uzoq tarixga borib taqalishidan dalolat beradi. Shunday bo'lsa-da, ular hech qachon ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyot uchun bugungidek tahdid solmaganini qayd etish lozim. Zero, hozirda diniy ekstremizm va terrorizm global xarakterga ega bo'lib, dunyoning barcha mamlakatlari hamda mintaqalariga birdek xavf solmoqda. Shunday ekan, uning oldini olish, unga qarshi kurashish insoniyatning istiqboliga daxldor masalaga aylanganini e'tirof etish joiz. Mazkur yo'nalishda kishilik jamiyati oldida kompleks vazifalar dolzarb bo'lib turibdi. Shu boisdan ham Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning «Diniy ekstremizm va fundamentalizm bizning mintaqamiz uchun tug'dirishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni bevosita tahlil qilishga kirishishdan oldin e'tiborni odamlarning diniy e'tiqodlari bilan bog'liq har qanday muammo g'oyat nozik ekanligiga, ularning dinning ma'naviy qadriyatlari bilan bog'liq shiorlardan, xususan, islomni qayta tiklash shioridan foydalanayotgan muayyan kuchlar ko'zlayotgan, dinga aloqasi bo'lmagan siyosiy va boshqa tajovuzkor maqsadlar o'rtasidagi farqni tushunib olishlariga erishish zarurligiga qaratishni istardim» - degan so'zlarini doimo yodda tutmoq lozim.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, hozirgi kunda aholi, ayniqsa, yoshlar, turli soha vakillari orasida tegishli targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish, diniy mutaassiblikning mohiyati, tarixi, zamonaviy ko'rinishlari, g'oyaviy-aqidaviy asoslarini tahlil qilish ustuvor vazifalaridan biri sanaladi. Zero, ilmiy istilohda qo'llanayotgan «fundamentalizm», «aqidaparastlik», «mutaassiblik», «ekstremizm», «terrorizm» Kabi atamalar deyarli barchaga tushunarli bo'lsa-da, har kishi ularni o'zicha talqin etishi mumkin. Keng ma'noda bu atamalar qonuniy hokimiyatga qarshi kurashuvchi ijtimoiy-siyosiy guruh va oqimlarga tegishlidir.

«Fundamentalizm»– (lotincha – «asos») tushunchasining ma’nosi muayyan ijtimoiy hodisaning dastlabki ko‘rinishini anglatadi. Diniy fundamentalizm esa, «ma’lum din vujudga kelgan ilk davriga qaytish va bu yo‘l bilan zamonaning barcha muammolarini hal qilish mumkin», degan fikrni ilgari surish ta’limotini anglatadi.

«Aqidaparastlik»– («aqida» – arabcha – «ishonch», «biror narsani ikkinchisiga bog‘lash») muayyan sharoitda, biron-bir g‘oya yoki tamoyilga qat’iy ishonib, uni mutlaqlashtirish asosida shakllangan qoida va tartiblarni sharoit, holat, vaziyatni hisobga olmagan holda, ko‘r-ko‘rona qo‘llash yoki shunga urinishni anglatadi.

«Mutaassiblik» – (arab. «g‘uluv ketish», «chuqur ketish»; fransuz. «fanatizm» – «ibodat») muayyan g‘oyalarning to‘g‘ri ekaniga qattiq ishonish, ularga mukkasidan berilish, «o‘zgalar» va «o‘zgacha» qarash hamda g‘oyalarga murosasiz munosabatda bo‘lish, boshqa firqa va mazhablarni butunlay rad etishi, ularni tan olmaslikda namoyon bo‘ladi. Mutaassiblik barcha davrlarda turli din va yo‘nalishlar orasida keskin nizo va to‘qnashuvlar kelib chiqishiga sabab bo‘lgan.

«Radikalizm»– (lotin. «tomir», «ildiz», «o‘zak») maqsad-muddaoni keskin, murosasiz amalga oshirish, u yoki bu ishdagi mavjud ahvolni tubdan o‘zgartirishga intilishni anglatadi.

«Ekstremizm»– (lotincha – «aql bovar qilmas darajada», «haddan oshish») jamiyatda qabul qilingan qonun-qoidalarga zid radikal qarash va harakatlarni anglatadi. Bunday harakatlarga diniy tus berish diniy ekstremizmga olib keladi.

«Diniy ekstremizm» – jamiyat uchun an’anaviy bo‘lgan diniy qadriyatlar va aqidalarni rad etish, ularga zid g‘oyalarni aldov va zo‘rlilik bilan targ‘ib qilishga asoslangan nazariya va amaliyotni anglatadi. Ekstremistik qarashlarni barcha dinlarda, buddizm, xristianlik, islomdagi turli oqimlarda uchratish mumkin.

«Terror»– (lotincha – «qo‘rqitish», «vahimaga solish») – aholining keng qatlamlarida dahshat va qo‘rquv uyg‘otish, jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarish orqali davlat hokimiyatini egallash maqsadiga qaratilgan jinoiy faoliyatdir. Terror, terrorchilik faoliyati, terrorchi birgalikda bir butun hodisa sifatida terrorizmni tashkil etadi. Hozirgi davrda u global miqyos kasb etib, xalqaro terrorizmshaklini oldi.

Xalqaro terrorizm-Xalqaro terrorizm tushunchasi davlatlar, xalqaro tashkilotlar, siyosiy partiya va harakatlarni beqarorlashtirishga qaratilgan siyosiy qo‘poruvchilik faoliyatini ifodalaydi. U alohida siyosiy arboblarni o‘ldirish yoki ularga qasd qilish orqali xalqaro ijtimoiy-siyosiy aks-sado beradigan buzg‘unchi siyosiy harakatlarni ifodalash uchun ham ishlatiladi.

Terrorchilik harakatlarining:

- xalqaro huquq himoyasidagi ob’ekt yoki sub’ektlarga qarshi qaratilgani;
- davlatlar chegaralarini buzish orqali amalga oshirilishi;
- a’zolari ikki yoki undan ortiq davlat fuqarolari, shu jumladan, yollanma shaxslar bo‘lgan ekstremistik guruhlar tomonidan sodir etilishi;
- ekstremistik guruhlar tarkibida qo‘poruvchilik harakatlari bo‘yicha xorijlik yo‘riqchilarning qatnashishi;
- ekstremistik guruh a’zolarining boshqa davlatlar hududida tashkil etilgan maxsus lagerlarda tayyorgarlik ko‘rishi;
- tayyorgarlik ko‘rish va qo‘poruvchilikni sodir etishda xorijiy davlatlar va ekstremistik uyushmalar yordamidan, xalqaro tus olgan noqonuniy qurol-yarog‘ savdosi va narkobiznesdan keladigan moliyaviy manbalardan foydalanilishi uning xalqaro terrorchilik xuruji ekanini ko‘rsatuvchi asosiy belgilardan hisoblanadi.

Muayyan mamlakat hududida sodir etilgan terrorchilik xurujida qayd etilgan u yoki bu belgilarning bo'lishi, unga xalqaro maqom berilishi va shundan kelib chiqib, unga mos choralar ko'rilishiga olib keladi.

Demak, diniy ekstremizm kelib chiqishining birinchi va asosiy sababi mutaassib, radikal fikr va aqidaparast qarashlarning paydo bo'lishi bilan amalga oshadi. Mutaassiblik, aqidaparastlik orqali diniy ekstremizm kelib chiqsa, ekstremizm orqali terrorizmga zamin tayyorlanadi.

Aslida, islom niqobi ostida paydo bo'lgan ekstremistik harakatlar tarixiga e'tibor beradigan bo'lsak, ularning ildizlari uzoq moziyga borib taqalishini ko'rish mumkin. Hazrati Ali (r.a.) davrida paydo bo'lgan, o'zlarini haqiqiy musulmon, saflariga qo'shilmaganlarni "dindan qaytgan" deb e'lon qilib, ularga qarshi murosasiz kurash olib borgan "xorijiylar" (arabcha–ajralib chiqqanlar, isyonchilar) diniy-siyosiy oqimi faoliyati fikrimizning isboti bo'la oladi.

Azraqiylar (Azoriqa) guruhining asoschisi Nofi' ibn al-Azraqdir (vaf. 685 y.). Xavorij guruhlarida orasida eng murosasiz va beshafqat sanalgan bu jamoa hozirgi kungacha etib kelmagan.

IX asr oxirida Iroqda yuzaga kelgan qarmatiylar ekstremistik harakati ham islom arkonlarini tan olmagan holda, haj amalini ham bid'at, butparastlik deb e'lon qilgan edi. Harakat o'z nomini uning asoschisi Hamdon ibn al-Ash'asning laqabi Qarmat so'zidan olgan bo'lib, uning ma'nosi manbalarda turlicha "kalta oyoq" yoki "qizil ko'z" kabi ma'nolarda ifodalangan. Qarmatiylar islom tarixida o'chmas dog' qoldirgan jinoyatlarni sodir etgan. Ular haj mavsumlarida karvonlarga hujum uyushtirib, bosqinchilik bilan shug'ullangan. Xususan, 930 yilda ular Makkaga bostirib kirib, shaharni talon-taroj qilganlar, bir necha ming hojilarni va Makka aholisini qatl etib, asirga olganlar. Ka'bani vayron qilib, qora toshni ikkiga bo'lib, Bahraynga olib ketganlar, faqat 20 yildan keyin katta to'lov evaziga u Makkaga qaytarib berilgan.

XI asr oxirida Eronda yuzaga kelib, maxfiy ravishda ish ko'rgan "hashshoshiylar" (arabcha–hashish (nasha) chekuvchilar, giyohvandlar) terrorchilik oqimi esa hokimiyatni egallash maqsadida ularga xayrixoh bo'lmagan hukmdorlarga suiqasd uyushtirish amaliyotini oldinga surgan edi. Uzoq vaqt hashshoshiylar ko'plab hukmdorlarga tahdid solib turgan, hattoki, ayrim Evropa mamlakatlari rahbarlari o'z xavfsizliklarini ta'minlash uchun ularga to'lov to'lashga majbur bo'lgan. Ingliz tilidagi suiqasd ma'nosini anglatuvchi "assassinate" so'zi ham aynan "hashshoshiy" atamasidan kelib chiqqani oqimning o'z davrida davlatlar xavfsizligiga katta tahdid tug'dirganidan dalolat beradi. SHu bilan birga, "hashshoshiylar" zamonaviy terrorchilar tomonidan ham keng qo'llanilayotgan, oddiy kishilar va yoshlarga giyohvand moddalarni iste'mol qildirib, o'lsa shubhasiz jannatga tushishiga ishontirgan.

Diniy mutaassiblikka asoslangan ixtiloflar oqibatida cheksiz nizolar, kelishmovchiliklar, hatto qonli urushlar kelib chiqib, katta talofatlarga va jamiyatning inqiroz tomon yuz tutishiga sabab bo'lgan. Buzg'unchilik va zo'ravonlikka asoslangan, e'tiqodiy birlikka tahdid solgan bunday oqimlar faoliyati o'z davri ulamolari tomonidan qattiq qoralanib, sultonlar tomonidan ta'qib qilinganini alohida ta'kidlash lozim. Masalan, Umaviy va Abbosiy xalifalar xorijiylarni butunlay qirib tashlash siyosatini olib borgan edilar. Islomning mohiyatiga butunlay zid bo'lgan bunday oqimlarning barchasi oxir oqibatda tanazzulga duchor bo'lgan.

Shunday bo'lsa-da, yuqorida qayd etilgan oqimlarning g'oyalari va amaliyot shakllari keyingi davrlarda ham rivoj topganini aytish joiz. Xususan, VII asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lib, to XVIII asrning oxiriga qadar islom olamida davom etib kelgan diniy-ekstremistik harakatlar inqirozga uchragan bo'lsa ham, oradan oz muddat o'tib, ular tomonidan talqin qilingan g'oyalar zamonaviy ko'rinishdagi turli mutaassib guruhlar etakchilari mafkurasiga asos bo'lib

xizmat qildi va bu bilan diniy-ekstremistik harakatlar rivojining yangi davri boshlandi deyish mumkin.

2-reja bayoni. Markaziy Osiyo mintaqasida faoliyati kuzatilgan diniy ekstremistik harakatlarning maqsadlari.

Markaziy Osiyo mintaqasida diniy mutaassib oqimlar faoliyati XX asrning 80- yillari boshlarida xorijiy ekstremistik markazlar sa'y-harakatlari bilan shakllana boshladi. Mintaqada xorijdan kelayotgan moliyaviy yordam hisobiga jangari sifatida foydalaniladigan guruhlar paydo bo'ldi. Markaziy Osiyo respublikalari mustaqillikga erishgan 1990-yillarning boshlarida esa, bu guruhlar faollashib ketdi. Shuning natijasida, mintaqada diniy ekstremizm asosan firqabozlikka asoslangan yangi guruhlarning paydo bo'lishi, norasmiy yo'l bilan diniy saboq berish, noqonuniy tarzda diniy mahsulotlar tayyorlash, olib kirish, tarqatish, missionerlik va prozelitizmning avj olishi kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ldi.

Ekstremizm va terrorizmning jamiyat barqarorligi rivojiga ko'rsatgan salbiy ta'siri Markaziy Osiyo mintaqasida faoliyati kuzatilgan birqancha mutaassib harakatlarning maqsadi tahlil qilinganida yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Mintaqada asosan "Hizbut-tahrir", "Turkiston islom harakati", "Akromiylar", "Nurchilar" kabi guruhlarning faoliyati kuzatildi.

Darhaqiqat hozirgi kunga kelib diniy ekstremistik tashkilotlar keng tarmoqli tizimga aylanib ulgurdi. Bu chuqur o'ylangan strategiyaning bir qismidir. Avvalo, barcha ekstremistik tashkilotlar bir tadqiqot markazlari, ta'bir joiz bo'lsa "g'oyaviy laboratoriya"lar mahsuli ekanini alohida qayd etishimiz lozim. SHu o'rinda, Markaziy Osiyoda faoliyati kuzatilgan diniy ekstremistik oqimlarni bajaradigan funksiyalariga ko'ra shartli ravishda 3 guruhga bo'lishimiz mumkin.

Birinci guruhga kiruvchi tashkilotlarning asosiy "vazifa"si bu odamlarni go'yoki "islomlashtirish", "taqvoga chaqirish"dan iborat. Bunday guruhlar qatoriga "Tablig'chilar" diniy ekstremistik tashkilotini kiritish mumkin.

Ikkinchi guruh tashkilotlar esa "islomiyashtirilgan" aholiga endi mutaassiblik g'oyalarini singdirish, ulardan muayyan g'oyaga, rahnamoga og'ishmay, so'zsiz ergashadigan "kadr"larni tayyorlash bilan shug'ullanadi. Bunday guruhlar qatoriga O'zbekistonda faoliyati kuzatilgan "Nurchilar", "Hizbut-tahrir" kabi diniy ekstremistik tashkilotlarni kiritish mumkin.

Uchinchi guruh harakatlar esa yuqordagi tashkilotlar tomonidan tayyorlangan kishilarni "jihod"ni amalga oshirishga tayyorlash bilan shug'ullanadi. Bu guruhga barcha terrorchi tashkilotlar kiradi.

Yuqoridagi mulohaza va dalillar, diniy ekstremizm va mutaassiblikning asl qiyofasini ochib berib, mazkur harakatlarning nafaqat dunyoviy qonun-qoidalar, balki Islom dini asoslariga ham zid ekanini ko'rsatadi. Shunday ekan, bunday oqimlarga qarshi murosasiz kurash, terrorchilik harakatlarini amalga oshirayotgan mutaassib kuchlarning islom diniga mutlaqo yot, begona ekanini har tomonlama asoslash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, mutaassiblik ko'rinishdagi bunday oqimlar jamiyat xavfsizligiga, milliy ma'naviyatimizga real tahdid sifatida namoyon bo'lmoqda. SHunday ekan, yurtimiz tinchligi va osoyishtaligi, ravnaqi va farovonligi doimiy va qat'iy harakatlarni talab etadi. Demak, bu yo'lda har bir inson o'z ishini sidqidildan amalga oshirishi, loqaydlik, beparvolikning oldini olishi, yon-atrofida bo'layotgan voqea-hodisalarga hushyorlik bilan qarab, Vatan tinchligi yo'lida sergak va ogoh bo'lib yashashi yoshlarimizning ongu qalbini jaholatdan, yot va zararli g'oyalar ta'siridan himoya qilishi, ajdodlarimizga armon bo'lib qolgan, biz erishgan

mustaqillik va tinchlik-osoyishtalikni ko'z qorachig'idek asrab-avaylashi muhim omil hisoblanadi. Buni hech qachon unutmasligimiz, tinchlik uchun doimo o'zimizning bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etib yashashimiz lozim.

3-reja bayoni. Al-Qoida, ixvanul muslimin, ISHID, boko xaram tashkilotlarining dunyo hamjamiyati xavfsizligiga tahdidi, ularga islom tashkilotlari va musulmon ulamolari tomonidan berilgan raddiyalar.

Tinchlik bu barcha xalqlarning, shuningdek o'zbek xalqining ham azaliy orzusi bo'lib kelgan. Tinchlik insonparvar va bag'rikeng xalqimizning tili va dilidan mustahkam joy olgan eng oliy qadriyat hisoblanadi.

Al-Qoida (arabcha **القاعدة** — „asos“) sunniy jihodchi harbiy tashkilotlarning xalqaro birlashmasidir. Uning ildizlari 1989 yili Sovet qurolli kuchlarining Afg'onistondan olib chiqilishi bilan mamlakatda kuch yig'a boshlagan diniy fundamentalistlar va ularning homiylari (Usoma bin Lodin va boshqalar)ga borib taqaladi. Al-Qoidaning dasturiga musulmon o'lkalarda xorijiy ta'sirlarga chek qo'yish va yangi islomiy xalifalik yaratish kiradi.

«Al-Qoida» va «Tolibon» 1980-yillar oxiridagi sovet bosqiniga qarshi kurash va 1990-yillardagi Afg'onistonning ichki kurashlarida paydo bo'ldi.

ISHID esa bir necha yil o'tgach, «Al-Qoida»ning Iroqdagi qoldiqlaridan paydo bo'ldi va 2003 yilda Iroq ishg'oliga javoban mahalliy «Al-Qoida» unsuri sifatida sahnaga chiqdi.

Garchi bu tashkilot 2007 yilda Iroqdagi AQSh qo'shinlari sonining ortishi fonida bir necha yil davomida ko'zga tashlanmay turgan bo'lsa-da, 2011 yil qayta tiklana boshlaydi.

«Al-Qoida»ga 1980-yillar oxirida saudiya arabistonilik millioner Usama Bin Lodin tomonidan asos solinadi. «Al-Qoida» «tayanch», «poydevor» degan ma'nolarni anglatadi. U sovetlar ittifoqiga qarshi qurollangan kuchlar moddiy va harbiy jihatdan yordam ko'rsatadi.

Bin Lodin butun dunyo bo'ylab jihodchilarni «Al-Qoida» safida to'playdi.

«Al-Qoida» keyinchalik moddiy-texnik yordam tarmog'idan global ambitsiyalarga ega jihodchi tashkilotga aylanadi. «Tolibon» rejimi esa «Al-Qoida»ni Afg'onistonga taklif qiladi.

Iroqdagi «Al-Qoida» esa 2006 yilda boshqa ekstremistik guruhlardan ajralib, Iroq Islom Davlati nomini oladi.

2011 yildan keyin bu tashkilot Suriyadagi urushda to'liq ishtirok etadi va o'z nomini Iroq va Shom islom davlati (ISHID) deb o'zgartiradi. Shu tariqa «Al-Qoida» bilan uning yo'llari ayriladi.

Bu uch tashkilot o'rtasidagi umumiylik - ular sunniy mazhabiga e'tiqod qilishadi. BBC muxbiri bilan suhbatda London qirollik kollejida dars beruvchi Mishel Groppi shunday deydi: «Barcha uch tashkilot ijtimoiy va siyosiy hayot din bilan uzviy bo'lishi kerak deb hisoblaydi. Ular shariat qonunlari amalda bo'lishi uchun kuch qo'llashni to'g'ri deb bilishadi». «Al-Qoida» 2001 yil 11 sentyabrda Nyu-Yorkdagi egizak minoralariga qilingan hujumlar bilan yaxshi tanish.

Ushbu tashkilot o'zining yuqori ta'sirchan usullari bilan butun dunyo musulmon jangchilarini safarbar qilish orqali AQShni Yaqin Sharq, ayniqsa, Saudiya Arabistoni va muqaddas joylardan haydashni maqsad qilgan.

Garchi bu tashkilotlarning targ'iboti jihod har bir musulmonning burchidir, degan fikr atrofida aylansa-da, ularning asosiy e'tibori mahalliy musulmonlarga qaratilgan.

Baymanning aytishicha, ISHID ham masalaga shunday yondashadi, biroq uning yondashuvida o'ta keskinlik ko'zga tashlanadi: «ISHID uchun terrorizm inqilobiy urushning bir parchasidir. U hukmronligi ostidagi hududlarda ommaviy qatllar va zo'ravonliklarni amalga

oshirdi. Mahalliy aholini bo'ysundirish uchun uni qo'rqitishga harakat qildi. «Al-Qoida» esa «muloyimroq» yondashuvga ega».

Ixvanul muslimin tashkiloti. "Musulmon birodarlar" ("Al Ixvon al muslimun" yoki "ixvanul muslimin") — diniy- siyosiy tashkilot. 1928-yil Misrning Ismoiliya shahrida tuzilgan. Asoschisi — Shayx Hasan al Banno (1906—1949). Uning siyosiy qarashlari Muhammad al G'azoliy, Muhammad Abdu, Jamoliddin al Afg'oniy, Rashid Rizo kabi panislomiy modernistlarning ta'sirida shakllangan. U islomning sunniylik oqimi ta'limotidan chetga chiqmagan holda "jihod", "islomiy milliyatchilik", "islomiy davlat" konsepsiyalarini ishlab chiqdi. Sayyid Qutb, Mustafo as Siboi tashkilotning taniqli mafkurachilari bo'lgan. Sayyid Qutbning "Islomda ijtimoiy adolat" asari uyushma ta'limotining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Tashkilotning maqsadi musulmon o'lkalarda "islomiy adolat" tamoyillariga asoslangan jamiyat barpo etishdan iborat. Bunga esa "islomiy taraqqiyot yo'li" bilangina erishish mumkin. "Musulmon birodarlar" mafkurasining g'oyaviy asosini "islom faqatgina diniy e'tiqod bo'lmasdan, balki mukammal dunyoqarash hamda ijtimoiy tuzumdur", degan aqida tashkil etadi. "Musulmon birodarlar" murakkab tuzilmali, harbiylashgan bo'limlarni o'z ichiga olgan. Misrdan boshqa mamlakatlar (Suriya va Livan)da ham bo'limlari bor. Uning faoliyati keng ijtimoiy qatlamlarni qamrab olgan bo'lsada, tashkilot a'zolari talaba-yoshlarni o'zlarining asosiy zarbdor kuchi deb hisoblaganlar. "Musulmon birodarlar" xayr-ehson qilish va ma'rifatchilik faoliyatidan (1928—36) to siyosiy hayotda terror metodini keng qo'llashda faol ishtirok etishgacha bo'lgan murakkab taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. 1930-yillarning o'rtalaridan xalifalik shaklidagi "islomiy davlat" qurish g'oyasi targ'ibotiga zo'r bera boshladi. Hasan al Banno vafotidan so'ng "Musulmon birodarlar" faoliyati yanada siyosiy lashib bordi. Natijada u 3 yo'nalishga bo'linib ketdi: "mo'tadil birodarlar" (asosan, Hasan al Banno va Sayyid Qutb izdoshlari); "islomiy demokratlar" "islomiy sotsializm" ta'limotining turli ko'rinishlari tarafdorlari; harbiylashgan ekstremistik islomiy tashkilotlar ("Katoib Muhammad", "Junud Alloh", "At takfir val hijra", "At tahrir al islomiy"). "Xizbut tahrir al islomiy" diniy siyosiy partiyasi ham shular jumlasiga kiradi. "Musulmon birodarlar" uyushmasi bo'linishi tufayli yagona tashkilot sifatini yo'qotdi va 1950-yillardan "Musulmon birodarlar" harakati ("al Ixvoniyya") deb yuritila boshladi. Shu davrdan boshlab "Musulmon birodarlar" harakati ekstremistik faoliyati uchun faqat Misrda emas, balki boshqa davlatlarda ham g'ayriqonuniy deb e'lon qilinib man etilgan. "Musulmon birodarlar" harakati Misr, Suriya, Iordaniya va Livanda faoliyat ko'rsatib, bu mamlakatlardagi siyosiy jarayonlarga katta salbiy ta'sir qilmoqda. "Musulmon birodarlar"ning birinchi jurnali "Al ixvon al muslimun" 1933-yildan chiqa boshlagan. 1980-yillardan boshlab "Ad da'va" ("Da'vat") jurnali "Musulmon birodarlar"ning asosiy nashridir.

ISHID. Iroq va Suriyaning bir qancha hududlarida qonli to'qnashuvlarni amalga oshirayotgan, hozirgi kunda o'zlarini **"Islom dinining himoyachilari"** deb atayotgan "Islom davlati" terroristik tashkilot.

Xo'sh, bu qanday toifa-ki, hech qanday o'zining tarixiga ega bo'lmay turib, shosha-pisha bir katta davlatga asos solsa? So'ng, o'z guruhlariga qo'shilmaganlar yoki tan olmaganlarni shafqatsizlarcha jazolasa? Ularning iddaolarini ko'rib, bilib turgan musulmon olami va jahon hamjamiyati qanday kayfiyatda?

Yuqoridagi savollarga javob topish uchun, eng avvalo, mazkur tashkilotning paydo bo'lish tarixiga nazar tashlasak.

Tashkilot nomi. Hozirda Islom davlati – (qisqacha ID, avval, Iroq Islom davlati), “Iroq va Shom Islom davlati” deb nomlamoqda) salafiy-jihodiy yo‘nalishidagi terroristik qurolli guruh. Iroq va Suriya hududida tarqalgan. Guruh yetakchisi – Abu Bakr Bag‘dodiy.

Tashkilotning asoschisi. Guruh 2006 yil 15 oktyabrda bir guruh qurolli jamoalarning yig‘ilishi natijasida yuzaga kelgan. Guruhga Abu Umar ismli shaxs yetakchi etib saylangan. Bir qancha qo‘poruvchilik harakatlarini o‘z bo‘yniga olgan.

2010 yil 19 aprelda Abu Umar Bag‘dodiy o‘ldirilgandan so‘ng guruhga Abu Bakr Bag‘dodiy yetakchi bo‘ladi. Manbalarda kelishicha, Abu Bakr Bag‘dodiyning ikki nafar asosiy yordamchisi bor. Bular: Abu Ali Anboriy; u harakatning Suriyadagi harbiy harakatlarini boshqaradi. U Saddam Husayn armiyasida sobiq generaldir. Ikkinchisi, Abu Muslim Turkmoniy; u Iroq armiyasida yetakchi razvedka mutaxassisi bo‘lgan.

Tashkilotning asosiy g‘oyalari. Tashkilot xalifalikni qaytarish va shariatni tatbiq qilishni maqsad qiladi.

Moliyaviy manbalari: Tashkilot Iroqning Mosul va boshqa mintaqalarini egallagandan so‘ng dunyodagi eng boy terroristik tashkilotlardan biriga aylangan. Rasmiy bayonotlarda aytilishicha, Mosul shahridagi Markaziy bankdan 500 milliard Iroq dinorini qo‘lga kiritgan. **Harakatga tegishli ommaviy axborot vositalari:** Harakatning “Dobiq” nomli jurnali bor.

Harbiy kuchlari: ISHID tasarrufida Iroq va Suriya armiyasidan qo‘lga kiritgan bir qancha tanklar, raketalar, zirhli texnika va boshqa qurollar bor.

Harakatga munosabat: Hozirgi kunda “Islom davlati” tomonidan boshqaruv o‘rnatilgan hududlarda na islomiy va na insoniy tamoyillarga to‘g‘ri keladigan qonunlar joriy qilinmoqda. Jumladan, xristian dini vakillarini “zimmiy” hukmida hisoblab, ulardan “jizya” solig‘ini majburlab undirish, ularga xoch osib yurmaslik, ibodat vaqtida ovoz kuchaytirgichlardan foydalanmaslik kabi taqiqlar belgilab qo‘yilgan. Shuningdek, har qanday musiqiy disklar yoki musiqa asboblari sotish ham man etilgan. Musulmon ayollarga nisbatan esa o‘ta mutaassibona hukmlar joriy qilinib, ularni buzganlarga o‘rta asr jazo metodlari qo‘llanmoqda. Butun dunyo musulmon ulamolari “Islom davlati”ning faoliyatini tanqid qilib, harakat tomonidan e‘lon qilingan xalifalik islom ta‘limotlariga zid ekanini va uni tan olib bo‘lmasligini ta‘kidlamodalar.

ISHIDning paydo bo‘lishiga 10 ta sabab:

1. Iroqdagi notinchlik.
2. Suriyadagi keskin vaziyat.
3. “Al-Qoida”ni siyosiy maydonda sustlashishi.
4. Katta neft zaxiralarining terrorchi tashkilotlarning tasarrufiga o‘tishi.
5. O‘z vaqtida bu tashkilotga nisbatan pisand qilmaslik kayfiyati bo‘lgani bois.
6. Mutaassib shaxslarning “Islom davlati”ga qo‘shilishi tugamayotgani.
7. Internet - tashkilotning asosiy targ‘ibot vositasi sifatida.
8. Tashkilotning faoliyati o‘ta shafqatsizlikka asoslanganligi va uni namoyish qilishi.
9. “Islom davlati” o‘z tashkilotiga qo‘shilmaganlarni omma oldida jismonan yo‘q qilishni lozim topgani.
10. Jahon siyosiy hamjamiyati hali-hamon bu terroristik tashkilotga so‘nggi qarorini bildirmayotganida.

“Islom davlati” firqasining xatolari va botil e‘tiqodda ekanligini ochiq-oydin isbotlovchisi 20 ta raddiya. Quyida Alloh buzg‘unchilikni sevmasligini, bunday harakatlar islom dini ta‘limotiga mutlaqo zid ekanini, sog‘lom e‘tiqoddan adashib, zalolatga yuz tutib, barcha

buzg'unchiliklar va fitnalar girdobida o'ralashib qolgan mazkur tashkilotga qarata Qur'oni karim, hadisi sharif hamda dunyoning mashhur va yetakchi ulamolarining raddiyalarini keltiramiz:

1. Alloh taolo O'zining kalomi Qur'oni karimda shunday marhamat qiladi: "Ularga: "Yer yuzida fasod (buzg'unchilik) qilmangiz!" – deyilsa, ular: "Albatta, biz chin islohchilarmiz", – deydilar. Ogoh bo'lingki, aynan ularning o'zlari buzg'unchilardir, lekin (buni o'zlari sezmaydilar". (Baqara, 11-12). Imom Muslim rivoyat qilgan hadisi sharifda shunday deyiladi: "Rasululloh (s.a.v.) (xoriijiylar haqida ogohlantirib): "Ular Qur'onni o'qiganda o'zlarining foydasiga deb o'ylaydilar, aslida esa u ularning zarariga yuradi", – dedilar".

Dunyoning bir yuz yigirma oltita (126 ta) ulamolaridan iborat olimlar Abu Bakr Bag'dodiy laqabli Doktor Sa'id Ibrohim Avvadal-Badriyga hamda "Islom davlati" nomi bilan faoliyat yuritayotgan ekstrimistik tashkilotlarga mansub bo'lgan shaxslarga va jangchilarga "Ochiq xat" yuborishdi. Ushbu "Ochiq xat"da keltirilgan mazkur tashkilot tomonidan sodir etilayongan ayrim xatolarni iqtibos tarzida keltiramiz:

2. Alloh taolo Isro surasida shunday marhamat qiladi: "Alloh (o'ldirishni) harom qilgan jonni o'ldirmang. Haq ila bo'lsa, mustasno" (33-oyat). Yana Alloh taolo An'om surasida shunday deydi: "Aytgin: "...Alloh harom qilgan jonni o'ldirmang. Haq ila bo'lsa, mustasno. Ushbularni sizga tavsiya qildikki, shoyad, aql yuritsangiz" (151-oyat). Alloh taolo Moida surasida marhamat qiladi: "Shuning uchun ham Banu Isroilga: "Kim bir jonni biror jon sababisiz yoki yer yuzida buzg'unchilik qilmasa ham o'ldirsa, xuddi hamma odamlarni o'ldirgandek bo'ladi. Kim uni tiriltirsa, xuddi hamma odamlarni tiriltirgandek bo'ladi", – deb yozdik. Batahqiq, rasullarimiz ularga ochiq-oydin hujjatlar olib keldilar. So'ngra, o'shandan keyin ham ulardan ko'plari yer yuzida haddan oshuvchilardan bo'ldilar" (32-oyat). "Islom davlati" esa juda ko'p begunoh odamlarni o'ldirishni o'zlariga ravo ko'rmoqda. Qatl etilayotgan insonlar jangchi ham, hatto qurollangan ham emas edilar. Ular sizlardan boshqacha fikrdagi odamlar edi, xolos.

3. Ma'lumki, barcha dinlarda elchilarni o'ldirish haromdir. Ibn Mas'ud roziyallohu anhu aytadilar: "Joriy bo'lgan sunnatga ko'ra, elchilar qatl qilinmaydi".

4. Bu ulkan, muhim, uzun mavzu borasidagi gapni muxtasar qiladigan bo'lsak, sizlar ayollarni qamoqlardagi, kontslagerlardagi sharoitga solib qo'ydingiz. Ularni o'z qarashingizga ko'ra kiyinishga majburladingiz, ko'chaga chiqishlarini va ta'lim olishlarini man qildingiz. Holbuki Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: "Ilm talab qilish har bir musulmonga farzdir" deganlar. Qur'oni Karimdan birinchi tushgan so'z "O'qi!" bo'lgan. Alloh taolo Niso surasida "Ey odamlar! Sizlarni bir jondan yaratgan va undan uning juftini yaratib, ikkovlaridan ko'plab erkagu ayollar taratgan Robbingizdan qo'rqinglar! U bilan o'zaro so'rovda bo'ladiganingiz Allohdan va qarindoshlik(aloqalari)dan qo'rqing. Albatta, Alloh ustingizdan kuzatib turuvchidir" degan (1-oyat). Nabiy sollallohu alayhi vasallam: "Ayollarga yaxshilik qiling", deganlar.

5. Sizlar bolalarni urushda, odam o'ldirishda qatnashishga majburladingiz, ularni shunga o'rgatdingiz. Alloh taolo Niso surasida marhamat qiladi: "Sizlarga nima bo'ldiki, Alloh hamda «Robbimiz, bizni ushbu aholisi zolim shahardan chiqargin, bizga O'z tomoningdan valiy ato qilgin va O'z tomoningdan yordamchi bergin", deyayotgan xo'rlangan erkagu ayol va bolalar yo'lida jang qilmaysizlar?!" (75-oyat).

6. Hadlar islom shariatida vojibdir, bundan boshqacha emas. Lekin, hadlarni tatbiq qilish uchun avval ogohlantirish, hushyorlikka chaqirish lozim. Qiyinchilik paytlarda hadlar tatbiq qilinmaydi. Masalan, Nabiy sollallohu alayhi vasallam ba'zi holatlarda hadlarni qoim qilmas edilar. Umar ibn Xattob roziyallohu anhuning ochlik yillarida hadlarga amal qilmay qo'ygani

ma'lum va mashhurdir. Barcha shar'iy mazhablarda hadlarni ijro qilish ochiq-oydin bo'ladi, rahm-shafqat bilan tatbiq qilinadi, ularning shartlari had tatbiq qilishni og'ir bir ishga aylantirib qo'yadi.

7. Jangchilaringiz odamlarni faqat o'ldirish bilan kifoyalanib qolishmadi, balki qatlga xorlash, tahqirlash, masxara qilishni qo'shishdi. Alloh taolo Hujurot surasida: "Ey imyon keltirganlar! Bir qavm boshqasini masxara qilmasin, ehtimol, ular bulardan yaxshiroqdir" (11-oyat).

8. Shar'iy va fiqhiy jihatdan xalifalik – rahbarlikni anglatadi. Xalifa esa lug'aviy va shar'an islom ummatining rahbaridir va xalq nomidan ish ko'ruvchi vakilidir.

Mazkur guruhning (ID) xalifalikni e'lon qilishi uni yo'lga qo'yish uchun yetarli emas va bu yuqoridagi shar'iy haqiqatlarga mutlaqo ziddir.

9. Islomda barcha davlat va shar'iy boshqaruv ishlari "sho'ro" (maslahat kengashi) asosida amalga oshiriladi. Bu borada Alloh taolo: "...Ularning ishlari o'zaro maslahat (bilan) bo'lur...", degan (Sho'ro,38) va yana "...va ular bilan kengashib ish qiling!..." deydi (Oli Imron, 159). Umar ibn Xattobni, Usmon ibn Affon va Ali ibn Abu Tolib (r.a.)larni xalifalikka saylash maslahat kengashi bilan amalga oshirilgan.

10. Faqatgina bir guruh tarafidan e'lon qilingan xalifalik tan olinmaydi.

11. Bu ishlarning barchasi haqiqiy islom xalifaligining sha'niga dog' tushiradi.

12. Islom xalifaligi va uning ikkinchi marta qaytarilishi juda qiyindir. Lekin uning shakl va mazmuni dunyo musulmonlarining birligini ifodalaydi. Bunday u yoki bu yerlarda xalifalikni e'lon qilish bilan emas.

13. Misr Arab Respublikasi muftiysi Shavqiy Allom "Islom davlati" tashkiloti jihod nomi bilan musulmonlarni o'ldirayotganlar aslida islom dinidan yiroq, deb ta'kidladi.

14. Misr Arab Respublikasining sobiq muftiysi Aliy Juma aytadi: "Albatta, "Islom davlati" to'satdan paydo bo'lib qolgan emas. Ularning sifatlari islom dinining qadimgi manbalarida ham Hazrati Ali ibn Abu Tolib raziyallohu anhunging so'zlarida bayon qilingan. Hazrati Ali ibn Abu Tolib karromallohu vajhahunging aytgan so'zlarini Nu'aym Ibn Hammod o'zining "al-Mote' al-fitan (katta fitnalar)" nomli kitobining 1 jild 210 sahifasida keltiradi: "Qachon qora bayroqlarni ko'rsangiz, joylaringizdan qo'zg'almanglar..".

15. Dinni niqob qilib, insonlarni kofirlikda ayblab, ularning qonini to'kishni halol sanagan bunday bog'iy jamoa tomonidan xalifalikning e'lon qilinishi Payg'ambar (a.s.)ning tutgan yo'llariga mutlaqo ziddir.

16. Mazkur xalifalikni e'lon qilganlar o'zlarini olimlar, har qanday masalani hal qilishga qodir bo'lgan ulamolar jamoasi deb hisoblasada, aslida, ular na ahli ilm va na musulmon ulamolari jamoasidan.

17. Ular o'zlariga lozim tutgan ishlardan ham voz kechadilar.

18. Bu kabi xalifalikni e'lon qilish islom ahliga ko'plab musibatlarni olib kelishi, yomonlik, fisqu-fasod va fitnalarning ko'payishiga sabab bo'lgani nuqtai nazaridan shariatga ham xilof bo'lib, unda o'zaro qon to'kishlar, zo'ravonlik, insonlar qo'li, boshini tanasidan judo qilib, bundan rohatlanish kabi ishlar orqali islomni yomon otliq qilishdan boshqa narsa emas.

19. Xalifaga bay'at qilmagan musulmonlarni gunohkor sanab, ularga itoat etmagan musulmonlar qoni va molini halol hisoblablashlari, ba'zi boshliqlarining "Qon – sharobimiz", deyishlarining isbotidir.

20. "... Biroq, "Islomiy davlat" qilgan e'loni sha'riy nuqtai nazardan to'g'ri emas. Hamda bu narsa Suriyada kurashayotganlar va Iroqning sunniylari uchun xavfi oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Yetuk olim Qarazoviy so'ziga ko'ra, radikal qarashlari bilan tanilgan bir

guruh tarafidan “xalifa tayin” qilinishi shariat talablariga muvoffiq emas. Xalifa unvonini bir guruh emas, balki butun musulmon ummati berishi kerak.

«Boko haram» – islom niqobi ostidagi radikal oqim. Jamoaning rasmiy nomi «Jama’at ahli sunna li-d-da’va va-l-jihad» («Da’vat va jihad ahli sunna jamoasi»). «Boko haram» esa jamoaning ikkinchi nomi bo’lib, tashkilotning bazasi joylashgan Mayduguri aholisi tomonidan berilgan. «Boko haram» xausa tilidan «g’arb (zamonaviy) ta’limi taqiqlangan» yoki «g’arb ta’limi – harom» ma’nosini anglatadi. «Boko» so’zining ilk ma’nosi «yolg’on» bo’lgan, biroq keyinchalik uning semantikasi o’zgarib, «g’arb ta’limi» degan ma’noga ega bo’lgan. Shuningdek, «Nigeriya tolibon harakati», «Muhojirun», «Yusufiyya» nomlari bilan ham atalgan. Asoschisi va yuzaga kelish tarixi. «Boko haram» tashkilotiga 2002-yilda Nigeriyaning Mayduguri shahrida Muhammad Yusuf tomonidan asos solingan. Dastlab u o’zida masjid va madrasani qamrab olgan diniy majmua tashkil qiladi. Mazkur majmua bolalarga diniy ta’lim berishni maqsad qilgan, deb ochilgan bo’lsa-da, bu joy o’z tarafdorlarini tayyorlash uchun xizmat qiladi. 2004-yilda Muhammad Yusuf jamoa a’zolari bilan Yobe shtatidagi Kannama shahriga yaqin tumanga joylashib, o’zining bazasiga asos soladi va unga «Afg’oniston» deb nom beradi. O’sha joydan ichki ishlar xodimlariga hujumlar uyushtirish boshlanadi. 2009-yil 29-iyulda Muhammad Yusuf Nigeriyaning shimoliy qismida «islom davlati»ni tuzish maqsadida isyon ko’taradi. Shundan so’ng, politsiya jamoaning Mayduguridagi bazasiga hujum qilib, uni qo’lga oladi. Muhammad Yusuf ham hibsga olinib, keyinchalik vafot etadi. Uning vafotidan keyin jamoatga Abu Bakr Shekau boshchilik qiladi. Tashkilotning bosh maqsadi. Bugun Nigeriya hududida shariat asosida «islom davlati»ni qurish maqsad qilingan. 2014-yil 24-avgustda «Boko haram» Nigeriya shimolidagi G’uzo shahrida xalifalik tuzilganini e’lon qilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, xulosa o’rnida aholi o’rtasida, yoshlar hamda ayollar ichida diniy mutaassiblikning tarqalishi, aqidaparast, estrimistik va terroristik oqimlar ta’siriga tushib qolishning oldini olish, bu jamiyat va tabiatdan nafas olayotgan har bir insonning burchi ekanini unutmazlik zarurdir.

4-reja bayoni. O‘zbekistonda sodir etilgan terroristik harakatlar va ularning barqaror taraqqiyotga ta’siri: Turkiston islom harakati, xizbut tahrir, akromiylar, vahobiylik va nurchilik harakatlari tarixi, maqsadlari.

“Turkiston islom harakati” (Sobiq “O‘zbekiston islom harakati”) diniy-ekstremistik va terrorchi tashkilot.

Asoschisi va yuzaga kelish tarixi. Ushbu tashkilot 1996 yilda “O‘zbekiston islom harakati” nomi ostida tashkil etilgan. Haraktni shakillantirishda 1992-1993 yillarda O‘zbekistonda faoliyati ta’qiqlangan “Adolat uyushmasi” (Namangan), “Islom uyg‘onish partiyasi” (1990 yil Astraxanda asos solinib, 1991 yil yanvaridan O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatgan) “Odamiylik va insonparvarlik” (Qo‘qon), “Turkiston islom partiyasi”, “Islom lashkarlari” (Namangan) kabi diniy ekstremistik guruhlarining sobiq faollari ishtirok etgan.

Tashkilot g‘oyalari va asoslari. Tashkilotning asosiy maqsadi Markaziy Osiyo hududida “Buyuk islom xalifaligi”ni tuzish, unda musulmonlar yashaydigan Kavkaz va Rossiya Federatsiyasining Volga bo‘yi respublikalarini qamrab olishdan iborat.

Harakat strategiyasi. Tashkilot o‘z maqsadiga erishish uchun qo‘paruvchilik va terrorchilik harakatlarni amalga oshirish, harbiy harakatlar uyushtirish, odamlarni garovga olish orqali mintaqadagi ichki siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish kabi vositalardan foydalanadi.

“Turkiston islom harakati” so‘ngi yillarda talofatlar, strukturaviy o‘zgarishlar, rahbar a'zolar orasidagi yo‘qotishlarga duch keldi. Hozirda g‘oyaviy targ‘ibot kuchaytirilib, bosma va elektron nashrlar tarqatilishiga katta urg‘u berilmoqda.

Hizb at-Tahrir al-islomiy (Hizbut tahrir). Hizbut tahrir 1953 yili Quddus shahrida falastinlik ilohiyotchi Taqiy ad-din an-Nabahoniy (1909-1979) tomonidan asos solingan diniy-siyosiy partiya. U Hayfada tug‘ilib o‘sgan, Qohiradagi «al-Azhar» universitetida ta‘lim olgan Partiyaning dasturi 187 bobdan iborat bo‘lib, asosiy maqsadi hokimiyatga erishish.

Uning ta‘limoti uch bosqichdan iborat:

1. g‘oyaviy fikriy kurash.
2. Jamiyatda g‘oyaviy inqilobni amalga oshirish.
3. Hokimiyatga faqatgina umma jamoasining to‘liq roziligidan so‘ng kelish.

«Xizbut-taxrir al-islomiy» tarafdorlari Tunis, Iroq, Jozoir, Sudan, Yaman va boshqalarda o‘z faoliyatini yashirin olib bormoqdalar. Uning hozirgi kundagi rahbari Abd al-Qadim az-Zullumdir. «Xizbut-taxrir» tuzilishi jihatidan piramida shaklida ya‘ni xalqa tartibida har bir guruh 5-6 kishidan iborat. Uning o‘quv ishiga Mushrif rahbarlik qiladi, Amir Mushrifga mashg‘ulotlarni o‘tkazishda yordam beradi. Qarorgohi – Angliya - London. O‘zbekiston xududida «Xizbut-taxrir»ning boshlang‘ich bo‘limlari tashkil topa boshlagan edi.

Hizbning asosiy maqsadi - avval arab davlatlari miqyosida, keyin islom dunyosi miqyosida va nihoyat jahon miqyosida xalifalik shaklidagi islom davlatini tuzish. Ularning asosiy da‘vosi - Mustafo Kamol Otaturk tomonidan 1924 yili Usmoniy xalifa Ikkinchi Abdulmajid (1922-1924) xalifalikdan g‘ayriqonuniy chetlatildi. Davlat diniy-islomiy qonunlar asosida xalifa tomonidan idora etilishi lozim. Hizb dasturi 187 banddan iborat bo‘lib, asosiy maqsadi - hokimiyatga erishish. Bundagi asosiy yo‘l - islomiy fikrlovchi shaxslarni shakllantirish. Ularga islomiy ta‘lim-tarbiya berish ikki bosqichdan iborat: 1) u bilan islom ta‘limotini o‘rgatish yo‘lida madaniy-ma‘rifiy ishlar olib borish; 2) siyosiy faoliyatga tortish.

Maqsadga erishish uchun kurash uch bosqichdan iborat:

- g‘oyaviy-fikriy kurash;
- jamiyatda g‘oyaviy inqilobni amalga oshirish;
- hokimiyatga faqatgina umma - jamoaning to‘liq roziligidan so‘ng kelish.

Hizbut tahrir tarafdorlari ko‘pgina musulmon davlatlari, jumladan Tunis, Iroq, Jazoir, Sudan, Yaman va boshqalarda o‘z faoliyatlarini yashirin olib bormoqdalar. Uning hozirgi kundagi rahbari Abd al-Qadim az-Zallumdir.

Hizbut tahrir tuzilish jihatidan piramida shaklidadir. Har bir guruh (halqa) alohida-alohida bo‘lib, 5-6 kishidan iborat. Guruhlarning o‘quv ishiga «mushrif» rahbarlik qiladi. Undan tashqari guruhda yana bir rahbar - «amir» bo‘lib, u mushrifga mashg‘ulotlarni o‘tkazishda bevosita yordam ko‘rsatadi. Mushrif bir vaqtning o‘zida bir necha guruhda ta‘lim ishlarini olib borishi mumkin. O‘qish davomida tinglovchilar diniy mavzudagi mashg‘ulotlar bilan birga siyosiy, jumladan, musulmon davlatlarida sodir bo‘layotgan voqealarni diqqat bilan o‘rganadilar.

O‘zbekiston hududida 1992 yildan boshlab partiyaning boshlang‘ich bo‘linmalari tashkil etila boshlagan. Hizb safiga kiruvchilar o‘z partiyalari haqidagi ma‘lumotlarni hech qachon oshkor etmaslikka o‘z mushrifi buyurgan vazifalarni so‘zsiz bajarishga Qur‘on bilan qasam ichadilar. Hizb mutasaddilari o‘z tarafdorlarini ko‘proq ziyolilar, ilmiy xodimlar, talaba yoshlar orasidan qidiradilar.

Yetarli ta‘lim olgan shaxslar keyinchalik o‘zlari mustaqil guruh tuzishlari lozim. Tahrirchilarning ta‘limi bosqichma-bosqich olib boriladi. Birinchi bosqichda «Islom nizomi» va

«Izzat va sharaf sari» kitoblari bo'yicha o'qitiladi, «al-Va'y» jurnalidagi ma'lumotlar muhokama qilinadi. Keyingi bosqichlarda «Demokratiya kufr nizomi», «Siyosiy ong», «Xalifalikning tugatilishi», «Hizbut tahrir tushunchalari», «Islomiy da'vatni yoyish vazifalari va sifatleri» kabi kitoblari o'qitiladi. Bu adabiyotlar partiya manfaatlarini ko'zlab, Qur'on oyatlari va hadislarini noto'g'ri talqin qilib dindorlar ongiga ta'sir qilish mo'ljallangan. Ushbu nashrlar dindorlarni siyosilashtirilgan islomga targ'ib etib, ularni fuqaroviy bo'ysunmaslikka va muomaladagi umumiy qoidalarini inkor etishga chaqiradi.

Hozirgi zamon islom ulamolari – Yusuf Qarzoviy, Sayyid Muhammad at-Tantoviy, Nosir ad-din al-Alboniyar Hizbut tahrirni *ohod* hadislarga, qabr azobiga, *sirot* ko'prigiga ishonmasliklari uchun ularni *ahl as-sunna va-l-jamo'a* safidan chiqqan hisoblaydilar.

Akromiylar. Respublikamiz hududida tashkil topib, hozirda faoliyati deyarli to'xtatilgan noan'anaviy ham islom ta'limotiga ham konstitutsiyaviy davlatchilik asoslariga zid bo'lgan guruh «Akromiylar»dir.

Akromiylar 1996-1997 yillarda Andijonda tashkil topib, uning nomi guruh asoschisi - 1963 yilda tug'ilgan Yo'ldoshev Akrom nomi bilan bog'liq. A. Yo'ldoshev Hizbut tahrirning etakchisi an-Nabahoniy g'oyalari asosida 12 darsga mo'ljallangan «Imonga yo'l» risolasini yozgan. Shu sababdan akromiylarni «Imonchilar» deb ham yuritiladi.

Akromiylar ham davlat tepasiga chiqish kabi g'arazli maqsadlarni ko'zlaydilar. Biroq, ular tahrirchilardan farqli o'laroq, xalifalik davlatini mahalliy sharoitdan kelib chiqib, avvalo Andijonda, so'ng Farg'ona vodiysida amalga oshirmoqchi bo'ldilar. Akromiylar siyosiy hokimiyatga erishishning 5 bosqichini rejalashtirganlar - «sirli», «moddiy», «uzviy», «maydon» va «oxirat». To'rtinchi va beshinchi bosqichlar tamomila islomlashtirish davri tugagach boshlanishi va ochiqdan-ochiq hokimiyat uchun kurash bosqichlari bo'lmog'i lozim edi.

Bu guruh a'zolari asosan hunarmandlardan iborat bo'lib, ular rasmiy ishxonalardan bo'shab, jamoa ma'qullagan mehnat faoliyati bilan shug'ullanganlar. Zarurat tug'ilganda «birodarlari»ga «jamo banki»dan moddiy yordam berganlar. Undan tashqari jamoa a'zolariga tashkiliy ravishda oziq-ovqat mollari tarqatib turilgan. Quda-andachilik faqat «birodarlar» o'rtasida amalga oshirilgan

Asoschisi turkiyalik Sayyid Nursiy Badiuzzamon bo'lgan «Nurchilar» tashkilotining asl maqsadi – mavjud hokimiyat uchun qarshi chiquvchi o'ta diniy, mutaassib kishilarni tarbiyalashdan iborat.

1942 yilda Turkiyaning Erzurum shahrida tug'ilgan F.Gyulen "Nur" harakatining asoschisi Sayyid Nursiy vafotidan so'ng uning o'rnini egallagach, nurchilarning Izmirdagi harakati rejalarini ishlab chiqqan va harakat ishtirokchilarining amaliy mashg'ulotlariga rahbarlik qilgan.

F.Gyulen qalamiga mansub 24 ta kitob va 130 dan ziyod turli videokassetalar mavjud. Turkiyada F.Gyulen tashkil qilgan 90 ta turli jamg'arma, 103 ta xususiy maktab, 211 ta shirkat, 160 ta o'quv kurslari va 500 ga yaqin yotoqxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Shuningdek, u "Sizinti", "Yni umit" va "Fontan" kabi 14 ta jurnal, "Zaman" kundalik gazetasi, "Samanyoli" xususiy telekanali va ikki radiostansiyaga egalik qiladi.

Oqim vakillari o'zlariga yangi a'zolarini jalb etishda birinchi navbatda, «Nurchilar» jamoasi faoliyati siyosatdan uzoq degan fikrni singdirishga harakat qiladilar. Aslida bu bir niqob bo'lib, ularning faoliyati negizida aynan siyosatga aralashuv yotadi. Tashkilotning strategiyasi uzoq davrga mo'ljallangan bo'lib, asta-sekinlik bilan yoshlarga mutaassib diniy Qoyalarni singdirib borish va kelajakda ularning rahbar lavozimlarga tayinlanishi orqali "Nurchilar" jamoasiga moyil shaxslarni hokimiyat tepasiga chiqarishga asoslangan.

Vahhobiylar harakati XVIII asrning boshlarida vujudga kelgan bo'lib, u XIX asrda yana ham kuchaydi. XX asrning birinchi, xususan ikkinchi yarmida turli musulmon mamlakatlarida (Tojikiston, Afg'oniston, Checheniston, Dog'iston, Jazoir va boshqalarda) yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyatdan foydalanib vahhobiylar o'z ta'sirlarini kuchaytirdilar va natijada salbiy oqibatlarining kelib chiqishiga, hattoki, qonli to'qnashuvlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldilar.

Keyingi o'n yilliklar davrida vahhobiylar harakatining namoyandalari O'zbekistondagi musulmonlarga ham o'z ta'sirini o'tkazish uchun turli yo'llardan foydalandilar. Matbuot bergan xabarlariga ko'ra: "Xizbi" harakati, "Jihad", "Da'vat ul irshod" va "Pokiston islom ulamolari jamiyati" kabi tashkilotlar yordamida O'zbekistonlik, aksariyati Farg'ona vodiysi yoshlaridan Peshovor tumanida joylashgan diniy o'quv yurtlarida o'qiyotgani ma'lum bo'ldi. Tayyorlangan jangarilar turli ishlar bilan O'zbekistonga kelib islom davlati barpo etish maqsadlarini amalga oshirishni mo'ljallagan edilar.

Vahhobiylar harakatining maqsadi va mazmunini tahlil etadigan bo'lsak, u hanbaliya mazhabidan boshqa bir mazhabni tan olmagan va islom dinidagi har qanday yangilikni rad etgan; ayni paytda bu dinning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan aziz-avliyolarning xizmatini inkor etib, yodgorliklar, qabrlarni vayron qilishga chaqirgan.

Dalillarga murojaat qilaylik. Islomshunos olimlarning bergan ma'lumotlariga ko'ra, vahhobiylar davstavval Rasuli Akram sahobalaridan birining Jubayilidagi qabrini vayron qildilar. 1802-1803 yillarda Muhammad payg'ambarning nabiralari - Imom Hasan va Imom Husaynlarning qabrlarini vayron qildilar. Qabr maqbaralaridagi qimmatbaho bezaklarni, oltin suvi yuritilgan g'ishtlarni tuyalarga ortib o'lja sifatida olib ketdilar. Bu vahshiyliklarga qarshi chiqqan mo'ysafidlar, ayollar, hatto bolalar shafqatsizlarcha qirib tashlangan. Qabrlardagi talon-taroj 8 soat davom etgan. Shu vaqt ichida qarshilik ko'rsatganlardan to'rt ming odam qilichdan o'tkazilgan.

Tarixiy voqealar shuni ko'rsatadiki, vahhobiylar islom dinini "asl holatiga keltirish" da'vati ostida bosqinchilik, talonchilik bilan shug'ullanishgan.

1803 yili vahhobiylar Makkani, keyin Madina shahrini bosib olishdi. U erdagi barcha qabrtoshlarni, hatto Bibi Fotima va sahobalar sog'anasidagi qabr toshlarni buzib tashlashdi. 1810 yilga kelib Muhammad payg'ambarning masjidini ham talon-taroj qilishdi.

Bunday xunrezliklarga chiday olmagan Misr hukmdori Muhammad Ali 1811 yili bu yovuzlikka qarshi chiqib, o'z qo'shinlari bilan avval Xijozni, so'ng 1818 yili Dir'ani vahhobiylardan tozaladi. Shundan so'ng hokimiyat misrliklar qo'liga o'tsa ham, baribir, vahhobiylar vaqti bilan o'sha davlatni tiklashdi. Uning poytaxti Ar-riyod bo'ldi¹.

Vahhobiylar g'oyalari o'tmishda O'rta Osiyoda, shu jumladan, O'zbekistonda yashaydigan musulmonlar o'rtasida bo'lmagan. Bizdagi musulmonlar, asosan, hanafiya mazhabiga e'tiqod qiluvchilardir. Hozirgi davrda bizning diniy, milliy qadriyatlarimiz mezonlariga qarama-qarshi bo'lgan vahhobiylar g'oyalari katta mablag'larga ega bo'lgan ajnabiy kuchlar va ularga ergashgan kishilar tomonidan targ'ib qilinmoqda.

Fundamentalist vahhobiylardan arang qutulganimizda ularning horijiy homiylari mafkuraviy kurash jabhasiga chiqdilar. Bu xurujni Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov "mafkuraviy tahdid" deb atagan. U shunday deb yozgan edi: "Bizdan uzoq-yaqin masofalarda


<https://elibrary.namdu.uz/86%D0%94%D0%B8%D0%BD%D1%88%D1%83%D0%BD%D0%BE%D1%81%D0%B%D0%B8%D0%BA/86.%20Diniy%20ekstremizm%20v%D0%B0%20terrorizmga%20qarshi%20kurashning%20ma%E2%80%99naviy-ma%E2%80%99rifiy%20asoslari.pdf>

joylashgan ayrim islom davlatlarida oʻrta asrlarda mavjud boʻlgan musulmon xalifaligini tiklashni oʻz oldiga maqsad qilib qoʻygan muayyan tashkilotlar mavjud”².

Garchi bunday tashkilotlarning niyati xomhayol boʻlsa ham, unga qiziqadigan kalta fahmlar, bir urinib koʻraylikchi, noumid shayton deguvchi kimsalar boʻlgan.

1999 yil 16 fevral kuni Toshkent shahrida qabih va razil niyatli kimsalar terrorchilik hurujlari sodir etdilar. Birinchi Prezidentimizning “Toshkent shahridagi fojeali hodisalar munosabati bilan motam kuni eʼlon qilish toʻgʻrisida” gi Farmonida qayd qilinganidek, “Mustaqilligimizga, xalqimizning osoyishta hayotiga, yurtimiz xavfsizligiga tajovuz qilishga qaratilgan bu yovuz urinish oqibatida begunoh odamlar halok boʻldi”³.

Portlash oqibatida 15 kishi halok boʻlgan, yuzdan ziyod odam jarohatlangan; jabrlanganlarning deyarli barchasi tinch aholi vakillari edi. Bu mudhish hodisa roʻy bergan joyga etib kelgan mamlakatimizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov jurnalistlar bergan savollarga javobida bunday degan edi: “Bizni hech kim tanlagan yoʻlimizdan qaytara olmaydi. Qoʻporuvchilik qilganlarning maqsadi xalqimizning tinchligini buzish, qoʻrqitish, yuragiga vahima solish, yuritayotgan siyosatimizga ishonchini soʻndirish, amalga oshirayotgan ulkan ishlarimizga zarba berishdan iborat boʻlgan”⁴.



“Nurchilik” harakati saflarining asosini yoshlar tashkil etadi. Harakat tomonidan tashkil etilgan ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshiriladigan targʻibot va tashviqot natijasida

¹ И.А.Каримов. Тошкент шаҳридаги фожеали ҳодисалар муносабати билан мотам куни эълон қилиш тўғрисида. “Ўзбекистон овози”, 1999 й. 18-февраль сони.

ularning saflari kengaymoqda. Mazkur oqim a'zolari Hindiston, Pokiston va Malayziya mamlakatlarida ham paydo bo'lgan. Shuningdek, Amerikada tahsil oluvchi turk talabalari orasida «Nurchilar» da'vatiga ergashuvchilar borligi sababli bu harakat AQSH hududida ham tarqalmoqda. Turkiyadan tashqarida, masalan, Germaniyada F. Gyulen tarafdorlari tomonidan til maktabi, ikkita o'quv markazi, radiostansiya, kasalxona va bolalar bog'chasi, Gollandiya va Shveysariyada – ikkita jamg'arma, Bolqonda – ikkita xususiy maktab, bizga qo'shni bo'lgan Markaziy Osiyo davlatlarida – 128 ta xususiy litsey va 6 ta universitet, Yaqin Sharq va Afrikada – 3 ta maktab va 2 ta til kurslari, AQSHda – 2 ta yotoqxona va masjid tashkil qilingani ham ular faoliyatining qamrovi to'g'risida tasavvur hosil qilish imkonini beradi. F.Gyulen faoliyatining iqtisodiy manbai bo'lib “Aziya Faynens”, “Ishik” kabi eng yirik sug'urta va ko'plab tijorat kompaniyalari xizmat qiladi va odatda, bu homiylar o'z yordamlarini oshkora qilmaydilar.

Bu oqimning yurtimizga kirib kelishi 1992 yildan boshlab kuzatilgan. Dastlab oqim Qoyalari turkiyalik ekstremistlarning moddiy va ma'naviy ko'magida etkazilgan. Ayni damda ular maxfiy tarzda harakat olib borishga urinmoqdalar.

Yuqorida qayd etilgan diniy ekstremistik guruhlar islom dinini “asl holatiga qaytarish” da'vati ostida bosqinchilik, talonchilik va begunoh insonlarning qonini to'kish kabi terrorchilik ishlarini amalga oshirmoqda. Mazkur guruhlarining Qoyalari jamiyat hayotining ajralmas bo'lagi sanalgan ma'naviy va madaniy taraqqiyotga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

5-reja bayoni. O'zbekiston davlat siyosatida radikal oqimlarga qarshi kurashning yo'nalishlari.

Bugungi kundagi globallashuv sharoitida hamda xalqaro yoki mintaqaviy miqyosda yuzaga kelayotgan nizoli vaziyat va mojarolarning mavjudligi holatida ekstremizm, radikalizm va terrorizm singari buzg'unchi mafkuralarga qarshi kurashish masalasi kun tartibidagi dolzarb mavzular sirasiga kirmoqda. Bunga ekstremistik va radikal g'oyalar ta'siriga tushib qolayotgan insonlarning aksarini yoshlar tashkil qilayotgani va ularning son jihatdan ortib borayotganini sabab qilib ko'rsatish mumkin.

Bugun ekstremizm va terrorizm kabi vayronkor g'oyalarni yoqlaydigan jamoa va tashkilotlarning a'zolari tomonidan zamonaviy axborot vositalaridan foydalanib, din niqobi ostida yoshlarimizni zo'ravonlikka, milliy o'zlik va oilaviy qadriyatlarni yo'qotishga undash harakatlari bilan jamiyatda murosasizlik, buzg'unchilik va radikal qarashlarning tarqalishi harakatlari davom etayotganini kuzatish mumkin. Bunday harakatlar zahirida esa terrorchi tashkilotlarning o'z safini yanada kengaytirish maqsadlari borligi namoyon bo'lmoqda.

Shu sababli, muqaddas dinimizda qoralangan, qadriyatlarimizga zid bo'lgan va an'analarimiz qabul qilmaydigan radikalizm, ekstremizm va terrorizm kabi illatlardan yoshlarimizni asrash, ularning tarqalishiga xizmat qilayotgan har qanday faoliyatga chek qo'yish yuzasidan chora-tadbirlarni belgilash, bu borada milliy va xalqaro tajribalardan foydalanish davlatimiz siyosatining muhim yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Ta'kidlash lozimki, dunyo mamlakatlarida tahdidlarni oldini olish bo'yicha turli yo'nalishlar va tadbirlar jarayoni amalga oshiriladi. Xususan, O'zbekistonda hukumatimiz tomonidan tegishli ishlar tashkil qilingan. Bu borada aholi, ayniqsa, yoshlar orasida radikalizm va ekstremizm g'oyalarining tarqalishini oldini olishga qaratilgan oliy darajadagi hujjatlarni qabul qilish orqali belgilanib berilganini kuzatish mumkin.

Jumladan, 2023-yil 28-fevraldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini

“Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid Davlat Dasturining 82-maqsadi “Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini shakllantirish” deb nomlandi. Mazkur yo’nalish doirasida yosh avlodda ekstremizmga qarshi kurashishda qat’iy va barqaror immunitetni shakllantirish yuzasidan tadbirlarni tashkil etish vazifasi manfaatdor idoralar zimmasiga yuklatildi. Buning amaliy ifodasi sifatida “Jaholatga qarshi ma’rifat” shiori ostida ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlash, dinlararo va millatlararo totuvlikni mustahkamlash, terrorizm va ekstremizm g’oyalari ga qarshi kurashish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita vakillari, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi professor-o‘qituvchilari, yurtimizdagi Imom Buxoriy, Imom Termiziy va Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining malakali xodimlarini jalb qilgan holda ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot tadbirlar o‘tkazilmoqda. Targ‘ibot tadbirlari respublikaning davlat va jamoat tashkilotlari, mahalla fuqarolari yig‘ini hamda davlat va nodavlat tusidagi oliy va o‘rta-maxsus ta’lim muassasasi vakillari uchun tashkil etilmoqda.

Mazkur tadbirlar doirasida 100 dan ortiq oliy ta’lim muassasalarining talabalari orasida islomga yot bo‘lgan g’oyalar, buzg‘unchilik qarashlari va umuminsoniy qadriyatlarni inkor qiladigan turli mafkuralarning tarqalishi oldini olish bo‘yicha suhbatlar o‘tkazish amaliyoti joriy qilindi. Shu bilan birga, talabalarda vatanga muhabbat, ota-onasi va murabbiylarga hurmat singari ezgulik tamoyillarining ahamiyati haqida tushunchalar berib borish jarayonlari o‘zining ijobiy holatini namoyish qildi.

Bundan tashqari, yurtimizda radikalizm va ekstremizmga qarshi kurashishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo‘lib, mazkur qonun hujjatlarni amaliyotga joriy qilish ushbu yo‘nalishda mavjud mexanizmlarining yanada samarali ishlashiga turki bo‘ldi. Jumladan, 2018-yil 30-iyul sanasida O‘zbekiston Respublikasining “Ekstremizmga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilinishi o‘laroq mamlakatimizda ekstremizmni oldini olish chora-tadbirlarining yangi talablari joriy qilindi. Mazkur qonunda ekstremizm faoliyati, ekstremizm bilan shug‘ullanuvchi guruh va tashkilot hamda ushbu faoliyatni moliyalashtirishning oqibatlarini yuzasidan tushunchalar ochib berildi.

Shuningdek, 2021-yil 1-iyulda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni asosida qabul qilingan 2021-2026-yillarga mo‘ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha O‘zbekiston Milliy strategiyasi tasdiqlandi. Milliy strategiyaning qabul qilinishi tarixiy voqea sifatida talqin qilish mumkin. Sababi, ushbu hujjat yangi O‘zbekiston sharoitida buzg‘unchi illatlarga qarshi kurashishning o‘ziga xos yo‘nalishlarini belgilab berdi. Strategiyada ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishdagi mavjud tajriba, shuningdek, mintaqa davlatlaridagi mazkur tahdidlarga qarshi kurashish bo‘yicha holatning qiyosiy tahlillari tadqiq qilingan holda Markaziy Osiyoda ekstremistik va terrorchilik faoliyatining o‘ziga xos jihati, milliy, ijtimoiy, diniy holatlari o‘rganildi. Milliy strategiyaning ustuvor yo‘nalishlari quyidagilar etib belgilandi:

- ekstremizm va terrorizm mafkurasi tarqalishining oldini olish maqsadida vatanparvarlik, an’anaviy qadriyatlar va bag‘rikenglik g’oyalarini targ‘ib qilish;
- voyaga yetmaganlar va yoshlar orasida ekstremistik g’oyalar tarqalishining oldini olish;
- xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish va ularning ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishdagi rolini kuchaytirish;
- uzoq muddat xorijda bo‘lgan fuqarolarni ekstremizm va terrorizm g’oyalari ta’siridan himoya qilish;
- ekstremistik va terrorchilik maqsadlarida Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanishga qarshi kurashish;

- fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalarining ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishdagi ishtirokini ta'minlash;
- ekstremistik va terrorchilik harakatlari, shuningdek, ularni moliyalashtirganlik uchun huquqiy ta'qib va javobgarlikka tortish choralari takomillashtirish;
- ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish;
- xalqaro va mintaqaviy hamkorlik.

Strategiyada belgilangan har bir vazifa va yo'nalishlar tarkibida yurtimiz aholisi, xususan, kelajak avlodimizni radikal qarashlardan har tomonlama asrash maqsadlari ko'zlanganligi namoyon bo'ladi.

Shu bilan bir qatorda, davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan minglab mahkumlarning afv etilishi, fuqarolarning turli ro'yxatlardan chiqarilishi, shuningdek, "Mehr" operatsiyalari doirasida mojaroli hududlardan 500 dan ortiq ayollar va yosh bolalarning yurtimizga olib kelinishi orqali jamiyatda inson qadri va uning erkini oliy qadriyat sifatida talqin qilinayotganligini yana bir bor namoyon qildi. Bu esa jamiyatdagi ayrim shaxslarning o'z mamlakatiga nisbatan ishonchining ortishi va davlat siyosatiga nisbatan xayrixohlik kayfiyatini paydo qilishga xizmat qildi deyish mumkin.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, O'zbekistondagi ekstremizm va radikalizm g'oyalari oldini olish bo'yicha amaliyot va chora-tadbirlar zahirida yurt-tinchligini asrash, yoshlarni buzg'unchi qarashlardan saqlash, diniy qadriyatlarni himoya qilish singari maqsadlar yotadi. Bunday harakatlar esa diniy-ma'rifiy targ'ibotlar va huquqiy bazani mustahkamlash ishlarini tashkil qilish yo'li bilan amalga oshirilishi samaradorlikni yanada oshirmoqda. Mazkur jarayonlar O'zbekistonda radikalizm va ekstremizmni oldini olishda o'ziga xos tajriba shakllanishiga xizmat qilmoqda.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

1. Mutaasablik, ekstremizm, aqidaparastlik, radikalizm, fundamentalizm, terrorizm, xalqaro terrorizm tushunchalarining mazmun mohiyatini tushuntiring?
2. Diniy fundamentalizmning tarixi va rivojlanish bosqichlari qanday kechgan?
3. Markaziy Osiyo mintaqasida faoliyati kuzutilgan diniy ekstremistik harakatlarning maqsadlari nimalardan iborat?
4. Al-Qoida, ixvanul muslimin, ISHID, boko xaram tashkilotlarining dunyo hamjamiyati xavfsizligiga tahdidi qanday namoyon bo'lmoqda?
5. Tahdidlarga qarshi musulmon ulamolari tomonidan qanday raddiyalar berilgan?
6. O'zbekistonda sodir etilgan terroristik harakatlarni qanday izohlaysiz?
7. Turkiston islom harakati, xizbut tahrir, akromiylar, vahobiylik va nurchilik harakatlari tarixi va maqsadlarini tushuntiring?
8. O'zbekiston davlat siyosatida radikal oqimlarga qarshi kurash qanday kechmoqda?

14-MAVZU. DUNYO HAMJAMIYATINING EKSTREMIZM VA TERRORIZMGA QARSHI KURASH TAJRIBASI.

Reja:

1. Xalqaro tashkilotlarning terrorizmga qarshi kurashi.
2. Global terrorizmga qarshi global hamkorlikning yo'nalishlari: BMTning global antiterror strategiyasining asosiy yo'nalishlari: terrorizmning tarqalishi uchun qulay sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar, terrorizmning oldini olish va unga qarshi kurashish, davlatlarning terrorizmning oldini olish va unga qarshi kurashish salohiyatini kuchaytirish, inson huquqlari va qonun ustuvorligiga umumiy hurmatni ta'minlash.
3. Shanxay hamkorlik tashkiloti va mintaqaviy antiterror tuzulmasi faoliyatining ahamiyati.
4. O'zbekistonning terrorizmga qarshi kurash tajribasi.
5. O'zbekistonda diniy terrorizmga qarshi «Jaholatga qarshi ma'rifat» g'oyasining ahamiyati.

Tayanch so'z va iboralar: *Xalqaro tashkilotlar, Global terrorizm, global hamkorlik, BMT, Shanxay hamkorlik tashkiloti, «Jaholatga qarshi ma'rifat», diniy terrorizm, mintaqaviy antiterror tuzulma, Rik Kulset, Struye de Svilend, BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasi, tinchlik, ksenofobiya, islomofobiya.*

1-reja bayoni. Xalqaro tashkilotlarning terrorizmga qarshi kurashi.

Terrorizm va ekstremizm dunyo hamjamiyati uchun hanuzgacha asosiy tahdidlardan biri bo'lib qolmoqda. Insoniyat hamon diniy mutaassiblik, radikalizm, zo'ravonlik va terrorizm xurujlaridan aziyat chekib kelmoqda. Aholi orasidagi diniy qatlamni radikallasuvi ularni zo'ravonlikka undaydi hamda tinchlik, xavfsizlik, jamiyat va inson huquqlarining barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Hozirgi vaqtda biror-bir davlat jangovar ekstremizm va terrorizm oqibatlaridan to'liq himoyalangan emas. Ko'plab davlatlarda hozirgacha yuqori darajadagi terror xavfi saqlanib qolmoqda. Zo'ravon ekstremistlar tomonidan amalga oshirilgan terrorchilik holatlari jamoalar o'rtasida nizo urug'ini sepib, ksenofobiya, islomofobiya va jamiyatda qarama-qarshi ekstremistik qarashlarning tarqalishiga yordam bermoqda.

Uzoq tarixga ega bo'lishiga qaramasdan bugungi zamonaviy terrorizm tarixdagi terrozimdan farq qiluvchi jihatlariga ega. Birinchidan, zamonaviy terrorizm ko'proq milliy darajada sodir bo'lgan oldingi klassik ko'rinishdan farqli ravishda global miqyosda namoyon bo'lmoqda. Ikkinchidan, zamonaviy terrorizm avvalgilariga qaraganda yana ham shavqatsiz, tajovuzkor va kutilmaganda namoyon bo'ladi. Zamonaviy terrorizmning shu jihatlaridan uni tahmin qilishni, rejalashtirishni va unga qarshi kurashga tayyorgarlik ko'rishni yanada qiyinlashtiradi. Nyu-York, Madrid, London, Parij, Istambul, Nisa, Bryussel, Dakka va Bag'dodda sodir bo'lgan aktlar terrorchilik xurujlarini oldindan aytib bo'lmasligi, uning qattoligi hamda makon tanlamasligini namoyish qildi. Terrorizmning avvalgi ko'rinishlari asosan separatizm, millatchilik, din va diniy mazhablar o'rtasida, ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik tufayli yuzaga kelgan bo'lsa zamonaviy terrorizm to'liqini diniy burch hissi va diniy aqidaparastlik mafkurasi bilan yo'g'rilgan.

Rik Kulset va Struye de Svilendning ta'kidlashicha, terrorchilar mafkurasi asosan siyosiy va diniy nuqtai nazardan pishib yetilmagan kishilarda namoyon bo'ladi. U mutaassiblarning utopik qarashlari bilan buzib ko'rsatiladi va ko'plab dindorlar uchun tushunarsizdir. Zamonaviy

terrorizmning mafkuraviy va diniy asoslarining ishonchsizligini unga qarshi kurashda samarali qo'llashda terrorizm va ekstremizm mafkurasining zaif nuqtalaridan biri sifatida qarash mumkin. Professor Hamid as-Saidning bu boradagi fikriga ko'ra terrorchilar ustidan g'alaba qozonmoqchi bo'lsak ularning mafkurasini yengish kerak, sababi g'oyalar kurashi ularga "strategik kurash" kabi ko'rinadi.

Radikal diniy mafkura o'z tashviqotini siyosatchilar, mahalliy ulamolar va diniy tashkilotlarga qaraganda tez, ilg'or hamda samarali tarqatmoqda. Mutaxassislar va ilmiy tadqiqotchilar terrorizmga qarshi kurash faqatgina jismoniy kurash holatida davom ettirish foydadan ko'ra ko'proq zarar keltirishini ta'kidlashgan. Shundan kelib chiqib, diniy aqidaparastlar hamda ekstremistlarni o'z g'oyalaridan qaytarish va ularni ijtimoiy reabilitatsiya qilish bo'yicha "aqlli" va "yumshoq" dasturlar ishlab chiqib, amaliyotga joriy qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu kabi dasturlarni avvalo diniy ekstremizm va terrorizm faoliyatida ishtirok etgani uchun sudlangan shaxslar, shuningdek boshqa jinoyatlar bilan ayblanib hukm qilingan, ammo jazoni ijro etish muassasalarida diniy ekstremistik tashkilotlarga qo'shib qolgan mahkumlarda tatbiq qilish lozim. Qamoqxonalarda ekstremistik qarashlarning tarqalishi muammosi ko'plab mamlakatlarda mavjud. Jumladan, respublikamiz qamoqxonalarida ham bunday radikallashtirish jarayonlari uchrab turishi haqida aytish mumkin.

Hozirgi kunda diniy ekstremistik oqimlar g'oyasidan qaytarishning yumshoq dasturlarini amalga oshirish tashabbuslari ko'plab mamlakatlarda, xususan, Irlandiya, Kolumbiya, Norvegiya, Germaniya, Fransiya, Shvetsiya va boshqa shu kabi davlatlarda amalga oshirilmoqda. Diniy ekstremistik oqimlar g'oyasidan qaytarishning yumshoq usullari samaradorligi Sinay, Turkiya, Malayziya, Indoneziya, Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarda "Contest" ekstremizmga qarshi kurash strategiyasi dorasida, Birlashgan Arab Amirliklarida "Hidoya", "Savob" singari ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash markazlari faoliyati dorasida, Saudiya Arabistonida "Munasaxa", Misr Arab Respublikasida esa "Ekstremizmga qarshi kurash bo'yicha al-Azhar observatoriyasi" va boshqa markazlar faoliyati doirasida amalda isbotlangan. Karnegi jamg'armasi tadqiqotchisi Kristofer Busek, general Petrus Golos va boshqalar Indoneziyaning deradikallashtirish dasturini tahlil qilib shunday xulosaga kelgan: "deradikalizatsiya dasturlari terrorizm va radikallashtirishdan qutulishning eng samarali usuli, chunki ushbu dasturlar muammoni tubdan hal qiladi". Shuni ta'kidlash joizki Saudiya Arabistoni va Yaman davlatlarida amalga oshirilgan deradikallashtirish dasturidan o'tgan ekstremistlar orasida yana ekstremizm yo'lga qaytish holatlari ham kuzatilgan. Yumshoq dasturlar orqali ekstremistik oqimlar g'oyasiga qarshi kurashuvchi markazlar sirasiga Qozog'iston Respublikasida faoliyat yurituvchi "Ansar" reabilitatsion-maslahat markazini ham kiritish mumkin.

Mamlakatimizda diniy ekstremistik oqimlar g'oyasidan qaytarishning istiqbolli dasturlari mavjudligiga qaramay, bu tor doiradagi o'ziga xos sohada olib boriladigan ishlarning nazariy tomonlari va amaliy metodlari rivojlanish jarayonida ekanligini tan olish lozim. Bundan tashqari, yumshoq deradikallashtirish usullari tobora ommalashib borayotgan bo'lsada, bunday usullarning o'ziga xos shart-sharoitlari, tarkibiy qism va texnikalari to'g'risida ma'lumot juda ham cheklangan.

Diniy ekstremizmga qarshi kurash borasida izlanishlar olib borgan tadqiqotchilar deradikallashtirish – bu diniy, psixologik, ijtimoiy va oilaviy reabilitatsiyani talab qiladigan murakkab jarayonlar majmuasi ekanligini aytadilar. Doktor Hamid Saidning ta'kidlashicha, muvaffaqiyatli deradikallashtirishni amalga oshirish uchun mikro va makro darajalarda ham muayyan shart-sharoitlarni talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda butun dunyo uchun xatarga aylanib ulgurgan diniy ekstremizm va terrorizm muammosiga qarshi kurashishda ekstremizm va terrorizmning oldini olish bo'yicha amalga oshiriladigan turli chora-tadbirlarning barchasi tizimli bo'lishi kerak. Radikal mafkurasiga qarshi barcha uchun tushunarli bo'lgan diniy g'oya qo'llanishi lozim. Ayrim zamonaviy musulmonlarning diniy qarashlari siyosiy lashtirilgan va mafkuraviydir. Shu munosabat bilan ularning qarashlarini siyosat va mafkuradan ijtimoiylashuvga o'zgartirish o'ta dolzarbdir.

2-reja bayoni. Global terrorizmga qarshi global hamkorlikning yo'nalishlari:

BMTning global antiterror strategiyasining asosiy yo'nalishlari: terrorizmning tarqalishi uchun qulay sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar, terrorizmning oldini olish va unga qarshi kurashish, davlatlarning terrorizmning oldini olish va unga qarshi kurashish salohiyatini kuchaytirish, inson huquqlari va qonun ustuvorligiga umumiy hurmatni ta'minlash.

2022 yil 3-4 mart kunlari Toshkent shahrida "BMTning Global aksiterror strategiyasini amalga oshirish bo'yicha Birgalikdagi harakatlar rejasi doirasida Markaziy Osiyo mamlakatlarining mintaqaviy hamkorligi" mavzuida o'tkaziladigan xalqaro konferensiya g'oyat muhim va dolzarb ahamiyatga ega. Ushbu global anjuman mintaqa mamlakatlari va jahon hamjamiyati sa'y-harakatlarini terrorizmga qarshi hamjihatlik bilan kurashish uchun birlashish hamda faollashishga da'vat etishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqida ta'kidlaganidek, "Hozirgi vaqtda Markaziy Osiyo mintaqasida tub o'zgarishlar yuz bermoqda. Biz mintaqa davlatlari o'rtasida yaxshi qo'shnichilik va o'zaro ishonch, do'stlik va hurmat muhitini yaratishga erishdik. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida ilgari surilgan tashabbusga asosan muntazam o'tkazilayotgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari umumiy yutug'imiz bo'ldi".

Davlatimiz rahbari BMT minbaridan so'zlagan ushbu nutqida bugungi kunda Markaziy Osiyoda xavfsizlikni ta'minlash sohasida ham samarali hamkorlik olib borilayotgani haqida so'z yuritir ekan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Global aksiterror strategiyasi muvaffaqiyatli amalga oshirilayotganini e'tirof etdi.

O'z navbatida, Prezidentimiz: "Biz ushbu strategiya doirasidagi Mintaqaviy qo'shma rejaning 10 yillik natijalari va kelgusi istiqbollariga bag'ishlangan xalqaro konferensiyani o'tkazish tarafdorimiz", deb ta'kidladi.

Bo'lajak Toshkent xalqaro anjumani O'zbekiston Prezidentining ayni shu tashabbusi doirasida tashkil etilmoqda. Konferensiyaning BMT shafeligida, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar ishtirokida o'tkazilayotgani O'zbekiston olib borayotgan siyosat va uning jahon minbarlaridan e'lon qilingan tashabbuslari xalqaro hamjamiyat tomonidan keng hamda qat'iy qo'llab-quvvatlanayotganini ko'rsatadi.

Bugungi kunda Markaziy Osiyo hududi mintaqaviy rivojlanishning barcha jihatlariga – siyosat va iqtisodiyot, ekologiya va madaniy-gumanitar mezonlarga ta'sir ko'rsatuvchi jiddiy geosiyosiy o'zgarishlar davrini bosib o'tmoqda. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2019 yili Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvida qayd etganidek, "Markaziy Osiyo geostrategik joylashuviga ko'ra, ming yillar davomida jahon miqyosidagi jarayonlar markazida bo'lib kelgan. Bizning mintaqamiz doimo o'zining boy madaniy-tarixiy merosi

bilan Yevropa, Yaqin Sharq, Janubiy va Sharqiy Osiyoni bog'laydigan noyob ko'prik bo'lib xizmat qilgan".

Bunday yondashuv mintaqaning yalpi siyosiy-iqtisodiy va madaniy-gumanitar manzarasiga ijobiy ta'sir ko'rsatmay qolmadi. Ushbu siyosat asosini **"Markaziy Osiyoni xavfsizlik, izchillik va barqaror rivojlanish mintaqasiga aylantirish ustuvorligi"** tashkil etadi. Hozirgi paytda mintaqamizda, koronavirus pandemiyasining oqibatlariga qaramay, hamkorlikning chuqurlashuvi bo'yicha barqaror tendensiya kuzatilmoqda.

Global aksilterror strategiyasi va Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi

BMTning 2006 yil 8 sentyabrda qabul qilingan **Global aksilterror strategiyasining to'rtta asosiy qismidan bittasi inson huquqlari mavzusiga bag'ishlangan**. Ushbu bo'lim **"Inson huquqlarining umumjahon miqyosida hurmat qilinishi va qonun ustuvorligini terrorizmga qarshi kurashning asosiy tayanchi sifatida ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar"** deb nomlanganini qayd etish lozim.

Global aksilterror strategiyasida e'tirof etilganidek, terrorizmga qarshi kurashish va inson huquqlarini himoya qilish borasida amalga oshiriladigan ta'sirchan chora-tadbirlarning biri boshqasini aslo inkor etmaydi. Aksincha, ular o'zaro bir-birini to'ldirib, terrorizm jabrdiydalarining huquqlarini qo'llab-quvvatlash va himoya qilish uchun nihoyatda zarur hisoblanadi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, **"2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"**dagi oltinchi ustuvor yo'nalish **"Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish"** deb nomlangani bejiz emas.

Ayniqsa, ushbu ustuvor yo'nalishning **"Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini shakllantirish"** sarlavhali 82-maqsadi muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi vaqtda Taraqqiyot strategiyasi doirasida, jumladan:

- ekstremizm va terrorizmni keltirib chiqaruvchi omillarning oldini olishga qaratilgan preventiv mexanizmlarni takomillashtirish, ijtimoiy-ma'naviy muhitni yaxshilash, yot g'oyalar ta'sirining oldini olish va bunday ta'sirga tushib qolganlar bilan tizimli ishlash orqali ularning muammolarini bartaraf etish;
- aholi, ayniqsa yosh avlodda terrorizm va ekstremizm mafkurasiga qarshi qat'iy va barqaror immunitetni shakllantirish;
- ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning xalqaro-huquqiy asoslarini takomillashtirish hamda xorijiy davlatlar, mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar bilan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish sohasidagi hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini kengaytirish;
- diplomatik vakolatxonalar va konsullik muassasalari, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi, shuningdek, chet elga uzoq vaqtga ketayotgan hamda yashab kelayotgan fuqarolar bilan shug'ullanuvchi boshqa idoralarning kadrlar salohiyati va resurslarini mustahkamlash;
- xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ekstremizm, terrorizm va ularni moliyalashtirishga qarshi kurash sohasida axborot hamda tajriba almashish;
- faoliyati ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishga qaratilgan xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarda faol ishtirok etish;
- Markaziy Osiyoda BMTning Global aksilterror strategiyasini amalga oshirish bo'yicha hamkorlikdagi sa'y-harakatlarni birgalikdagi harakatlar rejasi doirasida muvofiqlashtirish;

- Markaziy Osiyoda ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha birgalikdagi ishlar doirasida axborot almashinuvi va hamkorlikni rivojlantirishga yordam beruvchi xalqaro tashabbuslarni amalga oshirishda O'zbekistonning rolini kengaytirish;

- dunyo hamjamiyati va mintaqaviy tashkilotlar e'tiborini Afg'onistonda tinchlik va hamjihatlikni ta'minlashga jalb qilish borasidagi tashabbuslarni jadallashtirish va ushbu mamlakatni mintaqaviy hamkorlik jarayonlariga, shu jumladan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishga jalb qilish kabi muhim masalalar doirasida izchil ishlar boshlab yuborilgan.

Xalqaro konferensiyada inson huquqlari masalalariga katta e'tibor qaratilayotgani, ta'bir joiz bo'lsa, Prezident Shavkat Mirziyoevning Yangi O'zbekistonni bunyod etish yo'lida ilgari surgan **"Inson qadri uchun"** tamoyili bilan o'zaro uyg'un va hamohangdir. Buni anjuman doirasida **"Inson huquqlarining umumjahon miqyosida hurmat qilinishi va qonun ustuvorligi ta'minlanishi – terrorizmga qarshi kurashning asosiy tayanchi"** mavzusi alohida sessiya majlisida muhokama qilinishi ko'zda tutilayotgani ham yaqqol tasdiqlaydi.

Mamlakatimiz BMTning Global aksilterror strategiyasini qo'llab-quvvatlagan, terrorizm va diniy ekstremizmga qarshi kurashish bo'yicha 14 ta xalqaro konvensiya hamda protokolni ratifikatsiya qilgan.

Bundan tashqari, bu borada mamlakatimizda "Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida", "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida", "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizمنى moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunlar hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

BMT va O'zbekiston: terrorizmga qarshi kurash va inson huquqlari sohasida hamkorlik

2021 yil 16 dekabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 76-sessiyasida "Terrorizm va inson huquqlari" nomli 76/169-sonli rezolyusiya qabul qilindi. Rezolyusiyada terrorizm hamda terrorizm uchun sharoit yaratadigan zo'ravonlik ekstremizmining barcha xurujlari, usul va amaliyotlari, qaysi shakl va ko'rinishda yuz berishi, qaerda va kim tomonidan sodir etilishi, qanday motivatsiya yo moliyaviy, moddiy yoki siyosiy qo'llab-quvvatlash negizida sodir etilishidan qat'i nazar, xalqaro huquqqa mutlaqo mos kelmaydigan xatti-harakat sifatida so'zsiz qoralanishi ta'kidlangan.

BMT Bosh Assambleyasining Rezolyusiyasida, shuningdek, terrorizm hamda terrorizm uchun sharoit yaratadigan zo'ravonlik ekstremizmi inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini to'la ro'yobga chiqarishga g'ov bo'lishiga e'tibor qaratilgan. Bu salbiy omillar tufayli esa, bir tomondan, insonning siyosiy, shaxsiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarini amalga oshirish yo'lida to'siqlar yuzaga kelsa, ikkinchi tomondan, davlatlarning hududiy yaxlitligi va xavfsizligi, hukumatlarning barqarorligi, huquq va demokratiyaning ustuvorligi, yanada tashvishlanarlisi, dunyoda farovon jamiyatlar, xalqaro tinchlik hamda xavfsizlikning mavjudligi ulkan tahdid ostida qoladi.

Bundan tashqari, 76/169-sonli rezolyusiyada barcha davlatlar hukumatlaridan BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining Terrorizmga qarshi kurashda inson huquqlarini rag'batlantirish va himoya qilish masalalari bo'yicha maxsus ma'ruzachisiga uning zimmasiga yuklangan vazifa hamda majburiyatlarini bajarishida har tomonlama yordam ko'rsatishi so'ralgan.

Shu o'rinda **BMT Maxsus ma'ruzachisi Fionnuala Ni Aolaynning mamlakatimizga 2021 yil 28 noyabr – 7 dekabr kunlari amalga oshirgan tashrifi davomida O'zbekiston**

tomoni u bilan yaqin hamkorlikda ish olib borgan haqida muxtasar to'xtalish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev BMT Maxsus ma'ruzachisi F.Ni Aolaynni qabul qildi. Muloqot chog'ida O'zbekistonning BMT organlari va huquqni himoya qilish institutlari bilan sherikligini mustahkamlashga qaratilgan qator qo'shma xalqaro tadbirlar o'tkazishga kelishib olindi.

BMT Maxsus ma'ruzachisi O'zbekiston Prezidenti bilan muloqoti, shuningdek keng jamoatchilik ishtirokidagi matbuot anjumani va brifinglarda ham O'zbekistonning "Mehr" operatsiyasi doirasida fuqarolarni mamlakatga qaytarish, reabilitatsiya va reintegratsiya qilish borasidagi sa'y-harakatlarini yuksak baholadi.

F.Ni Aolayn Suriya, Iroq va Afg'onistondan qaytib kelgan shaxslarning reabilitatsiya markaziga tashrif buyurdi. Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanidagi mazkur maskanda o'z vaqtida "qaynoq nuqta"lardan olib chiqilgan ayollar va bolalarni reabilitatsiya qilish uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi.

"Oila birligi va jamiyatning qo'llab-quvvatlashiga asoslangan o'zbek modeli repatriatsiya qilish, bolaning manfaatini ko'zlash va siyosiy, huquqiy va ijtimoiy harakatlar markazida o'choqli hududlardan qaytgan ayollarni samarali reintegratsiya qilish bo'yicha eng yaxshi amaliyot namunasidir", dedi BMT Maxsus ma'ruzachisi.

Jahon hamjamiyati va O'zbekistonning "Mehr" operatsiyasi

Ma'lumki, BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining 47-sessiyasi doirasida 2021 yil 5 iyul kuni **"Suriya va Iroqdan olib kelingan ayollar va bolalarning reabilitatsiyasi hamda reintegratsiyasi"** mavzuida tashkil etilgan onlayn-tadbirda O'zbekiston vakillari ishtirok etdi. Mazkur seminarda Suriyaning shimoli-sharqiy qismida joylashgan "Al-Hol" va "Roj" lagerlarida qariyb 70 ming inson – 57 davlat fuqarolari hisoblanuvchi asosan ayollar va bolalar og'ir ahvolda saqlanayotgani tashvish bilan qayd etildi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, **2019 yildan buyon O'zbekiston Suriya, Iroq va Afg'onistondagi ayollar va bolalarni qaytarish bo'yicha beshta «Mehr» operatsiyasini o'tkazdi. Mojaroli hududlardan mamlakatga jami 531 nafar kishi olib kelindi.**

Jahon hamjamiyati O'zbekistonning o'z fuqarolarini mojaro zonalaridan, shu jumladan Iroq va Suriyadan vataniga qaytarish va reintegratsiyasi bo'yicha harakatlarini olqishladi. Bunday sa'y-harakatlarda O'zbekiston kabi faollik ko'rsatgan mamlakatlar kam ekani e'tirof etildi.

Xalqaro ekspertlarning fikricha, bu sa'y-harakatlar bolalarni jabrlanuvchilar sifatida tan olishga hamda bolalar va ayollar uchun gender masalalari inobatga olingan hamjamiyatlar darajasidagi reintegratsiya dasturlari yordamida ularning shaxsiy manfaatlarini himoya qilish zarurligiga asoslangani bilan nihoyatda ahamiyatlidir.

Yanada muhimi, kuchli texnik yordam ko'rsatish va inson salohiyatini kuchaytirish orqali amalga oshirilgan ushbu sa'y-harakatlar inson huquqlarini amalga oshirish, demokratiyani rivojlantirish va qonun ustuvorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Vataniga qaytib kelgan bolalar, ayollar va oilalarning jamiyatga qaytadan integratsiyalashuvi, bir tomondan, ularning ijtimoiy jihatdan yakkalanib qolishiga barham bersa, ikkinchi tomondan, jamiyatda kambag'allikni kamaytirish orqali tinchlik va barqarorlikni mustahkamlaydi.

BMT Maxsus ma'ruzachisi F.Ni Aolayn terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashdagi yangi yondashuvlarni alohida qayd etdi. Binobarin, O'zbekiston xalqaro maydonda terrorizmga qarshi kurashda faol ishtirok etmoqda. Xalqaro aksilterror koalitsiyalar faoliyatini izchil qo'llab-

quvvatlamogda. Xususan, mamlakatimiz BMT Aksilterror qo‘mitasi va MDH Aksilterror markazi faoliyatida qatnashib keladi.

Xulosa qilib aytganda, Toshkent xalqaro konferensiyasida BMT Global aksilterror strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha Markaziy Osiyo mamlakatlari hamkorligining noyob tajribasi taqdim etiladi.

Shuningdek, anjumanda terrorizmga qarshi kurash borasidagi xalqaro va mintaqaviy sa’y-harakatlarni birlashtirishda BMTning rolini kengaytirish va davlatlar salohiyatini mustahkamlash, ushbu murakkab jarayonlarda inson huquqlari va qonun ustuvorligini ta’minlash istiqbollari keng muhokama qilinishi kutilmoqda.

3-reja bayoni. Shanxay hamkorlik tashkiloti va mintaqaviy antiterror tuzulmasi faoliyatining ahamiyati.

Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT) — mintaqaviy xavfsizlik va iqtisodiy hamkorlik tashkiloti. Xitoyning Shanxay shahrida 6 mamlakat — Qozog‘iston, Xitoy, Qirg‘iziston, Rossiya, Tojikiston va O‘zbekiston davlat rahbarlari uchrashuvida tuzilgan (15-iyun 2001-yil). SHHTning vujudga kelish tarixi „Shanxay beshligi“ deb atalgan uyushma faoliyati bilan bog‘liqdir. Dastlab Qozog‘iston, Xitoy, Qirg‘iziston, Rossiya, Tojikiston davlatlari rahbarlari („Shanxay beshligi“) uchrashuvi bo‘lib o‘tgan. Unda chegaradosh mamlakatlar o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlash (1996) va qo‘shma chegarada qurolli kuchlar va qurolyarog‘larni qisqartirish (1997) to‘g‘risida 2 ta bitim imzolangan edi. 1998-yildan „beshlik“ mamlakatlarining o‘zaro hamkorligi sobiq Sovet Ittifoqi — Xitoy chegarasi bo‘ylab harbiysiyosiy vaziyatni barqarorlashtirish masalalaridan mintaqaviy xavfsizlik va ko‘p tomonlama iqtisodiy hamkorlikni ta’minlash choralariga o‘tishga qaratildi. SHHTning Dushanbe (2000) sammitida O‘zbekiston Respublikasi birinchi marta kuzatuvchi sifatida qatnashdi. Ana shu sammitda „beshlik“ negizida ko‘p tarmoqli tashkilot tuzish to‘g‘risida taklif ilgari surildi. SHHT ta’sischilaridan biri sifatida ishtirok etish haqidagi qarorni O‘zbekiston o‘z milliy manfaatlaridan kelib chiqib, Markaziy Osiyo mintaqasidagi harbiy-siyosiy vaziyatni hisobga olgan holda qabul qildi. Shanxay sammitida (2001-yil iyun) yangi tashkilotning maqsad va prinsiplarini e’lon qilgan Deklaratsiya, shuningdek, Terrorizm, ayirmachilik va ekstremizmga qarshi kurash to‘g‘risidagi konvensiya qabul qilindi. Tashkilotning Sankt-Peterburgda bo‘lgan 2-sammitida (2002-yil iyun) ustav hujjati — SHHT Xartiyasiga imzo chekildi. SHHT ning oliy organi Davlat boshliqlari kengashidir. Tashkilot strukturasi Hukumat boshliqlari (bosh vazirlar) kengashi, Tashqi ishlar vazirlari kengashi, Tarmoq vazirliklari va idoralari rahbarlari kengashi, Milliy muvofiqlashtiruvchilar kengashi va doimiy ishlovchi Kotibiyat (Pekin shahrida joylashgan) hamda Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi (MATT; Toshkent shahrida joylashgan)dan iborat.

Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi 1-yanvar 2004-yildan faoliyat ko‘rsata boshladi. Mazkur tuzilma zimmasiga axborot almashish, chegara va bojxona qo‘mitalarining, maxsus xizmatlarning hamkorligini muvofiqlashtirish, shu orkali terrorchilikning oldini olish vazifasi yuklangan. Shu maqsadda tuzilma tarkibida kengash va ijroqo‘m faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Kengashga 6 davlat maxsus xizmatlari rahbarlarining vakillari kiritilgan. Ijroqo‘mda esa o‘zaro tasdiqlangan lavozim o‘rinlariga muvofiq SHHTga a’zo davlatlardan vakillar ishlaydi. SHHTga a’zo davlatlar rahbarlari kengashining 2004-yil 17-iyunda Toshkentda bo‘lgan majlisida Tashkilotning shakllanish davri yakunlanganligi qayd etildi. Majlis yakunlari bo‘yicha Toshkent deklaratsiyasi, SHHTning vakolatlari va immunitetlari to‘g‘risidagi konvensiya, Narkotik vositalar va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashda hamkorlik to‘g‘risidagi bitim, tashkilot va

uning organlari faoliyatiga doyr hujjatlar imzolandi. O‘zbekiston Respublikasining Tashkilotga a‘zo davlatlar Xavfsizlik kengashlari kotiblarining tegishli milliy mahkamalarning yangi taxdid va xurujlarga qarshi turishdagi hamkorligini mustahkamlash maqsadiga qaratilgan doimiy uchrashuvlarini o‘tkazib turish haqidagi tashabbusi qo‘llab-quvvatlandi.

SHHT a‘zo mamlakatlarni xavfsizlik orqali hamkorlik sari boshlaydigan tashkilotdir. Iqtisodiy hamkorlik borasida oldinda transport infratuzilmasini rivojlantirish, tabiiy, mineral xom ashyo zaxiralarini o‘zlashtirish, suv energetika zaxiralaridan unumli foydalanish, ekologiyaga oid va boshqa masalalar bor.

Toshkent shahrida 2018-yil 5-aprel kuni Qirg‘iziston Respublikasi raisligida Shanxay hamkorlik tashkiloti Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi (ShHT MATT) Kengashining o‘ttiz ikkinchi majlisi bo‘lib o‘tdi. Unda Pokiston Islom Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qirg‘iziston Respublikasi, Qozog‘iston Respublikasi, Hindiston Respublikasi, O‘zbekiston Respublikasi va ShHT MATT Ijroiya qo‘mitasi vakillari ishtirok etdi.

Majlisda ShHTga a‘zo davlatlarning 2019-2021-yillarda terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurashish bo‘yicha hamkorlik dasturi hamda ShHT MATT Kengashining ShHTga a‘zo davlatlar rahbarlari Kengashiga ShHT MATTning 2017-yilgi faoliyati to‘g‘risidagi hisoboti loyihalari ma‘qullandi.

ShHTga a‘zo davlatlarning 2016-2018-yillarda terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurashish bo‘yicha hamkorlik dasturi hamda ShHT MATT qarorlarining 2017-yildagi ijrosi, shuningdek, ShHTga a‘zo davlatlar vakolatli organlarining ShHTga a‘zo davlatlar hududidagi ozodlikdan mahrum etish joylarida jazoni o‘tayotgan shaxslarni terroristik va ekstremistik tashkilotlarga jalb etishga qarshi kurashish bo‘yicha qo‘shma chora-tadbirlarni amalga oshirishning borishi to‘g‘risidagi axboroti ko‘rib chiqildi.

Terrorizm, separatizm va ekstremizm maqsadlarida internet tarmog‘idan foydalanishni aniqlash hamda unga chek qo‘yish bo‘yicha ShHTga a‘zo davlatlar vakolatli organlarining “Syamin – 2017” qo‘shma aksilterror o‘quv mashg‘uloti yakunlari ma‘qullandi. 2018 yilda ShHTga a‘zo davlatlarning qo‘shma chegara operatsiyasini o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qilindi.

ShHTga a‘zo davlatlarga xalqaro terroristik tashkilotlar tomonidan bo‘layotgan tahdidlar muhokama qilindi. ShHTga a‘zo davlatlarning vakolatli organlari o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash yuzasidan kelishuvlarga erishildi.

Terrorizmga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida ShHT MATT hamda BMT Xavfsizlik Kengashi Terrorizmga qarshi kurash qo‘mitasi ijrochi direktori va BMT Terrorizmga qarshi kurash boshqarmasi bilan o‘zaro anglashuv va hamkorlik to‘g‘risida memorandumlar loyihalari ma‘qullandi.

4-reja bayoni. O‘zbekistonning terrorizmga qarshi kurash tajribasi.

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida VI yo‘nalish umumbashariy muammolarga milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda yechim topishga bag‘ishlangan.

Unda terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini shakllantirishdan ko‘zlangan maqsadlar belgilab berilgan.

Terrorizm va ekstremizm muammosi global ijtimoiy hodisa sifatida dunyoning barcha davlatlarini qamrab olgan. O'zbekiston ham jahon hamjamiyatining ajralmas qismi sifatida bundan mustasno emas.

So'nggi yillarda yangi O'zbekistonning terrorizm va ekstremizmga qarshi harakatlari Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari uchun o'ziga xos namuna bo'lib xizmat qildi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2017 yilga nisbatan 2018 yilda O'zbekistonda terrorizm va ekstremizm bilan bog'liq jinoyatlar soni 65 foizga kamaydi.

Yoshlarning huquqiy va diniy bilimini oshirish orqali ekstremistik targ'ibotga, radikallashtirishga qarshi kurashishning o'zbek modeli muvaffaqiyat qozondi. Huquqiy va diniy bilimlarini oshirish vositasida yoshlar o'rtasida ekstremistik tashviqotga qarshi turishga asoslangan mazkur model samarali bo'lib chiqdi.

O'zbekistonda terrorizmga qarshi kurashishning o'zbek modeli, avvalambor, huquqiy va siyosiy madaniyatni, ma'naviy va diniy ma'rifatni oshirish orqali odamlar ongi, birinchi navbatda, yoshlar ongini oshirish uchun kurash sifatida tushuniladi. Ijtimoiy rehabilitatsiya, ekstremistik g'oyalar ta'siri ostida bo'lgan va o'z xatolarini anglaganlarning normal hayotga qaytishi bo'yicha olib borilayotgan tizimli ishlar ham ijobiy natijalarni bermoqda.

Mamlakatda yangi - terrorologiya fani shakllanmoqda, ushbu global hodisalar tahliliga bag'ishlangan qator monografiyalar, risolalar va maqolalar nashr etilmoqda, dissertatsiyalar himoya qilinmoqda. Ularda o'zbek modelining mazmun-mohiyati, mazkur makon va zamon tanlamas illatga qarshi kurashishda davlat organlari va jamoatchilik tajribasi har tomonlama ko'rib chiqilgan.

Bu boradagi milliy va xalqaro sa'y-harakatlarni birlashtirish orqali samarali profilaktik chora-tadbirlarni belgilash, terrorizm va ekstremizmning oldini olish, ularni moliyalashtirish manbalari va kanallariga barham berish davlat siyosatining muhim yo'nalishi hisoblanadi. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 1 iyuldagi farmoni bilan 2021-2026 yillarga mo'ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasi va uni amalga oshirish bo'yicha «Yo'l xaritasi» tasdiqlanib, yo'nalishlari belgilandi.

Xalqaro terrorizm va ekstremizm kabi global hodisalarga qarshi ziyolilar, olimlar, diniy ta'limot mutaxassislarning kurashi faollashgani jaholatga qarshi ma'rifat bilan javob qaytarishning muhimligini tasdiqlaydi.

2020 yilda Global terrorizm indeksi (Global Terrorism Index) bo'yicha tadqiqotlar 135 ta davlatni qamrab oldi. Unga ko'ra, O'zbekiston ro'yxatning 134-pog'onasini egalladi va bir necha yillardan buyon terrorizm xavfi past bo'lgan yetakchi davlatlar qatoridan joy oldi. Mamlakatimiz bunday natijaga davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining muvofiqlashtirilgan faoliyati, aholi o'rtasida tizimli profilaktika ishlarini olib borish orqali erishmoqda. Shuningdek, BMT mojaro zonalaridan ayollar va bolalarni o'z vataniga qaytarish bo'yicha o'zbek modelini ham yuqori baholadi.

Diniy ekstremizm va terrorizmni bartaraf etishning huquqiy asoslari:

1. 1977 yil 27 yanvarda qabul qilingan "Terrorizmga qarshi kurash bo'yicha Evropa konventsiyasi"da terrorizm, uning sabablari, maqsadlaridan qat'iy nazar jinoyat deb ta'riflandi.
2. 1978 yili Bonn shahrida kuchli "Yettilik" davlatlari terrorizmga qarshi kurash to'g'risida bayonot qabul qildi.

3. 1981 yili Ottava shahrida, 1984 yili Londonda, 1986 yili Tokioda, 1996 yili Parijda bo'lib o'tgan kuchli "sakkizlik" davlatlarining rahbarlari xalqaro terrorizm to'g'risida deklaratsiya qabul qildilar.

4. 2000 yil oktyabrda Toshkentda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari "Markaziy Osiyoda narkotiklarning noqonuniy savdosi, uyushgan jinoyatchilik va terrorchilikka qarshi kurash bo'yicha hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi hujjat qabul qilindi.

5. 2000 yil 15 dekabrda O'zbekiston Respublikasining "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. O'zR Jinoyat Kodeksining 2-bo'limi "Tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar" deb nomlanib, unga qarshi kurash yo'llari bayot etildi.

6. 2001 yil 15 iyunda SHanxay Hamkorlik Tashkiloti (SHHT) tomonidan 3 ta yovga qarshi "Xalqaro terrorizm, ekstremizm va separatizmga qarshi kurash haqida" Konventsiya qonuni qabul qilindi.

7. 2004 yil 17 yanvarida Toshkentda SHHTning Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi ijroiya qo'mitasi ish boshladi.

8. "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi qonun (2012 yil 25 dekabr).

9. "Ma'muriy qamoqni o'tash tartibi to'g'risida"gi qonun (2017 yil 3 yanvar) qabul qilindi.

10. "Sudlar to'g'risida"gi qonun (2017 yil 12 aprel) qabul qilindi.


11. "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi qonun (2017 yil 3 yanvar) qabul qilindi.

12. "Konstitutsiyaviy sud to'g'risida"gi qonun (2017 yil 31 may) qabul qilindi.

13. "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi (YAngi tahrir) qonuni (2017 yil 11 sentyabr) qabul qilindi.

14. "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonuni (2018 yil 12 aprel) qabul qilindi.

15. "Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida" (2018 yil 30 iyul) qonuni qabul qilindi va hokazo.



O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash tashabbuskori

1. Islom hamkorlik tashkiloti (IHT) Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasi (Toshkent)da "Ta'lim va ma'rifat – tinchlik va bunyodkorlik sari yo'l" nutqi (2016 yil 18 oktyabr)da: "Ommaviy qirg'in qurolini tarqatmaslik muammosi bugungi kunda eng keskin masalalardan biri bo'lib qolmoqda, - dedi. – O'zbekiston 1993 yildayoq Markaziy Osiyoda yadro qurolidan holi hududni tashkil etish tashabbusini ilgari surgan. Mazkur tashabbus O'zbekiston va qo'shni davlatlar tomonidan 2006 yilda imzolangan Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli hudud

to'g'risidagi shartnoma, shuningdek, BMT Xavfsizlik kengashining doimiy beshta a'zosi 2014 yilda imzolagan Kafolatlar to'g'risidagi protokolda o'zining amaliy ifodasini topgan" (1-jild, 39-bet).

2. O'zLiDeP partiyasining VIII s'ezdidagi (2016 yil 19 oktyabrda) ma'ruzasida O'zbekistonning barqaror rivojiga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan, o'z echimini kutayotgan eng muhim 6 ta muammoli masalalarga e'tibor qaratdi (1-jild, 45-46-betlar).

3. "Bir makon, bir yo'l" – manfaatlarimiz mushtarak xalqaro forumida 2017 yil 14-15 maydagi nutqida.

4. Qozog'iston poytaxti Ostona shahrida bo'lib o'tgan SHXT Davlat rahbarlari kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisida so'zlagan nutqida, 2017 yil 8-9 iyun.

5. BMT Bosh assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida (2017 yil 19 sentyabr).


6. 2017 yil 10 noyabrda Samarqand "Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik" mavzusidagi xalqaro konferentsiyada so'zlagan nutqida.

7. Afg'oniston bo'yicha "Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik" mavzusidagi Toshkent konferentsiyasi (2018 yil 27 mart)dagi ma'ruzasida.

8. O'zbekiston – AQSH: YAngi ufq va marralar sari dadil qadamlar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning 2018 yil 15-17 mayda AQSH Prezidenti Donald Trampning taklifiga binoan Vashingtonda bo'lishi va boshqa ma'ruza, nutqlarida Markaziy Osiyo hududida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy barqarorlik uchun, qo'shni davlatlar bilan har tomonlama hamkorlik yo'lida betinim faoliyat olib bormoqda.

Jaholat – ma'rifat kushandasi. SHu boisdan ham ana shu ma'naviy tahdidni bartaraf etish uchun Prezidentimiz SHavkat Mirziyoev tomonidan 2017 yilda "Jaholatga qarshi ma'rifat" kontsepsiyasi ilgari surildi.

1. 2017 yil 28 iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi qarori bilan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining 1) Respublika targ'ibot markazi hamda 2) Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi birlashtirish yo'li bilan ularning negizida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Markazi tashkil etildi hamda uning vazifalari belgilab berildi.



2. 2018 yil 16 aprelda O'zbekiston Prezidentining "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni munosabati bilan "Jaholatga qarshi ma'rifat" ulug'vor g'oyasi insonparvarlik mohiyati nuqtai nazaridan yana bir bor ilgari surildi.

Prezidentimiz SHavkat Mirziyoevning "Jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish" kontseptsiyasiga ko'ra:

1. O'tgan ikki yil ichida Prezidentimiz SHavkat Mirziyoevning tashabbusi bilan 300 mingdan ko'proq adashganlar gunohi kechirildi. YAxshi yo'lga qaytdi.

2. 2017 yilda sudlar tomonidan 373 ming 256 ta ish ko'rib chiqilgan bo'lsa, shundan 169 ming 289 tasi yoki 45 foizi sayyor sud muhokamasida ko'rildi.⁵

3. Tergov organlari tomonidan 238 ta holatda jinoiy hodisa yuz bermagani aniqlangan. Umumuan, 3,5 mingdan ortiq jinoyat ishi tugatilgan.

4. Ilgari qariyb 90 foiz jinoiy ishlar qayta tergovga yuborilgan. Endilikda sudlar tomonidan jinoyat ishlarini qo'shimcha tergovga qaytarish tartibi bekor qilindi.

5. Prezident farmoni bilan sudlar tomonidan hukm qilingan 2 ming 700 nafar shaxs afv etildi (2017 yil 7 dekabr).

6. Keyingi besh yil ichida (2013-2016) bor yo'g'i 7 shaxs oqlangan bo'lsa, 2017 yilning o'zida 300 shaxsga nisbatan oqlov hukmlari chiqarilgan. 2018 yilning 4 oyi ichida 172 shaxs oqlangan.

7. 2017 yilda mahalla fuqarolari yig'inlari kafilligi ostida – 152 nafar, O'zbekiston yoshlar ittifoqi kafilligida 3 nafar, jami 172 nafar fuqaroga nisbatan jazo tayinlashda jamoatchilik kafilligi e'tiborga olindi. (Prezidentning Konstitutsiya 25 yilligi bo'yicha ma'ruzasi, 2017 yil 7 dekabr, 10-16-betlar).

8. "Jaholatga qarshi – ma'rifat" shiori ostida Toshkent shahri Xasti Imom majmuasi hududida Islom madaniyati markazi tashkil etildi (2017).

9. "O'z uyingni o'zing asra!" degan da'vatga bugun "O'z bolangni o'zing asra!" degan qo'shimcha kiritildi.

10. "Bir bolaga etti mahalla ham ota, ham ona" degan maqolning haqiqiy ma'nosini anglaydigan vaqt keldi (SH. Mirziyoev, 1-jild, 486-bet).

11. "Diling – Ollohda, qo'ling – mehnatda bo'lsin" ("Dil ba yoru, dast ba kor") shiorini qoida qilib olish lozim.

12. Ko'plab o'zbekistonlik fuqarolar peshonasiga yozilgan "diniy ekstremist" tamg'asi olib tashlandi.

O'zbekiston Respublikasining ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha 2021 — 2026-yillarga mo'ljallangan (2021-yil 1-iyuldagi PF-6255-son)

MILLIY STRATEGIYASI

Hozirgi vaqtda ekstremizm va terrorizm xalqaro xavfsizlikka, shu jumladan Markaziy Osiyoda asosiy tahdidlardan biri bo'lib qolmoqda. Ekstremizm va terrorizm xavfi hamda

Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy "Olijanob kishilar uzrni qabul qilur", – deb ta'kidlagan ekanlar. Xalqimiz – mard va olijanob xalq, kim chin dildan uzr so'rasa, tavba qilsa, albatta gunohidan kechadi.

Shuning uchun hozirgi kunda qancha adashganlarni kechirib, to'g'ri yo'lga solyapmiz. Birini o'qishga, birini ishga, birini kasbga qaytaryapmiz.

*Shavkat Mirziyoev,
1-jild, 477-bet, 2017.*

⁵ Mirziyoev SH.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustaqil poydevori. – T.: "O'zbekiston", 2018. – 10-11- bet.

tahdidlariga qarshi kurashish O'zbekiston Respublikasi uchun birinchi navbatdagi vazifalardan biri bo'lib, mintaqa davlatlari va xalqaro hamjamiyatning sa'y-harakatlarini birlashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi har tomonlama o'ylangan tinchliksevar, pragmatik va izchil tashqi siyosatni olib borib, ekstremizm va terrorizmning umumiy tahdidlariga qarshi kurashishda barcha davlatlar bilan teng huquqli va o'zaro manfaatli hamkorlik uchun ochiqdir.

O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, xavfsizlikning bo'linmasligi, o'z xavfsizligini boshqa davlatlar xavfsizligi hisobiga mustahkamlashga yo'l qo'yilmasligi, xalqaro majburiyatlarni vijdonan bajarish, xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan norma va tamoyillarini hurmat qilish prinsiplariga asoslanadi.

O'zbekiston Respublikasi o'z tarixida ekstremizm va terrorizm bilan bog'liq holatlarga bir necha marotaba duch kelgan. Ushbu yo'nalishda xavf-xatar, tahdid va tahlikalar saqlanib qolayotganini hisobga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi keng jamoatchilik va xalqaro hamjamiyat bilan birgalikda ekstremizm va terrorizm hamda ularni moliyalashtirishga qarshi kurashishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishdagi mavjud tajriba, shuningdek, mintaqa davlatlaridagi mazkur tahdidlarga qarshi kurashish bo'yicha holatning retrospektiv va qiyosiy tahlillari shuni ko'rsatmoqdaki, Markaziy Osiyoda ekstremistik va terrorchilik faoliyati, asosan, millatchilik (milliy), ijtimoiy, diniy va siyosiy g'oyalar ostida amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha 2021 — 2026-yillarga mo'ljallangan Milliy strategiyasida (keyingi o'rinlarda — Strategiya) ekstremizm va terrorizmning mintaqada tarqalishi uchun asosiy sabab va shart-sharoitlar ham, ekstremist va terrorchilar o'z buzg'unchi faoliyatida foydalanadigan turli ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, g'oyaviy va boshqa omillar ham inobatga olingan.

Strategiya O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, xalqaro huquq va O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarining umume'tirof etilgan tamoyil va normalariga asoslangan bo'lib, O'zbekiston Respublikasining "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi, "Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi, "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi hamda "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunlarining qoidalarini amalga oshirishga qaratilgan.

Strategiyaning maqsadi va vazifalari

Strategiyaning maqsadi O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, milliy xavfsizlik, shuningdek, fuqarolarning ushbu sohadagi huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga imkon beradigan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha samarali va bir vaqtning o'zida muvofiqlashtirilgan davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlashdir.

Strategiyaning vazifalari quyidagilardan iborat:

a) ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish sohasidagi davlat organlari faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

b) sohadagi normativ-huquqiy va uslubiy-amaliy bazani takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

v) davlat organlari, keng jamoatchilik va xalqaro hamjamiyatning ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishga qaratilgan harakatlarini birlashtirish;

g) jamiyatda konfessiyalararo va millatlararo totuvlikni ta'minlash;

d) davlatning aholi, ayniqsa yoshlarning ekstremistik va terrorchilik faoliyatiga jalb etilishidan himoyalashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish;

e) ekstremizm va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini joriy etish;

j) ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish yo‘nalishida mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni takomillashtirish.

Fuqarolarning vijdon erkinligi va diniy e‘tiqod huquqlari

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda inson huquqlari va manfaatlarini himoya qilish sohasidagi davlat siyosatining quyidagi tamoyillari va asosiy yo‘nalishlari shakllandi:

birinchidan, demokratiya va inson huquqlarining umum e‘tirof etilgan g‘oyalari va qadriyatlariga, shuningdek, inson huquqlari sohasidagi xalqaro majburiyatlarga sodiqlik;

ikkinchidan, kuchli huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati tamoyillariga asoslangan milliy manfaatlarining ustuvorligi;

uchinchidan, yuzaga keladigan tahdid va xavf-xatarlarni, oshkoralik va shaffoflik prinsipiga mos ravishda, davlat idoralarining barcha fuqarolik jamiyati institutlari, shuningdek, xalqaro hamkorlar bilan muloqot orqali muhokama qilish va hal etish;

to‘rtinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan shaxs manfaatlarining jamiyat va davlat manfaatlaridan ustuvorligi.

Ushbu tamoyillarga tayangan holda, O‘zbekiston Respublikasi inson huquqlari sohasidagi xalqaro standartlarni keng miqyosda implementatsiya qildi, fuqarolar va davlat xizmatchilarining huquqiy ongini mustahkamlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Xalqaro tashkilotlarning ishtirokisiz va inson huquqlariga oid asosiy xalqaro hujjatlarga qo‘shilmasdan turib demokratik huquqiy davlat qurish mumkin emasligidan kelib chiqib, O‘zbekiston oldidagi asosiy vazifa inson huquqlari sohasidagi o‘z xalqaro majburiyatlariga qat’iy rioya qilish va demokratik huquqiy davlatni qurish hisoblanadi.

O‘zbekistonda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar doirasida diniy e‘tiqod erkinligi sohasida tub o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining diniy sohada davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlari fuqarolarning vijdon va diniy e‘tiqod erkinligi kafolatlash, konfessiyalararo va millatlararo totuvlikni mustahkamlash, jamiyatda bag‘rikenglik madaniyatini rivojlantirish hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida “O‘zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e‘tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar” deb kafolatlangan.

Shu bilan birga, Konstitutsiyada “fuqaro o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslar, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatleri, huquqlari va erkinliklarini buzmasligi kerak” deb ta’kidlangan.

Konstitutsiyaga binoan hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlangan. Har kim xohlagan diniga e‘tiqod qilishi yoki biron bir dinga e‘tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Ekstremizm va terrorizm mafkurasi tarqalishining oldini olish maqsadida vatanparvarlik, an’anaviy qadriyatlar va bag‘rikenglik g‘oyalarini targ‘ib qilish

Yoshlar huquqlari bo‘yicha BMTning Xalqaro Konvensiyasini ishlab chiqish hamda Bosh Assambleyaning “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish tashabbusi ilgari surilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning BMTning Bosh

Assambleyasining 72-sessiyasidagi ma'ruzasi ekstremizm va terrorizmning yuzaga kelish sabablarini, shuningdek, ularning oldini olish yo'llarini tushunishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Amalga oshirilayotgan "2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi" jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirishni, shu jumladan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha tashkiliy-amaliy choralarni kuchaytirishni nazarda tutadi.

Aholi, ayniqsa yoshlar orasida ekstremizm va terrorizmning buzg'unchi g'oyalariga nisbatan murosasizlik tuyg'usini shakllantirishning muhim sharti — bu ijtimoiy-huquqiy jihatdan himoyalanganlik, yuksak bilim darajasi, xususan, milliy o'zlikning sof qadriyatlari mohiyatini va diniy konfessiyalarning birgalikda tinch-totuv hayot kechirishi g'oyasini anglab yetishdir.

O'zbekistonda xalq ma'rifatini oshirish, yanada kuchli, asoslangan va ilmiy isbotlangan mafkuraga tayangan holda ekstremizm va terrorizm g'oyalarini yo'q qilishda sezilarli hissa qo'shayotgan O'zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy va Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari tashkil qilingan va faol ish olib bormoqda.

Davlat va jamoat institutlarining diniy asoslar sababli buzg'unchi mafkuralar ta'siriga tushib qolgan fuqarolarni ijtimoiy va diniy reabilitatsiya qilishga qaratilgan ishlari faol davom etmoqda.

So'nggi 4 yil davomida ekstremizm va terrorizmga aloqadorligi sababli ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni o'tayotgan, qilmishidan chin ko'ngildan pushaymon bo'lib, tuzalish yo'liga o'tgan 2 ming nafardan ortiq shaxslar afv etildi va 1,5 ming nafardan ziyod shaxslar jazoni o'tash joylaridan ozod qilindi.

2017-2018-yillar davomida radikal diniy oqimlarning tarafdorlari deb hisoblangan yoki ularning ta'siri ostiga tushib qolgan 20 ming nafardan ortiq shaxslar huquqni muhofaza qilish idoralari hisobidan chiqarilgan.

2019 — 2021-yillarda "Mehr" dasturi doirasida Afg'oniston, Suriya va Iroqdan xalqaro terrorchilik tashkilotlari safiga adashib qo'shilib qolgan 400 nafar xotin-qizlar va bolalar O'zbekistonga qaytarilib, ularning ijtimoiy moslashuvi va reintegratsiyasi uchun har tomonlama yordam ko'rsatildi.

Bunda bir qator xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar, shu jumladan Xalqaro Qizil Xoch Qo'mitasi va BMTning Bolalar Jamg'armasi (YUNISEF) muhim yordam berdi. BMT Xavfsizlik Kengashining 2396-sonli rezolyutsiyasiga binoan chet el terrorchi jangarilari bilan bog'liq va terrorizmning qurboni bo'lishi mumkin bo'lgan xotin-qizlar va bolalarga yordam berishga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekiston bundan keyin ham diniy sabablarga ko'ra buzg'unchi mafkuralar ta'siridan jabr ko'rgan shaxslarga har tomonlama ijtimoiy-huquqiy va moddiy yordam ko'rsatish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni davom ettirishni maqsad qilgan.

Aholining huquqiy madaniyati va ma'rifatini oshirish muhimligini hisobga olgan holda quyidagilar talab etiladi:

a) O'zbekiston hududida asrlar davomida shakllangan, dindorlar orasida tinchlik va bag'rikenglikni keng yoygan an'anaviy islom dinining asosiy g'oyalaridan fuqarolarning xabardorligini oshirish, jumladan ekstremizm va terrorizm g'oyalarini islom diniga zid ekanligini tushuntirish bo'yicha keng axborot-ma'rifiy ishlarni olib borish;

b) normativ-huquqiy va moddiy-texnik bazani takomillashtirish, shuningdek, ushbu sohada malakali kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash orqali Internet tarmog'ida ekstremizm va terrorizm mafkurasini tarqatishining oldini olish, barvaqt profilaktika qilish va unga qarshi kurashish tizimini rivojlantirish;

v) ekstremizm va terrorizmning buzg'unchi mafkurasini ta'siriga tushib qolgan fuqarolar bilan olib boriladigan ishlarni muntazam ravishda tizimli takomillashtirish, bunda keng jamoatchilikni ham jalb etish;

g) diniy sohada diniy va dunyoviy bilimlarni egallagan, fuqarolar orasida diniy asosdagi ekstremizm mafkurasiga qarshi immunitetni shakllantira oladigan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash;

d) hamkorlikdagi ishlarning samarali va ochiq mexanizmlarini yaratish orqali fuqarolik jamiyatining institutlari, shu jumladan ommaviy axborot vositalarini ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish ishlariga faol jalb etish;

e) aholi o'rtasida, ayniqsa yoshlar orasida ekstremizmning buzg'unchi mafkurasiga qarshi immunitetni shakllantirishda xalqaro tajribani joriy etish va keng qo'llash;

j) ekstremizm va terrorizmning oqibatlarini tushuntirish orqali aholining huquqiy madaniyatini oshirish, shuningdek, javobgarlik va qonun oldida tenglik hissini tarbiyalash.

Voyaga yetmaganlar va yoshlar orasida ekstremistik g'oyalar tarqalishining oldini olish

Ko'p yillik tajribalar ko'rsatmoqdaki, yoshlar muhiti, shu jumladan voyaga yetmaganlar o'zining ijtimoiy himoyalanganligi va o'ta ta'sirchanligi tufayli, ekstremizm va terrorizmning tajovuzkor mafkurasini oldida eng zaif qatlam bo'lib qolyapti, bu esa asossiz ravishda norozilik kayfiyatidagilarning ortib borishiga olib kelmoqda.

XXRning Sindao shahrida 2018-yil 10-iyunida bo'lib o'tgan ShHT mamlakatlari Davlat rahbarlari kengashining 18-sessiyasi yakuni bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan ShHT davlat rahbarlarining yoshlarga qo'shma murojaati va uni amalga oshirish bo'yicha Harakatlar dasturi Yoshlar o'rtasida ekstremizm va terrorizm mafkurasiga qarshi barqaror immunitetni shakllantirish yo'lidagi muhim qadamlardan biri bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son qarori asosida mamlakatda Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismonan barkamol etib tarbiyalash va o'qitish tizimini yangi bosqichga ko'tarish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda Yoshlar ishlari agentligi va yoshlarning nodavlat notijorat tashkiloti — O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil etilgan.

Bugungi kunda ular tomonidan yoshlarning qonuniy manfaatlarini, huquq va erkinliklariga rioya etilishini ta'minlash, ularga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish va huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatda ekstremizm va terrorizmning har qanday ko'rinishida namoyon bo'lishiga nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, buzg'unchi mafkuralarga qarshi immunitetni shakllantirish, huquqiy savodxonlik va ijtimoiy javobgarlik hissini oshirish maqsadida NNT, OAV, kinoindustriya, madaniyat va san'at arboblarni jalb qilgan holda keng qamrovli kompleks ma'rifiy tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

Yoshlar muhitida ekstremistik va terroristik holatlarining paydo bo'lishi va tarqalishining asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

a) yoshlar muhitida ijtimoiy taranglikning kuchayishi (ta'lim darajasi va sifatidagi muammolar, ish o'rinlarining yetishmasligi, ish haqining pastligi, korrupsiya va boshqalarni o'z ichiga jamlagan kompleks ijtimoiy muammolar bilan tavsiflanadi);

b) qadriyat yo'nalishlarining o'zgarishi (ekstremizm va terrorizm, dunyoviy me'yorlar va ijtimoiy qadriyatlarni rad etuvchi g'oyalarni singdiruvchi diniy tashkilotlar va mazhablar jiddiy xavf tug'diradi);

v) buzg'unchi maqsadlarda psixologik omilni qo'llash (yoshlar psixologiyasiga xos bo'lgan nigilizm va maksimalizmdan ekstremizm va terrorizmning mafkuraviy rahnamolari tomonidan faol foydalaniladi);

g) Internet jahon axborot tarmog'idan noqonuniy maqsadlarda foydalanish (radikal tashkilotlarga keng auditoriyadan foydalanish va o'z faoliyatini targ'ib qilish, o'z niyatlari va rejalashtirilayotgan harakatlariga oid ma'lumotlarni joylashtirish imkoniyatini beradi);

d) yoshlarning xorijiy mamlakatlarda faoliyat yuritayotgan ekstremistik va terrorchilik tashkilotlari vakillari va emissarlarining ta'siriga tushib qolishi.

Yoshlar, shu jumladan voyaga yetmaganlar o'rtasida ekstremistik va terrorchilik g'oyalari tarqalishining oldini olish uchun ta'lim va yoshlar siyosati sohasida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

a) o'sib kelayotgan avlodga qonunga hurmat, huquqiy savodxonlik, konfessiyalararo va millatlararo bag'rikenglik, mamlakatimiz xalqlarining tarixi, madaniyati, ma'naviy merosi va urf-odatlariga qiziqishni shakllantirish;

b) to'garaklar faoliyatini jadallashtirish orqali yoshlar, shu jumladan bolalar va o'smirlarning bo'sh vaqtni mazmunli tashkil etish, aholining madaniy, sport va dam olish maskanlaridan foydalanishi uchun shart-sharoit va qulayliklarni yaratish;

v) yoshlarni an'anaviy, ma'naviy, axloqiy va vatanparvarlik qadriyatlari asosida tarbiyalash tizimini davlat tomonidan uzluksiz qo'llab-quvvatlash choralari ko'rish;

g) ta'lim tashkilotlarida vatanparvarlik, bag'rikenglikni tarbiyalash, ekstremistik va terrorchilik faoliyatiga jalb etilishining oldini olish bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish;

d) pedagogik xodimlarning kasbiy mahoratini oshirish, ekstremizm va terrorizm g'oyalarga qarshi kurashishga qaratilgan yangi ta'lim standartlari hamda pedagogik uslubiyotlar ishlab chiqish va joriy etish;

e) ekstremistik va terrorchilik mafkuraning tarqalishiga olib keladigan omillarni aniqlash maqsadida yoshlar o'rtasida bandlik, ijtimoiy va iqtisodiy farovonlik, yoshlar submadaniyatlari faoliyatiga oid tahlillar o'tkazishga qaratilgan ijtimoiy/sotsiologik tadqiqotlarni o'tkazish;

j) yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda mustahkam fuqarolik pozitsiyasi va o'zlikni shakllantirishga qaratilgan faoliyatda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining rolini kuchaytirish;

z) ekstremizm va terrorizm g'oyalari tarqalishining oldini olish va profilaktika qilish maqsadida yoshlar jamoat birlashmalari bilan o'zaro hamkorlik qilish;

i) yoshlar o'rtasida fuqarolik pozitsiyasi va huquqiy savodxonlikni rag'batlantiruvchi maxsus forum va uchrashuvlarni tashkil etish;

k) o'zlarining ish uslublarini tubdan o'zgartirilishi lozim bo'lgan Yoshlar ishlari agentligi, O'zbekiston Yoshlar ittifoqi, "Ma'naviyat va ma'rifat" markazlari faoliyatini jonlantirish hamda ularning faoliyatini yoshlar o'rtasida eng ko'p ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa muammolar mavjud bo'lgan hududlarga manzilli yo'naltirish.

Xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish va ularning ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishdagi rolini kuchaytirish

O'zbekiston Respublikasi xalqaro aktlarni, xususan, BMTning xotin-qizlar huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga doir Konvensiya va Deklaratsiyalarini ratifikatsiya qildi va o'z vaqtida bajarmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi gender tenglik huquqini kafolatlaydi, ushbu huquqlar O'zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”gi va “Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida”gi qonunlari bilan ta'minlanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, aksariyat hollarda xotin-qizlar o'z turmush o'rtog'i va yaqin qarindoshlarining ta'siri ostida ekstremistik va terrorchilik tashkilotlari tarafdoriga aylanmoqda, ammo shu bilan birga, xotin-qizlarning o'z oila a'zolari yoki qarindoshlarini ekstremistik va terrorchilik tashkilotlari saflariga yollashda faol rol o'ynashi holatlari ham aniqlanmoqda.

Aholining radikallasuv jarayonida xotin-qizlar o'rnini faqatgina qurbon bo'lgan ayollar yoki terrorchilarning turmush o'rtog'i kabi gender stereotiplari bilan cheklanmaslik kerakligini tushunish muhimdir. Xotin-qizlar terrorchilarga hamdardlik bildiruvchi, ularni safarbar etuvchi hamda ixtiyoriy ravishda terrorchilik harakatini ham amalga oshiruvchi bo'lishlari ham mumkin.

Yuqoridagilarni inobatga olib, Strategiyada ekstremistik va terroristik tashkilotlarning passiv va faol ishtirokchilari bo'lgan xotin-qizlar o'rtasidagi farq belgilanadi.

Bundan tashqari, yosh avlod tarbiyasi bilan bog'liq muammolarning paydo bo'lishida, oilalarda erlarning chet elda bo'lishi muhim omil hisoblanadi. Bunday hollarda ayol bolalar tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi yagona tarbiyachi bo'lib qolmoqda. Bolalarni nazorat qilish bilan bog'liq muammolar yuzaga kelmoqda. Bunda odatda fuqarolik jamiyatining eng samarali bo'g'ini hisoblangan mahallaning ahamiyati kattadir.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi hukumati, xususan, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi hamda fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini kengaytirish, ularni zo'rvonlikdan himoya qilish va jamiyatdagi rolini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, shuningdek, yoshlar ekstremistik va terroristik g'oyalar ta'siriga tushib qolishining oldini olishda xotin-qizlarning ulkan imkoniyatlarini anglagan holda, ayollarning oilaviy, ijtimoiy maqomini quyidagi yo'llar bilan qo'llash muhimdir:

a) xotin-qizlar huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarni o'z vaqtida va sifatli ijro etish, ularni qo'llab-quvvatlashning xalqaro standartlarga javob beradigan huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish;

b) qiyin hayotiy vaziyatlarga tushib qolgan xotin-qizlar va ularning farzandlariga ma'naviy-ruhiy va moddiy yordam ko'rsatish;

v) huquqni muhofaza qilish idoralari xodimlari uchun ekstremistik va terrorchilik faoliyati safiga qo'shib qolgan xotin-qizlar bilan ishlashning o'ziga xos jihatlarini bo'yicha maxsus o'quv kurslarini tashkil etish;

g) muammoli oilalar bilan ishlashda Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi bo'linmalarining roli va javobgarligini kuchaytirish;

d) xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini himoya qilish sohasida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish, shuningdek, xotin-qizlarni ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishga jalb qilish sohasida tajriba almashish.

Uzoq muddat xorijda bo'lgan fuqarolarni ekstremizm va terrorizm g'oyalari ta'siridan himoya qilish

Bugungi kunda chet elda uzoq muddat bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari ko'pincha ekstremistik va terroristik tashkilotlar emissarlarining mafkuraviy ta'siri ostiga tushib qolmoqdalar. Bunda uchinchi davlat hududi xalqaro terrorchilik tashkilotlari tarkibida jangovar harakatlarda ishtirok etish maqsadida yollash va faol terroristik harakatlar olib borilayotgan hududlarga yuborish uchun "asosiy makon" vazifasini bajarmoqda.

Xorijda uzoq vaqt bo'lgan fuqarolarning xalqaro ekstremistik va terrorchilik tashkilotlar safiga yollash jarayonini o'rganish bunday salbiy hodisaga olib keladigan quyidagi sabab va shart-sharoitlarni aniqlash imkonini berdi, xususan:

a) chet elda bo'lgan fuqarolarda, ayniqsa yoshlarda begonalashuv va psixologik noqulayliklarni vujudga keltiruvchi ijtimoiy, huquqiy va iqtisodiy moslashuv bilan bog'liq qiyinchiliklar;

b) shakllangan an'analar yordamida xulq-atvor va ijtimoiy axloqni saqlashga, shuningdek, g'oyaviy immunitet shakllanishiga yordam beradigan odatiy ijtimoiy aloqalardan, qarindosh va yaqinlar, mahalla va jamoatchilikning nazoratidan uzilish;

v) chet elda uzoq muddat yurgan fuqarolarni himoya qilishga oid normativ-huquqiy bazaning zamonaviy talablarga javob bermasligi;

g) turli xil kanallar orqali O'zbekiston fuqarolari bo'lib turgan ayrim davlatlarda ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha olib borilayotgan profilaktik choralarining samaradorligi pastligi;

d) O'zbekiston Respublikasi va fuqarolarimiz bo'lib turgan mamlakatlarning davlat organlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikda mavjud muammolar va boshqalar.

O'zbekistonda xorijdagi fuqarolarimizning huquq va erkinliklarini, ayniqsa band bo'lganlarning huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq masalalar, shuningdek, ularni ekstremizm va terrorizm mafkuralarining salbiy ta'siridan himoya qilish tizimini takomillashtirishga barcha manfaatdor vazirliklar, idoralar va keng jamoatchilikni jalb etishni nazarda tutuvchi kompleks choralar amalga oshirilmoqda.

Strategiyani amalga oshirish jarayonida mazkur yo'nalishda quyidagi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun uzoq vaqt chet elda bo'lgan fuqarolarni ekstremizm va terrorizm mafkurasi ta'siri ostiga tushib qolishlarining sabab va shart-sharoitlari hisobga olinishi lozim:

a) uzoq vaqt chet elda bo'lgan fuqarolarni ekstremizm va terrorizm mafkurasi ta'siri ostiga tushib qolish muammosini hal etish uchun tizimli va muvofiqlashgan yagona yondashuvni shakllantirish;

b) uzoq vaqt chet elda bo'lgan fuqarolarni ekstremizm va terrorizm mafkurasi ta'siridan himoya qilish masalalariga oid normativ-huquqiy bazani, shu jumladan xalqaro shartnomalarni takomillashtirish;

v) ushbu toifadagi shaxslar va oila a'zolariga ruhiy hamda moddiy yordam ko'rsatish maqsadida ular orasidan ijtimoiy zaiflarini aniqlash;

g) chet elga ketayotgan fuqarolarni borgan joyida ijtimoiy-madaniy moslashuvi, shuningdek ularga ekstremizm va terrorizm mafkuralari tahdidlarini tushuntirish bo'yicha profilaktik ishlarning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish;

d) chet eldan O'zbekistonga qaytgan fuqarolar bilan tizimli filtr-profilaktik ishlarini tashkil qilish;

e) xorijiy mamlakatlarning davlat organlari bilan ushbu yo'nalishda hamkorlik qilish va ishlarni muvofiqlashtirish;

j) uzoq vaqt chet elda bo'lgan fuqarolarni ekstremizm va terrorizm g'oyalari ta'siridan himoya qilish ishlariga davlat va jamoat tashkilotlarining to'plangan ilmiy salohiyatini jalb qilish va ulardan foydalanish.

5-reja bayoni. O'zbekistonda diniy terrorizmga qarshi «Jaholatga qarshi ma'rifat» g'oyasining ahamiyati.

Hozirda terrorizm dunyo hamjamiyati uchun asosiy tahdidlardan biri bo'lib qolmoqda. Shuningdek, so'nggi yillarda dunyo bo'ylab radikallashuv va ekstremistik g'oyalarning keng tarqalishi, zo'ravonlik va terrorizm xurujlarining ortishi ham kuzatilmoqda. Bunday holatning achinarli jihati shundaki, ekstremistik va radikal g'oyalar ta'siriga tushib qolayotgan insonlarning aksarini yoshlar tashkil qilayotgani va ularning son jihatdan ortib borayotganidir. Bu esa radikal g'oyalar ta'siriga tushib qolgan shaxslar bilan individual ish olib borish va ularni to'g'ri yo'lga qaytarish dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Soha mutaxassislarining ta'kidlashicha, bugungi kunda radikallashuv jarayonlariga qarshi kurashning eng samarali yo'li – bu “jaholatga qarshi ma'rifat” asosida kurash uslubidir. Bunday kurash uslubi bugungi kunda ilg'or xorijiy davlatlarda keng qo'llanilmoqda. Xususan, Birlashgan Arab Amirli, Singapur, Saudiya Arabistoni Podshohligi, Misr Arab Respublikasi kabi musulmon mamlakatlarida individual suhbat va turli ma'rifiy usullar yot g'oyalar ta'siriga tushib qolgan shaxslarni to'g'ri yo'lga qaytarishda o'zining ijobiy samarasini bermoqda. Shu sababli mutaxassislar tomonidan radikallashuvdan qaytarishda shaxsning noto'g'ri qarashlarini to'g'rilash ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'rifiy va oqilona usuli ekanligi e'tirof etilmoqda.

O'z navbatida radikalizmga qarshi kurashishda faqatgina majburlov orqali kurash olib borish muayyan vaqt davomida natija bergani bilan radikal g'oyalar ta'siriga tushib qolgan shaxsning ong ostida o'zining noto'g'ri qarashlariga ishonch hissi saqlanib qolishi mumkinligini ko'rsatmoqda.

Radikal g'oyalarga berilgan shaxs buzg'unchi harakatlardan o'zini tiyib tursa-da, ong ostida mutaassiblik qarashlarining ma'lum elementlari saqlanib qolish ehtimoli mavjud. Shu bois, radikal g'oyalar ta'siriga tushib qolgan shaxslar bilan ma'rifiy suhbatlar asosida ishlar olib borish, ularning ongiga o'rnatilib qolgan buzg'unchi g'oyalarga shu yo'l bilan barham berish kerak bo'ladi.

Psixologlarning ta'kidlashicha, yoshlardagi tajribasizlik va hissiyotga tayangan holda ish yuritishi, tashqi ta'sir natijasida ruhiy holatining o'zgaruvchanligi; ruhiy tushkunlikka tez tushishi va ruhiy zarbalarga chidamsizligi; yaqinlari e'tiboridan butunlay chetda qolishi; o'ta qiziquvchanlik hamda axborotlarni to'laqonli tahlil qilmaslik, ishonuvchanlik kabi qator omillar radikallashuv jarayoniga xizmat qilishi mumkin.

Binobarin, radikal g'oyalar ta'siriga tushib qolgan yoshlar o'z oila a'zolari, yaqinlari, mahalla, ko'cha-ko'yidagi tengdoshlarini ham mutaassib shaxsga aylantiradi. Shuningdek, yoshlarning turli oqimlarga kirib qolishlari sabablari qatorida ularning bilimlari, shu jumladan, diniy ilmlarni egallashga bo'lgan qiziqish va intilishi hamda ishonuvchanligi, birdaniga va hamma narsaga (boylik, shon-shuhrat, martaba va h.k.) ega bo'lishga harakat qilishi, ilmiy tilda aytganda maksimalizm kabi ma'naviy-ruhiy omillarni ham alohida ajratib ko'rsatish lozim.

Soha mutaxassislarining ta'kidlashicha, "jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish"ning asosiy sharti sifatida ish olib borishdan oldin har bir vaziyatning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda muayyan reja-dastur asosida chora-tadbirlarni amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Bunda dasturlarning asosiy tarkibiy qismlariga mutaassib g'oyalar ta'siriga tushgan shaxslar bilan o'zaro yaqin munosabat, suhbatlar, diniy munozara va ko'rsatmalar, tajovuzkor xatti-harakatlarning sababi deb qaralgan masalalar bo'yicha o'zaro muloqotlar, psixolog va boshqa mutaxassislarning tavsiya va ko'rsatmalari kiradi.

"Jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish"ning muvaffaqiyati quyidagi zaruriy shartlar asosida amalga oshirilishi lozim:

- *mutaassiblashgan shaxsning asosiy ilgari surayotgan mafkurasini bilish va uning psixologik portiretini chizish;*

- *mutaassib g'oyalarga ergashgan shaxsning maqsad-motivlarini tushunish;*
- *shaxsning kelib chiqqan jamiyatdagi muammolarni yaqindan o'rganish;*
- *ekstremistik aqidalarni aniqlash va radikalizm ko'rsatkichlarini aniq belgilab olish;*
- *diniy muloqotni yo'lga qo'yish;*
- *diniy ta'lim darajasini monitoring qilish;*
- *ta'lim o'quv dasturlarida umuminsoniy tuyg'ular hamda ma'rifatparvarlik faoliyatiga*

taalluqli dars soatlarini ko'paytirish;

- *yoshlarning tarixni o'rganish bo'yicha dasturlarni qo'llab-quvvatlash;*
- *yoshlar bilan muloqot qila oladigan psixologik yordamlarni ko'rsatish qobiliyatiga*

ega mutaxassislarni jalb etish;

- *yoshlar orasida doimiy ravishda buzg'unchilik mafkurasi va hatti-harakatlarini qonunga xilof ekanligini anglatish va ularning salbiy oqibatlari haqida tushuntirish ishlarini olib borish.*

Yuqorida sanab o'tilganidek, "jaholatga qarshi ma'rifat" asosida ishlarni tashkil qilish jamiyatda o'zaro bir-birini tushunishni qo'llab-quvvatlaydi hamda tinchlik-barqarorlikni ta'minlashda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

1. Xalqaro tashkilotlarning terrorizmga qarshi kurashining dolzarbligi nimada?
2. Global terrorizmga qarshi global hamkorlikning yo'nalishlarini izohlab bering?
3. BMTning global antiterror strategiyasining asosiy yo'nalishlari qaysilar?
4. Terrorizmning tarqalishi uchun qulay sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan qanday chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda?
5. Terrorizmning oldini olish va unga qarshi kurashish deganda nimani tushunasiz?
6. Davlatlarning terrorizmning oldini olish va unga qarshi kurashish salohiyatini kuchaytirish uchun takliflaringiz? Sizningcha?
7. Shanxay hamkorlik tashkiloti va mintaqaviy antiterror tuzulmasi faoliyatining ahamiyatini tushuntiring?
8. O'zbekistonning terrorizmga qarshi kurash tajribasi qanday?
9. O'zbekistonda diniy terrorizmga qarshi «Jaholatga qarshi ma'rifat» g'oyasining ahamiyatini izohlang?

15-MAVZU. DUYOVIY BILIMLAR VA DINIY E'TIQOD BIRLIGIGA ERISHISHNING AHAMIYATI.

Reja:

1. Yangi O'zbekistonda dunyoviy va diniy ta'lim-tarbiyaga munosabat, diniy ta'limning yo'nalishlari.
2. Ibodat va diniy marosimlarning shaxs kamolotiga ta'siri.
3. Iymon va e'tiqodning shakillanishiga ijtimoiy muhitning ta'siri.
4. Diniy plyuralizm, diniy tolerantlik, bag'rikenglikning shaxs kamoloti va e'tiqod erkinligini taminlashdagi roli.
5. Dunyoviy hayot, umuminsoniy va diniy qadryatlarning mutanosibligi.

Tayanch so'z va iboralar: *Yangi O'zbekiston, diniy plyuralizm, diniy tolerantlik, diniy bag'rikenglik, shaxs kamoloti, e'tiqod, dunyoviy hayot, umuminsoniy va diniy qadryatlar, ibodat va diniy marosimlar, dunyoviy va diniy ta'lim-tarbiya.*

1-reja bayoni. Yangi O'zbekistonda dunyoviy va diniy ta'lim-tarbiyaga munosabat, diniy ta'limning yo'nalishlari.

Istiqlol yillarida mamlakatimizda olib borilgan islohotlar, keng imkoniyat va yaratilgan sharoitlar natijasida jamiyatning turli sohalari jumladan, iqtisodiyot, fan, ta'lim, madaniyat, san'at, sport va boshqa qator sohalarda erishilgan yutuqlar, egallagan marralar asosida boshqa davlatlarga o'rnak bo'ladigan darajaga erishildi. Davlatimiz mustaqilligi e'lon qilingandan boshlab yurtimizda barcha sohalar qatori ma'naviy-ma'rifiy, madaniy va diniy sahalarga ham yuksak e'tibor qaratildi. Dinga bo'lgan munosabat ijobiy tomoniga o'zgardi, sobiq sovet tizimining ateistik hujumkorlik siyosatiga barham berilib, vijdon erkinligi qonun asosida kafolatlandi. Xalqimizga masjid, madrasa va ziyoratgohlar qaytarildi. Shu bilan birga turli din vakillarining huquq va erkinliklari ta'minlandi. Konstitutsiyamizning qabul qilinishi, xususan, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi diniy sohadagi eng muhim qadamlardan biri bo'ldi. Mazkur hujjat yurtimiz fuqarolarining dini, tili, millati, irqi va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar qonun oldida tengligi, ular o'zlari xohlagan dinga e'tiqod qilishlari va o'z diniy marosimlarini emin-erkin bajarish kafolatini ta'minlab berdi. Shu bilan birga yoshlarning diniy ta'lim olishlari uchun ham keng imkoniyat va sharoitlar yaratildi. Sobiq Ittifoq davrida Buxoro shahridagi "Mir Arab" madrasasi va Toshkent shahrida Toshkent islom instituti faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, istiqlolning dastlabki yillaridanoq fuqarolarning diniy ta'lim olishga bo'lgan ishtiyoqi tufayli o'nlab diniy ta'lim muassasalari O'zbekiston musulmonlari idorasi tasarrufida faoliyat ko'rsata boshladi. 1998 yildan diniy ta'lim muassasalari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan qayta ro'yxatdan o'tkazilib, barcha madrasalar o'rta maxsus islom bilim yurti deb ataladigan bo'ldi. Bugungi kunda respublikada 10 ta diniy ta'lim muassasasi Toshkent islom instituti va 9 ta o'rta maxsus islom bilim yurtlari (shundan 2 ta ayol-qizlar bilim yurti) faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Mazkur diniy ta'lim muassasalarining ta'lim standartlari 2001 yildan boshlab umumta'lim fanlarini kasb-hunar kollejlari bilan bir xil shaklda o'qitilishi joriy qilinib, o'quv yurtlarida diniy va dunyoviy ta'limning uzviyligi ta'minlandi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 22 avgustdagi qaroriga asosan talabalarning qabul qilingan davlat me'yorlariga muvofiq diniy va dunyoviy bilimlar olayotganini inobatga olinib, mazkur o'quv yurtlarining bitiruvchilariga beriladigan diplomlar davlat ta'lim hujjati sifatida e'tirof etilib, ushbu hujjat (diplom)larga ega bo'lgan shaxslarga davlat oliy ta'lim tizimida o'qishni davom ettirish

huquqi berildi. 1999 yil O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Toshkent islom universitetining tashkil etilishi yurtimiz tarixi zarvaraqlarida oltin harflar bilan muhrlanib qoldi. Istiqloq ne'mati bo'lgan ushbu ta'lim maskani yoshlarga diniy va dunyoviy fanlarni uyg'unlikda, ajdodlarimiz merosining falsafiy, ma'naviy ildizlariga tayangan holda o'rgatish uchun barcha qulayliklarga ega bo'lgan O'rta Osiyodagi yagona ta'lim muassasasi hisoblanadi. Shuningdek, diniy ta'lim muassasalari o'rtasida 1991 yildan boshlab "Qorilar musobaqasi", 2001 yildan "Barkamol avlod" sport musobaqalarining o'tkazilishi, 2002 yildan boshlab o'rta maxsus islom bilim yurtlari talabalari o'rtasida "Yagona olimpiada" va "Yil o'qituvchisi" tanlovlarining o'tkazilishi talaba va pedagog-o'qituvchilar uchun keng imkoniyatlar ochib, ularni munosib tarzda rag'batlantirish, moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuni alohida ta'kidlash joizki, "Yagona olimpiada" musobaqasida 1-o'rinni egallagan g'olib talabaga O'zbekiston musulmonlari idorasining granti asosida test sinovlarsiz hamda qabul imtihonlarsiz Toshkent islom institutiga o'qishga kirish huquqining berilishi iqtidorli yoshlarni yanada ko'payishida muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 1 martdagi 99-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Diniy ta'lim muassasalarining faoliyatini litsenziyalash to'g'risida"gi Nizom diniy ta'lim tizimini tartibga solishga qaratilgan asosiy normativ hujjat bo'lib, diniy o'quv yurtlari faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish, belgilangan davlat ta'lim standartlari va talablariga muvofiq dunyoviy fanlarni o'qitish, ta'lim jarayoniga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarni tartibga solishda muhim o'rin egallamoqda. Jumladan, diniy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini yanada oshirish, o'quv jarayoniga oid me'yoriy hujjatlarni yagona shaklga keltirish maqsadida 2013-2016 yillar davomida 9 ta Nizom, 8 ta tartib va yo'riqnomalar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy qilindi. Shuningdek, 2007 yilda Toshkent islom instituti uchun Hazrati Imom majmuasida 2 qavatli yangi zamonaviy muhtasham binoning barpo etilishi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahridagi "Muhammad al-Beruniy" o'rta maxsus islom bilim yurti to'rt qavatli binoga ko'chirilib, zamonaviy uslubda kapital ta'mirlangani, hukumat qarori bilan Namangan shahridagi "Hidoya" o'rta maxsus islom bilim yurti joriy yilning yanvar oyida hududi 10 gektardan ziyod bo'lgan yangi zamonaviy binoga ko'chirilishi mustaqillikning diniy ta'lim sohasidagi eng katta ne'matlaridan desak mubolag'a bo'lmaydi. Toshkent pravoslav va Toshkent protestant oliy seminariyalarining mamlakatimizda faoliyat olib borishini millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik tamoyillarining yuksak namunasi sifatida e'tirof etish mumkin. O'zbekiston musulmonlari idorasi tasarrufidagi Toshkent islom instituti va o'rta maxsus islom bilim yurtlari bilan mazkur ta'lim muassasalari o'rtasida o'zaro hamkorlik aloqalari yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lib, talaba va o'qituvchilar ishtirokida ilmiy-amaliy anjumanlar, seminar va davra suhbatlari hamda muhim sanalarga bag'ishlangan bayram tadbirlari muntazam ravishda o'tkazib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qaroriga muvofiq Samarqand viloyatida Imom Buxoriy xalqaro markazi tashkil etilib, islom dinining, Qur'oni karim va hadis ilmining asl mohiyatini, hadisshunoslik maktabining ilmiy-ma'naviy asoslarini, Imom Buxoriy, Imom Termiziy singari yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk hadisshunos allomalar merosini har tomonlama teran o'rganish, yuksak insoniy g'oyalar va muqaddas qadriyatlarimizni o'zida ifoda etgan manbalarni tadqiq etish, ulardan diniy ta'lim, ma'naviy-axloqiy tarbiya ishlarida foydalanish maqsadida zarur darslik va o'quv qo'llanmalari, ilmiy-amaliy tavsiyalar tayyorlash, diniy xodimlarning bilim va tajribasini oshirish bo'yicha o'quv-uslubiy ishlarni amalga oshirish markazning asosiy vazifalari etib belgilandi. Markazning ilmiy xodimlari tomonidan ilmiy-tadqiqot yo'nalishlari bo'yicha "Buyuk hadisshunos allomalar merosini o'rganish va keng targ'ib qilish", "Yosh avlodni ruhiy va ma'naviy olamini boyitish", "Azaliy

milliy qadriyatlarimizni saqlash va ulug'lash", "Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi ma'naviy-ma'rifiy kurash asoslari" mavzulariga oid 33 nomdagi kitob, risola va monografiyalar, 14 ta tarjima ishlari, 300 ga yaqin ilmiy maqolalar nashr qilindi. Shuningdek, markazda diniy xodimlarning bilim va saviyasini oshirishga qaratilgan o'quv-mashg'ulotlari tashkil etilib, 2008-2015 yillar mobaynida I davra bo'yicha 32 ta bosqich, 2015-2016 yillarda II davra bo'yicha 6 ta bosqich o'quvlari tashkil etildi. Mazkur o'quvlarda respublikamiz masjidlarida faoliyat ko'rsatayotgan 2488 nafar imom-xatiblarning diniy va dunyoviy bilimlari oshirildi. Mustaqilik yillarida Toshkent islom instituti va o'rta maxsus islom bilim yurtlarini jami 7000 nafarga yaqin talaba bitirib, respublikamizning turli hududlarida diniy-ma'rifiy soha bo'yicha faoliyat olib bormoqda.

Yangi O'zbekistonda so'ngi yillarda har bir sohada, shu jumladan ta'lim sohasida islohotlar olib borilayotgani, o'sib kelayotgan yosh avlodni kelajakda inson degan sharaflı nomga munosib ravishda tarbiya va ta'lim olib kamol topishlariga mamlakatimizning oqıl insonlari jon kuydirayotgani va bu borada ishlab chiqilayotgan va amalga oshirilayotgan amaliy ishlar va tadbirlar tahsinga sazovordir. Ushbu jarayonda bugungi o'zbek jamiyatining mutlaq ko'pchiligi insonning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirib, axloqini tarbiyalashdagi dinning yuksak axloqini, inson ruhiyatida insoniy fazilatlarini yaratuvchanligini qo'llab - quvvatlamoqda. Milliy va diniy qadriyatlarni anglatish yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini yuksaltirishga xizmat qilishi bugungi kunda hech kimga sir emas.

Yosh avlodning ta'lim va tarbiyasi to'g'risida g'amxo'rlik qilish nafaqat hukumatimizning yoki maktablarning vazifasi, balki har bir ota-onaning ham muqaddas burchlaridan hisoblanadi. Albatta, farzandlarimizni komil inson qilib, ilmi qilib tarbiyalashimiz kerak. Farzandlarimizning ilmiy saviyalari, kasbu hunarlari bilan bir qatorda axloqiy fazilatlarini ham o'sib borishi zarur. Shu jumladan, yoshlarimizning ta'lim –tarbiyasini asriy va azaliy sharqona qadriyatlarimiz va mamlakatimizning milliy mafkurasi bilan uyg'unlashtirishimiz, aynan mana shu o'rinda yoshlarga diniy-axloqiy bilimlarni ta'lim berish bugunning kechiktirib bo'lmaz dolzarb vazifalaridan biridir.

"Tarixga teran nazar solsak, bizlarning yetti ajdodlarimiz kim ekanini ko'ramiz. Ne-ne buyuk daholar, mutafakkiru allomalar aynan shu siz va biz yashayotgan muqaddas Vatanda yashab o'tganlar. Huddi ular singari ularning zurriyotlari ham hali dunyo tamadduniga o'z hissalarini qo'shishiga hech kim shubha qilmaydi. Chunki yoshlarimiz tomirida ajdodlarimizning qonlari oqib turibdi".

Shu bilan birga dunyo tamadduniga ulkan hissa qo'shgan allomalarimizning ilmda komillik sari yetmoqlarida islom dinining ta'sirini ham alohida ta'kidlash zarur. Imom Buxoriy, imom Termiziy, imom Dorimiy, imom Moturidiy Abu Mu'in Nasafiy kabi allomalar bilan bir qatorda al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo, al-Farg'oni, Mahmud Zamaxshariy, al-Farobiy kabi o'z ilmi va tafakkuri bilan dunyoni lol qoldirgan allomalarimizning yetukligi zahirida islom dini turganligi barchamizga ma'lum.

Musulmon olimlarning ilmiy merosini o'rganishda, xossatan ta'lim sohasida diniylik bilan dunyoviylik o'rtasidagi mantiqsiz mantiqiy nisbatning shakllanishi bizning asrimizda ro'y berdi, desak yanglishmaymiz. Chunki, islom dini nozil qilingan davrdan to shu bizning asrimizga qadar ta'limda bu diniy ta'lim, bu dunyoviy ta'lim deb ajratilmagan.

Jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida ilmlarni dunyoviy va diniyga ajratish, bu ikki ilmni bir-biridan ayro holda talqin qilish va ular o'rtasida go'yoki mantiqiy muvozanatni o'rnatishga bo'lgan intilishlar oqibati o'sib kelayotgan yosh avlod ongi va shuurida o'zining salbiy natijalarini

nomoyon qilib bormoqda. Bu holatni zamonamizning har bir aqli raso insoni anglab yetgan. Bugungi kunda diniy va dunyoviy ta'lim uyg'unligini tiklash zarurati, hech bir mubolag'asiz, mamlakatning ma'naviy taqdirini hal qiluvchi omillardan biridir. Diniy va dunyoviy bilimlarni uyg'unlashtirgan holda ta'lim jarayonini amaliyotga tatbiq etish kechiktirib bo'lmaz dolzarb muammolardan biri ekanligi jamiyatning aksar qismiga kunday ravshan. Voqe'likda aks etib turgan shunga bog'liq yetarli salbiy natijalar borligiga qaramasdan hamon ta'lim-tarbiyada diniy va dunyoviy bilimlarni uyg'un ravishda yosh avlodga yetkazish ota-onalar va murabbiylar orzusi bo'lib turibdi.

Oliy maqsad yosh avlodni iymon e'tiqodini Vatan ravnaqi uchun ruhan va ma'nan komil inson etib tarbiyalash har bir ota –ona va ustoz murabbiylarimiz burchidir. Farzandlarimiz, ya'ni yosh avlod uchun sharqona – diniy va dunyoviy bilimlarni o'zida uyg'unlashtirgan ta'lim-tarbiyani jahon andozalariga mos, fan taraqqiyoti omilari orqali yetkazish bunda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, Mustaqillik - jamiyatimizdagi barcha sohalar qatori diniy ta'lim sohasida ham keng imkoniyatlar, buyuk islohatlarni amalga oshirishdagi ulug' ne'mat ekanini faxr bilan tilga olish mumkin. Shunday ekan, yurtimiz mustaqilligining abadiy bo'lishini ta'minlash, Vatanimiz tinchligini qadriga yetish, uni asrab-avaylash, mamlakatimiz sharafini yanada yuksaklarga ko'tarish, mana shu jannatmakon yurtning har bir farzandi uchun ham farz, ham qarzdir.

2-reja bayoni. Ibodat va diniy marosimlarning shaxs komolotiga ta'siri.

Din voqelikni o'ziga xos aks ettiruvchi ijtimoiy hodisadir. Din insonga to'g'ri, haqiqiy hayot yo'lini ko'rsatadigan va o'rgatadigan ilohiy qudratga ishonchni ifoda etadigan ta'limotdir. Dinning mohiyati turlicha izohlansada, uning asosida ishonch, e'tiqod tuyg'usi yotadi. Zero bunday tuyg'udan mahrum xalq, odam yo'q. Hech bir xalq dinsiz, e'tiqodsiz, biron-bir narsaga ishonchsiz yashay olmaydi. Har bir din turlicha urf-odat, marosim va bayramlar orqali o'z qavmidagi odamlar turmushini tartibga solish, nazorat qilish, insonlarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirish, tafakkurini yuksaltirishga harakat qiladi. Har qanday jamiyatda din ma'lum ijtimoiy, ma'naviy va ruhiy vazifalarni bajaradi. Uning ijtimoiy hayotga ta'siri kuchlidir. Dinlar o'z marosim va bayramlarining qavmlar tomonidan qat'iy tartibga amal qilgan holda bajarilishini shart qilib qo'yadi, shuningdek, o'z qavmlarining birligini, jamiyat va shaxsning o'zaro aloqada bo'lishini ta'minlashga intiladi.

Avvalo shuni ta'kidlash lozimki, xalqimiz garchi islom diniga e'tiqod qilsada, uning turmush tarzida zardushtiylik dinidan qolga urf-odatlar, marosim oradan necha asr o'tgan bo'lsada saqlanib qolmoqda. Bu ayniqsa olovga bo'lgan munosabat, ya'ni o't, olovni ulug'lashda yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, kelin-kuyovni olov orasidan olib o'tish, olov atrofida aylantirish kabi udumlar hamon saqlanib qolmoqda. Shuningdek, xasta kishiga sog'lik tilab yoki vafot etganlar arvofiga bag'ishlab turli xil sham yoqishlar ham otashparastlik (zardushtiylik) elementlaridir. Qolaversa, yerga, donga (non) ga bo'lgan alohida ehtirom ham zardushtiylik davridan beri yashab kelayapti. Ushbu holatlar, bir tomondan, xalq ongiga singib ketgan urf-odatlarining qanchalik darajada yashovchanligini ko'rsatsa, boshqa tomondan, ushbu urf-odat va marosimlarning xalq ma'naviyati, madaniyati hamda shaxs dunyoqarashi va tafakkuriga hamon ijobiy ta'sir ko'rsatib kelayotganligi uchun ulardan voz kechishni hohlamayotganligidan dalolat beradi. Masalan, zardushtiylikda ulug'langan ona tabiatga mehr, yer, suv, olovni e'zozlash, yaratuvchilik mehnatini

ulug'lash kabi g'oyalar hech qachon o'z ahamiyatini yo'qotmaydi va bugun ham xalqimizda ushbu fazilatlarning shakllanishiga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

O'tganlarning ruhiga duoi-fotiha qilinadi.

Hayit kuni hamma uchun bayram hisoblanadi. Ko'chalarda odamlar gavjum, kimdir qarindosh-urug'larinikiga yana kimdir ota-onasi oldiga borib, bayram munosabati bilan ularni qutlab, ko'ngillarini ko'taradilar. Ko'cha-kuyda turli o'yin-kulgi tomoshalar, turli xil xalq o'yinlari o'tkaziladi.

Islom dini marosimlari asosan 2 guruhga bo'linadi: 1. Hursandchilik ko'rinishidagi marosimlar. 2. G'amginlik ko'rinishidagi marosimlar. Avvalo shuni ta'kidlash lozimki, kundalik turmushda urf-odat va marosim tushunchalari bir-biri bilan aynan bir tushunchalardek tuyulsada, lekin ular o'rtasidagi hayotiy farqlar mavjud hamda asosiy tafovut shundaki urf-odat hayotiy voqealarga to'laligicha singib ketgan. Masalan: salom berish — kun tartibiga aylangan. Marosim esa ma'lum bir voqea tarzida nishonlanadi. Masalan: To'ylarda yor-yor aytish kabi. Marosim ham turli dinlarda har xil bo'ladi. U tarixiy davrga xosdir. Islom dinidagi marosimlar orasida ham sof diniy, umuminsoniy va ibtidoiy marosimlar bor.

Islomning boshqa dinlardan keskin farqi unda g'oyat ko'p marosimlar mavjudligi bo'lib, marosimlar asrlar bo'yi xalq ommasi hayotiga keng singib ketgan, barchani o'z ta'siriga olgan, jamotchilik fikri va ijtimoiy psixologiyaga ta'sir qilib, turmush tarzi belgilangan, tartib-intizomga solib, odamlarni jamoaviylik, hamkorlikka o'rgatgan, ulardan ma'lum darajada vaqt va sarf-harajat sarflashni talab etgan, musulmonlarning dunyoqarashi va iymon-e'tiqodini kengaytirib borgan. Islom marosimlari muayyan demokratik harakterga ega, ya'ni ularga rioya qilishda jamiyatdagi turli tabaqa, sinf va guruh, boylaru kambag'allar birdek huquqqa va majburiyatga egalari, ammo imkoniyatlar darajasi turlicha.

Marosimlar:

1. Islom marosimlari o'z mazmuni va mohiyatiga ko'ra umumbashariy, umummilliy, oilaviy turli mazhab va yo'nalishga xos bo'lib, yuqorida ta'kidlanganidek shodiyona yoki marsiyaviy harakterda bo'ladi.

2. Islom marosimlari majburiy, majburiy bo'lmagan guruhlariga ajraladi:

A) majburiy, ya'ni «farz» hisoblangan marosimlarga kalimai shahodat keltirish, namoz o'qish, ro'za tutish, zakot to'lash, hajga borishlar kirib, ular rukn hisoblanadi va arkoni-din deyiladi;

B) majburiy bo'lmagan marosimlar «sunnat» deyiladi, ularga nikoxdan o'tish, o'g'il bolalarni sunnat qildirish (qo'lini halollash), qurbonlik, mavlud, ashurlik, xatmi-qur'on, vafot etganlarni eslash uchun uch, yetti, yigirma, qirq, yil muddatlarini o'tkazish va h.k.

Aqiqa (arabcha – “chaqaloq sochini olish, qurbonlik so'yish” – musulmon oilalarida yangi tug'ilgan bolaga ism qo'yish va “qorin sochi” (bolaning tug'ilgandagi sochi)ga qaychi urish bilan bog'liq odat. Johiliyat davridagi turli ma'bud va ma'budalarga atab qilishadigan qurbonliklar o'rniga musulmon oilasida farzand tug'ilganligining shukronasi sifatida bir qo'y so'yib (imkoniyatga qarab) Aqiqa marosimini o'tkazishlik joriy etilgan. So'yiladigan qo'y sog'lom, nuqsonsiz bo'lishi lozim. Islom an'anasida Aqiqani chaqaloq tug'ilgan kunning 7 yoki 14 yoxud 21 kunlari o'tkazish tavsiya etiladi.

Xulosa qilib aytganda, islom dini urf-odatlari, marosimlarida eng avvalo, mehr-oqibat, saxovat, rahm-shafqat, insof-diyonat, adolat g'oyalari ustuvorlik qilgan. Odamlarni yaqinlarini e'zozlashga, o'zgalarni hurmat qilishga da'vat etgan. Ayniqsa nochor, mehr-shafqatga muhtoj, g'arib kimsalar xolidan xabar olish, ularni yakkalab qo'ymaslikka, kamsitilishiga yo'l

qo‘ymaslikka harakat qilingan. Xaromdan xazar qilishga chaqirilgan. Manmanlik, isrofgarchilik qattiq qoralangan. Ana shu xususiyatlarning o‘zi shaxsda ijobiy dunyoqarash va teran tafakkurning shakllanishi uchun eng oliy namunalardir.

3-reja bayoni. Iymon va e’tiqodning shakllanishiga ijtimoiy muhitning ta’siri.

Barcha dinlarda imon, e’tiqod masalasi markaziy o‘rinda turadi. Zero, borliqdagi (tabiat va jamiyatdagi) barcha narsalardan yuksak turuvchi mutloq Oliy Kuchning borligiga ishonmaydigan, unga e’tiqod qilmaydigan din yoki dindorning bo‘lishi mumkin emas.

Imon, imonli so‘zini eshitganimizda yoki ishlatganimizda avvalo diniy e’tiqodga ega bo‘lgan kishini tasavvur qilamiz. Ko‘pgina adabiyotlarda ham “vera-imon” tushunchalarini dindorlarga nisbatan ishlatishadi. Rus tilida “vera” tushunchasi “sadoqat”, “ishonch”, “imon”, “e’tiqod” ma’nosida ishlatilganligi uchun dindorlarni ham ateistlarni ham (nereligioznal vera) e’tiqodli deb qabul qilishadi. Bu kitoblar: Zabur, Tavrot, Injil va Qur’ondir. Ba’zi payg‘ambarlarga bir necha varoqdan iborat ilohiy xabarlar tushirilgan. Alloh “Moida” surasida: “Men sizlarga islom dinini mukammal din qilib berdim” degan. Islomda imon. “Islom”-lug‘aviy ma’nosi ixlos, sulh, kelishuv ma’nolarini beradi. Imon insonda tug‘ma bo‘ladimi yoki keyin shakllanadimi degan savolga javoblar ham xil:

1. Tug‘ma. Ma’lum davrda u tug‘yonga keladi. Shunda insonimon amallarini bajarishga kirishishi kerak. Aks holda u so’nib qolishi va qayta tug‘yonga kelishi yoki kelmasligi mumkin. Imon –e’tiqod, taqvo, ta’voze-nima ish qilmoqchi bo‘lsa, u aql bilan diqqat dilan qilishi zarur. Qur’on o‘qilsa, solih amallarni bajrsa, qalb yumshaydi.

IMON Imom al-Buxoriy saboqlari 3-son 167 va 168 b. 2006 y. Imon haqida ham xar-xil qarashlar, bahslar bor. Imon 2 narsa: Qalbiy tasdiq va a’zolarining xarakati (amallar) bo‘lishi kerak. Lekin uning eng katta qismi-qalb tasdig‘idan iborat bo‘ladi. Agar odam o‘z amalini tark etsa, u kofir bo‘ladimi? yoki imonsiz bo‘ladimi?

Imom Shofi’i “Imon asli iqrar va e’tiqoddur. Amal, bu imonning samarasi, oqibati (mevasi) dir” ba’zi o‘rinlarda bir narsaning ismi, mohiyati majoziy ma’noda oqibatlariga ko‘chiriladi. Masalan, olma mevasiga olma daraxtining nomi berilgan... Shu ma’noda amalga imon, deb nom berilgan.

“Oqibatlar o‘tib ketsa ham, narsa va mohiyat qoladi.” Shariatda imon daraxtga o‘xshatiladi va u 70 va Yana bir necha yaproqlardan iborat deyiladi. Masalan, daraxtda bir necha shox va barglar, meva, gul bo‘ladi. Shu shoxdan, mevadan bir nechta olib tashlansa, daraxt bir bo‘lagidan ajraladi xolos. Daraxt butunlay yo‘q bo‘lib ketmaydi. Huddi shunga o‘xshab amallarning ayrimlari, xatto amalning o‘zi to‘xtasa ham imon-e’tiqod yo‘q bo‘lmaydi. Shoxlari kesilgan daraxt noqis daraxt deyiladi. Agar ildizi bilan sug‘urib olinsa, u butunlay yo‘qoladi. Lekin ba’zi qarashlarda kimki amalni (mehnatni) tark etsa, u imonni yo‘qotadi, deyiladi. Ularning fikricha, zaruratdan maqsad, jo‘z’iylik a’mol uchun zarurdir. A’molni rad etadigan bo‘lsa, butunlik jihatidan imon mavjud emas. Shuning bilan birga, xos (butun) qismning yo‘qligi bois xayrli ishlarni tartib bilan qilish kerak emas, deyish ham xatodir. Alloh Taolo bunday bandani mo’min deb hukm chiqarmaydi. Chunki mo’minlik taqdir qilingan sifatlardandir. Chunonchi, Alloh Taolo imonning barcha bo‘lagi (parchasi) mavjud bo‘lmaganda ham, imkon qadar xayrli ishlarni amalga oshirgan bandalarni xush ko‘radi. Muhammad (s.a.v.) imonni 2 xilga bo‘lganlar. 1 si, dunyoviy ahkomlar (amallarni) idora etadigan imon. 2 si najot izlash darajalaridan iborat bo‘lgan oxirat ahkomlarini idora etadigan imon. Imon va e’tiqod tushunchasi bir-biriga yaqin ma’noda bo‘lsa ham ular

o'rtasida nozik tafovutlar bor. Imon –arabcha “ishonch,e'tiqod” ma'nolarini berib, islom dinida Allohga, uning farishtalariga, kitoblariga payg'ambarlariga, qiyomat kuniga, taqdir va o'lgandan keyin qayta tirilishga ishonish kiradi.Ya'ni til bilan iqror bo'lib, dil bilan tadiqlashdir.Bu “imoni mufassal” ya'ni imonning to'liq ta'biri deyiladi. Islomda imon tushunchasi eng asosiy va shuning Bilan birga bahsli masala hisoblanadi... . Kundalik muomalada ancha keng-halollik,vijdonlilik, poklik ma'nolarida qo'llaniladi. E'tiqod tushunchasi diniy ma'noda, Allohning kalomi haqiqiy ekanligiga astoydil ishonish, bog'lanish va unga amal qilish tushuniladi. Shu ma'noda ayrim tadqiqotchilar e'tiqodni imondan kengroq deb tafsirlaydilar.Sababi,imon faqat ishonishni bildirsa, e'tiqod esa unga qattiq bog'lanishni,amal qilishni anglatadi.Lekin ular har ikkalasi ham aslida bir tomonga yo'nalgan bo'ladi. Imon- qalbdagi komil e'tiqod va a'zolar Bilan qilinayotgan amallardan tashqil topadi. Imon-toat ibodat ila ziyoda bo'lsa, ma'siyat Bilan noqis bo'ladi. Din psixologiyasi fanida diniy e'tiqod mazmuniga Xudo, diniy ong, ruh, savob,gunoh, jannat, do'zah kabi diniy kategoriyalarni shuningdek, ibodat, tavba-tazarru, vaqtda turli diniy amallarni bajarish jarayonida dindor kechiradigan xissiy holatlar kiritilgan.

Islomda istig'for Allohga qilinadi.Islomda Alloh buyurgan narsalarga nisbatan gunoh qilingan bo'lsa, istig'for aytilsa Alloh kechiradi.Alloh kechirdimikan, ibodatimni qabul qildimikan deb ikkilanish??? Lekin boshqa insonlarga nisbatan qilingan adolatsizlik, zulumni jabrlanuvchining o'zi kechirmaguncha Alloh ham kechirmaydi.

Imon-e'tiqod tahlili uning vujudga kelishi va namoyon bo'lishi ko'p qirrali xususiyatlariga ega ekanligini ko'rsatadi.Masalan, uning nimaga yo'nalganligiga qarab, ya'ni real borliqqa mavjudlikkimi yoki ilyo'ziyali narsalargami farqlash mumkin.Masalan, Xindlarda ko'p xudolik mavjud.Xar bir voqelikni suv havo boshqarib turuvchi o'z xudolari bor.Shuningdek etiqodning ta'sir etuvchi shaxsning ruhiy holatlari, kechirmalariga qarab uning namoyon bo'lish dinamikasi, intensivligi farqlanadi. Imonning kishilar qalbida urnashib ularni harakatga solishi uchun ma'lum vaqt zarurligini unitmasligi kerak. Nasroniy dini va uning ulamolari diniy e'tiqodni “ilohiy ne'mat” (darbojii) deb qaraydilar.Islomda ham din insonning asli tabiatdagi bor Alloh byergan narsa deb ta'kidlanadi. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf ”Imon” kitobida:“...dindorlik barcha bashariyatning umumiy sifati bo'lib unda qadimgilar ham, hozirgilar ham barobardir.”

Darhaqiqat hech bir xalq dinsiz emas.Ibtidoiy davr odamlarida ham diniy e'tiqod pok ravishda bo'lgan.Keyinchalik esa ilmsizlik asosida turli afsonalar,udumlar aralashib, to'g'ri yo'lda adashish, ko'p xudolik, xar-xil sanamlarga sig'inish boshlangan.“Yunus“ surasining 19-oyatida “Odamlar yagona ummat (bir dinda)edilar.So'ngra turli xil bo'lib ketdilar.Agar Robbingizdan (qiyomatgacha qo'yib berish haqida)so'z bo'lmaganda, tortishayotgan narsalari haqida hukm qilingan bo'lur edi”.

Hozirgi dinlarda e'tiqod nimaga yo'naltirilganligiga, nimaga sig'inayotganligiga qarab farqlanish bor xolos.Antropologiya (inson irqi) din tarixi bilan shug'ullangan olimlarning deyarli barchasi insoniyat tarixining barcha davrlarida ham odamlar xudoga (yaratuvchi-xoliqqa) ishonganliklarini isbotlab byerganlar. “Rum” surasining 30-oyatida :

“Bas,(ey,Muhammad), o'zingizni doimo to'g'ri bo'lgan dinda (islomda) tuting!” Alloh insonlarni shunga moslab yaratgan.Allohning yaratganlarini o'zgartirib bo'lmaydi.Eng to'g'ri din shudir.

Lekin ko'p odamlar bilmaslar deyiladi.

Ushbu oyati karimada har bir inson bolasi tabiatida diniy e'tiqod borligi ta'kidlanayapti.Hadisi sharifda aytilishicha, ”Har bir bola dindor tabiatli bo'lib tug'iladi, lekin uning ota –onasi tarbiya orqali yaxudiy, masixiy yoki majusiy qilib qo'yadi.”

Lekin insonlar o'zlarida dindorlik tabiati borligini ongli ravishda tushunib etavermaydilar. Og'ir vaziyatga, qiyinchilikka tushib qolganda, beixtiyor Xudoga murojaat qilib yordam so'ray boshlaydilar.

“Rum” surasida: “Qachon (dinsiz) odamlarga biron ziyon etsa, Parvardigorlariga qaytib, unga iltijo qilurlar.” deyiladi. Bu narsa inson tabiatida dindorlik borligiga dalildir ya'ni o'zi anglamagan holatda Allohdan najot so'ray boshlaydi. Masalan, kemada ketyapsiz, to'fon boshlandi. Halokat aniq bo'lib qoldi. Barcha-barcha odamlar najotni Allohdan so'ray boshlaydi. Psixologiyada ham ongsizlik, shuursizlik holatda aytilgan bir so'z, biror harakat insonning haqiqiy tabiatini ko'rsa deyiladi.

Islomda ham imon e'tiqod inson fitratida mavjud bo'ladi deb aytiladi, lekin u ma'lum zaminda jamiyat va guruhda rivojlanib boradi va namoyon bo'ladi. Bu haqda Qur'oni Karim, hadisi shariflarda bayon qilingan. Muxoliflar esa diniy e'tiqodlarni ijtimoi hodisa sifatida qarashadi. Indivud jamiyatdan tashqari turib qolsa, u shaxs sifatida shakllanmaydi, demak unda hech qanday diniy e'tiqodlar namoyon bo'lmaydi deb ko'rsatishadi. Bir qarashda bu fikr to'g'riga o'xshaydi. Har bir urug'da, danakda agar ukerakli sharoitga tushib qolsa daraxt bo'lib unib chiqish, meva berish programmasi mavjud. Lekin urug'ning unib chiqishi uchun muayyan shart-sharoitnamlik, issiqlik, yorug'lik zarur. Agar shu sharoitlardan birortasi bo'lmasa urug' unib chiqmaydi. Urug'ning unib chiqmasligi uning mavjud emasligini bildirmaydi. Huddi shunga o'xshash diniy e'tiqodlar kechinmalarining shakllanishi va namoyon bo'lishi uchun jamiyatda shart-sharoit kerak. Bola qaysi oila muhitida tarbiyalansa, shunga mos ravishda diniy e'tiqodlar ham shakllanadi va namoyon bo'ladi. Ota-ona nasroniy bo'lsa, bolada ham nasroniylik hususiyatlar shakllanadi.

Ateistik adabiyotlarda diniy e'tiqodlarni g'ayri tabiiy kuchlarga, hodisalarga ishonish bilan bog'laydilar. Nima uchun g'ayritabiiy?? Chunki bizning 5 xil sezgi a'zolarimiz tabiatda mavjud bo'lgan fizik narsalarni qabul qilishga va aks ettirishga moslashgan. Ruh va ruhiy hodisalar, Alloh va ilohiy narsalar metofizik (nomoddiy) bo'lganligi uchun ularni sezgi a'zolarimiz Bilan emas, qalb ko'zi, aql kuchi, imon-e'tiqodi Bilan aks ettiramiz. Shuning uchun moddiyunchilar ularni g'ayritabiiy kuch va hodisalar, deb talqin etadilar. Ruslarda "6-tuyg'u"- (shestoe chuvstvo) degan ibora bor... . Nur yordamida, ko'z orqali moddiy narsalarni ko'ryapmiz, imon nuri yordamida qalb ko'zi Bilan metofizik narsa va hodisalarni ko'ramiz. Hadisda u dunyoda sizlarga Allohni ko'rish uchun boshqa ko'z beriladi, deyilgan... . Bu qanday bo'ladi?... ilmi g'aybdir.

Ateistlar va idialistik falsafiy adabiyotlarda o'lim daxshatlariga ko'p etibor beriladi vash u yo'l bilan odamlarni qo'rqitib, ularda diniy e'tiqodlar shakllantiriladi, deb ayb qo'yishadi.

Bu bema'ni qarash albatta. Islomda aksincha, haqiqiy dindor mo'min o'limni doimo bo'yniga olib, unga ruhiy jihatdan tayyorlanib yuradi. Bu qo'rquv natijasida emas, ongli ravishda bo'lib bu dunyoning foniyligi-o'tkinchiligi, haqiqiy Dune o'limdan keyin kelishiga ishonish natijasidir. Shuning uchun ateistlarning o'limdan qo'rquv odamlarni diniy e'tiqodga Allohga etaklaydi, degan fikrida asos yo'q. Aksincha, o'limdan keyingi hayotga ishonish odamlarni, Allohni tanishga, e'tiqod qilishga olib keladi. Albatta, o'limdan qo'rqish insonlar tabiatida "saqlanish instinkti" sifatida namoyon bo'ladi. Lekin bu qo'rquv ijtimoiy xaraktyerga ega bo'lishi ham mumkin. O'ta hudbin, o'zini yaxshi ko'ruvchi, o'z "men"ni barcha narsalardan yuqori qo'yuvchi shaxslar, mol-dunyosi ko'p odamlar ko'proq o'limdan qo'rqadi. Lekin bu qo'rquv ularni diniy e'tiqodlarni qabul qilib, Allohga iltijo qilishga olib kelmaydiku?!

Moddiyunchilarning insonga hayot bir marta beriladi. Shuning uchun bu dunyoda o'ynab qolish kerak. U dunyoda hech qanday tirilish bu dunyoda qilingan ahloqsizliklar uchun savol-javob qilish yo'q, degan aqidasi turli ahloqsizliklar, ma'naviyatsizliklarni rivojlanishiga olib kiradi.

4-reja bayoni. Diniy plyuralizm, diniy tolerantlik, bag'rikenglikning shaxs kamoloti va e'tiqod erkinligini taminlashdagi roli.

Turli madaniyatga mansub aholi vakillari o'zaro ahil-inoq yashab kelayotgan O'zbekistonda milliy va diniy bag'rikenglik hukm surmoqda. Bag'rikenglik turli millat va elatga daxldor kishilarning, turli xil diniy e'tiqodli insonlarning bir zamin, yagona Vatan, bir yurt, bir hududda olijanob g'oya, orzu-umid, maqsad va niyatlar yo'lida hamkor, hamfikr va hamjihat bo'lib yashashni anglatadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev xalqimizning dunyoqarashida tobora chuqur va mustahkam o'rin egallayotgan bag'rikenglik tamoyili to'g'risida shunday deydi: "Bizning qadimiy va saxovatli zaminimizda ko'p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Mehmondo'stlik, ezgulik, qalb saxovati va tom ma'nodagi bag'rikenglik bizning xalqimizga doimo xos bo'lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi". O'zbekistonning kelajagi tinchlik va bag'rikenglik, madaniyatlararo uyg'unlik va millatlararo totuvlik kabi omillar bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbekistonda turli dinlarga mansub qadriyatlarni asrab-avaylashga, barcha fuqarolarga o'z e'tiqodini amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratib berishga, dinlar va millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlashga, ular o'rtasida qadimiy mushtarak an'analarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. 2017 yil 30 may kuni ushbu dolzarb masalaga bag'ishlab, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita, O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi va O'zbekiston musulmonlari idorasi tomonidan O'zbekiston Milliy matbuot markazida "Milliy va diniy bag'rikenglik – tinchlik va barqarorlik garovi" mavzuida matbuot anjumani tashkil etildi. Unda respublikamizning sharqshunos va dinshunos olimlari, taniqli ulamolar, mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan milliy madaniy markazlar va turli konfessiyalar vakillari, davlat va jamoat tashkilotlari mutasaddilari ishtirok etdilar. Istiqlol yillarida respublikamizda turli din vakillarining hech qanday to'siqlarsiz o'z dinlariga e'tiqod qilishlari uchun barcha sharoitlar yaratildi. Fuqarolar e'tiqodlaridan kelib chiqqan holda diniy tashkilotlarga birlashib, mustaqil huquqiy shaxs sifatida faoliyat yuritishi, diniy mutaxassislar tayyorlashlari va adabiyotlarni nashr etishlari, diniy bayram va marosimlarini o'tkazishlari, muqaddas joylarga ziyoratlar tashkil etishlari kafolatlandi. Hozirgi kunda O'zbekiston aholisining soni 34 milliondan oshgan bo'lib, ular 130 dan ziyod millatga mansub hisoblanadi. Aholining 94% islom diniga, 3,5%ga yaqini pravoslav va qolganlari boshqa konfessiyalarga mansublarni tashkil etadi. Respublikamizda 16 diniy konfessiyaga mansub 2239 diniy tashkilot faoliyat olib bormoqda. Ulardan 2065 tasi islomiy, 157 tasi xristian tashkilotlar, 8 tasi yahudiy, 6 tasi bahoii jamoalari, bittadan Krishnani anglash jamiyati va budda ibodatxonasi mavjuddir. Bundan tashqari, respublikada konfessiyalararo Bibliya jamiyati ham faoliyat yuritmoqda. Anjumanda mamlakatimizda millatlararo va dinlararo munosabatlar sohasida yuritilayotgan oqilona siyosat asosida har bir shaxsning vijdon va e'tiqod erkinligi, diniy qarashlaridan qat'i nazar tenghuquqliligi ta'minlanayotgani, shuningdek, respublikamizdagi diniy tashkilotlar jamiyatda tinchlik, osoyishtalik, millatlar va dinlararo totuvlikni mustahkamlash borasida sarmahsul faoliyat ko'rsatib kelayotganliklari qayd etildi. O'zbekistonda milliy va diniy sohada olib borilayotgan siyosat BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1948 yilda qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi" moddalari va ruhiga hamohang ekani hamda davlatimiz vijdon

erkinligini ta'minlash borasida o'z zimmasiga olgan barcha xalqaro shartnomalarni to'la-to'kis bajarib kelayotgani alohida ta'kidlandi. Anjumanda bugungi kunda dunyoning qator mamlakatlarida, ayniqsa, Yaqin Sharq mintaqasida etnik va diniy asosdagi nizolar kuchayib borayotgani, bu kabi nizolarni avj oldirayotgan g'arazli kuchlarning o'z maqsadlariga erishish yo'lida turli nashrlar, teleradiodasturlar va internet sahifalarida amalga oshirayotgan axborot xurujlariga nisbatan "fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish" har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etayotganiga e'tibor qaratildi. Ayniqsa, hozirgi vaqtda dunyoning uzoq-yaqin turli hududlarida tashvishli voqealar tobora keskinlashib borayotgan bir vaziyatda yurtimizdagi tinchlik va barqarorlikni saqlash, diniy bag'rikenglik va hamkorlik g'oyalarini keng yoyish, adovat va murosasizlikka olib boruvchi har qanday yo'lning payini qirqish muhim ahamiyat kasb etishi, shu bois, bugungi murakkab bir davrda insoniyat uchun tinchlik, barqarorlik ne'matlari qanchalik ulkan qiymatga ega ekanini chuqur anglab yetmog'imiz darkorligi aytiladi. 2016 yilning 29 oktyabr kuni Respublikada faoliyat olib borayotgan diniy konfessiyalar rahbarlari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvdan so'ng, AQSh Davlat kotibi o'rinbosari Tomas Shennon O'zbekiston Hukumatining diniy sohada olib borayotgan izchil siyosatga yuqori baho bergan. Shuningdek, BMT Inson huquqlari bo'yicha Bosh komissari Zayd al-Husaynning 2017 yil 11 may kuni Samarqand shahrida faoliyat olib borayotgan diniy konfessiyalar hamda milliy-madaniy markazlar rahbarlari bilan bo'lgan uchrashuv davomida "Bugungi dinlararo va millatlararo notinchlik bo'lib turgan tahlikali kunlarda O'zbekistondagi mavjud dinlararo va millatlararo totuvlikni turli davlatlar tomonidan o'rnatish bo'lishga loyiq" - degan so'zlari ham alohida e'tiborga molikdir.

Tarixga nazar tashlasak, Markaziy Osiyo zaminda ko'p asrlar mobaynida jahon madaniyatlari dunyo miqyosida bir-birini boyitgan. Bu yerda ko'chmanchi xalqlar o'troq xalqlar bilan, eronlik qabilalar bilan, musulmonlar, nasroniylar va yahudiylar bilan ko'p asrlar birga yashab kelganlar. So'nggi ikki asr davomida ham o'zlarini «madaniyatli» va «ma'rifatli» hisoblab kelgan davlatlar ommaviy qirg'inlar va diniy ta'qiblar bilan o'zlariga dog' tushirgan bir paytda, O'zbekiston zamini xalqlar va madaniyatlar tinch joylashgan bir joygina bo'lib qolmay, balki quvg'in qilingan xalqlarga boshpana ham berdi».

Hech kimga sir emaski, bugungi kunda turli dinlar va madaniyatlarga mansub davlatlar o'zaro yaqinlashmoqda. Bu hol ular orasidagi ijtimoiy, madaniy va diniy sohalaridagi doimiy muloqotlarni taqozo etmoqda. Shu maqsaddan kelib chiqib 1945 yilda BMT ustavi «sabr-toqatli bo'lish va jahonda yaxshi qo'shnilar sifatida birgalikda yashash hamda xalqaro tinchlik va xavfsizlikni qo'llab-quvvatlash uchun sa'y harakatlarimizni birlashtirish»ni o'z maqsadlaridan biri deb e'lon qildi. 1981 yil 25 noyabrda BMT Bosh Assambleyasining 361 55-rezolyutsiyasi din yoki e'tiqodga asoslangan sabr-toqatsizlik va kamsitishning barcha shakllarini tugatish to'g'risidagi deklaratsiyani e'lon qildi.

Bosh Assambleya a'zo davlatlarni din yoki e'tiqod erkinligiga rioya qilish va uni kafolatlashga, din yoki e'tiqod erkinligi masalalarida bir-birini tushunish, sabr-toqatli va o'zaro hurmat qilishga ko'maklashishga hamda din yoki e'tiqoddan BMT ustaviga va BMTning boshqa tegishli hujjatlariga xilof bo'lgan maqsadlarda foydalanilishiga yo'l qo'ymaslikka da'vat etadi.

«Tolerant» atamasining lug'aviy ma'nosi lotincha «tole gage» (chidamoq) so'zidan olingan. Tolerantlik biror narsani, o'zgacha fikr yoki qarashni, o'z shaxsiy tushunchalaridan qat'i nazar, imkon qadar bag'rikenglik va chidam bilan qabul qilishni anglatadi. Diniy bag'rikenglik vijdon erkinligi va ma'naviyat jihatdan katta ahamiyat kasb etadi, u boshqa shaxs yo dinga

hurmatni bildiradi. Turli din hamda konfessiya vakillari e'tiqodida aqidaviy farqlar bo'lishiga qaramay, ularning yonma-yon va o'zaro tinch-totuv yashashini anglatadi.

Bag'rikenglik tushunchasi

1. Bag'rikenglik— bizning dunyomizdagi turli boy madaniyatlarni, o'zini ifodalashning va insonning alohidaligini namoyon qilishning xilma-xil usullarini hurmat qilish, qabul qilish va to'g'ri tushunishni anglatadi. Uni bilim, samimiyat, ochiq muloqot hamda hur fikr, vijdon va e'tiqod vujudga keltiradi. Bag'rikenglik turli-tumanlikdagi birlikdir. Bu faqat ma'naviy burchgina emas, balki siyosiy va huquqiy ehtiyoj hamdir. Bag'rikenglik tinchlikka erishishni musharraf qilguvchi va urush madaniyatsizligidan tinchlik madaniyatiga eltuvchidir.

2. Bag'rikenglik yon berish, andisha yoki xushomad emas. Bag'rikenglik eng avvalo insonning universal huquqlari va asosiy erkinliklarini tan olish asosida shakllangan faol munosabatdir. Har qanday vaziyatda ham bag'rikenglik ana shu asosiy qadriyatlarga tajovuzlarning bahonasi bo'lib xizmat qilmaydi. Bag'rikenglikni alohida shaxslar, guruhlar va davlatlar namoyon qilishi lozim.

3. Bag'rikenglik inson huquqlarini qaror toptirish, plyuralizm (shu jumladan, madaniy plyuralizm), demokratiya ,va huquqning tantanasi uchun ko'maklashish majburiyatidir. Bag'rikenglik aqida bozlikdan, haqiqatni mutlaqlashtirishdan voz kechishni anglatuvchi va inson huquqlari sohasidagi xalqaro-huquqiy hujjatlarda o'rnatilgan qoidalarni tasdiqlovchi tushunchadir.

4. Bag'rikenglikni namoyon qilish inson huquqlariga ehtirom bilan hamohang, u ijtimoiy adolatsizlikka nisbatan sabr-toqatli munosabatda bo'lishni, o'z imon-e'tiqodidan voz kechish yoxud boshqalarning e'tiqodiga yon berishni anglatmaydi. U shuni anglatadiki, har kim o'z e'tiqodiga amal qilishda erkindir va har kim bu huquqqa boshqalar ham ega ekanligini tan olmog'i lozim. U yana shuni anglatadiki, odamlar o'z tabiatiga ko'ra tashqi ko'rinishi, qiyofasi, o'zini tutishi, nutqi, xulqi va qadriyatlari jihatidan farqlanishi e'tirofga loyiqligi barobarida, ular dunyoda yashashga va o'zlarining ana shu individualligini saqlab qolishga haqlidirlar. U yana shuni anglatadiki, bir kishining qarashlari boshqalarga majburan singdirilishi mumkin emas.

5-reja bayoni. Dunyoviy hayot, umuminsoniy va diniy qadriyatlarning mutanosibligi.

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tub islohotlar milliy madaniyatimiz tarixini o'rganishning unga xolisona baho berish, chunonchi o'zbek falsafasidagi ma'naviy me'rosimizni o'rganish, tarixiy yodgorliklarimizni asrash, milliy, diniy qadriyatlarning tiklanishi tabiiy va ijtimoiy borliqqa yangicha munosabatning shakllanishi, shaxs erkinligi va haq - huquqlarining oliy qadriyat sifatida e'tirof etilishi, yuksak qadriyatli ong va dunyoqarashning qaror topishini ta'minlamoqda. Darhaqiqat, milliy, diniy qadriyatlar ularning ahvoli kelajak taqdiri kishilarni doimo qiziqtirib kelgan muammolardan biridir. Demokratiya, oshkoralik jarayoni hozirgi ko'p millatni mamlakatimizda, milliy qadriyatlarni idrok etish va anglashni taqozo e'tib, bu sohalarda yig'ilib qolgan muammolarni yangicha tafakkur asosida chuqur nazariy mushohada etishni taqozo etmoqda. Asrlar ichra jahon ilmfani, madaniyati rivojiga munosib hissa qo'shgan zahmatkash, ayni paytda zukko, bilimdon ota-bobolarimizdan qolgan madaniy me'ros biz uchun bebaho xazinadir. Bu ma'naviy me'ros ma'naviy olamimizni boyitib, har bir inson qalbiga nur, ezgulik, fazilatlar baxshida etadi.

Xalq og'zaki ijodi namunolari ertak va rivoyatlar, hikmatli so'zlar, musiqa asarlari me'morchilik yodgorliklari va tasviriy san'at asarlari, she'r va dostonlar, islomiy tarbiya, milliy qadriyatlarning har biri bebaho ma'naviyat xazinasidir. Shunday ekan, xalqimizni, ayniqsa,

yoshlarni o'z mustaqil fikriga, zamonlar sinovidan o'tgan hayotiy-milliy qadriyatlarga, sog'lom dunyoqarashga, mustaqil irodali, boy ma'naviyatga ega insonlar qilib tarbiyalash har qanday mafkuraviy tazyiq va ma'naviy tahdidlarga zarba berishga tayyor etib tarbiyalash vazifasi dolzarb hisoblanadi. Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek "Yuksak ma'naviyatli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlariga, o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash biz uchun eng muhim masalalardan biridir." Darhaqiqat, yoshlar ma'naviy barkamol, yetuk shaxs sifatida erishuvining muhim yo'nalishi ular ongida milliy urf-odat va an'analarni shakllantirishdir. Milliy urf – odatlar hayotimizning har bir sohasiga singib ketgan bo'lib, bu urf – odatlar bizni aynan qaysi xalq vakili ekanligimizni ko'rsatuvchi izoh, ya'ni bizni kim ekanligimizni isbotlovchi dalil hisoblanadi. Chunki ma'naviy, barkamol yoshlarni o'ziga xos bo'lgan milliy urf - odatlar xayr - saxovat, mehr-oqibat, muruvvat, andisha, or-nomus, sharm - hayo, iffat, bosiqlik, ulug'vorlik, sabrlik kabi ma'naviy fazilatlar, mehmondo'stlik, bag'rikenglik, bolajonlilik, oqko'ngillilik, mehnatkashlik kabi milliy qadriyatlar aynan urf – odat, an'analarda qaror topadi. Shunday ekan milliy qadriyatlarga hurmat bilan qarash millatning o'ziga hurmat bilan qarashning asosiy belgisidir. Ming yillar mobaynida shakllangan milliy qadriyatlarimiz hozirgi davrda yaratilgan madaniy – ma'naviy boyliklar bilan qo'shilib, yangi zamonaviy qadriyatlarni yaratadi va taraqqiyotimizni tezlashtiradi, g'oyaviy va ma'naviy poklanishni ta'minlashga ko'maklashadi. Qadriyatlarning barcha turlari insonning ayniqsa yoshlarning farovon hayot kechirishi, erkin yashashi ma'naviy - axloqiy kamol topishi uchun xizmat qiladigan vositalar bo'lib hisoblanadi. Ayni vaqtda, insonlar o'z qadriyatlarini anglashlari, faqat moddiy emas, ma'naviy boyish huquqiga ega bo'lishlari, o'zlarining insoniy haq-huquqlarini, odamiyliklarini chuqur his qilishlari, milliy o'zliklarini anglashlari zarur.

Milliy o'zlikni anglash esa millatning jipsligini va birligini ta'minlovchi millatning o'zi mavjudligini anglashga xizmat qiluvchi omildir. Milliy o'ziga xoslik butun insoniyat uchun katta boylik, uni harakatlantiruvchi ma'naviy ruhiy kuch - qudratdir. Inson o'zini o'zi anglashning yuksak darajasi milliy o'zligini anglashdir. Millatlarning o'zligini anglashga bo'lgan intilishi saqlanib qolar ekan, demak, milliy o'ziga xoslikning barqarorligini ta'minlaydi. Milliy o'zligini unutgan kimsaning manqurtga aylanishi hech gap emas, bu insoniyat uchun fojia. Insoniyat faqat milliy turli tumanlik, o'ziga xosliklarning amal qilishi bilan barhayot rivojlanib boradi. O'tgan davrlarning eng yaxshi yutuqlarini o'zida mujassamlashtirgan O'zbekiston xalqi madaniyati o'z navbatida nafaqat diniy qadriyatlarning keyingi rivojiga, balki dunyoviy qadriyatlar rivojiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Demak, yurtimiz xalqlarining ilmiy, madaniy, ma'naviy yutuqlari nafaqat musulmon balki jahon madaniyatining ajralmas qismidir. Jahon dinlaridan, umumbashariy ta'limotlardan biri hisoblangan islom dini insonga mohiyat, faoliyatiga maqsad va yo'nalish beruvchi, jamiyat a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirib, birlashtirib, ijtimoiy taraqqiyotini tezlashtirish uchun xizmat qiladigan ma'naviyat masalalarini, ma'rifat, odob-ahloq tarbiyasining barcha muammolarini o'z ichiga qamrab oladi. Umuman olganda, islom dini inson ma'naviy ma'rifiy kamolotiga oid bo'lgan fikrlar, qarashlar ta'limotlarining mukammal manbai. Yaxlit ilmiy - dunyoviy, diniy tizimdir. "Insonlarni qanday tarbiyalashni Islom dini yaxshi biladi. So'zdan - ma'noga, shakldan – ruhga, zohirdan – botinga kirib borishni biladi. Shu bois Islom dini shakga ham katta e'tibor beradi. Chunki shakllar alaloqibat amalda go'zal ma'naviyatni yuzaga keltiradi." Milliy ma'naviyatimiz va ma'rifatimiz rivojida islom ta'limoti, islom dinining ilohiy manbalari - Qur'oni Karim va Hadisi Shariflar qanchalik ijobiy ta'sir ko'rsatganligi, yo'l - yo'riq vazifasini o'taganligi haqiqatdir. Islomiy

qadriyatlarni, Qur'oni Karim, Muhammad(s.a.v) payg'ambarimizning hadislarini, tasavvuf ta'limotini o'rganar ekanmiz, ularda milliy ma'naviyatimiz uchun o'ta muhim bo'lgan birorta ham masala e'tibordan chetda qolmaganini ko'ramiz. Ulardagi odob - axloq, halollik va poklik, imyon - e'tiqod va vijdon, mehr - oqibat, og'ir sinovlarga bardoshli bo'lish, bir birini moddiy ma'naviy, ruhiy qo'llab quvvatlash, hamdard, hamnafas, hamfikir, yelkadosh bo'lish, tinchlik, osudalikni saqlash, mehnat qilib, peshana teri to'kib, birovlarining haqqiga xiyonat qilmasdan halol pokiza yashash haqidagi va boshqa g'oyalar, yo'l yo'riqlar va ta'limotlar, fazilatlar millatgagina emas, balki umum insoniyatga ham bevosita daxldordir. Insondagi mavjud imkoniyatlarni keng quloq yoydirish uchun shaxsning u yoki bu sifatlariga, uning bir qator o'zigagina xos xususiyatlarini safarbar qilishga bir tomonlama yondashish yo'li bilan erishib bo'lmaydi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, bugungi globallashtirish sharoitida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni mutloqlashtirish holatlari ham namoyon bo'lmoqda. Bunda " Erkin hayot" niqobi bilan murtodlik (prozelitizm), ayirmachilik (radikalizm), xudbinlik (nigilizm), vatansizlik (kosmopolotizm) kabi illatlarni umumiy axloq g'oyalari sifatida targ'ib qilishga urinish bor. Bunday sharoitda eng avvalo jamiyat axloqiy muhitini ana shu salbiy ta'sirlardan asrab qolish ehtiyoji o'n chandon ortadi.

Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Bugungi kunda butun dunyo, ayniqsa, islom ham ja'miyati davrning tahlikali tahdidlari bilan yuzma - yuz turibti. Islom dinini siyosiy lashtirish va musulmon yoshlarini radikallashtirish borasidagi urinishlar bunday xatarlarni o'ta jiddiy tahlil qilish, baholash va ularga munosib javob berishni taqozo etmoqda. Shunday ekan, globallashtirish jarayonlari tufayli inson faoliyatida uchrayotgan salbiy amallarning oldini olish uchun uni milliy qadriyatlar, diniy qadriyatlar va umuminsoniy madaniyat yutuqlari asosida tarbiyalash bugungi kun talabidir." Bizga ma'lumki, umuminsoniy qadriyatlarning ilk kurtaklari Sharqda shakllanib, diniy qadriyatlar inson ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida e'zozlanib kelmoqda. Sharq qadriyatlari o'z - o'zanida rivoj topib borishi bilan bir qatorda insoniyatning kelgusi taraqqiyotiga zamin bo'lib xizmat qildi, hamda o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. Sharq sivilizatsiyasi va madaniyati xalqlarni ma'naviy ruhiy jihatdan buyuk o'zgarishlarga tayyorlashda mayoq vazifasini o'tab kelmoqda. Tarixning guvohlik berishicha, o'zbek xalqi eng qadimiy xalqlardan biri bo'lib, jahon sivilizatsiyasida munosib o'rnini egallab kelmoqda. Chunki jahon miqyosida o'zining aql - idroki, tafakkur qilish qobiliyati umuminsoniy qadriyatlar talabiga javob beradigan buyuk alloma mutaffakkirlarni yetkazib berdi. O'zbek xalqi milliy qadriyatlarini xarakterlaydigan o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: yuksak insonparvarlik, bag'rikenglik, mehmondo'stlik, hamma millat va elat vakillariga izzat hurmat ko'rsatish, mulohazalilik, sharm- xayolilik, bolajonlilik, hamdardlik, mahalladoshlik, halollik va boshqalar. Bu va shunga o'xshash o'zbek milliy qadriyatlar Yangi O'zbekistonda yashayotgan har bir kishining ko'nglida g'ururlanish hissiyotini paydo qiladi va bu bilan haqli ravishda faxrlanadi.

Bugungi adolatli davlat bunyod etilayotgan davrda o'tmish ajdodlarimizning tajribalarini o'rganish, ularning ibratli ishlaridan ijobiy saboq olish, umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan yangicha dunyoqarashni va milliy mafkurani shakllantirish, harakatlar strategiyasidan taraqqiyot strategiyasi sari tamoyiliga asoslangan barqaror jamiyatni qurish yo'lidagi muhim muammolardandir. Shuning bilan bir qatorda bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri har bir fuqaro ayniqsa, yoshlarda milliy, umum insoniy qadriyatlarga mos xislat va fazilatlarini shakllantirish, ularning ma'naviy olamini boyitish masalasida davr talabidan kelib chiqqan holda ijodiy yondashishdan iborat. Shu nuqtai nazardan qaraganda umum insoniy qadriyatlar insonni e'zozlash, hayotni sevish, burch, sadoqat, ajdodlarga hurmat, vatanparvarlik, adolat, ma'rifatparvarlik, tinchlik, totuvlik, do'stlik, hamkorlik singari fazilatlarini ifoda etadi.

Umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligini tan olmay jahon axli, boshqa davlatlar bilan hamkorlik qilib bo'lmaydi. Shuning uchun Yangi O'zbekistonning strategik maqsadi umuminsoniy qadriyatlarni qaror toptirish orqali jahon hamjamiyatida o'ziga munosib o'rin egallash, taraqqiy etgan davlatlar qatoridan joy olishdir, umuminsoniy qadriyatlarni e'zozlovchi adolatli turmush tarzini barpo qilish uchun odilona ijtimoiy harakatlarda milliylik ham e'tirof etishni shart. Umuminsoniy qadriyatlar milliy qadriyatlar negizida shakllanib, kamol topib boradi. Lekin shunga qaramay u mazmun jihatidan chuqur va boydir. Chunki umuminsoniy ma'naviy qadriyatlarga barcha millatlar, elatlar va xalqlarning maqsad va intilishlari birligi va umumiyliigi o'z aksini topishi lozim. "Umuminsoniy qadriyatlar barcha xalq va elatlarga xos bo'lgan, ularning insoniy fazilatlarini ifodalaydigan an'analar, urf - odatlar, intilishlar, g'oyalar, sog'lom fikr, yuksak did bilan baholash qobiliyati, shu asosida qilinadigan harakat va faoliyat va hokazolar bo'lib, undan unumli foydalanish umumbashariy muammolarni to'g'ri hal qilishga ko'p jihatdan ijobiy ta'sir etadi." Insoniyatning omon qolishi, ularning huquq va erkinliklari, xalqlarning har tomonlama hamkorligi, ekologik va energetik muammolar, umuminsoniy boy tarixiy meros, umuminsoniy fazilatlar, hozirgi dunyoning yaxlitligi, o'zaro bog'liqligi va boshqalar shular jumlasidandir.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekiston milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi asosida, milliy mentalitetimizning o'ziga xos jihatlarni hisobga olib, ijtimoiy hayotimizdagi an'anaviylik va zamonaviylikka tayanilgan holatda fuqarolik jamiyatini barpo etishga alohida e'tibor qaratmoqda. Zero, fuqarolik jamiyati bu demokratik qadriyatlarni qaror toptiradigan va ularga tayanadigan jamiyatdir. Mamlakatimiz milliy taraqqiyot kontseptsiyasi Sharqona va umuminsoniy demokratiya xususiyatlaridan kelib chiqadi. Unda milliy va umuminsoniy qadriyatlar va tamoyillar ustuvordir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

1. Yangi O'zbekistonda dunyoviy va diniy ta'lim-tarbiyaga munosabat qanday?
2. Diniy ta'limning qanday yo'nalishlari mavjud?
3. Ibodat va diniy marosimlarning shaxs komolotiga ta'sirini ochib bering?
4. Iymon va e'tiqodning shakllanishiga ijtimoiy muhitning ta'siri qanaqa deb o'ylaysiz?
5. Diniy plyuralizm, diniy tolerantlik, bag'rikenglikning shaxs kamoloti va e'tiqod erkinligini taminlashdagi roli qanday?
6. Dunyoviy hayot, umuminsoniy va diniy qadriyatlarning mutanosibliigi ilmiy izohlab bering?

SEMINAR MASHG'ULOTLAR

№1 SEMINAR MASHG'ULOT

Mavzu: Dinshunoslik fanining predmeti va funksiyalari

R e j a:

1. Dinshunoslikning fan sifatida shakllanishi, predmeti, funksiyalari, kategoriyalari.
2. Dinshunoslikning boshqa ijtimoiy fanlar bilan o'zaro aloqasi.
3. Din, dinshunoslik, din falsafasi, teologiya, teosofiya, xudojo'ylik, diniy e'tiqod, aqida, ilohiyot tushunchalarining mohiyati.
4. Dinning funksiyalari va ijtimoiy ahamiyati.
5. Din dunyoqarash shakli va uning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri.

va
ng

Topshiriq №1

1)

Din tushunchasi	Dinning funksiyalari	Dinlarning tasnifi

Topshiriq №2

2) Savollarga javob yozing?(Ma'ruza matn asosida)

Dinshunoslik fanini oliy ta'lim muassasalarida o'qitishdan ko'zlangan maqsad nimalardan iborat?

Dinshunoslik qanday ijtimoiy fanlar bilan o'zaro aloqador?

Topshiriq № 3 (Mustaqil materiallar asosida)

1. Adabiyotlardan va internet materiallaridan foydalangan holda ma'lumotlar to'plang va tahlil qiling.
2. Ibdidoiy diniy e'tiqodlar va ularning o'ziga xosligi nimada?
3. Ibdidoiy dinlar elementlarining hozirgi dinlar shakllanishiga ta'siri va saqlab qolingan qanday belgilari mavjud?

№2 SEMINAR MASHG'ULOT

Mavzu: Dinshunoslik metodologiyasi va dinlarning tasnifi. Din psixologiyasi ijtimoiy ahamiyati

R e j a:

1. Dinlarni tadqiq etish metodologiyasi: tipologik, qiyosiy, tarkibiy-funksional, genetik tahlil.
2. Dinlarning tasnifi. Dinlar paydo bo'lishining geografik va xronologik tasnifi.
3. Diniy e'tiqodlarning evolyutsiyasi: politeizm, genoteizm, monoteizm.
4. Ibtidoiy e'tiqodlar, milliy dinlar, jahon dinlarining shakllanishi va o'ziga xos jihatlari.
5. Din psixologiyasi ijtimoiy ahamiyati.

TUSHUNCHALAR TAHLILI

Topshiriq – 1

Dinlarni tadqiq etish metodologiyasi:

№	Tushunchalar	Javoblar
1.	Tipologik	
2.	Qiyosiy	
3.	Tarkibiy-funksional	
4.	Genetik	

Topshiriq – 2

“Diniy ana’ana va marosimlarning shaxsning diniy e’tiqodi va individual tarbiyasiga ta’siri” mavzusida 5 daqiqali ESSE yozish

Esse fransuz tilidan tarjimada “tajriba, andaza” ma’nolarini anglatadi. **Esse** – prozaik etyud, qandaydir bir predmetga oid umumiy yoki dastlabki mulohazalar. Ko’pincha esse yozish mashg’ulotning boshida, yoki refleksiya sifatida, ohirida taklif etiladi. Esse yozish ko’pincha

nazariy mashg'ulotlar, ma'ruzalar hamda mustaqil mashg'ulotlar tarkibida o'tkaziladi. Uning quyidagi turlari tegishli maqsadlarga muvofiq holda qo'llaniladi. **Esse** – taklif etilgan mavzu yuzasidan 1000 dan 5000 gacha so'z hajmidagi insho. **Esse** – bu muallifning ta'kidlab o'tadigan individual nuqtayi nazarini erkin ifoda etish shakli; qandaydir mavzu bo'yicha umumiy yoki dastlabki dunyoqarashni o'z ichiga oladi.

Asoslangan essenini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari:

- mavzu mazmuniga mos kelishi (mavzudan chetga chiqmaslik);
- mazmuni, fikri;
- unga taalluqli muammoni oldindan ko'ra bilish, shaxsiy nuqtai nafari, ma'lumotlar etarliligi;
- uslub, ifoda aniqligi, muayyanligi;
- orfografiya qoidalariga rioya qilinishi.

Besh daqiqali esse – o'rganilayotgan mavzu bo'yicha olingan bilimlarni umumlashtirish, mushohada qilish maqsadida o'quv mashg'uloti oxirida 5 daqiqa oralig'ida o'tkaziladi. Yozma topshiriqning ushbu turi talabalarning mavzuga doir o'z mustaqil fikrlarini ifodalay olishga yordam berish va o'qituvchiga o'z talabalari o'quv materiali bilan tanishganda qaysi jihatlariga ko'proq e'tibor berishlari xususida fikrlash imkonini beradi.

Topshiriq – 2

T-Sxemasini to'diring

A) Diniy e'tiqod

Afzalliklari	Kamchiliklari

A) Dunyoviy e'tiqod

Afzalliklari	Kamchiliklari

№ 3 SEMINAR MASHG'ULOT

Mavzu: Milliy dinlarning ijtimoiy taraqqiyot va shaxs e'tiqodini ta'minlashdagi roli

R e j a:

1. Yahudiylilik ta'limoti, an'ana va marosimlari. Markaziy Osiyoda yahudiylilik.
 2. Hinduizm dinining mazmun mohiyati. Vedalar. Braxmanlik. Hinduylilik ta'limoti va xudolar panteoni. Jayniylilik. Sikxiylilik ta'limoti va manbalari.
 3. Konfutsiylilik ta'limoti va unda ijtimoiy-axloqiy masalalar. Daochilik – falsafiy ta'limot.
 4. Sintoiylilik. Yapon xalqi an'analari.
 5. Zardushtiylilik ta'limoti. Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal tamoyili. “Avesto” matnlari
- berish.

So'nggi vaqtlarda “Keys-stadi” metodi xorijiy mamlakatlar ta'limi amaliyotida muvaffaqiyatli qo'llanib kelinmoqda va bugungi kunda respublika ta'limida ham tobora ommalashib bormoqda. Shu sababli ayni o'rinda ushbu metod (texnologiya) mohiyati haqida so'z yuritiladi.

Texnologiyaning asosiy vaziflari quyidagicha:

1. Tahlil ko'nikmalari va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish.
2. Nazariya va amaliyot birligini ta'minlash.
3. Muammo yuzasidan turli qarashlar va yondashuvlarni namoyish qilish.
4. Qarorlar qabul qilish va uning oqibatlariga

“Keys-stadi” texnologiyasi (ingl. “case” – chemodan, metod, “study” – muammoli vaziyat; vaziyatli tahlil yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish) – 1) talabalarda aniq, real muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan texnologiya;

2) real vaziyatlarni bayon etishda qo'llaniladigan o'qitish texnikasi

“Keys-stadi” texnologiyasi dastlab 1870 yilda AQShning Garvard universitetining huquq maktabida ta'lim jarayonida qo'llanilgan. Ushbu texnologiya Garvard universitetining biznes

maktabida 1920 yilda qo‘llanila boshlangan. Keyslarning ilk to‘plami 1925 yilda biznes haqidagi Garvard universiteti hisobotlari asosida chop etilgan. Hozirda texnologiya xorijiy mamlakatlarda iqtisodiyot, biznes sohalarida ham keng qo‘llanilmoqda. O‘zbekistonda mazkur texnologiyani ta’lim jarayoniga tatbiq etish yo‘lidagi harakatlar mustaqillik yillarida faollashdi.

Keyslardan na’mana. Topshiriq №1

Keys bayoni	Keys savollari	O‘qituvchi yoki modenator izohi
Bugungi kunda milliy dinlarning nufuzi pasayib bormoqda. Milliy dinlar jahon dinlariga qo‘shilib o‘zining ahamiyatini yo‘qotmoqda.	1.Nima uchun milliy din tushunchasi ishlatiladi? 2.Milliy dinlarga qaysilar kiradi va ularning jahondagi nufuzi qanday? 3.Milliy dinlar nufuzi pasayishiga nimalar sabab bo‘lmoqda?	

Topshiriq №2

Muammo (asosiy va kichik muammolar)	Sababi	Yechimi
Bugungi kunda jamiyatda ma’naviy tarbiyani yaxshilash va ijtimoiy muhitni yaxshilashda diniy-axloqiy g‘oylardan foydalanish amaliyot kamyib bormoqda		

MAVZU BO'YICHA AMALIY TOPSHIRIQLAR

Kichik guruxlarda ishlash qoidasi

1. Talabalar ishini bajarish uchun zarur bilim va masalalarga ega bo'lmog'i lozim.
2. Guruxlarga aniq topshiriqlar berilmog'i lozim.
3. Kichik gurux oldiga qo'yilgan topshiriqni bajarish uchun yetarli vaqtajratiladi.
4. Guruxlardagi fikrlar chegaralanmaganligi va tazyiqqa uchramasligi xaqida ogoxlantirilishi zarur.
5. Gurux ish natijalarini qanday taqdim etishini aniq bilishlari, o'qituvchi ularga yo'riqnoma berishi lozim.
6. Nima bo'lganda xam muloqotda bo'ling, o'zfikringizni erkin namoyon eting.

- 1-bosqich. Guruxda muxokama qiling 5 daqiqa.
- 2-bosqich. Guruxda muxokama qiling 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog'ini to'ldiring (organayzer yordamida) 10 daqiqa

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish 5 daqiqa

5-bosqich. Boshqa guruxlarning taqdimotini baholash.

Guruhlar	Baxolashning ko'rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot varog'ining to'ldirish sifati	Guruh faolligi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					
3.					
4.					
5.					

2 – gurux topshirig'i

1-bosqich. Mavzu bo'yicha ma'ruza matnini o'qing 10 daqiqa.

2-bosqich. Guruxda muxokama qiling 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog'ini to'ldiring (organayzer yordamida) 10 daqiqa

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish 5 daqiqa

5-bosqich. Boshqa guruxlarning taqdimotini baxolash.

Guruxlar	Baxolashning ko'rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot varog'ining to'ldirish sifati	Gurux faolligi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					

3.					
4.					
5.					

3 – gurux topshirig'i

1-bosqich Mavzu bo'yicha ma'ruza matnini o'qing 10 daqiqa.

2-bosqich. Guruxda muxokama qiling 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog'ini to'ldiring (organayzer yordamida) 10 daqiqa

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish 5 daqiqa

5-bosqich. Boshqa guruxlarning taqdimotini baxolash.

Guruxlar	Baxolashning ko'rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot varog'ining to'ldirish sifati	Gurux faolligi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar

№ 4 SEMINAR MASHG'ULOT

Mavzu: Buddaviylik dini va uning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri

R e j a:

1. Buddaviylik dinining paydo bo'lish tarixi, asosiy ta'limotlari, oqimlari va manbalari.
2. Tripitakan va buddaylikning muqaddas manbalari.
3. Hozirgi davrda buddaviylikning rivojlanishi va jamiyat taraqqiyotiga ta'siri.
4. O'zbekistonda buddaviylik dinining tarixiy ildizlari (Qaratepa, Fayoztepa, Dalvarzintepa) va hozirgi zamon.


Topshiriq №1

ASSESMENT METODI

TEST	AMALIY KO'NIKMA
Buddaviylik qachon va qayerda vujudga	Buddaviylik qoidalari va axloqiy

kelgan? A. Mil.avv. VI–V asrlarda shimoliy Hindistonda B. Mil.avv. VI–VII asrlarda qadimgi Xitoyda S. Mil.avv. VI–VIII asrlarda Janubiy Koreyada D. Mil.avv. V–IV asrlarda Yaponiyada	tamoyillarini o‘zida mujassam etgan va bugungi kunda din izdoshlari tomonidan muqaddas, deb e’tirof etiladigan “Tipitaka” (yoki “Tripitaka”, sanskritcha – “Uch savat donolik”) milodning boshlarida kitob shakliga keltirilgan. Hozirda “Tipitaka”ning ilk qo‘lyozma nusxasi Shri Lanka (Seylon) da saqlanadi. “Tipitaka” uchta katta bo‘limdan iborat.
“Azob–uqubat haqidagi haqiqat”.....	MUAMMOLI TOPSHIRIQ: Bugungi kunda modern buddaviylik yuzaga kelmoqda va klassik buddaviylik g‘oyalarini inkor qilmoqda
XULOSA: O‘quvchilarni ijobiy hatti harakatga undash uchun qanday metodlardan, usullardan foydalanish lozim.	

Topshiriq 2



«A Q L I Y H U J U M» USULI

Aqliy hujum (breynstroming-aqlar to‘zoni) - amaliy yoki ilmiy muammolar yechish g‘oyasini jamoaviy yuzaga keltirish.

Ishtirokchilar aqliy hujum vaqtida murakkab muammoni hal etishga harakat qiladilar: ularni tanqid qilishga yo‘l qo‘ymay uni hal etishning ko‘proq shaxsiy g‘oyalarini yuzaga keltiradilar, so‘ngra ko‘proq oqilona/samrali/maqbul va boshqa g‘oyalarni ajratadilar, ularni muhokama qiladilar va rivojlantiradilar, ularni isbotlash yoki qaytarish imkoniyatlarini baholaydilar.

Bu usul hamma vazifalarni bajaradi, lekin uning asosiy vazifasi - ta’lim oluvchilarni o‘quv-bilish faoliyatini faollashtirish, ularni muammoni mustaqil tushunish va yechishga qiziqtirish va ularda muomala madaniyati, fikr almashinish malakalarini rivojlantirishi, tashqi ta’sir ostida fikrlashdan ozod bo‘lish va ijodiy topshiriqni yechishda birlamchi yo‘l fikrlarini yengib o‘tishni tarbiyalaydi.

Aqliy hujum qoidasi:

Hech qanday birga baholash va tanqidga yo‘l qo‘yilmaydi!

Taklif etilayotgan g‘oyani baholashga shoshma, agarda u hattoki ajoyib va g‘aroyib bo‘lsa ham – hamma narsa mumkin.

Tanqid qilma-hamma aytilgan g‘oyalar qimmatli teng kuchlidir.

O‘rtaga chiquvchini bo‘lma!

Turtki berishdan o‘zingni ushla!

Aqliy hujum uchun savollar

1	Buddaviylik qachon va qayerda vujudga kelgan?
2	Buddaviylikning asoiy g‘oyasi nimalardan iborat
3	Buddaviylikning diniy an‘ana va marosimlarini qaysilar?
4	Buddaviylikning asoiy manbasi qanday nomlanadi?

№ 5 SEMINAR MASHG‘ULOT

Mavzu: Xristianlik dini va uning jamiyat taraqqiyotiga ta’siri

R e j a:

1. Xristianlikning paydo bo‘lishi, aqidalari, asosiy yo‘nalishlari, ta’limotlari va manbalari.
2. Katolitsizm va pravoslavlik dini yo‘nalishlarining o‘zaro farqli tomonlari.
3. XV asrda Yevropada reformatorlik g‘oyalari (Anglikan, lyuteran, kalvinizm cherkovlari va h.k.)
4. Hozirgi davrda xristian dinining rivojlanishi va dunyo davlatlaridagi o‘rni.
5. O‘zbekistonda xristian dinining rivojlanishi tarixi va hozirgi zamon.

Ishning maqsadi.

...lari, ta’limotlari va manbalari. Katolitsizm va pravoslavlik dini yo‘nalishlarining o‘zaro farqli tomonlari haqida bilim berish

F S M U METODI

Savol: Hozirgi davrda xristian dinining rivojlanishi va dunyo davlatlaridagi o‘rni qanday

F(fikringizni bildiring)	S(Fikringizni sabab keltiring)	M(Misollar keltiring)	U(Fikringizni umumlashtirish)

Blits-so‘rov» savollariga javob bering

№	Savollar	Javoblar
1.	Katolitsizm va pravoslavlik dini yo‘nalishlarining o‘zaro farqli tomonlari nimada	
2.	Rim-katolik cherkovi faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini izohlang	
3.	XV asrda Yevropada reformatorklik g‘oyalari qanday atalgan	
4.	Xristianlikning manbalari qaysilar	

№ 6 SEMINAR MASHG‘ULOT

Mavzu: Islom tafakkuri va madaniyatining shakillanish bosqichlari

R e j a:

1. Islom dinining paydo bo‘lishidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy sharoitlar
2. Dastlabki musulmonlar jamoasining tashkil topishi.
3. Payg‘ambarlik va vahiyning talqini.
4. Islom dinining besh sharti.
5. Halifalikning tuzilishi va islom dini tarqalishining tarixi.

Ishning maqsadi:


Islom dinining paydo bo‘lishidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy sharoitlar va xalqlari hayotiga ta’siri oid bilimlar berish

“Muammoli vaziyat” jadvalini to‘ldiring

“Muammoli vaziyat turi”	“Muammoli vaziyat” sababallari	Vaziyatdan chiqib ketish xarakatlari
Hozirgi davrda islom dinida diniy harakatlarning sohta diniy paydo		

bo'lish va fobizimning shakllanishi		
-------------------------------------	--	--

«Nima uchun?» texnikasi



№7 SEMINAR MASHG'ULOT

Mavzu: Qur'on, hadis, fiqh, aqida ilmlarining shakllanish tarixi

R e j a:

1. Qur'on, sura va oyat tushunchalarining ma'nosi.
2. Qur'onshunoslikning shakllanishi va rivojlanishi.
3. Hadis tushunchasining mohiyati, hadislarining turlari va tasnifi.
4. O'zbekistonda hadisshunoslikning rivoji.
5. Movarounnahrda islom dinining tarqalishi va madrasa ta'limi shakllanishining ijtimoiy madaniy hayotga ta'siri.

Ishning maqsadi:


Qur'on, hadis, fiqh, aqida ilmlarining shakllanish tarixi, Qur'on, sura va oyat tushunchalarining ma'nosi, qur'onshunoslikning shakllanishi va rivojlanishi haqida bilm berish

“Baliq skleti”


Izox: 1Muammoning ushbu model shaklida qo'yilishi va yechilishi muammolarning butun bir guruhliy izoxlash va yechimini hal qilishga yordam beradi.

2.Yuqori "Qovurg'asida" muammoning qo'yilishi yoziladi.

3.Pastki "Qovurg'asida" ushbu muammoning mavjudligini isbotlovchi dalillar beriladi.



SAVOLLAR NAVBATI BILAN BERILADI



Press- konferensiya uchun savollar

1. Quro'ni Karim qanday tartibda tuzilgan?
2. Quro'ni so'zining ma'nosi nima?
3. Hadis deb nimaga aytiladi?
4. Aqoid ilmini nima?

№ 8 SEMINAR MASHG'ULOT

Mavzu: Islom huquqi va manbalari

R e j a:

1. Hanafiyaning islom fiqxi tarixidagi o'rni.
2. Movarounnahrda hanafiy mazhabi va Markaziy Osiyo faqihlari.
3. Islom huquqi (fiqhi) va uning taraqqiyot bosqichlari.
4. Islom huquqi asosiy atamalari.
5. Qanday qonunlar islom huquqi asosida tuzilgan va qanday qonunlar islom huquqi asosida tuzilgan va qanday qonunlar islom huquqi asosida tuzilgan?

Hadis tushunchasining mohiyati, hadislarning turlari va tasnifi. Buyuk muhaddislarning hayoti va ijodi hamda O'zbekistonda hadisshunoslikning rivoji haqida bilm berish

1) Quyidagi jadvalni to'ldiring.

Qur'oni Karim	Hadis	Ijmo	Qiyos

Topshiriq №2

2) Savollarga javob yozing?

Islom huquqi nimalarga asoslanadi?

Islom manbalarining bugungi kunda ilmiy ahamiyati nimada?

№ 9 SEMINAR MASHG'ULOT

Mavzu: Tasavvuf va hozirgi zamon

R e j a:

1. Tasavvuf tushunchasi va uning mohiyati.
2. Tasavvufning kelib chiqishi, mazmuni va rivoji.
3. Yassaviya, Kubroviya, Naqshbandiya tariqatlarining shakllanishi.
4. Tariqatchilikning zamonaviy ko'rinishlari.

Ishning maqsadi:

Tasavvuf tushunchasi va uning mohiyati. Tasavvufning kelib chiqishi, mazmuni va rivoji haqida bilm berish.

INSERT USULI (texnikasi)

Insert – samarali o‘qish va fikrlash uchun matnda belgilashning interfaol tizimi.

Insert – avvalgi bilimlarni faollashtirish va matnda belgilash uchun savollarning qo‘yilish muolajasi. Shundan so‘ng matnda uchraydigan, har turdagi axborotlarning belgilanishi.

Insert - matn bilan ishlash jarayonida ta‘lim oluvchiga o‘zining mustaqil bilim olishini faol kuzatish imkonini ta‘minlovchi kuchli asbob.

Insert- bu, o‘zlashtirishning majmual vazifalarini yechish va o‘quv materialini mustahkamlash, kitob bilan ishlashning o‘quv malakalarini rivojlantirish uchun foydalaniladigan o‘qitish usulidir.

√	+	—	?

Quyidan yuqoriga bosqichma-bosqich bo‘ysunuvchi “Qanday?” diagrammasi

“PIRAMIDA” chizmasi - G‘oyalarni quyidan yuqoriga bosqichma-bosqich taqdim etish vositasi.

Tizimli fikrlash, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi va faollashtiradi

Chizmani tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida/kichik gurlarda chizma tuzadilar: avval asosiy muammoni (g‘oya, vazifa) yozadilar, so‘ngra kichik muammolarni, ularning har biridan esa, kichik muammoni batafsil ko‘rib chiqish uchun “kichik shoxchalarni” chiqaradilar. Shunga asosan har bir g‘oyalar rivojlanishini batafsil kuzatish mumkin.

chizmasi

«Piramida»

llarda sizga muammolar shal etishda «Ni...» shal=ida
at bylmaydi. Muammo asosan «Buni =anday =ilish kerak?» =abiliida
y?» - muammoni shal etishda asosiy savol shisoblanadi.

иерархия диаграммаси муаммо шал=... а у... да
кон берадиган саволлар манти=ий занжири кыринишида былади.

равиида «+андай?» саволини =ыйиш ор=али сиз фа=ат муаммони шал
а имкониятларини тад=и= этибгина =олмай, балки, уларин амалга

№ 10 SEMINAR MASHG'ULOT

Mavzu: Islom inson ma'naviy madaniyatini tarbiyalash omillari haqida

R e j a:

1. Islom dinining inson ma'naviy madaniyatini tarbiyalashdagi ahamiyati.
2. Shaxs ma'naviy qiyofasining shakllanishida islom dinining ta'siri.
3. Qur'oni Karim va Hadisi shariflarda inson ma'naviyati va ma'rifati masalalari.
4. Mustaqillik yillarida islom dini va islomiy qadriyatlarning tiklanishi.

Ishning maqsadi:

Islom dinining inson ma'naviyati boyitishi, insonni ezgulikka boshlashi va ma'rifatparvarlik dini ekanligi haqida bilim berish

TUSHUNCHALAR TAHLILI

Topshiriq – 1

Dinlarni tadqiq etish metodologiyasi:

№	Tushunchalar	Javoblar
1.	Ma'rifat	
2.	Axloq	
3.	Ma'naviyat	
4.	Ezgulik	

Topshiriq – 2

“Diniy ana'ana va marosimlarning shaxsning diniy e'tiqodi va individual tarbiyasiga ta'siri” mavzusida 5 daqiqali ESSE yozish

Esse fransuz tilidan tarjimada “tajriba, andaza” ma'nolarini anglatadi. **Esse** – prozaik etyud, qandaydir bir predmetga oid umumiy yoki dastlabki mulohazalar. Ko'pincha esse yozish mashg'ulotning boshida, yoki refleksiya sifatida, ohirida taklif etiladi. Esse yozish ko'pincha nazariy mashg'ulotlar, ma'ruzalar hamda mustaqil mashg'ulotlar tarkibida o'tkaziladi. Uning quyidagi turlari tegishli maqsadlarga muvofiq holda qo'llaniladi. **Esse** – taklif etilgan mavzu yuzasidan 1000 dan 5000 gacha so'z hajmidagi insho. **Esse** – bu muallifning ta'kidlab o'tadigan individual nuqtayi nazarini erkin ifoda etish shakli; qandaydir mavzu bo'yicha umumiy yoki dastlabki dunyoqarashni o'z ichiga oladi.

Asoslangan essenini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari:

- mavzu mazmuniga mos kelishi (mavzudan chetga chiqmaslik);
- mazmuni, fikri;
- unga taalluqli muammoni oldindan ko'ra bilish, shaxsiy nuqtai nazari, ma'lumotlar etarliligi;
- uslub, ifoda aniqligi, muayyanligi;
- orfografiya qoidalariga rioya qilinishi.

Besh daqiqali esse – o'rganilayotgan mavzu bo'yicha olingan bilimlarni umumlashtirish, mushohada qilish maqsadida o'quv mashg'uloti oxirida 5 daqiqa oralig'ida o'tkaziladi. Yozma topshiriqning ushbu turi talabalarning mavzuga doir o'z mustaqil fikrlarini ifodalay olishga yordam berish va o'qituvchiga o'z talabalari o'quv materiali bilan tanishganda qaysi jihatlariga ko'proq e'tibor berishlari xususida fikrlash imkonini beradi.

№ 11 SEMINAR MASHG'ULOT

Mavzu: O'zbekistonda diniy tashkilotlar va konfessiyalar faoliyati dinamikasi

R e j a:

1. Konfessiya tushunchasining mohiyati va O'zbekistonda faoliyat yurituvchi diniy konfessiyalarning tasnifi.
2. O'zbekistonda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar haqidagi qonun qabul qilinishining tarixi va uning ahamiyati. Vijdon va e'tiqod erkinligining ta'rifi.
3. Davlat va din munosabatlarini tartibga solishning tiplari. (Identifikatsion model, separatsion model va kooperatsion modellar). Sekulyarlashuv jarayoni.
4. Sobiq Sovet Ittifoqi davrida O'zbekistonda diniy qarashlarga munosabatning asosiy jihatlari.
5. BMTning 72 sessiyasida diniy bag'rikenglik haqidagi rezolyusiyani qabul qilish haqidagi taklifning ijtimoiy siyosiy ahamiyati.

Ishning maqsadi:

Konfessiya tushunchasining mohiyati va O'zbekistonda faoliyat yurituvchi diniy konfessiyalarning tasnifi haqida bilim berish.

So'nggi vaqtlarda "Keys-stadi" metodi xorijiy mamlakatlar ta'limi amaliyotida muvaffaqiyatli qo'llanib kelinmoqda va bugungi kunda respublika ta'limida ham tobora

ommalashib bormoqda. Shu sababli ayni o‘rinda ushbu metod (texnologiya) mohiyati haqida so‘z yuritiladi.

“Keys-stadi” texnologiyasi (ingl. “case” – chemodan, metod, “study” – muammoli vaziyat; vaziyatli tahlil yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish) – 1) talabalarda aniq, real muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan texnologiya;

2) real vaziyatlarni bayon etishda qo‘llaniladigan o‘qitish texnikasi

“Keys-stadi” texnologiyasi dastlab 1870 yilda AQShning Garvard universitetining huquq maktabida ta’lim jarayonida qo‘llanilgan. Ushbu texnologiya Garvard universitetining biznes maktabida 1920 yilda qo‘llanila boshlangan. Keyslarning ilk to‘plami 1925 yilda biznes haqidagi Garvard universiteti hisobotlari asosida chop etilgan. Hozirda texnologiya xorijiy mamlakatlarda iqtisodiyot, biznes sohalarida ham keng qo‘llanilmoqda. O‘zbekistonda mazkur texnologiyani ta’lim jarayoniga tatbiq etish yo‘lidagi harakatlar mustaqillik yillarida faollashdi.

Keyslardan na’muna. Topshiriq №1

Keys bayoni	Keys savollari	O‘qituvchi yoki modenator izohi
Buguni kunda butun dunyoda diniy konfessiyalararo munosbatalar keskinlashmoqda.	1.Dinni keskinlashuvning sababalari nimada? 2.O‘zbekistonda vijdon erkinligi va diniy e’tiqod erkinligi munosbat qanday? 3.O‘zbekistonning islom dinini muqaddsaligi va sofligini asrash borasida qanday amaliy ishlar qilmoqda?	

Topshiriq №2

Muammo (asosiy va kichik muammolar)	Sababi	Yechimi

Bugungi kunda dunyoviylik va diniylik o'rtasida ziddiyatlar yuzaga kelmoqda.		
---	--	--

MAVZU BO'YICHA AMALIY TOPSHIRIQLAR

Kichik guruxlarda ishlash qoidasi

7. Talabalar ishini bajarish uchun zarur bilim va masalalarga ega bo'lmog'i lozim.
8. Guruxlarga aniq topshiriqlar berilmog'i lozim.
9. Kichik gurux oldiga qo'yilgan topshiriqni bajarish uchun yetarli vaqtajratiladi.
10. Guruxlardagi fikrlar chegaralanmaganligi va tazyiqqa uchramasligi xaqida ogoxlantirilishi zarur.
11. Gurux ish natijalarini qanday taqdim etishini aniq bilishlari, o'qituvchi ularga yo'riqnoma berishi lozim.
12. Nima bo'lganda xam muloqotda bo'ling, o'z fikringizni erkin namoyon eting.

1 – guruh topshirig'i

- 1-bosqich. Mavzu bo'yicha ma'ruza matnini o'qing 10 daqiqa.
- 2-bosqich. Guruxda muhokama qiling 5 daqiqa.
- 3-bosqich. Taqdimot varog'ini to'ldiring (organayzer yordamida) 10 daqiqa
- 4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish 5 daqiqa
- 5-bosqich. Boshqa guruhlarining taqdimotini baholash.

Guruhlar	Baxolashning ko'rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot varog'ining to'ldirish sifati	Guruh faolligi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					
3.					
4.					
5.					

2 – gurux topshirig'i

- 1-bosqich. Mavzu bo'yicha ma'ruza matnini o'qing 10 daqiqa.
- 2-bosqich. Guruxda muxokama qiling 5 daqiqa.
- 3-bosqich. Taqdimot varog'ini to'ldiring (organayzer yordamida) 10 daqiqa
- 4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish 5 daqiqa

5-bosqich. Boshqa guruxlarning taqdimotini baxolash.

Guruxlar	Baxolashning ko'rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot varog'ining to'ldirish sifati	Gurux faolligi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					
3.					
4.					
5.					

3 – gurux topshirig'i

1-bosqich Mavzu bo'yicha ma'ruza matnini o'qing 10 daqiqa.

2-bosqich. Guruxda muxokama qiling 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog'ini to'ldiring (organayzer yordamida) 10 daqiqa

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish 5 daqiqa

5-bosqich. Boshqa guruxlarning taqdimotini baxolash.

Guruxlar	Baxolashning ko'rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot varog'ining to'ldirish sifati	Gurux faolligi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar

№ 12 SEMINAR MASHG'ULOT

Mavzu: Missionerlik va prozelitizmning diniy etiqodni tanlashga salbiy ta'siri.

R e j a:

1. Missionerlik va prozelitizm tushunchasining mohiyati va rivojlanish bosqichlari. Xristian dini missionerligi.
2. Xalqaro missionerlik tashkilotlari va ularning targ'ibot usullari.
3. Missionerlik va prozelitizmning targ'iboti va ularni bartaraf etish bo'yicha olib borilayotgan faoliyat dinamikasi.
4. O'zbekistonda faoliyati kuzatilgan missionerlik harakatlari va ular faoliyatining oqibatlari.

Ishning maqsadi:

Missionerlik va prozelitizm tushunchasining mohiyati va rivojlanish bosqichlari va uning xavf va tahdidlari haqida bilim berish

Topshiriq №1

ASSESSMENT METODI

TEST Missionerlikka qarshi kurashda qaysi uslublar qo'llanadi? A.Jinoiy, ma'muriy, ijtimoiy huquqiy B.Ma'muriy huquqiy S.Ijtimoiy ma'rifiy D.Huquqiy	AMALIY KO'NIKMA Prozelitizm - bu to'g'ridan-to'g'ri biron bir dinga ishongan fuqaroni o'z dinidan voz kechishga va o'zga dinni qabul qilishga majbur qilishdan iboratdir. Missionerlarning bugungi kundagi faoliyati hech bir mintaqa, hech bir davlat bunday tahdiddan holi emasligini ko'rsatadi.
SIMPTOM Missionerlik.....	MUAMMOLI TOPSHIRIQ: Bugungi kunda nima uchun yoshlar o'rtasida diniy da'vatlarga uchish, aldanish xolatlari ko'p uchramoqda
XULOSA: O'quvchilarni ijobiy hatti harakatga undash uchun qanday metodlardan, usullardan foydalanish lozim.	

Topshiriq 2

«AQLIY H U J U M» USULI

Aqliy hujum (breynstroming-aqlar to'zoni) - amaliy yoki ilmiy muammolar yechish g'oyasini jamoaviy yuzaga keltirish.

Ishtirokchilar aqliy hujum vaqtida murakkab muammoni hal etishga harakat qiladilar: ularni tanqid qilishga yo'l qo'ymay uni hal etishning ko'proq shaxsiy g'oyalarni yuzaga keltiradilar, so'ngra ko'proq oqilona/samrali/maqbul va boshqa g'oyalarni ajratadilar, ularni muhokama qiladilar va rivojlantiradilar, ularni isbotlash yoki qaytarish imkoniyatlarini baholaydilar.

Bu usul hamma vazifalarni bajaradi, lekin uning asosiy vazifasi - ta'lim oluvchilarni o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish, ularni muammoni mustaqil tushunish va yechishga qiziqtirish va ularda muomala madaniyati, fikr almashinish malakalarini rivojlantirishi, tashqi ta'sir ostida

fikrlashdan ozod bo‘lish va ijodiy topshiriqni yechishda birlamchi yo‘l fikrlarini yengib o‘tishni tarbiyalaydi.

Aqliy hujum qoidasi:

Hech qanday birga baholash va tanqidga yo‘l qo‘yilmaydi!

Taklif etilayotgan g‘oyani baholashga shoshma, agarda u hattoki ajoyib va g‘aroyib bo‘lsa ham – hamma narsa mumkin.

Tanqid qilma-hamma aytilgan g‘oyalar qimmatli teng kuchlidir.

O‘rtaga chiquvchini bo‘lma!

Turtki berishdan o‘zingni ushla!

Aqliy hujum uchun savollar

1	Buddaviylik qachon va qayerda vujudga kelgan?
2	Buddaviylikning asoiy g‘oyasi nimalardan iborat
3	Buddaviylikning diniy an‘ana va marosimlarini qaysilar?
4	Buddaviylikning asoiy manbasi qanday nomlanadi?

№ 13 SEMINAR MASHG‘ULOT

Mavzu: Diniy fundamentalizm, radikalizm va terrorizm xavfsizlikka tahdid

R e j a:

1. Mutaasablik, ekstremizm, aqidaparastlik, radikalizm, fundamentalizm, terrorizm, xalqaro terrorizm tushunchalarining mazmun mohiyati. Diniy fundamentalizmning tarixi va rivojlanish bosqichlari.
2. Markaziy Osiyo mintaqasida faoliyati kuzutilgan diniy ekstremistik harakatlarning maqsadlari.
3. Al-Qoida, ixvanul muslimin, ISHID, boko xaram tashkilotlarining dunyo hamjamiyati xavfsizligiga tahdidi, ularga islom tashkilotlari va musulmon ulamolari tomonidan berilgan raddiyalar.
4. O‘zbekistonda sodir etilgan terroristik harakatlar va ularning barqaror taraqqiyotga ta’siri: Turkiston islom harakati, xizbut tahrir, akromiylar, vahobiylik va nurchilik harakatlari tarixi, maqsadlari.
5. O‘zbekiston davlat siyosatida radikal oqimlarga qarshi kurashning vo‘nalishlari.

Ishning maqsadi:

Diniy fundamentalizmning tarixi va rivojlanish bosqichlari, radikalizmning paydo bo'lishi sabablari va oqibatlari haqida bilim berish

F S M U METODI

Savol: Diniy radikalizmning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar

F(fikringizni bildiring)	S(Fikringizni sabab keltiring)	M(Misollar keltiring)	U(Fikringizni umumlashtirish)

Blits-so'rov» savollariga javob bering

№	Savollar	Javoblar
1.	Fanatizm nima?	
2.	Ekstremizm paydo bo'lish sabablari nimada?	
3.	Terrorizmning mohiyati va uning qanday shakllari mavjud?	
4.	O'zbekiston davlat siyosatida radikal oqimlarga qarshi kurashning yo'nalishlari.	

№ 14 SEMINAR MASHG'ULOT

Mavzu: Xalqaro tashkilotlarning terrorizmga qarshi kurashining ahamiyati

R e j a:

1. Xalqaro tashkilotlarning terrorizmga qarshi kurashi.
2. Global terrorizmga qarshi global hamkorlikning yo'nalishlari.
3. BMTning global antiterror strategiyasining asosiy yo'nalishlari.
4. Shanxay hamkorlik tashkiloti va mintaqaviy antiterror tuzulmasi faoliyatining ahamiyati.
5. O'zbekistonda diniy terrorizmga qarshi «Jaholatga qarshi ma'rifat» g'oyasining


Ishning maqsadi:

Xalqaro tashkilotlarning terrorizmga qarshi kurashi, global terrorizmga qarshi global hamkorlikning yoʻnalishlari haqida bilm berish

“Muammoli vaziyat” jadvalini toʻldiring

“Muammoli vaziyat turi”	“Muammoli sababalari	vaziyat”	Vaziyatdan chiqib ketish
Hozirgi terrorizm xafining ortish sabablari nimalarda aks etadi?			

«Nima uchun?» texnikasi



№ 15 SEMINAR MASHG'ULOT

Mavzu: Diniy plyuralizm, diniy tolerantlik, bag'rikenglikning jamiyat hayotidagi o'rni

R e j a:

1. Yangi O'zbekistonda dunyoviy va diniy ta'lim-tarbiyaga munosabat, diniy ta'limning yo'nalishlari.
2. Ibodat va diniy marosimlarning shaxs komolotiga ta'siri.
3. Iymon va e'tiqodning shakillanishiga ijtimoiy muhitning ta'siri.
4. Diniy plyuralizm, diniy tolerantlik, bag'rikenglikning shaxs kamoloti va e'tiqod erkinligini taminlashdagi roli.


ta'lim muassasalarida diniy ta'limni tashkil etishning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati haqida bilm berish.

“Baliq skleti”

izox: 1Muammoning ushbu model shaklida qo'yilishi va yechilishi muammolarning butun bir guruhliy izoxlash va yechimini hal qilishga yordam beradi.


2.Yuqori “Qovurg’asida” muammoning qo'yilishi yoziladi.

3.Pastki “Qovurg’asida” ushbu muammoning mavjudligini isbotlovchi dalillar beriladi.



Press- konferensiya o'tkazish jarayoni

SAVOLLAR NAVBATI BILAN BERILADI



Press- konferensiyaga savollar

1. Diniy bag'rikenglik nima?
2. Ibodat va diniy marosimlarning shaxs komolotiga ta'siri qanday?
3. Diniylik va dunyoviylikning uyg'unligi deganda nimani tushunasiz?
4. Diniy plyuralizm izohlang
5. Diniy tolerantlik tushunchasining mazmu-mohiyatini tushuntiring

ADABIYOTLAR RO'YXATI.

Asosiy adabiyotlar:

1. Muratov D., Alimova M., Karimov J. Dinshunoslik, darslik. – Toshkent, «Navro'z» nashriyoti, 2019. – 264 b.
2. Raximjanov D., Ernazarov O. Dinshunoslikka kirish. O'quv qo'llanma. – T.: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. – 304 b.
3. Isoqjonov R. Qiyosiy dinshunoslik. O'quv qo'llanma. – T.: OOO «Complex print», 2020. – 198 b.
4. Kamilov D. Dinshunoslik. O'quv qo'llanma. – T.: Lesson Press, 2021. – 128 b.
5. Shermuxamedova N.A. Diniy fanatizm fenomeni//Inson falsafasi. – T.: Noshir, 2016. B.314-499.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T. 1. - Toshkent: O'zbekiston.. 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O'zbekiston. 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O'zbekiston. 2017.
4. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. Toshkent: O'zbekiston, 2019.
5. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon. Toshkent: O'zbekiston, 2019.
6. K. S.Guttenplan. J.Hornsby. C. Janavay. Reading philosophy. Blackwell Publishers Ltd. UK. 2003. R – 341.
7. A.Azami. Vvedenie v xadisovedenie. Kazan: 2011
8. A.Fitrat. Tanlangan asarlar –Toshkent: Ma'naviyat, 2010 -301 b
9. Abu Xomid G'azzoliy Kimei saodat//Ikki dune saodatiga eltuvchi bilim. - Samarkand: Imom Buxoriy xalkaro markazi, 2019
10. Rumi J. Masnaviy. 40 rivoyatga sharx. -Toshkent: Navruz, 2019
11. Abu Xomid G'azzoliy Kimei saodat//Ikki dune saodatiga eltuvchi bilim. - Samarkand: Imom Buxoriy xalkaro markazi, 2019
12. Islomov Z., Haydarov I. Xristianlik: ibodatxona, ibodat va marosimlari. – Toshkent: Qaqnus nashriyoti, 2020.
13. G'oyibnazarov Sh. Islom terrorizmga qarshi. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2021.
14. David L. McMahan. The Making of Buddhist Modernism. – Oxfordshire: “Oxford University Press”, 2008.
15. Todd M. Johnson. Religious Adherents of the World by Continent and Region // Religions of the World: A Comprehensive Encyclopedia of Beliefs and Practices / J. Gordon Melton, Martin Baumann. – Oxford, England: “ABC CLIO”, 2010.

Axborot manbalari

1. www.ziynet.uz.
2. www.edu.uz.
3. www.google.uz.

MUSTAQIL TA'LIM ISHLANMASI.

Tushuntirish xati

Talabalarning auditoriyadan tashqari mustaqil ishi - talabalarning o'qituvchining ko'rsatmasi va uslubiy rahbarligi bilan, lekin uning bevosita ishtirokisiz auditoriyadan tashqarida amalga oshirilishi rejalashtirilgan o'quv, o'quv-tadqiqot, ilmiy-tadqiqot ishlari. Talabalarning mustaqil ishlarining hajmi davlat ta'lim standarti bilan belgilanadi. Talabalarning mustaqil ishi har bir talaba uchun majburiy bo'lib, o'quv rejasi bilan belgilanadi.

Talabalarning mustaqil ishlarining maqsadi fan bo'yicha fundamental bilimlarni, ijodiy, tadqiqot faoliyati tajribasini o'zlashtirishdan iborat. Talabalarning mustaqil ishi mustaqillik, mas'uliyat va tashkilotchilikni, ta'lim va kasbiy darajadagi muammolarni hal qilishga ijodiy yondashishni rivojlantirishga yordam beradi.

Auditoriyadan tashqari mustaqil ishning vazifalari quyidagilardan iborat:

- 1) talabalarning olingan nazariy bilimlari va amaliy ko'nikmalarini tizimlashtirish va mustahkamlash;
- 2) nazariy bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish;
- 3) olingan bilimlarni amalda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish;
- 4) o'quvchilarning bilish, ijodiy tashabbus qo'rsatish, mustaqillik, mas'uliyat va tashkilotchilik qobiliyatlari va faolligini rivojlantirish;
- 5) mustaqil fikrlash, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini takomillashtirish va o'zini o'zi anglash qobiliyatlarini shakllantirish;
- 6) tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish;
- 7) yakuniy testlar va imtihonlarga samarali tayyorgarlik ko'rish uchun mustaqil ta'lim jarayonida to'plangan va olingan materiallardan foydalanish.

Metodik tavsiyalar me'yoriy hujjatlarga muvofiq tuzilgan va "Dinshunoslik" fanidan auditoriyadan tashqari mustaqil ishlar uchun mo'ljallangan. Unda topshiriq va mashqlar mavjud bo'lib, ularning bajarilishi fan bo'yicha tizimli bilimlarni olish, talabalarning savodxonligi va madaniyatini oshirish imkonini beradi.

Talabalarning mustaqil ishi natijalarini baholash mezonlari:

- o'quv materialini talaba tomonidan o'zlashtirilganlik darajasi;
- talabaning nazariy bilimlaridan amaliy topshiriqlarni bajarishda foydalana olishi;
- umumiy ta'lim ko'nikmalarini shakllantirish;
- materialni taqdim etishning asosiligi va ravshanligi;
- ishlarning bajarilishi darajasi.

"Dinshunoslik" fanidan mustaqil ish 1- semestrda ba'zi ta'lim yo'nalishlari uchun 2- semestrda 60 soatga mo'ljallangan. Ko'rsatmalar talabalarga mavzu bo'yicha materialni maqsadli o'rganishga, mustaqil ishlarni bajarishda bilim va ko'nikmalar darajasini aniqlashga yordam beradi.

"Dinshunoslik" fani bo'yicha talabalarning mustaqil ta'limi shu fanni o'rganish jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, uslubiy va axborot resurslari bilan to'la ta'minlangan.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik;
- o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularni o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismini o'zlashtirish;
- internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish;
- talabaning o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan fan bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari

Uyga vazifalarni va mavzuni o'zlashtirish darajasini tekshirish va baholash seminar darslarini olib boruvchi o'qituvchi tomonidan har darsda amalga oshiriladi.

“DINSHUNOSLIK” FANIDAN AUDITORIYADAN TASHQARI MUSTAQIL ISHLARNI BAJARISH UCHUN VAZIFALAR VA METODIK KO‘RSATMALAR

Hozirgi vaqtda ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta’lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

“Aqliy hujum” metodi - biror muammo bo‘yicha ta’lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma’lum bir echimga kelinadigan metoddir.

“Aqliy hujum” metodining yozma va og‘zaki shakllari mavjud. Og‘zaki shaklida ta’lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta’lim oluvchilarning har biri o‘z fikrini og‘zaki bildiradi. Ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini qog‘oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko‘rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi.

“Aqliy hujum” metodining yozma shaklida javoblarni ma’lum belgilar bo‘yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to‘g‘ri va ijobiy qo‘llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o‘rgatadi.

“Aqliy hujum” metodidan foydalanilganda ta’lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo‘ladi, shu jumladan ta’lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta’lim oluvchilar o‘z fikrini faqat og‘zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko‘nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta’lim oluvchilarda turli g‘oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod ta’lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

“Aqliy hujum” metodi ta’lim beruvchi tomonidan qo‘yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Ta’lim oluvchilarning boshlang‘ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo‘yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.

2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog‘lash maqsad qilib qo‘yilganda-yangi mavzuga o‘tish qismida amalga oshiriladi.

3. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo‘yilganda - mavzudan so‘ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

“Aqliy hujum” metodini qo‘llashdagi asosiy qoidalar:

1. Bildirilgan fikr-g‘oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.

2. Bildirilgan har qanday fikr-g‘oyalar, ular hatto to‘g‘ri bo‘lmasa ham inobatga olinadi.

3. Har bir ta’lim oluvchi qatnashishi shart.

Quyida “Aqliy hujum” metodining tuzilmasi keltirilgan: Muammoli savol beriladi. Fikr va g‘oyalar eshitiladi va jamlab boriladi. Fikr va g‘oyalar guruhlanadi. Aniq va to‘g‘ri javob tanlab olinadi.

“Aqliy hujum” metodining tuzilmasi:

“Aqliy hujum” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim oluvchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo‘yicha o‘z javoblarini (fikr, g‘oya va mulohaza) bildirishlarini so‘raladi;

2. Ta’lim oluvchilar savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishadi;

3. Ta’lim oluvchilarning fikr-g‘oyalari (magnitafonga, videotasmaga, rangli qog‘ozlarga yoki doskaga) to‘planadi;

4. Fikr-g‘oyalar ma’lum belgilar bo‘yicha guruhlanadi;

5. Yuqorida qo‘yilgan savolga aniq va to‘g‘ri javob tanlab olinadi.

“Aqliy hujum” metodining afzalliklari:

□- natijalar baholanmasligi ta’lim oluvchilarda turli fikr-g‘oyalarning shakllanishiga olib keladi;

□- ta’lim oluvchilarning barchasi ishtirok etadi;

- ☐ - fikr-g'oyalar vizuallashtirilib boriladi;
- ☐ - ta'lim oluvchilarning boshlang'ich bilimlarini tekshirib ko'rish imkoniyati mavjud;
- ☐ - ta'lim oluvchilarda mavzuga qiziqish uyg'otadi.

“Aqliy hujum” metodining kamchiliklari:

- ☐ - ta'lim beruvchi tomonidan savolni to'g'ri qo'ya olmaslik;
- ☐ - ta'lim beruvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi - ta'lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlariga ajratgan holda o'quv materialini o'rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

Ushbu metod qo'llanilganda ta'lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo'lishga, bir-biridan o'rganishga va turli nuqtai- nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo'ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo'llanilganda ta'lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo'ladi. Chunki ta'lim beruvchi bir vaqtning o'zida barcha ta'lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Faoliyat yo'nalishi aniqlanadi. Mavzu bo'yicha bir-biriga bog'liq bo'lgan masalalar belgilanadi.

2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta'lim oluvchilar guruhlariga 3-6 kishidan bo'linishlari mumkin.

3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.

4. Ta'lim beruvchi tomonidan aniq ko'rsatmalar beriladi va yo'naltirib turiladi.

5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.

6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.

7. Kichik guruhlar baholanadi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining afzalligi:

- ☐ - o'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib keladi;
- ☐ - muloqotga kirishish ko'nikmasining takomillashishiga olib keladi;
- ☐ - vaqtni tejash imkoniyati mavjud;
- ☐ - barcha ta'lim oluvchilar jalb etiladi;

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining kamchiliklari:

☐ -ba'zi kichik guruhlarda kuchsiz ta'lim oluvchilar bo'lganligi sababli kuchli ta'lim oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;

☐ -barcha ta'lim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo'ladi;

☐ -guruhlararo o'zaro salbiy raqobatlar paydo bo'lib qolishi mumkin;

☐ -guruh ichida o'zaro nizo paydo bo'lishi mumkin.

“Davra suhbat” metodi – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta'lim oluvchilar tomonidan o'z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o'qitish metodidir.

“Davra suhbat” metodi qo'llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta'lim oluvchining bir-biri bilan “ko'z aloqasi”ni o'rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og'zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og'zaki davra suhbatida ta'lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta'lim oluvchilardan ushbu savol bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so'raydi va aylana bo'ylab har bir ta'lim oluvchi o'z fikr-mulohazalarini og'zaki bayon etadilar. So'zlayotgan ta'lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo'lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo'lingandan so'ng muhokama qilinadi. Bu esa ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.

Davra stolining tuzilmasi yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta'lim oluvchiga konvert qog'ozi beriladi. Har bir ta'lim oluvchi konvert ustiga ma'lum bir mavzu bo'yicha o'z savolini beradi va “Javob varaqasi”ning biriga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi. Shundan so'ng konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan ta'lim oluvchi o'z javobini “Javoblar varaqasi”ning

biriga yozib, konvert ichiga solib qo'yadi va yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo'ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig'ib olinib, tahlil qilinadi. "Davra suhbat" metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Mashg'ulot mavzusi e'lon qilinadi.
2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni mashg'ulotni o'tkazish tartibi bilan tanishtiradi.
3. Har bir ta'lim oluvchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha ta'lim oluvchi bo'lsa, shunchadan "Javoblar varaqalari"ni tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qo'yiladi. Ta'lim oluvchi konvertga va "Javoblar varaqalari"ga o'z ismi-sharifini yozadi.
4. Ta'lim oluvchi konvert ustiga mavzu bo'yicha o'z savolini yozadi va "Javoblar varaqasi"ga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi.
5. Konvertga savol yozgan ta'lim oluvchi konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi.
6. Konvertni olgan ta'lim oluvchi konvert ustidagi savolga "Javoblar varaqalari"dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qo'yadi hamda yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi.
7. Konvert davra stoli bo'ylab aylanib, yana savol yozgan ta'lim oluvchining o'ziga qaytib keladi. Savol yozgan ta'lim oluvchi konvertidagi "Javoblar varaqalari"ni baholaydi.
8. Barcha konvertlar yig'ib olinadi va tahlil qilinadi.

Ushbu metod orqali ta'lim oluvchilar berilgan mavzu bo'yicha o'zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta'lim oluvchilarni muayyan mavzu bo'yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta'lim oluvchilar o'zlari bergan savollariga guruhdagi boshqa ta'lim oluvchilar bergan javoblarini baholashlari va ta'lim beruvchi ham ta'lim oluvchilarni obyektiv baholashi mumkin.

"Davra suhbat" metodining afzalliklari:

- ☐ -o'tilgan materialining yaxshi esda qolishiga yordam beradi;
- ☐ -barcha ta'lim oluvchilar ishtirok etadilar;
- ☐ -har bir ta'lim oluvchi o'zining baholanishi mas'uliyatini his etadi;
- ☐ -o'z fikrini erkin ifoda etish uchun imkoniyat yaratiladi.

"Davra suhbat" metodining kamchiliklari:

- ko'p vaqt talab etiladi;
- ta'lim beruvchining o'zi ham rivojlangan fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi talab etiladi;
- ta'lim oluvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo'lgan mavzu tanlash talab etiladi.

"Bahs-munozara" metodi - biror mavzu bo'yicha ta'lim oluvchilar bilan o'zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o'tkaziladigan o'qitish metodidir.

Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu metod qo'llaniladi. Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini ta'lim oluvchilarning biriga topshirishi yoki ta'lim beruvchining o'zi olib borishi mumkin. Bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har bir ta'lim oluvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod olib borilayotganda ta'lim oluvchilar orasida paydo bo'ladigan nizolarni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.

"Bahs-munozara" metodini o'tkazishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

- barcha ta'lim oluvchilar ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratish;
- "o'ng qo'l" qoidasi (qo'lini ko'tarib, ruhsat olgandan so'ng so'zlash)ga rioya qilish;
- fikir-g'oyalarni tinglash madaniyati;
- bildirilgan fikr-g'oyalarning takrorlanmasligi;
- bir-birlariga o'zaro hurmat.

"Bahs-munozara" metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim beruvchi munozara mavzusini tanlaydi va shunga doir savollar ishlab chiqadi.
2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga muammo bo'yicha savol beradi va ularni munozaraga taklif etadi.

3. Ta'lim beruvchi berilgan savolga bildirilgan javoblarni, ya'ni turli g'oya va fikrlarni yozib boradi yoki bu vazifani bajarish uchun ta'lim oluvchilardan birini kotib etib tayinlaydi. Bu bosqichda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga o'z fikrlarini erkin bildirishlariga sharoit yaratib beradi.

4. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilar bilan birgalikda bildirilgan fikr va g'oyalarni guruhlariga ajratadi, umumlashtiradi va tahlil qiladi.

5. Tahlil natijasida qo'yilgan muammoning eng maqbul echimi tanlanadi.

“Bahs-munozara” metodining afzalliklari:

- ta'lim oluvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi;
- ta'lim oluvchilar o'z fikrining to'g'riligini isbotlashga harakat qilishiga imkoniyat yaratiladi;
- ta'lim oluvchilarda tinglash va tahlil qilish qobiliyatining rivojlanishiga yordam beradi.

“Bahs-munozara” metodining kamchiliklari:

- ta'lim beruvchidan yuksak boshqarish mahoratini talab etadi;
- ta'lim oluvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo'lgan mavzu tanlash talab etiladi.

«Keys-stadi» metodi. «Keys-stadi» - inglizcha so'z bo'lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o'rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim? (Who?), Qachon? (When?), Qayerda? (Where?), Nima uchun? (Why?), Qanday?/Qanaqa? (How?), Nima? (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	yakka tartibdagi audio-vizual ish; ☐ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ☐ axborotni umumlashtirish; ☐ axborot tahlili; ☐ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ini belgilash	individual va guruhda ishlash; muammolarni dolzarblik iyerarxiyasini aniqlash; ☐ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining echimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	individual va guruhda ishlash; ☐ muqobil echim yo'llarini ishlab chiqish; ☐ har bir echimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; ☐ muqobil echimlarni tanlash
4-bosqich: yakuniy xulosa	yakka va guruhda ishlash; ☐ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyat-larini asoslash; ☐ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ☐ yakuniy xulosa va vaziyat echimining amaliy aspektlarini yoritish

Mustaqil ishlarning mavzulari

Fan dasturida tavsiya etilgan mustaqil ta'lim mavzulari asosida mavzu bo'yicha adabiyotlar ustida ishlab, yozma, ijodiy ish texnologik loyiha ko'rinishida quyidagi reja asosida masalani muhim tomonlarini yoritishga alohida e'tibor qaratiladi:

“DINSHUNOSLIK” FANIDAN AUDITORIYADAN TASHQARI MUSTAQIL ISHLARNING TEMATIK REJASI

1- semestr ba'zi ta'lim yo'nalishlari uchun 2- semestr

№	Mavzu nomi	Mustaqil ish shakli	Soat lar	Ishning natijasi
----------	-------------------	----------------------------	-----------------	-------------------------

			xaj mi	
1	Dinshunoslikning fan sifatida shakllanishi, predmeti, funksiyalari, kategoriyalari	Dinshunoslik shakllanishi, faning maqsadi va vazifalar to'g'risida referat tayyorlash	4	Fanning maqsad va vazifalari va maqsadi haqida tushunchaga ega bo'ladilar.
2	Dinlarni tadqiq etish metodologiyasi: tipologik, qiyosiy, tarkibiy-funksional, genetik tahlil. Qiyosiy dinshunosliklikning metodlari	Dinlarni tadqiq etish metodologiyasi va qiyosiy dinshunoslik haqida ma'lumotlar yig'ish va klassifikatsiya qilish	4	Dinlarni tadqiq etish metodologiyasi haqida tushunchaga ega bo'ladilar.
3	Yahudiylik ta'limoti, an'ana va marosimlari	Yahudiylik dinning keib chiqishi, ta'limoti, ana'ana va marosimlari to'grisida referat tayyorlash.	4	Yahudiylik ta'limoti, an'ana va marosimlari bilan tanishadilar
4	Konfutsiylik ta'limotida ijtimoiy-axloqiy masalalar	Konfutsiylik ta'limoti uning asosiy g'oylari va ijtimoiy-axloqiy masalalar to'g'risida taqdimot tayyorlash	4	Konfutsiylik ta'limotida ijtimoiy-axloqiy masalalarning aks etishi haqida ma'lumotlarga ega bo'ladilar
5	Zardushtiylikning teologik tizimi, diniy marosimlari va diniy iyerarxiyasi	Zardushtiylikning teologik tizimi uning mintaqa xalqlari hayotiga ta'siri haqida referat tayyorlash	4	Zardushtiylikning teologik tizimi, diniy marosimlari va diniy iyerarxiyasi haqida tasavvurga ega bo'ladilar.
6	Buddaviylik dinining paydo bo'lish tarixi, asosiy ta'limotlari, oqimlari va manbalari.	Buddaviylik dinining paydo bo'lish tarixi va O'zbekistonda buddaviylik dinining tarixiy ildizlari haqida taqdimot tayyorlash	4	Buddaviylik dinining paydo bo'lish tarixi, asosiy ta'limotlari haqida ma'lumotga ega bo'ladilar
7	Xristianlikning paydo bo'lishi, aqidalari, asosiy yo'nalishlari, ta'limotlari va manbalari.	Xristianlikning paydo bo'lishi, aqidalari, asosiy yo'nalishlari, ta'limotlari va manbalariga oid ma'lumotlar to'plash va xristianlik oqimlarining farqi va o'xshashliklari haqida qiyosiy jadval tuzish	4	Xristianlikning paydo bo'lishi, aqidalari, asosiy yo'nalishlari, ta'limotlari va manbalari haqida bilmga ega bo'aladilar.
8	Islom dinining paydo bo'lishidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy sharoitlar. Ummaviylar va abbosiylar hukumronligi davrida dinga munosabat.	Islom dinining paydo bo'lishidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy sharoit va uning mintaqa xalqlari hayotiga ta'siriga oid referat tayyorlash.	4	Islom dinining paydo bo'lishidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy sharoitlar haqida ma'lumotga ega bo'ladilar

9	Islom oqimlari va yo'nalishlarining paydo bo'lishi sabablari, e'tiqodidagi bo'linishlarning sabablari va oqibatlari.	Islom oqimlari va yo'nalishlarining paydo bo'lishi sabablari haqida ma'lumot to'plash va tahlil qilish	4	Islom oqimlari va yo'nalishlarining paydo bo'lishi sabablarini bilib oladilar
10	Tasavvuf tushunchasi va uning mohiyati. Tasavvufning kelib chiqishi, mazmuni va rivoji	Tasavvuf tushunchasi va uning mohiyati, kelib chiqishi va ijtimoiy hayotga ta'siga oid taqdimot tayyorlash	4	Tasavvufning kelib chiqishi, mazmuni va rivoji haqida tushunchaga ega bo'ladilar.
11	Konfessiya tushunchasining mohiyati va O'zbekistonda faoliyat yurituvchi diniy konfessiyalarning tasnifi	Konfessiya tushunchasining mohiyati haqida ma'lumotlar yig'ish va tahlil qilish	4	Konfessiya tushunchasi, O'zbekistonda faoliyat yurituvchi diniy konfessiyalarning faoliyati bilan tanishadilar
12	Kiber makon, kiber terrorizm, kiberzo'ravonlik (cyberbullying) tushunchalarining mohiyati	Kiber makon, kiber terrorizm, kiberzo'ravonlik (cyberbullying) tushunchalarining mazmun-mohiyati haqida ESSE yozish	4	Kiber makon, kiber terrorizm, kiberzo'ravonlik (cyberbullying) tushunchalarining mazmun-mohiyati va uning oqibatlariga oid bilimga ega bo'ldilar
13	Diniy aqidaparastlik (fanatizm), ekstremizm paydo bo'lishining ijtimoiy-tarixiy zaminlari va rivojlanishi	Diniy aqidaparastlik (fanatizm), ekstremizm paydo bo'lishining ijtimoiy-tarixiy zaminlari va rivojlanish tendensiyalari haqida ma'lumotlar yig'ish va tahlil qilish	4	Diniy aqidaparastlik (fanatizm), ekstremizm paydo bo'lishining ijtimoiy-tarixiy zaminlari va rivojlanish tendensiyalari bilan tanishadilar
14	O'zbekistonning terrorizmga qarshi kurash tajribasi	O'zbekistonning terrorizmga qarshi kurash tajribasi va hamkorlik ishlari va istiqbollari haqida referat yozish	4	O'zbekistonning terrorizmga qarshi kurash tajribasi va hamkorlik ishlari va istiqbollari haqida ma'lumotlarga ega bo'ladilar
15	O'zbekiston yoshlarining diniy manbalardagi axloqiy tarbiyaga oid g'oyalarni o'rganishning ahamiyati.	Diniy manbaa tushunchasi va diniy manbalardan foydalanish tartibi va mezonlari, diniy manalardagi axloqiy g'oyalar haqida taqdimot tayyorlash	4	Diniy manbaa tushunchasi, tasnifi va turlari va ularda axloqiy g'oyalarning aks etishiga oid bilimga ega bo'ladilar
		Jami	60	

Mavzu. Dinshunoslikning fan sifatida shakllanishi, predmeti, funksiyalari, kategoriyalari
Ishning qisqacha mazmuni.

Talaba bajarishi kerak: Dinshunoslikning fan sifatida shakllanishi, predmeti, funksiyalari, kategoriyalari mavzusi bo'yicha ijodiy ish. Bunda talaba berilgan mavzu yuzsidan referatlar va taqdimotlar tayyorlashi, belgilangan kunda fan o'qituvchisiga himoya qilib topshirishi lozim.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Dinshunoslik faning maqsad vazifalari nimalardan iborat?
2. Din tushunchasini izohlang?
3. Dinning ijtimoiy vazifalarini tushuntiring!

Kerakli adabiyotlar

1. Muratov D., Alimova M., Karimov J. Dinshunoslik, darslik.-Toshkent, «Navro'z» nashriyoti, 2019. – 264 b.
2. Raximjanov D., Ernazarov O. Dinshunoslikka kirish. O'quv qo'llanma.-T.: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. – 304 b.
3. Isoqjonov R. Qiyosiy dinshunoslik. O'quv qo'llanma. – T.: OOO.
4. Kamilov D. Dinshunoslik. O'quv qo'llanma. – T.: Lesson Press, 2021. – 128 b.
5. Shermuxamedova N.A. Diniy fanatizm fenomeni//Inson falsafasi.-T.: Noshir, 2016. B.314-499.

MUSTAQIL ISH №2

Mavzu: Dinlarni tadqiq etish metodologiyasi: tipologik, qiyosiy, tarkibiy-funksional, genetik tahlil. Qiyosiy dinshunosliklikning metodlari
Ishning qisqacha mazmuni.

Talaba bajarishi kerak: Dinlarni tadqiq etish metodologiyasi: tipologik, qiyosiy, tarkibiy-funksional, genetik tahlil. Qiyosiy dinshunosliklikning metodlari mavzusi bo'yicha ijodiy ish. Bunda talaba berilgan mavzu yuzasidan talaba ma'lumotlar yig'ish va klassifikatsiya qilishi va belgilangan kunda fan o'qituvchisiga himoya qilib topshirishi lozim.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Muratov D., Alimova M., Karimov J. Dinshunoslik, darslik.-Toshkent, «Navro'z» nashriyoti, 2019. – 264 b.
2. Raximjanov D., Ernazarov O. Dinshunoslikka kirish. O'quv qo'llanma.-T.: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. – 304 b.
3. Isoqjonov R. Qiyosiy dinshunoslik. O'quv qo'llanma. – T.: OOO.
4. Kamilov D. Dinshunoslik. O'quv qo'llanma. – T.: Lesson Press, 2021. – 128 b.
5. Shermuxamedova N.A. Diniy fanatizm fenomeni//Inson falsafasi.-T.: Noshir, 2016. B.314-499.

MUSTAQIL ISH №3

Mavzu: Yahudiylik ta'limoti, an'ana va marosimlari
Ishning qisqacha mazmuni.

Talaba bajarishi kerak: Yahudiylik ta'limoti, an'ana va marosimlari to'g'risida referat tayyorlash. Bunda talaba berilgan mavzu yuzasidan adabiyotlar va internet manbalaridan foydalangan holda referat tayyorlashi, belgilangan kunda fan o'qituvchisiga himoya qilib topshirishi lozim.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Yaxudiylik dinining paydo bo'lish haqida gapirib bering.
2. Yaxudiylikning muqaddas kitobi qanday nomlanadi?.
3. Yaxudiylikning tarqalishi haqida nimalarni bilasiz.

Kerakli adabiyotlar

1. Muratov D., Alimova M., Karimov J. Dinshunoslik, darslik.-Toshkent, «Navro'z» nashriyoti, 2019. – 264 b.
2. Raximjanov D., Ernazarov O. Dinshunoslikka kirish. O'quv qo'llanma.-T.: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. – 304 b.
3. Isoqjonov R. Qiyosiy dinshunoslik. O'quv qo'llanma. – T.: OOO.
4. Kamilov D. Dinshunoslik. O'quv qo'llanma. – T.: Lesson Press, 2021. – 128 b.
5. Shermuxamedova N.A. Diniy fanatizm fenomeni//Inson falsafasi.-T.: Noshir, 2016.

B.314-499.

MUSTAQIL ISH №4

Mavzu: Konfutsiylik ta'limotida ijtimoiy-axloqiy masalalar.

Ishning qisqacha mazmuni.

Talaba bajarishi kerak: O Konfutsiylik ta'limotida ijtimoiy-axloqiy masalalar to'g'risida taqdimot tayyorlash. Bunda talaba berilgan mavzu yuzasidan adabiyotlar va internet manbalaridan foydalangan holda taqdimot tayyorlashi, belgilangan kunda fan o'qituvchisiga himoya qilib topshirishi lozim.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Konfutsiylik ta'limoti va uning Xitoyda milliy dinga aylanish jaroni qanday kechgan?
2. Konfutsiylikda qanday axloqiy mezonlarga e'tibor qartilgan?

Kerakli adabiyotlar

1. Muratov D., Alimova M., Karimov J. Dinshunoslik, darslik.-Toshkent, «Navro'z» nashriyoti, 2019. – 264 b.
2. Raximdjanov D., Ernazarov O. Dinshunoslikka kirish. O'quv qo'llanma.-T.: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. – 304 b.
3. Isoqjonov R. Qiyosiy dinshunoslik. O'quv qo'llanma. – T.: OOO.

MUSTAQIL ISH №5

Mavzu: Zardushtiylikning teologik tizimi, diniy marosimlari va diniy iyerarxiyasi.

Ishning qisqacha mazmuni.

Talaba bajarishi kerak: Zardushtiylikning teologik tizimi, diniy marosimlari va diniy iyerarxiyasi haqida referat tayyorlash. Bunda talaba berilgan mavzu yuzasidan adabiyotlar va internet manbalaridan foydalangan holda referat tayyorlashi, belgilangan kunda fan o'qituvchisiga himoya qilib topshirishi lozim.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Zardushtiylik dinning vujudga kelish sabablari nimada?
2. Zardushtiylik dinning asosiy kitobi va uning ahamiyati nimada?
3. Zardushtiylik dinning asosiy g'oyasi va uning mazmun-mohiyati nimada?

Kerakli adabiyotlar

1. Muratov D., Alimova M., Karimov J. Dinshunoslik, darslik.-Toshkent, «Navro'z» nashriyoti, 2019. – 264 b.
2. Raximdjanov D., Ernazarov O. Dinshunoslikka kirish. O'quv qo'llanma.-T.: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. – 304 b.
3. Isoqjonov R. Qiyosiy dinshunoslik. O'quv qo'llanma. – T.: OOO.
4. Kamilov D. Dinshunoslik. O'quv qo'llanma. – T.: Lesson Press, 2021. – 128 b.
5. Shermuxamedova N.A. Diniy fanatizm fenomeni//Inson falsafasi.-T.: Noshir, 2016.

B.314-499.

MUSTAQIL ISH №6

Mavzu: Buddaviylik dinining paydo bo'lish tarixi, asosiy ta'limotlari, oqimlari va manbalari.

Ishning qisqacha mazmuni.

Talaba bajarishi kerak: Buddaviylik dinining paydo bo'lish tarixi, asosiy ta'limotlari, oqimlari va manbalari mavzu yuzasidan adabiyotlar va internet manbalaridan foydalangan holda taqdimot tayyorlashi, belgilangan kunda fan o'qituvchisiga himoya qilib topshirishi lozim.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Buddaviylikning dinning asosiy g'oyasi nima?
2. Buddaviylikning muqaddas kitobi qanay nomlanadi?
3. O'zbekistonda buddaviylik dinning na'munalari qayerlardan topilgan?

Kerakli adabiyotlar

1. Isoqjonov R. Qiyosiy dinshunoslik. O'quv qo'llanma. – T.: OOO.
 2. Kamilov D. Dinshunoslik. O'quv qo'llanma. – T.: Lesson Press, 2021. – 128 b.
 3. Shermuxamedova N.A. Diniy fanatizm fenomeni//Inson falsafasi.-T.: Noshir, 2016.
- B.314-499.

4. Umarov A. Mutolaa madaniyati: shaxs, jamiyat, taraqqiyot. Fan. 2004.

MUSTAQIL ISH №7

Mavzu: Xristianlikning paydo bo'lishi, aqidalari, asosiy yo'nalishlari, ta'limotlari va manbalari.

Ishning qisqacha mazmuni.

Talaba bajarishi kerak: Xristianlikning paydo bo'lishi, aqidalari, asosiy yo'nalishlari, ta'limotlari va manbalari qiyosiy jadval tayyorlash. Bunda talaba berilgan mavzu yuzasidan adabiyotlar va internet manbalaridan foydalangan holda qiyosiy jadval tayyorlashi, belgilangan kunda fan o'qituvchisiga himoya qilib topshirishi lozim.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Xristianlikning asosiy yo'nalishlar qanday nomlanadi?
2. Rim-katolik cherkovining o'ziga xosligi nimada?
3. Xristianlikning rivojlanishi va jahon dini sifatidagi mavqeye qanday?

Kerakli adabiyotlar

1. Isoqjonov R. Qiyosiy dinshunoslik. O'quv qo'llanma. – T.: OOO.
2. Kamilov D. Dinshunoslik. O'quv qo'llanma. – T.: Lesson Press, 2021. – 128 b.
3. Shermuxamedova N.A. Diniy fanatizm fenomeni//Inson falsafasi.-T.: Noshir, 2016. B.314-499.

4. Umarov A. Mutolaa madaniyati: shaxs, jamiyat, taraqqiyot. Fan. 2004.

MUSTAQIL ISH №8

Mavzu: Islom dinining paydo bo'lishidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy sharoitlar. Ummaviylar va abbosiylar hukumronligi davrida dinga munosabat.

Ishning qisqacha mazmuni.

Talaba bajarishi kerak: Islom dinining paydo bo'lishidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy sharoitlar. Ummaviylar va abbosiylar hukumronligi davrida dinga munosabat referat tayyorlash. Bunda talaba berilgan mavzu yuzasidan adabiyotlar va internet manbalaridan foydalangan holda referat tayyorlashi, belgilangan kunda fan o'qituvchisiga himoya qilib topshirishi lozim.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Bizning mintaqaga islom dini qachon kirib keldi?
2. Tavhid nima?
3. Islom dinining muqaddas manbalarini qaysilar?

Kerakli adabiyotlar

1. Muratov D., Alimova M., Karimov J. Dinshunoslik, darslik.-Toshkent, «Navro'z» nashriyoti, 2019. – 264 b.
2. Raximdjano D., Ernazarov O. Dinshunoslikka kirish. O'quv qo'llanma.-T.: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. – 304 b.
3. Isoqjonov R. Qiyosiy dinshunoslik. O'quv qo'llanma. – T.: OOO.
4. Kamilov D. Dinshunoslik. O'quv qo'llanma. – T.: Lesson Press, 2021. – 128 b.
5. Shermuxamedova N.A. Diniy fanatizm fenomeni//Inson falsafasi.-T.: Noshir, 2016. B.314-499.

MUSTAQIL ISH №9

Mavzu: Islom oqimlari va yo'nalishlarining paydo bo'lishi sabablari, e'tiqodidagi bo'linishlarning sabablari va oqibatlari.

Ishning qisqacha mazmuni.

Talaba bajarishi kerak: Islom oqimlari va yo'nalishlarining paydo bo'lishi sabablari, e'tiqodidagi bo'linishlarning sabablari va oqibatlari ma'lumotlar to'plash va tahlil qilish. Bunda talaba berilgan mavzu yuzasidan adabiyotlar va manbalaridan foydalangan holda ma'lumotlar to'playdi, tahlil qiladi va belgilangan kunda fan o'qituvchisiga himoya qilib topshirishi lozim.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Kalom nima va u qachon shakllangan?
2. Islomda oqimlarning paydo bo'lish sababalari nimada?
3. Sunniylik va shialikning yuzaga kelish sababalarini tushuntiring.

Kerakli adabiyotlar

1. Muratov D., Alimova M., Karimov J. Dinshunoslik, darslik.-Toshkent, «Navro'z» nashriyoti, 2019. – 264 b.
2. Raximdjano D., Ernazarov O. Dinshunoslikka kirish. O'quv qo'llanma.-T.: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. – 304 b.
3. Isoqjonov R. Qiyosiy dinshunoslik. O'quv qo'llanma. – T.: OOO.
4. Kamilov D. Dinshunoslik. O'quv qo'llanma. – T.: Lesson Press, 2021. – 128 b.
5. Shermuxamedova N.A. Diniy fanatizm fenomeni//Inson falsafasi.-T.: Noshir, 2016. B.314-499.

MUSTAQIL ISH №10

Mavzu: Tasavvuf tushunchasi va uning mohiyati. Tasavvufning kelib chiqishi, mazmuni va rivoji.

Ishning qisqacha mazmuni.

Talaba bajarishi kerak: Tasavvuf tushunchasi va uning mohiyati. Tasavvufning kelib chiqishi, mazmuni va rivoji haqida taqdimot tayyorlash. Bunda talaba berilgan mavzu yuzasidan adabiyotlar va internet manbalaridan foydalangan holda taqdimot tayyorlashi, belgilangan kunda fan o'qituvchisiga himoya qilib topshirishi lozim.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Tasavvufning mohiyati nimada?
2. Tasavvuf ta'limoti namoyondalari va ularning ilmiy merosini izohlab bering.

Kerakli adabiyotlar

1. Muratov D., Alimova M., Karimov J. Dinshunoslik, darslik.-Toshkent, «Navro'z» nashriyoti, 2019. – 264 b.
2. Raximdjano D., Ernazarov O. Dinshunoslikka kirish. O'quv qo'llanma.-T.: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. – 304 b.
3. Isoqjonov R. Qiyosiy dinshunoslik. O'quv qo'llanma. – T.: OOO.

MUSTAQIL ISH №11

Mavzu: Konfessiya tushunchasining mohiyati va O'zbekistonda faoliyat yurituvchi diniy konfessiyalarning tasnifi

Talaba bajarishi kerak Konfessiya tushunchasining mohiyati va O'zbekistonda faoliyat yurituvchi diniy konfessiyalarning tasnifi ma'lumotlar yig'ish va tahlil qilish. Bunda talaba berilgan mavzu yuzasidan adabiyotlar va internet manbalaridan foydalangan holda ma'lumotlar yig'adi, tahlil qiladi va belgilangan kunda fan o'qituvchisiga himoya qilib topshirishi lozim.

Mavzu yuzasidan savollar:

- a. Konfessiya nima?
- b. O'zbekistonda nechta diniy konfessiya bor?

Kerakli adabiyotlar

1. Muratov D., Alimova M., Karimov J. Dinshunoslik, darslik.-Toshkent, «Navro'z» nashriyoti, 2019. – 264 b.
2. Raximdjano D., Ernazarov O. Dinshunoslikka kirish. O'quv qo'llanma.-T.: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. – 304 b.
3. Isoqjonov R. Qiyosiy dinshunoslik. O'quv qo'llanma. – T.: OOO.

MUSTAQIL ISH №12

Mavzu: Kiber makon, kiber terrorizm, kiberzo'ravonlik (cyberbullying) tushunchalarining mohiyati

Ishning qisqacha mazmuni.

Talaba bajarishi kerak: Kiber makon, kiber terrorizm, kiberzo'ravonlik (cyberbullying) tushunchalarining mohiyati ESSE tayyorlash. Bunda talaba berilgan mavzu yuzasidan adabiyotlar va manbalaridan foydalangan holda ESSE tayyorlashi, belgilangan kunda fan o'qituvchisiga himoya qilib topshirishi lozim.

Mavzu yuzasidan savollar:

2. Kiber makon nima?

3. Ijtimoiy tarmoqlardagi targ'ibotning xafli tomonlari nimalarda aks etadi?

Kerakli adabiyotlar

1. Muratov D., Alimova M., Karimov J. Dinshunoslik, darslik.-Toshkent, «Navro'z» nashriyoti, 2019. – 264 b.

2. Raximdjano D., Ernazarov O. Dinshunoslikka kirish. O'quv qo'llanma.-T.: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. – 304 b.

3. Isoqjonov R. Qiyosiy dinshunoslik. O'quv qo'llanma. – T.: OOO.

MUSTAQIL ISH №13

Mavzu: Diniy aqidaparastlik (fanatizm), ekstremizm paydo bo'lishining ijtimoiy- tarixiy zaminlari va rivojlanishi

Talaba bajarishi kerak Diniy aqidaparastlik (fanatizm), ekstremizm paydo bo'lishining ijtimoiy- tarixiy zaminlari va rivojlanishi haqida ma'lumotlar yig'ish va tahlil qilish. Bunda talaba berilgan mavzu yuzasidan adabiyotlar va internet manbalaridan foydalangan holda ma'lumotlar yig'adi, tahlil qiladi va belgilangan kunda fan o'qituvchisiga himoya qilib topshirishi lozim.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Fanatizm nima?

2. Global terrorizmga qarashi qanday kurash olib borilmoqda?

Kerakli adabiyotlar

1. Muratov D., Alimova M., Karimov J. Dinshunoslik, darslik.-Toshkent, «Navro'z» nashriyoti, 2019. – 264 b.

2. Raximdjano D., Ernazarov O. Dinshunoslikka kirish. O'quv qo'llanma.-T.: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. – 304 b.

3. Isoqjonov R. Qiyosiy dinshunoslik. O'quv qo'llanma. – T.: OOO.

4. Kamilov D. Dinshunoslik. O'quv qo'llanma. – T.: Lesson Press, 2021. – 128 b.

5. Shermuxamedova N.A. Diniy fanatizm fenomeni//Inson falsafasi.-T.: Noshir, 2016. B.314-499.

MUSTAQIL ISH №14

Mavzu: O'zbekistonning terrorizmga qarshi kurash tajribasi

Talaba bajarishi kerak O'zbekistonning terrorizmga qarshi kurash tajribasi haqida referat tayyorlash. Bunda talaba berilgan mavzu yuzasidan adabiyotlar va internet manbalaridan foydalangan holda referat tayyorlashi, belgilangan kunda fan o'qituvchisiga himoya qilib topshirishi lozim.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Terrorizmining mohiyati va shakllari qanday?

2. O'zbekiston terrorizmga qarshi kurash va uning huquqiy asoslari qanday?

Kerakli adabiyotlar

1. Muratov D., Alimova M., Karimov J. Dinshunoslik, darslik.-Toshkent, «Navro'z» nashriyoti, 2019. – 264 b.

2. Raximdjano D., Ernazarov O. Dinshunoslikka kirish. O'quv qo'llanma.-T.: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. – 304 b.

3. Isoqjonov R. Qiyosiy dinshunoslik. O'quv qo'llanma. – T.: OOO.

4. Kamilov D. Dinshunoslik. O'quv qo'llanma. – T.: Lesson Press, 2021. – 128 b.

5. Shermuxamedova N.A. Diniy fanatizm fenomeni//Inson falsafasi.-T.: Noshir, 2016. B.314-499.

MUSTAQIL ISH №15

Mavzu: O'zbekiston yoshlarining diniy manbalardagi axloqiy tarbiyaga oid g'oyalarni o'rganishning ahamiyati.

Talaba bajarishi kerak O'zbekiston yoshlarining diniy manbalardagi axloqiy tarbiyaga oid g'oyalarni o'rganishning ahamiyati haqida taqdimot tayyorlash. Bunda talaba berilgan mavzu yuzasidan adabiyotlar va internet manbalaridan foydalangan holda taqdimot tayyorlashi, belgilangan kunda fan o'qituvchisiga himoya qilib topshirishi lozim.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Yangi O'zbekistonda diniy-ma'rifiy sohaga qanay e'tibor qartilmoqda?
2. Diniy ta'limning ahamiyati nimada?
3. Yoshlarning diniy manbalardagi axloqiy g'oyalarni o'rganishining ahamiyati nimada?

Kerakli adabiyotlar

1. Muratov D., Alimova M., Karimov J. Dinshunoslik, darslik.-Toshkent, «Navro'z» nashriyoti, 2019. – 264 b.
2. Raximjanov D., Ernazarov O. Dinshunoslikka kirish. O'quv qo'llanma.-T.: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. – 304 b.
3. Isoqjonov R. Qiyosiy dinshunoslik. O'quv qo'llanma. – T.: OOO.
4. Kamilov D. Dinshunoslik. O'quv qo'llanma. – T.: Lesson Press, 2021. – 128 b.
5. Shermuxamedova N.A. Diniy fanatizm fenomeni//Inson falsafasi.-T.: Noshir, 2016. B.314-499.

Mustaqil ta'lim bo'yicha talabalar bilimini baholash va nazorat qilish mezonlari
V. Fan bo'yicha talabalar bilimini baholash va nazorat qilish mezonlari Talabalar bilimini baholash mezonlari

Baholashni 5 baholik shkaladan 100 ballik shkalaga o'tkazish**JADVALI**

5 baholik shkala	100 ballik shkala	5 baholik shkala	100 ballik shkala	5 baholik shkala	100 ballik shkala
5,00 — 4,96	100	4,30 — 4,26	86	3,60 — 3,56	72
4,95 — 4,91	99	4,25 — 4,21	85	3,55 — 3,51	71
4,90 — 4,86	98	4,20 — 4,16	84	3,50 — 3,46	70
4,85 — 4,81	97	4,15 — 4,11	83	3,45 — 3,41	69
4,80 — 4,76	96	4,10 — 4,06	82	3,40 — 3,36	68
4,75 — 4,71	95	4,05 — 4,01	81	3,35 — 3,31	67
4,70 — 4,66	94	4,00 — 3,96	80	3,30 — 3,26	66
4,65 — 4,61	93	3,95 — 3,91	79	3,25 — 3,21	65
4,60 — 4,56	92	3,90 — 3,86	78	3,20 — 3,16	64
4,55 — 4,51	91	3,85 — 3,81	77	3,15 — 3,11	63
4,50 — 4,46	90	3,80 — 3,76	76	3,10 — 3,06	62
4,45 — 4,41	89	3,75 — 3,71	75	3,05 — 3,01	61
4,40 — 4,36	88	3,70 — 3,66	74	3,00	60
4,35 — 4,31	87	3,65 — 3,61	73	3,0 dan kam	60 dan kam

A'lo - “5” baho – berilgan topshiriq mohiyatini to'liq tushungan holda yoritib bera olsa, mavjud muammolar haqida mustaqil mushohada yurita olsa, berilgan topshiriq bo'yicha ijodiy fikrlay olsa va ular haqida to'g'ri xulosa va qaror qabul qila olsa, so'z boyligini amalda to'g'ri qo'llay olsa, mavzu bo'yicha muammo va ularning yechimini bilsa va ularni hal qilish yo'llarini o'zi yozgan matn (insho, esse kabi) mazmunida to'liq aks ettirgan bo'lsa;

Yaxshi - “4” baho – berilgan topshiriq bo'yicha mustaqil fikrlay olsa, so'z boyligini amalda qo'llay olsa, topshiriq bo'yicha muammolarni hal qilish yo'llarini bilsa, mavzuga doir muammolar haqida tasavvurga ega bo'lsa, matn (insho, esse kabi) mazmuniga e'tibor bersa;

Qoniqarli - “3” baho – masala mohiyatini tushunsa, ammo bayon etishda kamchiliklarga yo'l qo'ysa, mavzuni bilsayu ammo uni yoritishda ayrim xatolarga (imlo xatolariga) yo'l qo'ygan bo'lsa, mavzu haqida tasavvurga ega bo'lsayu, ammo amalda bayon eta olmasa;

Qoniqarsiz - “2” baho – fan bo'yicha aniq tasavvurga ega bo'lmasa va fanni o'zlashtirmagan bo'lsa qo'yiladi.

Bunda:

Oraliq nazorat: darslar davomida o'rganilgan materiallar asosida yozma yoki o'g'zaki shaklda va mustaqil ta'lim mash'g'ulotlari natijalari asosida o'tkaziladi. **(30 ball)**

Joriy nazorat: darslar mashg'ulotlari davomida to'plab boriladi. (20 ball)

Yakuniy nazorat: semestr davomida o'rganilgan mavzular asosida yozma yoki og'zaki (test) usulida o'tkaziladi. (50 ball)

Talabalarning **yakuniy baholash(YaB)** bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichlari "5"(50 ball) baholi tizim asosida baholanadi.

Kredit tizimida talabalar bilimni baholash tartibi

Umumiy ball: 100 ball (JN-20 ball, ya'ni 100%, ON-30 ball, ya'ni 100%, YaN 50 ball, ya'ni 100 %)

ON, JN, YaN (maruza, seminar, mustaqil ta'lim)

Ma'ruza (ON-30%, ya'ni 30 ball)

Seminar (JN-20%, ya'ni 20 ball)

Kurs yakunida (YaN-50%, ya'ni 50 ball)

JN balini bahoga konvertatsiyalash	ON balini bahoga konvertatsiyalash
0-11,5 ballgacha - "2" baho 12-13,5 ballgacha - "3" baho 14-17,5 ballgacha - "4" baho 18-20 ballgacha - "5" baho	0-17,5 ballgacha - "2" baho 18-20,5 ballgacha - "3" baho 21-26,5 ballgacha - "4" baho 27-30 ballgacha - "5" baho
Yakuniy ballni bahoga konvertatsiyalash	Umumiy ballni bahoga konvertatsiyalash
0-29,5 ballgacha - "2" baho 30-34,5 ballgacha "3" baho 35-44,5 ballgacha - "4" baho 45-50 ballgacha - "5" baho	0-59 ballgacha - "2" baho 60-69 ballgacha "3" baho 70-89 ballgacha "4" baho 90-100 ballgacha - "5" baho

Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalari ro'yxati

Asosiy adabiyotlar:

1. Muratov D., Alimova M., Karimov J. Dinshunoslik, darslik.-Toshkent, «Navro'z» nashriyoti, 2019. – 264 b.
2. Raximjanov D., Ernazarov O. Dinshunoslikka kirish. O'quv qo'llanma.-T.: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. – 304 b.
3. Isoqjonov R. Qiyosiy dinshunoslik. O'quv qo'llanma. – T.: OOO«Complex print», 2020. – 198 b.
4. Kamilov D. Dinshunoslik. O'quv qo'llanma. – T.: Lesson Press, 2021. – 128 b.
5. Shermuxamedova N.A. Diniy fanatizm fenomeni//Inson falsafasi.-T.: Noshir, 2016. B.314-499.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T. 1. - Toshkent: O'zbekiston.2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O'zbekiston.2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O'zbekiston. 2017.
4. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. Toshkent: O'zbekiston, 2019.
5. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon. Toshkent: O'zbekiston, 2019.
6. K. S.Guttenplan. J.Hornsby. C. Janavay. Reading philosophy. Blackwell Publishers Ltd. UK. 2003. R – 341.

7. A.Azami. Vvedenie v xadisovedenie. Kazan: 2011
8. A.Fitrat. Tanlangan asarlar –Toshkent: Ma’naviyat, 2010 -301 b
9. Abu Xomid G‘azzoliy Kimei saodat//Ikki dune saodatiga eltuvchi bilim. - Samarkand: Imom Buxoriy xalkaro markazi, 2019
10. Rumi J. Masnaviy. 40 rivoyatga sharx. -Toshkent: Navruz, 2019
11. Abu Xomid G‘azzoliy Kimei saodat//Ikki dune saodatiga eltuvchi bilim. - Samarkand: Imom Buxoriy xalkaro markazi, 2019
12. Islomov Z., Haydarov I. Xristianlik: ibodatxona, ibodat va marosimlari. – Toshkent: Qaqnus nashriyoti, 2020.
13. G‘oyibnazarov Sh. Islom terrorizmga qarshi. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2021.
14. David L. McMahan. The Making of Buddhist Modernism. – Oxfordshire: “Oxford University Press”, 2008.
15. Todd M. Johnson. Religious Adherents of the World by Continent and Region // Religions of the World: A Comprehensive Encyclopedia of Beliefs and Practices / J. Gordon Melton, Martin Baumann. – Oxford, England: “ABC CLIO”, 2010.

Axborot manbalari

1. www.ziyonet.uz.
2. www.edu.uz.
3. www.google.uz.
4. www.gov.uz.

GLOSSARIY

Abxidxarma-Pitaka – buddaviylikning muqaddas kitobi Tripitakaning falsafa va psixologiyaga oid qismi.

Avesto – (qad. eron-pahlaviy. «oʻrnatilgan, qatʼiy qilib belgilangan qonun-qoidalar») zardushtiylikning muqaddas kitobi.

Altar – (lot. «baland») xristian cherkovida ibodatxonaning mehrob va minbar oʻrnatilgan eng baland qismi.

Ansorlar – (arab. «yordam beruvchilar») ilk islom tarixida Makkadan hijrat qilgan Paygʻambar va muhojirlarga yordam bergan madinalik musulmonlar.

Apokalipsis (Vahiyнома) – “YAngi Ahd”ning tarkibiy qismi boʻlib, uni “Injil” mualliflaridan biri Ioann ilohiy ilhom orqali yozgan, deb eʼtiqod qilinadi. Ushbu kitobda qiyomat va Isoning ikkinchi qaytishi bilan bogʻliq hodisalar bayon qilingan.

Apostol (yunoncha — “elchi”) – xristian taʼlimotiga binoan Isoning eng yaqin yordamchilarining unvoni. Ularning asosiylari 12 ta: Pyotr (Simon Ionin), Andrey, Ioann, Iakov Zevedeev, Filipp, Varfolomey, Matfey, Foma, Iakov Alfeev, Faddey, Simon Kananit, Iuda Iskariot (Isoni sotgan havoriy), Matfiy (Iudadan soʻng uning oʻmini egallagan). Bulardan tashqari yana 70 nafar havoriylar mavjud boʻlgani xristian adabiyotlarida qayd etiladi.

Arafot – (arab. «tanimoq, bilmoq» feʼlidan) Makka shahrining sharq tomonidagi tepalik. Rivoyatlarga koʻra, jannatdan tushirilgan Odam Ato va Momo Havvo erda ilk bor mana shu tepalikda uchrashganlar. SHuning uchun ham uni «Arafot» – «Tanishuv» deb ataganlar. Haj mavsumida barcha hojilar qurbon hayitidan oldingi kun tongdan kun qaytgunga qadar shu tepalik atrofidagi maydonda turishlari farz. SHu sababli hayitdan oldingi kun «arafa kuni» deb ataladi.

Assalomu alaykum- (arab. sizga tinchlik, salomatlik tilayman) musulmonlar oʻzaro uchrashganda ishlatiladigan salomlashuv iborasi. Salom qabul qiluvchi “Vaalaykum assalom” (“Sizga ham tinchlik, salomatlik tilayman”), deb javob qaytaradi. Assalomu alaykum tanigan va tanimagan musulmonlarga beriladi. Kichik yoshdagilar yoshi ulugʻlarga, ulov mingan odam piyodaga, piyoda ketayotgan kishi oʻtirganga, ozchilik koʻpchilikka salom beradi. Assalomu alaykum koʻpchilik huzuriga kirib oʻtirishda ham aytiladi. Assalomu alaykum deyish sunnat, javob qaytarish esa vojib hisoblanadi.

Amri Maʼruf- (arab. toʻliq shakli “amri maʼruf, nahiy mulkar” - “yaxshilikka buyurish, yomonlikdan qaytarish”) islom dinidagi marosim.

Musulmonlar bir-birlarini haq yoʻlga, yaxshilik va goʻzal axloqqa chaqirishi Alloh tarafidan farz qilingan. CHunki doʻstona, begʻaraz nasihat, xususan, amalda oʻzi oʻrnak boʻlgan holda, boshqalarni tarbiyalash juda katta taʼsirga ega.

Kishi oʻz oilasini, farzandlarini diniy eʼtiqod, halollik va pok axloqda tarbiyalash ham Amri maʼruf sifatida farzi ayn hisoblanadi. Alloh musulmonlar bir-birlarini toʻgʻri yoʻlga daʼvat etib, insoniylikka nomunosib, nojoʻya ishlardan qaytarishlarini (naxiy munkar) zaruriy farzlardan qilgan

Atarxurra (Ozarxurra) – zardushtiylikning muqaddas olovi.

Axriman – zardushtiylikdagi yovuzlik ilohiyoti.

Axura-Mazda – zardushtiylikdagi eng oliy yaxshilik ilohiyoti.

Aqida – arab tilida biron narsani bir-biriga bogʻlash maʼnosini anglatadi. Istilohda esa aqoid ilmining mashhur nomlaridan biri.

Aqiqa- “*Aqiqa*” lugʻatda “qorin sochi” degan maʼnoni anglatadi. Atama sifatida esa, tugʻilgan chaqoloqning sochini olish va tavalludi munosabati bilan soʻyiladigan qoʻyga aytiladi.

Aqliy dalil – mutakallimlarning oʻz raʼylari. Fikriy qarashlari asosida biron aqidaviy masalaga bergan javoblari. Aqliy dalil asosan mantiq bilan bogʻliq hisoblangan.

Baynalminalchilik- (arabcha “Baynalmilal”) – barcha millat va elatlarning tengligi, hamkorligi, oʻzga millatlarga hurmat bilan munosabatda boʻlish, ulardan oʻzini yuqori qoʻymaslik, boshqa millat, elat, xalqlarning urf-odatlarini hurmatlash va h.k.lar.

Baynalmilal – millatchilikka va milliy biqlikka qarama – qarshi bo`lib, uning xato va kamchiliklarini ochib tashlash jarayonlarida shakllanadi.

Bibliya (yunoncha - “kitoblar”) – yahudiylk va xristianlik dinlarining asosiy muqaddas manbai. YAhudiylar “Bibliya”si “Kitve kadesh” va “Tanax” ham deb nomlanadi. Xristianlar tomonidan tan olinadigan Bibliya “Qadimgi Ahd” va “YAngi Ahd”dan iborat bo`lib, umumiy hisobda 66 kitobdan iborat.

Braxman – Hindistondagi oliy kasta (tabaqa) vakili. Braxmanlik va hinduizmdagi din arbobi.

Budda – (sansk. «nurlangan, oliy haqiqatga erishgan») buddaviylk asoschisi Siddxartxa Gautamaga berilgan nom.

Varna – (sansk. «sifat, rang») qadimiy hind jamiyatidagi diniy-sinfy kasta.

Vasaniya - (arab. «vasan» – «yog`ochdan ishlangan but») butparastlik.

Vahiy – ilohiyot bilan insonlarning payg`ambarlar orqali muloqot yo`li.

Veda – (sansk. «bashorat») Qadimiy Hindistonning shimolida yashagan xalqlarning muqaddas kitobi.

Vedalar (véda — “bilim”, “ta`limot”) – hinduiylk dinining sanskrit tilida yozilgan qadimiy muqaddas yozuvlari to`plami..

Vijdon Erkinligi – diniy e`tiqod erkinligi.

Vinaya-Pitaka – Tripitakaning rahbonylik odobi va xonaqoh nizomiga bag`ishlangan qismi.

Vishtaspa – zardushtiylikni qabul qilib, uning tarqalishida Zardushtga yaqindan yordam bergan Baqtriya podshosi.

Vojib – Hanafiy mazhabi ta`limotiga ko`ra, Qur`oni karimda to`g`ridan-to`g`ri buyruq kelmagan holda bajarilishi shart bo`lgan amallarga nisbatan ishlatiladi.

Galaxa – yahudiylkdagi diniy, oilaviy va fuqarolik qonunlari majmui.

Dao – daosizm dinidagi oliy ilohiyot.

Diakon (yunoncha — xizmatchi) – xristian cherkovlaridagi eng quyi ruhonylik darajasi.

Episkop – (qad. yunon. «nazorat qiluvchi») ko`p xristian cherkovlarida – oliy ierarx. Barcha arxiereylarning (patriarx, mitropolit, arxiepiskop) umumlashgan nomi.

Esseylar – qadimiy yahudiylkdagi oqim.

Jabroil – Alloh bilan payg`ambarlar o`rtasida elchi vazifasini bajaruvchi farishta.

Johiliya – (arab. «yagona Allohni tanimaslik») Arabiston yarim orolining islom dinidan avvalgi davri shunday atalgan.

Zabur – Dovud payg`ambarga tushirilgan kitob. “Qadimgi Ahd” tarkibiga kiritilgan bo`lib, turli qo`shiq va madhiyalardan iborat.

Zakot – (arab. «tozalanish, poklanish») islomning besh ruknidan biri. Mol-mulk *nisobiga* (muayyan miqdorga) etgach, uning qirqdan biri (2,5 %) kambag`allar foydasiga sadaqa sifatida beriladi.

Zardusht – mil. av. VI – V asrlarda yashagan ilohiyotchi, faylasuf, shoir, payg`ambar. Zardushtiylik dinining asoschisi.

Zino – o`zaro nikohda bo`lmagan erkak va ayolning jinsiy aloqasi. Zino aksariyat dinlarda katta gunohlardan sanaladi.

Ijtihad – islomda yangi paydo bo`lgan diniy muammolarni hal qilishning o`ziga xos usuli.

Ikona – xristianlikdagi avliyolar portreti tushirilgan rasmlar. Ular cherkovlarda ibodat buyumi bo`lib xizmat qiladi.

Ilohiy Kitoblar –muayyan dinda muqaddas va ilohiy hisoblanadigan kitoblar. Diniy ta`limotga ko`ra, Olloh o`tgan payg`ambarlarning ba`zilariga sahifalar, bazilariga esa kitoblar nozil etgan. 100 sahifa va 4 kitob - 100 sahifadan 10 sahifani Odam (a.s)ga, 50 sahifani SHis (a.s)ga, 30 sahifani Idris (a.s)ga, 10 sahifani Ibrohim (a.s) ga yuborgan.Muso (a.s)ga Tavrot, Dovud (a.s)ga Zabur, Iso (a.s)ga Injil va Muhammad (a.s)ga Qur`onni nozil qilgan. Qur`ondan boshqa ilohiy kitob va sahifalar bir yo`la bir daf`ada nozil qilingan, deb hisoblanadi. Qur`on hazrati Jabroil orqali 23 yil mobaynida oyat-oyat, sura-sura shaklida yuborilgan.

Imon – lugʻaviy maʼnosi *ishonmoq, tasdiqlamoq* boʻlib, istilohda esa “*Lo iloha illallohu Muhammadur rasululloh*” (“Allohdan oʻzga iloh yoʻq va Muhammad – Allohning paygʻambari”) *kalimasini* til bilan aytib (*al-iqror bi-l-lison*), dil bilan tasdiqlash (*at-tasdiq bi-l-qalb*) demakdir.

Indulgentsiya – katolik cherkovi tomonidan dindorlarga qilingan yoki qilinishi mumkin boʻlgan gunohlarni kechirish haqida beriladigan guvohnoma. U pul yoki cherkov oldidagi xizmatlar evaziga beriladi.

Injil- (yunoncha - “Evangeliye”) “Yangi Ahd”dagi Mark, Matto, Luqo va YUhannolardan rivoyat qilingan kitoblar nazarda tutiladi. Ularda Iso Masihning hayot yoʻli va moʻʼjizalari bayon qilingan.

Sanad – (arab. «suyanish») hadisni rivoyat qilgan roviy ismlarining ketma-ket zanjiri.

Isroil – (ivrit. «isro» – «banda», «iyl» – «xudo») YAʼqub paygʻambarning ikkinchi nomi, yahudiylar unga nisbat berilib, «Isroil bolalari» deb ataladi.

Yom-Kipur – yahudiylik dinida nishonlanadigan gunohlardan poklanish bayrami.

Kalom – soʻz, nutq maʼnosini bildiradi. Moʻʼtaziliylar paydo boʻlgandan keyin aqida ilmining nomi “kalom” deb atala boshlangan.

Kanjur (tibetcha – “Budda oʻgitlari”) – buddaviylikning asosiy aqidaviy masalalari bayon qilingan kitob. Milodiy XIV asrda toʻplangan. 7 boʻlim, 108 jild, 84 000 oʻgitdan iborat.

Kardinallar kollegiyasi – Rim katolik cherkovidagi oliy kengash. Papa oʻrni boʻshab qolganda uning vazifasini bajarish va yangi Papani saylash vazifalarini bajaradi.

Karma – (sanskrit. «harakat, burch, faoliyat») hindlarning diniy taʼlimotlarida alohida mistik kuch, insonni qayta dunyoga kelishiga hal etuvchi taʼsir koʻrsatadigan amallar toʻplami.

Karomat – (arab. «ulugʻlik, buyuklik») islom taʼlimotiga koʻra, Alloh tomonidan uning doʻstlari – avliyolarga ato etiladigan sehdan farqli gʻayrioddiy qudrat.

Kasta – (portugal. «irq, qavm, tabaqa») muayyan kasb bilan shugʻullanadigan, oʻziga xos turmush tarzi, urf-odatlar, anʼanalari, tartib-qoidalar va h.k. bilan oʻzgalardan ajratilgan ijtimoiy guruh.

Kaʼba – (arab. «kub») Makka shahrida hozirgi davrda Baytul Harom (Muqaddas Masjid) ichida joylashgan islom dinining qiblasi hisoblanmish bino. Islom taʼlimotiga binoan, uni buyuk toʻfondan soʻng Ibrohim paygʻambar oʻgʻli Ismoil bilan qayta tiklagan.

Qiyomat – (arab. «tik turish») maʼnolarni anglatsa, atama sifatida oʻliklarning qayta tirilishi va oʻrnidan turishi maʼnosida ishlatiladi.

Kirxa (nemischa – “cherkov”) – lyuteran cherkovlarining nomi.

Konfessiya – (lot. «eʼtirof, eʼtiqod») din, diniy eʼtiqod.

Konfutsiy – Qadimgi Xitoy faylasufi va pedagogi, konfutsiychilikning asoschisi.

Kosmogoniya – astronomiyaning osmon jismlari, ularning paydo boʻlishi va oʻzgarishlari haqidagi boʻlimi. Bu erda osmon jismlarini ilohiylashtirish.

Kostel (polyakcha, chexcha. – “cherkov”) – Rim katolik cherkoviga qarashli ibodatxonalarga nisbatan ishlatiladigan atama. Ushbu atama pravoslav yoki protestant cherkovlariga nisbatan qoʻllanilmaydi.

Krishna – hinduizmdagi eʼtiborli xudolardan biri.

Magiya – (qad. yunon. «magus», arab. «majus») sehrgarlik.

Mazhab – (arab. «yoʻl») islomdagi shariat qonunlari tizimi va yoʻnalishi.

Makruh – bajarilishi yomon sanalgan amal.

Mandub – bajarilishi tark qilinishidan afzal boʻlgan amal.

Mark – “Injil” mualliflaridan biri. Havoriylardan Pyotrning shogirdi boʻlgan. Aleksandriyada cherkov tuzib, oʻzi birinchi episkop boʻlgan.

Matriarxat – onalik davriga oid, jamiyatda ayolning roli ustun boʻlgan davr.

Maxayana – (sanskrit. «katta arava») buddaviylikdagi oqim.

Meditatsiya – (lot. «fikrlash, oʻylash») shaxsning ruhiy faoliyatga chuqur berilish holati.

Mirmadan – Qadimgi YUnoniston xalqlaridan biri.

Miro moyi (yunoncha - “xushboʻy moy”) – xristianlikning etti sirli marosimlaridan birida tanaga suriladigan xushboʻy moy. Ushbu moy cherkov episkopi tomonidan oliy navli zaytun

moyiga oq uzum vinosi, atirgul yaproqlari, binafsha, zanjabil ildizlari, muskat, atirgul, chinnigul va limon moylari kabi maxsulotlarni qo'shib qaynatish orqali tayyorlanadi.

Mistitsizm – (qad. yunon. «yashirin, sirli») ilohiyot olami bilan bevosita muloqot qilish mumkinligi haqidagi ta'limot.

Mitra – zardushtiylikdagi quyosh xudosi.

Mitropolit – (qad. yunon. «bosh shahar, poytaxt, mitropoliya odami») pravoslav cherkovining poytaxt shaharlardagi oliy ruhoniylilik unvoni.

Mif – (qad. yunon. «hikoyat, rivoyat») biror xalq orasida mashhur bo'lgan hikoyat, rivoyat, asotir.

Modernizm – dinni hozirgi zamon voqeligiga moslashtirishni yoqlab chiquvchi oqim.

Monastir – xristianlikda ruhoniylar jamiyatdan ajralib, faqat ibodat bilan shug'ullanadigan joy, muassasa. Ayollar va erkaklar uchun mo'ljallangan monastirlar mavjud.

Monoteizm – (qad. yunon. «mono» – «yagona», «teo» – «ilohiyot») yakkaxudolik.

Muboh – islom shariati qilish yoki qilmaslikni kishilar ixtiyoriga qo'ygan amallar.

Mujtahid – ijthod qilish darajasiga etgan faqih olim.

Muqaddas yozuv, Xushxabar – xristianlikning muqaddas kitobi “Injil”ga nisbatan ishlatiladigan nomlar.

Muqaddas kitob - Bibliya va uning tarkibiga kiruvchi kitoblar nomi.

Muqaddas rivoyatlar – Bibliya tarkibiga kirmagan, cherkov avliyolari tomonidan qabul qilingan hujjatlar va nomalar.

Muqaddas Ruh – xristianlikda Xudoning uch ko'rinishidan biri. Muqaddas Ruh dunyoning yaralishida ishtirok etgan, Bibi Maryam ham u orqali Isoga homilador bo'lgan hisoblanadi.

Murid – (arab. «xohlovchi») sufizm yo'liga kirib, murshidga qo'l bergan shogird.

Murshid – (arab. «to'g'ri yo'lga boshlovchi») sufizm yo'liga kirganlarni hidoyatga boshlovchi ustoz, shayx.

Musnad – 1. Sanadi muttasil ravishda o'z nihoyasiga etgan hadis, ya'ni sanadi bilan rivoyat qilingan hadis. 2. Sanad, sanad so'zlarining sinonimi. 3. Hadis to'plamlarining turi.

Mushaf – (arab. «sahifalangan») Qur'oni karimning nomlaridan biri.

Mutaassiblik – o'z g'oyasini «to'g'ri» deb, boshqacha fikr egalarini tan olmaslik va ularni buzg'unchilikda ayblash.

Mutavotir – yolg'onga yo'l qo'yishi mumkin bo'lmagan rostgo'yligi e'tirof etilgan darajadagi ko'pchilik kishilarning boshdan oxirigacha o'zlari kabi kishilardan naql qilgan rivoyati.

Mutakallim – kalom ilmi bilan shug'ullangan olimlar “mutakallim” deb atalgan.

Muhaddis – (arab. «hadis so'zlovchi») hadislar bilan shug'ullanuvchi olim.

Muhojirlar – (arab. «muhojir, emigrant») ilk islom tarixida Payg'ambar bilan Madinaga hijrat qilgan makkalik musulmonlar.

Mushrik – ko'pxudolikda ayblangan odam.

Mo'taziliya – arab tilida “ajralib chiqmoq” ma'nosini anglatadi. Islom olamida eng katta e'tiqodiy ta'limotning nomi.

Naqliy dalil – aqliy dalildan farqli ravishda naqliy dalil faqat Qur'on va sunnatga asoslangan.

Nirvana – (sanskrit. «so'lish») buddaviylik va jaynizm diniy falsafalariga ko'ra, ruhning sansara kishanlaridan to'la ozod bo'lishi va oliy maqomga erishish.

Ota Xudo - Xristianlikda Xudoning uch ko'rinishidan biri va asosiysi. Ota Xudo dunyoni yaratgan bo'lib, uchlikning qolgan ko'rinishlari (O'g'il Xudo va Muqaddas Ruh) undan kelib chiqqan hisoblanadi.

Oxirat – (arab. «boshqa, oxirgi, ikkinchi») bu dunyo oxiriga etganidan keyin barcha qayta tirilib, qilgan amallariga yarasha mukofot yoki jazo oladigan ikkinchi hayot.

Oyat – (arab. «belgi; mo'jiza») Qur'on suralarini tashkil etuvchi qism, «jumlar».

Payg'ambar – Allohning erdagi elchisi bo'lib, odamlarni Allohga ibodat qilishga chaqiruvchi va oxirat haqida xabar beruvchi kishi

Panislomizm – XIX asrning oxirlarida Oʻrta SHarqda vujudga kelgan islom mamlakatlarini yagona bayroq ostida birlashtirish gʻoyasini koʻtarib chiqqan siyosiy oqim.

Papa – katolik oqimining bosh ruhoniysi.

Pastor (lotincha - choʻpon) – protestantlikdagi cherkov rahbari. Pastorlar ommaviy ibodatlarda maʼruzalar oʻqish va cherkovning ichki faoliyatini boshqarish bilan shugʻullanadi.

Pasxa (yunoncha, ivritcha – “yonidan oʻtish”) – xristianlikdagi asosiy diniy bayramlardan biri. Iso Masihning qayta tirilgan kuni sharafiga nishonlanadi. Hozirgi kunda Pasxa kuni Oy-Quyosh kalendari asosida hisoblanib, har yili oʻzgarib turadi.

Patriarx – (qad. yunon. «ota, asos soluvchi») ortodoksal cherkovdagi (pravoslavie) oliy diniy martaba boʻlib, undagi 14 ta avtokefal – mustaqil cherkovlar boshliqlari shu nom bilan ataladilar.

Pergament – qogʻoz kashf etilguniga qadar yozuv materiali sifatida ishlatilgan teri.

Pesax – yahudiylarning Qadimgi Misrdan qochib chiqib, ozod boʻlishi munosabati bilan nishonlanadigan bayram.

Pir - murshid, ustoz.

Pozitivizm – falsafada XIX asrning 30-yillarida vujudga kelgan, pozitiv (aniq) fanlarni birdan-bir haqiqiy bilimlardir, deb eʼtirof etgan oqim.

Politeizm – (qad. yunon. «poli» – «koʻp», «teo» – «xudo») koʻpxudolik.

Pora (Juz) – (fors. «pora», arab. «juzʻ») - «qism, boʻlim») Qurʼonning oʻttizdan bir qismi.

Post - xristian dinidagi roʻza. Post kunlari xristianlarga faqat oʻsimlik mahsulotlarini eyish ruxsat etiladi.

Presviter (yunoncha, lotincha — “oqsoqol, jamoa boshligʻi”) – xristian ruhoniylar ierarxiyasida yuqori oʻrinni egallovchi diniy lavozim. Qadimda episkoplar ham presviter deb atalishgan.

Ravvin – yahudiy din arbobi. U yahudiy jamoasi diniy va oilaviy masalalarida hakamlik qiladi.

Risolat – paygʻambarlik.

Roviy – (arab. «rivoyatchi») hadis rivoyat qiluvchi kishi.

Rojdestvo – Xristianlikning asosiy bayramlaridan biri. Iso Masihning odam tanasida mujassam boʻlib tugʻilishi kuni munosabati bilan oʻtkaziladi. Ushbu bayram haqidagi ilk maʼlumotlar IV asrga tegishli xristian manbalarida qayd qilingan.

Rohib (yunoncha-monax – “zohid”) – xristianlikda dunyoviy lazzatlardan tarkidunyochilik qilib, faqat ibodat bilan shugʻullanuvchi shaxs.

Rosh-Hashona – yahudiylidagi yangi yil bayrami.

Roʻza - yilda bir oy – hijriy qamariy kalendarning *Ramazon* oyi davomida kunduz kunlari eyish-ichish va jinsiy aloqada boʻlishdan tiyilish.

Saduqiylar – qadimiy yahudiylidagi oqim.

Safo – Makka shahrida Kaʼba yaqinidagi tepalik. Haj va umra qiluvchilar Safo va Marva tepaliklari orasida etti bor yugurishlari lozim.

Sahih hadis – (arab. «sogʻlom; toʻgʻri») olimlar tarafidan ishonchli, toʻgʻri deb topilgan hadis.

Sahobiy – Rasululloh (s.a.v.)ni imon keltirgan holda koʻrgan va shu musulmonlik holida vafot etgan kishi.

Siddartxa Gautama – Buddaning shaxsiy ismi.

Sinagoga – yahudiylar ibodatxonasi.

Sinion – Quddus yaqinidagi tepalik.

Sunan – Hadislar “tahorat” bobidan “vasiyatlar” bobigacha fiqh tartibi boʻyicha jamlangan toʻplamlar.

Sunna – islomda Paygʻambar amallari.

Sura - (arab. «devor, toʻsiq») Qurʼonni tashkil etuvchi qismlar. Qurʼon jamlanish davrida ularning umumiy soni 114 ta deb belgilangan.

Sutra – (sanskrit. «ip») Qadimgi Hindiston diniy-falsafiy ta'limotlarining lo'nda iboralar shaklidagi qisqa bayoni. Diniy-falsafiy adabiyot turi.

Sutra-Pitaka – Tripitakaning din mazmuniga bag'ishlangan qismi.

Sufiy – islomdagi mistik-asketik oqim vakili.

Tabu – totemistik tasavvurlar mavjud bo'lgan jamiyatdagi diniy taqiq. Bu tasavvurlarga ko'ra, tabuni buzgan odam ruhlar va xudolar tomonidan unga og'ir kasallik yoki o'lim yuborish bilan jazolanadi. Tabu ma'lum bir buyumga tegmaslik, ma'lum so'zni aytmaslik, ma'lum hayvonlarning go'shtini emaslik kabilardan iborat bo'lishi mumkin.

Tavakkul – tasavvuf ta'limotiga ko'ra, o'z irodasini Allohga ishonib topshirish.

Tavof – Ka'baning atrofini aylanish.

Tavrot, Tora (ivritcha — “ta'limot, qonun”) – yahudiylilik va xristianlik dinlarida tan olinadigan va Bibliya tarkibiga kiruvchi muqaddas manba. Tavrotning muallifi sifatida Muso payg'ambar ko'rsatiladi. Tavrot besh kitob: “Ibtido”, “CHiqish”, “Levit”, “Sonlar” va “Ikkinchi qonun”dan iborat.

Taqiriy sunnat – sahobiylar tomonidan qilingan biror hatti-harakat yoki gap-so'zga Payg'ambar (s.a.v.)ning indamasliklari yoki ma'qullashlari.

Talmud – (ivrit. «lameyd») - «o'rganish» so'zidan) Tavrotga yozilgan sharhlar to'plami.

Tanjur (tibetcha – “sharhlar tarjimai”) – buddaviylikning asosiy aqidaviy masalalari bayon qilingan “Kanjur” kitobining sharhi. 254 jild va 3 mingga yaqin matnlardan iborat.

Tantrizm (sanskritcha – “tantra”-mato) – buddaviylik va hinduiylik dinlarida mavjud bo'lgan diniy-falsafiy ta'limot. Eramizning birinchi asrida paydo bo'lgan. Insondagi jinsiy va shahvoniy xislatlar muhimligi asosiga qurilgan. Ta'limot asoslari “tantralar” deb nomlanadigan yozuvlarda bayon qilingan.

Tafsir – (arab. «bayon qilish») Qur'on oyatlariga o'ziga xos ravishda ma'no berish.

Terrorizm - (fr. «qo'rqitish») o'z fikrini zo'ravonlik yo'li bilan boshqalarga o'tkazish. Bu yo'lda suiqasd, qo'poruvchilik kabi usullardan foydalaniladi.

Tobiun – (arab. «ergashuvchilar») Payg'ambar sahobalarini ko'rgan va ularga ergashgan kishilar.

Totem – (SHimoliy Amerikadagi Ojibva qabilasining tilida - «uning urug'i») totemizmda muqaddas sanaladigan o'simlik va hayvon.

Traditsionalizm – an'anachilik. Dindagi ratsionalizmga qarshi o'laroq, naql (taqlid) tamoyiliga asoslanuvchi oqim.

Tripitaka – (sanskrit. «uch savat») buddaviylikning muqaddas kitobi.

To'liq injil xristianlari -protestantlikdagi eng yirik yo'nalishlardan biri bo'lgan pyatidestyaniklikning ikkinchi nomi. “Injil”ga haqiqatan amal qiluvchi sof e'tiqod vakillari deb bilganlari uchun ham o'zlariga nisabatan shunday nomni ishlatadilar.

Ulum al-hadis – hadislarni rivoyat qilish, ishonchli va ishonchsizini o'rganadigan ilm.

Faqih – fiqh ilmining bilimdoni.

Fanatizm – mutaassiblik.

Farz – islom dini ta'limotiga ko'ra, inkor qilib bo'lmaydigan darajada qat'iy dalil bilan bajarilishi talab qilingan amalga aytiladi.

Farziylar – qadimiy yahudiylidagi oqim.

Farishta – nurdan yaratilgan, nafs va xohishga ega bo'lmagan, faqatgina unga xudo tomonidan buyurilgan muayyan vazifalarni og'ishmay bajaradigan, insonlar ko'ziga ko'rinmaydigan maxluq.

Fatvo – faqihning dinda paydo bo'lgan yangi muammolarni Qur'onga zid kelmaydigan ravishda hal qilib chiqargan hukmi.

Fath – (arab. «ochish») biror shahar yoki mamlakatga harbiy yo'l bilan dinni olib kirish.

Fetish – (fr. «but, sanam, tumor») tabiatdagi jonsiz predmetlarga sig'inish.

Fiqh – (arab. «tushunish») shariat qonun-qoidalarini o'rganuvchi fan.

Fir'avn – ilohiyot darajasiga ko'tarilgan Qadimgi Misr podshohlari tituli.

Fundamentalizm – ma’lum din vujudga kelgan ilk davriga qaytish va bu yo’l bilan zamonaning barcha muammolarini hal qilish mumkin degan fikrni ilgari surish ta’limoti.

Xabar – Muhammad (s.a.v.)ning soʻzlari va hatti-harakatlari haqida rivoyat (sinonimi hadis, osor).

Xaloskor – yahudiy va xristian atamasida Messiya (ivritcha - Mashiax; qadimgi yunoncha - Xristos). YAhudiylik aqidasi koʻra Xaloskor qiyomatga yaqin kelib yahudiylarni najot sari etaklaydi. YAhudiy “messiyasi” Dovud avlodidan boʻlishi shart. Xristian aqidasi koʻra esa xaloskor bu Iso Masihdir.

Xinayana – (sanskrit. «kichik arava») buddaviylikdagi oqim.

Xonaqoh – 1) sufiylar jamlanib zikr samo bilan mashgʻul boʻladigan maxsus bino; 2) masjidning mehrob va minbar oʻrnatilgan qismi.

Xoch – krest, chormix.

SHaman – (tungus. «sehrgar») ruhlar olami bilan muloqot qiluvchi ruhoni.

SHoyixet – yahudiylardagi ruhoniylarning boshlangʻich darajalaridan biri boʻlib, uni egallagan kishi qurbonlik yoki kundalik isteʼmol uchun atalgan hayvonni soʻyish huquqiga ega boʻladi.

SHom – Suriyaning qadimiy nomi.

SHopur – 243-273 yillarda hukmronlik qilgan Sosoniylar sulolasi hukmdori, Avestoning bizgacha etib kelgan nusxasini tartibga solingan.

Evolutsionizm – dinshunoslikda din ham dunyoning shakllanishi kabi bosqichma-bosqich soddadan murakkabga qarab rivojlangan degan gʻoyani ilgari suruvchi taʼlimot.

Ekstremizm – oʻz maqsadi yoʻlida turli haddan ortiq keskin tadbir-choralar koʻrishga tarafdorlik.

Eranvej – Avestoda zikr qilingan Zardushtning vatani.

Esxatologiya – dunyoning oxiri, narigi dunyo, jannat, doʻzax haqidagi tasavvurlar majmui.

Eʼtiqod – dunyoqarash. Biror dinga eʼtiqod qilish - uni haq deb bilib, uning taʼlimotini tan olish.

Yuhanno (Ioan) – Isoning 12 havoriylaridan va “Injil”ning mualliflaridan biri. Xristianlikka koʻra, YUhanno “YAngi Ahd” tarkibiga kiruvchi “Vahiynoma” kitobining muallifi hamdir.

Yangi Ahd – Bibliya qismlaridan biri. Toʻrt Injil, Havoriylar faoliyati kitobi, 21 ta havoriyning nomlari va YUhannoning “Vahiynomasi” ni oʻz ichiga olgan, 27 kitobdan iborat.

Yasna – Avestodan bizgacha etib kelgan toʻrt kitobning ikkinchisi.

Yasrib – Madina shahrining hijratdan avvalgi nomi.

Yahve – yahudiylar taʼlimotiga koʻra, dunyolarni yaratuvchi yagona qudratli Xudo.

YAhudo – YAʼqub paygʻambarning farzandlaridan biri. Uning avlodlari «yahudiylar» deb ataladi.

YAsht – Avestoning 1-qismi.

Qadimgi Ahd – Bibliyaning qismlaridan biri. Tavrot (Musoning 5 kitobi), Zabur va boshqa kitoblardan iborat, jami 39 kitobni oʻz ichiga oladi.

Qudsiy hadis – Maʼnosi Alloh taolodan boʻlib, aytilishi, yaʼni lafzi Rasululloh (s.a.v.)dan boʻlgan hadislar.

Qurʼoni karim - Islom dinining birlamchi muqaddas manbasi, 23 yil mobaynida Muhammad paygʻambarga (s.a.v.) Jabroil farishta (a.s.) orqali baʼzan oyat-oyat, baʼzan esa toʻliq sura tarzida nozil qilingan ilohiy kitob hisoblanadi.

Hadis – (arab. «yangi; soʻz») Muhammad paygʻambarning aytgan soʻzlari, qilgan ishlari haqidagi rivoyatlar.

Haj – qodir boʻlgan kishi uchun umrida bir marta Makka shahridagi Kaʼbani ziyorat qilish va ushbu ibodat oʻz ichiga oladigan arkonlarni ado etishdan iborat.

Hajarul asvad – (arab. «qora tosh») Kaʼbaning janubiy-sharqiy burchagida erdan 1, 5 m. balandlikda oʻrnatilgan muqaddas tosh.

Haniflik – islomdan avval Arabiston yarim orolida mavjud boʻlgan yakkaxudolik gʻoyasi.

Harom – islom ta’limotiga ko’ra, inkor qilib bo’lmaydigan darajada qat’iy dalillar bilan bajarilishi ta’qiqlangan amal.

Hasan hadis – sahih hadis shartlariga ega bo’lgan, lekin zabti pastroq bo’lgan adolatli roviyning o’zi kabilardan qilgan rivoyati.

Hoshimiylar – Makkada yashagan Quraysh qabilasidan bo’lgan Hoshim ibn Abdumanofning avlodlari.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

VIJDON ERKINLIGI VA DINIY TASHKILOTLAR TO'G'RSIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2021-yil 4-mayda qabul qilingan
Senat tomonidan 2021-yil 26-iyunda ma'qullangan

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi vijdon erkinligini ta'minlash sohasidagi munosabatlarni, shuningdek diniy tashkilotlar faoliyatini tartibga solishdan iborat.

2-modda. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonunchilik

Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonunchilik O'zbekiston Respublikasining **Konstitutsiyasi**, ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

diniy ta'lim muassasasi — muayyan konfessiyaga mansub bo'lgan, diniy tashkilotlarning professional xizmatchilarini va ular uchun zarur bo'lgan diniy xodimlarni tayyorlash uchun diniy tashkilotlarning O'zbekiston Respublikasi bo'yicha markaziy boshqaruv organi tomonidan tashkil etilgan muassasa;

diniy tashkilot — fuqarolarning belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan, birgalikda dinga e'tiqod qilish, ibodat qilish, diniy rasm-rusumlar va marosimlarni bajarish maqsadida tashkil etilgan, daromad (foйда) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o'z ishtirokchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan ko'ngilli birlashmasi (mahalliy diniy tashkilot, diniy ta'lim muassasasi va diniy tashkilotlarning O'zbekiston Respublikasi bo'yicha markaziy boshqaruv organi);

diniy tashkilotlarning O'zbekiston Respublikasi bo'yicha markaziy boshqaruv organi — bir konfessiyaning mahalliy diniy tashkilotlari, shuningdek diniy ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining kamida sakkizta ma'muriy-hududiy birligida (Qoraqalpog'iston Respublikasida, viloyatda, Toshkent shahrida) ro'yxatdan o'tib faoliyat ko'rsatayotgan mahalliy diniy tashkilotlar tomonidan tashkil etilgan diniy tashkilot;

mahalliy diniy tashkilot — O'zbekiston Respublikasining tegishli tumani (shahari) hududida doimiy yashayotgan, o'n sakkiz yoshga to'lgan, ellik nafardan kam bo'lmagan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tashabbusi bilan tashkil etilgan, faoliyatini Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri, tuman yoki shahar hududida amalga oshiruvchi diniy tashkilot (masjidlar, cherkovlar, sinagogalar, ibodatxonalar va boshqalar);

missionerlik — aniq maqsadga qaratilgan mafkuraviy ta'sir o'tkazish orqali shaxsni (bir guruh shaxslarni) o'z diniga kiritish maqsadida unga (ularga) diniy qarashlarni majburan singdirishga va diniy ta'limotni tarqatishga doir faoliyat;

qonunga xilof diniy faoliyat — diniy tashkilot sifatida ro'yxatdan o'tmasdan faoliyat ko'rsatish, diniy tashkilot tomonidan faoliyatni o'zi turgan joydan, shu jumladan ibodat qilinadigan binolardan va diniy tashkilotga tegishli hududlardan tashqarida amalga oshirish, shuningdek diniy ta'lim muassasalaridan tashqarida xususiy tartibda diniy ta'lim faoliyati bilan shug'ullanish;

diniy professional ta'lim — diniy ta'lim muassasalarida o'quvchilarga ma'lum bir konfessiyaga oid diniy bilimlar berishga qaratilgan jarayon;

prozelitizm — missionerlik faoliyatining bir konfessiyaga e'tiqod qiluvchilarni boshqa konfessiyalarga o'tkazishga qaratilgan shakli.

2-bob. Vijdon erkinligini ta'minlash asoslari

4-modda. Vijdon erkinligini ta'minlash

Vijdon erkinligi — bu fuqarolarning xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik bo'yicha kafolatlangan konstitutsiyaviy huquqidir.

Fuqaro dinga, dinga e'tiqod qilishga yoki e'tiqod qilmaslikka, ibodatlarda, diniy rasm-rusumlar va marosimlarda ishtirok etishga yoki ishtirok etmaslikka, diniy ta'lim olishga nisbatan o'z munosabatini belgilayotganda uni u yoki bu tarzda majburlashga yo'l qo'yilmaydi.

Voyaga yetmaganlarni ularning xohish-irodasiga, ota-onasining yoki qonuniy vakillarining xohish-irodasiga zid tarzda diniy tashkilotlarga jalb etishga yo'l qo'yilmaydi.

O'z diniga e'tiqod qilish yoki ishonish erkinligiga nisbatan faqat qonunda nazarda tutilgan cheklovlar tatbiq etiladi.

O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini zo'rlik bilan o'zgartirish, uning suvereniteti va hududiy yaxlitligiga putur yetkazish, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini kamsitish, urushni, milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovatni targ'ib qilish, fuqarolarning sog'lig'i va axloqiga tajovuz qilish, fuqarolar totuvligini buzish, vaziyatni beqarorlashtiruvchi tuhmatdan iborat uydirmalarni tarqatish, aholi o'rtasida sarosima uyg'otish hamda shaxs, jamiyat va davlatga qarshi qaratilgan boshqa harakatlar sodir etish maqsadida dindan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

5-modda. Vijdon erkinligini ta'minlashning asosiy ustuvorliklari

Vijdon erkinligini ta'minlashning asosiy ustuvorliklari quyidagilardan iborat:

fuqarolarning dinga munosabatidan qat'i nazar, diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'ymagan holda, ularning vijdon erkinligiga bo'lgan o'z huquqlarini amalga oshirishi uchun teng shart-sharoitlar yaratish;

konfessiyalar o'rtasidagi tinchlik va totuvlikni mustahkamlash, jamiyatda diniy bag'rikenglikni ta'minlash;

vijdon erkinligini ta'minlashda dunyoviy davlat qurilishini saqlab qolish;

vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonunchilikka fuqarolar hamda diniy tashkilotlar tomonidan rioya etilishini ta'minlash;

jamoat tartibiga, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining sog'lig'i va axloqiga, huquq va erkinliklariga tahdid soluvchi diniy g'oyalar hamda qarashlarning singdirilishi va tarqatilishiga qarshi kurashish.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita vijdon erkinligini, shuningdek vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonunchilikning amalda izchil hamda bir xil tarzda qo'llanilishini ta'minlashga doir choralarning amalga oshirilishi uchun mas'ul bo'lgan vakolatli davlat organidir (bundan buyon matnda vakolatli organ deb yuritiladi).

6-modda. Fuqarolarning dinga munosabatidan qat'i nazar teng huquqliligi

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, dinga munosabatidan qat'i nazar, qonun oldida tengdir.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng ravishda vijdon erkinligi va dinga e'tiqod qilish erkinligi huquqidan foydalanadi hamda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun qonunda belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

Rasmiy hujjatlarda fuqarolarning dinga nisbatan munosabatini ko'rsatishga yo'l qo'yilmaydi.

Fuqarolarning huquqlarini ularning dinga munosabatiga qarab har qanday tarzda cheklash va to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita ustunliklar belgilash, ularning diniy yoki ateistik e'tiqodi bilan bog'liq holda fuqarlarda adovat va nafrat uyg'otish yoxud ularning his-tuyg'ularini haqoratlash, xuddi shuningdek muqaddas diniy e'tiqod obyektlarini tahqirlash qonunda belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi.

Qonunda belgilangan majburiyatlarni bajarishdan hech kim o'z diniy e'tiqodlarini sabab qilib bo'yin tovlashi mumkin emas. Diniy e'tiqodlarini sabab qilib, bir majburiyatni bajarishni boshqasiga almashtirishga faqat qonunda nazarda tutilgan hollardagina yo'l qo'yiladi.

Bir dinga yoki diniy e'tiqodga boshqalariga nisbatan biror-bir ustunliklar yoki cheklovlar belgilashga yo'l qo'yilmaydi.

7-modda. Dinning davlatdan ajratilganligi

O'zbekiston Respublikasida din davlatdan ajratilgan. O'zbekiston Respublikasida diniy tashkilotlar va davlat organlarining faoliyati o'zaro aralashmaslik asosida amalga oshiriladi.

Davlat turli dinlarga e'tiqod qiladigan va ularga e'tiqod qilmaydigan fuqarolar, turli dinlarga mansub diniy tashkilotlar o'rtasida o'zaro murosa va hurmat o'rnatilishiga ko'maklashadi, diniy aqidaparastlik hamda ekstremizmga, munosabatlarni qarama-qarshi qo'yish va keskinlashtirishga, turli konfessiyalar o'rtasida adovatni avj oldirishga qaratilgan xatti-harakatlarga yo'l qo'ymaydi.

Davlat konfessiyalarning tinch-totuv yashashiga kafil bo'ladi. Missionerlik va prozelitizmni amalga oshirishga yo'l qo'yilmaydi.

Davlat diniy tashkilotlar zimmasiga davlatning biror-bir vazifalarini bajarishni yuklamaydi, ularning qonunchilikka zid bo'lmagan faoliyatiga aralashmaydi. Diniy tashkilotlar davlat vazifalarini bajarmaydi. Davlat diniy tashkilotlarning faoliyatini moliyalashtirmaydi va dinga e'tiqod qiluvchilarning din bilan bog'liq his-tuyg'ularini haqoratlaydigan faoliyatga yo'l qo'ymaydi.

O'zbekiston Respublikasida diniy ruhdagi siyosiy partiya va boshqa jamoat birlashmasining, respublikadan tashqarida tuziladigan diniy partiyalar vakolatxonolari va filiallarining tashkil etilishiga hamda faoliyatiga, siyosiy partiyalar va siyosiy maqsadlarni ko'zlovchi boshqa jamoat birlashmalari faoliyatida diniy tashkilotlarning ishtirok etishiga, shuningdek ularga moliyaviy yoki boshqa yordam ko'rsatishiga yo'l qo'yilmaydi.

8-modda. Ta'lim tizimi va din

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi dindand ajratilgandir.

Ta'lim tizimining o'quv dasturlariga diniy fanlar kiritilishiga (bundan diniy ta'lim muassasalari mustasno) yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining dunyoviy ta'lim olish huquqi, ularning dinga bo'lgan munosabatidan qat'i nazar, ta'minlanadi.

Har kim diniy ta'lim muassasalarida professional diniy ta'lim olish huquqiga ega.

Diniy ta'lim muassasalarida o'qishga fuqarolar qonunchilikka muvofiq umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim yoki professional ta'lim olganidan keyin qabul qilinadi.

Diniy professional ta'lim olgan shaxslar diniy ta'lim muassasalarida diniy fanlarni o'qitish faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga egadir.

9-modda. Diniy rasm-rusumlar va marosimlar

Diniy rasm-rusumlar va marosimlar diniy tashkilotlar joylashgan joyda, shu jumladan ibodat qilinadigan binolarda hamda ularga tegishli hududlarda, dafn etish joylarida, ziyoratgohlarda, diniy zaruriyat bo'lgan taqdirda fuqarolarning xohishiga ko'ra ularning uylarida o'tkaziladi.

Kasalxonalarda, gospitallarda, internat muassasalarida, dastlabki qamoq va jazoni o'tash joylarida, ichki ishlar organlarining reabilitatsiya markazlarida diniy rasm-rusumlar va marosimlar qonunchilikda belgilangan tartibda, shu joylardagi fuqarolarning iltimoslariga ko'ra o'tkazilishi mumkin.

Ibodat qilinadigan binolardan tashqaridagi ommaviy diniy rasm-rusumlar va marosimlar qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Diniy tashkilotlar dinga e'tiqod qiluvchilardan majburiy pul yig'implari va to'lovlar undirishga, shuningdek ularga nisbatan shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi choralarni qo'llashga haqli emas.

10-modda. Diniy mazmundagi materiallar, ularni tayyorlash, olib kirish va tarqatish

Diniy mazmundagi materiallar diniy ta'limotning aqidaviy asoslarini, tarixini, diniy ta'limot mafkurasini va sharhlarni, turli diniy ta'limotlarning marosimlar o'tkazish amaliyotini, shuningdek alohida shaxslarning, tarixiy faktlar va hodisalarning diniy nuqtai nazardan bahosini aks ettiruvchi kitoblar, risolalar, jurnallar, gazetalar, varaqalar, boshqa bosma nashrlar, belgilar, predmetlar, ramzlar, audiovizual asarlar (tele-, kino- va videofilmlar, kliplar, konsert dasturlarining yozuvlari, multfilmlar va boshqalar), elektron axborot tashuvchilardan (disketlar, CD, DVD diskleri, o'rnatilgan va yechib olinadigan xotira kartalari, Internet jahon axborot tarmog'ida joylashtirilgan materiallar va boshqalar) iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi hududida diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish jamiyatda konfessiyalararo totuvlik hamda diniy bag'rikenglik buzilishiga olib keladigan, diniy zo'ravonlik va boshboshdoqlikka chorlaydigan g'oyalar hamda qarashlar tarqalishining oldini olish maqsadida dinshunoslik ekspertizasining ijobiy xulosasi olinganidan keyin amalga oshiriladi.

Diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

3-bob. Diniy tashkilot tashkil etish, uning huquq va majburiyatlari. Diniy tashkilotlar faoliyatining qo'shimcha kafolatlari

11-modda. Diniy tashkilotni tashkil etish

Diniy tashkilot qonunchilikka muvofiq uning tashabbuskorlari (ta'sischilari) qaroriga ko'ra tashkil etiladi.

Diniy tashkilotning tashabbuskorlari (ta'sischilari) ta'sis yig'ilishini (konferensiyasini) chaqiradi, unda ustav qabul qilinadi va rahbar organlar tuziladi.

Diniy tashkilot ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan e'tiboran tashkil etilgan deb hisoblanadi.

Diniy tashkilot yuridik shaxsdir.

Diniy tashkilot diniy tashkilotlarning O'zbekiston Respublikasi bo'yicha markaziy boshqaruv organi (bundan buyon matnda markaziy boshqaruv organi deb yuritiladi), diniy ta'lim muassasasi yoki mahalliy diniy tashkilot shaklida tashkil etilishi mumkin.

Diniy ta'lim muassasasi ro'yxatdan o'tkazilganidan va vakolatli organning tegishli litsenziyasini olganidan keyin o'z faoliyatini amalga oshirish huquqini oladi.

Diniy tashkilot belgilangan tartibda taqdim etiladigan yer uchastkalarida, vakolatli organ bilan kelishuvga ko'ra tashkil etiladi.

Tegishli diniy professional ta'limga ega bo'lgan shaxs diniy tashkilotning rahbari bo'lishi mumkin, bundan diniy ta'limotida diniy professional ta'lim tizimi nazarda tutilmagan konfessiyalar mustasno.

Diniy tashkilotni qayta tashkil etish uning rahbar organining qaroriga ko'ra qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish va o'zgartirish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin.

Diniy tashkilotni qayta tashkil etish qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

12-modda. Diniy tashkilotning huquq va majburiyatlari

Diniy tashkilot quyidagi huquqlarga ega:

shartnoma asosida beriladigan binolardan va mol-mulkdan, shuningdek moddiy-madaniy meros obyektlaridan qonunchilikda belgilangan tartibda o'z ehtiyojlari uchun foydalanish;

xayriya faoliyatini amalga oshirish;

diniy tashkilotning faoliyati bilan bog'liq tadbirlar o'tkazish;

ustavda ko'rsatilgan vazifalarni bajarish uchun tadbirkorlik tuzilmalarini tashkil etish;

diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va olib chiqish;

ziyoralarni tashkil etish yoki boshqa diniy tadbirlarda ishtirok etish maqsadida xalqaro aloqalar o'rnatish;

yangi dafn etish joylarini tashkil etish va mavjud dafn etish joylarini ta'mirlash to'g'risida takliflar kiritish.

Diniy tashkilot:

O'zbekiston Respublikasining **Konstitutsiyasi**, ushbu Qonun, boshqa qonunchilik hujjatlari talablariga va o'z ustavi qoidalariga rioya etishi;

ibodat qilish, diniy rasm-rusumlar yoki marosimlar uchun mo'ljallangan joylarda qulay shart-sharoitlar yaratishi;

diniy tashkilot egaligida (foydalanishida) bo'lgan moddiy madaniy meros obyektlarining but saqlanishini ta'minlashi, bunda madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan talablarni majburiy tartibda bajarishi, arxitektura yodgorliklarini restavratsiya qilish bo'yicha loyiha hujjatlari asosida qurilish va ta'mirlash ishlarini amalga oshirishi;

adliya organlarini tadbirlar (konferensiyalar, seminarlar va boshqalar, bundan diniy rasm-rusumlar va marosimlar mustasno) erkin o'tkazilishida ko'maklashish uchun ularning o'tkazilishi to'g'risida xabardor etishi;

adliya organlarini rahbar organning tarkibi o'zgarganligi to'g'risida ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran bir oy ichida xabardor qilishi;

adliya organlariga o'zining o'tgan yilgi faoliyati to'g'risida belgilangan shaklda har yili axborot taqdim etishi shart.

Diniy tashkilot qonunda nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ega bo'lishi va uning zimmasida o'zga majburiyatlar bo'lishi mumkin.

13-modda. Diniy tashkilotlar faoliyatining qo'shimcha kafolatlari

Diniy tashkilotlar o'z faoliyatini qonunchilikka muvofiq mustaqil ravishda amalga oshiradi.

Diniy tashkilotlar o'z mulkida binolarga, inshootlarga, ibodat predmetlariga, ishlab chiqarish obyektlariga, ijtimoiy obyektlarga va xayriya uchun mo'ljallangan obyektlarga, o'z faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan pul mablag'lariga va boshqa mol-mulkka ega bo'lishi mumkin. Diniy tashkilotlarning mulki qonun bilan qo'riqlanadi.

Diniy tashkilotlar davlat organlarining g'ayriqonuniy qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan bo'ysunuv tartibida yuqori turuvchi organga yoki sudga shikoyat qilish huquqiga ega.

Diniy tashkilotlar davlat organlarining g'ayriqonuniy qarorlari, ular mansabdor shaxslarining diniy tashkilotlar huquqlari va erkinliklarini buzuvchi harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga murojaat qilganda davlat bojini to'lashdan ozod etiladi.

4-bob. Diniy tashkilotni ro'yxatdan va qayta ro'yxatdan o'tkazish tartibi

14-modda. Diniy tashkilotning ta'sis hujjati

Diniy tashkilotni tashkil etish tashabbuskorlari (ta'sischilari) tomonidan tasdiqlangan ustav diniy tashkilotning ta'sis hujjatidir.

Diniy tashkilotning ustavida quyidagilar nazarda tutiladi:

diniy tashkilotning nomi, turi, ta'limot asoslari to'g'risidagi axborot va unga mos keladigan diniy faoliyat haqidagi ma'lumotlar, uning tashkiliy-huquqiy shakli, joylashgan eri (pochta manzili), o'z faoliyatini qaysi hudud doirasida amalga oshirsa, o'sha hudud;

maqsadi, vazifalari va faoliyatining asosiy turlari;

diniy tashkilotning tuzilishi va rahbar organlari;

diniy tashkilotning rahbar organlarining vakolat doirasi va ushbu organlarni shakllantirish tartibi, ularning vakolatlari muddatlari, doimiy asosda faoliyat ko'rsatadigan rahbar organning joylashgan eri (pochta manzili);

pul mablag'larini va boshqa mol-mulkni shakllantirish manbalari, diniy tashkilotning hamda uning tarkibiy bo'linmalarining mol-mulkni boshqarishga doir huquqlari;

diniy tashkilotni qayta tashkil etish va tugatish tartibi, shuningdek diniy tashkilot tugatilgan taqdirda uning mol-mulkini tasarruf etish tartibi;

ustavga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish tartibi.

Ustavda diniy tashkilotning qonunchilikka zid bo'lmagan faoliyatiga taalluqli boshqa qoidalar ham nazarda tutilishi mumkin.

Diniy tashkilot ustavining talablari diniy tashkilotning o'zi, uni tuzish tashabbuskorlari (ta'sischilari) uchun majburiydir.

Markaziy boshqaruv organlariga ega bo'lgan diniy tashkilotlarning ustavlari ushbu organlar bilan kelishilgan bo'lishi kerak.

15-modda. Diniy tashkilotni ro'yxatdan o'tkazish (qayta ro'yxatdan o'tkazish) chog'ida davlat xizmatlari ko'rsatish

Davlat xizmatlari, shu jumladan diniy tashkilotlarni ro'yxatdan o'tkazishda (qayta ro'yxatdan o'tkazishda) xizmatlar adliya organlarining elektron tizimi orqali ko'rsatiladi.

Elektron tizimga kirish elektron raqamli imzo yoki shaxsni identifikatsiyalash imkonini beruvchi boshqa usullar orqali amalga oshiriladi.

Murojaat qiluvchi elektron tizimga kirganidan keyin o'zining shaxsiy kabinetidagi tegishli murojaat turini tanlaydi, ma'lumotlarni bosqichma-bosqich kiritadi va hujjatlarni elektron tizim orqali yuboradi.

Elektron tizimda shakllantirilgan yoki adliya organlari tomonidan yuborilgan elektron hujjatlarda matritsali shtrix kod (QR-kod) va identifikatsiyalangan raqamlar mavjud bo'ladi. Bunda elektron hujjatda ko'rsatilgan identifikatsiyalangan raqamni elektron tizimning maxsus bo'limiga kiritish orqali elektron hujjat to'g'risidagi axborotni olish uchun imkoniyat yaratiladi.

Elektron tizimning ishlash tartibi, ma'lumotlarning turlari va shakllari, shuningdek elektron hujjatlarning namunalari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

16-modda. Diniy tashkilotlarni ro'yxatdan o'tkazish

Diniy tashkilotlarni ro'yxatdan o'tkazish adliya organlari (bundan buyon matnda ro'yxatdan o'tkazuvchi organlar deb yuritiladi) tomonidan amalga oshiriladi.

Markaziy boshqaruv organlarini va diniy ta'lim muassasalarini ro'yxatdan o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan, mahalliy diniy tashkilotlarni ro'yxatdan o'tkazish esa tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi diniy tashkilotlarning chet el fuqarolari bo'lgan xodimlarini (rahbarlarini), shuningdek ularning o'z qaramog'ida bo'lgan oila a'zolarini akkreditatsiya qilishni amalga oshiradi.

Diniy tashkilotlarni ro'yxatdan o'tkazganlik, diniy tashkilotlarning chet el fuqarolari bo'lgan xodimlarini, shuningdek ularning o'z qaramog'ida bo'lgan oila a'zolarini akkreditatsiya qilganlik uchun "Davlat boji to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi **Qonunida** belgilangan miqdorda davlat boji undiriladi.

Diniy tashkilotni ro'yxatdan o'tkazgan organ ushbu tashkilot faoliyatining ustav maqsadlariga va qonunchilikka muvofiqligi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

17-modda. Diniy tashkilotni ro'yxatdan o'tkazish uchun talab qilinadigan hujjatlar

Diniy tashkilotni tashkil etish bo'yicha ta'sis yig'ilishi (konferensiyasi) o'tkazilgan kundan e'tiboran olti oy ichida uni ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi elektron murojaat ro'yxatdan o'tkazuvchi organga yuboriladi.

Markaziy boshqaruv organini ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi elektron murojaatga quyidagi hujjatlarning elektron ko'chirma nusxalari ilova qilinadi:

ta'sis yig'ilishining (konferensiyasining) markaziy boshqaruv organini tashkil etish, uning ustavini tasdiqlash va boshqaruv organlarini saylash to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan qarorining;

markaziy boshqaruv organining davlat tilidagi ustavining;

joylashgan eridan diniy tashkilotning pochta manzili sifatida foydalanilishi mo'ljallanayotgan ko'chmas mulkka egalik qilish yoki undan foydalanish huquqini tasdiqlovchi hujjatning;

markaziy boshqaruv organining ta'sischilari va uning rahbar organi a'zolari to'g'risidagi hujjatlarning;

markaziy boshqaruv organining rahbarida diniy professional ma'lumot mavjudligini tasdiqlovchi hujjatning, bundan ta'limoti diniy professional ta'lim tizimini nazarda tutmaydigan konfessiyalar mustasno; vakolatli organ xulosasining.

Diniy ta'lim muassasasini ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi elektron murojaatga quyidagi hujjatlarning elektron ko'chirma nusxalari ilova qilinadi:

markaziy boshqaruv organining diniy ta'lim muassasasini tashkil etish, uning ustavini tasdiqlash va rahbar organlarini saylash (tayinlash) bo'yicha ma'lumotlarni o'z ichiga olgan qarorining;

diniy ta'lim muassasasining davlat tilidagi ustavining;

diniy ta'lim muassasasining rahbar organi a'zolari to'g'risidagi hujjatlarning;

vakolatli organ xulosasining.

Mahalliy diniy tashkilotni ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi elektron murojaatga quyidagi hujjatlarning elektron ko'chirma nusxalari ilova qilinadi:

mahalliy diniy tashkilotni o'z tashabbusiga ko'ra tuzayotgan, o'n sakkiz yoshga to'lgan, ellik nafardan kam bo'lmagan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari imzolarini o'z ichiga olgan hujjatning;

ta'sis yig'ilishining mahalliy diniy tashkilotni tashkil etish, uning ustavini tasdiqlash va rahbar organlarini saylash to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan qarorining;

mahalliy diniy tashkilotning davlat tilidagi ustavining;

mahalliy diniy tashkilotni tashkil etish tashabbuskorlari to'g'risidagi va uning rahbar organi a'zolari haqidagi hujjatlarning;

mahalliy diniy tashkilotning rahbarida diniy professional ma'lumot mavjudligi to'g'risidagi hujjatning, bundan ta'limoti diniy professional ta'lim tizimini nazarda tutmaydigan konfessiyalar mustasno; vakolatli organ xulosasining;

mahalliy diniy tashkilotning pochta manzili sifatida foydalanilishi mo'ljallanayotgan ko'chmas mulkning shaharsozlik normalari talablariga muvofiqligi to'g'risidagi xulosalar ilova qilingan holda mahalliy ijroiya hokimiyati organi (Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari) xulosasining.

18-modda. Qayta tashkil etish yo'li bilan tashkil etilgan diniy tashkilotni ro'yxatdan o'tkazish uchun talab qilinadigan hujjatlar

Qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish yoki o'zgartirish shaklida qayta tashkil etish yo'li bilan tashkil etilgan diniy tashkilotni ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi elektron murojaatga ushbu Qonunning 17-moddasida nazarda tutilgan hujjatlarga qo'shimcha ravishda quyidagi hujjatlarning elektron ko'chirma nusxalari ilova qilinadi:

qayta tashkil etilayotgan diniy tashkilotga ma'lum bo'lgan barcha kreditorlar yozma ravishda xabardor qilinganligi va ommaviy axborot vositalarida qayta tashkil etish haqidagi xabar e'lon qilinganligi tasdiqnomasining;

qayta tashkil etilayotgan diniy tashkilotning barcha kreditorlari va qarzdorlariga nisbatan ushbu tashkilotning barcha majburiyatlari, shu jumladan taraflar nizolashayotgan majburiyatlar bo'yicha huquqiy vorislik to'g'risidagi qoidalarni o'z ichiga olgan topshirish dalolatnomasining (qo'shib yuborish va o'zgartirish chog'ida) yoki taqsimlash balansining (bo'lish va ajratib chiqarish chog'ida);

qayta tashkil etilayotgan diniy tashkilotning muhri va shtampi yo'q qilinganligi haqidagi dalolatnomaning.

19-modda. Diniy tashkilot ustaviga o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalar kiritilganda uni qayta ro'yxatdan o'tkazish

Diniy tashkilotning ustaviga o'zgartirishlar va (yoki) qo'shimchalar kiritilgan taqdirda, ushbu Qonunda nazarda tutilgan tartibda qayta ro'yxatdan o'tkazilishi lozim.

Diniy tashkilotni ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi talablar diniy tashkilotni qayta ro'yxatdan o'tkazishga nisbatan tatbiq etiladi.

Diniy tashkilotni qayta ro'yxatdan o'tkazish haqidagi elektron murojaat ro'yxatdan o'tkazuvchi organga diniy tashkilot ustaviga o'zgartishlar va (yoki) qo'shimchalar kiritish to'g'risida diniy tashkilotning rahbar organi tomonidan qaror qabul qilingan kundan e'tiboran bir oy ichida yuboriladi.

Diniy tashkilotni qayta ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi elektron murojaatga quyidagi hujjatlarning elektron ko'chirma nusxalari ilova qilinadi:

ustavga kiritiladigan o'zgartishlar va (yoki) qo'shimchalar matnining yoki ustav yangi tahririning; diniy tashkilot rahbar organining ustavga o'zgartish va (yoki) qo'shimchalar kiritish haqidagi qarorining;

diniy tashkilotning nomi yoki ro'yxatdan o'tkazuvchi organ o'zgargan taqdirda — diniy tashkilotning muhri va shtampi yo'q qilinganligi to'g'risidagi dalolatnomaning.

Diniy tashkilot qayta tashkil etilganligi (ajratib chiqarilganligi yoki qo'shib olinganligi) munosabati bilan qayta ro'yxatdan o'tkazilgan taqdirda ushbu moddada nazarda tutilgan hujjatlarga qo'shimcha ravishda quyidagi hujjatlarning elektron ko'chirma nusxalari ilova qilinadi:

qayta tashkil etilayotgan diniy tashkilotga ma'lum bo'lgan barcha kreditorlar yozma ravishda xabardor qilinganligi va ommaviy axborot vositalarida qayta tashkil etish to'g'risidagi xabar e'lon qilinganligi tasdiqnomasining;

qayta tashkil etilayotgan diniy tashkilotning barcha kreditorlari va qarzdorlariga nisbatan ushbu tashkilotning barcha majburiyatlari, shu jumladan taraflar nizolashayotgan majburiyatlar bo'yicha huquqiy vorislik haqidagi qoidalarni o'z ichiga olgan topshirish dalolatnomasining yoki taqsimlash balansining;

qayta tashkil etilayotgan diniy tashkilotning muhri va shtampi yo'q qilinganligi to'g'risidagi dalolatnomaning.

Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ o'zgargan taqdirda, diniy tashkilotni ro'yxatdan o'tkazishni amalga oshiruvchi ro'yxatdan o'tkazuvchi organ ilgari diniy tashkilotni ro'yxatdan o'tkazishni amalga oshirgan ro'yxatdan o'tkazuvchi organdan tashkilotning ro'yxatdan o'tkazilishi bilan bog'liq hujjatlarni elektron tizim orqali so'rab oladi.

Pochta manzili, bank rekvizitlari yoki rahbar organing tarkibi o'zgargan taqdirda, diniy tashkilot ushbu masalalar bo'yicha qaror qabul qilingan kundan e'tiboran bir oylik muddat ichida elektron tizim orqali tegishli qarorlarni ilova qilgan holda ro'yxatdan o'tkazuvchi organni bu haqda xabardor qiladi.

20-modda. Diniy tashkilotni ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi murojaatni ko'rib chiqish

Elektron murojaatni yuboruvchi elektron so'rovni shakllantirishni yakunlab, elektron tizim tomonidan avtomatik tarzda belgilanadigan davlat boji to'lovini amalga oshiradi.

Davlat boji to'langanidan keyin diniy tashkilotni ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi murojaat ko'rib chiqish bosqichiga o'tadi.

Agar murojaatda to'g'rilash mumkin bo'lgan xatolar mavjud bo'lsa yoki ushbu Qonunda talab qilinadigan yoxud elektron murojaatni yuboruvchi havola qilayotgan hujjatlar mavjud bo'lmasa, ro'yxatdan o'tkazuvchi organ unga besh ish kuni ichida xatolarni tuzatish va yetishmayotgan hujjatlarni yuborish uchun imkon beradi. Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ elektron murojaatni yuboruvchining iltimosnomasiga ko'ra bu muddatni besh ish kunidan kam bo'lmagan muddatga uzaytirishi mumkin.

Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ diniy tashkilotni ro'yxatdan o'tkazish uchun yuborilgan hujjatlarning ishonchliligini va ularning qonunchilikka muvofiqligini tekshirishga haqli.

21-modda. Diniy tashkilotni ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi hujjatlarni ko'rib chiqish muddatlari

Diniy tashkilotni ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi hujjatlar ro'yxatdan o'tkazuvchi organ tomonidan quyidagi muddatlar ichida ko'rib chiqiladi:

diniy tashkilotni ro'yxatdan o'tkazish uchun — murojaat olingan kundan e'tiboran bir oylik muddatda;

diniy tashkilotni qayta ro'yxatdan o'tkazish uchun — murojaat olingan kundan e'tiboran o'n besh kunlik muddatda.

22-modda. Diniy tashkilotni ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi hujjatlarni ko'rib chiqish yakunlari

Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ diniy tashkilotni ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi hujjatlarni ko'rib chiqish yakunlariga ko'ra quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

diniy tashkilotni ro'yxatdan o'tkazish haqidagi;

diniy tashkilotni ro'yxatdan o'tkazishni rad etish to'g'risidagi.

Diniy tashkilotni ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, ro'yxatdan o'tkazuvchi organ qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran uch ish kuni ichida:

diniy tashkilot haqidagi ma'lumotlarni diniy tashkilotlar reyestriga kiritadi;

diniy tashkilotni soliq organlarida va statistika organlarida hisobga qo'yishni amalga oshiradi;
elektron tizimda diniy tashkilotning shaxsiy kabinetini yaratadi;
diniy tashkilotning ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi elektron guvohnomani shakllantiradi;
diniy tashkilotning ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi elektron guvohnomani va diniy tashkilot ustavini diniy tashkilotning elektron tizimdagi shaxsiy kabinetiga yuboradi.

Diniy tashkilotning qayta ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi elektron guvohnomada diniy tashkilot haqidagi avvalgi ma'lumotlar, shu jumladan uning nomi, ro'yxatdan o'tkazuvchi organning nomi, diniy tashkilot ro'yxatdan o'tkazilgan sana, shuningdek qayta ro'yxatdan o'tkazilgan sana ko'rsatiladi.

Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning o'zgarishi munosabati bilan diniy tashkilot qayta ro'yxatdan o'tkazilgan taqdirda, yangitdan ro'yxatdan o'tkazgan organ ilgari ro'yxatdan o'tkazuvchi organi tegishli ro'yxatdan o'tkazishga oid ma'lumotlarni ko'rsatgan holda elektron tizim orqali bu haqda xabardor qiladi.

Diniy tashkilotni ro'yxatdan o'tkazish rad etilgan taqdirda, qaror qabul qilingan kundan keyin bir ish kuni ichida elektron murojaatni yuboruvchining elektron tizimdagi shaxsiy kabinetiga rad etish asoslari ko'rsatilgan holda xabarnoma yuboriladi.

Diniy tashkilotni ro'yxatdan o'tkazish rad etilganligi, basharti rad etish asoslari bartaraf etilsa, hujjatlarni takroran taqdim etish uchun monelik qilmaydi.

23-modda. Diniy tashkilotni ro'yxatdan o'tkazishni rad etish uchun asoslar

Diniy tashkilotni ro'yxatdan o'tkazish quyidagi hollarda rad etilishi mumkin, agar:

diniy tashkilotning tashkil etilishi konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirish, O'zbekiston Respublikasining suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga qarshi chiqish, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini kamsitish, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy hamda diniy adovatni targ'ib etish, fuqarolarning sog'lig'iga va xalqning ma'naviyatiga tajovuz qilish maqsadini ko'zlagan bo'lsa;

diniy tashkilotni tuzishning qonunda belgilangan tartibi buzilgan bo'lsa yoki taqdim etilgan hujjatlarda qonunchilikka nomuvofiqliklar mavjud bo'lsa;

tuzilayotgan tashkilot diniy tashkilot sifatida e'tirof etilmagan bo'lsa;

taqdim etilgan ta'sis hujjatlarida atayin noto'g'ri axborot mavjudligi aniqlangan bo'lsa.

Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning diniy tashkilotni ro'yxatdan o'tkazishni rad etish to'g'risidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

24-modda. Diniy tashkilotlar reyestri

Ro'yxatdan o'tkazilgan diniy tashkilot adliya organlari tomonidan elektron tizimda yuritiladigan va hamma tanishib chiqishi uchun ochiq bo'lgan diniy tashkilotlar reyestriga (bundan buyon matnda reyestr deb yuritiladi) kiritiladi.

Reyestrda quyidagilar ko'rsatiladi:

diniy tashkilotning nomi va uning qaysi konfessiyaga mansubligi;

diniy tashkilotning joylashgan eri (pochta manzili);

diniy tashkilot faoliyat ko'rsatadigan hudud;

tashabbuskorlar (ta'sischilar) ishtirokchilar to'g'risidagi axborot (famiyasi, ismi, otasining ismi), aloqa bog'lash uchun ma'lumotlar;

rahbar organning nomi va pochta manzili, aloqa bog'lash uchun ma'lumotlar;

diniy tashkilot ro'yxatdan o'tkazilgan sana va boshqa axborot.

5-bob. Diniy tashkilotning faoliyatini to'xtatib turish va tugatish

25-modda. Diniy tashkilotning faoliyatini to'xtatib turish

Diniy tashkilotning faoliyati, u O'zbekiston Respublikasining **Konstitutsiyasi**, ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlarini buzgan taqdirda, sud tomonidan to'xtatib turilishi mumkin.

Diniy tashkilot tomonidan qonunchilik hujjatlari talablari buzilgan, shuningdek tashkilotning o'z ustav maqsadlariga zid harakatlar sodir etilgan taqdirda, prokuratura organlari yoki ro'yxatdan o'tkazuvchi organ mazkur qoidabuzarliklarni bartaraf etish to'g'risidagi taqdimnomani ushbu diniy tashkilotning rahbar organlariga kiritadi hamda bu qoidabuzarliklarni bartaraf etish muddatini belgilaydi. Agar bu qoidabuzarliklar belgilangan muddatda bartaraf etilmasa, diniy tashkilot faoliyati prokuratura organlarining yoki ro'yxatdan o'tkazuvchi organning taqdimnomasi asosida sud qarori bilan olti oygacha bo'lgan muddatga to'xtatib turiladi.

Favqulodda holat joriy etilgan taqdirda diniy tashkilotning faoliyatini to'xtatib turish tartibi qonunda belgilanadi.

26-modda. Diniy tashkilotning faoliyatini to'xtatib turish oqibatlar

Diniy tashkilotning faoliyati sudning qarorida belgilangan muddatga to'xtatib turilgan taqdirda, uning xayriya fondlari muassisi sifatidagi huquqlari ham to'xtatib turiladi, unga tadbirlar tashkil etish, bank omonatlaridan foydalanish taqiqlanadi, bundan xo'jalik faoliyati, mehnat shartnomalari bo'yicha xarajatlar,

o'z harakatlari (harakatsizligi) tufayli yetkazilgan zararlarning o'rini qoplash va jarimalar to'lashga doir xarajatlar mustasno.

Agar diniy tashkilot faoliyatini to'xtatib turishning sud tomonidan belgilangan muddati davomida uning faoliyati to'xtatilishi uchun asos bo'lib xizmat qilgan qoidabuzarliklar bartaraf etilsa, mazkur muddat tugaganidan keyin diniy tashkilot o'z faoliyatini qaytadan boshlashi mumkin.

Diniy tashkilot ko'rsatilgan qoidabuzarlikni bartaraf etmagan taqdirda, uning faoliyatini to'xtatib turish to'g'risida sudga taqdimnoma kiritgan organ mazkur diniy tashkilotni tugatish haqida sudga taqdimnoma kiritishi mumkin.

27-modda. Diniy tashkilotni tugatish tartibi

Diniy tashkilotni tugatish qonunchilikka va diniy tashkilotning ustaviga asosan amalga oshiriladi.

Diniy tashkilotni tugatish diniy tashkilotning vakolatli rahbar organi qaroriga binoan ixtiyoriy ravishda yoki ushbu Qonun 26-moddasining **uchinchi qismiga** muvofiq sud tartibida amalga oshiriladi.

Diniy tashkilotni tugatish to'g'risida qaror qabul qilgan diniy tashkilotning rahbar organi yoki sud tugatuvchini — tugatish komissiyasini yoki jismoniy shaxsni tayinlaydi, diniy tashkilotni tugatish muddatini belgilaydi.

Tugatish komissiyasi tarkibiga, qoida tariqasida, tegishli yuridik, iqtisodiy ma'lumotga ega va (yoki) buxgalteriya sohasida amaliy tajribaga ega bo'lgan shaxslar kiritiladi.

Diniy tashkilotning rahbar organi tomonidan diniy tashkilotni tugatish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, tugatuvchi haqidagi ma'lumotlar ro'yxatdan o'tkazuvchi organga diniy tashkilotni tugatish to'g'risida rahbar organ qabul qilgan qarorning elektron ko'chirma nusxasi ilova qilingan holda uch ish kuni ichida elektron tizim orqali taqdim etiladi.

Diniy tashkilot sud tomonidan tugatilgan taqdirda, tugatuvchi sudning qarorini elektron tizim orqali olganidan keyin qarorning elektron ko'chirma nusxasini ro'yxatdan o'tkazuvchi organga uch ish kuni ichida taqdim etadi.

Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ tugatuvchi to'g'risidagi ma'lumotlarni va diniy tashkilotni tugatish haqidagi rahbar organing qarorini olganidan keyin ikki ish kuni ichida reyestrda diniy tashkilotning tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumotlarni kiritadi hamda bu haqda diniy tashkilot davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joydagi soliq organlarini va statistika organlarini, ko'chmas mulkka va avtotransportga bo'lgan huquqlarni ro'yxatdan o'tkazuvchi organlarni, shuningdek sud hujjatlarini va boshqa organlar hujjatlarini ijro etishni ta'minlash bo'yicha organlarni elektron tizim orqali xabardor qiladi.

28-modda. Reyestrda diniy tashkilot tugatilganligi to'g'risida yozuv kiritish

Elektron murojaatga quyidagi hujjatlarning ko'chirma nusxalari ilova qilinadi:

diniy tashkilot tugatilganligi to'g'risida davriy bosma nashrda berilgan e'lonning;

belgilangan tartibda tasdiqlangan tugatish balansining;

diniy tashkilotning barcha hisobvaraqlari yopilganligi to'g'risida xizmat ko'rsatuvchi banklar ma'lumotnomalarining;

kreditorlarning talablari to'liq qanoatlantirilganidan keyin qolgan mol-mulk tasarruf etilganligi faktini tasdiqlovchi hujjatlarning;

muhrlar va shtamplar yo'q qilinganligi haqidagi dalolatnomaning;

litsenziyalar va ruxsatnomalarning (mavjud bo'lgan taqdirda);

soliq organlarining soliqlar va yig'imlar bo'yicha qarzdorlik mavjud emasligi to'g'risidagi xulosasining;

sud hujjatlarini va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish bo'yicha organing diniy tashkilot qarzdor sifatida ishtirok etayotgan, ijro etilmagan ijro hujjati mavjud emasligi haqidagi xabarnomasi;

diniy tashkilot hujjatlarining davlat arxiviga topshirilganligini tasdiqlovchi ma'lumotnomaning.

Bunda hujjatlarning asl nusxalari ro'yxatdan o'tkazuvchi organga ikki ish kuni ichida taqdim etiladi.

Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ tugatuvchining elektron murojaati olinganidan keyin reyestrda diniy tashkilot tugatilganligi to'g'risida besh ish kuni ichida yozuv kiritadi.

Agar hujjatlarning to'liq ro'yxati taqdim etilmagan yoki ular lozim tartibda rasmiylashtirilmagan bo'lsa, shuningdek taqdim etilgan hujjatlarda atayin noto'g'ri axborot mavjudligi aniqlangan bo'lsa, reyestrda yozuv kiritilishi rad etilishi mumkin.

Reyestrda yozuv kiritish rad etilgan taqdirda, ro'yxatdan o'tkazuvchi organ tugatuvchiga rad etish asoslarini ko'rsatgan holda elektron tizim orqali bildirishnoma yuboradi.

Reyestrda yozuv kiritish haqidagi qaror ro'yxatdan o'tkazuvchi organ rahbarining xulosasi tarzida qabul qilinadi.

Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ diniy tashkilot tugatilganligi to'g'risida reyestrda yozuv kiritilganidan keyin ikki ish kuni ichida:

diniy tashkilot tugatilganligi to'g'risida tugatuvchini, soliq organlarini va statistika organlarini elektron tizim orqali xabardor qiladi;

diniy tashkilotga berilgan litsenziyalar va ruxsatnomalarni (mavjud bo'lgan taqdirda) ularni bergan organlarga topshiradi.

Diniy tashkilot reyestrda diniy tashkilot tugatilganligi to'g'risidagi yozuv kiritilgan paytdan e'tiboran tugatilgan deb hisoblanadi.

29-modda. O'z faoliyatini tugatgan diniy tashkilotning mol-mulkini tasarruf etish

Diniy tashkilotga unga foydalanib turish uchun berilgan mol-mulk uning faoliyati tugatilganidan keyin avvalgi egasiga qaytariladi.

Diniy tashkilotning faoliyati tugatilganda uning tasarrufidagi mol-mulkka egalik qilish uning ustaviga va qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi. Kreditorlarning da'volari bo'yicha undirish qaratilishi mumkin bo'lmagan, ibodat qilish uchun mo'ljallangan mol-mulkning ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Huquqiy vorislar mavjud bo'lmaganda mol-mulk davlat mulkiga o'tadi.

6-bob. Yakunlovchi qoidalar

30-modda. Nizolarni hal etish

Vijdon erkinligini ta'minlash, shuningdek diniy tashkilotlar faoliyatini tartibga solish sohasida yuzaga keladigan nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

31-modda. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik

Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

32-modda. O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish

Quyidagilar o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin:

1) O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 14-iyunda qabul qilingan "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi 289-XII-sonli **Qonuni** (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1991-yil, № 8, 186-modda);

2) O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil 14-iyunda qabul qilingan "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish haqida"gi 290-XII-sonli **Qarori** (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1991-yil, № 8, 187-modda);

3) O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 3-sentabrda qabul qilingan "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi 934-XII-sonli **Qonuni** (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-yil, № 9, 334-modda);

4) O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 1-mayda qabul qilingan "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida"gi 618-I-sonli **Qonuni** (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-yil, № 5-6, 99-modda);

5) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1998-yil 1-mayda qabul qilingan "Yangi tahrirdagi "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish tartibi haqida"gi 619-I-sonli **Qarori** (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-yil, № 5-6, 100-modda);

6) O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 31-dekabrda qabul qilingan "Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-197-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2008-yil, № 12, 640-modda) **2-moddasi**;

7) O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-476-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2018-yil, № 4, 224-modda) **2-moddasi**;

8) O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-683-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2021-yil, 4-songa ilova) **5-moddasi**.

33-modda. Ushbu Qonunning ijrosini, yetkazilishini, mohiyati va ahamiyati tushuntirilishini ta'minlash

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o'rtasida tushuntirilishini ta'minlasin.

34-modda. Qonunchilikni ushbu Qonunga muvofiqlashtirish

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo'lgan o'z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko'rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta'minlasin.

35-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi

Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,

2021-yil 5-iyul,

O'RQ-699-son

(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.07.2021-y., 03/21/699/0635-son)

FAN YUZASIDAN TESTLAR

1-VARIANT

1. Qaysi xarobalaridan topilgan yirik ibodat majmuasida 25 ta Budda kompleksi (Buddaning tikka turgan, o'tirgan va yotgan holdagi haykallari 3–4 metrgacha balandlikda loy–ganchdan ishlangan) borligi aniqlangan?

- a) Qadimgi Termiz
- b) Zar tepa
- c) Quva
- d) Qorovultepa

2. Dinning qanday ildizlari mavjud?

- a) tarixiy, sotsial, ruxiy
- b) gnoseologik, ijtimoiy, psixologik
- c) emotsional, garmonial, biologik
- d) biologik, psixologik, antropologik

3 ... (lotincha – «asos») tushunchasining ma'nosi muayyan ijtimoiy hodisaning dastlabki ko'rinishini anglatadi.

- a) Fundamentalizm
- b) Aqidaparastlik
- c) Mutaassiblik
- d) Terrorizm

4. Musulmonlarda hijriy yil qachondan boshlangan?

- a) 610 yildan
- b) 630 yildan
- c) 622 yildan
- d) 640 yildan

5. Qaysi qatorda urug'-qabila dinlari ko'rsatilgan?

- a) Fetishizm, totemizm, animizm, magiya
- b) iudaizm, induizm, sintoizm, shomonizm
- c) monoteizm, politeizm, mazdeizm
- d) jaynizm, braxmanizm, daosizm

6. Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, Zardusht o'ttiz yoshga yetganida unga payg'ambarlik vazifasi berilgan. U o'z tarafdorlari bilan birga Aivita suvi qirg'oqlarida xilvat (yolg'izlik, chilla)ga chiqib ketgan. Xilvatning nechanchi kechasi samoga ko'tarilib ketgan?

- a) 30–kechasi
- b) 45–kechasi
- c) 72–kechasi
- d) 50–kechasi

7. Milliy dinlarga qaysilar kiradi?

- a) iudaizm, xinduizm, konfutsiylik, sintoizm
- b) totemizm, fetishizm, lamaizm, jaynizm
- c) xristianlik, daosizm, braxmanizm, islom
- d) buddizm, islom, vishnuizm, shivaizm

8. tushunchasini dastlab kanadalik yozuvchi Uilyam Gibson 1982 yil «Sojjenie Xrom» («Burning Chrome») nomli hikoyasida yozadi.

- a) Axborot urushi
- b) Kibermakon
- c) Internet
- d) tarmoq

9. Qaysi din umumiyashtiruvchi din bo'lgani sababli to'g'ridan to'g'ri «payg'ambar»ning yozma buyruqlariga asoslanadi.

- a) Tangrichilik

- b) Moniylik
 - c) Veda dinlari
 - d) Yahudiylik
10. Olimlar muayyan e'tiqod din deb atalishi uchun nechta asosiy xususiyatga ega bo'lishi lozimligini ta'kidlaydilar.
- a) 2 ta
 - b) 3 ta
 - c) 4 ta
 - d) 5 ta
11. ilohlar tabiatning bir bo'lagi sifatida tasavvur qilingan, insonlarga o'xshab ketadigan, biroq g'ayrioddiy yaratuvchilik, buzg'unchilik, rizqlantiruvchilik kabi kuchlarga ega bo'lgan Xudolardir.
- a) Immanent
 - b) Transsendent
 - c) Immanent, Transsendent
 - d) kultlar
12. Islomdagi asosiy mazxablar.
- a) Xanafiya, Xanbaliya, Shofeiya, Molekiya
 - b) Xanafiya, Jaxriya, Ismoilniya, Imomniya
 - c) Shofeiya, Kaysonniya, Vaxdonniya
 - d) Xanbaliya, Xainshoshiya, Jafariya, Ibodniya
13. "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonunga ko'ra diniy tashkilot qanday tashkil etilishi mumkin. (1998 y.)
- a) unga kamida 100 kishi a'zo bo'lgandagina
 - b) bir necha kishilar irodasi bilan
 - c) adliya vazirligi ro'yxatidan o'tgach
 - d) din peshvosi fatvosi bilan
14. Bugungi kunda ko'plab diniy sektalar faoliyat ko'rsatmoqda. Mutaxassislar ularning sonini taxminan qancha ekanini aytadilar?
- a) 4000 atrofida
 - b) 5000 atrofida
 - c) 6000 atrofida
 - d) 7000 atrofida
15. Xristianlikda diniy tashkilot qanday nomlanadi.
- a) Cherkov
 - b) Monastir
 - c) Sobor
 - d) Diniy idora
16. 930 yilda Makkaga bostirib kirib, shaharni talon-taroj qilib, bir necha ming hojilarni va Makka aholisini qatl etib, asirga olgan. Ka'bani vayron qilib, qora toshni ikkiga bo'lib, Bahraynga olib ketgan ekstremistik oqimni toping?
- a) Hashshoshiylar
 - b) Nurchilar
 - c) Qarmatiylar
 - d) Azraqiylar
17. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida dinlarni ilmiy tadqiq qilishda kimlar Gollandiyada izchil faoliyat olib borganlar?
- a) Van der Lyu, R.Otto
 - b) R.Pettazoni, J.Vax
 - c) G.Menshing, J.Vax
 - d) S.R.Tile, Shantepi de la Sosse

18. O'zbekiston fuqarolarining vijdon erkinligi huquqi Konstitutsiyaning qaysi moddasida aks ettirilgan.
- 35-moddasida
 - 21-moddasida
 - 41-moddasida
 - 51-moddasida
19. Muhammad payg'ambarning hayoti, faoliyati, diniy va axloqiy ko'rsatmalarini o'zida mujassam etgan manba.
- Xadisi Sharif
 - Ijmo
 - Qiyos
 - Quroni Karim
20. Hozirda shialikning markazlashgan joyi qaysi mamlakatda?
- Eron
 - Iroq
 - Afg'oniston
 - Saudiya Arabistoni
21. Islomning asosiy ruknlari qaysilar?
- Qurbonlik, ro'za, haj, zakot, mavlud
 - Mavlud, xatna, ro'za, zakot va haj
 - Imon, namoz, ruza, zakot va haj
 - Kalimai shaxodat, xatna, ro'za, zakot va mavlud
22. Xristian dinining payg'ambari kim?
- Iso
 - Sulaymon
 - Muso
 - Dovud
23. Bugungi kunda respublikamizda "Iegovo shohidlari"ning rasman nechta tashkiloti ro'yxatga olingan.
- 2 ta
 - 1 ta
 - 4 ta
 - 3 ta
24. Qaysi olim "Har qanday ijtimoiy sistema muayyan cheklovlarsiz mavjud bo'la olmaydi. Buning uchun u qonun darajasiga ko'tarilgan axloq normalarini ishlab chiqishi kerak"-degan edi?
- M. Myuller
 - T. Parsons
 - E. Teylor
 - Sharl de-Bros
25. Din so'zi qanday ma'noni anglatadi?
- axloq-odob
 - ibodat
 - ishonch, bo'ysunish
 - hukm qilish
26. ... («aqida» – arabcha – «ishonch», «biror narsani ikkinchisiga bog'lash») muayyan sharoitda, biron-bir g'oya yoki tamoyilga qat'iy ishonib, uni mutlaqlashtirish asosida shakllangan qoida va tartiblarni sharoit, holat, vaziyatni hisobga olmagan holda, ko'r-ko'rona qo'llash yoki shunga urinishni anglatadi.
- Fundamentalizm
 - Aqidaparastlik
 - Mutaassiblik

- d) Terrorizm
27. Quroni Karimda nechta sura va oyat bor?
- 112 sura 6600 oyat
 - 114 sura 6236 oyat
 - 113 sura 6336 oyat
 - 110 sura 6232 oyat
28. Politeistik dinlarning asosiy xususiyati nima?
- kupxudolik
 - butparastlik
 - shamanizm
 - yakkaxudolik
29. Go'yoki, oxirzamonda Iso boshchiligidagi iegovochilar va Shayton boshchiligidagi jinlar qo'shini o'rtasida bo'lib o'tadigan jang bu?
- "Iegovo shohidlari"
 - "Armageddon"
 - "Jinlar urushi"
 - "Birodarlar jangi"
30. Mutaxassislarning aytishicha «Iegov shohidlari» sektasi a'zolari jalb etishning necha xil usulidan foydalanadilar?
- 78 xil
 - 102 xil
 - 86 xil
 - 17 xil

2-VARIANT

1. ilohlarga insonlar olamidan tashqarida, insonlarga hech qanday aloqasi bo'lmagan, qusur va nuqsonlardan xoli Xudolar kiradi.
- Immanent
 - Transsendent
 - Immanent, Transsendent
 - kultlar
2. «Animizm» atamasi ilk marotaba kim tomonidan, qachon e'tirof etilgan?
- B. Botsman, 1797 yil
 - Maks Myuller, 1786 yil
 - Jon Long, 1868 yil
 - E. Teylor, 1871 yil
3. "Olqishlar" nomli asar qaysi dinning muqaddas kitobi sanaladi?
- Tangrichilik
 - Mozdakiylik
 - Zardushtiylik
 - Moniylik
4. Berilgan qaysi diniy oqimga XIX asrning oxirlarida Mirzo G'ulom Ahmad tomonidan asos solingan?
- "Nurchilik"
 - "Qodiyoniya"
 - "Akromylik"
 - "Vahhobiylik"
5. Tangrichilik dinidagi muqaddas totem qaysi?
- Kiyik
 - Bozkurt
 - Bugu
 - Atarxurra

6. Qaysi diniy sektaning yoqtirgan metaforasi “G‘arb-ko‘r (ruhiy)”, “Sharq - oqsoq (ya‘ni iqtisodiy tomondan kambag‘al)” bo‘lib ularning o‘zaro birikishi orqali kamolotga erishish mumkin degan g‘oyani ilgari suradi.

- a) “Oxirat kuni”
- b) “Krishnani anglash jamiyati”
- c) “Munchilar”
- d) “ISHID”

7. Zardushtiylik ta‘limotiga ko‘ra, Zardusht o‘ttiz yoshga yetganida unga payg‘ambarlik vazifasi berilgan. U o‘z tarafdorlari bilan birga Aivtak suvi qirg‘oqlarida xilvat (yolg‘izlik, chilla)ga chiqib ketgan. Xilvatning nechanchi kechasi samoga ko‘tarilib ketgan?

- a) 45–kechasi
- b) 30–kechasi
- c) 72–kechasi
- d) 50–kechasi

8. 19-asrning 70-yillarida AQSHda vujudga kelgan diniy sekta nomini aniqlang?

- a) Aum-Sinrikyo
- b) Oxirat kuni
- c) Munchilar
- d) Iegov shohidlari

9. Qaysi xarobalaridan topilgan yirik ibodat majmuasida 25 ta Budda kompleksi (Buddaning tikka turgan, o‘tirgan va yotgan holdagi haykallari 3–4 metrgacha balandlikda loy–ganchdan ishlangan) borligi aniqlangan?

- a) Zartepa
- b) Quva
- c) Qadimgi Termiz
- d) Qorovultepa

10. Fetish so‘zi nima ma‘noni bildiradi?

- a) tumor but, sanam
- b) urug‘, qarindosh,
- c) sehrgarlik, afsun
- d) ruh, jon

11. ...(arab. «g‘uluv ketish», «chuqur ketish»; fransuz. «fanatizm» – «ibodat») muayyan g‘oyalarning to‘g‘ri ekaniga qattiq ishonish, ularga mukkasidan berilish, «o‘zgalar» va «o‘zgacha» qarash hamda g‘oyalarga murosasiz munosabatda bo‘lish, boshqa firqa va mazhablarni butunlay rad etishi, ularni tan olmaslikda namoyon bo‘ladi

- a) Fundamentalizm
- b) Aqidaparastlik
- c) Mutaassiblik
- d) Terrorizm

12. Muhammad payg‘ambarni chaqoloqlik davrida o‘z tarbiyasiga olgan ayol kim edi?

- a) Fotima
- b) Maryam
- c) Xalima
- d) Xadicha

13. Bugungi kunda «Iegov shohidlari» sektasining jahon mamlakatlarida nechaga yaqin bo‘linmalari borligi qayd etilgan?

- a) 200 ga yaqin
- b) 100 ga yaqin
- c) 70 ga yaqin
- d) 50 ga yaqin

14. Sayohatchi Veniamin Tudelskiy o‘z kundaliklarida yozib qoldirishicha, 1170 yilda birgina qaysi hududda 30 000 yahudiy yashagan.

- a) Samarqandda
 - b) Buxoro
 - c) Toshkent
 - d) Andijon
15. Yahudiy dinining payg'ambari.
- a) Muso
 - b) Vishnu
 - c) Dovud
 - d) Axuramazda
16. 1984 yilda «Aum Shinsen-no-kay» («Ma`nan yetuk va g'ayritabiiy kuchga ega insonlar jamiyati») diniy tashkiloti qayerda yuzaga kelgan?
- a) Koreya
 - b) Yaponiya
 - c) AQSH
 - d) Rossiya
17. Indulgensiya so'zining ma'nosi?
- a) katolik cherkovi tomonidan gunohlarni avf etish haqidagi guvohnoma
 - b) pravoslavlar o'tkazadigan marosim
 - c) protestantlar ta'limoti
 - d) katolik cherkov tomonidan chiqarilgan farmon
18. Braxmanizm dinining vatani qayer?
- a) Xindiston
 - b) Xitoy
 - c) Yaponiya
 - d) Eron
19. Markaziy Osiyoda faoliyati kuzatilgan diniy ekstremistik oqimlarni bajaradigan funksiyalariga ko'ra shartli ravishda nechta guruhga bo'lishimiz mumkin.
- a) 2 ta
 - b) 3 ta
 - c) 4 ta
 - d) 5 ta
20. Tasavvufda inson ruxiy kamolotining asosiy yo'llari.
- a) shariat, tariqat, marifat, xaqiqat
 - b) xakikat, tariqat, marifat, shariat
 - c) shariat, haqiqat, marifat, tariqat
 - d) marifat, haqiqat, tariqat, shariat
21. ... tushunchasini dastlab kanadalik yozuvchi Uilyam Gibson 1982 yil «Sojjenie Xrom» («Burning Chrome») nomli hikoyasida yozadi.
- a) Axborot urushi
 - b) Kibermakon
 - c) Internet
 - d) tarmoq
22. Moddiy narsalarni iloxiylashtiruvchi qadimiy urug' qabila dini.
- a) Fetishizm
 - b) Shomonizm
 - c) Totemizm
 - d) Animizm
23. Shariat qonun-qoidalarini o'rganuvchi fan.
- a) kosmogoniya
 - b) fiqh
 - c) astrologiya
 - d) dinshunoslik

24. Hayvonlar, qushlar va o‘simliklarni ilohiylashtiruvchi qadimiy urug‘ qabila dini.
- Totemizm
 - Fetishizm
 - Shomonizm
 - Animizm
25. O‘zbekistonda yashovchi xristian dindorlar asosan qaysi oqimga mansub?
- Pravoslavie
 - Katolitsizm
 - Protestantizm
 - Lyuteranlik
26. Qaysi din umumiyashtiruvchi din bo‘lgani sababli to‘g‘ridan to‘g‘ri “payg‘ambar”ning yozma buyruqlariga asoslanadi.
- Tangrichilik
 - Veda dinlari
 - Moniylik
 - Yahudiylik
27. Buddizm ta‘limoti asosi qanday qismlardan iborat?
- Donishmandlik, ezgulik
 - Diniy, falsafiy, mifologik
 - Axloq, meditatsiya, donolik
 - Ilohiyot, nirvana holatiga erishish
28. G‘ayriislomiy mohiyatga ega “Baxshillochilar” jamoasi respublikamizning qaysi hududida yuzaga kelgan?
- Andijon
 - Samarqand
 - Farg‘ona
 - Buxoro
29. Imom Azam yoki Abu Xanifa kim?
- Xanafiya mazxabi asoschisi
 - Xanbaliya mazxabi asoschisi
 - Shofeiya mazxabi asoschisi
 - Molikiya mazxabi asoschisi
30. Qaysi olim “Har qanday ijtimoiy sistema muayyan cheklovlarsiz mavjud bo‘la olmaydi. Buning uchun u qonun darajasiga ko‘tarilgan axloq normalarini ishlab chiqishi kerak”- degan edi?
- M.Myuller
 - T. Parsons
 - E. Teylor
 - Sharl de-Bros

3-VARIANT

1. “Tong - 2000” nomli missionerlik dasturining muallifini aniqlang?
- J. Montgomeri
 - R. Adler
 - Pavlus
 - Rixtgofen
2. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida dinlarni ilmiy tadqiq qilishda kimlar Gollandiyada izchil faoliyat olib borganlar?
- Van der Lyu, R. Otto
 - S. R. Tile, Shantepi de la Sosse
 - R. Pettazoni, J. Vax
 - G. Menshing, J. Vax

3. Tasavvuf talimoti qachon vujudga kelgan?
- VII-VIII asarlarda
 - VI-VII asarlarda
 - IX-X asarlarda
 - VIII-IX asarlarda
4. Bibliyaning yaxudiylar muqaddas deb e'tirof etgan qismi qaysi?
- «Eski Axd»
 - «Yangi - Axd»
 - «Evangeliya»
 - «Psaltir»
5. Qaysi din umumiyashtiruvchi din bo'lgani sababli to'g'ridan to'g'ri "payg'ambar"ning yozma buyruqlariga asoslanadi.
- Tangrichilik
 - Moniylik
 - Veda dinlari
 - Yahudiylik
6. «Dunyo operatsiyasi» kitobining muallifi, taniqli missioner P. Djonstoun missionerlik faoliyatining asosiy obyekti deb kimlarni aytgan?
- Qariyalarni
 - Talabalarni
 - Ijtimoiy muhtoj kishilarni
 - ishsizlarni
7. Zardushtiylik dinining vatani.
- Misr va Vizantiya
 - Afrika va Lotin Amerikasi
 - Xindiston va Xitoy
 - Markaziy Osiyo va Eron
8. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasining nechanchi yo'nalishida "Diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik" asoslab berilgan?
- beshinchi
 - birinchi
 - to'rtinchi
 - uchinchi
9. Qaysi xarobalaridan topilgan yirik ibodat majmuasida 25 ta Budda kompleksi (Buddaning tikka turgan, o'tirgan va yotgan holdagi haykallari 3–4 metrgacha balandlikda loy-ganchdan ishlangan) borligi aniqlangan?
- Qadimgi Termiz
 - Zartepa
 - Quva
 - Qorovultepa
10. ... (lotin. «tomir», «ildiz», «o'zak») maqsad-muddaoni keskin, murosasiz amalga oshirish, u yoki bu ishdagi mavjud ahvolni tubdan o'zgartirishga intilishni anglatadi.
- Fundamentalizm
 - Aqidaparastlik
 - Radikalizm
 - Terrorizm
11. Shia musulmonlari e'zozlaydigan va e'tirof etadigan xalifa.
- Umar
 - Usmon
 - Abu Bakr
 - Ali

12. Dunyoni afsonaviy tushunish.
- Mifologiya
 - Antropologiya
 - Astrologiya
 - Emotsiya
13. Din nima?
- Ijtimoiy ong shakli
 - Axloqiy ong ko‘rinishi
 - Estetik va Xuquqiy ong ko‘rinishi
 - Ma’naviy ong ko‘rinishi
14. Zardushtiylik ta’limotiga ko‘ra, Zardusht o‘ttiz yoshga yetganida unga payg‘ambarlik vazifasi berilgan. U o‘z tarafdorlari bilan birga Aivtak suvi qirg‘oqlarida xilvat (yolg‘izlik, chilla)ga chiqib ketgan. Xilvatning nechanchi kechasi samoga ko‘tarilib ketgan?
- 30–kechasi
 - 72–kechasi
 - 45–kechasi
 - 50–kechasi
16. “Qur’oni Karim”ning yaratilishida bevosita ishtirok etgan shaxs.
- Zayd ibn Sobit
 - Zayd ibn Xorris
 - Zayd ibn Xishom
 - Zayd ibn Xanbal
17. O‘rta Osiyolik buyuk muhaddisni toping?
- Jurjoni
 - Xamadoni
 - Termizi
 - Tabrizi
18. Kibermakon kompyuter tarmoqlari orqali amalga oshiriladigan muloqot maydonini ifodalovchi voqelik sifatida qachondan boshlab keng miqyosida rivojlanib, takomillashib kelmoqda?
- 1990 yildan
 - 1980 yildan
 - 1970 yildan
 - 1960 yildan
19. ...(lotincha – «aql bovar qilmas darajada», «haddan oshish») jamiyatda qabul qilingan qonun-qoidalarga zid radikal qarash va harakatlarni anglatadi. Bunday harakatlarga diniy tus berish diniy ekstremizmga olib keladi.
- Fundamentalizm
 - Aqidaparastlik
 - Radikalizm
 - Ekstremizm
20. Islomni zamonaga moslashtirish lozimligini e’tirof etuvchi oqim.
- Islom traditsionalizmi
 - Islom modernizmi
 - Islom fundamentalizmi
 - Islom fanatizmi
21. “Avesto”ni ilk tarjima qilgan yevropalik olim kim?
- Boys
 - Ingliz olimi Byuger
 - Nemis faylasufi Nitshe
 - Fransuz olimi Anketil Dyuperon
22. Hozirgi kunda Zardushtiylikning madaniy markazi qayerda faoliyat olib boryapti?

- a) Mumbayda
 - b) Eronda
 - c) Pokistonda
 - d) Iroqda
23. Missionerlikka qarshi kurashda qaysi uslublar qo'llanadi?
- a) Jinoiy, ma'muriy, ijtimoiy huquqiy
 - b) Ma'muriy huquqiy
 - c) Ijtimoiy ma'rifiy
 - d) Huquqiy
24. XVIII asrda Saudiya Arabistonida vujudga kelgan oqim?
- a) Qarmatiylar
 - b) Xashshoshiylar
 - c) Xanafiylar
 - d) Vaxxobiylar
25. Birinchi Prezidentimiz I.Karimov "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch" asarida "Muhaddislar sultoni" deb qaysi allomani ta'kidlab o'tganlar.
- a) imom al Buxoriy
 - b) at Termiziy
 - c) Moturidiy
 - d) al Xorazmiy
26. "Injil" so'zi qanday ma'noni anglatadi?
- a) Yunon tilidan "Xushxabar" degan ma'noni
 - b) Yunon tilidan "kitob.uran" ma'nosini
 - c) Arab "bayon qilish" ma'nosini
 - d) Arab "sahifalangan" ma'nosini
27. Bugungi kunda o'z hayot mazmunini onlayn tizimida ko'rayotgan yoshlarning katta qismi — 4,5 millioni(2012 yil ma'lumoti) qaysi davlatga to'g'ri keladi.
- a) Fransiya
 - b) Buyuk Britaniyaga
 - c) Gollandiya
 - d) Rossiya
28. Qaysi olim "Har qanday ijtimoiy sistema muayyan cheklovlarisiz mavjud bo'la olmaydi. Buning uchun u qonun darajasiga ko'tarilgan axloq normalarini ishlab chiqishi kerak"-degan edi?
- a) M.Myuller
 - b) E. Teylor
 - c) T. Parsons
 - d) Sharl de-Bros
29. 2000 yilda Islom talimotining buyuk namoyandalaridan kimning 1130 yilligi nishonlanadi?
- a) Imom Moturudiy
 - b) Imom Termiziy
 - c) Imom Buxoriy
 - d) Imom Samarqandiy
30. Urug' qabila dinlaridan biri.
- a) Mazdeizm
 - b) Lamaizm
 - c) Jaynizm
 - d) Animizm

4-VARIANT

1. «Fetishizm» atamasi kim tomonidan, qachon e'tirof etilgan?

- a) Maks Myuller, 1786 yil
 - b) E. Teylor, 1871 yil
 - c) Sharl de Bros, 1760 yi
 - d) Jon Long, 1791 yil
2. Yangi tahrirdagi “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida” gi qonun nechta moddadan iborat?
- a) 23
 - b) 18
 - c) 35
 - d) 33
3. “E’tiqod atamasi qanday ma’noni anglatadi?”
- a) Iymonli bo‘lish
 - b) Ishonch, iymonli bo‘lish
 - c) ishonch
 - d) ergashish
4. 10/40 oyna rejasi qanday loyiha va kimlarga tegishli?
- a) Missionarlarga tegishli, masofaga nisbatan ishlatiladi
 - b) Xristianlarga tegishli, oldingi dinlarga nisbatan ishlatiladi
 - c) Dindorlarga tegishli, jahon dinlariga nisbatan.
 - d) Jihodchilarga tegishli, maxfiy guruhlariga nisbatan.
5. Moniy so‘zining ma’nosi nima?
- a) So‘nmas nur
 - b) Nurli yg‘l
 - c) Nurlangan
 - d) Ikki mohiyat nuri
6. “Qur’oni Karim” qaysi xalifa davrida va qaysi yili ilk bor to‘plam shakliga keltirilgan?
- a) Xalifa Abu Bakr davrida, 634 yil
 - b) Xalifa Umar davrida, 644 yil
 - c) Xalifa Usmon davrida, 651 yil
 - d) Xalifa Ali davrida, 661 yil
7. Qaysi din umumiy lashtiruvchi din bo‘lgani sababli to‘g‘ridan to‘g‘ri “payg‘ambar”ning yozma buyruqlariga asoslanadi.
- a) Moniylik
 - b) Tangrichilik
 - c) Veda dinlari
 - d) Yahudiylik
8. Diniy tashkilotlar faoliyat yuritish uchun qayerdan ro‘yxatdan o‘tadilar?
- a) Adliya vazirligidan
 - b) Diniy Qo‘mitadan
 - c) IIV va DXXdan
 - d) O‘zbekiston Musulmonlar idorasidan
9. Dinshunoslik fani dinlarni necha tarixiy turga bo‘ladi?
- a) Ibtidoiy dinlar va monoteistik dinlar
 - b) Politeistik va milliy dinlar
 - c) Urug‘-qabila dinlari, milliy dinlar va jahon dinlari
 - d) Jahon dinlari va ibtidoiy dinlar
10. Ko‘pxudolik dinlari fanda qanday nomlanadi.
- a) Monoteizm
 - b) Politeizm
 - c) Teologiya
 - d) Fideizm
11. «Monoteizm» ning manosi nima?

- a) Yakkaxudolik
 - b) Ko'pxudolik
 - c) Diniy talimot
 - d) Teologiya
12. Qaysi xarobalaridan topilgan yirik ibodat majmuasida 25 ta Budda kompleksi (Buddaning tikka turgan, o'tirgan va yotgan holdagi haykallari 3–4 metrgacha balandlikda loy–ganchdan ishlangan) borligi aniqlangan?
- a) Zartepa
 - b) Qadimgi Termiz
 - c) Quva
 - d) Qorovultepa
13. Movorounnaxrni uzil kesil islom diniga bo'ysundirgan arab lashkarboshisini aniqlang?
- a) Kutayba ibn Muslim
 - b) Bobak
 - c) Muoviya
 - d) Mukanna
14. Missionerlik va prozelitizm o'rtasida qanday farq bor?
- a) Birinchisi da'vat ikkinchisi harakat
 - b) Ikkalasi ham bir ma'noni beradi
 - c) Xech qanday
 - d) Teran anglash va bilish
15. ... (lotincha – «qo'rqitish», «vahimaga solish») – aholining keng qatlamlarida dahshat va qo'rquv uyg'otish, jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarish orqali davlat hokimiyatini egallash maqsadiga qaratilgan jinoiy faoliyatdir.
- a) Fundamentalizm
 - b) Aqidaparastlik
 - c) Radikalizm
 - d) Terrorizm
16. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida dinlarni ilmiy tadqiq qilishda kimlar Gollandiyada izchil faoliyat olib borganlar?
- a) Van der Lyu, R.Otto
 - b) S.R.Tile, Shantepi de la Sosse
 - c) R.Pettazoni, J.Vax
 - d) G.Menshing, J.Vax
17. Yahudiylar maschidi qanday nomlanadi?
- a) Butxona
 - b) Ibodatxona
 - c) Cherkov
 - d) Sinagoga
18. Islom dinini birinchilar qatori qabul qilgan Muhammad payg'ambar yaqinlari.
- a) Xadicha, Ali, Xoris
 - b) Umar, Usmon, Xamza
 - c) Abu Bakr, Abu Laxab, Abu Jazl
 - d) Ali, Oysha, Xabiba
19. Germaniyalik olim Myuller va uning zamondoshlari dinlarni ilmiy tadqiq qilishda nimani muhim deb bilishgan?
- a) psixologiyani
 - b) fizikani
 - c) astralogiyani
 - d) filologiyani
20. «Konfessiya» so'zining ma'nosi nima?
- a) bag'rikenglik

- b) diniy jamoa
 - c) bahamjihatlik
 - d) birlashtiruvchilik
21. Abu Bakr davrida jamlangan Qur'oni Karim qanday nomlangan?
- a) Suhuf
 - b) Mushaf
 - c) Sunnat
 - d) Ijmo
22. "Din" so'zi rus tilida qanday ataladi?
- a) Vera
 - b) Religiya
 - c) Dana
 - d) Dauna
23.-bu to'g'ridan-to'g'ri biron bir dinga ishongan fuqaroni majburan o'z dinidan voz kechishi va o'zga dinni qabul qilishga majbur qilishdan iborat.
- a) Prozelitizm
 - b) Missonerlik
 - c) Mutaassiblik
 - d) Aqidaparastlik
24. "Dinshunoslik" atamasini birinchi marta kim qo'llagan?
- a) Maks Myuller
 - b) Beruniy
 - c) Geradot
 - d) Dyuperon
25. Dinlar haqida dastlabki ma'lumotlar qaysi tarixchi tomonidan asoslab berilgan?
- a) Pifagor
 - b) Gerodot
 - c) Farobiy
 - d) Zamaxshariy
26. Qaysi tashkilot ISHID ning tashkil topishida muhim o'rin tutgan?
- a) «al-Qoida»
 - b) «Jixod ittixodi»
 - c) «Tolibon»
 - d) «Lashkari toyba»
27. Markaziy Osiyoda Yahudiylarning birinchi sinagogasi qachon va qayerda qurilgan?
- a) VIII asrda Buxoroda
 - b) VII asrda Samarqandda
 - c) IX asrda Toshkentda
 - d) X asrda Marvda
28. Zardushtiylikdagi "Atarxurra" qanday ma'noni bildiradi?
- a) muqaddas olov
 - b) muqaddas er
 - c) muqaddas osmon
 - d) muqaddas xudo
29. «Totemizm» atamasi ilk marotaba kim tomonidan, qachon e'tirof etilgan?
- a) E. Teylor, 1871 yil
 - b) B. Botsman, 1797 yil
 - c) Maks Myuller, 1786 yil
 - d) Jon Long, 1791 yil
30. ... bobdan tashkil topgan bo'lib, ma'budlar sha'niga o'qiladigan duo va pand-nasihatlardan iborat.
- a) "Visparad" – 24

- b) “Yasht” – 22
- c) “Yasna” – 72
- d) “Videvdat” – 22

5-VARIANT

1. Islom dini Markaziy Osiyoga qachon kirib keldi?
 - a) VI asr oxiri VII asr boshlarida
 - b) VIII asr oxiri IX asr boshlarida
 - c) VII asr oxiri VIII asr boshlarida
 - d) IX –X asrlarda
2. Hozirgi kunda Buddizm qaysi mamlakatning davlat dini hisoblanadi
 - a) Yaponiya
 - b) Xitoy
 - c) Indoneziya
 - d) Koreya
3. Germaniyalik olim Myuller va uning zamondoshlari dinlarni ilmiy tadqiq qilishda nimani muhim deb bilishgan?
 - a) filologiyani
 - b) psixologiyani
 - c) fizikani
 - d) astralogiyani
4. Olimlar muayyan e’tiqod din deb atalishi uchun nechta asosiy xususiyatga ega bo’lishi lozimligini ta’kidlaydilar.
 - a) 2 ta
 - b) 3 ta
 - c) 4 ta
 - d) 5 ta
5. ilohlar tabiatning bir bo’lagi sifatida tasavvur qilingan, insonlarga o’xshab ketadigan, biroq g’ayrioddiy yaratuvchilik, buzg’unchilik, rizqlantiruvchilik kabi kuchlarga ega bo’lgan Xudolardir.
 - a) Immanent
 - b) Transsendent
 - c) Immanent, Transsendent
 - d) kultlar
6. Zardushtiylik ta’limotiga ko’ra, Zardusht o’ttiz yoshga yetganida unga payg’ambarlik vazifasi berilgan. U o’z tarafdorlari bilan birga Aivita suvi qirg’oqlarida xilvat (yolg’izlik, chilla)ga chiqib ketgan. Xilvatning nechanchi kechasi samoga ko’tarilib ketgan?
 - a) 30–kechasi
 - b) 45–kechasi
 - c) 72–kechasi
 - d) 50–kechasi
7. Sayohatchi Veniamin Tudelskiy o’z kundaliklarida yozib qoldirishicha, 1170 yilda birgina qaysi 30 000 yahudiy yashagan.
 - a) Samarqandda
 - b) Buxoro
 - c) Toshkent
 - d) Andijon
8. tushunchasini dastlab kanadalik yozuvchi Uilyam Gibson 1982 yil «Sojjenie Xrom» («Burning Chrome») nomli hikoyasida yozadi.
 - a) Kibermakon
 - b) Axborot urushi
 - c) Virtual olam
 - d) Virtual oyin

9. Kibermakon kompyuter tarmoqlari orqali amalga oshiriladigan muloqot maydonini ifodalovchi voqelik sifatida qachondan boshlab keng miqyosida rivojlanib, takomillashib kelmoqda?

- a) 1980 yildan
- b) 1970 yildan
- c) 1990 yildan
- d) 1960 yildan

10. Bugungi kunda o'z hayot mazmunini onlayn tizimida ko'rayotgan yoshlarning katta qismi — 4,5 millioni(2012 yil ma'lumoti) qaysi davlatga to'g'ri keladi.

- a) Fransiya
- b) Buyuk Britaniyaga
- c) Gollandiya
- d) Rossiya

11. Qaysi olim "Har qanday ijtimoiy sistema muayyan cheklovlarsiz mavjud bo'la olmaydi. Buning uchun u qonun darajasiga ko'tarilgan axloq normalarini ishlab chiqishi kerak"-degan edi?

- a) M.Myuller
- b) T. Parsons
- c) E. Teylor
- d) Sharl de-Bros

12. Kim o'zini avvalgi dinlarning "to'g'rilovchi payg'ambari" deb e'lon qilgan. va xristianlikdan messionizm hamda "Masih" e'tiqodini o'zlashtirgan.

- a) Iso
- b) Mazdak
- c) Mahdiy
- d) Moniy

13. Yaratuvchi bilan insonni bog'lab turadigan ibodat va marosimlar majmui (qurbonlik, ro'za, bayramlar) nima deb ataladi?

- a) Sur
- b) Kut
- c) Kult
- d) Tin

14. Arab tilida "xabarchi, xabar yetkazuvchi" ma'nosini bildiruvchi payg'ambarlar nima deb ataladi?

- a) Muftiy
- b) Nabiy
- c) Mahdiy
- d) Rasul

15. Qaysi badda mashhur to'rt farishta to'g'ri ko'rsatilgan?

- a) Jabroil, mikoil, isrofil, azroil.
- b) Jabroil, isroil, azroil, mikoil
- c) Jabroil, isrofil, munkar-nakir, mikoil
- d) Jabroil, azroil, isrofil, munkar-nakir

16. Qaysi badda sunniylik oqimining mazhablar to'g'ri ko'rsatilgan?

- a) Hanafiy, hanbaliy, shofe'iy, shi
- b) Hanafiy, shofe'iy, moturidiy, ash'ariy
- c) Hanafiy, shia, molikiy, ash'ariy
- d) Hanafiy, molikiy, hanbaliy, shofe'iy

17. Qaysi badda xristianlik tarixidagi eng birinchi bo'linish sanasi to'g'ri keltirilgan?

- a) 1152 yil
- b) 1052 yil
- c) 1154 yil

- d) 1054 yil
18. Xristianlik birinchi marta qaysi mamlakatning davlat dini deb e'lon qilingan?
- Falastin
 - Konstantinopol
 - Vizantiya imperiyasi
 - Rim imperiyasi
19. Qaysi xarobalaridan topilgan yirik ibodat majmuasida 25 ta Budda kompleksi (Buddaning tikka turgan, o'tirgan va yotgan holdagi haykallari 3–4 metrgacha balandlikda loy–ganchdan ishlangan) borligi aniqlangan?
- Zartepa
 - Qadimgi Termiz
 - Quva
 - Qorovultepa
20. Quyidagilardan qaysi biri milliy dinlar toifasiga kirmaydi?
- Sintoizm
 - Konfutsizm
 - Hinduizm
 - Buddizm
21. Qaysi qadimiy din tunguschada “O'ta hayajonlangan, jazavali kishi” ma'nosini bildiradi?
- Magiya
 - Shomoniylilik
 - Yaxudiylik
 - Konfutsiylik
22. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddasida vijdon erkinligi kafolatlanadi?
- 35-modda
 - 22-modda
 - 18-modda
 - 29-modda
23. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddasida “...Maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish taqiqlanadi” degan so'zlar bitilgan?
- 54-moddada
 - 71-moddada
 - 55-moddada
 - 57-moddada
24. Fundamentalizm iborasi ilk bor qachon muomalaga kiritilgan?
- 1945 yilda
 - 1910 yilda
 - 1999 yilda
 - 1890 yilda
- 25 ... bobdan tashkil topgan bo'lib, ma'budlar sha'niga o'qiladigan duo va pand–nasihatlardan iborat.
- “Visparad” – 24
 - “Yasht” – 22
 - “Yasna” – 72
 - “Videvdat” – 22
26. Sharqda, y'ani islom dunyosida fanatizmning nomlanishi.
- Mushrikiylik
 - Mutazilliylik
 - Mutaassiblik
 - Mutakallimlik

27. Muso paygʻambarga nozil boʻlgan kitob.
- a) Injil
 - b) Tavrot
 - c) Tripitaka
 - d) Veda
28. Oʻzbekiston fuqarolari amal qiladigan islom mazxabi va uning asoschisi.
- a) Xanafiya-Imom Azam, Xanafiylik mazxabi
 - b) Xanbaliya-Imom-Xanbal, Hanbaliylik mazxabi
 - c) Molekiya-Imom Onnas, Molikiya mazxabi
 - d) Shofeiya-Imom Shofe, Shofeiya mazxabi
29. Toshkent shahri qachon va qaysi nufuzli tashkilot tomonidan islom madaniyati poytaxti deb eʼlon qilindi.
- a) 2004 yil BMT
 - b) 2005 yil Yunesko
 - c) 2002 yil MDH
 - d) 2007 yil Aysesko
30. XI asr oxirida Eronda yuzaga kelib, maxfiy ravishda ish koʻrgan terrorchilik oqimi ...?
- a) Qarmatiylar
 - b) Hashshoshiylar
 - c) Azraqiylar
 - d) Nurchilar

FAN BO‘YICHA TALABALAR BILIMINI BAHOLASH VA NAZORAT QILISH MEZONLARI

Baholashni 5 baholik shkaladan 100 ballik shkalaga o‘tkazish JADVALI

5 baholik shkala	100 ballik shkala	5 baholik shkala	100 ballik shkala	5 baholik shkala	100 ballik shkala
5,00 — 4,96	100	4,30 — 4,26	86	3,60 — 3,56	72
4,95 — 4,91	99	4,25 — 4,21	85	3,55 — 3,51	71
4,90 — 4,86	98	4,20 — 4,16	84	3,50 — 3,46	70
4,85 — 4,81	97	4,15 — 4,11	83	3,45 — 3,41	69
4,80 — 4,76	96	4,10 — 4,06	82	3,40 — 3,36	68
4,75 — 4,71	95	4,05 — 4,01	81	3,35 — 3,31	67
4,70 — 4,66	94	4,00 — 3,96	80	3,30 — 3,26	66
4,65 — 4,61	93	3,95 — 3,91	79	3,25 — 3,21	65
4,60 — 4,56	92	3,90 — 3,86	78	3,20 — 3,16	64
4,55 — 4,51	91	3,85 — 3,81	77	3,15 — 3,11	63
4,50 — 4,46	90	3,80 — 3,76	76	3,10 — 3,06	62
4,45 — 4,41	89	3,75 — 3,71	75	3,05 — 3,01	61
4,40 — 4,36	88	3,70 — 3,66	74	3,00	60
4,35 — 4,31	87	3,65 — 3,61	73	3,0 dan kam	60 dan kam

A’lo - “5” baho – berilgan topshiriq mohiyatini to’liq tushungan holda yoritib bera olsa, mavjud muammolar haqida mustaqil mushohada yurita olsa, berilgan topshiriq bo’yicha ijodiy fikrlay olsa va ular haqida to’g’ri xulosa va qaror qabul qila olsa, so’z boyligini amalda to’g’ri qo’llay olsa, mavzu bo’yicha muammo va ularning yechimini bilsa va ularni hal qilish yo’llarini o’zi yozgan matn (insho, esse kabi) mazmunida to’liq aks ettirgan bo’lsa;

Yaxshi - “4” baho – berilgan topshiriq bo’yicha mustaqil fikrlay olsa, so’z boyligini amalda qo’llay olsa, topshiriq bo’yicha muammolarni hal qilish yo’llarini bilsa, mavzuga doir muammolar haqida tasavvurga ega bo’lsa, matn (insho, esse kabi) mazmuniga e’tibor bersa;

Qoniqarli - “3” baho – masala mohiyatini tushunsa, ammo bayon etishda kamchiliklarga yo’l qo’ysa, mavzuni bilsayu ammo uni yoritishda ayrim xatolarga (imlo xatolariga) yo’l qo’ygan bo’lsa, mavzu haqida tasavvurga ega bo’lsayu, ammo amalda bayon eta olmasa;

Qoniqarsiz - “2” baho – fan bo’yicha aniq tasavvurga ega bo’lmasa va fanni o’zlashtirmagan bo’lsa qo’yiladi.

Bunda:

Oraliq nazorat: darslar davomida o’rganilgan materiallar asosida yozma yoki o’g’zaki shaklda va mustaqil ta’lim mashg’ulotlari natijalari asosida o’tkaziladi. **(30 ball)**

Joriy nazorat: darslar mashg’ulotlari davomida to’plab boriladi. **(20 ball)**

Yakuniy nazorat: semestr davomida o’rganilgan mavzular asosida yozma yoki og’zaki (test) usulida o’tkaziladi. **(50 ball)**

Talabalarining **yakuniy baholash(YaB)** bo’yicha o’zlashtirish ko’rsatkichlari “5”(50 ball) baholi tizim asosida baholanadi.

Kredit tizimida talabalar bilimni baholash tartibi

Umumiy ball: 100 ball (JN-20 ball, ya'ni 100%, ON-30 ball, ya'ni 100%, YaN 50 ball, ya'ni 100 %)

ON, JN, YaN (maruza, seminar, mustaqil ta'lim)

Ma'ruza (ON-30%, ya'ni 30 ball)

Seminar (JN-20%, ya'ni 20 ball)

Kurs yakunida (YaN-50%, ya'ni 50 ball)

JN balini bahoga konvertatsiyalash	ON balini bahoga konvertatsiyalash
0-11,5 ballgacha - "2" baho 12-13,5 ballgacha - "3" baho 14-17,5 ballgacha - "4" baho 18-20 ballgacha - "5" baho	0-17,5 ballgacha - "2" baho 18-20,5 ballgacha - "3" baho 21-26,5 ballgacha - "4" baho 27-30 ballgacha - "5" baho
Yakuniy ballni bahoga konvertatsiyalash	Umumiy ballni bahoga konvertatsiyalash
0-29,5 ballgacha - "2" baho 30-34,5 ballgacha "3" baho 35-44,5 ballgacha - "4" baho 45-50 ballgacha - "5" baho	0-59 ballgacha - "2" baho 60-69 ballgacha "3" baho 70-89 ballgacha "4" baho 90-100 ballgacha - "5" baho